






YUSUF MAHMUDOV

# ZOOLOGIYADAN 8888 SAVOLGA JAVOB

1-KITOB



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

T. N. QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

YUSUF MAHMUDOV

# ZOOLOGIYADAN 8888 SAVOLGA JAVOB

*Birinchi kitob*

ТОШКЕНТ
«YANGI NASHR»
2017

**UO'K: 54 (079.1)**
**KBK: 24ya2**
**M 37**

*T. N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining 2015-yil 25-dekabrdagi 13-sonli bayonnomasiga asosan ilmiy kengashda nashr etishga tavsiya qilgan.*

**Mahmudov, Yusuf**
Zoologiyadan 8888 savolga javob. Birinchi kitob / Yu. Mahmudov. – Toshkent: «Yangi nashr», 2017. – 528 b.
**KBK: 24ya2**

ISBN 978-9943-22-279-3

Mas'ul muharrir:
*O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, biologiya fanlari doktori, professor, Sh. X. Xurramov; pedagogika fanlari doktori, professor H. T. Omonov.*

Taqrizchilar:
*biologiya fanlari doktori, professor Q. Davronov;*
*pedagogika fanlari nomzodi X. Norbo'tayev;*
*Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi biologiya o'qituvchisi M. X. Xolmirzaeva.*

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmada hayvonot olamining turli-tumanligi, hayvonlarning tuzilishi, hayot faoliyati, ularning tarqalishi, yashash muhiti bilan munosabati, individual va tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlariga oid, shuningdek, bir hujayrali hayvonlar, parazit chuvalchanglar, qisqichbaqasimonlar, o'rgimchaksimonlar, kanalar, hasharotlar, baliqlar, suvda va quruqlikda yashovchilar hamda sudraluvchilar, qushlar, sut emizuvchilar va boshqa jonivorlarga doir 8888 ta savolga faqat bitta to'g'ri javob berilgan.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma uzluksiz ta'lim tizimi o'quvchi-talabalariga, magistrantlarga, ilmiy izlanuvchilarga, professor-o'qituvchilarga mo'ljallangan, shuningdek, undan abituriyentlar ham foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-22-279-3

© "Yangi nashr", 2017

*Siz emaski, fan-qayiqqa ham, kemaga ham hah-barobar ochiq dengizday gap. Biri unda oltin yombi tashisa, boshqasi qarmoq tashlab baliq ovlaydi.*

E. J. Bulver-Litton

## SO'ZBOSHI

Ma'lumki, tirik materiya vakillari quyidagi uch guruhga bo'linadilar:

1. Hayvonlar (ushbu guruhga "Homo sapiens" – "Aqlli odam" biologik turi ham mansub).
2. O'simliklar (ularning tuban va yuksak guruh vakillari yobud ochiq urug'li hamda yopiq urug'lilar deb ataluvchi turlari farq qilinadi).
3. Mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, faglar, shakllangan va shakllanmagan hujayraviy qurilmalar, hali-hanuzgacha fanga ma'lum bo'lmagan tiriklik belgilarini tashuvchi sodda tuzilmalar va boshqalar).

Yer sharining tirik organizmlar tarqalgan sferasining miqyosi ham o'ta nisbiydir. Masalan, ionosferada ham yashaydigan organizmlar mavjudligi ma'lum. Gidrosfera quyi qatlamlarining biovakillari haqidagi ma'lumotlar esa to'liq va aniq emas. Birgina Tinch okeanning eng chuqur joyi – Mariana botig'i (teranligi – 11022 m) qanday flora (nabotot olami) va fauna (hayvonot olami) vakillariga egaligi aniq emas. Yer qa'rining qaysi va qanday chuqurligida qanday mikroorganizmlar borligi va mavjudligining qamrovi aniqlanmagan. Ular oltingugurt yoki temir bakteriyalari yoxud hozirgacha fan o'rganib ulgurmagan noma'lum va o'ta maxfiy tiriklik vakillari bo'lishi mumkin.

Yer sharining tirik organizmlar uchraydigan va yashaydigan miqyosi biosfera deb ataladi va uning massasi $10^{12} – 10^{15}$ t ekanligi taxmin qilinadi.

Hayot deb atalmish mo''jizaviy hilqatda o'simliklarning alohida o'rni bor, albatta. Birinchidan, ular hayot vakillari uchun eng oliy moddiy qadriyat – kislorodni ajratib, to'ldirib, yangilab va bekamiko'st ravishda etkazib turadilar. Ko'pchilik bu jarayonni bis etishda yashil saltanatning quruqlikdagi vakillari – daraxtlar, butalar, maysalar, moxlar, lishayniklar va zamburug'larni tushunadilar. Vaholanki, biz nafas olayotgan atmosfera havosining



DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 30660

asosiy komponenti bo'lgan kislorodning ikki qismini obihayotning "malikalari" hisoblanadigan suv o'tlari ajratib beradilar. Bu borada yashil, ko'k-yashil, qizil, qo'ng'ir, diatom va boshqa turfa suv o'tlari hayot mashinasining haqiqiy "dvigatellari" yoxud tom ma'nodagi "lokomotivlaridir".

Yashil olam vakillari hayot uchun eng zarur ushbu unsur – kislorodni eng arzon va bitmas-tuganmas manba – suvdan olib uzatadilar. Bunda ular Quyoshdek saxiy va sertaft "tandir"ning issiqlik va yorug'lik energiyasidan tejamkorlik bilan foydalanadilar.

$6CO_2 + 6N_2O \rightarrow C_6H_{12}O_6 + 6O_2$

Erkin kislorod ushbu jarayonda suvdan ajratib chiqishini olimlar suvning fotolizm evaziga paydo bo'lishi natijasi ekanligini radioaktiv izotoplar yordamida allaqachonlar isbotlaganlar.

Fotosintez, ya'ni Quyosh energiyasi yordamida karbonat angidrid va suvdan organik moddalar va erkin kislorodning hosil qilinishi – tirik tabiatning eng buyuk ajoyiboti.

Atmosferani kislorod bilan ta'minlash funktsiyasi o'simliklarning buyuk kosmik roli deyiladi.

Oziq-ovqat, dori-darmon (darmondorilar), go'shalar (mikroiqlim) va yoqilg'i kabilarni o'simliklarsiz tasavvur qilib ham bo'lmaydi. Sun'iy yoki sintetik gazlamadan tikilgan eng bejirim va eng so'nggi moda urfida yaratilgan ko'ylakdan qochib, tabiiy toladan dunyoga kelgan, ya'ni paxta, jun, ipak yoki zig'ir va kanopli kiyimlarga bosh egishimizni eslaylik, loaqal!

Dasturxonimizning bezagi va ko'rki bo'lgan eng aziz va eng e'zozli ne'mat – non ham o'simliklar dunyosining bizga bergan ulug' va betakror tortig'i. Shu bois donli va boshoqli fitodunyoga qancha ta'zim qilsak shunchalar ozdir! Sholi guruch bermasa, palovxonto'ra bo'larmidi? Choyxonalarda ulfatlarning suhbatlari g'arib bo'lib qolmasmidi?

Ko'knori shirasi tarkibidan 25 dan ziyod turdagi alkaloidlar ajratib olingan bo'lib, ularning aksariyati og'ir ahvoldagi bemorlarning joniga oro bo'lmoqda.

Bu yorug' olamning behisht jannatidan qanday ajoyib ho'l va quruq mevalar, poliz va rezavor mahsulotlari, ko'zni quvontiruvchi va dilni yayratuvchi go'zallik ramzi bo'lgan gullar ham hayotga ajoyib zeb beradilar.

Hayvonlar va mikroorganizmlar o'simliklarsiz yashay olmaydilar. Tom ma'noda, ular o'simliklarga qaramdirlar.

Yashil saltanatning vakillari, ularning tur va navlari, rangi va hidlari, foydali va zararli jihatlari, tarqalish areallari va o'lchamlari, o'sish va rivojlanish hamda ko'payish usullari ham xilma-xildir.





Birgina ularning o'lchamlari haqidagi ma'lumotlar ham bizni chuqur o'ylarga toldiradi. Eng baland bo'yli odam 2,75 m atrofida bo'lsa, eng yirik Afrika filining balandligi 5 m gacha boradi. Yo'l-yo'l kitning uzunligi 30 m gacha etadi. Qirilib bitgan qadimgi bahaybat sudralib yuruvchilarning o'lchamlari ham 40 m dan oshmagan. Avstraliya evkalipti eng baland bo'yli o'simlik bo'lib, uning 155 m bo'yli vakilining balandligi aniq o'lchangan. Bu Sankt-Peterburgning mashhur osmono'par binosi – Petropavlovsk qal'asining balandligidan 5 m ga novcharoqdir. Bu evkaliptning bo'yi dunyoni lol etgan Eyfel (Parij) minorasi balandligining yarmida ham 5 m bo'ydorroqdir. Novchalik bobida ikkinchi o'rinni Kaliforniyaning mamont daraxtlari, ya'ni sekvoyyalar egallaydi. Tropik changalzorlarida o'suvchi chirmashuvchan lianalar uzunligi ham rekordga da'vogardir. Potang palmasining chirmashuvchi poyasi uzunligi 300-400 m gacha etadi. Tinch okeanining janubiy qismida keng tarqalgan qo'ng'ir suv o'ti – makrotsistis piriferaning poyasi ham shu kabi o'lchamlarga ega. Bularning orasida mikroskopik o'lchamli vakillar ham borligini unutmaslik kerak. Guli ko'zga tashlanmaydigan eng kichik gulli o'simliklar – baqato'n va volfiyalar bunga misol bo'la oladilar. Eng zamonaviy mikroskoplar ostida zo'rg'a ko'z ilg'aydigan bakteriya va mikroblar haqida gapirmasak ham bo'ladi.

Ularning hammasi birgalikda "uchinchi sayyora", ya'ni ona – Zaminimizning flora boyligini tashkil etadilar.

Ushbu qo'llanma muallifi kitobxonni o'simliklarning sehrli olamiga olib kiradi va uning eng ajoyib-g'aroyib siru sinoati bilan tanishtiradi. Bu uslubiy qo'llanma ko'pchilik uchun bebaho va boy ma'lumotnoma – xazina rolini o'ynaydi, deb o'ylaymiz. Shu o'rinda muallifning zargarona va mashaqqatli mehnatini e'tirof etish o'rinli.

## ZOOLOGIK POEZIYA

Ot bo'lmaganda eshak ham ulov,
Kimlardir bug'uli chanada uchar
Hayvonot olami hayotga yalov,
O'lchamlari ona-Zaminni quchar.

Qushlar qo'sh qanot-la osmonga etar,
Ne-ne darranda Yer qa'rida yotar.
Baliqlar ummonda shataloq otar,
Qo'sh ho'kiz dalani hosildor etar.

Bolari ming dardni bartaraf qilur,
Sadafga qamalib qatra dur bo'lur.
Bulbul xonishidan gullar ochilur,
Inson mehnatidan nasiba to'lur.

Quralay ko'zlari shod etar dilni,
Bo'ri tishi bolalarga ko'zmunchoq.
Hindistonning ramzi bo'lgan bir filni
Quchmoqqa etmaydi o'n ikki quchoq.

O'rgimchakning arg'imchog'i qopqondir,
O'zi kelib tushar o'ljani poylar.
Mittivoy chittakning nafsi o'pqondir,
Dehqonga yordami tegar yil-oylar.

Yumronqoziq er bag'rini tirnaydi,
Chumchuqning yuragi tordek titraydi.
Qushlarning eng sho'xi jiblajibondir,
Zahri zo'rning karvonboshi ilondir.

Ipak yo'lin changitmishdir tuyalar,
Yigitlarga qimiz tutmish biyalar.
Yigit qizga, qiz yigitga intiqdir,
Nikoh tuni eng lazzatli tortiqdir.

Ey, olam qiroli – Hazrati Inson,
Bosgan izlaringda yaralsin bo'ston!
Osmon yuzin zinhor to'smasin to'zon,
Bevaqt to'kilmasin biror tomchi qon!

***O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, biologiya fanlari doktori, professor Shukur Xurramovich Xurramov; pedagogika fanlari doktori, professor Hojiqul Tovboevich Omonov.***





1. Aberdin-Angus qoramoli qayerda yetishtiriladigan sergo'sht zot sanaladi? **Shotlandiyada.**

2. Aberdin-Angus qoramol zoti qaysi mamlakatlarda boqiladi? **AQSh, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Argentina va boshq. mamlakatlarlarda boqiladi.**

3. Aberdin-Angus qoramol zoti bo'rdoqi qilib so'yilganda necha foiz go'sht beradi? **60 foiz.**

4. Aberdin-Angus qoramol zoti sigirlarining tirik og'irligi qancha kg bo'ladi? **500 – 530 kg.**

5. Aberdin-Angus qoramol zotining rangi qanday? **Qora.**

6. Aberdin-Angus qoramol zoti qaysi a'zosiz? **Shoxsiz.**

7. Aberdin-Angus qoramol zotining tanasi shakli qanday? **Silindrsimon.**

8. Aberdin-Angus qoramol zotining oyoqlari uzunmi yoki kalta? **Kalta, baquvvat.**

9. Aberdin-Angus qoramol zotining 15 – 16 oylik axtalangan buqachalari qancha kg go'sht qiladi? **450 – 460 kg.**

10. Aberdin-Angus qoramol zotini jaydari qoramol zotlari bilan chatishtirish ishlari O'zbekistonda nechanchi yildan boshlangan? **1960-yildan boshlangan.**

11. Abu Ali ibn Sinoning qaysi asarida odamda parazitlik qiluvchi gelmintlar to'g'risida ma'lumot berilgan? **"Kitob ash-shifo" asarida ma'lumot berilgan.**

12. Abu Ali ibn Sinoning "Kitob ash-shifo" asaridagi qaysi gelmintlarning nomlari hozirgacha saqlanib qolingan? **Qovoqsimon qurt, mitti qurtlarning nomlari hozirgacha saqlanib qolingan.**

13. Abu Rayhon Beruniy nechta hayvon va ulardan olinadigan dori-darmonlar to'g'risida yozib qoldirgan? **101 ta hayvon va ulardan olinadigan dori-darmonlar to'g'risida yozib qoldirgan.**

14. Abu Rayhon Beruniyning qaysi asarida o'lka hayvonlari to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar kiritilgan? **"Hindiston" (1030) asarida qiziqarli ma'lumotlar kiritilgan.**

15. Avliyoota qoramol zoti qanday yo'l bilan yaratilgan? **XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qirg'izistonning Talas vodiysi va Qozog'istonning Avliyoota nezdi (hoz. Jambul viloyati)da jaydari zotlarni golland qoramol zotlari bilan chatishtirishdan olingan avlodlarni o'zaro urchitish yo'li bilan yaratilgan.**

16. Avliyoota qoramol zoti nechanchi yilda rasman tasdiqlangan? **1950-yilda rasman tasdiqlangan.**

17. Avliyoota qoramol zotining rangi, asosan, qanday? **Asosan, ola, ba'zan, qora.**

18. Avliyoota qoramol zoti buqalarining tirik og'irligi qancha kg? **800 – 950 kg.**

19. Avliyoota qoramol zoti sigirlarining tirik og'irligi qancha kg? **450 – 530 kg.**

20. Avliyoota qoramol zotining buzoqlari tug'ilganda og'irligi qancha kg? **32 – 36 kg.**

21. Avliyoota qoramol zotining buqalari olti oyligida tirik og'irligi qancha kg? **150 – 180 kg.**

22. Avliyoota qoramol zotli sigirlar bir yilda qancha l sut beradi? **3000 – 3800 l, ba'zilari 8000 l gacha sut beradi.**

23. Avliyoota qoramol zotli sigirlar sutining yog'liligi necha foiz? **3,8 – 3,9 foiz.**

24. Avliyoota qoramol zotli hayvonlar, asosan, qaysi Respublikalarda tarqalgan? **Qirg'iziston, Qozog'iston Respublikalarida tarqalgan.**

25. Avliyoota qoramol zoti O'zbekistonning qaysi viloyatlarida boqiladi? **Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida boqiladi.**

26. Avstraliya Taypan ilonining zahri necha nafar kishini o'ldirishi mumkin? **100 nafar kishini o'ldirishi mumkin.**

27. Avstraliya merinosi mayin junli qaysi jonivor (hayvon) zoti? **Qo'y zoti.**

28. Avstraliya merinosi qo'chqorlarining o'rtacha og'irligi qancha kg? **60 – 70 kg.**

29. Avstraliya merinosi sovliqlarining o'rtacha og'irligi qancha kg? **35 – 40 kg.**

30. Avstraliya merinosi qo'chqorlaridan qancha kg jun qirqib olinadi? **35 – 65 kg.**

31. Avstraliya merinosi sovliqlaridan qancha kg jun qirqib olinadi? **4 – 5 kg jun qirqib olinadi.**

32. Avstraliya merinosi O'zbekistonda boqiladigan qaysi qo'y zoti bilan chatishtirishdan olingan? **Groznen qo'y zoti bilan chatishtirishdan olingan.**

33. Avstraliya arratunshug'i (P. leichardti) arrasi yordamida suv tubidagi loydan qanday hayvonlarni kovlab olib yeydi? **Umurtqasiz hayvonlarni kavlab olib yeydi.**





34. Avstraliya qirg'oqlari yaqinida uchraydigan qaysi meduza odam uchun, ayniqsa, xavfli? **Xrizopsalmus meduzasi.**

35. Avstralorp tovuq zoti qaysi tovuq zotidan? **Ingliz qora "orpington" tovuq zotidan.**

36. Avstralorp tovuq zoti qayerda qachon qanday yo'l bilan yaratilgan? **Avstraliyada XIX asr oxirida saralash va juftlash yo'li bilan yaratilgan.**

37. Avstralorp tovuq zoti xo'rozining og'irligi qancha kg? **3,5 – 4 kg.**

38. Avstralorp tovug'ining og'irligi qancha kg? **2,5 – 3 kg.**

39. Avstralorp tovuq zoti yiliga o'rtacha nechta tuxum qiladi? **150 – 160 ta tuxum qiladi.**

40. Avstralorp tovuq zoti O'zbekistonga nechanchi yillarda keltirilgan? **1950 – 1953-yillarda keltirilgan.**

41. Avstralorp tovuq zoti O'zbekistonning qaysi viloyatlari parrandachilik xo'jaliklarida tarqalgan? **Toshkent va Samarqand viloyatlarida tarqalgan.**

42. Avstrolorp tovuq zotining tanasi qanday shaklda? **Yapaloqroq va cho'ziq shaklda.**

43. Avstrolorp tovuq zotining oyoqlari uzunmi yoki kalta? **Kalta.**

44. Avstrolorp tovuq zotining pati rangi qanday? **Qora.**

45. Avstrolorp tovuq zotining terisi rangi qanday? **Oq.**

46. Avstrolorp tovuq zotining tuxumi og'irligi qancha g? **60 g.**

47. Avstrolorp tovuq zoti sharoitga osonmi yoki qiyin moslashadi? **Oson moslashadi.**

48. Avstralopiteklar (lot. australis – janub va yunon. pithekos-maymun) qaysi eraning uchlamchi davri oxirlarida yashagan yuqori darajada rivojlangan, odamsimon maymunlar turi? Kaynozoy erasining. **Hozir urug'i qirilib ketgan.**

49. Avstralopiteklarning qoldiqlari birinchi marta nechanchi yilda qayerda, keyinchalik qayerlarda topilgan? **1924-yilda Janubiy Afrika (Kalaxari sahrosi)da, keyinchalik Sharqiy va Markaziy Afrikada topilgan.**

50. Avstralopiteklarning suyak qoldiqlarini tekshirish natijalari ularning necha oyoqlab yurishini ko'rsatgan? **Ikki oyoqlab yurishini ko'rsatgan.**

51. Avstralopiteklarning bosh miyasi hajmi hozirgi odamsimon maymunlarnikidan katta bo'lganmi yoki kichik bo'lganmi? **Katta (500 – 600 sm³) bo'lgan.**

52. Avstralopiteklarning tishlari qanday joylashgan? **Zich joylashgan.**

53. Avstralopiteklarning qaysi tishlari unchalik taraqqiy etmagan? **Qoziq tishlari unchalik taraqqiy etmagan.**

54. Aga, Amerika qurbaqasi, govqurbaqa qayerlarda yashovchi jonivorlar sinfiga va qaysi turkumga mansub qaysi qurbaqa sanaladi? **Suvda va quruqlikda yashovchilar sinfi – dumsizlar turkumiga mansub eng yirik qurbaqa sanaladi.**

55. Aga, Amerika qurbaqasining tanasi uzunligi necha sm dan ortiq? **25 sm dan ortiq.**

56. Aga, Amerika qurbaqasining eni necha sm ga yaqin? **12 sm ga yaqin.**

57. Aga, Amerika qurbaqasi qayerlarda tarqalgan? **Janubiy va Markaziy Amerikada hamda Antil orollarida tarqalgan.**

58. Aga kunduzi qayerda yashirinib yotadi? **Pana joyda yashirinib yotadi.**

59. Aga kechqurun va tunda nima qiladi? **Ov qiladi.**

60. Aga qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar, mollyuskalar, chuvalchanglar, mayda umurtqali hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

61. Agamalarning ayrim turlari Yevropaning yana qaysi hududlarida ham uchraydi? **Janubi – Sharqiy Yevropa hududlarida ham uchraydi.**

62. Agamalar qaysi oilaga mansub kaltakesaklar nimasi? **Agamasimonlar oilasiga mansub kaltakesaklar urug'i.**

63. Agamalarning qancha turi ma'lum? **70 ga yaqin turi ma'lum.**

64. Agamalarning tanasi shakli qanday? **Yassi.**

65. Agamalarning qaysi a'zosi uchburchak shaklda? **Boshi.**

66. Agamalarning dumi shakli qanday? **Silindrsimon yoki ikki yondan bir oz siqilgan.**

67. Agamalarning tanasi rangi qanday? **Xilma-xil rangda.**

68. Agamalardan erkaklarimi yoki urg'ochilarining tanasi rang-barang bo'ladi? **Erkaklarining tanasi rangi rang-barang bo'ladi.**





69. Agamalarning oldingimi yoki orqangi oyoq barmoqlari orasida suzgich pardasi bor? **Oldingi oyoq barmoqlari orasida.**

70. Agamalar qaysi hududlarda tarqalgan? **Afrika, Janubi-G'arbiy va Markaziy Osiyoning ochiq dasht, cho'l va toshloq tog'li hududlarida tarqalgan.**

71. Agamalarning ayrim turlari qayerda ham uchraydi? **Janubi-Sharqiy Yevropada ham uchraydi.**

72. Agamalarning O'zbekistonda qaysi turlari qayerlarda tarqalgan? **O'zbekistonning daryo vodiylari va cho'llarida cho'l agamasi, ya'ni kunqarg'ar (Agama sangyi nabnta), tog'li hududlarida Turkiston agamasi, ya'ni toshkaltak (Agama lohmani), Kavkaz agamasi (Agama caucasia), Himolay agamasi (Agama nimalayana), Pavlovskiy agamasi (Agama pawlowskii) tarqalgan.**

73. Agamalar qaysi jonivorlar bilan, shuningdek, qanday o'simliklar guli, barglari va mevasi bilan ovqatlanadi? **Har xil hasharotlar, o'rgimchaklar, ko'poyoqlilar va mayda kaltakesaklar, shuningdek, yashil o'simliklarning guli, barglari va mevasi bilan ovqatlanadi.**

74. Agamasimonlar – kaltakesaklar kenja turkumi tangachalilar turkumiga mansub qanday yuruvchilar nimasi? **Sudralib yuruvchilar oilasi.**

75. Agamasimonlar nechta uruqqa bo'linadi? **34 ta uruqqa bo'linadi.**

76. Agamasimonlarning qancha turi ma'lum? **300 ga yaqin turi ma'lum.**

77. Agamasimonlar qayerlarda tarqalgan? **Afrika, Janubiy va Markaziy Osiyoda, ayrim turlari Janubi-Sharqiy Yevropa, Avstraliya va Polineziyada tarqalgan.**

78. Agamasimonlar qayerlarda yashaydi? **Ochiq dasht, cho'l va toshloq joylarda yashaydi.**

79. Agamasimonlarning O'zbekistonda agamalar va to'garakboshlilar urug'lariga mansub qancha turi tarqalgan? **15 ga yaqin turi tarqalgan.**

80. Agami qaysi turkumga mansub qush? **Turnalar turkumiga mansub qush.**

81. Agami qushning ko'rinishi qaysi hayvonga o'xshaydi? **Sesarka tovug'iga o'xshaydi.**

82. Agami qushning bo'yi necha sm cha? **50 sm cha.**

83. Agami qushning qanoti necha sm cha? **30 sm cha.**

84. Agami qush gavdasining ko'p joyi rangi qanday? **Qora.**

85. Agami qushning qaysi a'zosi rangi qora-qizil? **Ko'kragi.**

86. Agami qushning qaysi a'zolari usti to'q kulrang va ba'zi yerlari ko'k nimalar bilan qoplangan? **Qanotlari va patlari bilan.**

87. Agami qush qayerlarda qanday bo'lib yashaydi? **Janubiy Amerikada, asosan, Amazonka daryosi atrofidagi o'rmonlarda gala-gala bo'lib yashaydi.**

88. Agami qush nima qilolmaydi? **Ucholmaydi.**

89. Agami qush tez nima qiladi? **Yuguradi.**

90. Agami qush uyasini qaerlarga quradi? **Daraxt kovaklari va shoxlariga quradi.**

91. Agami qush necha dona tuxum qo'yadi? **6 – 10 dona tuxum qo'yadi.**

92. Agami qush nimalar bilan ovqatlanadi? **Meva va hasharotlar bilan.**

93. Agami qush nimaga tez o'rganadi? **Qo'lga.**

94. Agar muhitda qaysi kimyoviy element bo'lsa, bakteriyalar, eng sodda hayvonlar, qisqichbaqasimonlar doim va uzluksiz o'zidan nur chiqarib turadi? **Kislorod elementi bo'lsa.**

95. Agar yersichqon necha soatgacha yegan ovqatini hazm qilmasa, nima bilan vidolashadi, degani? **12 soatgacha yegan ovqatini hazm qilmasa, hayot bilan vidolashadi, degani.**

96. Agutin, bukriquyon quyonsimonlar turkumining qaysi oilasiga mansub bir nimasi? **Quyonsimonlar turkumining quyonlar oilasiga mansub bir urug'i.**

97. Agutin, bukriquyonning qancha turi bor? **10 ga yaqin turi bor.**

98. Agutin, bukriquyon urug'ining qaysi turi ko'p tarqalgan? **Oltinquyon (D. aguti) turi ko'p tarqalgan.**

99. Agutin, bukriquyonlar qaerlarda uchraydi? **Janubiy va Markaziy Amerika o'rmon va cho'llarda ko'pincha, daryo bo'ylarida uchraydi.**

100. Agutin, bukriquyonlarining bo'yi necha sm gacha? **50 sm gacha.**

101. Agutin, bukriquyonlarining qaysi a'zolari qisqa? **Dumi va quloqlari qisqa.**





102. Agutin, bukriquyonlarning qaysi oyoqlari uzunroq? **Orqa oyoqlari oldingisidan uzunroq.**

103. Agutin, bukriquyon deyilishiga sabab nima? **Chunki elka bukri bo'lganligi sababli (nomi shundan).**

104. Agutin, bukriquyonning qaysi a'zolari yaxshi rivojlanganligidan o'zini dushmandan qanday muhofaza qiladi? **Hidlov va eshituv a'zolari yaxshi rivojlanganligidan o'zini dushmandan yaxshi muhofaza qiladi.**

105. Agutin, bukriquyonning qaysi tishlari o'tkirligidan yong'oq kabi o'simlik mevalarini kemira oladi? **Kurak tishlari o'tkirligidan yong'oq kabi o'simlik mevalarini kemira oladi.**

106. Ajalilon qaysi oilaga mansub ilonlarning bir nimasi? **Aspidlar oilasiga mansub ilonlarning bir turi.**

107. Ajalilonning yo'g'on va kalta gavdasi ko'rinishi qanday ilonlarga o'xshab ketadi? **Qora ilonlarga o'xshab ketadi.**

108. Ajalilonning uzunligi necha sm gacha? **75 sm gacha.**

109. Ajalilon qayerlarda tarqalgan? **Avstraliya, Yangi Gvineya, Malakka va ularga qo'shni orollarda tarqalgan.**

110. Ajalilon deb atalishiga sabab nima? **Ajalilon chaqqan odamlarning aksariyati o'ladi, shu sababdan bu ilon ajalilon deb ataladi.**

111. Ajalilonning keng va yapaloq uchburchak shakldagi qaysi a'zosi siqiq bo'yni orqali tanasidan aniq ajralib turadi? **Boshi siqiq bo'yni orqali tanasidan aniq ajralib turadi.**

112. Ajalilon ko'pincha qayerlarda qanday bo'lib isinib yotadi? **So'qmoq yo'llarda va quyosh tushadigan boshqa ochiq joylarda kulcha bo'lib isinib yotadi.**

113. Ajalilon xavf tug'ilganida boshqa ilonlarga o'xshab nima qilishga yoki yaqinlashayotgan dushmanni nima qilishga harakat qilmaydi? **Qochishga yoki qo'rqitishga harakat qilmaydi.**

114. Ajalilon zahari boshqa aspid ilonlar zahariga nisbatan qanday bo'lsa-da, u chaqqan odamlarning aksariyati nima bo'ladi? **Kuchsiz bo'lsa-da, o'ladi. Shu sababdan bu ilon ajalilon deb ataladi.**

115. Ajdarlar qaysi hayvonlarning urug'i sanaladi? **Kaltakesaklarning urug'i sanaladi.**

116. Ajdar kaltakesaklar qaysi oilaga mansub kaltakesaklar? **Iguanalar oilasiga mansub kaltakesaklar.**

117. Ajdar kaltakesaklar qaysi turkumga mansub? **Tangachalilar turkumiga mansub.**

118. Ajdar kaltakesaklarning nechta turi ma'lum? **To'rtta turi ma'lum.**

119. Ajdar kaltakesakning urg'ochisi daraxtlar ildizi ostidagi kovaklarga nechta tuxum qo'yadi? **12–18 ta.**

120. Ajdar kaltakesakning tanasi uzunligi necha sm? **80 sm.**

121. Ajdar kaltakesakning dumi uzunligi necha sm? **60 sm.**

122. Ajdar kaltakesaklarning Panama va Kosta-Rikada tarqalgan turi Amerika ajdari (V. americanis)ning uzunligi necha sm? **80 sm.**

123. Ajdar kaltakesaklarning Panama va Kosta-Rikada tarqalgan turi Amerika ajdari (V. americanis)ning dumi uzunligi necha sm? **60 sm.**

124. Ajdar kaltakesaklarining nechta turi tropik Amerikada tarqalgan? **4 ta turi.**

125. Ajdar kaltakesaklar qayerlarda yashaydi? **Suv bo'yidagi daraxtlarda yashaydi.**

126. Ajdar kaltakesaklar qanday hayvon? **Beozor, yuvosh hayvon.**

127. Ajdar kaltakesakning Amerika turi qayerlarda tarqalgan? **Panama va Kosta-Rikada tarqalgan.**

128. Ajdar kaltakesaklar deyilishiga sabab nima? **Boshi, elkasi va dumining ustida teridan hosil bo'lgan baland toji bo'lishi tufayli ajdar kaltakesaklar erkagining qiyofasi afsonaviy maxluq ajdarga o'xshaydi.**

129. Aye-aye. Madagaskar qo'loyog'i qaysi oilaning yagona turi? **Qo'loyoqlilar oilasining yagona turi.**

130. Aye-aye qaysi maymunlar kenja turkumiga mansub? **Lemurlar, ya'ni chala maymunlar.**

131. Aye-ayelarning lemurlarga yaqinligi nechanchi yilda aniqlangan? **1860-yilda aniqlangan.**

132. Aye-ayening tanasi uzunligi necha sm? **40 sm.**

133. Aye-ayening baroq dumi necha sm? **60 sm.**

134. Aye-ayening qaysi a'zolari katta? **Boshi va quloqlari katta.**

135. Aye-ayening qaysi a'zolari bir xil uzunlikda? **Oyoqlari.**





136. Aye-aye nimalar bilan ovqatlanadi? **Shakarqamish, bambuk va hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

137. Aye-aye nechta bola tug'adi? **Bitta bola tug'adi.**

138. Aye-aye Madagaskarning shimoli-sharqidagi bambuk o'rmonlari chakalakzorlarida qanday bo'lib yashaydi? **Yakka yoki juft bo'lib yashaydi.**

139. Aye-aye qaysi paytdagi hayvon? **Tungi hayvon.**

140. Aye-aye uchun hozir qaysi orolda qo'riqxona tashkil etilgan? **Kusi-Mangabe orolida qo'riqxona tashkil etilgan.**

141. Aye-aye qaysi xalqaro tashkilotning Qizil kitobiga kiritilgan? **Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotning Qizil kitobiga kiritilgan.**

142. Ayiqlar qaysi turkumga mansub sut emizuvchilar oilasi? **Yirtqichlar turkumiga mansub sut emizuvchilar oilasi.**

143. Ayiqlar qaysi a'zosida yuradi? **Tovonida yuradi.**

144. Ayiqlar nechta uruqqa mansub? **4 ta uruqqa mansub.**

145. Ayiqlarning nechta turi bor? **7 ta turi bor.**

146. Ayiqning tanasi uzunligi necha m? **2,5 m.**

147. Ayiqning og'irligi qancha kg ga yetadi? **750 kg ga yetadi.**

148. Ayiqning urg'ochilari uyada nechta bola tug'adi? **2 – 3 ta, ba'zan 1 ta yoki 4 ta nimjon bola tug'adi.**

149. Ayiqlar qaysi faslda uxlaydi? **Qishda uxlaydi.**

150. Ayiqlarning nechta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **5 ta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

151. Ayiqlarning qaysi turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan? **Qo'ng'ir ayiq turi kiritilgan.**

152. Ayiqlarning barmoqlari nechta? **5 ta.**

153. Ayiqlar nima uchun kaftlarida yuradi? **Chunki tirnoqlari katta va o'tkir bo'lganligi uchun kaftlarida yuradi.**

154. Ayiqlarning bo'yni qanday? **Qisqa va yo'g'on.**

155. Ayiqlarning ko'zlari qanday? **Kichkina.**

156. Ayiqlardan ba'zilarining quloqlari qanday bo'ladi? **Katta bo'ladi.**

157. Ayiqlarning nima uchun dumi ko'rinmaydi? **Chunki kalta bo'lganligi bois jun orasidan ko'rinmaydi.**

158. Ayiqlarning ko'kragida juni qanday rangli? **Oq rangli.**

159. Ayiqlar qayerlardan uya sifatida foydalanadi? **Yerdagi va toshlar ostidagi tabiiy chuqurchalar va daraxt kovaklaridan uya sifatida foydalanadi.**

160. Ayiqlarning qaysi rangdagi ayiq haqiqiy yirtqich hisoblanadi? **Oq ayiq haqiqiy yirtqich hisoblanadi.**

161. Ayiqlarning nimalari ishlatiladi? **Qimmatbaho mo'ynasi, go'shti bir qancha yerlarda ovqatga ishlatiladi.**

162. Ayiqlarning sobiq Ittifoqda qaysilari uchragan? **Qo'ng'ir ayiq, qora va Himolay ayig'i va oq ayiq uchragan.**

163. Ayiqning O'zbekiston tog' o'rmonlari va archazorlarida qaysisi bo'ladi? **Qo'ng'ir ayiq bo'ladi.**

164. Ayiqlarning qaysi turi Yevropa, Osiyo, Shimoliy Afrika va Amerikaning o'rmonli o'lkalarida tarqalgan? **Qo'ng'ir ayiq (Ursus arctos) turi tarqalgan.**

165. Ayiqlar nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simlik va hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

166. Ayiqlar necha yilda, qaysi faslda urchiydi? **Ikki yilda, yozda urchiydi.**

167. Ayiqlarning homiladorlik davri necha oy davom etadi? **7 oy davom etadi.**

168. Ayiq bolasini necha oy emizadi? **5 oy emizadi.**

169. Ayiqlarning bolasi necha yoshida voyaga yetadi? **3 yoshida voyaga yetadi.**

170. Ayiqning erkagimi yoki urg'ochisi bolasiga qaramaydi? **Erkagi bolasiga qaramaydi.**

171. Ayiq O'zbekiston sharoitida qaysi oylarda uxlaydi? **Yanvar – fevralda uxlaydi.**

172. Ayiq qanday yuguradi? **Tez yuguradi.**

173. Ayiq daraxtga chiqishga, suzishga va sakrashga qanday? **Juda mohir.**

174. Ayiq yilda necha marta tullaydi? **Bir marta tullaydi.**

175. Ayiq (qo'ng'ir tusli)ning qancha turi bor? **10 tacha turi bor.**

176. Ayiqlarning qaysi a'zolari kuchli rivojlangan? **Panjalari kuchli rivojlangan.**

177. Ayiqlarning qaysinisi yirtqich bo'lib, odam uchun xavfli? **Oq ayiq odam uchun xavfli.**

178. Ayiqlarning qaysi turi oktabr – noabrdan mart – aprelgacha daraxtlar kovagi, toshlarning ostidagi kovaklarda, tabiiy chuqur joylarga yoki o'zi qazigan iniga tushib qishki uyquga ketadi? **Qo'ng'ir ayiq turi qishki uyquga ketadi.**





179. Ayiqlarning qaysi turi tanasi birmuncha kichik va xipcharoq, quloqlari yirik, juni qora, faqat ko'kragining oldingi tomonida tasmaga o'xshash oq jun bo'ladi? **Himolay ayig'i (U. thibetanus)ning.**

180. Ayiqlarning qaysi turi qishda uxlamaydi? **Oq ayiq turi.**

181. Ayiqlarning Baribal (Euarctos americanus) turi qayerda tarqalgan? **Shimoliy Amerikada tarqalgan.**

182. Ayiqlarning Janubiy Osiyoning tropik va subtropik o'rmonlarida qaysi turi uchraydi? **Malayziya ayig'i (Helarstos) turi uchraydi.**

183. Ayiqlarning Hindiston va Seylonda qaysi turi uchraydi? **Labdor ayiq (Melursus ursinus) turi uchraydi.**

184. Ayiqlarning Janubiy Amerikada qaysi turi uchraydi? **Ko'zoynakli ayiq (Tremaratus arnatus) turi uchraydi.**

185. Aylant ipak qurti qaysi oilaga mansub kapalak? **Tovusko'zlilar oilasiga mansub kapalak.**

186. Aylant ipak qurtining qanotlari yoyilganda necha sm bo'ladi? **11 – 13 sm.**

187. Aylant ipak qurtining bitta pillasi necha m ga yaqin ipak ip beradi? **60 m ga yaqin ipak ip beradi.**

188. Aynan bir xildagi zahar har xil hayvonlarga qanday ta'sir ko'rsatadi? **Turlicha.**

189. Ayriquyruq qaysi sinfning to'g'ri qanotlilarga oid maxsus turkumi? **Hasharotlar sinfining.**

190. Ayriquyruqning kattaligi necha mm? **4 – 40 mm.**

191. Ayriquyruq hasharotining kemiruvchi og'iz qismi qayerga qaragan? **Oldinga qaragan.**

192. Ayriquyruq hasharotining ustki qanotlari nimasimon va qanday? **Terisimon, qisqa.**

193. Ayriquyruq hasharoti yiliga necha marta nasl beradi? **Bir marta nasl beradi.**

194. Ayriquyruq hasharoti naslini qachongacha asraydi? **Naslini kelasi yilgacha asraydi.**

195. Ayriquyruq hasharotining o'zi bahorda nima bo'ladi? **O'ladi.**

196. Ayriquyruq hasharotining urug'ochisi yerni necha sm cha qazib, urug' qo'yadi? **10 – 15 sm cha qazib, urug' qo'yadi.**



DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 30660

197. Ayriquyruq hasharotining qancha turi bor? **1000 dan ortiq turi bor.**

198. Ayriquyruq hasharotining qancha turi O'rta Osiyoda ma'lum? **5 – 6 ta turi ma'lum.**

199. Ayriquyruqning boshi qanday shaklda? **Yurak shaklida.**

200. Ayrim turbellyariyalar, nemertin, xartumi zuluk va qorinoyoqli mollyuskalar nimasi bilan o'ljasini jonsizlantiradi va ushlaydi, shuningdek, o'zini himoya qiladi? **Xartumi bilan.**

201. Ayrim ikki pallalilar (marvariddorlar, hdiyalar) qayeriga tushgan yot zararlar (qum)ni sadaf bilan o'rab olib, marvarid hosil qiladi? **Mantiyasiga tushgan.**

202. Ayrim zoologlar hasharotxo'rlar turkumiga qaysi oilalarni ham kiritishadi? **Vixuxolsimonlar, vidrasimon yerqazarlar, tupayyasimonlarni ham kiritishadi.**

203. Ayrim yuqori darajada rivojlangan umurtqasizlarda qon aylanish doirasi ochiq bo'ladimi yoki yopiq? **Yopiq bo'ladi.**

204. Ayrim sudralib yuruvchilar, masalan: timsoh, ilon qovug'i qandaylashgan? **Pudimentlashgan.**

205. Ayrim baliqlarda qaysi a'zosi yordamida past chastotali tovush chiqarishi ham mumkin? **Havo pufagi yordamida past chastotali tovush chiqarishi ham mumkin.**

206. Ayrim baqalar qanday joylarda yashaydi? **Suv havzalari tubidagi balchiqda, boshqalari quruqlikdagi pana joylarda yashaydi.**

207. Ayrim baqalar, masalan, ko'l baqasi ko'pchilik mamlakatlarda nima qilinadi? **Pishirib iste'mol qilinadi.**

208. Ayrim bo'shliqichlilar (gidralar, korall poliplar)ning qanday davri bo'lmaydi? **Meduza davri bo'lmaydi, ba'zi stsifomeduzalar va gidroidlarning polip davri yo'qolgan.**

209. Ayrim kapalaklar (tovusko'z, pilla o'rovchilar) erkagi urg'ochisining hidi orqali necha km masofadan topadi? **10 km masofadan topadi.**

210. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi davrda har kuni hayvonlarning nechta turi yo'qolib bormoqda? **Bitta turi yo'qolib bormoqda.**

211. Ayrim shoxdor qo'chqor zotlari nimaligi bilan ajralib turadi? **Urushqoqligi bilan ajralib turadi.**





212. Ayrim g'orlarda ko'rshapalaklar koloniyasidagi individlar soni qanchaga yetishi aniqlangan? **20 mln ga yetishi aniqlangan.**

213. Ayrim hasharotlar nechtagacha tuxum qo'yadi? **Bir necha yuz minglab, hatto mln ta, masalan, oybaliq birdaniga 300 mln gacha tuxum qo'yadi.**

214. Ayg'ir – voyaga yetgan ot bo'lib, bir mavsumda uyurga qo'yish usuli qo'llanganda nechta biyani qochiradi? Qo'lda qochirish usuli qo'llanganda nechta biyani qochiradi? Sun'iy urug'lantirish qo'llanganda, har bir ayg'irning mavsumda bergan pushti nechta biyani qochirishga yetadi? **25 ta, 50 ta, 500 ta biyani qochirishga yetadi.**

215. Akadrom migratsiya qaysi baliqlar uchun xos? **Seldsimonlar, lososimonlar, osyotrsimonlar va boshq. baliqlar uchun xos.**

216. Akamtuklilar qaysi mollyuskalar kenja sinfiga mansub qanday a'zoli mollyuskalar oilasi? **O'pkali mollyuskalarning kenja sinfiga mansub oyoqli mollyuskalar oilasi.**

217. Akamtuklilarning spiralsimon chig'anog'i o'ng tomonga burilgan bo'lib, qaysi a'zosi paypaslagichlarining ostida? **Ko'zi paypaslagichlarining ostida.**

218. Akamtuklilar – o'pkali mollyuskalar kenja sinfiga mansub qanday oyoqli mollyuskalar nimasi? **Qorni oyoqli mollyuskalar oilasi.**

219. Akamtuklilarning o'pkasi va mantiya bo'shlig'ining o'zgarishidan kelib chiqqan bo'lib, unda juda ko'p nimalari bor? **Qon tomirlari bor.**

220. Akamtuklilarning qaysi a'zosi ham nafas olishda ishtirok etadi? **Terisi ham nafas olishda ishtirok etadi.**

221. Akamtuklilar suyuqlik chiqarib turadigan yassi tovonsimon qaysi a'zosi bilan sirg'alib harakat qiladi? **Oyog'i bilan sirg'alib harakat qiladi.**

222. Akamtuklilar urug'langan tuxumlarini to'p-to'p qilib qayerga qo'yadi? **Suvga qo'yadi.**

223. Akamtuklilar nimalar bilan ovqatlanadi? **Turli o'simliklar, o'limtiklar bilan ovqatlanadi.**

224. Akamtuklilar, odatda, qayerlarda yashaydi? **Oqmaydigan chuchuk suv havzalarida, tinch oqar daryolarda yashaydi.**

225. Akamtuklilarning O'zbekistonda qancha turi bor? **Bir nechta turi bor.**

226. Akamtuklilar odam va hayvonlarda parazitlik qiluvchi qaysi hayvonlarga oraliq xo'jayin bo'lib xizmat qiladi? **Gijjalarga oraliq xo'jayin bo'lib xizmat qiladi.**

227. Akarifaglar (yunon. akari-kana va phagos-yeyuvchi) qanday hasharotlar hamda kanalar? **Yirtqich va parazit.**

228. Akarifaglarning nechta turi aniqlangan? **40 ta turi aniqlangan.**

229. Akarifaglarning yirtqich kanalar turidan qayerlardagi o'simliklarni, bahor va kuzda esa harorat qancha ° C dan yuqori va havo namligi necha foizli sharoitda g'o'zani zararkunandalardan himoya qilishda hasharotlarni mavsumning tarqatish usulida foydalaniladi? **Issiqxonalardagi o'simliklarni, 30° C dan yuqori haroratli va havo namligi 60 – 80 foizli sharoitda.**

230. Aksari quruqda yashovchi umurtqalilar qovug'i nimadan hosil bo'ladi? **Embrion pardasidan hosil bo'ladi.**

231. Aksolotl – amblistomaning tashqi muhit ta'siri ostida metamorfoza jarayonini yo'qotgan nima? **Itbaliq.**

232. Aksolotl qaysi davlatdagi ko'llarda ko'p tarqalgan? **Meksikadagi ko'llarda ko'p tarqalgan.**

233. Aksolotl necha oyligidan boshlab ko'llarda yiliga necha marta, akvarium sharoitida necha marta urchiydi? **6 oyligidan (bo'yi 20 – 25 sm) ko'llarda ikki marta, akvarium sharoitida bir necha marta urchiydi.**

234. Aksolotlning urg'ochisi nechtagacha tuxum qo'yadi? **500 tagacha tuxum qo'yadi.**

235. Aksolotlning go'shti qanday? **Mazali.**

236. Aksolotlning go'shti nimaga ishlatiladi? **Ovqatga ishlatiladi.**

237. Aksolotl qanday sharoitga chidamli? **Akvarium sharoitiga chidamli.**

238. Aksolotl qanday hayvon hisoblanadi? **Laboratoriya hayvoni hisoblanadi.**

239. Aksolotlning qanday layoqati biologiyada ko'p tajribalar qilishga imkon beradi? **Pegeneratsiyaga (tiklanishga) layoqati imkon beradi.**





240. Aktiniyalar – dengiz bo'shliqichlilari turkumi, marjonlilar sinfi necha nurlilar kenja sinfiga mansub? **Olti nurlilar kenja sinfiga mansub.**

241. Aktiniyalarning ko'pchilik turlari qanday yashaydi? **Yakka yashaydi.**

242. Aktiniyalarning tanasi qanday shaklda? **Silindr shaklda.**

243. Aktiniyalar qaysi a'zosi yordamida qanday harakatlanishi mumkin? **Muskulli tovon yordamida sekin harakatlanishi mumkin.**

244. 244. Aktiniyalarning qancha turi qaysi dengizlardan tashqari boshqa barcha dengizlarda tarqalgan? **1500 ga yaqin turi Orol va Kaspiy dengizlaridan tashqari boshqa barcha dengizlarda tarqalgan.**

245. Aktiniyalar tanasining qaysi uchida juda ko'p paypaslagichlar bilan o'ralgan qaysi a'zosi joylashgan? **Yuqori uchida og'zi joylashgan.**

246. Aktiniyalar o'ljasini otuvchi hujayralar bilan qurollangan paypaslagichlar yordamida nima qiladi? **Falajlaydi yoki o'ldiradi.**

247. Aktiniyalarning otuvchi hujayralari nimasi bilan odam terisini kuydirib, og'riq paydo qilishi mumkin? **Zahari bilan odam terisini kuydirib, og'riq paydo qilishi mumkin.**

248. Aktiniyalar qanday ko'payadi? **Jinsiy va jinssiz – bo'yicha yoki ko'ndalangiga bo'linishi orqali ko'payadi.**

249. Akulalar qanday baliqlar sinfi plastinka jabralilar kenja sinfining katta turkumi? **Tog'ayli baliqlar sinfi plastinka jabralilar kenja sinfining katta turkumi.**

250. Akulalarning tanasi qanday shaklda? **Suyri shaklda.**

251. Akulalar suvning qayerida yashaydi? **Tubida yashaydi.**

252. Akulalarning jabra yoriqlari nechtadan? **5 tadan (ba'zi turlarida 6–8 tadan).**

253. Akulalarning jabra yoriqlari qaysi a'zosining ikki yonida? **Boshining ikki yonida.**

254. Akulalarning qaysi a'zosi boshining ostida tanasiga ko'ndalang joylashgan? **Og'zi boshining ostida tanasiga ko'ndalang joylashgan.**

255. Akulalar qanday ko'payadi? **Tirik tug'adi yoki tuxum qo'yib ko'payadi.**

256. Akulalar nechta turkumni o'z ichiga oladi? Ular qaysilar? **6 ta turkumni o'z ichiga oladi. Ular: har xil tishlilar, ko'p jabralilar, lamnosimonlar, katransimonlar, arra burunsimonlar, skvatinsimonlar.**

257. Akulalar nechta oilani o'z ichiga oladi? **20 ta oilani o'z ichiga oladi.**

258. Akulalarning og'zi boshi ostiga qanday joylashgan? **Ko'ndalang joylashgan.**

259. Akulalar o'ljasini nimalari bilan tutadi? **Jag'laridagi o'tkir plakoid tishlari bilan tutadi.**

260. Akulalarning qaysi birlarida (erkaklaridami yoki urg'ochilaridami) ichki urug'lanishga xizmat qiladigan qo'shilish a'zolari bor? **Erkaklarida ichki urug'lanishga xizmat qiladigan qo'shilish a'zolari bor.**

261. Akulalar, asosan, qayerlarda yashaydi? **Dengizlarda yashaydi.**

262. Akulalarning ko'pchiligi nima qilinadi? **Ovlanadi.**

263. Akulalar ko'pchiligining jigaridan nima olinadi? **Baliq yog'i olinadi**

264. Akulalar ko'pchiligining go'shti nima uchun ishlatiladi? **Ovqat uchun ishlatiladi.**

265. Akulalar ko'pchiligining skletidan nima tayyorlanadi? **Baliq yelimi tayyorlanadi.**

266. Akulalarning nimalari ishlatiladi? **Jigari, go'shti, terisi ishlatiladi.**

267. Akulalarning ko'pchiligi qanday jonivor? **Yirtqich jonivor.**

268. Akulalarning tishlari qancha, qanday? **Ko'p, o'tkir.**

269. Akulalarning ko'pchiligi yirtqich bo'lib, ular qaysilar? **Yo'lbars akula, karxarodon, bolg'abosh akula, mako akula va boshq.**

270. Akulalar yirtqichlarining qaysi a'zolari juda yirik? **Tishlari juda yirik.**

271. Akulalarning dum suzgichi qanday rivojlangan? **Kuchli rivojlangan.**

272. Akulalarning ba'zi turlari qaysi daryolarda ham uchraydi? **Amazonka, Gang daryolarida ham uchraydi.**





273. Akulalardan qaysi birining uzunligi 47 sm cha? **Qoratikan A. – Spinax nigerning uzunligi 47 sm cha.**

274. Akulalardan qaysi birining uzunligi 15 m dan oshiq? **Gigant akulaning – Setorhinus maximusning uzunligi 15 m dan oshiq.**

275. Akulalardan ba'zi turlari qanday ko'payadi? **Qattiq pardaga o'ralgan tuxum qo'yib ko'payadi.**

276. Akulalardan ba'zi turlari qanday ko'payadi? **Tirik bola tug'ib ko'payadi.**

277. Akulalar qanday iqlimli suvlarda yashaydi? **Tropik va mo'tadil iqlimli suvlarda yashaydi.**

278. Akulalar qaysi dengizlarda tarqalgan? **Barens, Azov, Qora, Uzoq Sharq dengizlarida tarqalgan.**

279. Akulalar va ikki xil nafas oluvchilarda nima bo'ladi? **Kloaka bo'ladi.**

280. Akulasimon baliqlarning urg'ochisida qovuq toqmi yoki juftmi? **Juft – siydik yo'llarining kengaymasidan iborat.**

281. Allantois, embrion qovug'i – sudralib yuruvchilar, qushlar va sut emizuvchilar – amniotalarning qanday pardalilaridan biri? **Embrion pardalaridan biri.**

282. Allantois embrionda qanday vazifalarni bajaradi? **Nafas olish, chiqarish va oziqlantirish vazifalarini bajaradi.**

283. Allantois qanday yuruvchi hayvonlar va parrandalarda yaxshi rivojlangan? **Sudralib yuruvchilar va qushlarda yaxshi rivojlangan.**

284. Alligatorlarning nechta turi bor? Ular qaysilar? **2 ta tur bor. Ular quyidagilar: Missisipi va Xitoy alligatorlari.**

285. Alligatorlar qachon urchiydi? **May oxiri va iyun boshida urchiydi.**

286. Alligatorlarning bo'yi necha m ga yaqin? **4,6 m ga yaqin.**

287. Alligatorlarning urg'ochisi nechta tuxum qo'yadi? **20 – 60 ta tuxum qo'yadi.**

288. Alligatorlar qaysi hayvonlar oilasining bir urug'i? **Timsohlar oilasining bir urug'i.**

289. Alligatorlarning asosiy ovqati nima? **Baliq.**

290. Alligatorlar odamga hujum qiladimi? **Yo'q, qilmaydi.**

291. Alligatorlar necha yilgacha umr ko'radi? **85 yilgacha umr ko'radi.**

292. Alligatorlar bir vaqtlar qayerda ko'p edi? **Shimoliy Amerikada.**

293. Alligatorlar nima uchun ko'plab ovlangamdan hozir kamayib ketgan? **Terisi uchun ko'plab ovlanganidan hozir kamayib ketgan.**

294. Alligatorlarning oshlangan terisidan qanday buyumlar tayyorlanadi? **Sumka, chamadon, egar qoplamasi kabi buyumlar tayyorlanadi.**

295. Alligatorlarning qaysi turi Qizil kitobga kiritilgan? **Ikkala turi ham Qizil kitobga kiritilgan.**

296. Alligatorlarning qaysi turi qayerlarda maxsus fermalarda boqiladi? **Missisini aligatorlari turi AQSh va Kubada maxsus fermalarda boqiladi.**

297. Alligatorlar asl timsohlardan qaysi a'zolari bilan farq qiladi? **Tishining ko'pligi va og'zini yumganda pastki jag'idagi to'rtinchi tishining tashqaridan ko'rinmasligi bilan farq qiladi.**

298. Albatrossimonlar qaysi qushlar turkumining bir nimasi? **Bo'ronqushlar turkumining** oilasi.

299. Albatrossimonlarning tanasi uzunligi necha sm? **85 – 140 sm.**

300. Albatrossimonlarning qanotlari yoyilganda necha m ga yetadi? **3,6 m ga yetadi.**

301. Albatrossimonlar qayerlarda uya quradi? **Okeanlarning odam yashamaydigan orollarida uya quradi.**

302. Albatrossimonlar uyaga nechtadan tuxum qo'yadi? **Bittadan tuxum qo'yadi.**

303. Albatrossimonlar necha yoshda voyaga yetadi? **5 – 10 yoshda voyaga yetadi.**

304. Albatrossimonlar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baliq, boshoyoqli mollyuskalar bilan ovqatlanadi.**

305. Albatrossimonlar havoga qayerdan ko'tariladi? **To'lqinlar cho'qqisidan yoki qiyadan ko'tariladi.**

306. Albatrossimonlar qanday bo'lib uchib yuradi? **Monogam, gala-gala bo'lib uchib yuradi.**

307. Albatrossimonlarning nechta uruqqa mansub bo'lgan nechta turi ma'lum? **2 ta uruqqa mansub 13 ta turi ma'lum.**

308. Albatrossimonlar qaysi davrda koloniya hosil qiladi? **Ko'payish davrida koloniya hosil qiladi.**





309. Albatrossimonlar qayerda qanot qoqmasdan uzoq vaqt ucha oladi? **Havoda qanot qoqmasdan uzoq vaqt ucha oladi.**

310. Albatrossimonlar suvda qanday suzadi? **Yaxshi suzadi.**

311. Albatrossimonlar qaysi yarim shar dengizlarida tarqalgan? **Janubiy yarim shar dengizlarida tarqalgan.**

312. Albatrossimonlarning ayrim turlari qaysi okeanning shimoliy qismiga (Uzoq Sharq dengizlariga) ham o'tadi? **Tinch okeanning shimoliy qismiga (Uzoq Sharq dengizlariga) ham o'tadi.**

313. Alohida bo'shliqichlilarning tanasi tashqi ektoderma va ichki endodermadan iborat ikkita nimadan tashkil topgan? **Qavatdan tashkil topgan.**

314. Albatrossimonlarning qaysi turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **Oq elkali (Diomedea albatrus) turi kiritilgan.**

315. Amazonka delfinining nechta tishi bor? **272 ta tishi bor.**

316. Ambistomaning mashhur turi – yo'lbars ambistoma (A. tigrinum) qaysi ko'llarda, ayniqsa, ko'p? **Meksika ko'llarida, ayniqsa, ko'p.**

317. Ambistomasimonlar qayerda tarqalgan? **Shimoliy Amerikada tarqalgan.**

318. Ambistomasimonlar qaysi turkumning urug'i? **Dumli amfibiyalar turkumining urug'i.**

319. Ambistomasimonlarning nechta turi bor? **35 ta turi bor.**

320. Ambistomasimonlarning bo'yi necha sm cha? **30 sm cha.**

321. Ambistomasimonlar qaysi oilaga mansub? **Ambistomasimonlar oilasiga kiradi.**

322. Ambistomasimonlarning nechta turi Tailand va Birma tog'larida uchraydi? **Bir turi uchraydi.**

323. Ambistomasimonlar qaysi jonivorga o'xshaydi? **Salamandraga o'xshaydi.**

324. Ambistomasimonlar qanday joylarda yashaydi? **Suvga yaqin zax joylarda yashaydi.**

325. Ambistomasimonlar mashhur turining nomi nima? **Yo'lbars ambistoma.**

326. Ambistomasimonlar tuxumini qachon qayerga qo'yadi? **Tuxumini bahorda suvga qo'yadi.**

327. Ambistomasimonlarning tuxumidan chiqqan itbaliqlar nima bilan suv havzasiga oqib boradi? **Yomg'ir bilan suv havzasiga oqib boradi.**

328. Ambistomasimonlar tuxumi urg'ochisining qaysi a'zolarida urug'lanadi? **Jinsiy yo'llarida urug'lanadi.**

329. Ambistomasimonlar qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Umurtqasiz hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

330. Ambistomasimonlarning nechta turi va qaysi turlari Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **5 ta turi va kenja turlari kiritilgan.**

331. Amerika norkasi qayerda tarqalgan? **Shimoliy Amerikada tarqalgan.**

332. Amerika norkasining tanasi uzunligi necha sm gacha? **54 sm gacha.**

333. Amerika norkasining bomiladorlik davri necha kun? **36 – 80 kun.**

334. Amerika norkasi nechta bola tug'adi? **1 – 9 ta, ba'zan 16 tagacha bola tug'adi.**

335. Amerika norkasining laktatsiyasi necha oy? **2 – 2,5 oy.**

336. Amerika tasqaralari qaysi yarim sharda yashaydi? **G'arbiy yarim sharda yashaydi.**

337. Amerika tasqaralarining nechta turi bor? **6 ta turi bor.**

338. Amerika proteylarining nechta turi ma'lum? **5 ta turi ma'lum.**

339. Amerika proteylarining nechta kenja turi ma'lum? **4 ta kenja turi ma'lum.**

340. Amerika proteylarining oyoqlarida nechtadan barmoq bor? **4 tadan barmoq bor.**

341. Amerika eshakhurini qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy Amerika materigida, jumladan, Missisipi va AQSh ning janubiy daryolarida, Eri ko'lida tarqalgan.**

342. Amerika bug'usimonlari kenja oilasining bo'yi necha m keladigan mayda va o'rta bo'yli bug'ulardan iborat? **0,3 – 1,3 m keladigan mayda va o'rta bo'yli bug'ulardan iborat.**

343. Amerika bug'usimonlari boshqa bug'usimonlardan nimasi bilan farq qiladi? **Bosh skeletidagi ba'zi suyaklarining tuzilishi bilan farq qiladi.**





344. Amerika bug'usimonlari kenja oilasi qaysi urug'larga bo'linadi? **Mazamalar, pudu, pampas va shimol bug'ulari urug'lariga bo'linadi.**

345. Amyobalar qaysi sinfga mansub necha hujayrali qanday hayvonlar nimasi? **Soxtaoyoqlilar sinfiga mansub bir hujayrali umurtqasiz hayvonlar turkumi.**

346. Amyobalardan ba'zilarining diametri qancha mk cha? **20 mk cha.**

347. Amyobalar eng yirigi (Amolba proteus)ning diametri necha mk keladi? **700 mk keladi.**

348. Amyobalar qayerlarda yashaydi? **Chuchuk suvlarda, nam tuproq va qumda yashaydi, dengizlarda ham bor.**

349. Amyobalarning gavda shakli nima uchun doim o'zgarib turadi? **Chunki amyobalarning qattiq qobig'i bo'lmaydi, shu sababli gavda shakli doim o'zgarib turadi.**

350. Amyobalar qaysi a'zolari bilan siljiydi? **Soxta oyoqlari bilan siljiydi.**

351. Amyobalar nimalar bilan ovqatlanadi? **Bakteriyalar, mayda suvo'tlar va h.k. bilan ovqatlanadi.**

352. Amyobalar gavdasi qanday sharoitda yumaloqlanib, qanday qobiq hosil qiladi va nimaga aylanadi? **Noqulay sharoitda yumaloqlanib, qattiq qobiq hosil qiladi va sistaga aylanadi.**

353. Amyobalarda ayirish vazifasini qisqaruvchi nimalar bajaradi? **Vakuollar bajaradi.**

354. Amyobalar, asosan, qanday yo'l bilan ko'payadi? **Ikkiga bo'linish yo'li bilan ko'payadi.**

355. Amyobalarning bir qancha turlari qaysi jonivorlar organizmlarida parazitlik qiladi? **Odam va hayvonlar organizmlarida parazitlik qiladi.**

356. Amyobalarning asosiy turlari qaysilar? **Erkin yashovchi oddiy amyoba (Amolba proteus) va odam ichagida parazitlik qiluvchi ichburug' amyobasi (A. histolitica).**

357. Ammonitlar qanday mollyuskalar turkumi? **Bosh-oyoqli mollyuskalar turkumi.**

358. Ammonitlar qaysi davrda paydo bo'lib, qaysi davrlarda keng tarqalgan? **Devon davrida paydo bo'lib, trias hamda yura davrlarida keng tarqalgan.**

359. Ammonitlar qaysi davrning oxirida qirilib ketgan? **Bo'r davrining oxirida qirilib ketgan.**

360. Ammonitlarning tanasi diametri necha m gacha bo'lgan yassi spiral ko'p kamerali chig'anoq ichiga joylashgan? **1 m gacha bo'lgan yassi spiral ko'p kamerali chig'anoq ichiga joylashgan.**

361. Ammonitlar chig'anog'ining birinchi kamerasida nima joylashgan? **Hayvon tanasi joylashgan.**

362. Ammonitlar chig'anog'ining boshqa kameralari nima bilan to'lgan bo'lib, nima orqali tutashgan? **Havo bilan to'lgan bo'lib, yumshoq o'simta – ingichka naycha orqali tutashgan.**

363. Ammonitlarning halok bo'lgani chig'anog'i vaqt o'tishi bilan cho'kindi jinslar bilan to'lib, nimaga aylangan? **Toshga aylangan.**

364. Ammonitlar, asosan, qayerda yashagan? **Dengizda yashagan.**

365. Ammonitlar qoldiqlari topilgan joy nima bo'lganidan darak beradi? **Dengiz bo'lganidan darak beradi.**

366. Ammofillar qayerga bitta katakchali uya quradi? **Tuproqqa bitta katakchali uya quradi.**

367. Ammofillar, qum arilari qaysi oilaga mansub arilar nimasi? **Kovlovchi arilar oilasiga mansub arilar urug'i.**

368. Ammofillarning qaysi a'zosi uzun qizg'ich poyachadan iborat? **Qorin bo'shlig'i uzun qizg'ich poyachadan iborat.**

369. Ammofillar qaysi jonivorlar qurtlarini falajlab uyasiga olib kelib, unga nima qo'yadi? **Turli kapalaklar, tuxum qo'yadi.**

370. Ammofillarning tuxumdan chiqqan qurti nima bilan ovqatlanadi? **Kapalak qurti bilan ovqatlanadi.**

371. Ammofillarning nechta turi keng tarqalgan? **250 ta turi keng tarqalgan.**

372. Ammofillarning O'zbekistonda qancha turi ma'lum? **15 ga yaqin turi ma'lum.**

373. Amniotalar nima atrofida murtak parda, shu jumladan, amnion hosil qiladigan yuksak umurtqalilar? **Embrion atrofida.**

374. Amniotalarga qaysi hayvonlar kiradi? **Sudralib yuruvchilar, qushlar va sut emizuvchilar kiradi.**

375. Amniotalar embrionining quruqlikka qo'yiladigan tuxumi ichida yoki ona organizmida rivojlanishi bilan qaysi jonivorlardan farq qiladi? **Anamniyalar (to'garakog'izlilar, baliqlar, suvda va quruqlikda yashovchilar)dan farq qiladi.**





376. Amudaryo va Sirdaryoda tarqalgan laqqa baliq necha yilga yaqin yashaydi? **50 – 60 yilga yaqin yashaydi.**

377. Amudaryo kichik soxta kurakburunning tanasi uzunligi necha sm cha? **27 sm cha.**

378. Amudaryo katta soxta kurakburunining tanasi uzunligi necha sm cha? **50 sm cha.**

379. Amurlar qaysi oilaga mansub baliqlar guruhi? **Karpsimonlar oilasiga mansub baliqlar guruhi.**

380. Amurlarning nechta turi ma'lum? **Ikkita turi ma'lum.**

381. Amurlarning nomlari nima? **Oq Amur, qora Amur.**

382. Amurlarning qaysi turi O'zbekiston suv havzalarida iqlimlashtirilgan? **Oq Amur turi iqlimlashtirilgan.**

383. Amfibiyalarda dumg'aza umurtqalari nechta? **Bitta.**

384. Amfilinidlar qanday chuvalchanglar tipining sinfi? **Yassi chuvalchanglar tipining sinfi.**

385. Amfilinidlar qaysi jonivorlarning tana bo'shlig'ida parazitlik qiladi? **Baliqlar va suv toshbaqalarining tana bo'shlig'ida parazitlik qiladi.**

386. Amfilinidlarning qaysi a'zolari bo'lmaydi? **Yopishuv a'zolari va ichagi bo'lmaydi.**

387. Amfilinidlar qanday ko'payadi? **Bo'g'in almashinuv orqali ko'payadi.**

388. Amfilinidlar nechta oilaga mansub, nechta turni o'z ichiga oladi? **Bitta oilaga mansub 8 ta turni o'z ichiga oladi.**

389. Amfisbenalarning tanasi shakli qanday? **Bargsimon yoki tasmasimon shaklda.**

390. Amfisbenalarning uzunligi necha sm? **2 – 38 sm.**

391. Amfisbenalarning bukri baliqlarda parazitlik qiluvchi qaysi turi keng tarqalgan? **amphilina foliacea turi keng tarqalgan.**

392. Amfisbenalarning nechtacha turi bor? **120 tacha bor.**

393. Amfisbenalarning nechta turi Eronda uchraydi? **Bitta turi uchraydi.**

394. Amfisbenalar, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Tropik Amerika bilan Afrikada tarqalgan.**

395. Amfisbenalarning nechta turi Ispaniya va Portugaliyada uchraydi? **5 ta turi uchraydi.**

396. Amfisbenalar, halqali kaltakesaklarning nechtacha uruqqa bo'linadigan qancha turi bor? **17 tacha uruqqa bo'linadigan 120 tacha turi bor.**

397. Amfisbenalar qayerda yashashga moslashgan? **Yer ostida yashashga moslashgan.**

398. Amfisbenalarning ko'zi qanday, nima bilan qoplangan? **Ko'zi kichkina, teri bilan qoplangan.**

399. Amfisbenalarning bitta qaysi o'pkasi bor? **Bitta chap o'pkasi bor.**

400. Amfisbenalarning tanasi qanday shaklda? **Silindr shaklda.**

401. Amfisbenalarning tanasi nimalarga bo'lingan? **Halqalarga bo'lingan.**

402. Amfisbenalarning oyoqlari qanday holda? **Oyoqlari yo'qolib ketgan yoki oldingisi rudiment holda.**

403. Amfisbenalarning terisi qanday, tanasida nimalari yo'q? **Qattiq, tangachalari yo'q.**

404. Amfisbenalarning qaysi a'zosi rivojlanmagan? **Eshitish a'zosi rivojlanmagan.**

405. Amfisbenalar qaysi jonivor singari, yerni kavlab tor yo'l ochadi va qisqa, to'mtoq dumi bilan oldinga harakat qiladi? **Yomg'ir chuvalchangi singari to'mtoq dumi bilan oldinga harakat qiladi.**

406. Amfisbenalarni nima deb ham yuritiladi? **Ikki boshli kaltakesak deb ham yuritiladi.**

407. Amfisbenalarning ko'p turi qaysi hayvonlar uyasida yashaydi? **Chumoli va termitlar uyasida yashaydi.**

408. Amfisbenalar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar, qirqoyoq va yer ostida yashovchi umurtqasizlar bilan ovqatlanadi.**

409. Amfisbenalar tuxumini o'z uyasiga yoki qaysi jonivorlar iniga qo'yadi? **Termit yoki chumolilar iniga qo'yadi.**

410. Amfiumalar qanday amfibiyalar turkumining oilasi? **Dumli amfibiyalar turkumining oilasi.**

411. Amfiumalarning nechta turi bor? **Ikkita turi bor.**

412. Amfiumalar qayerda tarqalgan? **AQSh ning sharqiy qismida tarqalgan.**





413. Amfiumalarning tanasi necha m cha? **1 m cha.**

414. Amfiumalarning oyoqlari va undagi nechta barmoqlari qanday rivojlangan? **2–3 ta barmoqlari yaxshi rivojlangan.**

415. Amfiumalarning qaysi a'zolari yupqa teri ostida? **Kichkina ko'zlari yupqa teri ostida.**

416. Amfiumalarning necha juft ichki jabrasi va jabra yoriqlari umrbod saqlanib qolgan? **To'rt juft ichki jabrasi va jabra yoriqlari umrbod saqlanib qolgan.**

417. Amfiumalarning lichinkasi necha yoshida jinsiy voyaga yetiladi? **To'rt yoshida jinsiy voyaga yetiladi.**

418. Anabas, o'rmalovchi baliq qaysi oilaga mansub? **Olabug'asimonlar turkumining labirintlilar oilasiga mansub.**

419. Anabas, o'rmalovchi balig'ining uzunligi necha sm ga yetadi? **15 – 20 sm ga yetadi.**

420. Anabas, o'rmalovchi baliq qayerlarda uchraydi? **Hindiston, Birma mamlakatlaridagi, Zond va Filippin orollaridagi chuchuk suv havzalarida uchraydi.**

421. Anabas o'rmalovchi baliq qaysi a'zosi orqali havodan nafas olib, necha soatgacha suvdan tashqarida yashay oladi? **Jabra ustidagi maxsus a'zosi orqali 6–8 soatgacha suvdan tashqarida yashay oladi.**

422. Anabas quruqlikka chiqib nima yordamida o'rmalab, suvi quriyotgan havzalardan boshqa suvli yerlarga ko'plab ko'chib o'tadi? **Suzgich qanotlari yordamida o'rmalab, suvi quriyotgan havzalardan boshqa suvli yerlarga ko'plab ko'chib o'tadi.**

423. Anakondalar qaysi ilonlar urug'i? **Bo'g'ma ilonlar urug'i.**

424. Anakondalarning nechta turi tropik, Janubiy Amerikaning daryo, ko'l va botqoqliklarida tarqalgan? **3 ta turi tropik, Janubiy Amerikaning daryo, ko'l va botqoqliklarida tarqalgan.**

425. Anakondalar nechtadan nechtagacha tuxum qo'yadi? **28 tadan 42 tagacha tuxum qo'yadi.**

426. Anakondalarning tuxumlaridan darhol yosh ilonlar chiqib, nimaga tushib ketadi? **Suvga.**

427. Anakondalar tutqunlikda necha yilgacha yashaydi? **28 yilgacha (o'rta hisobda 5 – 6 yil) yashaydi.**

428. Anakondalar umrining ko'pi qayerda o'tadi? **Suvda o'tadi.**

429. Anakondalar suv tagida qancha vaqt tura oladi? **Uzoq vaqt tura oladi.**

430. Anakondalarning qaysi a'zosi suvda yashashiga yordam beradi? **Burun qopqog'i suvda yashashiga yordam beradi.**

431. Anakondalar nima uchun suvdan quruqlikka chiqadi? **Oftobda toblanish uchun suvdan quruqlikka chiqadi.**

432. Anakondalar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Cho'chqa yoki alligator, qush va baliq kabilar bilan ovqatlanadi.**

433. Anakondalar nechtacha tuxum qo'yadi? **70 – 100 tacha tuxum qo'yadi.**

434. Anakondalar qanday ko'payadi? **Tuxumdan tirik tug'ish bilan ko'payadi.**

435. Anakondalar qachon qanday uyquga ketadi? **Daryo suvi quriganda balchiqqa botib uyquga ketadi.**

436. Anakondalarning nimalari ovqatga ishlatiladi? **Go'shti, yog'i ovqatga ishlatiladi.**

437. Anakondalarning nimasidan foydalaniladi? **Terisidan foydalaniladi.**

438. Anakonda ulkan ilonning bo'yi necha m ga yetadi? **7,5 m ga yetadi, ammo 5 – 6 m lilari ko'proq uchraydi.**

439. Anakonda ilonning tanasi sirtidagi tangachalari qanday? **Silliq va yaltiroq.**

440. Anakonda ilon odamga hujum qiladimi? **Ha, hujum qiladi.**

441. Anakonda ilon o'ljasini qanday yutadi? **Tanasi bilan o'rab, bo'g'ib o'ldirib, butunligicha yutadi.**

442. Anamniyalar – embrional taraqqiyotning dastlabki davrida embrion pardalari, jumladan, amnioni ham bo'lmaydigan tuban qanday hayvonlar? **Umurtqali hayvonlar bo'lib, bularga to'garak og'izlilar, baliqlar va amfibiyalar kiradi.**

443. Anamniyalar birlamchi suv umurtqalilari bo'lib, nimalarining rivojlanishi suv muhiti bilan bog'liq? **Embrionlarining rivojlanishi suv muhiti bilan bog'liq.**

444. Anaplazma necha hujayrali sodda organizm? **Bir hujayrali sodda organizm.**

445. Anaplazma nuqtadek bo'lib, qaysi a'zoni jarohatlaydi? **Qizil qon tanachalarini jarohatlaydi.**





446. Anaspidlar – qazilma jag'siz umurtqalilarning qaysi sinfi? **Kenja sinfi; ular faol hayot kechirishga moslashgan.**

447. Anaspidlarning tanasi shakli qanday? **Duksimon.**

448. Anaspidlarning ko'zlari boshining qayerida? **Yon tomonida.**

449. Anaspidlarning dum suzgich qanotlari gipotserkal, ya'ni qaysi a'zosi pastki pallasiga egilgan? **Umurtqa pog'onasi pastki pallasiga egilgan.**

450. Anaspidlar hozir yashayotgan qaysi jonivorlarning kelib chiqishini o'rganishda juda muhim ahamiyatga ega? **To'garak og'izlilarning kelib chiqishini o'rganishda juda muhim ahamiyatga ega.**

451. Anafaza hayvon hujayralarining murakkab bo'lishi (kariokinez) fazalaridan nechanchisi? **Uchinchisi.**

452. Angler (Angel) qoramol zoti nimasi uchun boqiladi? **Suti uchun boqiladi.**

453. Angler qoramol zoti haqidagi ma'lumotlar nechanchi asrga to'g'ri keladi? **XVI asrga to'g'ri keladi.**

454. Angler qoramol zotining tusi qanday? **Qizil.**

455. Angler qoramol zotining buqalari og'irligi qancha kg? **850 – 1000 kg.**

456. Angler qoramol zotining sigirlari og'irligi qancha kg? **500 – 580 kg.**

457. Angler qoramol zoti sigirlari yiliga qancha kg sut beradi? **4000 – 4500 kg sut beradi.**

458. Angler qoramol zoti sigirlari sutining yog'liligi necha foiz? **4,5 – 4,6 foiz.**

459. Angler qoramol zoti, asosan, qaysi mamlakatlarda boqiladi? **G'arbiy Yevropa mamlakatlarida boqiladi.**

460. Angler qoramol zoti qaysi zotlarni yaratishda asos bo'lgan? **Qizil daniya zotini, u orqali qo'ng'ir latish, qizil eston, qizil litva, qizil dasht zotlarini yaratishda asos bo'lgan.**

461. Angler qoramol zoti qaysi davlatlardagi xo'jaliklarda ham boqiladi? **Ukraina, Rossiya, qisman O'zbekistondagi xo'jaliklarda ham boqiladi.**

462. Angor echkisini urchitish markazi asli qayer? **Turkmanlarning bir qismi XIII asrda Kichik Osiyoga ko'chib borgan va natijada, hozirgi Turkiyaning Angora (Anqara) viloyati Angor echkisini urchitish markaziga aylangan.**

Bu zotning Angor echkisi deb atalishi ham shundan kelib chiqqan.

463. Angor echkisi nechanchi asrdan AQSh, Afrikadagi ayrim mamlakatlar, Avstraliyada boqiladi? **XIX asrdan AQSh, Afrikadagi ayrim mamlakatlar, Avstraliyada boqiladi.**

464. Angor echkisining juni g'oyat egiluvchan va pishiq bo'lib, uzunligi necha sm? **18 – 25 sm.**

465. Angor echkisining erkaklari tanasi og'irligi o'rta hisobda qancha kg keladi? **50 – 55 kg keladi.**

466. Angor echkisining erkaklari yiliga qancha kg jun beradi? **5 – 7 kg jun beradi.**

467. Angor echkisining urg'ochilari o'rta hisobda qancha kg? **32 – 36 kg.**

468. Angor echkisining urg'ochilari qancha kg jun beradi? **3,1 kg jun beradi.**

469. Angor echkisidan toza jun chiqishi necha foiz? **65 – 70 foiz.**

470. Angor echkisidan yiliga nechta uloq olinadi? **105 – 110 ta uloq olinadi.**

471. Angor echkisining sog'imidan qancha kg sut sog'ib olish mumkin? **70 – 100 kg sut sog'ib olish mumkin.**

472. Angor echkisi sutining yog'liligi necha foiz? **4,2 – 4,4 foiz.**

473. Angor echkilari O'zbekistonning, asosan, qaysi viloyatlarida boqiladi? **Namangan, Andijon viloyatlarida boqiladi.**

474. Angor quyoni deb atalishiga sabab nima? **Angor quyoni tiviti angor echkisinikiga o'xshaganligi sababli shu nom bilan ataladi.**

475. Angor quyoni bir bolalashda nechtagacha nasl beradi? **7 tagacha nasl beradi.**

476. Angor quyonining qaysi a'zosi katta? **Kallasi katta.**

477. Angor quyonining qaysi a'zosi kalta? **Qulog'i kalta.**

478. Angor quyonining og'irligi qancha kg? **2,3 – 2,5 kg.**

479. Angor quyonining tanasi uzunligi necha sm? **43 sm.**

480. Angor quyonidan O'zbekiston sharoitida bir yilda qancha g gacha tivit tarab olinadi? **250 g gacha tivit tarab olinadi.**

481. Anchous,xamsadengizbalig'iningsharqiyangous(E.japonicus) degan turi qaysi okeanning Uzoq Sharq qirg'oqlarida uchraydi? **Tinch okeanining Uzoq Sharq qirg'oqlarida uchraydi.**





482. Anchous, xamsa seldsimonlar kenja turkumining qaysi oilasiga mansub dengiz balig'i? **Anchoussimonlar oilasiga mansub.**

483. Anchous balig'ining uzunligi n echa sm gacha? **16 sm gacha.**

484. Anchous balig'i qaysi dengizlarda uchraydi? **Qora va Azov dengizlarida uchraydi.**

485. Aniqlangan hayvonlarning qancha qismini hasharotlar tashkil etadi? **Uchdan ikki (2/3) qismini tashkil etadi.**

486. Ankilozavrlar qaysi jonivorlarga mansub, qirilib bitgan sudralib yuruvchilar? **Dinozavrlarga mansub, qirilib bitgan sudralib yuruvchilar.**

487. Ankilozavrlarning qoldiqlari Markaziy Osiyoning qayerlaridan topilgan? **Markaziy Qozog'iston. Qizilqumdan topilgan.**

488. Ankilozavrlar dinozavrlarga mansub sudralib yuruvchilar bo'lib, uzunligi necha m gacha bo'lgan? **8–9 m gacha bo'lgan.**

489. Ankilozavrlarning gavdasi qanday? **Keng yassi.**

490. Ankilozavrlarning usti nima bilan qoplangan? **Suyak qalqon bilan qoplangan.**

491. Ankilozavrlarning old oyoqlari nima bilan qoplangan? **Uzun tikanlar bilan qoplangnan.**

492. Ankilozavrlarning dumi nimalar bilan qoplangan? **Suyak halqa yoki o'tkir tikanlar bilan qoplangan.**

493. Ankilozavrlarning tishlari qanday? **Tishlari yo'q yoki kam rivojlangan.**

494. Ankilostoma qanday gijja? **Juda kichkina (urg'ochisi 10–13 mm keladigan) qizg'ish gijja.**

495. Ankilostoma odam va sut emizuvchi hayvonlarning qaysi a'zosida parazitlik qiladi? **Ingichka ichagida parazitlik qiladi.**

496. Ankilostomaning nechta turi odamning o'n ikki barmoq ichagida yashaydi? **Ikkita turi odamning o'n ikki barmoq ichagida yashaydi.**

497. Ankilostoma tuproqda hayot kechirib, necha marta po'st tashlagandan keyin yuqumli lichinka hosil qiladi? **Ikki marta po'st tashlagandan keyin yuqumli lichinka hosil qiladi.**

498. Ankilostoma lichinkalari qaysi a'zoni teshib, tana ichiga kiradi? **Terini teshib, tana ichiga kiradi.**

499. Ankilostomidlar qaysi turkumga mansub to'garak chuvalchanglar oilasi sanaladi? **Strangilidlar turkumiga mansub to'garak chuvalchanglar oilasi sanaladi.**

500. Ankilostomidlarning tanasi uzunligi necha mm gacha? **21 mm gacha.**

501. Ankilostomidlar orqa tomoniga siljigan keng og'iz bo'shlig'ida joylashgan kutila tishlari yordamida xo'jayinining qayeriga yopishib oladi? **Ichagi devoriga yopishib oladi.**

502. Ankilostomidlarning qancha turi ma'lum? **70 ga yaqin turi.**

503. Ankilostomidlar ko'proq qaysi mintaqalarda uchraydi? **Tropik va subtropik mintaqalarda uchraydi.**

504. Ankilostomidlar odamlarda nima paydo qiladi? **O'tkir kamqonlik paydo qiladi, ba'zan o'limga olib keladi.**

505. Anoa, pakana buyvol qaysi turkumga mansub yovvoyi qoramolning bir turi hisoblanadi? **Juft tuyoqlilar turkumiga mansub yovvoyi qoramolning bir turi hisoblanadi.**

506. Anoa yovvoyi qoramolning bir turi bo'lib, asosan, qaysi oroldagi tekislik va tog' o'rmonlarida yashaydi? **Sulavesi orolidagi tekislik va tog' o'rmonlarida yashaydi.**

507. Anoa qaysi hayvonga o'xshab ketadi? **Buyvolga o'xshab ketadi.**

508. Anoa tanasining uzunligi necha m? **1,7 m.**

509. Anoa ilgari nimalari uchun ovlangan? **Go'shti, terisi uchun ovlangan.**

510. Anoalarning soni keskin kamayib ketganligi sababli qaysi kitobga kiritilgan? **Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

511. Anoaning qaysi a'zolarida oq dog'lari bor? **Boshi, bo'yni va oyoqlarida oq dog'lari bor.**

512. Anolislar qaysi oilaga mansub? **Iguanalar oilasiga mansub.**

513. Anolislar qaysi hayvonlarning bir urug'i? **Kaltakesaklarning bir urug'i.**

514. Anolislarning qancha turi Amerikaning qaysi mintaqalarida tarqalgan? **300 dan ortiq turi Amerikaning tropik va subtropik yerlarida tarqalgan.**

515. Anolislar qayerlarda yashaydi? **Daraxtlarda va uylarda yashaydi.**





516. Anolislarning qaysi a'zosi daraxtda yurishga moslashgan? **Daraxtda yurishga moslashgan.**

517. Anolislar yashash muhitiga qarab nimasini tez o'zgartirganidan ularni nima deb ataydilar? **Pangini tez o'zgartirganidan Amerika xameleoni (buqalamuni) deb ham ataydilar.**

518. Anolislar qanday yuguradi? **Tez va chaqqon yuguradi.**

519. Anolislar juda nima? **Urushqoq.**

520. Anolislarning erkaklari nima talashib qattiq urishadi? **Urg'ochi talashib qattiq urishadi.**

521. Anolislarning erkaklari urg'ochi talashib, ba'zisi qaysi a'zolarisiz qoladi? Hatto nima bo'ladi? **Dumsiz va oyoqsiz bo'lib qoladi. Halok bo'ladi.**

522. Anolislar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

523. Anolislardan biri – qizilomoq A. (A. Cosalinensis)ning bo'yi necha sm? **22 sm.**

524. Anolislarning oyog'i tik va silliq yerlarda yurishga shu qadar moslashganki, hatto ular nima ustida ham bemalol yuraveradi? **Silliq oyna ustida ham bemalol yuraveradi.**

525. Antarktidada pingvinlarning necha xili bor? **17 xili bor.**

526. Antarktidagi pingvinlarning eng ko'p uchraydigani va ajoyibi qaysi pingvinlar? **Adeli va Imperator pingvinlari.**

527. Antarktikada tyulenning qaysi turlari yashaydi? **Ueddell tyuleni, qisqichbaqaxo'r tyulen, ross tyuleni.**

528. Antarktikada qushlardan pomornikning nechta turi uchraydi? **Ikkita turi uchraydi.**

529. Antarktikada uchraydigan janub dengiz filining uzunligi necha m? **5,5 m.**

530. Antarktikada uchraydigan janub dengiz filining og'irligi qancha t ga yetadi? **2,5 t ga yetadi.**

531. Antarktida zoogeografiya oblastida qaysi jonivorlar uchramaydi? **Dengiz sudralib yuruvchilari uchramaydi.**

532. Antarktida zoogeografiya oblastida qaysi jonivorlar katta biomassa hosil qiladi? **Angaus balig'i, qisqichbaqasimonlarning ayrim turlari va boshq. umurtqasizlar.**

533. Antilopalar qaysi jonivorlar oilasiga mansub hayvonlarning eski nomi? **Quvushshoxlilar oilasiga mansub hayvonlarning eski nomi.**

534. Antilopalar urug'iga hozir faqat bir tur, ya'ni qaysi tur kiritilgan? **Garnu antilopasi turi kiritilgan.**

535. Antilopalarga ilgari qaysi quvushshoxli hayvonlar kiritilgan? **Echki, qo'y va ho'kizlardan boshqa barcha quvushshoxli hayvonlar kiritilgan.**

536. Antokoridlar – mayda hasharotlar va ularning tuxum hamda qurtlari hisobiga yirtqichlik qilib yashovchi qaysi jonivorlar? **Qandalalar.**

537. Antokoridlarning qaysi guruhlari o'simliklarni zararkunanda hasharotlardan himoya qilishda katta foyda keltiradi? **Oriuslar o'simliklarni zararkunanda hasharotlardan himoya qilishda katta foyda keltiradi.**

538. Antokoridlar qanday ovqatlanadi? **O'rgimchakkana va uning tuxumini hamda mayda hasharotlarni so'rib ovqatlanadi.**

539. Anximalar g'ozsimonlar turkumining bir oilasi? **Urug'i.**

540. Anximalar qayerda tarqalgan? **Janubiy Amerikada tarqalgan.**

541. Anxingalar, ilonbo'yinlar qaysi qushlar turkumiga mansub qoravoylar oilasining urug'i? **Kurakoyoqli qushlar turkumiga mansub qoravoylar oilasining urug'i.**

542. Anxingalarning nechta turi tropiklardagi daryo va ko'llarda yashaydi? **Uchta turi tropiklardagi daryo va ko'llarda yashaydi.**

543. Anxingalar qayerda tarqalgan? **Janubiy Amerikada tarqalgan.**

544. Anxingalar, ilonbo'yinlar nechta tuxum qo'yadi? **2 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

545. Anxingalar qaysi a'zosini baliqqa sanchib, tepasiga irg'itadi va tumshug'i bilan ilib olib yeydi? **O'tkir uchli tumshug'ini baliqqa sanchib, tumshug'i bilan ilib olib yeydi.**

546. Anxingalar tumshug'ining ichki qirrasidagi qaysi a'zolarida silliq baliqni mahkam tutib tura oladi? **Arra tishlarida silliq baliqni mahkam tutib tura oladi.**

547. Anqo qanday qush? **Afsonaviy qush.**

548. Anqo qaysi qushlarga o'xshatiladi? **Semurg' va humoga o'xshatiladi.**





549. Ang'irt, sariq g'oz, atayka qaysi turkumning parrandalar oilasiga mansub parranda? **G'ozsimonlar turkumining o'rdaklar oilasiga mansub parranda.**

550. Ang'irt, sariq g'oz, atayka qayerlarda tarqalgan? **Yevropa va Osiyoning cho'l va sahrolarida tarqalgan.**

551. Ang'irt, sariq g'oz, atayka qishlash uchun qaysi tomonlarga uchib ketadi? **Afrikaning shimol va Osiyoning janub tomonlariga uchib ketadi.**

552. Ang'irt, sariq g'oz, atayka inini qaysi hayvonlarning tashlab ketgan uyasiga quradi? **Tulki, qorsoq, bo'rsiq va yovvoyi mushuk kabi hayvonlarning tashlab ketgan uyasiga quradi.**

553. Ang'irt, sariq g'oz, ataykaning qaysi biri uyaning atrofidan uzoqqa ketmasdan tuxumdan chiqqan bolalarini boqishga ko'maklashadi? **Erkagi uyaning atrofidan uzoqqa ketmasdan tuxumdan chiqqan bolalarini boqishga ko'maklashadi.**

554. Ang'irt, sariq g'oz, atayka go'shti qaysi faslda bemaza va ko'lansa, qaysi faslda mazali bo'ladi? Nima uchun? **Yozda bemaza, chunki jonivorlar bilan ovqatlangani uchun; kuzda mazali, chunki o'simliklar bilan ovqatlangani uchun.**

555. Ang'irt, sariq g'oz, atayka nechtacha tuxum qo'yadi? **8 – 12 ta tuxum qo'yadi.**

556. Ang'irt patlari rangi qanday? **Ochiq sarg'ish.**

557. Ang'irtning boshi rangi qanday? **Oqish.**

558. Ang'irt O'zbekistonda ham uchraydimi? **Ha, uchraydi, bir qismi shu yerda qishlaydi.**

559. Ang'irt qayerlarda yashaydi? **Tog', cho'l va dasht zonalaridagi chuchuk suvli va sho'r ko'llarda yashaydi.**

560. Ang'irt nimalar bilan ovqatlanadi? **Har xil mayda jonivorlar va o'simliklar bilan ovqatlanadi.**

561. Apanteleslar qaysi hasharotlarning brakonidlar oilasiga mansub parazitlar? **Pardaqanotli hasharotlarning brakonidlar oilasiga mansub parazitlar.**

562. Apanteleslar tuxumini (12 – 15 dona) qayerga qo'yadi? **Kapalak qurtlari tanasiga qo'yadi.**

563. Apionlar qaysi turkumga mansub filcha-qo'ng'izlar urug'i? **Qattiqqanotlilar turkumiga mansub filcha-qo'ng'izlar urug'i.**

564. Apionlarning tanasi uzunligi necha mm? **3 – 4 mm.**

565. Apionlar qanday burunli? **Uzun burunli.**

566. Apionlar ko'pincha qanday rangli? **Sidirg'a oq-sarg'ish rangli.**

567. Apollon qaysi oilaga mansub kapalak? **Elkalilar oilasiga mansub kapalak.**

568. Apollon kapalagi qaysi oylarda ucha boshlaydi? **May – iyun oylarida ucha boshlaydi.**

569. Apollon kapalagining yoyilgan qanotlari uzunligi necha mm ga yetadi? **70 – 90 mm ga yetadi.**

570. Apollon kapalagi O'zbekiston hududining o'rta mintaqasida qancha m balandlikda uchraydi? **1700 – 2100 m balandlikda uchraydi.**

571. Apollon kapalagi qaysi davrda qishlaydi? **Qurt davrida qishlaydi.**

572. Apollon kapalagining soni nima sababdan keskin kamayib bormoqda? **Uy hayvonlari sonining ortib borishi, yo'l va uy-joy qurilishi tufayli yashash muhitining o'zgarishi bilan.**

573. Apollon kapalagi qaysi hududlarda tarqalgan? **Yevropa, Kavkaz va G'arbiy Sibirning tog'li hududlarida (ba'zan pasttekisliklarda) tarqalgan.**

574. Apollon kapalagi ko'pgina mamlakatlarda qaysi kitobga kiritilgan? **Qizil kitobga kiritilgan.**

575. Apsal iloni qaysi oilaga mansub? **Aspidlar oilasiga mansub.**

576. Apsal ilonining uzunligi necha sm? **75 sm.**

577. Apsal – tikan dumli yovuz ilon qanday ilonlarning bir turi? **Zaharli ilonlarning bir turi.**

578. Apsal iloni nima uchun ajal iloni deyiladi? **Turqining xunukligidan «ajal» iloni deyiladi. Aslida u chaqqanda odam halok bo'lmaydi.**

579. Appendikulyariyalar qaysi tipga mansub pardalilar kenja tipining sinfi? **Xordalilar tipiga mansub pardalilar kenja tipining sinfi.**

580. Appendikulyariyalar suvda suzib yuradigan dastlabki qaysi jonivorlardan kelib chiqqan? **Xordalilardan kelib chiqqan.**

581. Appendikulyariyalar qanday dengiz jonivori? **Mayda (0,5 – 10 mm), erkin suzadigan dengiz jonivori.**





582. Appendikulyariyalarning gavdasi necha sm cha qaysi a'zolardan iborat? **0,5 sm cha tana va dumdan iborat.**

583. Appendikulyariyalarning qaysi a'zosi umrbod saqlanadi? **Xordasi umrbod saqlanadi.**

584. Appendikulyariyalarning dumida qaysi a'zolari joylashgan? **Xordasi, asab (nerv) nayi va ko'ndalang targ'il muskullari joylashgan.**

585. Appendikulyariyalarning tanasi dildiroq shaffof moddadan iborat qobiq nima ichida joylashgan? **Uycha ichida joylashgan.**

586. Appendikulyariyalar tanasi joylashgan uychaning qaysi tomonida teshik bo'ladi? **Oldingi va orqa tomonida teshik bo'ladi.**

587. Appendikulyariyalar qaysi a'zosining harakati tufayli suv oldingi teshigida joylashgan filtrlovchi apparat orqali o'tib, orqa teshigidan chiqib ketadi? **Dumining harakati tufayli suv oldingi teshigida joylashgan filtrlovchi apparat orqali o'tib, orqa teshigidan chiqib ketadi.**

588. Appendikulyariyalar uchun ovqat bo'ladigan mayda organizmlarni nima tutib qoladi? **Filtrlovchi apparatning ingichka inchalardan iborat panjaralari tutib qoladi.**

589. Appendikulyariyalarda qaysi bo'shliq bo'lmaydi? **Jabraoldi bo'shlig'i bo'lmaydi.**

590. Appendikulyariyalarning qaysi teshigi tanasining qorin tomonida? **Anal teshigi tanasining qorin tomonida.**

591. Appendikulyariyalarning yorug'likni sezadigan ko'zchasi va stototsisti qaysi a'zosi ustida joylashgan? **Miyasi ustida joylashgan.**

592. Appendikulyariyalarning ko'pchilik turi qanday? **Germafrodit.**

593. Appendikulyariyalar faqat qanday yo'l bilan ko'payadi? **Jinsiy yo'l bilan ko'payadi.**

594. Appendikulyariyalar kichkinasining qaysi a'zolari bo'lmaydi? **Og'zi va anal teshigi bo'lmaydi.**

595. Appendikulyariyalarning qancha turi ma'lum? **100 ga yaqin turi ma'lum.**

596. Appendikulyariyalar qaysi dengizlarda, asosan, suvning qaysi qatlamlarida uchraydi? **Barcha dengizlarda, asosan, suvning ustki qatlamlarida uchraydi.**

597. Arabi ot qanday ot zoti? **Salt miniladigan qadimiy ot zoti.**

598. Arabi ot qanday yo'l bilan qayerda qachon yaratilgan? **Xalk seleksiyasi yo'li bilan Arabiston yarim orolida melodiy 1-ming yillikda yaratilgan.**

599. Arabi ot qaysi otlar bilan urchitish natijasida takomillasha borgan? **Turkman, Eron va Misr sahro otlari bilan urchitish natijasida takomillasha borgan.**

600. Arabi ot qanday sharoitga yaxshi moslashgan? **Cho'l sharoitiga yaxshi moslashgan.**

601. Arabi ot nimalarga chidamli? **Ochlik va suvsizlikka chidamli.**

602. Arabi ot poygada 1000 m masofani qancha vaqtda bosib o'tadi? **1 min 8 sek da bosib o'tadi.**

603. Arabi otlarning nasldor ayg'irlari qayerdagi ot zavodida urchitiladi? **Rossiya Federatsiyasining Stavropol o'lkasidagi Tersk ot zavodida urchitiladi.**

604. Arabi otlar qaysi mamlakatlarda boqiladi va ko'paytiriladi? **Hindiston, Misr, Turkiya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya, AQSh, Polsha va boshqa mamlakatlarda boqiladi va ko'paytiriladi.**

605. Arabi qanday rangli qaysi hayvon zoti? **Qora rangli qorako'l qo'y zoti.**

606. Arabi mavjud qorako'l qo'ylarining necha foizini tashkil etadi? **90 – 95 foizini tashkil etadi.**

607. Arabi qo'y zotidan yuqori sifatli qorako'l teri olish uchun ularning qo'zilari necha kunligida so'yiladi? **2 – 3 kunligida so'yiladi.**

608. Armaniston qo'y zoti qanday junli zot? **Yarim dag'alli zot.**

609. Armaniston qo'y zoti nechanchi yilda zot sifatida tasdiqlangan? **1984-yilda zot sifatida tasdiqlangan.**

610. Armaniston qo'y zoti boshqa qo'y zotlaridan nimalari bo'lishi bilan ajralib turadi? **Qo'ylarining ko'z atrofi va oyoqlarida qora dog'lar bo'lishi bilan ajralib turadi.**





611. Armaniston qo'y zoti qo'chqorlarining tirik og'irligi qancha kg? **80 – 90 kg.**

612. Armaniston qo'y zoti sovliqlarining tirik og'irligi qancha kg? **50 – 55 kg.**

613. Armaniston qo'y zoti 4 – 4,5 oylik qo'zilarining tirik og'irligi qancha kg? **28 – 32 kg.**

614. Armaniston qo'y zoti qo'chqorlaridan o'rtacha qancha kg jun olinadi? **2,5 – 3 kg jun olinadi.**

615. Armaniston qo'y zoti sovliqlaridan qancha kg jun olinadi? **1,5 – 1,9 kg jun olinadi.**

616. Armaniston qo'y zoti qo'chqorlarida jun kokili uzunligi necha sm? **16 – 20 sm.**

617. Armaniston qo'y zoti sovliqlarida jun kokili uzunligi necha sm? **14 – 18 sm.**

618. Armaniston qo'y zoti tivit qismining uzunligi necha sm? **10 – 12 sm.**

619. Armaniston qo'y zoti tivitdan toza jun chiqimi necha foiz? **68 – 72 foiz.**

620. Armaniston qo'y zoti laktatsiya davrida qancha kg sut beradi? **100 – 120 kg sut beradi.**

621. Armaniston qo'y zoti laktatsiya davrida sutning yog'lilik darajasi necha foiz? **5,9 foiz.**

622. Arrabaliqlar qaysi baliqlar turkumining bir oilasi? **Lappak baliqlar turkumining bir oilasi.**

623. Arrabaliqlarning gavdasi tuzilishi qaysi jonivorga o'xshasa ham asl zoti qaysi baliqlardan? **Akulaga o'xshasa ham asl zoti lappak baliqlardan.**

624. Arrabaliqlarning uzunligi necha m? **4 – 5 m.**

625. Arrabaliqlar qanday o'lkalardagi dengizlarda keng tarqalgan? **Issiq o'lkalarda keng tarqalgan.**

626. Arrabaliqlar qanday tug'adi? **Tirik tug'adi.**

627. Arrabaliqlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Qisqichbaqa, mollyuska va mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

628. Arrabaliqlarga nima uchun shunday nom berilgan? **Uzun tumshug'ining ikki tomonida o'tkir tishlari borligi uchun shunday nom berilgan.**

629. Arraburun akulalar – akulalar turkumi oilasi bo'lib, uzunligi necha m gacha? **1,5 m gacha.**

630. Arraburun akulalarning tanasi qanday shaklda? **Silindrsimon shaklda.**

631. Arraburun akulalarning tumshug'i o'rtasidagi nechta uzun mo'ylovlari tuyg'u vazifasini bajaradi? **Ikkita uzun mo'ylovlari tuyg'u vazifasini bajaradi.**

632. Arraburun akulalarning tumshug'i qanday? **Uzun va yassi qilichsimon.**

633. Arraburun akulalar yon tomonidan yirik nimalar bilan qurollangan? **Tishlar bilan qurollangan.**

634. Arraburun akulalarning qanday suzgichi bo'lmaydi? **Anal suzgichi bo'lmaydi.**

635. Arraburun akulalarning nechta turi bor? **4 – 5 ta turi bor.**

636. Arraburun akulalar qaysi okeanlarning g'arbiy sohillari yaqinida, asosan, tropik suvlarda tarqalgan? **Hind va Tinch okeanlarining g'arbiy sohillari yaqinida, asosan, tropik suvlarda tarqalgan.**

637. Arraburun akulalar qanday joylarda yashaydi? **Suv tubidagi uncha chuqur bo'lmagan joylarda yashaydi.**

638. Arraburun akulalar qanday jonivorlarni yeydi? **Mayda baliqlar va suv tubidagi umurtqasizlarni kovlab olib yeydi.**

639. Arraburun akulalar qanday tug'adi? **Tirik tug'adi.**

640. Aravakash ot zotlari qaysilar? **Sobiq Ittifoqda toriy, kuznetsk, latviya; chet mamlakatlarda vengriya noniusi, fin, oldenburg, kladrub zotlari.**

641. Arrakashlar qanday pardaqanotlilar kenja turkumi bo'lib, bir necha oilalarning umumiy nomi? **O'troq qorinli pardaqanotlilar.**

642. Arrakashlar pardaqanotlilarning qaysi sinfi? **Kenja sinfi.**

643. Arrakashlarning og'iz apparati qanday? **Kemiruvchan.**

644. Arrakashlarning urg'ochisi arraga o'xshash tuxum qo'ygichi yordamida qayerlarga tuxum qo'yadi? **O'simlik barglari, poyasi va a'zolariga tuxum qo'yadi.**

645. Arrakashlar haqiqiysida lichinkasining necha juft ko'krakoyoqlilari bilan birga necha juft soxta qorinoyoqlilari ham bo'ladi? **3 juft ko'krakoyoqlari bilan birga bir juft soxta qorinoyoqlari ham bo'ladi.**

646. Arrakashlarda qanday ko'payish keng tarqalgan? **Partenogenez ko'payish keng tarqalgan.**





647. Arrakashlarda bir yilda nechtagacha partenogenez bo'g'ini rivojlangan? **4 tagacha partenogenez bo'g'ini rivojlangan.**

648. Arrakashlar orasida qaysi mevali daraxtlarning bargiga, don ekinlarining poyasiga zarar keltiruvchi turlari ham bor? **Gilos, olcha, olma va boshqa mevali daraxtlarning bargiga.**

649. Arapayma qaysi turkumga mansub yirik baliq? **Suyaktillilar kenja turkumiga mansub yirik baliq.**

650. Arapayma balig'ining og'irligi qancha kg? **200 kg.**

651. Arapayma balig'ining uzunligi necha m gacha? **4 m gacha.**

652. Arapayma balig'i qayerdagi qaysi daryo havzasida uchraydi? **Janubiy Amerikadagi Amazonka daryosi havzasidauchraydi.**

653. Arratumshuq baliqlar qaysi turkum oilasi? **Skatlar turkumi oilasi.**

654. Arratumshuq baliqlarning tanasi uzunligi necha m gacha? **6 m gacha.**

655. Arratumshuq baliqlarning og'irligi qancha kg gacha? **2400 kg gacha.**

656. Arratumshuq baliqlarning tanasi qanday? **Yassi.**

657. Arratumshuq baliqlarning ko'krak suzgichlarining chetlari qaysi a'zosi bilan qo'shilib ketgan? **Boshi bilan qo'shilib ketgan.**

658. Arratumshuq baliqlarning jabra yoriqlari qaysi a'zosining ostki tomonida joylashgan? **Boshining ostki tomonida joylashgan.**

659. Arratumshuq baliqlarning nechta turi ma'lum? **7 ta turi ma'lum.**

660. Arratumshuqlar nima uchun shu nom bilan ataladi? **Chunki bu baliqlar uzun tumshug'ining ikki qirrasida xuddi arrabaliqlarnikiga o'xshash tishlari borligidan shu nom bilan ataladi.**

661. Arratumshuq baliqlar suvning qayerida hayot kechiradi? **Suv tubida hayot kechiradi.**

662. Arratumshuq baliqlar qanday tug'adi? **Tirik tug'adi.**

663. Arratumshuqlar tumshug'ining ostida necha juft sezgi mo'ylovi bor? **Bir juft sezgi mo'ylovi bor.**

664. Arratumshuqlar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

665. Arratumshuq baliqlarning qaysi turi keng tarqalgan? **Oddiy arratumshuq (Pristis pectinalis) turi keng tarqalgan.**

666. Arratumshuq baliqlar qanday dengizlarda hamda suvlarda tarqalgan? **Tropik va subtropik dengizlarda hamda tropik chuchuk suvlarda tarqalgan.**

667. Arratumshuqlar qaysi davlatlar qirg'oq suvlarida tarqalgan? **Avstraliya va Yaponiya qirg'oq suvlarida tarqalgan.**

668. Arratumshuq baliqlar qaysi okeanlar dengizlarida, daryolarda uchraydi? **Atlantika, Tinch va Hind okeanlari dengizlarida, jumladan, O'rta dengizning sohilga yaqin uncha chuqur bo'lmagan joylarida, Amerika daryolarida uchraydi.**

669. Arratumshuq baliqlarning qaysi turi arrasi yordamida suv tubidagi loydan har xil umurtqasiz hayvonlarni kovlab olib yeydi? **Avstraliya arratumshug'i (P. leichardti) turi arrasi yordamida suv tubidagi loydan har xil umurtqasiz hayvonlarni kovlab olib yeydi.**

670. Araxnologiya zoologiyaning qaysi sinfini o'rganuvchi bo'limi? **O'rgimchaksimonlar sinfini o'rganuvchi bo'limi.**

671. Arboviruslar nima suruvchi hasharotlar (chivin, iskabtopar, kana va boshq. orqali) kasallik tarqatadigan viruslar? **Qon so'ruvchi hasharotlar (chivin, iskabtopar, kana va boshq. orqali) kasallik tarqatadigan viruslar.**

672. Arboviruslarning qancha turi ma'lum? **300 dan ortiq turi ma'lum.**

673. Arboviruslarning qancha turi odamlarda har xil yuqumli kasalliklar (mas., gemorragik isitma, sariq isitma va boshq.) ni qo'zg'atadi? **100 dan ziyod turi odamlarda har xil yuqumli kasalliklar (mas., gemorragik isitma, sariq isitma va boshq.) ni qo'zg'atadi.**

674. Arvohkapalaklar, brajniklar qaysi oilaga mansub? **Kapalaklar oilasiga mansub.**

675. Arvohkapalaklarning yer yuzida nechta turi bor? **1200 ga yaqin turi bor.**

676. Arvohkapalaklarning yoyilgan qanotlari uzunligi necha sm? **2 – 20 sm.**





677. Arvohkapalaklarning tanasi shakli qanday? **Yo'g'on, sigarasimon shaklda.**

678. Arvohkapalaklarning qaysi a'zolari boshqa kapalaklarnikiga nisbatan kalta va ingichka? **Qanotlari boshqa kapalaklarnikiga nisbatan kalta va ingichka.**

679. Arvohkapalaklar qanday muskullar bilan ta'minlangan? **Kuchli muskullar bilan ta'minlangan.**

680. Arvoh kapalaklarning xartumi kaltami yoki uzun? **Uzun.**

681. Arvohkapalaklarning ayrim qaysi vakillari xartumi uzunligi 25 sm dan ortadi? **Tropik vakillarining xartumi uzunligi 25 sm dan ortadi.**

682. Arvohkapalaklarning bir qancha turlarida qaysi a'zosi reduksiyalangan? **Xartumi reduksiyalangan.**

683. Arvohkapalaklarning qanotlari qanday kattalikda (bir xilmi yoki har xilmi)? **Har xil kattalikda.**

684. Arvohkapalaklarning oldingi qanotlari qanday? **Ingichka va cho'ziq, keyingilari nisbatan kalta bo'lib, rangdor, dog'lari yoki belbog'lari bor.**

685. Arvohkapalaklarning qurtlari qanday? **Yalang'och (tuksiz).**

686. Arvohkapalaklarning qurtlari orqa tomonida yagona qanday o'simtasi bo'ladi? **Shoxsimon o'simtasi bo'ladi.**

687. Arvohkapalaklarning g'umbaklari, odatda, qayerda maxsus yo'rgakchalarda yoki yupqa tuproqlardan iborat pilla ichida qishlaydi? **Tuproq ichida qishlaydi.**

688. Arvohkapalaklarning qaysi a'zosida teri cho'qqisi bor? **Burnida teri cho'qqisi bor.**

689. Arvohkapalaklar, odatda, qachon qayerda paydo bo'ladi? **Qosh qorayganda gulzorlar yaqinida paydo bo'ladi.**

690. Arvohkapalaklar qanday jihatlari bilan diqqatni o'ziga jalb etadi? **Ular favqulodda tez uchishi va qanotlarini tez pirillatib, bir joyda parvoz qilishi bilan diqqatni jalb etadi.**

691. Arvohkapalaklar yirik kapalaklar bo'lib, qaysi a'zosi yo'g'on? **Qorinchasi yo'g'on.**

692. Arvohkapalaklar gavdasining keyingi uchi qanday? **Ingichkalashgan.**

693. Arvohkapalaklarning mo'ylovlari shakli qanday? **Duksimon.**

694. Arvohkapalaklarning oldingi qanotlari shakli qanday? **Uchburchak va uzun.**

695. Arvohkapalaklarning orqa qanotlari qanday? **Kichikroq.**

696. Arvohkapalaklarning lichinkalari maydami yoki yirik? **Yirik, tuksiz.**

697. Arvohkapalaklarning lichinkalari rangi qanday bo'ladi? **Yashil bo'ladi.**

698. Arvohkapalaklar deb nomlanishining sababi nima? **Chunki arvoh kapalaklar shom paytida juda faol ucha boshlaganligi tufayli ularga arvoh nomi berilgan.**

699. Arvohshapalaklar, vampirlar qaysi jonvorlar turkumining urug'i? **Ko'rshapalaklar turkumining urug'i.**

700. Arvohshapalaklar qanday ko'rshapalaklar oilasiga mansub? **Varaqburunli ko'rshapalaklar oilasiga mansub.**

701. Arvohshapalaklar gavdasi necha sm? **16 sm.**

702. Arvohshapalaklar qanotini yoyganda necha sm cha? **70 sm cha.**

703. Arvohshapalaklarning qaysi a'zosi katta? **Qulog'i katta.**

704. Arvohshapalaklarning qaysi a'zosida teri cho'qqisi bor? **Burnida teri cho'qqisi bor.**

705. Arvohshapalaklar tanasining usti rangi qanday? **Och jigarrang.**

706. Arvohshapalaklarning tanasi osti rangi qanday? **To'q sariq.**

707. Arvohshapalaklar ko'rinishi qanday? **Juda xunuk.**

708. Arvohshapalaklar qachongi jonivor? **Tungi jonivor.**

709. Arvohshapalaklar kunduzi qayerlarda yotadi? **Daraxt va devor kovaklarida yotadi.**

710. Arvohshapalaklar nimalar bilan ovqatlanadigan qanday maxluq? **Hasharot va mevalar bilan ovqatlanadigan zararsiz maxluq.**

711. Arvohshapalaklar qanday iqlimli mintaqalarda, qaysi orollarda tarqalgan? **Amerikaning tropik va o'rta iqlimli mintaqalarda, Katta Antil orollarida tarqalgan.**

712. Argazid kanalar qanday kanalar oilasi? **Parazitofera kanalar oilasi.**





713. Argazid kanalar qayerda yashovchi umurtqalilar nimasini so'rishga ixtisoslashgan parazitlar? **Quruqlikda yashovchi umurtqalilar qonini so'rishga ixtisoslashgan parazitlar.**

714. Argazid kanalar qanday iqlimli mamlakatlarda uchraydi? **Issiq iqlimli mamlakatlarda uchraydi.**

715. Argazid kanalarning urg'ochisi nechtadan tuxum qo'yadi? **50 – 200 tadan tuxum qo'yadi.**

716. Argazid kanalar tuxumidan necha oyoqli lichinka chiqadi? **Olti oyoqli lichinka chiqadi.**

717. Argazid kanalar necha marta po'st tashlagandan so'ng voyaga yetadi? **2–7 marta po'st tashlagandan so'ng voyaga yetadi.**

718. Argazid kanalarning uzunligi necha mm dan necha mm gacha? **3 mm dan 30 mm gacha.**

719. Argazid kanalar qanday shaklda bo'ladi? **Suyri yoki tuxum shaklida bo'ladi.**

720. Argazid kanalarning tanasi nima bilan o'ralgan? **Bir muncha qalin qobiq bilan o'ralgan.**

721. Argazid kanalar nimalarning qonini so'rib yashaydi? **Umurtqali hayvonlar va odam qonini so'rib yashaydi.**

722. Argazid kanalar qachon juda shishib ketadi? **Qon so'rganda juda shishib ketadi.**

723. Argazid kanalarning qonga to'yganlari og'irligi och kanalarga nisbatan qancha marta ortadi? **Bir qancha yuz marta ortadi.**

724. Argazid kanalar tanasining nimalari bo'lmaydi? **Qalqonlari bo'lmaydi.**

725. Argazid kanalar necha yilgacha och yashashi mumkin? **11 yilgacha och yashashi mumkin.**

726. Argazid kanalar qachon faol hayot kechiradi? **Kechasi faol hayot kechiradi.**

727. Argazid kanalarning ayrim turlari nimalarga spiroxetoz, virus kasalliklarini yuqtiruvchi hisoblanadi? **Odam va hayvonlarga spiroxetoz, virus kasalliklarini yuqtiruvchi hisoblanadi, tovuq spiroxetozini eron orgas kanasi – Argas persicus tarqatadi, kana odam qonini** so'rganida **teri qichiydi.**

728. Argazid kanalarning qancha turi mavjud? **100 ga yaqin turi mavjud.**

729. Argazid kanalarning qaysi turlari O'zbekiston va Markaziy Osiyo hududlarida uchraydi? **Eron argas kanasi, kaptar kanasi (A. reflicus) va Ornitnodorus urug'ining turlari uchraydi.**

730. Argazid kanalar qaysi hayvonlarning qonini so'rib katta ziyon keltiradi? **Uy hayvonlarining qonini so'rib katta ziyon keltiradi.**

731. Argazid kanalar odamni chaqqanda nima bo'ladi? **Badanga qizilcha toshadi va qichiydi.**

732. Argazid kanalar ko'pgina nimalarni tarqatadi? **Kasalliklarni tarqatadi.**

733. Arguslar qirg'ovullarning nechta, bir-biriga yaqin monotopik urug'lari? Ular qaysilar? **Ikkita urug'lari. Ular quyidagilar: Argustanus va Rheinartia urug'lari.**

734. Arguslar, katta arguslar (A. argus) qaysi o'rmonlarda tarqalgan? **Myanma, Malakka, Sumatra va Kalimantan o'rmonlarida tarqalgan.**

735. Arguslar qayerdagi o'rmonlarda yashaydi? **Osiyoning janubi-sharqidagi o'rmonlarda yashaydi.**

736. Arguslar xo'rozining dumi necha m keladi? **1,5 m keladi.**

737. Arguslar xo'rozining tanasi uzunligi necha m? **1,7 – 2 m. radi.**

738. Arguslar qanday hayot kechiradi? **Yashirin hayot kechiradi.**

739. Arguslar tabiatni muhofaza qilish Xalqaro tashkilotining qaysi kitobiga kiritilgan? **Qizil kitobiga kiritiilgan.**

740. Ardenna ot zoti qanday yuk tortuvchi ot zoti? **Og'ir yuk tortuvchi ot zoti.**

741. Ardenna ot zoti qayerlarda yetishtirilgan? **Belgiyaning janubi va Fransiyaning shimoli-sharqidagi Ardenna tog'ligi rayonida (nomi shundan) yetishtirilgan.**

742. Ardenna ot zoti Rossiyaga qachon keltirilgan? **XIX asrning o'rtalarida keltirilgan.**

743. Ardenna ot zoti asosida qanday ot zotlari yaratilgan? **Rus og'ir yuk tortuvchi ot zoti hamda boltiq bo'yi ot zoti yaratilgan.**

744. Ardenna ot zoti qaysi davlatlarda ham boqiladi? **Avstriya, Vengriya, Argentina, Chilida ham boqiladi.**





745. Aristotelning qaysi asarida baliqlarni alohida sistematik guruhga ajratadi? **"Hayvonlar tarixi" asarida baliqlarni alohida sistematik guruhga ajratadi.**

746. Aristotel hayvonlarning qancha shakli (formasi)ga tavsif bergan? **252 shakliga tavsif bergan.**

747. Aristotel hayvonlar sistematikasini nechta katta guruhga ajratgan? Ular qaysilar? **2 ta guruhga ajratgan. Ular: qonlilar (hozir umurtqalilar) va qonsizlar (hozir umurtqasizlar) ga ajratgan.**

748. Aristotel hayvonlar sistematikasini nechta kichik guruhlarga ajratgan? **8 ta kichik guruhlarga ajratgan.**

749. Arikalxatlar qaysi qushlar turkumining qarchig'aysimonlar oilasiga mansub? **Yirtqich qushlar turkumining qarchig'aysimonlar oilasiga mansub.**

750. Arikalxatlar deyilishiga sabab nima? **Chunki bu qush ari, qovoqari, asalari kabi hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

751. Arikalxatlarning necha turi bo'lib, ular qayerlarda tarqalgan? **Ikkita turi bo'lib, ular Yevropa va Osiyoda tarqalgan.**

752. Arikalxatlarning nechta turi O'zbekistonda uchrab turadi? **Bitta turi O'zbekistonda uchrab turadi.**

753. Arikalxat qishlash uchun qayerga uchib ketadi? **Afrika va Osiyoning janubiga uchib ketadi.**

754. Arikalxatlar qayerlarda yashaydi? **Baland daraxtli o'rmonlarda yashaydi.**

755. Arikalxatlar uyasini qayerlarga quradi? **Daraxtlarga quradi.**

756. Arikalxatlar nechta tuxum qo'yadi va tuxumini erkagi bosadimi yoki urg'ochisi? **2 ta va urg'ochisi bosadi.**

757. Arikalxatlar qaysi hasharotlar bilan ovqatlanadi? **Ari, qovoqari, asalari kabi hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

758. Arikalxatlarning tarqalishi, ya'ni Yevropa va Osiyoda tarqalganligi bois ham nimalarga bog'liq? **Hasharotlarga bog'liq.**

759. Ari, arilar qanday dumli pardaqanotlilarning umumiy nomi? **Nayzadumli pardaqanotlilarning umumiy nomi.**

760. Arilarning qancha turi ma'lum? **20 mingga yaqin turi ma'lum.**

761. Arilar qaysi materikda keng tarqalgan? **Deyarli hamma materiklarda keng tarqalgan.**
762. Arilar, arisimonlar – chaquvchi pardaqanotlilarning katta oilasi bo'lib, qaysi arilarga yaqin tuzilgan? **Kovlovchi arilarga.**
763. Arilarning qaysi a'zosi guldan nektar yig'ishga moslashgan? **Uzun xartumi guldan nektar yig'ishga moslashgan.**
764. Arilarga nechta oila, qancha tur kiradi? **7 ta oila, 30 mingdan ko'proq tur kiradi.**
765. Arilarning O'zbekistonda qancha turi uchraydi? **Bir necha turi uchraydi.**
766. Arilarning ko'pchiligi qanday yashaydi? **Yakka yashaydi.**
767. Arilarning qaysi turi koloniya bo'lib yashaydi? **Andrenalar turi koloniya bo'lib yashaydi.**
768. Arilar qanday o'simliklarning changlanishida katta ahamiyatga ega? **Gulli o'simliklarning changlanishida katta ahamiyatga ega.**
769. Arisimonlar orasida uya parazitlar qaysi? **Kakku-ari.**
770. Arixo'rlar yirtqich qushlar turkumining qaysi oilasiga mansub? **Qarchig'aysimonlar oilasiga mansub.**
771. Arixo'rlarning ikkita turi bo'lib, ular qayerlarda tarqalgan? **Yevropa va Osiyoda tarqalgan.**
772. Arixo'rlar qishlash uchun qayerlarga uchib ketadi? **Afrika va Osiyoning janubiga uchib ketadi.**
773. Arixo'rlarning nechta turi O'zbekistonga har zamonda (bahor yoki kuzda) uchib keladi? **Bitta turi O'zbekistonga har zamonda (bahor yoki kuzda) uchib keladi.**
774. Arixo'rlar qanday o'rmonlarda yashaydi? **Baland daraxtli o'rmonlarda yashaydi.**
775. Artemiya qaysi turkumning yaproq oyoqli qisqichbaqasimonlar urug'i? **Jabraoyoqlilar kenja turkumining.**
776. Artemiya qayerlarda tarqalgan? **Turli darajada sho'rlangan ko'llar, ko'lmak suvlari va dengiz limanlarida tarqalgan.**
777. Artemiyaning tanasi uzunligi necha sm gacha bo'ladi? **1 sm gacha bo'ladi.**
778. Artemiya erkagining antennasi tutuvchi a'zoga aylangan bo'lib, qaysi davrda urg'ochisini ushlab turish uchun xizmat qiladi? **Kuyiqish davrida urg'ochisini ushlab turish uchun xizmat qiladi.**





779. Artemiya antennalarining shakli qanday? **Ipsimon.**
780. Artemiyaning tuxum xaltasi nechta? **Bitta.**
781. Artemiyaning o'ziga xos belgilaridan biri nima? **Qorni uchidan ayrichaning juda kam rivojlangan bo'lishi, suvdagi tuz qanchalik kam bo'lsa, ayricha shu qadar ko'p rivojlanadi.**
782. Artemiya qayerda yashaydi? **Suvi biroz sho'rroq ko'llarda (xususan, Rossiya Federatsiyasining janubidagi limanlarda) yashaydi.**
783. Artemiya suv sho'rlanishining qanday chegarada o'zgarishiga moslashgan? **40 foizdan 230 foizgacha sho'rlanishiga moslashgan.**
784. Artemiya qorin bo'limi uchidagi ayrisining rivojlanishi suvning nimasiga qarab o'zgarib turadi? **Sho'rlanishiga qarab, agar sho'rlanish kam bo'lsa, ayri shuncha uzun bo'ladi.**
785. Artemiya O'zbekistonning qayerlarida ko'p uchraydi? **Cho'l va dashtlarida sizot suvlardan hosil bo'lgan ko'llarda, zovur suvlarida ko'p uchraydi.**
786. Artemiya qaysi jonivorlarga ovqat sifatida maxsus qayerlarda ko'paytiriladi? **Baliqlarga ovqat sifatida zavodlarda ko'paytiriladi.**
787. Arman koshenili qayerda tarqalgan? **Armanistonda tarqalgan.**
788. Arslon, sher qaysi sut emizuvchilarning bir turi? **Yirtqich sut emizuvchilarning bir turi.**
789. Arslon ko'pincha nechta bo'lib yuradi? **Yakka bo'lib yuradi.**
790. Arslon, sher qaysi oilaga kiradi? **Mushuksimonlar oilasiga kiradi.**
791. Arslonning homiladorlik davri necha oy? **4–5 oy.**
792. Arslon ko'pincha nechta tug'adi? **3–4 ta tug'adi.**
793. Arslonning gavdasi necha m cha? **2 m cha.**
794. Arslonning dumi necha sm cha? **90 sm cha.**
795. Arslonning katta va o'tkir panja tirnoqlari yurganda qayerga tortilib kiradi? **Teri ichiga tortilib kiradi.**
796. Arslonning mo'ylovi necha qator? **6-8 qator.**
797. Arslon qaerlarda tarqalgan? **Afrika, Janubi-G'arbiy Osiyo (Arabiston, Eron, Hindiston)da tarqalgan.**

798. Arslon qayerlarda yashaydi? **Sahro va savannalarda yashaydi.**

799. Arslon bolalarini necha oyligida ajratadi? **6 oyligida ajratadi.**

800. Arslonning erkagi necha yoshga kirganda yol chiqaradi? **3 yoshga kirganda yol chiqaradi.**

801. Arslon tutqunlikda bolalaydimi? **Ha, bolalaydi.**

802. Arslon hayvonot bog'larida necha yoshga kirganligi kuzatilgan? **70 yoshga kirganligi kuzatilgan.**

803. Arslonlarning erkaklari qachon bir-biri bilan qattiq urishadi? **Urg'ochi talashib bir-biri bilan qattiq urishadi.**

804. Arslon necha yoshga kirganda voyaga yetadi? **6 – 7 yoshga kirganda voyaga yetadi.**

805. Arslon O'zbekistonda uchraganmi? **Yo'q, uchragan emas.**

806. Arslonning bolasi (tug'ilganda) qaysi jonivordek keladi? **Mushukdek keladi.**

807. Arslon qanday hayvon? **Chiroyli, kuchli hayvon, xususan, erkak arslonning bo'yi va ko'kragini qoplagan yoli uni ulug'vor va ko'rkam qilib ko'rsatadi.**

808. Arslon qachon odamga hamla qiladi? **Faqat ochligida va yarador bo'lganida odamga hamla qiladi.**

809. Arxar, yovvoyi qo'y qaysi turkumga mansub? **Juft tuyoqlilar turkumiga mansub.**

810. Arxarning homiladorlik davri necha oy? **5 oy.**

811. Arxarning qo'zisi necha yoshda voyaga yetib, urchiy boshlaydi? **3 yoshida voyaga yetib, urchiy boshlaydi.**

812. Arxarning qo'chqori necha yoshda voyaga yetadi? **4 yoshida voyaga yetadi.**

813. Arxar, yovvoyi qo'y qaysi qo'ylarning bir turi? **Yovvoyi qo'ylarning bir turi.**

814. Arxar, yovvoyi qo'yning og'irligi qancha kg cha? **200 kg cha (erkagi).**

815. Arxarning qo'shilish davri necha oygacha? **1 oygacha.**

816. Arxar ba'zan nima deb ham ataladi? **Muflon, arkal, arqar, urial deb ham ataladi.**





817. Arxar qanday hududlarda tarqalgan? **O'rta dengiz orollari, Old, O'rta, Markaziy va Shimoli-sharqiy Osiyoning tog'lik hududlarida tarqalgan.**

818. Arxar qayerlarda yashaydi? **Tog' yon bag'irlari va qoyalar orasidagi birmuncha tekis va ochiq joylarda yashaydi.**

819. Arxar erkaklarining tanasi uzunligi necha sm? **110 – 120 sm.**

820. Arxar erkaklarining bo'yi necha sm? **65 – 125 sm.**

821. Arxar erkaklarining og'irligi qancha kg gacha? **230 kg gacha.**

822. Arxar erkaklarining shoxi shakli qanday buralgan? **Spiralsimon yoki halqasimon buralgan.**

823. Arxar erkaklarining shoxi uzunligi necha sm? **70 – 190 sm.**

824. Arxar urg'ochilarining shoxi qanday? **Ingichka yoki butunlay bo'lmaydi.**

825. Arxarning nechta turi ma'lum? Ular qaysilar? **Uchta turi ma'lum. Ular: Tyanshan qo'yi (O. ammon karelini), Yevropa qo'yi (O. musimon), Osiyo qo'yi (O. orientalis).**

826. Arxarning qancha kenja turi ma'lum? **10 ga yaqin kenja turi ma'lum.**

827. Arxarning O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda qaysi turlari uchraydi? **Tyanshan qo'yi va Osiyo qo'yi uchraydi.**

828. Arxarning Tyanshan qo'yi yaqin vaqtlargacha Farg'ona tog'larida bo'lgan qismida, shu jumladan, qaysi tog'larda keng tarqalgan edi? **Ugom, Pskom, Chatqol, Talas va Qirg'iz tog'larida keng tarqalgan edi.**

829. Arxar hozir, asosan, qaysi qo'riqxonada saqlanib qolgan? **Chatqol qo'riqxonasida saqlanib qolgan.**

830. Arxar daryolarning yuqori oqimda necha m balandlikda uchraydi? **2000 – 3000 m balandlikda uchraydi.**

831. Arxar tik qoyalar yaqinidagi relfi notekis bo'lgan joylarni qanday ko'radi? **Yaxshi ko'radi.**

832. Arxar bahorga yaqin tog'ning pastroq qismiga tushib nima qilishi mumkin? **Ekin ekilgan dalalarga tushib o'tlashi mumkin.**

833. Arxarning Tyanshan qo'yi turi qo'chqorining shoxlari spiralsimon buralgan bo'lib, uzunligi necha sm gacha? **120 sm gacha.**

834. Arxarning Tyanshan qo'yi turi urg'ochisining shoxlari qanday? **Ingichka, kalta.**

835. Arxarning Tyanshan qo'yi turi urg'ochisining og'irligi qancha kg? **50 – 54 kg.**

836. Arxarning Osiyo qo'yi turi qayerlarda tarqalgan? **Tyanshan, Pomir, Himolay tog'larining O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Afg'oniston va Pokiston hududlarida tarqalgan.**

837. Arxarning Osiyo qo'yi turining O'zbekistonda Qizilqum qo'yi, Severtsov qo'yi (O. orientalis severtzovi) qayerlarda saqlanib qolgan? **Markaziy va G'arbiy Qizilqumning Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi past tog'larida hamda Pomir – Olayning Nurota, Oqtov, Molguzar tog'larida saqlanib qolgan.**

838. Arxarning Osiyo qo'yi turi qo'chqorining uzunligi necha sm? **130 sm.**

839. Arxarning Osiyo qo'yi turi qo'chqorining bo'yi necha sm? **80 sm.**

840. Arxarning Osiyo qo'yi turi qo'chqorining og'irligi qancha kg? **70 – 125 kg.**

841. Arxarning Osiyo qo'yi turi erkagining shoxi qanday shaklda buralgan bo'lib, uzunligi necha sm? **Halqa shaklda buralgan bo'lib, uzunligi 98 – 107 sm.**

842. Arxarning Osiyo qo'yi turi urg'ochisining shoxi qanday? **Ingichka, kalta.**

843. Arxarning Osiyo qo'yi urg'ochisining shoxi shakli qanday egilgan? **Qilichsimon egilgan.**

844. Arxarning Osiyo qo'yi urg'ochisi bo'yining ostki tomonidagi yoli Tyanshan qo'yinikiga nisbatan birmuncha qanday? **Kalta va ensiz.**

845. Arxarning Osiyo qo'yi kenja turi O'zbekiston hududidagi Qizilqumning hamma qanday tog'larida tarqalgan edi? **Hamma past tog'larida tarqalgan edi.**

846. Arxeopteriks, arxeornis, dastlabki qush qaysi sinfga kirasdi? **Qushlarning eng qadimgi, qirilib ketgan urug'i, kaltakesakdumlilar kenja sinfiga kiradi.**





847. Arxeopteriks qush patlarining izi dastlab nechanchi yilda, to'liq skelet qoldig'i esa nechanchi yilda qayerda topilgan? **Patlarining izi dastlab 1860-yilda, to'liq skelet qoldig'i esa 1861-yilda Bavariya (Germaniya)da yura qatlamidan topilgan.**

848. Arxeopteriks qaysi parrandalar sinfining qazilma holda topilgan dastlabki vakillaridan biri? **Qushlar sinfining qazilma holda topilgan dastlabki vakillaridan biri.**

849. Arxeopteriksning tuzilishi arxeopteriksidan faqat qaysi a'zolarining tuzilishi bilan farq qiladi, xolos? **Tos (oyoq) va elka (qo'l) kamarlarining tuzilishi bilan farq qiladi, xolos.**

850. Arxeopteriks qaysi a'zolari bo'linishi bilan qushlarga o'xshaydi? **Tana shakli, bosh va oyoq skeletlarining tuzilishi va pati bo'lishi bilan qushlarga o'xshaydi.**

851. Arxeopteriksning uzun dumi nechta umurtqadan iborat? **20 ta umurtqadan iborat.**

852. Arxeopteriks qaysi a'zolarining bo'lmasligi, qaysi a'zolarining bo'lishi bilan sudralib yuruvchilarga o'xshab ketadi? **Jag'idagi tishlari, 20 ta umurtqadan iborat uzun dumli, qanotlaridagi tirnoqli barmoqlari, suyaklarida havo bo'shlig'i bo'lmasligi; qorin qovurg'alarining bo'lishi bilan sudralib yuruvchilarga o'xshab ketadi.**

853. Arxeopteriks, dastlabki qushning qaysi qush kattaligidagi nechta turi ma'lum? **Zag'izg'on kattaligidagi bitta (A. lithographica) turi ma'lum.**

854. Arxeopteriksning 1861-yilda Bavariya (Germaniya)da yura qatlamidan topilgan hozir qaysi muzeyda saqlanmoqda? **Britaniya muzeyida saqlanmoqda.**

855. Arxeopteriks qushning nechta skeleti ma'lum? **5 ta skeleti ma'lum.**

856. Arxeotsiatlar tuxumi qurib ketgan qanday jonivorlar turkumi? **Umurtqasiz jonivorlar turkumi.**

857. Arxeotsiatlarning bo'yi necha sm? **6 – 8 sm.**

858. Arxeotsiatlarning eni necha sm? **1 – 2 sm.**

859. Arxeotsiatlar necha m gacha chuqurlikdagi suv tubida yopishib yashagan? **100 m gacha chuqurlikdagi suv tubida yopishib yashagan.**

860. Arxeotsiatlarning yer yuzidan qariyb qancha turining qoldiqlari topilgan? **400 ta turining qoldiqlari topilgan.**

861. Arxeotsiatlarning qoldiqlari yordamida qaysi davr yotqiziqlari o'rganilib, ularning qanday sxemasi tuziladi? **Kembriy davri yotqiziqlari o'rganilib, ularning stratigrafik sxemasi tuziladi.**

862. Arxozavrlar qanday jonivorlarning kenja sinfi? **Sudralib yuruvchilarning kenja sinfi.**

863. Arxozavrlar qaysi davrdan ma'lum? **Perm davridan ma'lum.**

864. Arxozavrlarning bosh suyagida qaysi a'zolar bo'ladi? **2 ta chekka suyagi va ko'z oldi tuykugi bo'ladi.**

865. Arxozavrlarning chanoq suyagi necha nurli? **3 yoki 4 nurli.**

866. Arxozavrlarning terisi nima bilan qoplangan? **Qalin sovut bilan qoplangan.**

867. Arxozavrlar qaysi erada yer yuzida eng keng tarqalgan va juda xilma-xil turlardan iborat sudralib yuruvchilar guruhi bo'lgan? **Mezozoy erasida yer yuzida eng keng tarqalgan va juda xilma-xil turlardan iborat sudralib yuruvchilar guruhi bo'lgan.**

868. Arxozavrlarning ayrimlarida nima uchun dumi va dumg'azasi kuchli rivojlangan? **Chunki ikki oyoqda tik yurgani uchun dumi va dumg'azasi kuchli rivojlangan.**

869. Arxozavrlardan hozir faqat qaysi jonivorlar saqlanib qolgan? **Timsohlar saqlanib qolgan.**

870. Archa to'qay chumchug'i qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Shimoliy va G'arbiy Afrika, Shimoliy va Markaziy Osiyo, Filippin, Shimoliy hamda Markaziy Amerikada tarqalgan.**

871. Arg'umoq Sharqda qanday otlarga berilgan umumiy nom? **Zotli chopqir otlarga berilgan umumiy nom.**

872. Arg'umoq otlar nomi bilan ataluvchi otlar ko'proq qaysi zotlariga taalluqli? **Arabi ot, axaltaka, yovmut, qorabayir ot zotlariga taalluqli.**

873. Asalari qaysi jonivorlar oilasining bir turi? **Arilar oilasining bir turi.**

874. Asalarining vatani qayer hisoblanadi? **Janubiy Osiyo.**

875. Asalarilar, asosan, qanday bo'lib yashaydi? **Oila bo'lib.**





876. Asalarilarning bir oilasi nimalardan iborat? **Bir ona (xalq tilida «podshosi» deb ham yuritiladi) bir necha ming ishchi va bir necha yuz erkak asalaridan iborat.**

877. Asalari (ona)ning tanasi uzunligi necha mm? **20 – 25 mm.**

878. Asalari (ona)ning og'irligi qancha mg? **200 – 250 mg.**

879. Asalari (ona) bahordan kuzga qadar qanday vazifani bajaradi? **Tuxum qo'yish va oilani boshqarish vazifasini bajaradi.**

880. Asalari (ona)ning qaysi a'zolari rivojlangan? **Jinsiy a'zolari rivojlangan.**

881. Asalari necha yilgacha yashaydi? **5 yilgacha yashaydi.**

882. Asalari, tajribali asalarichilar ona asalarilarini har necha yilda yangilab turadilar? **Har ikki yilda yangilab turadilar.**

883. Asalari (ona) bir sutkada nechtagacha tuxum qo'yadi? **2 – 2,5 mingtagacha tuxum qo'yadi.**

884. Asalari (erkak) tanasi uzunligi necha mm? **15 – 17 mm.**

885. Asalari (erkak)og'irligi qancha mg? **200 mg.**

886. Asalarining bir oilasida nechtacha erkak asalari bo'ladi? **80 – 100 tacha erkak asalari bo'ladi.**

887. Asalari (erkak)ning asosiy vazifasi nima? **Ona asalarini urug'lantirish.**

888. Asalarining erkagi ona asalari bilan qayerda juftlashadi? **Havoda juftlashadi.**

889. Asalarining erkagi urug'lantirgandan keyin nima bo'ladi? **Halok bo'ladi.**

890. Asalarilarning erkaklari uyada faqat qaysi faslda bo'ladi? **Yozda bo'ladi.**

891. Asalarilar (erkaklari)ni kuzda oilada urchish ishlari to'xtashi bilan ishchi asalarilar (urg'ochilari) uyada ularni nima qiladi? **Quvib chiqaradi.**

892. Asalari (ishchi)ning tanasi uzunligi necha mm? **11 – 15 mm.**

893. Asalari (ishchi)ning og'irligi qancha mg? **100 mg.**

894. Asalari (ishchi)ning qaysi a'zolari rivojlanmagan? **Jinsiy a'zolari rivojlanmagan.**

895. Asalarilarning bir oilasida yozda qancha, qishda qancha ishchi asalari bo'ladi? **Yozda 60 – 80 ming, qishda 10 – 15 ming ishchi asalari bo'ladi.**

896. Asalari (ishchi)lari soatiga necha km tezlikda ucha oladi? **60 km tezlikda ucha oladi.**

897. Asalari (ishchi)lar oiladan necha km va undan ortiq masofaga uchib borib, nektar va gul changini yig'ish, nektarni asalga aylantirish, mum ishlash, lichinkalarni boqish, katak qurish, uyani qo'riqlash kabi ishlarni bajaradi? **2 – 3 km va undan ortiq.**

898. Asalari 100 g asal yig'ish uchun necha km masofani uchib o'tadi? **46 ming km masofani uchib o'tadi.**

899. Asalari oilasi mavsumda qancha kg asal to'playdi? **140 – 150 kg asal to'playdi.**

900. Asalari oilasi mavsumda to'plagan asalidan qancha kg asal ta'minotiga sarflansa, qancha kg asal ajratib olinadi? **100 kg sarflansa, 40 – 50 kg asal ajratib olinadi.**

901. Asalari nima uchun boqiladi? **Asalari qadimdan qimmatbaho mahsulot bo'lgan asal, propolis, mum, ona asalari suti, asalari zahari va boshq.ni olish, shuningdek, qishloq xo'jalik ekinlarini, mevali bog'larni changlatish uchun boqiladi.**

902. Asalarining qanday zotlari bor? **Zotlari: O'rta Rossiya o'rmon (qoramtir) asalari zoti (A. m. millifera) – eng ko'p tarqalgan zotlarga kiradi. Arilari yirik, asaldorligi yuqori, sovuqqa chidamli, har bir oiladan 100 kg gacha asal olish mumkin. Kavkaz (Gruziya) tog'-qo'ng'ir asalari zoti (A. m. Cavcasica) – asosan, Zakavkazye, O'rta Osiyoda tarqalgan. Karpat asalari zoti – G'arbiy Ukrainaning tog'li rayonlari va Karpat ortida ko'p uchraydi. Rangi qoramtir, tabiati yumshoq, xartumi uzun. Italiya sariq asalari zoti (A. m. ligustuca)ning kelib chiqishi Italiya hisoblanib, Kanada, AQSh, Avstraliya va Yangi Zelandiyada tarqalgan. Keyinchalik Finlandiya, Yaponiya, Xitoy va Hindistonga ham kiritilgan. 1964 – 1970-yillarda O'zbekistonga keltirib sinalgan. Uzoq Sharq asalari zoti – Uzoq Sharq (Primore, Xabarovsk) da ko'p tarqalgan. Zot Ukraina, O'rta Rossiya, Italiya va Kavkaz asalarilari ishtirokida yetishtirilgan, mahsuldorligi o'rtacha. Ukraina kulrang asalari zoti (A. m. Cornica) – Yugoslaviya, Avstriya tog'larida keng tarqalgan.**

903. Asalari biti qaysi turkumga mansub jigarrang hasharot? **Qo'sh qanotlilar turkumiga mansub jigarrang hasharot.**

904. Asalari bitining bo'yi necha mm? **1 – 1,5 mm.**





905. Asalari bitining tanasi qanday tukchalar bilan qoplangan? **Qora tukchalar bilan qoplangan.**

906. Asalari bitining qaysi a'zosi katta va qanday? **Boshi katta va yalpoq.**

907. Asalari bitining qaysi a'zosi qisqa? **Ko'kragi qisqa.**

908. Asalari bitining qorni (tanasi) shakli qanday? **Tuxumsimon cho'ziq.**

909. Asalari bitining oyoqlari qanday? **Qisqa.**

910. Asalari bitining oyoqlarida nimalari bor? **Tirnoqlari bor.**

911. Asalari biti qaysi jonivorlar hisobiga yashaydi? **Xonaki asalarilar hisobiga yashaydi.**

912. Asalari bo'risi, filant qaysi oilaga mansub hasharot? **Kovlovchi arilar oilasiga mansub hasharot.**

913. Asalari bo'risi, filantning urg'ochisi o'z naslini qanday arilar bilan boqadi yoki ular yiqqan nektardan foydalanadi? **Falajlangan arilar bilan boqadi yoki ular yiqqan nektardan foydalanadi.**

914. Asalari bo'risining bo'yi necha sm? **1,5 sm.**

915. Asalari bo'risining uzunligi necha mm gacha? **17 mm gacha.**

916. Asalari bo'rilarining boshqa turlari qanday yashovchi arilarni ovlaydi? **Yakka yashovchi arilarni ovlaydi.**

917. Asalari bo'risi ko'proq qayerlarda uchraydi? **O'zbekiston va Zakavkazyeda uchraydi.**

918. Asalari bo'risi qayerlarga uya quradi? **Yerdagi kovaklarga, ko'pincha uncha katta bo'lmagan jarliklarga uya quradi.**

919. Asalari bo'risining erkaklari nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklar bilan ovqatlanadi.**

920. Asalari bo'risining urg'ochilari qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Asalari bilan ovqatlanadi.**

921. Asalarisimonlar qanday turkumning bir oilasi (ayrim adabiyotlarda katta oilasi)? **Nashtarli pardaqanotlilar turkumining bir oilasi.**

922. Asalarisimonlar qancha turni o'z ichiga oladi? **20 mingdan ortiq turni o'z ichiga oladi.**

923. Asalarisimonlarning og'iz apparati qaysi a'zolardan iborat? **Pastki jag'lar va pastki labning o'zgarishidan hosil bo'lgan xartumdan iborat.**

924. Asalarisimonlarning deyarli barchasida nima bo'ladi? **Nashtari bo'ladi.**

925. Asalarisimonlarning qaysi turlari odamni chaqib olganida kuchli og'riq paydo qiladi? **Asalarilar, paxmoq arilar, galiktlar, qizil arilar, sariq arilar, barg kemiruvchilar.**

926. Asalarisimonlar hayot kechirishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi? **Yakka yashovchilar, parazit va jamoa bo'lib yashovchilarga bo'linadi.**

927. Asalarisimonlar (yakka yashovchi) mustaqil in quradi, tuxumdan chiqqan qurtini gul nektari va gul changi aralashmasidan iborat oziq bilan qaysi turlari boqadi? **Kolletlar, andrenalar, galiktlar, melittalar, osmiyalar boqadi.**

928. Asalarisimonlar (ayrim yakka yashovchi) qayerlarga uya quradi? **Tuproqqa, loy devorlarga, jarliklarga uya quradi.**

929. Asalarisimonlarning qaysi turi ba'zan yirik koloniya hosil qiladi? **Antoforalar turi ba'zan yirik koloniya hosil qiladi.**

930. Asalarisimonlar (mayda) – tseratinlar (Ceratina urug'i) qayerlarga uya quradi? **Butalar shoxiga, maslina va maymunjonga o'xshash o'zakli o'simliklarning qurigan shoxlariga uya quradi.**

931. Asalarisimonlar (yirik arrakashari) (Xylocopa) qayerda in quradi? **Qurigan yog'ochlar (to'nka, taxta)ga in quradi.**

932. Asalarisimonlar (jamoa bo'lib yashovchi)ning tuzilishi va bajaradigan vazifalariga binoan bir-biridan farq qiladigan individlardan tashkil topadigan oilani qaysi turlari hosil qiladi? **Tukli arilar, asalarilar, kakku arilar hosil qiladi.**

933. Asalarisimonlar (tukli arilar va asalarilar)ning oilasi qanday arilardan iborat? **Bitta yirik ona ari, juda ko'p voyaga yetmagan ishchi arilar, bir necha erkak arilardan iborat.**

934. Asalarisimonlarning qaysi turi paxmoq arilar uyasiga kirib olib, onalarini o'ldiradi va uning katakchalariga o'z tuxumini qo'yadi? **Kakku arilar turi paxmoq arilar uyasiga kirib olib, onalarini o'ldiradi va uning katakchalariga o'z tuxumini qo'yadi.**

935. Asalarisimonlar nimani oshirishga yordam beradi? **Gullarni changlatib, o'simliklarning hosildorligini oshirishga yordam beradi.**





936. Asaldarakchilar qaysi turkumning bir oilasi? **Qizilishtonlar turkumining bir oilasi.**

937. Asaldarakchilarning nechta turi bor? **11 ta turi bor.**

938. Asaldarakchilar qayerlarda tarqalgan? **Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyoda tarqalgan.**

939. Asaldarakchilar qaysi parrandadan kattaroq? **Chumchuqdan kattaroq.**

940. Asaldarakchilar qayerlarda yashaydi? **O'rmonlarda yashaydi.**

941. Asaldarakchilarga nima uchun asalarining chaqishi ta'sir qilmaydi? **Chunki asaldarakchining terisi qalin bo'lgani uchun ta'sir qilmaydi.**

942. Asaldarakchilar tuxumini qayerga qo'yadi? **Boshqa qushlar iniga qo'yadi.**

943. Asaldarakchilarning jo'jalari yuqoriga va pastki jag'laridagi tishga o'xshash o'simtasi yordamida in egasining jo'jalarini nima qiladi? **O'ldiradi.**

944. Asaldarakchilarning ko'p turlari nimalar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar va ba'zi turlari asalari lichinkalari, g'umbaklari va mumi bilan ovqatlanadi.**

945. Asaldarakchilar nima uchun asaldarakchilar deyiladi? **Chunki harakati va chirillashi bilan o'rmonda yurgan odam yoki asalxo'r hayvonning e'tiborini tortib, yovvoyi asalarilar uyasiga «boshlab keladi». Asaldarakchilarning nomi shundan olingan.**

946. Asalxo'rlar qaysi chumchuqsimonlar oilasi? **Sayroqi chumchuqsimonlar oilasi.**

947. Asalxo'rning tanasi uzunligi necha sm? **68 – 75 sm.**

948. Asalxo'rning dumi uzunligi necha sm? **17 – 20 sm.**

949. Asalxo'rlar nechta tuxum qo'yadi? **1 – 4 ta tuxum qo'yadi.**

950. Asalxo'rlarning qancha turi bor? **160 – 170 ga yaqin turi bor.**

951. Asalxo'rning oyoqlari qanday? **Kalta.**

952. Asalxo'rning panjalari qanday? **Keng.**

953. Asalxo'rning qanday qaysi a'zolari yerni kovlash uchun moslashgan? **Kuchli tirnoqlari yerni kovlash uchun moslashgan.**

954. Asalxo'rning junlari qanday? **Siyrak va qattiq.**

955. Asalxo'r tanasining pastki tomoni rangi qanday? **Qora-oq.**

956. Asalxo'r tanasining ustki tomoni rangi qanday? **Oqish.**

957. Asalxo'rlar qaysi a'zosi yordamida gul nektarini so'rib oladi? **Tili yordamida gul nektarini so'rib oladi.**

958. Asalxo'r nimalar bilan ovqatlanadi? **Mayda umurtqalilar va hasharotlar, jumladan, arilar va asal bilan ovqatlanadi.**

959. Asalxo'rlar xalq xo'jaligiga qanday foyda keltiradi? **O'simliklarni changlatib foyda keltiradi.**

960. Asalxo'rlarning nechta turi va nechta kenja turi tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotining Qizil kitobiga kiritilgan? **2 ta turi va 2 ta kenja turi tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotining Qizil kitobiga kiritilgan.**

961. Asalxo'rlar qayerlarda tarqalgan? **Yangi Gvineya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Okeaniya va Gavay orollarida, bir turi Janubiy Afrikada tarqalgan.**

962. Asalxo'r qayerlarda tarqalgan? **Afrika, Old, O'rta va Janubiy Osiyo (Hindiston)da tarqalgan.**

963. Asalxo'r O'rta Osiyodagi qaysi Respublikasining qayerida uchraydi? **Turkmaniston Respublikasining janubida uchraydi.**

964. Asalxo'r qayerda hayot kechiradi? **Uyada hayot kechiradi.**

965. Asalxo'rlar qanday ohangda sayraydilar? **Chiroyli ohangda sayraydilar.**

966. Askaniya qo'y zoti – mayin tolali bo'lib, nimalari uchun boqiladigan zot? **Juni va go'shti uchun boqiladigan zot.**

967. Askaniya qo'y zoti nechanchi yillarda Ukrainaning Xerson viloyatida hayvonlarni duragaylash va iqlimlashtirish institutida akad. M. F. Ivanov Ukraina mahalliy merinos qo'ylarini tanlab borish va Amerikaning qaysi qo'chqorlaridan qochirish yo'li bilan yetishtirilgan? **1925 – 1934-yillarda rambule qo'chqorlaridan yetishtirilgan.**

968. Askaniya qo'y zoti mayin junli qo'ylar ichida o'zining nimasi bilan ajralib turadi? **Yirikligi bilan ajralib turadi.**

969. Askaniya qo'y zoti qanday iqlimga yaxshi moslashadi? **Quruq iqlimga yaxshi moslashadi.**





970. Askaniya qo'y zotining 1 $sm^2$ terisida necha dona jun tolasi bor? **4900 dona jun tolasi bor.**

971. Askaniya qo'y zoti junining uzunligi necha sm? **8,3 sm.**

972. Askaniya qo'y zoti junining ingichkaligi necha mk? **21,7 mk.**

973. Askaniya qo'y zotidan toza jun chiqimi necha foiz? **40 – 50 foiz.**

974. Askaniya qo'y zoti bo'lib, qo'chqorlarning tirik og'irligi qancha kg? **120 – 140 kg.**

975. Askaniya qo'y zoti sovliqlarining og'irligi qancha kg? **60 – 70 kg.**

976. Askaniya qo'y zoti qo'chqorlaridan qancha kg gacha jun olinadi? **12 – 15 kg gacha jun olinadi.**

977. Askaniya qo'y zoti sovliqlaridan qancha kg gacha jun olinadi? **6 – 6,5 kg gacha jun olinadi.**

978. Askaniya qo'yining 100 tasidan nechtagacha qo'zi olish mumkin? **150 tagacha qo'zi olish mumkin.**

979. Askaniya qo'y zoti ishtirokida qaysi zotlar yaratilgan? **Kavkaz, ozarbayjon, krasnoyarsk merinoslari yaratilgan.**

980. Askaniya qo'y zoti qo'chqorlarida O'zbekistonda nechanchi yillarda mahalliy jaydari qo'ylarining juni sifatini yaxshilash maqsadlarida foydalanilgan va qanday natijalar olingan? **1950-yillarda, yaxshi natijalar olingan.**

981. Askaniya qo'y zoti O'zbekistonning qaysi viloyatlari xo'jaliklarida tarqalgan? **Jizzax va Toshkent viloyatlari xo'jaliklarida tarqalgan.**

982. Askaridalar qanday chuvalchanglar oilasi? **To'garak chuvalchanglar oilasi.**

983. Askaridalar qayerlarda parazitlik qiladi? **Umurtqali hayvonlar va odam ichagida parazitlik qiladi.**

984. Askaridalar nechta urug'ni o'z ichiga oladi? **9 ta urug'ini o'z ichiga oladi.**

985. Askaridalarning tipik urug'i (Ascaris)ga nechta turi kiradi? **18 ta turi kiradi.**

986. Askaridalardan qaysilari, odatda, ko'p uchraydi? **Odam askaridasi (A. lumbricoides) va cho'chqa askaridasi (A. suum), odatda, ko'p uchraydi.**

987. Askarida (odam)si erkagining tanasi uzunligi necha sm? **15 – 25 sm.**

988. Askarida (odam)si urg'ochisining tanasi uzunligi necha sm? **25 – 40 sm.**

989. Askarida (odam) bir sutkada qancha tuxum qo'yadi? **200 mingdan ziyod tuxum qo'yadi.**

990. Askarida (urg'ochisi) har necha oyda tuxum qo'ya boshlaydi? **2 – 2,5 oyda tuxum qo'ya boshlaydi.**

991. Askarida qanday xavfli kasallikni paydo qiladi? **Askaridoz kasalligini paydo qiladi.**

992. Askarida (ichakdagi)ni tushirish maqsadida nimalar ishlatiladi? **Surgi dorilar va antigelmintlar ishlatiladi.**

993. Asl baqalar qaysi oyda urchiydi? **Aprel oyida urchiydi.**

994. Asl baqalar qancha tuxum (uvildiriq) tashlaydi? **5 – 10 ming tuxum (uvildiriq) tashlaydi.**

995. Asl baqalarning kenja oilasi nechta urug'dan iborat? **7 ta urug'dan iborat.**

996. Asl baqaning orqa oyoqlaridagi barmoqlari orasida nimasi bo'ladi? **Pardasi bo'ladi.**

997. Asl baqa tilining orqa erkin uchida nimasi bo'ladi? **Ayrisi bo'ladi.**

998. Asl bug'usimonlar kenja oilasining bo'yi necha m keladigan, qanday hayvon? **0,6 – 2,2 m keladigan, ancha yirik hayvon.**

999. Asl bug'uning nima deb ataladigan yosh shoxlaridan dori tayyorlanadi? **Pant deb ataladigan dori tayyorlanadi.**

1000. Asl bulduruqlarning nechta turi bor? **14 ta turi bor.**

1001. Asl vizildoqlar (Carabus) qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar va mollyuskalar bilan ovqatlanadi.**

1002. Asl kaltakesaklar oilasining qancha turi bor? **156 tacha turi bor.**

1003. Asl kaltakesaklar oilasi nechta uruqqa bo'linadi? **21 ta uruqqa bo'linadi.**

1004. Asl kaltakesaklarning gavdasi nimalar bilan qoplangan? **Tangachalar bilan qoplangan.**

1005. Asl kaltakesaklarning gavdasi qanday shaklda? **Silindr shaklda.**





1006. Asl kaltakesaklarning bo'yni yaqqol qanday bo'lib turadi? **Ajralib turadi.**

1007. Asl kaltakesaklarning dumi qanday? **Uzun va uziluvchan.**

1008. Asl kaltakesaklarning dumidagi tangachalar qanday shaklda? **Halqa shaklda.**

1009. Asl kaltakesaklarning qaysi a'zo teshigi bor? **Quloq teshigi bor.**

1010. Asl kaltakesaklarning oyoqlari qanday rivojlangan? **Yaxshi rivojlangan.**

1011. Asl kaltakesaklar qayerlarda va qanday yerlarda yashaydi? **Afrika, Osiyo, Yevropaning serquyosh, issiq yerlarida yashaydi.**

1012. Asl kaltakesaklar O'zbekistonda qachon uyalariga kirib oladi? **Yozda kun qiziganda uyalariga (salqin joylarga) kirib oladi.**

1013. Asl kaltakesaklar O'zbekistonda qaysi faslda karaxt bo'ladi? **Qishda (noyabrdan martgacha) karaxt bo'ladi.**

1014. Asl kaptarlar urug'idan qaysi kaptar keng tarqalgan? **Tog' ko'k kaptari (Colum livia) keng tarqalgan.**

1015. Asl kapcha ilonlarning nechta turi Afrika va Osiyoda tarqalgan? **6 ta turi Afrika va Osiyoda tarqalgan.**

1016. Asl mushuksimon ilonlar qayerlarda uchraydi? **Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston va Dog'istonda uchraydi.**

1017. Asl tasqaralarning nechta turi bor? **14 ta turi bor.**

1018. Asl tasqaralar qayerda tarqalgan? **Afrika, Janubiy Yevropa, Markaziy va Janubiy Osiyoda tarqalgan.**

1019. Asl tasqaralarning nechta turi sobiq Ittifoqda uchraydi? **5 tasi sobiq Ittifoqda uchraydi.**

1020. Asl dengiz toshbaqalari nechta uruqqa bo'linadi? **Uch uruqqa bo'linadi.**

1021. Asl dengiz toshbaqalarining nomlari nima? **1) oddiy dengiz toshbaqalari; 2) karetta; 3) chin karetta.**

1022. Asl uzunqanotlilarga nechta tur kiradi? **67 ta tur kiradi.**

1023. Asl uzunqanotlilarning barcha turlari qayerdan tashqari barcha hududlarda tarqalgan? **Qutbdan tashqari barcha hududlarda tarqalgan.**

1024. Asl qurbaqaning ko'z qorachig'i qanday joylashgan? **Vertikal joylashgan.**

1025. Asosiy nasldor qo'chqorlardan sovliqlarni nima qilishda foydalaniladi? **Urug'lantirishda foydalaniladi.**

1026. Aspidlar qaysi jonivorlar oilasi? **Ilonlar oilasi.**

1027. Aspidlar nechta uruqqa bo'lingan? **41 – 43 ta uruqqa bo'lingan.**

1028. Aspidlarning nechta turi bor? **181 ta turi bor.**

1029. Aspidlarning nechta turlari zaharli? **Barcha turlari zaharli.**

1030. Aspidlarning ustkimi yoki pastki jag'ida zahar oqib tushadigan egatchali bir juft tishi bor? **Ustki jag'ida zahar oqib tushadigan egatchali bir juft tishi bor.**

1031. Aspidlarning zahari qanday? **Kuchli.**

1032. Aspidlarning zahari qaysi a'zoni falajlovchi ta'sir ko'rsatadi, ba'zida odamni o'ldiradi? **Asab (nerv)ni falajlovchi ta'sir ko'rsatadi, ba'zida odamni o'ldiradi.**

1033. Aspidlarning o'pkasi nechta? **Bitta.**

1034. Aspidlar qaysi mintaqalarda tarqalgan? **Tropik va subtropik mintaqalarda, xususan, Afrika, Janubiy Osiyo va Avstraliya, Janubiy va Markaziy Amerikada tarqalgan.**

1035. Aspidlarning O'rta Osiyoda qaysi turi uchraydi? **Kapcha yoki qoshiqbosh ilon turi tarqalgan.**

1036. Aspidlar, asosan, qayerda yashaydi? **Asosan, yerda yashaydi.**

1037. Aspidlarning ba'zi turlari qayerda yashaydi? **Daraxtda yashaydi.**

1038. Aspidlar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baqalar, boshqa ilonlar, mayda kemiruvchilar bilan ovqatlanadi.**

1039. Aspidlarga qaysi ilonlar kiradi? **Kapcha ilonlar, mambalar, yovuz ilonlar va boshq. kiradi.**

1040. Astsidiyalar – qobiqlilar kenja tipining sinfi bo'lib, uzunligi necha mm dan necha sm gacha? **0,1 mm dan 30 sm gacha.**

1041. Astsidiyalar qanday bo'lib yashaydi? **Yakka yoki kolonna bo'lib yashaydi.**





1042. Astsidiyalarning xaltasimon tanasi nimaga o'ralgan? **Qalin qobiq (tunika)ga o'ralgan.**

1043. Astsidiyalarning xaltasimon tanasi ustki tomonida qaysi a'zo teshigi va kloaka sifoni joylashgan? **Og'iz teshigi va kloaka sifoni joylashgan.**

1044. Astsidiyalar qanday yo'l bilan ko'payadi? **Jinsiy va jinssiz yo'l bilan ko'payadi.**

1045. Astsidiyalarga nechta urug' kiradi? **100 ta urug' kiradi.**

1046. Astsidiyalarga qanchaga yaqin tur kiradi? **2000 ga yaqin tur kiradi.**

1047. Astsidiyalar qaysi dengizlarda tarqalgan? **Hamma dengizlarda tarqalgan.**

1048. Atendikulyatoriyalar qaysi tipga mansub pardalilar kenja tipining sinfi? **Xordalilar tipiga mansub pardalilar kenja tipining sinfi.**

1049. Atendikulyatoriyalar qanday kattalikdagi erkin suzadigan dengiz jonivorlari? **0,5 – 10 mm kattalikdagi erkin suzadigan dengiz jonivorlari.**

1050. Aterinasimonlar qanday baliqlar kenja turkumi? **Suyakli baliqlar kenja turkumi.**

1051. Aterinasimonlarning tanasi uzunligi necha sm? **40 – 50 sm.**

1052. Aterinasimonlarning orqa suzgichi nechta? **Ikkita.**

1053. Aterinasimonlarning jabra pardasi necha nurli? **5 – 7 nurli.**

1054. Aterinasimonlarning burun teshigi necha juft? **Bir juft.**

1055. Aterinasimonlarning orqa suzgichi necha nurli? **2 nurli.**

1056. Aterinasimonlarning qorin suzgichlari necha nurli? **6 nurli.**

1057. Aterinasimonlar nechta oilani o'z ichiga oladi? **5 ta oilani o'z ichiga oladi.**

1058. Aterinasimonlarning nechta urug'ni o'z ichiga oladi? **40 ta urug'ni o'z ichiga oladi.**

1059. Aterinasimonlar nechta turni o'z ichiga oladi? **180 ta turni o'z ichiga oladi.**

1060. Aterinasimonlarning tirik tug'adiganlarining anal va jinsiy teshiklari, shuningdek, kuyi ish a'zosi qaysi a'zosida joylashgan? **Tomog'ida joylashgan.**

1061. Aterinasimonlardan tuxum qo'yib ko'payadiganlari tuxumlarini qayerlarga qo'yadi? **Suv tubiga yoki o'simliklarga qo'yadi.**

1062. Aterinasimonlardan kaliforniya (Jeuresthes tenuis) turi suv ko'tarilgan paytda tuxumlarini qirg'oq yaqinidagi nimaga ko'mib qo'yadi? **Qumga ko'mib qo'yadi.**

1063. Aterinklar – kefalsimonlar turkumining bir nimasi? **Oilasi.**

1064. Aterinklarning uzunligi necha sm? **14 – 16 sm, ayrim turlari 30 sm gacha bo'lgan mayda yirtqich baliqlar.**

1065. Aterinklar qanday iqlimli mintaqa dengizlarida va ba'zilari qanday havzalarda yashaydi? **Tropik va mo'tadil mintaqa dengizlarida va ba'zilari chuchuk suv havzalarida yashaydi.**

1066. Aterinklarning qaysi turlari Qora, Azov va Kaspiy dengizlarida uchraydi? **Atlantika aternikasi (Atherina hersetus), Qora dengiz aternikasi (A. mochon) turlari Qora, Azov va Kaspiy dengizlarida uchraydi.**

1067. Aterinklarning A. mochon turi tovlanadigan baliqlarni iqlimlashtirishda nechanchi yili Kaspiy dengizidan Orol dengiziga tasodifan o'tib qolgan? **1960-yili Kaspiy dengizidan Orol dengiziga tasodifan o'tib qolgan.**

1068. Aterinklar hozir Orol dengizida, shuningdek, qaysi daryolarning quyi oqimida, ba'zi ko'llarda ko'p? **Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida, ba'zi ko'llarda ko'p.**

1069. Aterinklar necha yoshida voyaga yetadi? **2 – 3 yoshida voyaga etadi.**

1070. Aterinklar qaysi fasllarda urchiydi? **Bahor – yoz fasllarida urchiydi.**

1071. Aterinklar suvdagi qaysi mayda jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Umurtqasiz jonivorlar bilan ovqatlanadi.**

1072. Aterinklar qaysi dengizda bir oz ovlanadi? Nima uchun? Qora dengizda bir oz ovlanadi. **Chunki baliq sanoati uchun ahamiyati kam.**

1073. Aureliyalar, dengiz likopchalari – stsifomeduzalar sinfi diskomeduzalar turkumiga mansub meduzalar nimasi? **Urug'i.**

1074. Aureliyalarning tanasi qanday shaklda? **Soyabon shaklda.**

1075. Aureliyalarning diametri necha sm? **5 – 10 sm, ba'zan 40 sm gacha.**





1076. Aureliyalarning soyaboni atrofi juda ko'p kalta nimalar, ular asosida nechta statotsistlari joylashgan? **Paypaslagichlari, ular asosida 8 ta statotsistlari joylashgan.**

1077. Aureliyalarning qaysi a'zosi soyabonning ostki qismida? **Og'zi soyabonning ostki qismida.**

1078. Aureliyalarning og'zi qanday shaklda? **Kvadrat shaklda.**

1079. Aureliyalarning og'zi atrofida nechta qaysi a'zo bo'laklari osilib turadi? **4 ta og'iz bo'laklari osilib turadi.**

1080. Aureliyalarning shaffof (tiniq) tanasi orqali qaysi a'zo devorida joylashgan nechta qizg'ish taqasimon jinsiy bezlari ko'rinib turadi? **Oshqozon devorida joylashgan 4 ta qizg'ish taqasimon jinsiy bezlari ko'rinib turadi.**

1081. Aureliyalarning nechta turi ma'lum? **7 ta turi ma'lum.**

1082. Aureliyalar qaysi dengizlarda qaysi turi keng tarqalgan? **Qora, Barens, Oq dengizlarda A. aurita turi keng tarqalgan.**

1083. Aureliya meduzasi, ya'ni dengiz likopchasi qaysi dengizda uchraydi? **Deyarli barcha dengizlarda uchraydi.**

1084. Aureliyalarning Uzoq Sharq dengizlarida A. aurita turi bilan birga qaysi turi uchraydi? **A. limbata turi uchraydi.**

1085. Autbriding (ing. aut-tashqari va breid-urchitish), qishloq xo'jaligida nimani yaxshilash uchun bir-biriga qarindosh bo'lmagan bir zotdan hayvonlar urchitiladi? **Naslni yaxshilash uchun.**

1086. Autbridingdan maqsad nima? **Qondosh hayvonlarda paydo bo'ladigan ba'zi nuqsonlar (hayvonning tana tuzilishidagi nuqsonlar, mahsuldorligining pasayishi va h.k.)ni yo'qotish.**

1087. Autbriding, asosan, sof zotni urchitish usuli bo'lib, ba'zi adabiyotlarda "nima" deyiladi? **"Qonni qisman yangilash" deyiladi.**

1088. Autotomiya, avtotomiya (yunon. autotomo-o'zini mayiblash) qanday hayvonlarning kuchli ta'sir ostida, masalan, dushman changaliga tushib qolganda tanasining biror qismini, dumi yoki oyog'ini beixtiyor uzib tashlab, o'zini qutqarishi? **Kaltakesaklar, ba'zi hasharotlar, o'rgimchaklar, qisqichbaqalar va boshqa umurtqasizlarning.**

1089. Autotomiyada qaysi jonivorlar qaysi a'zolarini uzib tashlaydi? **Hasharotlar oyog'ini, kaltakesaklar dumini,**

gidropoliplar va aktiniyalar paypaslagichlarini, yomg'ir chuvalchanglari tanasining old qismi va boshqa a'zolarini uzib tashlaydi.

1090. Autotomiya ko'p hollarda ma'lum muskullarning qanday qisqarishi natijasida yuz beradi? **Peflektor qisqarishi natijasida.**

1091. A. aurita tur baliqchilikka qanday ziyon keltiradi? **Baliqlarga ovqat bo'ladigan mayda plankton organizmlar va baliq chavoqlari bilan ovqatlanib ziyon keltiradi.**

1092. Afagiya hasharotlar (ba'zi pashshalar, kapalaklar, uzun murtli qo'ng'iz va boshq.)ning qaysi davrda ovqatlanmasligi, tabiiy ochlik holatida yashashi? **Voyaga yetgan davrida ovqatlanmasligi, tabiiy ochlik holatida yashashi.**

1093. Afagiya hasharotlarining qaysi apparati, hatto qaysi a'zolari qisman yoki butunlay rivojlanmagan bo'ladi? **Og'iz apparati, hatto ovqat hazm qilish a'zolari qisman yoki butunlay rivojlanmagan bo'ladi.**

1094. Afalina, qora delfin qaysi oilaning bir turi? **Kitsimonlar turkumi delfinlar oilasining bir turi.**

1095. Afalina, qora delfinning tanasi uzunligi necha m? **3,9 m.**

1096. Afalina, qora delfinning og'irligi qancha kg gacha? **280 kg gacha.**

1097. Afalina, qora delfin qaysi dengizlarda yashaydi? **Qora, Boltiq va Uzoq Sharq dengizlarida yashaydi.**

1098. Afalina, qora delfin tanasining orqa tomoni qanday? **Qora.**

1099. Afalina, qora delfinning qorin tomoni qanday? **Oq.**

1100. Afalina, qora delfin bolasini necha oy emizadi? **5 – 6 oy emizadi.**

1101. Afalina, qora delfinning homiladorlik davri necha oy? **11 oy.**

1102. Afalina, qora delfin qanday suvli dengizlarda tarqalgan? **Mo'tadil va iliq suvli dengizlarda tarqalgan.**

1103. Afalinaning tug'ilgan bolasi uzunligi necha m? **1 – 1,2 m.**

1104. Afalinaning tug'ilgan bolasi og'irligi qancha kg? **14 – 16 kg.**

1105. Afidofaglar (lot. aphis – o'simlik biti va yunon. - qabrui), asosan, qaysi jonivorlar bilan ovqatlanib, yashovchi yirtqich





va parazit hasharotlar turkumi? **O'simlik biti bilan ovqatlanib yashovchi yirtqich va parazit hasharotlar turkumi.**

1106. Afrika buyvoli Hindiston buyvolidan nimasi bilan farq qiladi? **Shoxining tuzilishi bilan farq qiladi.**

1107. Afrika buyvoli turining nechta kenja turi bor? **Bir nechta keja turi bor.**

1108. Afrika buyvoli turlari bir-biridan nimalari bilan ajralib turadi? **Katta-kichikligi va rangi bilan ajralib turadi.**

1109. Afrika buyvoli qanday yashaydi? **Katta poda bo'lib yashaydi.**

1110. Afrika buyvoli qo'lga o'rgatilganmi? **Yo'q, o'rgatilmagan.**

1111. Afrika buyvoli (B. caffer) qayerdan janubroqda tarqalgan? **Sahroi Kabirdan janubroqda tarqalgan.**

1112. Afrika buyvoli qanday buyvol deb ham ataladi? **Kaffer yoki qora buyvol deb ham ataladi.**

1113. Afrika bug'uchalarining faqat nechta turi bor? **Bitta (H. aguaticus) turi bor.**

1114. Afrika bug'uchalari qayerlarda yashaydi? **Afrikaning tropik o'rmonlarida yashaydi.**

1115. Afrika Nil laqqasi balig'ining elektr kuchlanishi necha V ga teng? **360 V ga teng.**

1116. Afrika pumalari va leopardlari necha m balandlikkacha sakray oladi? **5,5 m balandlikkacha sakray oladi.**

1117. Afrikada jayronning qancha turi bor? **40 ga yaqin turi bor.**

1118. Afrikada qurg'oqchilik fasllarida kichikroq suv havzalaridagi to'nkalar ostida yashaydigan qaysi baliqlar halok bo'ladi? Ammo ular qo'ygan uvildiriqlar saqlanib qolib, nimadan so'ng tez rivojlana boshlaydi? Necha oy o'tgach, baliqchalar voyaga yetib, yana uvildiriq tashlaydi? **Notobranx, afiosomion baliqlari. Yomg'irdan so'ng. 2 – 3 oy o'tgach.**

1119. Axaltaka ot zoti qanday ot zotlaridan biri? **Salt miniladigan qadimgi ot zotlaridan biri.**

1120. Axaltaka ot zoti qayerda yetishtirilgan? **Xalq seleksiyasida janubiy Turkmanistondagi Axaltaka vohasida yashagan turkmanlarning taka qabilasida yetishtirilgan.**

1121. Axaltaka ot zoti qanday iqlimga moslashgan? **Quruq issiq iqlimga moslashgan.**

1122. Axaltaka ot zoti nimasi bilan ajralib turadi? **Nihoyatda chopqirligi bilan ajralib turadi.**

1123. Axaltaka ot zoti poygada 1000 m masofani qancha vaqtda bosib o'tadi? **1 min 05 sek da bosib o'tadi.**

1124. Axaltaka ot zoti qaysi davlatlarda boqiladi? **Turkmaniston, Qozog'iston, Rossiya, Germaniya, AQShda boqiladi.**

1125. AQShda yillik parranda go'shti yetishtirish hajmi qancha t dan ortiq? **16 mln t dan ortiq (1999).**

1126. Babirussa qaysi turkumning bir urug'i va qaysi oilaga mansub? **Juft tuyoqlilar turkumining bir urug'i, cho'chqalar oilasiga mansub.**

1127. Babirussaning tanasi uzunligi necha sm? **11 sm.**

1128. Babirussaning qaddi necha sm gacha? **80 sm gacha.**

1129. Babirussa nimalari uchun ko'plab ovlanadi? **Go'shti, terisi va qoziq tishlari uchun ko'plab ovlanadi.**

1130. Babirussaning homiladorlik davri necha oy? **5 oy.**

1131. Babirussaning urg'ochisi qaysi oyda nechta bola tug'adi? **Fevral oyida 1 – 2 bola tug'adi.**

1132. Babirussa boshqa cho'chqalardan nimalari bilan keskin ajralib turadi? **Boshqa cho'chqalardan boshining kichik, quloqlarining kalta, oyoqlarining ingichka va uzun bo'lishi, kalta dumining uchida popugining bo'lmasligi, orqasining juda bukchayganligi bilan keskin ajralib turadi.**

1133. Babirussa qayerlarda qanday bo'lib yashaydi? **Malayya arxipelagining Sulavesi va uning atrofida joylashgan orollardagi botqoqli o'rmonlarda, suv havzalari yaqinidagi qamishzorlarda yakka-yakka yoki kichik to'da bo'lib yashaydi.**

1134. Babirussa qanday suzadi? **Yaxshi suzadi, ovqat qidirib, ancha keng daryolar, hatto dengiz ko'rfazlaridan ham suzib o'tadi.**

1135. Babirussa qancha yil yashaydi? **10 yildan ko'proq yil yashaydi.**

1136. Babirussa soni nima uchun keskin kamayib ketgan? **O'rmonlarning kesilishi, go'shti, terisi va qoziq tishi uchun ko'plab ovlanishi natijasida keskin kamayib ketgan.**





1137. Babuin, sariq maymun qaysi uruqqa mansub maymunlarning bir turi? **Pavianlar urug'iga mansub maymunlarning bir turi.**

1138. Babuinning tanasi uzunligi necha sm? **75 sm.**

1139. Babuinning dumi necha sm gacha? **60 sm gacha.**

1140. Babuin qayerlarda tarqalgan? **Afrikaning Angoladan boshlab Shimoliy Mozambikkacha bo'lgan hududlarida, shuningdek, Keniya va Janubiy Somalida tarqalgan.**

1141. Badbo'ylar, skunslar qaysi oilaga mansub? **Yirtqich sut emizuvchilarning bir turi bo'lib, susarlar oilasining bo'rsiqsimonlar kenja oilasiga mansub. Sassiqko'zanga o'xshaydi.**

1142. Badbo'ylar qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy va Markaziy Amerikada tarqalgan.**

1143. Badbo'ylar nima uchun badbo'y deb ataladi? **Orqa teshigi atrofidagi bezi sassiq hid tarqatadi. Shuning uchun ham badbo'y deb ataladi.**

1144. Badbo'ylar o'zini dushmandan muhofaza qilishi uchun necha m gacha masofaga badbo'y hid chiqarib, atrofini sasitadi? **5 m gacha. Hidi shu qadar sassiqki, hatto katta yirtqich hayvonlar ham chidab tura olmaydi.**

1145. Badbo'ylarning qaysi bezlari yirtqich hayvonlarni cho'chitadigan juda badbo'y hidli suyuqlik ishlab chiqaradi? **Anal bezlari yirtqich hayvonlarni cho'chitadigan juda badbo'y hidli suyuqlik ishlab chiqaradi.**

1146. Badbo'ylarning qancha turi bor? **9 – 11 turi bor.**

1147. Badbo'ylarning necha urug'i bor? Ular qaysilar? **Uchta** urug'i bor. **Ular: chetor badbo'y (Spilogale), cho'chqaburun badbo'y (Conepatus), yo'l-yo'l badbo'y (Mephitis).**

1148. Badbo'ylarning yo'l-yo'l urug'i tanasi uzunligi necha sm? **28 – 38 sm.**

1149. Badbo'ylar xavf tug'ilganda anal bezidan qaysi a'zoga ta'sir qiladigan suyuqlik sachratadi? **Ko'zga ta'sir qiladigan suyuqlik sachratadi.**

1150. Badbo'ylar qayerlarda qaysi fasllarda qanday bo'lib yashaydi? **O'rmon, cho'l va dasht mintaqalarida yozda yakka-yakka, qishda to'da bo'lib yashaydi.**

1151. Badbo'ylar qaysi hududlarda qishki uyquga ketadi? **Shimoliy hududlarda qishki uyquga ketadi.**

1152. Badbo'ylarning urg'ochilari uyasida bir yilda necha marta nechta bola tug'adi? **Bir marta 4 – 10 ta bola tug'adi.**

1153. Badbo'ylarning bolalari necha yildan so'ng voyaga yetadi? **Bir yildan so'ng voyaga yetadi.**

1154. Badbo'ylarning qaysi urug'i qimmatbaho mo'yna beradigan hayvon, qayerlarda ko'paytiriladi? **Yo'l-yo'l badbo'ylar, maxsus fermalarda ko'paytiriladi.**

1155. Badbo'ylarning qaysi urug'i 2 ta turni o'z ichiga oladi? **Chipor badbo'ylar urug'i 2 ta turni o'z ichiga oladi.**

1156. Badbo'ylarning og'irligi qancha kg dan oshmaydi? **1 kg dan oshmaydi.**

1157. Badbo'ylarning qaysi urug'i 6 – 7 turdan iborat? **Cho'chqaburun badbo'ylar urug'i 6 – 7 turdan iborat.**

1158. Badbo'ylarning cho'chqaburun urug'i qayerda tarqalgan? **Janubiy Amerikada tarqalgan.**

1159. Badbo'ylarning cho'chqaburun urug'i tanasining uzunligi necha sm? **30 – 49 sm.**

1160. Badbo'ylarning cho'chqaburun urug'i dumining uzunligi necha sm? **16 – 41 sm.**

1161. Badbo'ylarning cho'chqaburun urug'i og'irligi qancha kg? **2,3 – 4,5 kg.**

1162. Badbo'y (oqburun (C. leuconotus)ning tanasi, boshi qanday rangli? **Qora rangli.**

1163. Badbo'y (oqburun (C. leuconotus)ning orqa qismi, dumi va tumshug'ining uchi qanday rangli? **Oq rangli.**

1164. Baybak, cho'l sug'uri qaysi uruqqa mansub emizuvchi hayvon? **Sug'urlar urug'iga mansub emizuvchi hayvon.**

1165. Baybak qaysi oilaga kiradi? **Tiyinsimonlar oilasiga kiradi.**

1166. Baybakning tanasi uzunligi necha sm gacha? **60 sm gacha.**

1167. Baybak dumi necha sm gacha? **15 sm gacha.**

1168. Baybakning og'irligi qancha kg gacha? **6,5 kg gacha.**

1169. Baybak qaysi davlatlarning cho'llarida tarqalgan? **Rossiya, Ukraina, Shimoliy Qozog'iston cho'llarida tarqalgan.**





1170. Baybak qachon faol hayot kechiradi? **Ertalab va kechqurun faol hayot kechiradi.**

1171. Baybak qachon necha oy uyquga ketadi? **Qishda 6 oy uyquga ketadi.**

1172. Baykal ko'lida omul balig'ining qaysi kenja turi tarqalgan? **Baykal omuli kenja turi tarqalgan.**

1173. Baytalning homiladorlik davri o'rtacha necha sutka? **338 sutka.**

1174. Bakrabaliq – suyakli baliqlar sinfining osyotrsimonlar turkumi va osyotrlar oilasiga mansub bo'lib, qaysi dengizlar havzasida tarqalgan? **Qora, Azov, Kaspiy va Orol dengizi havzasida tarqalgan.**

1175. Bakrabaliq skeleti nimadan tashkil topgan? **Tog'aydan tashkil topgan.**

1176. Bakrabaliq tanasidagi cho'girlari necha qator? **Besh qator.**

1177. Bakrabaliq orqasida qancha cho'giri bor? **11 – 17 ta cho'giri bor.**

1178. Bakrabaliqning yon tomonida qancha cho'giri bor? **55 – 57 ta cho'giri bor.**

1179. Bakrabaliqning qornida nechta cho'giri bor? **15 – 16 ta cho'giri bor.**

1180. Bakrabaliqning bo'yi necha m? **2 m dan ortiq.**

1181. Bakrabaliqning og'irligi qancha kg gacha? **80 kg gacha.**

1182. Bakrabaliqning urg'ochisi necha yoshida voyaga etadi? **12 – 14 yoshida voyaga etadi.**

1183. Bakrabaliqning erkagi necha yoshida voyaga yetadi? **8 – 9 yoshida voyaga etadi.**

1184. Bakrabaliq qancha uvildiriq (tuxum) qo'yadi? **210 – 340 ming uvildiriq (tuxum) qo'yadi.**

1185. Bakrabaliq nechanchi yilgacha Orol dengizi havzalarida ko'plab ovlangan? Hozirgi vaqtda-chi? **1936 yilgacha. Hozir esa Orol dengizi ekologik holatining o'zgarishi natijasida bakirbaliq juda kamayib ketganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.**

1186. Bakteriolitik miksobakteriyalar va sirpanuvchi fleksibakteriyalar qanday bakteriyalar deb ataladi? **Yirtqich bakteriyalar deb ataladi.**

1187. Balanoglosslar qaysi jonivorlarning kenja tipiga kiradigan hayvonlar urug'i? **Chala xordalilar urug'i.**

1188. Balanoglosslarning tanasi qanday shaklda? **Chuvalchangsimon shaklda.**

1189. Balanoglosslarning tanasi qaysi a'zolardan iborat? **Xartumcha, yoqa va gavdadan iborat.**

1190. Balanoglosslarning bo'yi necha m gacha? **2,5 m gacha.**

1191. Balanoglosslarning qaysi a'zosi qumni kovlab kirib olishga yordam beradi? **Uzun muskulli xartumi qumni kovlab kirib olishga yordam beradi.**

1192. Balanoglosslar gavdasining xartumdan keyingi nima deb ataladigan qismi halqa shaklida qaysi a'zosini o'rab oladi? **Yoqa deb ataladigan qismi halqa shaklida tanasini o'rab oladi.**

1193. Balanoglosslarning gavdasi sirtidan nima bilan qoplangan? **Bir qavat kiprikli epiteliy bilan qoplangan.**

1194. Balanoglosslarning qaysi a'zosi teshigi qorin tomoniga xartum bilan yoqa o'rtasiga ochiladi? **Og'iz teshigi qorin tomoniga xartum bilan yoqa o'rtasiga ochiladi.**

1195. Balanoglosslar suv tubidagi balchiqni yutib, undagi nimalarni ajratib olib ovqatlanadi? **Organik qoldiqlar va mayda organizmlarni ajratib olib ovqatlanadi.**

1196. Balanogloss qayerlarda nimalarga qo'milib yashaydi? **Dengizlarning sayoz yerlarida qumga yoki balchiqqa qo'milib yashaydi.**

1197. Balanoglosslarning Shimoliy va Uzoq Sharq dengizlarida nechta turi uchraydi? **Uchta turi uchraydi.**

1198. Balantidiumning tanasi uzunligi necha mkm? **40 – 150 mkm.**

1199. Balantidiumning tanasi eni qancha mkm? **20 – 70 mkm.**

1200. Balantidium teng kiprikli infuzoriyalar turkumining nimasi? **Avlodi.**

1201. Balantidium tanasi nimalar bilan qoplangan? **Bir xil uzunlikdagi kipriklar bilan qoplangan.**

1202. Balantidiumning qancha turi bor? **30 dan ortiq turi bor.**

1203. Balantidium qaysi hayvonlar va odamning qaysi a'zosida parazitlik qiladi? **Bir qancha umurtqasizlar va ko'pchilik umurtqalilar (kalamush, cho'chqa, odamsimon maymunlar) hamda odamning yo'g'on ichagida parazitlik qiladi.**





1204. Balantidiumning cho'chqa va odamlar yo'g'on ichagida parazitlik qiladigan B. coli ichak to'qimalarini emirib, nimalar bilan ovqatlanadi? **Eritrotsitlar bilan ovqatlanadi.**

1205. Balantidium ichakni yallig'lantirib, qanday xavfli kasallikni paydo qiladi? **Qonli ichburug' kasalligini paydo qiladi.**

1206. Balantidium sistalari hayvonlarning nimasi orqali tashqariga chiqariladi? **Go'ngi orqali tashqariga chiqariladi.**

1207. Balantidium bilan zararlangan kishilar qaysi hayvonlar va bu hayvonlarni boquvchilar orasida, ayniqsa, ko'p uchraydi? **Cho'chqalar va cho'chqaboqarlar orasida, ayniqsa, ko'p uchraydi.**

1208. Balanus, dengiz yong'oqlari – o'troq yashovchi qanday qisqichbaqasimonlar urug'i? **Mo'ylov-oyoqli qisqichbaqasimonlar urug'i.**

1209. Balanusning tanasi nimaga o'xshaydi? **Kesilgan konusga o'xshaydi.**

1210. Balanusning tanasi qayerga joylashgan? **Bir necha bo'lak plastinkasimon shakli chig'anoq ichiga joylashgan.**

1211. Balanus chig'anog'ining uzunligi necha sm gacha? **20 sm gacha.**

1212. Balanusning qancha turi bor? **400 ga yaqin turi bor.**

1213. Balanus chig'anog'ining harakatchan ustki qopqog'i bosh tomonidagi maxsus qaysi a'zolar vositasida ochilib-yopilib turadi? **Muskullar vositasida ochilib-yopilib turadi.**

1214. Balanus chig'anog'i ochiq bo'lganida bu oyoqlar doim bir maromda harakat qilib qayerga oziq zarralari (mikroblar, mayda hayvonlar va chirindilar)ni haydab turadi? **Mantiya bo'shlig'iga oziq zarralari (mikroblar, mayda hayvonlar va chirindilar)ni haydab turadi.**

1215. Balanusning ko'pchilik turlari qanday? **Germofrodit.**

1216. Balanusning lichinkasi nima hisoblanadi? **Dengiz qirg'og'i planktoni hisoblanadi.**

1217. Balanusning Balasnus psittacus, B. nubilis turlari nima qilinadi? **Oziq-ovqat sifatida iste'mol qilinadi.**

1218. Balanus qaysi dengizlardan tashqari hamma dengizlarda uchraydi? **Kaspiy va Orol dengizlaridan tashqari hamma dengizlarda uchraydi.**

1219. Balbas qo'y zoti nimalari uchun boqiladi? **Go'shti, juni va suti uchun boqiladi.**

1220. Balbas qo'y zotining vatani qayer? **Turkiya.**

1221. Balbas qo'y zoti boshqa zot qo'ylardan nimasi bilan ajralib turadi? **Qo'shaloq quyrug'i bilan ajralib turadi.**

1222. Balbas qo'y zoti qo'chqorlarining tirik og'irligi qancha kg? **85 – 90 kg.**

1223. Balbas qo'y zoti sovliqlarining tirik og'irligi qancha kg? **55 – 60 kg.**

1224. Balbas qo'y zoti qo'chqorlarining dumbasi qancha kg gacha? **12 kg gacha.**

1225. Balbas qo'y zoti sovliqlarining dumbasi qancha kg? **5 – 6 kg.**

1226. Balbas qo'y zoti qo'chqorlaridan qancha kg jun olinadi? **3 – 4 kg dag'al jun olinadi.**

1227. Balbas qo'y zoti, sovliqlaridan qancha kg qanday jun olinadi? **2,5 – 2,8 kg dag'al jun olinadi.**

1228. Balbas qo'y zotining jun kokili uzunligi necha sm? **11 – 17 sm.**

1229. Balbas qo'y zotidan necha foiz sof jun chiqadi? **60 – 65 foiz sof jun chiqadi.**

1230. Balbas qo'y zoti sovliqlari o'rtacha qancha kg sut beradi? **124 – 130 kg sut beradi.**

1231. Balbas qo'y zoti sovliqlarining 100 tasidan nechta qo'zi olinadi? **110 – 120 ta qo'zi olinadi.**

1232. Balbas qo'y zoti qaysi mamlakatlarda boqiladi? **Armaniston, Ozarbayjon, Shimoliy Eron, Turkiya va boshqa mamlakatlarda boqiladi.**

1233. Balbas qo'y zoti O'zbekistonda qanday tarqalgan? **Kam tarqalgan.**

1234. Balbas qo'y zoti qanday yaylovlarda boqishga yaxshi moslashgan? **Baland tog'li yaylovlarda boqishga yaxshi moslashgan.**

1235. Baliqlarning tuzilishi, hayot kechirishi, rivojlanishi, tarqalishi, sistematikasi va kelib chiqishini o'rganadigan fanning nomi nima? **Ixtiologiya.**





1236. Baliqlar to'g'risidagi ilk asar mil. avv. qachon qaysi davlatda bosilib chiqqan? **Mil. avv. ming yillik o'rtalarida Xitoyda bosilib chiqqan.**

1237. Baliqlarda hid bilish a'zolari juft burun o'yig'i yoki qopchiq (xalta)lardan iborat bo'lib, qayerda joylashgan? **Boshida – og'iz teshigi yonida joylashgan.**

1238. Baliqlarda havo pufagi faoliyatini qaysi sistema boshqarib turadi? **Markaziy asab sistemasi boshqarib turadi.**

1239. Baliqlar nimalar yordamida suv oqimiga qarab, elektr a'zolari yordamida elektr maydoniga qarab mo'ljal oladi? **Yon chiziqlari yordamida elektr maydoniga qarab mo'ljal oladi.**

1240. Baliqlarning ayrish a'zolari nimadan iborat? **Mezonefrosdan iborat.**

1241. Baliqlarning o'txo'rlari ichagi kaltami yoki uzun? **Uzun.**

1242. Baliqlarning barcha turi nechta? **25 mingtacha.**

1243. Baliqlarning yoshini qanday qilib bilish mumkin? **Tangachalardagi yillik halqalardan bilish mumkin.**

1244. Baliqlarning bosh miya asablari necha juft? **O'n juft.**

1245. Baliqlarning ko'zlari necha m dan necha m gacha masofani ko'rishga moslangan? **1 m dan 12 m gacha masofani ko'rishga moslangan.**

1246. Baliqlarda qaysi a'zo suzgich pufagi va havo pufagi faoliyatini tartibga solib turadi? **Asab tizimi suzgich pufagi va havo pufagi faoliyatini tartibga solib turadi.**

1247. Baliqlarning qaysi a'zolari rivojlangan? **Buyragi, hazm sistemasi rivojlangan.**

1248. Baliqlarning yuragi necha kamerali? **Ikki kamerali.**

1249. Baliqlarning og'zi va tishlari qanday tuzilgan? **Har xil tuzilgan.**

1250. Baliqlarning tishlari jag'larida emas, balki qaysi a'zolarida ham bo'ladi? **Til, tanglay va halqumida ham tishlari bo'ladi, masalan, cho'rtan, karas baliqlarda.**

1251. Baliqlarning tuxumdan chiqqan chovoqlari dastlab nima hisobiga ovqatlanadi? **Sariqlik haltachasi hisobiga ovqatlanadi.**

1252. Baliqlarning har xil rangda bo'lishi ular terisidagi qanday hujayralar – xrotomoforlarga bog'liq? **Pigmentli hujayralar – xrotomoforlarga bog'liq.**

1253. Baliqlarning tana harorati qanday? **Beqaror.**

1254. Baliqlar qanday jonivor? **Sovuqqon jonivor.**

1255. Baliqlarning tana harorati deyarli qancha haroratiga yaqin? **Suv haroratiga yaqin, ba'zan 0,5° C -1° C ortiqroq bo'ladi.**

1256. Baliqlar qanday haroratli suvda yashashga moslashgan? **Har xil haroratli suvda yashashga moslashgan.**

1257. Baliqlar uvildiriqni qayerga ko'mib qo'yadi? **Suv ustidagi narsalarga va o'simliklarga yopishtirib yoki suv ostiga ko'mib qo'yadi.**

1258. Baliq-ilonlar qayerlarda uchraydi? **Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda, Janubiy Amerikada uchraydi.**

1259. Baliq-ilonlar qayerlarda yashovchilar urug'i? **Oyoqsiz, suvda hamda quruqlikda yashovchilar urug'i.**

1260. Baliq-ilonlarning tanasi uzunligi necha sm ga yaqin? **50 sm ga yaqin.**

1261. Baliq-ilonlarning ko'zi qaysi a'zosi ostidan ko'rinib turadi? **Teri ostidan ko'rinib turadi.**

1262. Baliq-ilonlarning qaysi turi keng tarqalgan? **Seylon baliq-ilonlar (Ichthyopnic glutinosus) keng tarqalgan.**

1263. Baliq-ilonlar qayerlarda hayot kechiradi? **Daryo va ko'l bo'ylaridagi chimlar ostida hayot kechiradi.**

1264. Baliq-ilonlar suvda nima bo'ladi? **Nobud bo'ladi.**

1265. Baliq-ilonlarning qaysi biri (urg'ochisimi yoki erkagimi) suv bo'yidagi uyasiga nechta tuxum qo'yib, uni lichinkasi chiqqungacha qo'riqlaydi? **Urg'uchisi 15 – 25 ta tuxum qo'yib, uni lichinkasi chiqqungacha qo'riqlaydi.**

1266. Baliq-ilonlar voyaga etgan davrida tuproqda necha sm chuqurlikda yashaydi? **30 sm chuqurlikda yashaydi.**

1267. Baliq-ilonlarning lichinkasi qaysi a'zosi orqali nafas oladi? **O'pkasi orqali nafas oladi.**

1268. Baliqqiyg'ir-yirtqich qushlar turkumining qaysi oilasiga mansub? **Baliqqiyg'irlar oilasiga mansub.**

1269. Baliqqiyg'irning kattaligi qaysi qushdek? **Sariq sordek.**

1270. Baliqqiyg'irning tanasi uzunligi necha m ga yaqin? **1,5 m ga yaqin.**

1271. Baliqqiyg'ir O'zbekistonga qachon uchib keladi? **Mart oyining oxirlarida uchib keladi.**





1272. Baliqqiyg'irlarning bolalari necha oyda uchirma bo'ladi? **2 oyda uchirma bo'ladi.**

1273. Baliqqiyg'ir nechta qanday rang tuxum qo'yadi? **2 – 3 ta havo rang tuxum qo'yadi.**

1274. Baliqqiyg'irning tuzilishi, oyoq panjalari nima tutishga moslashgan? **Baliq tutishga moslashgan.**

1275. Baliqqiyg'irning usti rangi qanday? **To'q qo'ng'ir.**

1276. Baliqqiyg'irning qorin tomoni rangi qanday? **Oq.**

1277. Baliqqiyg'irning oyog'i rangi qanday? **Kulrang.**

1278. Baliqqiyg'irning tumshug'i rangi qanday? **Qora.**

1279. Baliqqiyg'ir barmoqlarining tagi qanday? **Tikanli.**

1280. Baliqqiyg'ir panjalari qanday? **Yo'g'on va kuchli.**

1281. Baliqqiyg'ir changal tirnoqlarining uchi qanday? **Qayrilgan.**

1282. Baliqqiyg'irning qorin va oyoq patlari uzunmi yoki qisqa? **Qisqa.**

1283. Baliqqiyg'irning dum bezi qanday rivojlangan? **Yaxshi rivojlangan.**

1284. Baliqqiyg'ir deyilishiga sabab nima? **Chunki u baliq tutishga juda mohir.**

1285. Baliqqiyg'ir qishlash uchun qaysi mamlakatlarga qaysi oylarda uchib ketadi? **Tropik mamlakatlarga sentabr-oktabr oylarida uchib ketadi.**

1286. Baliqqiyg'ir nimalardan qayerga uya quradi? **Xos-cho'plardan daraxtga uya quradi.**

1287. Baliqqiyg'ir bir uyadan necha yil foydalanadi? **Bir necha yil foydalanadi, uni har yili yangilab, tuzatib turadi, natijada, uya bo'yi 1 m, diametri 1,5 m gacha kattalashib ketadi.**

1288. Baliqqiyg'ir O'zbekiston Respublikasining qaysi kitobiga kiritilgan? **Qizil kitobiga kiritilgan.**

1289. Baliqchilar, chigitchilar, chaykalar qaysi turkumga mansub qushlar oilasi? **Cho'lduqsimonlar turkumiga mansub qushlar oilasi.**

1290. Baliqchilarning qancha turi bor? **45 – 46 turi bor.**

1291. Baliqchilarning eng kattasi qaysinisi? **Murmansk qirg'oqlariga uya soluvchi dengiz baliqchisi [(Larus marinus) (bo'yi 75 sm, og'irligi 2,5 kg)].**

1292. Baliqchilarning oyoqlari necha barmoqli? **To'rt barmoqli.**

1293. Baliqchilarning oldingi uchta barmog'i orasida qanday pardalar bor? **Suzgich pardalari bor.**

1294. Baliqchilar patining rangi nimaga qarab o'zgaradi? **Yoshiga qarab o'zgaradi.**

1295. Baliqchilarning O'zbekistonda nechta turi uchraydi? **6 ta turi uchraydi.**

1296. Baliqchilarning qanotlari qanday? **Uzun va keng, suv ustida engil va tez uchishga moslashgan.**

1297. Baliqchilarning qaysi a'zosi kalta? **Bo'yni kalta.**

1298. Baliqchilarning tumshug'i qanday? **Uzun va kuchli.**

1299. Baliqchilar tumshug'ining ustki qismi nimaga o'xshab pastga qayrilgan? **Ilmoqqa o'xshab pastga qayrilgan.**

1300. Baliqchilarning pati rangi, asosan, qanday? **Oq.**

1301. Baliqchilar faqat qanotining keyingi qismi, ba'zan boshi rangi qanday? **Qoramtir, kulrang yoki qo'ng'ir.**

1302. Baliqchilar yiliga necha marta, qaysi fasllarda tullaydi? **Ikki marta. Bahor va kuz fasllarida tullaydi.**

1303. Baliqchilar shimoliy va janubiy Qutbdan qayerga qadar keng tarqalgan? **Ekvatorga qadar keng tarqalgan.**

1304. Baliqchilarning hayoti suv bilan bog'liq bo'lsa-da, qayoqqa uchib ketadi? **Suvdan uzoqqa uchib ketadi.**

1305. Baliqchilarning ba'zi turlari qayerlarda ham yashaydi? **Daryo, ko'l kabi suv havzalarida ham yashaydi.**

1306. Baliqchilar bir dengizdan ikkinchi dengizga qanday uchib boradi? **Daryo va ko'l yoqalab uchib boradi.**

1307. Baliqchilar ko'p vaqtini qayerda o'tkazadi? **Havoda o'tkazadi.**

1308. Baliqchilar suvda qanday suzadi? **Yaxshi suzadi.**

1309. Baliqchilarning ko'p turlari koloniya bo'lib qayerga uya soladi? **Quruqlikka uya soladi.**

1310. Baliqchilar necha dona tuxum qo'yadi? **1 – 4 dona tuxum qo'yadi.**

1311. Baliqchilar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Suv yuziga yaqin yuradigan kasallangan va mayda xashaki baliqlar, turli suv va quruqlik hasharotlari, qisqichbaqalar va mayda kemiruvchilar bilan ovqatlanadi.**





1312. Baliqchilar qishloq xo'jaligiga qanday foyda yetkazadi? **Zararkunanda hasharotlar va kemiruvchilarni qirib foyda yetkazadi.**

1313. Baliqchilarning O'zbekistonda qaysi turlari uya soladi? **Ko'k baliqchi, kumush baliqchi, qorabosh baliqchi, ko'l baliqchisi degan turlari uya soladi.**

1314. Baliqchilarning qaysi turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan? **Qorabosh baliqchi turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.**

1315. Baliqchilarning O'zbekistonda uchraydiganlaridan qaysi turlari uya soladi? **Ko'k baliqchi (Larus canus), kumush baliqchi (L. argentatus), qorabosh baliqchi (L. ichthyaetus), ko'l baliqchisi (L. ridibundus) degan turlari uya soladi.**

1316. Baliqchi-ukki qaysi oilaga mansub qush? **Yapaloqqushlar oilasiga mansub qush.**

1317. Baliqchi-ukki qaysi a'zosining ikki yonida bir tutamdan uzun patlari – «quloqlari» bor? **Boshining ikki yonida bir tutamdan uzun patlari – «quloqlari» bor.**

1318. Baliqchi-ukki qayerda tarqalgan? **Janubi-Sharqiy Osiyoda tarqalgan.**

1319. Baliqchi-ukki Rossiyaning qaysi o'lkasida o'troq yashaydi? **Uzoq Sharq o'lkasida o'troq yashaydi.**

1320. Balchiqchilar qaysi jonivorlar sinfining turkumi? **Qushlar sinfining turkumi.**

1321. Balchiqchilarning nechta kenja turkumi bor? **3 ta kenja turkumi bor.**

1322. Balchiqchilarning nomlari nima? **Balchiqchilar (Charadrii), balchiqchilar (Laridae) va chistiklar (Alcae).**

1323. Balchiqchilar nechta oilaga bo'linadi? Ular qaysilar? **12 ta oilaga bo'linadi. Ular: yakonlar (Aucanidae), rangdor loyxo'raklar (Rostratulidae), plavunchiklar (Phalaropodidae), qisqich cho'ldoqlar (Dromadidae), jiqtoqlar (Glareolidae), oq cho'ldoqlar (Chionididae), yilqichilar (Burhinidae) kabi oilalarga bo'linadi.**

1324. Balchiqchilar turkumining qancha turi mavjud? **300 ga yaqin turi mavjud.**

1325. Balchiqchilarning Antarktidada faqat nechta turi bor? **2 ta turi bor.**

1326. Balchiqchilar yiliga necha marta necha dona tuxum qo'yadi? **Bir marta 2 – 5 dona tuxum qo'yadi.**

1327. Balchiqchilarning erkagimi yoki urg'ochisi tuxum bosadi hamda jo'jalarini boqadi? **Erkagi tuxum bosadi hamda jo'jalarini boqadi.**

1328. Balchiqchilarning tipik vakillari qaysilari? **Yilqichi, qizqush, katta qiziloyoq, loyxo'rak, chincho'ldoq, jiktoq, torg'oq, kurakburun.**

1329. Balchiqchilarning eng yirigi – chincho'ldoqning bo'yi necha sm? **62 sm.**

1330. Balchiqchilarning eng yirigi – chincho'ldoqning og'irligi qancha g cha? **1100 g cha.**

1331. Balchiqchilarning eng kichigi – chumchuq balchiqchining bo'yi necha sm? **14 sm.**

1332. Balchiqchilarning eng kichigi – chumchuq balchiqchining og'irligi qancha g? **20 g.**

1333. Balchiqchilarning tashqi tuzilishi qaysi muhitda yashashga moslashgan? **Suv-havo muhitiga yashashda moslashgan.**

1334. Balchiqchilarning oyog'i uzunmi yoki kaltа? **Uzun.**

1335. Balchiqchilarning oldingi barmoqlari qanday? **Rivojlangan.**

1336. Balchiqchilarning orqa barmog'i qanday? **Bo'lmaydi yoki juda qisqa bo'lib, yerga tegmaydi.**

1337. Balchiqchilarning oldingi barmoqlari nima bilan o'zaro tutashgan yoki o'ralgan? **Teri-parda bilan o'zaro tutashgan yoki o'ralgan.**

1338. Balchiqchilarning ko'pchilik turlari tumshug'i qanday? **Uzun, ingichka va to'g'ri.**

1339. Balchiqchilarning ba'zilari tumshug'i qayoqqa qaytarilgan? **Yuqoriga yoki pastga qaytarilgan.**

1340. Balchiqchilar tumshug'ining katta-kichikligi va shakli nima qilish xususiyatlari bilan bog'liq? **Ovqatlanish xususiyatlari bilan bog'liq.**

1341. Balchiqchilarning qanotlari enlikmi yoki ensiz? **Ensiz.**

1342. Balchiqchilarning qanotlari uchi nimaga o'xshash? **Nayzaga o'xshash.**

1343. Balchiqchilar ba'zilarining qanotlari qanday? **To'mtoq.**





1344. Balchiqchilar ko'pchiligining dumi uzunmi yoki qisqa? **Qisqa.**

1345. Balchiqchilarning ba'zilarining dumi qanday? **Uzun yoki ayrisimon.**

1346. Balchiqchilarning patlari qanday? **Zich.**

1347. Balchiqchilarning patlari rangi ko'pincha qanday? **Ko'pincha bir xil – xira – balchiq rangda.**

1348. Bambukayiq, katta pandaning tanasi uzunligi necha m? **1,8 m.**

1349. Bambukayiq, katta pandaning dumi uzunligi necha sm ga yaqin? **150–160 sm ga yaqin.**

1350. Bambukayiq, katta pandaning og'irligi qancha kg? **12 kg.**

1351. Bambukayiq qayerlarda yashaydi? **Bambukzorlarda yashaydi.**

1352. Bananxo'rlar, turako qaysi turkumga kiradigan qushlar oilasi bo'lib, ularning nechtacha turi bor? **Kakkusimonlar turkumiga kiradigan qushlar oilasi bo'lib, 18 tacha turi bor.**

1353. Bananxo'rlar, turako qaysi turkumga kiradigan qushlar oilasi? **Kakkusimonlar turkumiga kiradigan qushlar oilasi.**

1354. Bananxo'rlar faqat qayerlarda yashaydi? **Markaziy va Janubiy Afrikaning qalin o'rmonlarida yashaydi.**

1355. Bananxo'rlarning og'irligi qancha g dan qancha kg gacha? **250 g dan 1 kg gacha.**

1356. Bananxo'rlarning kattaligi qaysi jonivordek? **Qarg'adek.**

1357. Bananxo'rlarning patlari qanday? **Rang-barang, chiroyli.**

1358. Bananxo'rlar qayerlarda uchraydi? **Daraxtsiz ochiq yerlarda uchraydi.**

1359. Bananxo'rlar ko'p vaqtini qayerlarda o'tkazadi? **Daraxt shoxchalarida o'tkazadi.**

1360. Bananxo'rlar ko'pincha qayerlarga uya qo'yadi? **Daraxt shoxlariga uya qo'yadi.**

1361. Bananxo'rlar nechta tuxum qo'yadi? **2 ta tuxum qo'yadi.**

1362. Bananxo'rlarning tuxum bosishi necha haftaga yaqin davom etadi? **3 haftaga yaqin davom etadi.**

1363. Bananxo'rlarning jo'jalari necha haftadan keyin uyani tashlab ketadi? **6 haftadan keyin uyani tashlab ketadi.**

1364. Bananxo'rlar nima bilan ovqatlanadi? **Buta va da- raxtlarning kurtaklari, meva va urug'lari bilan ovqatlanishi hisobga olinganda, bu qushlarga bananxo'r deb noto'g'ri nom berilgan.**

1365. Bananxo'rlarning vakillari qaysilar? **Bananxo'r (Mu- sophaga violacla) – gigant turako (Corythaolus lecatis).**

1366. Bananxo'rlarning gigant turako vakilining patida nima degan qanday rangli pigment bor? **Turatsin degan to'q qizil pigment bor.**

1367. Bananxo'rlarning qaysi turlari Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining Qizil kitobiga kiritilgan? **Kokildor turko (Corythacola cristata), efiopiya turakosi (Turaco ruspolii), T. bannormani turlari.**

1368. Bankiv tovug'i, yovvoyi tovuq – tovuqsimonlar turku- mining qaysi oilasiga mansub parranda? **Qirg'ovulsimonlar oilasiga mansub parranda.**

1369. Bankiv tovug'ining rangi qaysi parrandaning rangiga o'xshaydi? **Dakang xo'rozning rangiga o'xshaydi.**

1370. Bankiv tovug'i xo'rozining og'irligi qancha g? **900 – 1250 g.**

1371. Bankiv tovug'i makiyonining og'irligi qancha g? **500 – 550 g.**

1372. Bankiv tovug'i yaxshi nima qiladi? **Uchadi.**

1373. Bankiv tovug'i kechalari qayerda tunaydi? **Daraxtda tunaydi.**

1374. Bankiv tovug'i makiyoni necha donagacha maydaroq tuxum qo'yadi? **5 – 13 donagacha maydaroq tuxum qo'yadi.**

1375. Bankiv tovug'ining makiyoni kurk bo'lib, tuxum bosib yotganida xo'rozi juda nima bo'lib qoladi? **Urushqoq bo'lib qoladi.**

1376. Bankiv tovug'i nimalar bilan ovqatlanadi? **Har xil don, urug', meva va umurtqasiz mayda jonivorlar bilan ovqatla- nadi.**

1377. Bankiv tovug'ining xo'rozi ham, makiyoni ham qaysi jonivorga o'xshab qichqiradi? **Xo'rozga o'xshab qichqiradi.**

1378. Bankiv tovug'i qayerda keng tarqalgan? **Janubiy Osiyoda keng tarqalgan.**





1379. Bankiv tovug'i qayerlarda yashaydi? **Tog' va tekis- liklardagi o'rmon va butazorlarda yashaydi.**

1380. Bankiv tovug'i xilma-xil zotli tovuqlarning yovvoyi aj- dodi ekanligini qaysi olim aniqlagan? **Ch. Darvin aniqlagan.**

1381. Bankiv tovug'i Hindistonda qachon qo'lga o'rgatilgan? **Mil. avv. 3000 yil ilgari qo'lga o'rgatilgan.**

1382. Bankiv tovug'i jo'jasidan tayyorlangan ovqat qaysi mil- latlarda juda tansiq? **Hindlarda juda tansiq.**

1383. Banteng qayerlarda tarqalgan? **G'arbiy Hindiston, Hindixitoy, Yava, Bali, Sumatra yarim orollarida, Malakka yarim orolida tarqalgan.**

1384. Banteng, zond ho'kizi – yovvoyi qoramol bo'lib, juft tuyoqlar turkumining qaysi oilasiga mansub? **Quvushshoxlilar oilasiga mansub.**

1385. Banteng zebu hamda qaysi qoramolning ajdodi hisobla- nadi? **Osiyo qoramolining ajdodi hisoblanadi.**

1386. Banteng buqasining og'irligi qancha kg? **300 – 350 kg.**

1387. Banteng yovvoyi qoramolning qaysi biri yakka yashay- di? **Qarisi yakka yashaydi.**

1388. Banteng qoramoli qaerlardagi o'rmonlarda kichikroq poda bo'lib yashaydi? **Tog' va tekislikdagi o'rmonlarida kichikroq poda bo'lib yashaydi.**

1389. Banteng qoramolining tanasi uzunligi necha m gacha? **2 m gacha.**

1390. Banteng qoramolining balandligi necha m cha? **1,5 m cha.**

1391. Banteng qoramolining buqasi qanday tusda? **Malla tusda.**

1392. Banteng qoramolining sigiri qanday tusda? **To'q qo'ng'ir tusda.**

1393. Banteng qoramolining qanday qayrilgan shoxi uzunligi necha sm ga yetadi? **Oysimon qayrilgan shoxi uzunligi 40 – 50 sm ga yetadi.**

1394. Bantengning qo'lga o'rgatilgan (bali qoramoli), asosan, nimasi uchun boqiladi? **Go'shti uchun boqiladi.**

1395. Banteng qoramoli nima uchun Xalqaro tabiatni muho- faza qilish Kengashi Qizil kitobiga kiritilgan? **Chunki soni ka- mayib ketgani uchun Xalqaro tabiatni muhofaza qilish Ken- gashi Qizil kitobiga kiritilgan.**

1396. Barg arrakashi qanday hasharotlar turkumi bir necha kichik oilasining umumiy nomi? **Parda qanotli hasharotlar turkumi bir necha kichik oilasining umumiy nomi.**

1397. Barg arrakashi urg'ochilarining tuxum qo'ygichi nimaga o'xshash? **Arraga o'xshash (nomi ham shundan olingan).**

1398. Barg arrakashi lichinkalari kapalaklarining necha oyoqchali qurtiga o'xshab ketadi? **8 oyoqchali qurtiga o'xshab ketadi.**

1399. Barg arrakashining qorin qismida necha juft soxta qorin oyoqchalari bo'ladi? **6 – 8 juft soxta qorin oyoqchalari bo'ladi.**

1400. Barg arrakashining ko'pchiligi qaysi oilaga kiradi? **Tenthrinidal oilasiga kiradi.**

1401. Barg arrakashi qanday usulda ko'payadi? **Partenogenez usulida ko'payadi.**

1402. Barg arrakashi bir yilda necha marta nasl beradi? **Ikki marta nasl beradi.**

1403. Barg arrakashining O'rta Osiyoda qancha turi tarqalgan? **10 dan ortiq turi tarqalgan.**

1404. Barg parvonasi – kapalaklar turkumi bo'lib, qaysi oilaga mansub hasharot? **O'rovchilar oilasiga mansub hasharot.**

1405. Barg parvonasi kapalagining qanotlari yozilganda necha mm bo'ladi? **9 mm bo'ladi.**

1406. Barg parvonasining qanotlari qanday? **Kambar.**

1407. Barg parvonasi oldingi va orqa qanotlarining uchi ostki qismida uzun nimalardan iborat popugi bor? **Tuklardan iborat popugi bor.**

1408. Barg parvonasi qurtining uzunligi necha mm? **6 – 8 mm.**

1409. Barg parvonasi qurti g'umbagining rangi qanday? **Ochiq jigarrang.**

1410. Barg parvonasi qurti g'umbagining uzunligi necha mm? **4 – 5 mm.**

1411. Barg parvonasi daraxtlarning quruq po'stlog'i va xazon ostida cho'ziq oq pilla ichida qaysi davrda qishlaydi? **Qurtlik davrida qishlaydi.**

1412. Barg parvonasining qishlab chiqqan qurtlari erta bahorda nimalar bilan ovqatlanadi? **Erta bahorda yozilayotgan qurtlar va gullar bilan ovqatlanadi.**

1413. Barg parvonasi, asosan, qaysi mevali daraxtlarga katta ziyon keltiradi? **Olma, qisman nok, shaftoli, bodom, o'rik va olxo'ri kabi daraxtlarga katta ziyon keltiradi.**





1414. Barg parvonasining qishlab chiqqan qurtlari qaysi oyda barglarni yopishtirib yasagan uyasida yoki po'stlog'i ostida oq, zich pilla o'rab g'umbakka aylanadi? **May oyida barglarni yopishtirib yasagan uyasida yoki po'stlog'i ostida oq, zich pilla o'rab g'umbakka aylanadi.**

1415. Barg parvonasi g'umbaklaridan qaysi oylarda kapalaklar uchib chiqib, barglarning ostki tomoniga barg tomirlari atrofiga qancha tuxum qo'yadi? **May – iyun oylarida, 100 dan ortiq tuxum qo'yadi.**

1416. Barg o'rovchilar qanday kattalikdagi kapalaklar oilasi? **Mayda yoki o'rtacha kattalikdagi kapalaklar oilasi.**

1417. Barg o'rovchilarning qalin tukli tangachalar bilan qoplangan qanotlari yozilganda qancha mm bo'ladi? **8 – 30 mm bo'ladi.**

1418. Barg o'rovchilarning oldingi qanotlari qanday? **Ensiz, cho'ziq.**

1419. Barg o'rovchilarning tabiiy holatda qaysi a'zolari taxlanib turadi? **Qanotlari taxlanib turadi.**

1420. Barg o'rovchilarning tuxumlari shakli qanday? **Yassi, dumaloq yoki cho'ziq, yaltiroq po'stli.**

1421. Barg o'rovchilarning kapalaklari tuxumlarini qayerlarga qanday qilib qo'yadi? **Barg ustiga, meva novda po'stloqlariga va daraxt tanasiga bir donadan yoki to'p-to'p qilib qo'yadi.**

1422. Barg o'rovchilarning qurtlari shakli qanday? **Chuvalchangsimon.**

1423. Barg o'rovchilarning necha juft ko'krak oyoqlari bor? **3 juft ko'krak oyoqlari bor.**

1424. Barg o'rovchilarning necha juft qorin oyoqlari bor? **5 juft qorin oyoqlari bor.**

1425. Barg o'rovchilarning turli mamlakatlarda nechta turi bor? **5000 ta turi bor.**

1426. Barg o'rovchilarning O'zbekistonda nechta turi aniqlangan? **20 ta turi aniqlangan.**

1427. Barg o'rovchilarning qurtlari ovqatlanish tipi va yashash joylariga binoan nechta trofik guruhga bo'linadi? Qaysi guruhlar? **3 ta guruhga bo'linadi. Ular: po'stloq ostida yashab, yog'ochli qismini zararlovchi silofitlar, barglar bilan ovqatlanib, meva sirtiga zarar yetkazuvchi fillofitlar; meva ichida hayot kechiruvchi kaprofiglar (mevaxo'rlar)ga bo'linadi.**

1428. Barg o'ravchilar o'simliklarning kurtagi, shonasi, toj-barglari, yosh novdalari va mevalariga zarar yetkazib, mevali daraxtlar hosilini necha foizgacha kamaytirishi mumkin? **80 foizgacha kamaytirish mumkin.**

1429. Barg pildirog'i qaysi oilaga mansub hasharot? **Kapalaklar turkumining qirqma qanotli kuyalar oilasiga mansub hasharot.**

1430. Barg pildirog'ining bittasi qancha tuxum qo'yadi? **1000 dan ortiq tuxum qo'yadi.**

1431. Barg filchasi qaysi oilaga mansub hasharot? **Qattiqqanotlilar turkumining filchalar (uzun tumshuqlilar) oilasiga mansub hasharot.**

1432. Barg filchasining nechta turi O'zbekiston vohalarida uchraydi? **Ikkita turi uchraydi O'zbekiston vohalarida uchraydi.**

1433. Barg filchasi qaysi faslda birdaniga ko'payib, daraxt barglarini, ayniqsa, urug'dan yangi chiqqan nihol shoxlarining pastki barglarini yeb, yalang'ochlaydi? **Bahorda.**

1434. Barg filchasi atigi necha hafta umr ko'radi? **2 – 3 hafta.**

1435. Bargxo'rlar, bargxo'r qo'ng'izlar qaysi turkumga mansub hasharotlar? **Qo'ng'izlar turkumiga mansub hasharotlar.**

1436. Bargxo'rlarning tanasi uzunligi necha mm dan necha mm gacha? **1 mm dan 35 mm gacha.**

1437. Bargxo'rlarning qancha turi ma'lum? **50 mingdan ortiq turi ma'lum.**

1438. Bargxo'rlarning mo'ylovlari qanday? **Kalta.**

1439. Bargxo'rlarning mo'ylovlari rangi qanday? **Yaltiroq.**

1440. Bargxo'rlarning qurtlari oyoqlari qanday taraqqiy yetgan? **Yaxshi taraqqiy etgan.**

1441. Bargxo'rlarning qo'ng'iz va qurtlari nimani kemirib ovqatlanadi? **O'simlik bargini kemirib ovqatlanadi.**

1442. Bargxo'rlarning O'rta Osiyo va MDH mamlakatlarida qancha turi tarqalgan? **2000 ga yaqin turi tarqalgan.**

1443. Bargxo'rlarning O'zbekistonda qancha turi tarqalgan? **240 ga yaqin turi tarqalgan.**

1444. Bargxo'rlarning qaysi turi kartoshkaga katta ziyon yetkazadi? **Kolorado qo'ng'izi (Zeptinotarsa desem lineata) turi kartoshkaga katta ziyon yetkazadi.**





1445. Bargxo'rlarning qaysi turi terakka katta ziyon yetkazadi? **Terak bargxo'ri (Agelestica alni) turi terakka katta ziyon yetkazadi.**

1446. Bargxo'rlarning qaysi turi g'alla ekinlariga katta ziyon etkazadi? **Qizilko'krak pyavizna (Oulema melanopus) turi g'alla ekinlariga katta ziyon etkazadi.**

1447. Baribal, Amerika qora ayig'i qaysi oilaga mansub hayvon? **Yirtqichlar turkumining ayiqlar oilasiga mansub hayvon.**

1448. Baribal, Amerika qora ayig'i qayerda ko'p? **Shimoliy Amerikada ko'p.**

1449. Baribal, Amerika qora ayig'i qaysi o'rmonlarda yashaydi? **Shimoliy Amerika o'rmonlarida yashaydi.**

1450. Baribal, Amerika qora ayig'i qaysi faslda uyquga ketadi? **Qish faslida uyquga ketadi.**

1451. Baribal, Amerika qora ayig'i tanasining o'rtacha uzunligi necha m? **1,75 m.**

1452. Baribal, Amerika qora ayig'ining bo'yi necha m? **1 m.**

1453. Baribal, ayniqsa, qora ayiqning og'irligi qancha kg gacha? **150 kg gacha.**

1454. Baribal, Amerika qora ayig'i nimalari uchun ovlanadi? **Go'shti va mo'ynasi uchun ovlanadi.**

1455. Baribalning urg'ochilari qaysi oylarda nechta bola tug'adi? **Yanvar – fevral oylarida 2 – 3 ta bola tug'adi.**

1456. Barcha maymunda qaysi suyak bor? **O'mrov suyagi bor.**

1457. Barcha kaptar zotlari qaysi kaptardan kelib chiqqan? **Yovvoyi ko'k kaptardan kelib chiqqan.**

1458. Barcha soxta kurakburunlilar noyob bo'lib, qaysi Qizil kitobga yozilgan? **O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga yozilgan.**

1459. Batsillalar qanday sharoitda spora (qobiq) hosil qilib omon qoladigan tayoqchasimon bakteriyalar? **Noqulay sharoitda spora (qobiq) hosil qilib omon qoladigan tayoqchasimon bakteriyalar.**

1460. Batsillalar tuproqda ko'p bo'lib, qanday moddalarni mineral moddalarga aylantirishda qatnashadi? **Organik moddalarni mineral moddalarga aylantirishda qatnashadi.**

1461. Ba'zan, qadoqoyoqlilardan qaysilarini alohida kenja turkumlarga ajratadilar? **Tuyasimonlar bilan bug'ularni alohida kenja turkumlarga ajratadilar.**

1462. Ba'zan barcha qanotdor ko'rshapaklar nima deb ataladi? **"Uchar itlar" deb ataladi.**

1463. Ba'zan Mindanao buyvoli alohida nimaga kiritiladi? **Alohida tur (B. mindorensis)ga kiritiladi.**

1464. Ba'zan qanday bo'ri ham uchraydi? **Qora bo'ri ham uchraydi.**

1465. Ba'zi echkilar bir galda nechtadan bola tug'adi? **Beshtadan bola tug'adi.**

1466. Ba'zi mollyuskalarda qaysi a'zo yo'q? **Chig'anog'i yo'q.**

1467. Ba'zi umurtqasiz hayvonlardagi so'rish vazifasini bajaruvchi tananing ko'rinishi o'zgargan oldingi qismi yoki uning o'simtasi nima deb ataladi? **Xartum deb ataladi.**

1468. Ba'zi akulalar nechta uvildiriq tashlaydi? **Bir nechta uvildiriq tashlaydi.**

1469. Ba'zi gamazidalar qanday yuqumli kasalliklar tarqatadi? **Ba'zi gamazidlar yuqumli, masalan: tepkili terlama, toun va boshqa kasaliklar tarqatadi.**

1470. Ba'zi koktsidiyalar qanday kasallikni vujudga keltiradi? **Koktsidnoz kasalligini vujudga keltiradi.**

1471. Ba'zi hayvonlarning yog' to'qimalaridan yoki sutidan olinadigan mahsulot nima? **Hayvonlar yog'i.**

1472. Ba'zi baliqlarda havo pufagi ichki qaysi a'zo bilan tutashib, tovush to'lqinlarini qabul qiladi? **Quloq bilan tutashib, tovush to'lqinlarini qabul qiladi.**

1473. Ba'zi joylarda ximerasimonlarning jigaridan olingan yog' nima sifatida qo'llaniladi? **Dori va surkov moyi sifatida qo'llaniladi.**

1474. Ba'zi kasalliklarni davolashda qaysi zuluklardan meditsina zulugi solinadi? **Jag'li zuluklardan meditsina zulugi solinadi.**

1475. Ba'zi tunlamlarning qurtlari qayerda yashab, o'simlik ildizlari yoki poyasining ildiz bo'g'izlarini kemiradi, masalan ko'k qurt tunlami, indov tunlami? **Tuproqda yashab, o'simlik ildizlari yoki poyasining ildiz bo'g'izlarini kemiradi.**





1476. Ba'zi qanotli xermeslarning tanasi qanday qavat bilan qoplangan? **Mayin mum bilan qoplangan.**

1477. Ba'zi adabiyotlarda ko'krak tojlilarga qushlar sinfining kenja nimasi sifatida qaraladi? **Sinfi sifatida qaraladi.**

1478. Ba'zi lappak baliqlarda qanday a'zolar bo'ladi? **Elektr a'zolari bo'ladi.**

1479. Baqalar qaysi turkumning bir oilasi? **Dumsiz amfibiyalar turkumining bir oilasi.**

1480. Baqa faqat qayerlarda yo'q? **Janubiy Amerikada, Avstraliyaning janubiy qismida va Yangi Zelandiyada yo'q.**

1481. Baqalarning nechta urug'i ma'lum? **46 ta urug'i ma'lum.**

1482. Baqalarning nechta turi ma'lum? **555 ta turi ma'lum.**

1483. Baqalar nechta kenja oilaga bo'linadi? **6 ta kenja oilaga bo'linadi.**

1484. Baqalar, baqasimonlar nechta kenja oilaga bo'lingan? **8 ta kenja oilaga bo'lingan.**

1485. Baqalar, baqasimonlarning asosiysi asl baqalar urug'i nechta turni o'z ichiga oladi? **200 ta turni o'z ichiga oladi.**

1486. Baqaning urg'ochisi nechtagacha tuxum qo'yadi? **500 tadan 11 mingtagacha tuxum qo'yadi.**

1487. Baqalarning tanasi uzunligi necha sm dan necha sm gacha? **3 sm dan 20 sm, ba'zan 32 sm gacha.**

1488. Baqalarning tishlari qaysi jag'larida (yuqorimi yoki pastkimi)? **Yuqori jag'larida.**

1489. Baqalarning tanasi ixchammi yoki qo'pol? **Ixcham.**

1490. Baqalarning gohaf baqasi turi uzunligi necha sm? **32 sm.**

1491. Baqalarning gahaf baqasi turi og'irligi qancha kg? **3,5 kg.**

1492. Baqalarning kenja oilasiga o'z ichiga qaysi baqani oladi? **Ho'kiz – baqani o'z ichiga oladi.**

1493. Baqalarning bir qancha turlari (o'tkir tumshuq baqa, yashil baqa) qayerlarda yashaydi? **Suv havzalari yaqinidagi nam joylarda yashaydi.**

1494. Baqalar, odatda, qanday bo'lib qanday hayot kechiradi? **Juda harakatchan bo'lib faol hayot kechiradi.**

1495. Baqalar, asosan, qayerga tuxum qo'yib ko'payadi? **Suv havzalariga tuxum qo'yib ko'payadi.**

1496. Baqalar ovozi qanday bo'ladi? **Har bir tur va jinsda o'ziga xos bo'ladi.**

1497. Baqalar laboratoriya tekshirishlari uchun asosiy nima hisoblanadi? **Ob'ekt hisoblanadi.**

1498. Baqatishlar qanday amfibiyalarning bir urug'i? **Dumli amfibiyalarning bir urug'i.**

1499. Baqatishlar qaysi oilaga mansub? **Burchaktishli tritonlar oilasiga mansub.**

1500. Baqatishlarning qaysi tishlari baqanikiga o'xshab joylashgan? **Tanglay tishlari baqanikiga o'xshab joylashgan.**

1501. Baqatishlarning qaysi a'zosi ikkita? **O'pkasi ikkita.**

1502. Baqatishlarning yettisuv tritoni yoki baqatishi (R. sibiricus) degan bitta turi qayerda necha m balandlikda uchraydi? **Jung'oriya Olatovida 1500-2800 m balandlikda uchraydi.**

1503. Baqatishlarning yettisuv tritoni turining bo'yi necha sm? **20 sm.**

1504. Baqatishlarning yettisuv tritoni turining boshi qanday? **Yapaloq.**

1505. Baqatishlarning yettisuv tritoni turining tumshug'i qanday? **Tumtoq.**

1506. Baqatishlarning yettisuv tritoni turining oldingi oyog'ida nechta, orqa oyog'ida nechta barmog'i bor? **Oldingi oyog'ida 4 ta, orqa oyog'ida 5 ta barmog'i bor.**

1507. Baqatishlar kunduzi qayerda yotadi? **Suvdagi toshlar ostida yotadi.**

1508. Baqatishlar nechtacha tuxum qo'yadi? **50 – 100 tacha tuxum qo'yadi.**

1509. Baqatishlar nima orqali rivojlanadi? **Metamorfoz orqali rivojlanadi.**

1510. Baqatishlar necha yoshga to'lib, bo'yi 8 sm cha bo'lgandagina voyaga yetadi va urchiy boshlaydi? **5 yoshga to'lib, bo'yi 8 sm cha bo'lgandagina voyaga yetadi va urchiy boshlaydi.**

1511. Baqatishlarning nechta turi ma'lum? **2 ta turi ma'lum.**

1512. Baqatishlarning qaysi turi Xitoyda tarqalgan? **Sichuan baqatish (R. Wushanensis) turi Xitoyda tarqalgan.**

1513. Baqatishlarning qaysi turi Qizil kitobga kiritilgan? **Jung'or Olatovi (Tyanshan) endemigi turi Qizil kitobga kiritilgan.**





1514. Baqachanoq necha pallalilar sinfiga mansub mollyuskalar urug'i? **Ikki pallalilar sinfiga mansub mollyuskalar urug'i.**

1515. Baqachanoq qanday joylarda uchraydi? **Chuchuk suv havzalarining sekin oqadigan joylarida uchraydi.**

1516. Baqachanoq qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Shimoliy Afrika va Sharqiy Osiyoda tarqalgan.**

1517. Baqachanoqning MDH mamlakatlarida nechta turi bo'lgan? **12 ta turi bo'lgan.**

1518. Baqachanoqning tuxumlari qaysi a'zosiga yopishib rivojlanadi? **Jabrasiga yopishib rivojlanadi.**

1519. Baqachanoqning tuxumidan chiqqan qurtlari sifon orqali suvga chiqib olib, qaysi jonivorlar jabrasiga yopishib, parazit holda yashaydi? **Baliqlar jabrasiga yopishib, parazit holda yashaydi.**

1520. Baqachanoqning chig'anog'idan nima olinadi? **Sadaf olinadi.**

1521. Baqachanoqning chig'anog'i necha pallali? **Ikki pallali.**

1522. Baqachanoqning chig'anog'i uchida bo'rtib chiqqan nechta sifoni bor? **2 ta sifoni bor.**

1523. Baqachanoq O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston, Sibirdagi qanday suv havzalarida yashaydi? **Oqmaydigan yoki sekin oqadigan chuchuk suv havzalarida yashaydi.**

1524. Baqachanoqning qancha turi ma'lum? **50 ga yaqin turi ma'lum.**

1525. Baqachanoq terisi tananing ikki yonida nima hosil qiladi? **Mantiya hosil qiladi.**

1526. Baqachanoq nima oqimi orqali nafas oladi va ovqatlanadi? **Suv oqimi orqali nafas oladi va ovqatlanadi.**

1527. Baqachanoq qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

1528. Baqachanoqning qanday turlari ham uchraydi? **Germafrodit turlari ham uchraydi.**

1529. Baqachanoq lichinkasi qayerga tushib voyaga yetadi? **Suv ostiga tushib voyaga yetadi.**

1530. Baqachanoqlar va lichinkalari nimalar uchun ovqat hisoblanadi? **Baliqlar uchun ovqat hisoblanadi.**

1531. Baqachanoq chig'anog'i va go'shti qanday hayvonlarga yem sifatida beriladi? Uy hayvonlariga yem sifatida beriladi.

1532. Baqachanoqning chig'anog'i boshqa sadafdorlarnikiga nisbatan qanday bo'lganidan sadaf olish uchun foydalanmaydi? **Yupqa bo'lganidan sadaf olish uchun foydalanmaydi.**

1533. Baqaqurilloqlar qaysi turkumning bir oilasi? **Dumsiz amfibiyalar turkumining bir oilasi.**

1534. Baqaqurilloqlar nechta uruqqa bo'lingan qancha turi bor? **35 ta uruqqa bo'lingan 580 tacha turi bor.**

1535. Baqaqurilloqlarning fillomeduza kabi ba'zi turlari tuxumini qayerga qo'yadi? **Suv tepasida osilib turgan o'simlik barglarini naycha qilib o'rab, ichiga yig'ilgan suvga tuxum qo'yadi.**

1536. Baqaqurilloqlarning qaysi turlari suv tepasida osilib turgan o'simlik barglarini naycha qilib o'rab, ichiga yig'ilgan suvga tuxum qo'yadi? **Fillomeduza kabi turlari suv tepasida osilib turgan o'simlik barglarini naycha qilib o'rab, ichiga yig'ilgan suvga tuxum qo'yadi.**

1537. Baqaqurilloqlarning xaltachali baqaqurilloq (Notafrema marsupiatum)ning urg'ochisi nechta tuxumini orqasidagi xaltachada olib yuradi? **200 tacha tuxumini orqasidagi xaltachada olib yuradi.**

1538. Baqaqurilloqlarning tuxumdan chiqqan itbaliqlari qaysi davrini suvda tugallaydi? **Metamorfoz davrini suvda tugallaydi.**

1539. Baqaqurilloqlarning qaysi turi tuxumini hasharotlardan saqlash uchun ko'mak suv yoki nam yerda "qo'ra" yasab, shunga qo'yadi? **Temirchi – baqaqurilloq (Hyla faber) turi tuxumini hasharotlardan saqlash uchun ko'mak suv yoki nam yerda "qo'ra" yasab, shunga qo'yadi.**

1540. Baqaqurilloqlarning daraxt baqasi turining tanasi uzunligi necha sm cha? **4 – 5 sm cha.**

1541. Baqaqurilloqlarning Uzoq Sharqda qaysi turi yashaydi? **Yapon baqaqurillog'i (Hyla japonica) turi yashaydi.**

1542. Baqaqurilloqlar qayerda uchraydi? **Yer yuzining hamma qismida uchraydi.**

1543. Baqaqurilloqlar ko'proq qayerlarda tarqalgan? **Tropik Amerika va Avstraliyada ko'proq tarqalgan.**

1544. Baqaqurilloq O'zbekistonning qaerida uchraydi? **Hech joyida uchramaydi.**





1545. Baqaqurilloqlar, asosan, qaerlarda yashaydi? **Daraxtlarda yashaydi. Shuning uchun ular daraxt baqasi deb ham ataladi.**

1546. Baqaqurilloqlarning daraxt shoxi va bargiga yopishib turishiga nima yordam beradi? **Baqaqurilloqlar barmoqlarining uchidagi disksimon yumshoq bezli plastinkasi yordam beradi.**

1547. Baqiroq burgut qaysi oilaga kiradi? **Yirtqich qushlar turkumining qirg'iysimonlar oilasiga kiradi.**

1548. Baqiroq burgut uyasini qayerlarda quradi? **Daraxt shoxlarida quradi.**

1549. Baqiroq burgut qaerlarda uya quradi? **Sharqiy Yevropaning Dunay va Elba daryolari havzalaridan Osiyoning Primore o'lkasiga qadar cho'zilgan o'rmonlarda uya quradi.**

1550. Baqiroq burgut qishlash uchun qayerga uchib ketadi? **Osiyoning janubiga uchib ketadi.**

1551. Baqiroq burgut qaysi hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Sug'ur, quyon kabi mayda sut emizuvchilar, qushlar, kaltakesak, baqa va baliqlar bilan ovqatlanadi.**

1552. Baqiroq maymunlar maymunlarning qaysi oilasiga kiradi? **Keng burunli maymunlar turkumining gajak dumlilar oilasiga kiradi.**

1553. Baqiroq maymunlar urg'ochisining qorni qanday rangda bo'ladi? **Sariq rangda bo'ladi.**

1554. Baqiroq maymunlarning nechtacha turi bor? **5 tacha turi bor.**

1555. Baqiroq maymunlarning bo'yi necha m? **0,37 – 0,75 m.**

1556. Baqiroq maymunlarning dumi necha m? **0,49 – 0,75 m.**

1557. Baqiroq maymunlarning ovozi necha km dan ham eshitilib turiladi? **Bir necha km dan ham eshitilib turiladi. Shuning uchun baqiroq maymunlar degan nom berilgan.**

1558. Baqiroq maymunlar qayerda ko'p tarqalgan? **Janubiy Amerikada ko'p tarqalgan.**

1559. Baqiroq maymunlarning qaysi turi Braziliya va Venesuelada tarqalgan? **Sariq baqiroq maymun (Mycetes seniculus) turi Braziliya va Venesuelada tarqalgan.**

1560. Baqiroq maymunlarning qaysi turi Paragvayda yashaydi? **Qora baqiroq maymun (Mycetes nigeer) turi Paragvayda yashaydi.**

1561. Baqiroq maymunning qaysi turi urg'ochisining qorni sariq bo'ladi? **Qora baqiroq maymun (Mycetes) turi urg'ochisining qorni sariq bo'ladi.**

1562. Baqiroq maymunlar dumining ostki tomoni qanday? **Junsiz yalang'och, juda sezgir.**

1563. Baqiroq maymunlar qaysi a'zosi yordamida daraxt shoxlariga ilashib, daraxtda o'rmalab yuradi? **Dumi yordamida daraxt shoxlariga ilashib, daraxtda o'rmalab yuradi.**

1564. Baqiroq maymunlarning qaysi a'zosida jun bo'lmaydi? **Yuzida bo'lmaydi.**

1565. Baqiroq maymunlarning qaysi a'zosidagi uzun junlari iyagining ostiga osilib tushib soqol hosil qiladi? **Boshidagi uzun junlari iyagining ostiga osilib tushib soqol hosil qiladi.**

1566. Baqiroq maymunlarning qaysi biri nisbatan yirik? **Erkaklari nisbatan yirik.**

1567. Baqiroq maymunlarning qaysi a'zolari yaxshi rivojlangan bo'lib, tovushni kuchaytiruvchi rezonator vazifasini bajaradi? **Hiqildoq xaltalari yaxshi rivojlangan bo'lib, tovushni kuchaytiruvchi rezonator vazifasini bajaradi.**

1568. Baqiroq maymunlar qayerlarda tarqalgan? **Janubiy va Markaziy Amerikaning nam va tog'li (2000 m gacha balandliklarda) o'rmonlarida, asosan, daryolar yaqinida tarqalgan.**

1569. Baqiroq maymunlar hayotining ko'p qismini qayerlarda o'tkazadi? **Baland daraxtlarning shoxlarida o'tkazadi.**

1570. Baqiroq maymunlar qachon faol hayot kechiradi? **Kunduzlari faol hayot kechiradi.**

1571. Baqiroq maymunlar qanday joylarda kam uchraydi? **Ochiq, tekis joylarda kam uchraydi.**

1572. Baqiroq maymunlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Daraxtlarning bargi, kurtaklari va mevasi bilan ovqatlanadi.**

1573. Baqiroq maymunlar necha yilda voyaga etadi? **3 – 4 yilda voyaga etadi.**

1574. Baqiroq maymunlar nechta bola tug'adi? **Bitta, ba'zan ikkita bola tug'adi.**

1575. Baqiroq maymunlarning bolasiga onasi bilan birga nimalar ham g'amxo'rlik qiladi? **Bolasiz urg'ochilari va yosh hayvonlar ham g'amxo'rlik qiladi.**

1576. Baqiroq maymunlarning nechta turi Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotining Qizil kitobiga kiritilgan? **2 ta turi**





**Tabiatni muhofaza qilish xalqaro tashkilotining Qizil kitobiga kiritilgan.**

1577. Baqroq oqqushlarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **160 sm gacha.**

1578. Baqiroq oqqushlarning og'irligi qancha kg gacha? **12 kg gacha.**

1579. Baqiroq oqqushlar qaysi okeandan qaysi okeangacha bo'lgan hududlarda tarqalgan? **Atlantika okeanidan Tinch okeanigacha bo'lgan hududlarda tarqalgan.**

1580. Baqorilar – eng qadimgi qaysi jonivorlar turkumi? **Hasharotlar turkumi.**

1581. Baqorilarning qanotlari necha juft? **Ikki juft.**

1582. Baqorilarning qanotlari qanday? **To'rsimon va shaffof.**

1583. Baqorilarning qanotlari yoyilganda necha mm keladi? **10 – 80 mm keladi.**

1584. Baqorilarning boshi qanday? **Yirik.**

1585. Baqorilarning mo'ylovlari qanday? **Uzun.**

1586. Baqorilarning og'iz a'zolari qanday tipda tuzilgan? **Kemiruvchi tipda tuzilgan.**

1587. Baqorilarning lichinkasi qayerda yashaydi? **Suvda yashaydi.**

1588. Baqorilarning lichinkasi yetuk davrida qayerda yashaydi? **Quruqlikda yashaydi.**

1589. Baqorilar necha yil davomida rivojlanib, voyaga yetadi? **1 – 3 yil davomida rivojlanib, voyaga yetadi.**

1590. Baqorilar etuk davrida qancha yashaydi? **Bir necha kundan bir necha haftagacha yashaydi.**

1591. Baqorilarning urg'ochisi tuxumini qayerga tashlaydi? **Suv ustida uchib yurib, suvga tashlaydi.**

1592. Baqorilarning tuxumlari qaerda rivojlanadi? **Suv tubida rivojlanadi.**

1593. Baqorilarning voyaga yetayotgan lichinkalari qachon yetuk hasharotga aylanadi? **Suvdan chiqib tullaydi va qanot chiqarib, yetuk hasharotga aylanadi.**

1594. Baqorilar ko'pchilik turlarining qanotlik davri qaysi fasliga to'g'ri keladi? **Bahor fasliga to'g'ri keladi.**

1595. Baqorilarning yetuk hasharotlari tuxum qo'yib nima bo'ladi? **Halok bo'ladi.**

1596. Baqorilar qayerlarda ko'p uchraydi? **Ifloslanmagan oqar suvlarda, ayniqsa, tog' daryolari va soylari tubida ko'p uchraydi.**

1597. Baqorilar nimalar bilan ovqatlanadi? **Suvdagi har xil mikroorganizmlar bilan ovqatlanadi.**

1598. Baqorilarning ayrim turlari qanday hayvon? **Yirtqich hayvon.**

1599. Baqorilarning qancha turi ma'lum? **2000 ga yaqin turi ma'lum.**

1600. Baqorilarning O'rta Osiyoda qancha turi ma'lum? **50 dan ortiq turi ma'lum.**

1601. Baqorilarning O'zbekistonda qancha turi, nechta oilasi tarqalgan? **25 ga yaqin turi, 6 ta oilasi tarqalgan.**

1602. Baqorilar qaysi jonivorlarning asosiy ovqati hisoblanadi? **Baliqlarning asosiy ovqati hisoblanadi.**

1603. Baqtrian qanday hayvon? **Ikki o'rkachli tuya.**

1604. Baqtrian (ikki o'rkachli tuya)ning vatani qayer? **Markaziy Osiyo.**

1605. Baqtrian (ikki o'rkachli tuya) necha yil yashaydi? **35 – 40 yil** yashaydi.

1606. Baqtrian qachon xonakilashtirilgan? **Juda qadimdan xonakilashtirilgan.**

1607. Baqtrian qachondan janubi-g'arbiy Mo'g'uliston cho'llarida qanday holda ham yashagan? **XIX asrning oxirlarigacha yovvoyi holda ham yashagan.**

1608. Baqtrian qaysi Qizil kitobga kiritilgan? **Halqaro Tabiatni muhofazasi Kengashining Qizil kitobiga kiritilgan.**

1609. Baqtrian qaysi mamlakatlarda boqiladi? Markaziy Osiyo mamlakatlarida boqiladi.

1610. Bahrin, tundra lochini, oq yuz lochin qaysi oilaga mansub? **Yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub.**

1611. Bahrin, tundra lochini, oq yuz lochin qayerlarda uya quradi? **Sharqiy yarim shardagi tundrada va Shimoliy Muz okeanidagi orollarda uya quradi.**

1612. Bahrin qishlash uchun qayoqqa uchib ketadi? **Janubga uchib ketadi.**





1613. Bahrin O'zbekistonning qayerlarida qachon uchraydi? **Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysida bahor va kuzda uchib o'tayotganda, ba'zan qishda ham uchraydi.**

1614. Bahrin qayerlarga uya qurib, qachon bola ochadi? **Daryo qirg'oqlarining baland joylariga uya qurib, mayning oxiri va iyunning boshida bola ochadi.**

1615. Bahrin nimalarni qanday yeydi? **Qushlarni tutib yeydi.**

1616. Bahrin qanday sharoitda, ba'zan kemiruvchilar bilan ham ovqatlanadi? **Tundra sharoitida, ba'zan kemiruvchilar bilan ham ovqatlanadi.**

1617. Bahrinni ovlashda qo'lga o'rgatib, nima ovlashga olib chiqishadi? **Qush ovlashga olib chiqishadi.**

1618. Bahrin bir qator mamlakatlarning nimasiga kiritilgan? **Qizil kitobiga kiritilgan.**

1619. Bahaybat zirhlilarda tishlar nechtagacha? **9 tagacha.**

1620. Bahrin, tundra lochini qaysi jonivorlarning kenja turidan biri? **Lochinlarning kenja turidan biri.**

1621. Bahrin, tundra lochini yirtqich qushlar turkumining qaysi oilasiga mansub? **Lochinsimonlar oilasiga mansub.**

1622. Bahrin qanday lochin deb ham ataladi? **Oq yuzli lochin deb ham ataladi.**

1623. Bedabargfilchasi, fitonomus bedaning xavfli zararkunandalaridan bo'lib, qaysi oilaga mansub mayda qo'ng'izcha? **Uzunburunlilar oilasiga mansub mayda qo'ng'izcha.**

1624. Bedabargfilchasining bo'yi necha mm? **5 – 7 mm.**

1625. Bedabargfilchasining tumshug'i qanday? **Ingichka va cho'ziq (shuning uchun filcha deyiladi).**

1626. Bedabargfilchasi tumshug'i bilan poyani teshib, uning kovaklariga nechtacha tuxum qo'yadi? **20 – 30 tacha tuxum qo'yadi.**

1627. Bedabargfilchasi nechta tuxum qo'yadi? **2000 – 2500 tuxum qo'yadi.**

1628. Bedabargfilchasi qaerlarda keng tarqalgan? **O'rta Osiyo Respublikalari, Qozog'iston, Zakavkazyeda, Volga atrofida keng tarqalgan.**

1629. Bedabargfilchasi qurtlarining rivojlanish davri necha kun? **15 – 28 kun.**

1630. Beda biti, akatsiya biti qaysi oilaga mansub qanotsiz yoki to'rtta nafis qanotli mayda hasharot sanaladi? **Afididlar oilasiga mansub qanotsiz yoki to'rtta nafis qanotli mayda hasharot sanaladi.**

1631. Beda bitining tanasi necha mm? **1,3 – 2,1 mm.**

1632. Beda biti yil davomida qancha avlod berib, asosan, qaerlarda yashaydi? **12 avlod berib, asosan, yosh va sersuv novdalarda yashaydi.**

1633. Beda odimchisi qaysi oilaga mansub hasharot? **Kapalaklar turkumining odimlovchilari oilasiga mansub hasharot.**

1634. Beda odimchisi qachon uchadi? **Kechasi uchadi.**

1635. Beda odimchisi tuxumini qayerga qo'yadi? **Tuxumini beda bargiga qo'yadi.**

1636. Beda odimchisi tuxumidan necha haftada lichinka chiqadi? **Tuxumidan bir haftada lichinkasi chiqadi.**

1637. Beda odimchisining necha juft chin va necha juft soxta oyoqlari bor? **3 juft chin va 2 juft soxta oyoqlari bor.**

1638. Beda odimchisi tinch turganda qaysi a'zolariga tayanadi? **Oyoqlariga tayanadi.**

1639. Beda urug'xo'ri qaysi oilaga mansub zararkunanda hisoblanadi? **Pardaqanotli hasharotlar turkumining yo'g'on oyoqlilar oilasiga mansub zararkunanda hisoblanadi.**

1640. Bedaga beda urug'xo'ri tushganligini qanday aniqlash mumkin? **Urug' va dukkakni teshib ketadi, ana shu belgiga qarab aniqlash mumkin.**

1641. Beda urug'xo'rining lichinkalari qachon g'umbakka aylanadi? **Erta bahorda lichinkalari g'umbakka aylanadi.**

1642. Beda urug'xo'rining rivojlanish davri necha kun? **24 – 28 kun.**

1643. Beda oltinqo'ng'izi qaysi turkumga mansub hasharot? **Qattiq hasharotlar turkumiga mansub hasharot.**

1644. Beda oltinqo'ng'izi tuxumini qayerga qo'yadi? **Tuxumini bedaning ildiz bo'g'iziga bittalab qo'yadi.**

1645. Beda oltinqo'ng'izi nechtacha tuxum qo'yadi? **100 tacha tuxum qo'yadi.**

1646. Beda oltinqo'ng'izi tuxumidan necha oyda lichinka chiqadi? **Bir oyda lichinka chiqadi.**





1647. Beda tunlami qaysi oilaga mansub hasharot? **Tanga qanotlilar turkumining tunlamlar oilasiga mansub.**

1648. Beda tunlami tuxumini qayerlarga qo'yadi? **Tuxumini barg ustiga va gullarga qo'yadi.**

1649. Beda tunlami tuxumidan necha kundan keyin lichinkalar chiqadi? **3 – 4 – 9 kundan keyin lichinkalar chiqadi.**

1650. Beda tunlami lichinkalik davri necha kun davom etadi? **Lichinkalik davri 20 – 25 kun davom etadi.**

1651. Beda tunlami g'umbaklik davri necha kun davom etadi? **G'umbaklik davri 12 – 15 kun davom etadi.**

1652. Beda qandalasi qaysi oilaga kiradigan beda va g'o'za zararkunandasi? **Yarim qattiq qanotli hasharotlar tuxumining miridlar oilasiga kiradigan beda va g'o'za zararkunandasi.**

1653. Beda qandalasi tuxumini qaerga qo'yadi? **Tuxumini beda poyasiga qo'yadi.**

1654. Beda qandalasi bir qandala nechtacha tuxum qo'yadi? **Bir qandala 50 tacha tuxum qo'yadi.**

1655. Beda qandalasidan necha haftada lichinka chiqadi? **1 – 2 haftada lichinka chiqadi.**

1656. Bedana qaysi oilaga mansub parranda? **Tovuqsimonlar turkumining qirg'ovulsimonlar oilasiga mansub parranda.**

1657. Bedananing og'irligi qancha g? **100 – 145 g.**

1658. Bedananing erkagi jig'ildoni qanday rangda? **Erkagining jig'ildoni malla.**

1659. Bedananing makiyoni jig'ildoni qanday rangda? **Makiyoniniki qoramtir.**

1660. Bedana nechtagacha tuxum qo'yadi? **8 – 20 ta tuxum qo'yadi.**

1661. Bedana tuxumini qaysi biri necha kun bosib yotadi? **Tuxumini makiyoni 15 – 17 kun bosib yotadi.**

1662. Bedana – moshak qaysi oilaga mansub qush? **Balchiqchilar turkumining loyxo'raklar oilasiga mansub qush.**

1663. Bedana – moshakning og'irligi qancha g cha? **90 g cha.**

1664. Bedana – moshak nechtacha tuxum qo'yadi? **4 tacha tuxum qo'yadi.**

1665. Bezli yovuz ilonning Janubi-sharqiy Osiyoda tarqalgan nechta turi bor? **4 ta turi bor.**

1666. Bezli yovuz ilon qaysi oilaga mansub? **Zaharli ilonlarning bir turi. Aspidlar oilasiga mansub.**

1667. Bezli yovuz ilonning bo'yi necha sm cha? **57 sm cha.**

1668. Bezli yovuz ilonning dumi qanday? **Qisqa.**

1669. Bezli yovuz ilonning rangi qanday? **Olataroq.**

1670. Bezli yovuz ilon qayerlarda keng tarqalgan? **Birma, Malakka yarim oroli va Sumatradan to Filippinga qadar bo'lgan orollarda keng tarqalgan.**

1671. Bezli yovuz ilonning zahar bezi tanasining oldingi qancha qismini egallaydi? **Uchdan bir qismini egallaydi.**

1672. Bezli yovuz ilonning zahari ko'p va kuchli bo'lsa-da, nima uchun odam uchun xavfsiz sanaladi? **Chunki bezli yovuz ilon og'zi kichkina bo'lganidan odam uchun xavfsiz sanaladi.**

1673. Beyza qaysi yerlarda yashaydi? **Shimoli-sharqiy Afrikaning ochiq yerlarida (Somali yarim oroli, Sudan, Efiopiya, Keniya, Ugomda, Tanzaniya) yashaydi.**

1674. Beyza qaysi oilaga mansub hayvon? **Juft tuyoqlilar turkumining qovushshoxlilar oilasiga mansub hayvon.**

1675. Beyza boshqa kiyiklardan nimasi bilan farq qiladi? **Erkagi ham, urg'ochisi ham orqaga qarab to'g'ri o'sgan shoxi (uzunligi 1 m gacha) bilan boshqa kiyiklardan farq qiladi.**

1676. Beyzaning uni rangi asosan, qanday? **Qizg'ishqo'ng'ir.**

1677. Beyza tanasining yon tomonlari, boshi va oyoqlarida qanday yo'llar bor? **Qora yo'llar bor.**

1678. Beyza qanday bo'lib yuradi? **Juft-juft bo'lib yuradi.**

1679. Beyzaga o'xshash, lekin qaysi a'zosining tuzilishi rangi bilan undan farq qiladigan qaysi urug'iga mansub quvushshoxlilarning bir necha turi tarqalgan? **Shoxining tuzilishi, oriks urug'iga mansub quvushshoxlilarning bir necha turi tarqalgan.**

1680. Bezgak chivinlari qanday chivinlar urug'i? **Qon so'ruvchi chivinlar urug'i.**

1681. Bezgak chivinlarining qancha turi ma'lum? **300 ga yaqin turi ma'lum.**

1682. Bezgak chivinlarining O'zbekistonda nechta turi bor? **8 ta turi bor.**





1683. Bezgak chivinlarining qaysi turlari bezgak kasalligini keltirib chiqaradigan bezgak sporalisini tarqatuvchi hisoblanadi? **Uch turi, ya'ni: A. sachorovi, A. superpretus, A. pulcherrimus turlari bezgak kasalligini keltirib chiqaradigan bezgak sporalisini tarqatuvchi hisoblanadi.**

1684. Bezgak chivinlarining tanasi uzunligi necha mm? **6 – 8 mm.**

1685. Bezgak chivinlari qachon ucha boshlaydi? **Kun botishi bilan ucha boshlaydi.**

1686. Bezgak chivinlarining erkagi nima bilan ovqatlanadi? **O'simlik shirasi bilan ovqatlanadi.**

1687. Bezgak chivinlari urg'ochisining tuxumlari faqat qachon rivojlana boshlaydi? **Qon so'rgandan so'ng rivojlana boshlaydi.**

1688. Bezgak chivinlari yirik hayvonlar va odamning nimasini so'radi? **Qonini so'radi.**

1689. Bezgak chivinlari qayerga tuxum qo'yadi? **Suvga tuxum qo'yadi.**

1690. Belemnitlar (yunon belemnitida - o'q) qaysi jonivorlar avlodi? **Qazilma holda uchraydigan qadimgi bosh oyoqli yumshoq tanlilar (mollyuskalar) avlodi.**

1691. Belemnitlar qaysi yerada qayerlarda tarqalgan bo'lib, kaynozoyning uchlamchi davrida yo'q bo'lib ketgan? **Mezozoy erasida dengizlarda tarqalgan bo'lib, kaynozoyning uchlamchi davrida yo'q bo'lib ketgan.**

1692. Belemnitlar hozirgi qaysi jonivorlarga o'xshaydi? **Kalmar va karakatitsalarga o'xshaydi.**

1693. Belemnitlar kalmar va karakatitsalardan qaysi a'zosi bo'lishi bilan farq qiladi? **Ichki chig'anog'i (kosasi) bo'lishi bilan farq qiladi.**

1694. Belemnitlarning ko'pchiligida chig'anog'ining dumi qismi qanday vazifani bajargan? **Himoya vazifasini bajargan.**

1695. Belemnitlarning chig'anoq qoldiqlari xalq orasida qanday nom bilan mashhur bo'lib, qadimgi dengiz havzalarida uchrab turadi? **Momaqaldiroq o'qi yoki "shayton panja" nomi bilan mashhur bo'lib, qadimgi dengiz havzalarida uchrab turadi.**

1696. Belugalar qaysi oilaga mansub baliqlar urug'i? **Osyotrsimonlar oilasiga mansub baliqlar urug'i.**

1697. Belugalar boshqa baliqlardan nimalari bilan farq qiladi? **Yarimoy shaklidagi keng og'zi, pastki lablari o'rtasidan kesik borligi va jabralarining tuzilishi bilan farq qiladi.**

1698. Belugalarning nechta turi bor? Ular qaysilar? **Ikkita turi bor. Ular: beluga (Huso huso) va kaluga (Huso dauricus).**

1699. Belugalar qaysi dengizlarda va ularga quyiladigan daryolarda yashaydi? **Kaspiy, Qora, Azov va Adriatika dengizlarida va ularga quyiladigan daryolarda yashaydi.**

1700. Belugalarning tanasi uzunligi necha m? **4 – 5 m.**

1701. Belugalarning og'irligi qancha t? **1,5 t.**

1702. Belugalar bir necha yilda bir marta qaysi oylarda tez oqar daryolarning toshloq joylariga kelib, nechtagacha tuxum qo'yadi? **May – iyun oylarida 200 ming dan 1 mln ta gacha** tuxum qo'yadi.

1703. Belugalarning erkaklari necha yoshda, urg'ochilari necha yoshda voyaga yetadi? **Erkaklari 12–14 yoshda, urg'ochilari 16 – 18 yoshda voyaga yetadi.**

1704. Belugalar qancha yil yashaydi? **100 yildan ortiqroq yashaydi.**

1705. Belugalar qaysi baliqlar bilan gibrid hosil qiladi? **Osyotrsimonlar, xususan, sterlyad bilan, shuningdek, sevryaga va tikandum baliqlar bilan gibrid hosil qiladi.**

1706. Belugalarning sterlyad bilan gibridi qaysi baliqni sun'iy chatishtirish orqali yetishtirilgan? **Bester balig'ini sun'iy chatishtirish orqali yetishtirilgan.**

1707. Belugalar nimalari uchun ovlanadi? **Qimmatbaho go'shti va ikrasi uchun ovlanadi.**

1708. Beluxa qaysi oilaga mansub sut emizuvchi hayvon urug'ining yagona vakili? **Tishli kitlar kenja turkumining delfinsimonlar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon urug'ining yagona vakili.**

1709. Beluxa sut emizuvchi hayvonning tanasi uzunligi necha m gacha? **6 m gacha.**

1710. Beluxa sut emizuvchi hayvonning og'irligi qancha t gacha? **1,5 t gacha.**





1711. Beluxa qaysi okean bilan tutash dengizlarda tarqalgan? **Shimoliy Muz okeani bilan tutashgan dengizlarda tarqalgan.**

1712. Beluxa nimasi yordamida muzlarni bemalol yorib, suzib yuradi? **Boshining peshona qismidagi mustahkam qadog'i yordamida** muzlarni bemalol yorib, suzib yuradi.

1713. Beluxa baliqlar galalarining orqasidan qayerlarga ham o'tadi? **Daryolarga ham o'tadi.**

1714. Beluxa qanday bo'lib yashaydi? **Gala-gala bo'lib yashaydi.**

1715. Beluxa yirik, ya'ni uzunligi necha m keladigan bola tug'adi? **1,5 m keladigan bola tug'adi.**

1716. Beluxa tutqunlikka qanday chidaydi? **Yaxshi chidaydi.**

1717. Beluxa nimalari uchun qanday miqdorda ovlanadi? **Go'shti, terisi va yog'i uchun cheklangan miqdorda ovlanadi.**

1718. Beluxa qaysi hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Baliqlar, qisqichbaqasimonlar va boshqa mayda hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

1719. Beldyuga qaysi oilaga mansub baliqlar? **Belyugasimonlar oilasiga mansub baliqlar.**

1720. Beldyuga qaysi dengizlarda yashaydi? **Boltiq, Barens, Oxota va Yapon dengizlarida yashaydi.**

1721. Beldyuga baliqlari qaysi oylarda, nechtagacha bolalaydi? **Dekabr – fevralda, 300 – 400 tagacha bolalaydi.**

1722. Beldyuga baliqlari qanday tug'adi? **Tirik tug'adi.**

1723. Beldyuga elka va anal suzgich qanotlari gavdasining qayerigacha davom etadi? **Oxirigacha davom etadi.**

1724. Beldyuga qaysi hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Yosh baliqchalar, umurtqasiz jonivorlar, keyin mollyuskalar, mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

1725. Beldyuga qaysi davlatlarda ovlanadi? **Boltiqbo'yi davlatlarida ovlanadi.**

1726. Beradigan mahsulotlariga qarab, tovuqlar qanday zotlarga bo'linadi? **Serpusht, hammabop (go'sht-tuxum uchun boqiladigan) va go'shtdor zotlarga bo'linadi.**

1727. Berk xalta shaklida bo'lib, ichidagi qog'onoq suvli (suyuqligi)da nima turadi? **Homila turadi.**

1728. Berkshir cho'chqa zoti qayerda, qachon mahalliy cho'chqa zotini qaysi cho'chqa zotlari bilan chatishtirish natijasida yetishtirilgan? **Angliyaning Berkshir grafligida XVIII asr oxirida**

**mahalliy cho'chqa zotini neapol, portugal, xitoy cho'chqalari zotlari bilan chatishtirish natijasida yetishtirilgan.**

1729. Berkshir cho'chqa zoti nimalari uchun boqiladi? **Go'shti va yog'i uchun boqiladi.**

1730. Berkshir cho'chqa zotining voyaga yetgan erkagining og'irligi qancha kg? **220 – 250 kg.**

1731. Berkshir cho'chqa zotining ona cho'chqalarning og'irligi qancha kg? **180 – 200 kg.**

1732. Berkshir cho'chqa har gal nechta, ayrimlari nechtagacha bola tug'adi? **8 – 9 ta, ayrimlari 10 – 13 tagacha bola tug'adi.**

1733. Berkshir cho'chqa zoti qaysi jihatlari bilan boshqa cho'chqa zotlaridan ajralib turadi? **Tashqi tuzilishining silliqligi va tez yetilishi bilan boshqa cho'chqa zotlaridan ajralib turadi.**

1734. Berkshir cho'chqa zotining tanasi uzunligi necha sm? **136 – 140 sm.**

1735. Berkshir cho'chqa zotining qaysi a'zolari oq? **Peshonasi, oyoqlari va dumining uchi.**

1736. Berkshir cho'chqa zoti qaerlarda urchitilmoqda? **Ukraina, Mordva, Moldaviyada urchitilmoqda.**

1737. Bersh baliq qaysi oilaga mansub baliqlar turi? **Okunsimonlar oilasiga mansub baliqlar turi.**

1738. Bersh baliq qaysi dengizlarga quyiladigan daryolar etagida yashaydi? **Qora, Azov, Kaspiy dengizlariga quyiladigan daryolar etagida yashaydi.**

1739. Bersh baliqning tanasi uzunligi necha sm gacha? **25 – 45 sm gacha.**

1740. Bersh baliqning og'irligi qancha kg gacha? **2 kg gacha.**

1741. Bersh balig'i necha yoshda voyaga yetadi? **3 – 4 yoshda voyaga etadi.**

1742. Bersh balig'i qaysi oylarda daryoning qanday joylariga tuxum qo'yadi? **Aprel-may oylarida daryoning sayoz joylariga tuxum qo'yadi.**

1743. Bersh balig'i yoshligida suvdagi qanday jonivorlar bilan va keyinroq qanday baliqlar bilan ovqatlanadi? **Yoshligida suvdagi umurtqasiz jonivorlar bilan va keyinroq mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**





1744. Bester balig'ini ko'paytirish maqsadida Respublikamizning qayeriga keltirilgan? **Hovuz baliqchilik xo'jaligiga keltirilgan.**

1745. Bestujvev qoramol zotining vatani qayer? **Rossiya.**

1746. Bestujvev qoramol zoti qachon mahalliy sigir zotlarini shortgorn, golland, simmental va boshq. zotlar bilan chatishtirib yetishtirilgan (nomi zotdor mollar yetishtirish ishlariga asos solgan zavodni Betujvev familiyasidan)? **XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida.**

1747. Bestujvev qoramol zoti buqalarining tirik og'irligi qancha kg? **750 – 900 kg.**

1748. Bestujvev qoramol zoti sigirlarining tirik og'irligi qancha kg? **500 – 550 kg.**

1749. Bestujvev qoramol zotining sigiri qancha kg sut beradi? **3000 – 3800 kg, ba'zan 4500 kg gacha sut beradi.**

1750. Bestujvev qoramol zoti sigiri sutining yog'liligi necha foiz? **3,8 – 4,1 foiz, eng yuqori 5,5 foiz.**

1751. Beshiktervatarlar qaysi jonivorlar turkumiga kiradi? **Hasharotlar turkumiga kiradi.**

1752. Beshiktervatarlar qaysi qanotlilarga yaqin turadigan maxsus hasharotlar turkumi? **To'g'ri qanotlilarga yaqin turadigan maxsus hasharotlar turkumi.**

1753. Beshiktervatarlarning qancha turi ma'lum? **2000 ga yaqin.**

1754. Beshiktervatarlar, asosan, qaysi mintaqalarda tarqalgan? **Asosan, tropik va subtropik mintaqalarda tarqalgan.**

1755. Beshiktervatarlarning O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda qancha turi bor? **20 ga yaqin turi bor.**

1756. Beshiktervatarlarning og'iz a'zolari qanday tipda? **Kemiruvchi tipda.**

1757. Beshiktervatarlar xavf-xatarni sezishi bilan nima qiladi? **Oldingi oyoqlarini yuqori ko'tarib tebranib turadi (nomi ham shundan kelib chiqqan).**

1758. Beshiktervatarlar boshining ikki yonida fasetkali qaysi a'zolari joylashgan? **Ko'zlari joylashgan.**

1759. Beshiktervatarlarning qorni necha bo'g'imli? **10 bo'g'imli.**

1760. Beshiktervatarlarning qaysi a'zo apparati kemiruvchan? **Og'iz apparati kemiruvchan.**

1761. Beshiktervatarlarning old ko'kragi yaxshi rivojlanganmi yoki yomonmi? **Yaxshi rivojlangan.**

1762. Beshiktervatarlarning oldingi oyoqlari kuchlimi yoki keyingi? **Oldingi oyoqlari kuchli.**

1763. Beshiktervatarlar tuxumini qayerga qo'yadi? **Daraxt shoxlariga maxsus pilla ichiga qo'yadi.**

1764. Beshiktervatarlar o'z rangini atrofidagi narsalar ranggiga moslay oladi? **O'z rangini atrofidagi narsalar rangiga moslay oladi.**

1765. Beshiktervatarlarning qachon tuxumdan chiqqan lichinkalari necha marta tullab (chala o'zgarib), rivojlanadi? **Kelasi yil bahorda, 5 – 10 marta tullab (chala o'zgarib), rivojlanadi.**

1766. Beshiktervatarlarning rangi qanday yordam beradi? **O'ljasiga sezilmasdan yaqinlashuviga va o'simliklar orasida turganida turli qushlardan saqlanishiga yordam beradi.**

1767. Beshiktervatarlar qanday hayvon? **Yirtqich hayvon.**

1768. Beshiktervatarlar, asosan, har xil zararkunanda hasharotlarni qaysi a'zolari bilan qattiq ushlab, qanday yeydi? **Oldingi oyoqlari bilan, tiriklayin yeydi.**

1769. Beshmo'ylovdorlar, tilchasimonlar qaysi tipga mansub qo'shimcha sinf hisoblanadi? **Bo'g'im oyoqlilar tipiga mansub qo'shimcha sinf hisoblanadi.**

1770. Beshmo'ylovdorlar, tilchasimonlar qancha turi ma'lum? **70 dan ortiq turi ma'lum.**

1771. Beshmo'ylovdorlar, tilchasimonlar qaysi hayvonlar sinfi? **Parazit umurtqasiz hayvonlar sinfi.**

1772. Beshmo'ylovdorlarning maxsus qaysi tizimlari yo'q? **Maxsus nafas va qon aylanish sistemalari yo'q.**

1773. Beshmo'ylovdorlarning ko'proq tarqalgan turi qaysi? **Burun beshmo'ylovdorlar (erkagining bo'yi 2 sm cha, urg'ochisining bo'yi 8 – 13 sm) turi.**

1774. Beshmo'ylovdorlar qaysi hayvonlarning burun bo'shlig'ida parazitlik qiladi? **It, bo'ri, tulkining burun bo'shlig'ida parazitlik qiladi.**





1775. Beshmo'ylovdorlarning lichinkasi qayerlarda yashaydi? **Qoramol ichagi atrofidagi limfa bezlarida, o'txo'r hayvonlarning jigari va o'pkasida yashaydi.**

1776. Beshmo'ylovdorlar qaysi tipga mansub qo'shimcha sinf hisoblanadi? **Bo'g'im oyoqlilar tipiga mansub qo'shimcha sinf hisoblanadi.**

1777. Beshmo'ylovdorlarning tanasi qanday shaklda? **Chuvalchangsimon yoki tilchasimon shaklda.**

1778. Beshmo'ylovdorlarning tanasi nima bilan qoplangan? **Xitin bilan qoplangan.**

1779. Beshmo'ylovdorlar tanasining qaysi (oldingimi yoki keyingimi) qismida og'zi va ikki juft tikansimon ilgagi bor? **Oldingi qismida og'zi va ikki juft tikansimon ilgagi bor (shularga ilgari mo'ylovlar deb noto'g'ri nom qo'yilgan).**

1780. Beshmo'ylovdorlar qaysi davrda turli umurtqali hayvonlarning o'pkasi va nafas yo'llarida parazitlik qiladi? **Voyaga yetgan davrida turli umurtqali hayvonlarning o'pkasi va nafas yo'llarida parazitlik qiladi.**

1781. Beshmo'ylovdorlarning qancha turi ma'lum? **70 ga yaqin turi ma'lum.**

1782. Beshmo'ylovdorlar, asosan, qanday iqlimli mamlakatlarda tarqalgan? **Tropik va subtropik mamlakatlarda tarqalgan.**

1783. Bigiztumshuq qaysi oilaga mansub qush? **Bigiztumshuqlar oilasiga mansub qush.**

1784. Bigiztumshuqning og'irligi qancha g? **9 – 11 g.**

1785. Bizon juft tuyoqlilar turkumining qaysi oilasiga mansub? **Qovushshoxlilar oilasiga mansub.**

1786. Bizonning elkasida kichikroq qaysi a'zosi bor? **O'rkachi bor.**

1787. Bizonning og'irligi qancha kg cha? **1000 kg cha.**

1788. Bizonning qaysi a'zolari yaxshi rivojlangan? **Hidlov va eshitish a'zolari yaxshi rivojlangan.**

1789. Bizonning urg'ochisi necha yoshda voyaga yetadi? **3 yoshida voyaga yetadi.**

1790. Bizonning homiladorlik davri necha oy? **9 oy.**

1791. Bizonning tanasi uzunligi necha m? **3 m.**

1792. Bizonning dumi necha sm? **50 sm.**

1793. Bizonning bo‘yi necha m? **2 m.**

1794. Bizon xonaki qoramolmi yoki yovvoyi? **Yovvoyi qoramol.**

1795. Bizon qayerdagi cho‘llarda yashaydigan eng yirik sut emizuvchi hayvon? **Shimoliy Amerikadagi cho‘llarda yashaydigan eng yirik sut emizuvchi hayvon.**

1796. Bizon qanday bo‘lib yuradi? **Katta poda bo‘lib yuradi.**

1797. Bizon qayerliklar kelmasdan avval Amerikada millionlab bo‘lgan? **Yevropaliklar kelmasdan avval Amerikada millionlab bo‘lgan.**

1798. Bizonni qayerliklar faqat nimasi uchun ko‘plab ovlab, qisqa muddatda qirib yuborgan? **Yevropaliklar terisi uchun ko‘plab ovlab, qisqa muddatda qirib yuborgan.**

1799. Bizonning qaysi biri (erkagimi yoki urg‘ochisimi) biroz kichik? **Urg‘ochisi biroz kichik.**

1800. Bizonning gavdasi qanday (yo‘g‘onmi yoki ensizmi)? **Yo‘g‘on.**

1801. Bizonning usti qattiqmi yoki yumshoqmi? **Yumshoq.**

1802. Bizonning usti qanday tusdagi jun bilan qoplangan? **Qoramtir tusdagi jun bilan qoplangan.**

1803. Bizon buqalarining qaysi a’zolarida qalin yollar bo‘ladi? **Elkasi, ko‘kragi va bo‘ynida qalin yollar bo‘ladi.**

1804. Bizonning shoxi qanday (uzunmi yoki kaltami)? **Kalta.**

1805. Bizonning shoxi qayoqqa (yonboshgami yoki tepagami) qarab o‘sgan? **Tepaga qarab o‘sgan.**

1806. Bizon qaysi oylarda urchiydi? **Avgust – sentabr oylarida urchiydi.**

1807. Bizon nechta bola tug‘adi? **Bitta yoki ikkita bola tug‘adi.**

1808. Bizon sobiq Ittifoqdagi qaysi zapovednikda iqlimlashtirilgan? **Askaniya-Nova zapovednigida iqlimlashtirilgan.**

1809. Bizon qaysi hayvon bilan chatishtirib, urchiydigan qanday hayvon olingan? **Zubr bilan chatishtirib, urchiydigan zubr-bizon olingan.**

1810. Bizon boshqa qoramollar bilan ham chatishtirilib, yaxshi nimalar beradigan duragaylar yetishtiriladi? **Go‘sht va teri beradigan duragaylar yetishtiriladi.**





1811. Bizg‘aldoq qaysi oilaga mansub qush? **Turnasimonlar turkumining tuvaloqlar oilasiga mansub qush.**

1812. Bizg‘aldoq qaysi o‘lkalarda yashaydi? **Qattiq qish bo‘lmaydigan o‘lkalarda yashaydi.**

1813. Bizg‘aldoq qushi qaysi qit’alarda tarqalgan? **Yevropa, Osiyo va Shimoliy Afrikada tarqalgan.**

1814. Bizg‘aldoq qushining og‘irligi qancha kg cha? **1 kg cha.**

1815. Bizg‘aldoq qushi qayerlarda yashaydi? **O‘t bilan qoplangan dashtlarda, ba’zan qumli cho‘llarda yashaydi.**

1816. Bizg‘aldoq qushi qishlash uchun qaysi faslda O‘rta Osiyodagi issiq mamlakatlarga uchib ketadi? **Kuz faslida O‘rta Osiyodagi issiq mamlakatlarga uchib ketadi.**

1817. Bizg‘aldoq qushi qayerlarda doim yashaydi? **Qattiq qish bo‘lmaydigan Janubiy o‘lkalarda yashaydi.**

1818. Bizg‘aldoq qushi ko‘pincha nechta, ba’zan nechta, hatto nechtagacha tuxum qo‘yadi? **3 – 5 ta, 7 – 8 ta, hatto 11 tagacha tuxum qo‘yadi.**

1819. Bizg‘aldoq qushi kuz va qishda nima, yozda qanday hayvonlarni yeydi? **Kuz va qishda o‘t, yozda hasharotlarni yeydi.**

1820. Biy bo‘g‘im oyoqlilar tipining qaysi sinfiga kiradigan hasharot? **O‘rgimchaksimonlar sinfiga kiradigan hasharot.**

1821. Biylarning qancha turi ma’lum? **40 ga yaqin turi ma’lum.**

1822. Biy hasharotining bosh qismida qisqichsimon, ichki tomonidan arra tilli bir juft qaysi a’zolari bor? **Xelitsera (oyoq)lari bor.**

1823. Biy hasharotining tanasi uzunligi necha sm? **3 – 4 sm.**

1824. Biylar qayerlarda necha sm gacha chuqurlikda tik qazilgan uyalarida yashaydi? **Sizot suvlari yuza joylashgan nam tuproqli joylar (ariq va zovurlar bo‘yi, ekin ekilgan maydonlar chekkasi, daryo bo‘ylari)da 60 sm gacha chuqurlikda tik qazilgan uyalarida yashaydi.**

1825. Biylar qachonga hayvon? **Tungi hayvon.**

1826. Biylar nima tutgani inidan qachon chiqadi? **O‘lja (turli hasharotlar) tutgani inidan kechasi chiqadi.**

1827. Biylar qaysi faslda o'rgimchak inidan to'qilgan pilla-ga qancha tuxum qo'yadi? **Yozda (iyun – iyul) 100 ga yaqin tuxum qo'yadi.**

1828. Biylarning urg'ochisi pillasini o'rgimchak bezlariga yopishtirib yoki nimasida olib yuradi? **Xelitserasida olib yuradi.**

1829. Biylar qayerlarda tarqalgan? **O'rta Osiyo, Qozog'iston, Janubiy Yevropa va Kavkazning cho'l, chala cho'l va dasht-larida tarqalgan.**

1830. Biylarning O'zbekistonda tarqalgan nechta turidan nort-man biyi (L. nortmani) ko'p uchraydi? **5 ta turidan nortman biyi (L. nortmani) ko'p uchraydi.**

1831. Biylarning qaysi turlari Samarqand janubida tarqal-gan? **L. pulvientris, L. alticeps turlari Samarqand janubida tarqalgan.**

1832. Biylarning qaysi turi Qarshi cho'lida tarqalgan? **L. meda turi Qarshi cho'lida tarqalgan.**

1833. Biylarning qaysi turi Chirchiq va Farg'ona vodiysida tarqalgan? **Janubiy rus biyi (L. singierensis) turi Chirchiq va Farg'ona vodiysida tarqalgan.**

1834. Biylar qanday; ammo nimalar uchun xavfli emas? **Za-harli, ammo odam va hayvonlar uchun xavfli emas.**

1835. Bilakuzuklar qayerlarda tarqalgan? **Janubi-G'arbiy Osiyo, Yevropa, Avstraliya, Afrika va Tinch okean orollari-da tarqalgan.**

1836. Bilakuzuklarning oyoqlari kuchlimi yoki zaif? **Zaif.**

1837. Bilakuzuklarning oyoqlari necha barmoqli? **2 – 5 bar-moqli.**

1838. Bilakuzuklar tez harakat qiladimi yoki sekin? **Tez harakat qiladi.**

1839. Bilakuzuklar nima uchun ilonquyruq deb ham ataladi? **Chunki bilakuzuklar qalin o'tlar orasida qisqa oyoqlarini bag'riga bosib, ilonga o'xshab yurishi uchun ilonquyruq deb ham ataladi.**

1840. Bilakuzuklar qayerlarga yashirinadi? **Toshlar orasiga, hayvonlar, jonivor uyalariga yashirinadi.**

1841. Bilakuzuklarning ko'pi nima qo'yadi? **Tuxum qo'yadi.**

1842. Bilakuzuklarning qayerlarda yashaydigan turlari tirik tug'adi? **Baland tog'larda yashaydigan turlari tirik tug'adi.**





1843. Bilakuzuklar qanday hayvonlarni yeb, foyda keltiradi? **Turli hasharotlarni yeb, foyda keltiradi.**

1844. Bilakuzuklar, ilonquyruqlarning qancha turi bor? **32 taga yaqin turi bor.**

1845. Bilakuzuklar, ilonquyruqlar kaltakesaklarning bir nima-si? **Urug'i.**

1846. Bilakuzuklar, ilonquyruqlar kaltakesaklar tangachalilar turkumining qaysi oilasiga mansub? **Stsinklar oilasiga mansub.**

1847. Bilakuzuklar, ilonquyruqlarning bo'yi necha sm cha? **11 sm cha.**

1848. Bilakuzuklar, ilonquyruqlar – kaltakesaklarning baland tog'larda yashaydigan turlari qanday tug'adi? **Tirik tug'adi.**

1849. Bilakuzuklar, ilonquyruqlar – kaltakesaklarning ko'pi nima qo'yadi? **Tuxum qo'yadi.**

1850. Bilakuzuklar, ilonquyruqlar – kaltakesaklar qayerlarda yashaydi? **Dasht, cho'l, tog' va o'rmonlarda yashaydi.**

1851. Biolyuminestsentsiyani qaysi hayvonlarda kuzatish mumkin? **Umurtqasiz hayvonlarda (eng sodda hayvonlardan tortib, hasharotlargacha) va baliqlarda kuzatish mumkin.**

1852. Biolyuminestsentsiya qayerda yashaydigan hayvonlar orasida ko'proq uchraydi? **Dengiz va okeanlarda yashaydigan hayvonlar orasida ko'proq uchraydi.**

1853. Biolyuminestsentsiya erkak va urg'ochi hayvonlar bir-birini topishi uchun nima bo'lib xizmat qiladi? **Signal bo'lib xizmat qiladi.**

1854. Bionika qaysi fanlar bilan chambarchas bog'liq? **Biologiya, fizika, kimyo, kibernetika, elektronika va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq.**

1855. Biotik potentsial termini qaysi amerikalik ekolog tomonidan hayvonlar miqdori o'zgarib turishini o'rganish muno-sabati bilan nechanchi yilda fanga kiritilgan? **Amerika ekologi R. Chepmen tomonidan 1925-yilda kiritilgan.**

1856. Biomassa nima? **Tirik organizmlarning o'zi yashab turgan muhiti yuzasi (1 $m^2$, 1 $sm^2$ va hokazo) yoki hajm birli-gi (1 $m^3$, 1 $sm^3$ va hokazo)ga to'g'ri keladi.**

1857. Biomassa tushunchasi qayerda ko'p qo'llaniladi? **Gidrobiologiyada ko'p qo'llaniladi.**

1858. Bir vaqtlar Hindistonning g'arbi-shimoliy va markaziy qismlarida ko'plab uchraydigan gujerat yolsiz arsloni (Felis leoguzerutensis) nechanchi asrda juda kamayib ketganligi uchun Hindsiton hukumati arslon ovlashni taqiqlab qo'ygan? **XIX asrda juda kamayib ketganligi uchun Hindsiton hukumati arslon ovlashni taqiqlab qo'ygan.**

1859. Bir t qora tuproqda nechta yomg'ir chuvalchangi yashashi mumkin? **2,5•10⁶ ta yomg'ir chuvalchangi yashashi mumkin.**

1860. Bir g'ozdan bir yilda nechta jo'ja olish va ularni semirtirib boqib, qancha kg gacha go'sht yetishtirish mumkin? **20 – 25 ta jo'ja olish, 100 kg gacha go'sht yetishtirish mumkin.**

1861. Bir g'ozdan o'rtacha necha yil, ko'p bilan necha yil nasl olish mumkin? **5 – 6 yil, ko'pi bilan 8 yil nasl olish mumkin.**

1862. Bir plavun kitdan sanoatda ishlatiladigan qancha t moy olinadi? **2,7 t moy olinadi.**

1863. Plavun kitining go'shti nima qilinadi? **Uy hayvonlariga beriladi.**

1864. Bir o'rkachli tuyalar qancha kg gacha, ikki o'rkachlilari qancha kg gacha sut beradi? **Bir o'rkachli tuyalar 2000 kg gacha, ikki o'rkachlilari 750 kg gacha sut beradi.**

1865. Bir ona cho'chqadan bir yilda nechta bola olish va uni boqish mumkin? **20 – 22 ta bola olish va uni boqish mumkin.**

1866. Bir yil mobaynida bitta ona cho'chqadan umumiy tirik og'irligi qancha t gacha nasl olinadi? **2 – 3 t gacha nasl olinadi.**

1867. Bir o'rkachli tuya sutining yog'liligi necha foiz? **4,5 – 5,4 foiz.**

1868. Bir o'rkachli tuyaning homiladorlik davri necha oy? **13 oy.**

1869. Bir kg biya suti qancha kkal energiya beradi? **500 kkal energiya beradi.**

1870. Bir teshiklilar, tuxum qo'yuvchilar qaysi jonivorlarning kenja sinfi? **Sut emizuvchilarning kenja sinfi.**

1871. Bir teshiklilarga nechta oila kiradi? Ular qaysilar? **Ikkita oila kiradi. Ular: o'rdakburunlar va exidnalar.**

1872. Bir turning o'zida ham har xil zaharli jonivorlarning zahari qanday ta'sir etmaydi? **Bir xilda ta'sir etmaydi. Masalan:**





**cho'chqalar, shaqildoq ilon, tipratikanlar, qora ilon, cho'l kemiruvchilari chayonlar zahariga kam ta'sirchan bo'ladi.**

1873. Bir xil zaharli jonivorlar (ilonlar, o'rgimchaklar, chayonlar)ning zahar ishlab chiqaradigan qanday bezlari bor? **Maxsus bezlari bor.**

1874. Bir nechta bo'ri birlashib nima qiladi? **Ov qiladi.**

1875. Bir qancha quruqlik va chuchuk suv qorinoyoqli mollyuskalar qaysi hayvonlarning oraliq xo'jayni? **Gelmitlarning oraliq xo'jayni.**

1876. Bir hujayralilarda bitta hujayraning o'zi tirik organizm uchun xos bo'lgan deyarli barcha nimalarga ega? **Xususiyatlarga ega.**

1877. Bir-biridan uzoqda joylashgan va o'zaro keskin farq qiladigan yashash muhitlari o'rtasida hayvonlarning qonuniy ko'chib yurishi nima deyiladi? **Hayvonlar migratsiyasi (lot. migration-ko'chish, ko'chib yurish) deyiladi.**

1878. Birlamchi bo'shliqlilar, to'garak chuvalchanglar qanday hayvonlar tipi? **Umurtqasiz hayvonlar tipi.**

1879. Birlamchi bo'shliqlilarda qaysi a'zolari oralig'i tananing birlamchi bo'shlig'ini tashkil etadi? **Teri-muskul qopchig'i bilan ichagi oralig'ini (nomi shundan olingan) tashkil etadi.**

1880. Birlamchi traxeyalilarning tana bo'shlig'i qanday? **Aralash (miksotsel).**

1881. Birlamchi bo'shliqlilar qanday sinflarga bo'linadi? **Qilchuvalchanglar, qorinkipriklilar, kolovratkalar, nematodalar, kinorinxalar kabi sinflarga bo'linadi.**

1882. Birlamchi og'izlilarning qaysi a'zo teshigi boshlang'ich og'iz (blastopor)dan yoki uning oldingi qismidan vujudga kelgan? **Og'iz teshigining oldingi qismidan vujudga kelgan.**

1883. Birlamchi og'izlilarning qaysi a'zosi qaytadan tananing orqa qismida hosil bo'ladi? **Anal teshigi qaytadan tananing orqa qismida hosil bo'ladi.**

1884. Birlamchi og'izlilarning oldingi va orqa ichaklari nimadan tashkil topadi? **Ektodermadan tashkil topadi.**

1885. Birlamchi og'izlilar qanday hujayrali hayvonlar? **Ikki tomonlama simmetriyalilarga mansub bo'lgan haqiqiy ko'p hujayrali hayvonlar.**

1886. Birlamchi og'izlilarga umurtqasiz hayvonlarning qaysi tiplari kiradi? **Yassi chuvalchanglar, birlamchi tana bo'shliqlilar, tikanboshlilar, nemertinlar, halqali chuvalchanglilar, mollyuskalar, bo'g'imoyoqlilar, onixoforalar, payraslagichlar kiradi.**

1887. Birlamchi traxeyalilar – onixoforalar tipining, asosan, qaysi mintaqalarda tarqalgan sinfi? **Tropik va mo'tadil mintaqalarda tarqalgan sinfi.**

1888. Birlamchi traxeyalar onixoforalar tipining, asosan, tropik va mo'tadil mintaqalarda tarqalgan nimasi? **Sinfi.**

1889. Birlamchi traxeyalarning tuzilishi qaysi hayvonlarga o'xshash? **Halqali chuvalchanglarga o'xshash.**

1890. Birlamchi traxeyalilarning qurtsimon tanasi nechtadan nechtagacha bo'g'imlilarga bo'lingan? **13 tadan 43 tagacha bo'g'imlilarga bo'lingan.**

1891. Birlamchi traxeyalilar bo'g'imlilarining ikki yonida qanday a'zolari bor? **Bir juftdan bo'g'imlilarga bo'linmagan oddiy oyoqlari va oyoqlarining uchida bir juftdan xitinlashgan tirnoqchalari bor.**

1892. Birlamchi traxeyalilarning tanasi uzunligi necha sm? **4 – 15 sm.**

1893. Birlamchi traxeyalilarning tanasi nima bilan qoplangan? **Yupqa xitinli kutila bilan qoplangan.**

1894. Birlamchi traxeyalilarning boshida necha juft uzun mo'ylovi bor? **Bir juft uzun mo'ylovi bor.**

1895. Birlamchi traxeyalilarning boshida necha juft oddiy ko'zi bor? **Bir juft oddiy ko'zi bor.**

1896. Birlamchi traxeyalilarning og'zida necha juft xitin plastinkadan iborat jag'i bor? **Bir juft xitin plastinkadan iborat jag'i bor.**

1897. Birlamchi traxeyalilarning bosh miyasi nechta bo'limdan iborat? **3 ta bo'limdan iborat.**

1898. Birlamchi traxeyalilarning nafas a'zosi vazifasini nimalar bajaradi? **Sodda tuzilgan, o'zaro tutashmagan bir tutam traxeya naychalari bajaradi.**

1899. Birlamchi traxeyalilarda qon aylanish sistemasi ochiqmi yoki yopiq? **Ochiq.**





1900. Birlamchi traxeyalilarning ichagi qanday shaklda? **Naysimon shaklda.**

1901. Birlamchi traxeyalilarning ayirish a'zosi qayerda joylashgan? **Metanefriydan iborat har bir oyog'ining ostki tomonida joylashgan.**

1902. Birlamchi traxeyalilar boshining qaysi tomonida so'rg'ichlar bilan o'ralgan qaysi a'zosi va nechta qaysi a'zo oldi so'rg'ichlari joylashgan? **Pastki tomonida so'rg'ichlar bilan o'ralgan og'zi va ikkita og'iz oldi so'rg'ichlari joylashgan.**

1903. Birlamchi traxeyalilar og'zida necha juft xitin plastinkadan iborat qaysi a'zosi bo'ladi? **Bir juft jag'i bo'ladi.**

1904. Birlamchi traxeyalilar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

1905. Birlamchi traxeyalilar, asosan, qanday tug'adi? **Tirik tug'adi.**

1906. Birlamchi traxeyalilarning nechta turi bor? **70 ta turi bor.**

1907. Birlamchi traxeyalilar qayerlarda tarqalgan? **Janubiy va G'arbiy Afrikada, Markaziy va Janubiy Amerikada, Indoneziyada, Avstraliyaning janubiy sohillarida, Yangi Zelandiya va Shimoliy Hindistonda tarqalgan.**

1908. Birlamchi traxeyalilar qayerlarda yashaydi? **Toshlar, chirigan yog'ochlarning ostida yashaydi.**

1909. Birlamchi traxeyalilar qanday hayvon? **Yirtqich hayvon.**

1910. Birlamchi traxeyalilar o'ljasini qanday tutadi? **Og'izoldi so'rg'ichlaridan chiqaradigan yopishqoq suyuq modda yordamida tutadi.**

1911. Bissa, karetta dengiz toshbaqalarining qaysi turkumiga mansub ulkan toshbaqa turi? **Kenja turkumiga mansub ulkan bir turi.**

1912. Bissa, karetta sudralib yuruvchilarning nimasi? **Sinfi.**

1913. Bissa, karetta qaysi dengizlarda keng tarqalgan? **Barcha tropik va subtropik dengizlarda keng tarqalgan.**

1914. Bissa, kareta, xususan, qaysi dengizda ko'p uchraydi? **Xususan, Sulu dengizida ko'p uchraydi.**

1915. Bissa, karetta tuxumini qayerga, nimaga ko'mib qo'yadi? **Kimsasiz orollardagi qumga, 150 – 200 tacha tuxumlarini ko'mib qo'yadi.**

1916. Bissa, karetta tuxumidan necha kundan so'ng toshbaqalar chiqadi? **60 kundan so'ng toshbaqalar chiqadi.**

1917. Bissaning O'zbekistonda uchraydiganlarining nomlari nima? **Quyruqli buzoqboshi (Gryllotalpa gryllotalpa, bir tikanli buzoqboshi (Gryllotalpa unispina Sauss), janubiy tumanlarda esa Afrika buzoqboshi (Grellotalpa africana Blanv.) uchraydi.**

1918. Bissa, karetta kosasining uzunligi necha sm? **80 – 90 sm.**

1919. Bissa, karetta urg'ochisi qaysi oylarda urchiydi? **Iyun – sentabr oylarida urchiydi.**

1920. Bissa, karetta qachon suvdan quruqlikka chiqadi? **Ko'payish davrida suvdan quruqlikka chiqadi.**

1921. Bissa, karetta har doim nechta joyga tuxum qo'yadi? **Bir joyga tuxum qo'yadi.**

1922. Bissa, karettaning tuxumi uzunligi necha sm cha? **4 sm cha.**

1923. Bissa, karettaning qorin qalqoni qanday rangli? **Sariq rangli.**

1924. Bissa, karettalar nimalar bilan ovqatlanadi? **Mollyuskalar, bo'g'imoyoqlilar, astsidiyalar va suv o'tlari bilan ovqatlanadi.**

1925. Bissaning nimalari iste'mol qilinadi? **Go'shti va tuxumlari iste'mol qilinadi.**

1926. Bissa, karettaning nechta kenja turi ma'lum bo'lib, qayerlarda yashaydi? **Ikkita turi ma'lum bo'lib, ulardan biri – Atlantika okeani va O'rta dengizda, ikkinchisi – Tinch va Hind okeanlarida yashaydi.**

1927. Bissus bezlari (yunon. byssos –ingichka ip) – ko'pchilik necha pallali mollyuskalar qaysi a'zosida joylashgan a'zo? **Ikki pallali mollyuskalar oyog'ida joylashgan a'zo.**

1928. Bissus bezlari ba'zi mollyuskalarda faqat qaysi davrda bo'ladi? **Lichinka davrida bo'ladi.**

1929. Bissus bezlardan chiqqan qanday modda (bissus) hisobiga juda pishiq bissus iplari hosil bo'ladi? **Organik modda, bu iplar yordamida mollyuskalar suv tubidagi har xil narsalarga yopishib oladi.**





1930. Bissus iplarining rangi qanday? **Sarg'ish yoki qo'ng'ir.**

1931. Bissus iplaridan qaysi asrlarda gazlamalar (vissona) to'qilgan? **Qadimgi va o'rta asrlarda gazlamalar (vissona) to'qilgan.**

1932. Bit, bitlar nima so'ruvchi hasharotlar turkumiga kiradi? **Qon so'ruvchi hasharotlar turkumiga kiradi.**

1933. Bit barmoqlarining uchida ilmoqqa o'xshash qayrilgan nimalari yordamida kiyim yoki soch tolalariga yopishib oladi? **Tirnoqlari yordamida kiyim yoki soch tolalariga yopishib oladi.**

1934. Bit (urg'ochisi) o'z hayoti davomida qancha sirka (tuxum) qo'yadi? **300 tagacha sirka (tuxum) qo'yadi.**

1935. Bitning necha juft oddiy ko'zi bor? **Bir juft oddiy ko'zi bor.**

1936. Bitning og'iz apparati qanday so'ruvchi? **Sanchib so'ruvchi.**

1937. Bitning og'iz teshigi og'darilib tashqariga chiqadigan ilmoqlar yordamida qon so'riyotganida nimaga yopishib oladi? **Teriga yopishib oladi.**

1938. Bitning necha juft oyoqlari tanasining 2 yoniga keng yoyilib turadi? **Uch juft oyoqlari tanasining 2 yoniga keng yoyilib turadi.**

1939. Bitning qancha turi ma'lum? **300 ga yaqin turi ma'lum.**

1940. Bitning tanasi uzunligi necha mm? **5 – 10 mm.**

1941. Bit ko'pincha sariq, uzun nimalar bilan qoplangan? **Tuklar bilan qoplangan.**

1942. Bitning qaysi a'zo qismida qisqichsimon, ichki tomoni arra tishli bir juft xelitsera (oyo)lari bor? **Bosh qismida qisqichsimon, ichki tomoni arra tishli bir juft xelitsera (oyo)lari bor.**

1943. Bit qanday hasharot? **Serharakat yirtqich hasharot.**

1944. Bit qachon (kunduzimi yoki kechasimi) ov qiladi? **Kechasi ov qiladi.**

1945. Bitning maxsus zahar bezlari bormi yoki yo'q? **Yo'q.**

1946. Bit odamni chaqqanda o'sha joy nima bo'ladi? **Yallig'lanadi.**

1947. Bit qanday iqlimli mamlakatlarda ko'p? **Quruq va issiq iqlimli mamlakatlarda ko'p.**

1948. Bit O'rta Osiyo va O'zbekistonning quruq cho'l, bo'z yerlarida, ayrim turlari dengiz sathidan necha m gacha balandlikdagi tog'larda uchraydi? **3000 m gacha balandlikdagi tog'larda uchraydi.**

1949. Bitiniyalar qanday oyoqli mayda mollyuskalar urug'i? **Qorin oyoqli mollyuskalar urug'i.**

1950. Bitiniyalarning bir necha turi O'zbekistondagi qanday suv havzalarida uchraydi? **Chuchuk suv havzalarida uchraydi.**

1951. Bitning tanasi uzunligi necha mm? **1,5 – 4,5 mm.**

1952. Bitlar qanday a'zosiz? **Qanotsiz.**

1953. Bit qon so'rganda atrofidagi ilmoqlari bilan teriga yopishib olib, qichitadigan nima chiqaradi? **So'lak chiqaradi.**

1954. Bitning odamda qanday turlari uchraydi? **Bosh biti, kiyim biti va qov biti uchraydi.**

1955. Bitning qov biti nechtacha sirka (tuxum) qo'yadi? **50 tacha sirka (tuxum) qo'yadi.**

1956. Bitning qov biti sirkasi uzunchoq bo'lib, qattiqmi yoki yumshoq qobiq bilan qoplangan? **Qattiq qobiq bilan qoplangan.**

1957. Bitning qov biti qanday modda yordamida sochga yoki kiyimga yopishib turadi? **Shilimshiq moddasi yordamida sochga yoki kiyimga yopishib turadi.**

1958. Bitning qov biti sirkasi qancha ° C haroratda necha sutkada, 23° C haroratda necha sutkada bitga aylanadi? **4 – 6 sutkada; 16 sutkada bitga aylanadi.**

1959. Bit qanday kasalliklar tarqatadi? **Tashlama tif, qaytalama tif va boshq. kasalliklar tarqatadi.**

1960. Bitiniyalar qayerlarda yashovchi oldjabrali mollyuskalar urug'i? **Chuchuk suvlarda yashovchi oldjabrali mollyuskalar urug'i.**

1961. Bitiniyalar chig'anog'ining balandligi necha sm gacha? **15 sm gacha.**

1962. Bitiniyalarning chig'anog'i qanday shaklda? **Tuxumsimon yoki oval konussimon, silliq, ba'zan spiral shaklda.**

1963. Bitiniyalarning qancha turi ma'lum? **20 ga yaqin turi ma'lum.**

1964. Bitiniyalar qayerlarda keng tarqalgan? **Yevropa va Osiyoda keng tarqalgan.**





1965. Bitiniyalar qayerlarda ham uchraydi? **Shimoliy Amerikada ham uchraydi.**

1966. Bitiniyalar qayerlarda yashaydi? **Oqmaydigan va tinch oqadigan suvlardagi o'simliklar va toshlarning ustida, suv tubidagi loyda yashaydi.**

1967. Bitiniyalarning ayrim turlari qaysi jonivorlarning oraliq xo'jayini? **Parazit chuvalchanglar, asosan, so'rg'ichlarning oraliq xo'jayini.**

1968. Bitta ko'k kit qancha t yog' beradi? **15 – 20 t yog' beradi.**

1969. Bitta ko'k kit qancha t go'sht beradi? **35 – 40 t go'sht beradi.**

1970. Bitta burunduq, olasichqon qancha kg cha kedr yong'og'i jamlaydi? **4 kg cha kedr yong'og'i jamlaydi.**

1971. Bitta nar nandu qushining nechtagacha modasi bo'ladi? **6 dan 8 tagacha modasi bo'ladi.**

1972. Bitta hayotiy shaklga har xil, hatto turli xil sistematik guruhlarga mansub turlar, masalan, qaysi jonivorlar kirishi mumkin? **Yerqazar va ko'rsichqon kirishi mumkin.**

1973. Bitta erkak cho'chqa urug'i bilan 1 yilda nechta urg'ochi cho'chqani sun'iy urug'lantiradi? **100 dan ortiq urg'ochi cho'chqani sun'iy urug'lantiradi.**

1974. Biya nima? **Voyaga yetgan urg'ochi yilqi.**

1975. Biya, odatda, nechta tug'adi? **Bitta tug'adi.**

1976. Biya suti tarkibidagi C vitamin sigir sutidagiga nisbatan necha barobar ko'p? **10 barobar ko'p.**

1977. Biya suti tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **10 – 12, 2 foiz quruq modda, shu jumladan 1,6 – 2,4 foiz yog', 1,9 – 2,2 foiz oqsil, 6,3 – 7,2 foiz qand, 0, 3– 0,4 foiz mineral tuzlar bo'lib, C vitamini bor.**

1978. Biya sutkasiga qancha l gacha sut beradi? **11 – 15 l gacha sut beradi.**

1979. Biyaning ayrim sersut zotlari bir sutkada necha l gacha sut beradi? **25l gacha sut beradi.**

1980. Biya sutidan qanday ichimlik tayyorlanadi? **Qimiz tayyorlanadi.**

1981. Biyalarda sog'im davri necha oy? **9 oy va undan ortiq.**

1982. Biyaning homiladorlik davri o'rtacha necha oy? **11 oy.**

1983. Biyadan sog'lom qulun olish uchun butun homiladorlik davrida nimalarga yo'l qo'yilmaydi? **Qaltis harakatlardan, shamollashdan ehtiyot qilinadi, og'ir yuk tashishda ishlatilmaydi, toliqishga yo'l qo'yilmaydi.**

1984. Biya nimadan alohida saqlanadi? **Ayg'irdan alohida saqlanadi.**

1985. Biya necha yoshidan, ya'ni g'o'nanlik davridan to necha yoshgacha, qochiriladi? **3 yoshdan to 20 – 25 yoshgacha, ba'zan undan ham katta yoshgacha qochiriladi.**

1986. Biya sutining 1 kg i qancha kkal energiya beradi? **500 kkal energiya beradi.**

1987. Biyalar uyuri 25 – 30 va undan ko'proq yilqi va necha oygacha bo'lgan nimalardan tashkil etiladi? **6 – 8 oygacha bo'lgan qulunlardan tashkil etiladi.**

1988. Biyalar qanday shaklga ega? **Aniq shaklga ega emas.**

1989. Boa, oddiy bo'g'ma ilon qaysi ilonlar oilasiga mansub, ulkan ilonlarning bir turi? **Bo'g'ma ilonlar oilasiga mansub ulkan ilonlarning bir turi.**

1990. Boa ilonning bo'yi necha m cha? **4 m cha.**

1991. Boa ilon qayerlarda uchraydi? **Janubiy Amerika tropiklarida, quruq va issiq iqlimli o'rmonlarda, butazorlarda hamda ochiq tekisliklarda uchraydi.**

1992. Boa iloni qayerlarda nechtasi yerni uya qilib yashaydi? **Quruq yerlarda va qoyalarda 4 – 5 tasi yerni uya qilib yashaydi.**

1993. Boa iloni o'ljani qanday o'ldiradi? **Bo'g'ib o'ldiradi.**

1994. Boa iloni tuxumdan qanday bola tug'adi? **Tirik bola tug'adi.**

1995. Boa iloni urg'ochisi o'ldirilganda uning tuxum yo'lidan nechta tuxum chiqqan? **12 ta tuxum chiqqan.**

1996. Boa ilonining urg'ochisi o'ldirilganda tuxumlar ichida bo'yi necha sm li bolasi bo'lgan? **30 – 50 sm li bolasi bo'lgan.**

1997. Bobrlar, suv qunduzlari qaysi oilaning yagona urug'i? **Bobrsimonlar oilasining yagona urug'i.**

1998. Bobrlar, suv qunduzlarining uzunligi necha sm? **100 (ba'zan 130) sm.**

1999. Bobrlarning og'irligi qancha kg gacha? **30 kg gacha.**

2000. Bobrlarning nechta turi bor? **Ikkita turi bor.**





2001. Bobrlar necha yil yashaydi? **35 – 40 yil yashaydi.**

2002. Bobrlar nega ovlanadi? **Mo'ynasi uchun ovlanadi.**

2003. Bobrlar yiliga necha martadan qanchagacha bola tug'adi? **Bir marta, 1 dan 6 tagacha ko'zi ochiq va tanasi jun bilan qoplangan bola tug'adi.**

2004. Bobrlar, suv qunduzlari qayerda yashashga moslashgan? **Suvda yashashga moslashgan.**

2005. Bobrlarning teshiklari suvda nima bo'ladi? **Bekiladi.**

2006. Bobrlarning oyoqlari qanday? **Kalta.**

2007. Bobrlar necha barmoqli? **Besh barmoqli.**

2008. Bobrlarning barmoqlari orasida nima bo'ladi? **Parda bo'ladi.**

2009. Bodiyagalar qaysi tipning chuchuk suvlarda yashaydigan oilasi? **G'ovaktanlilar tipining chuchuk suvlarda yashaydigan oilasi.**

2010. Bodiyagalarning qaerlarda bir necha turi uchraydi? **Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi daryo va ko'llarda bir necha turi uchraydi.**

2011. Bodiyagalar, asosan, qaerlarda tarqalgan? **Yevrosiyoning daryo va ko'llarida tarqalgan.**

2012. Bodiyagalarning kattaligi necha m gacha? **1 m gacha.**

2013. Bodiyagalarning nechta avlodi bor? **16 ta avlodi bor.**

2014. Bodiyagalarning nechta turi bor? **94 ta turi bor.**

2015. Bodiyagalar qanday shaklda bo'ladi? **Po'stloqsimon, daraxtsimon shoxlangan yoki boshqa shaklda bo'ladi.**

2016. Bodiyagalar qayerda yashaydi? **Suv ostidagi narsalarga yopishib yashaydi.**

2017. Bodiyagalar rangi qanday? **Sarg'ish-qo'ng'ir, jigarrang, yashil yoki qizg'ish.**

2018. Bodiyagalar skeleti kremniydan tuzilgan bir o'qli nima shaklida? **Nina shaklida.**

2019. Bodiyagalar qanday yo'llar bilan ko'payadi? **Bo'linish, tashqi yoki kurtaklanish va jinsiy yo'llar bilan ko'payadi.**

2020. Bodiyagalar qaysi faslda ko'pincha mustahkam inni qavat qobiq bilan o'rigan ichki kurtaklar-gemmulalar hosil qiladi? **Kuz faslida ko'pincha mustahkam inni qavat qobiq bilan o'rigan ichki kurtaklar-gemmulalar hosil qiladi.**

2021. Bodiyagalarning qurtilganidan xalq tabobatida qaysi kasalliklarni davolashda foydalaniladi? **Bod va asab kasalliklarini davolashda foydalaniladi.**

2022. Bodiyagalarning qurtilganidan kosmetikada nima uchun ishlatiladi? **Sun'iy qizillik yugurtirish uchun ishlatiladi.**

2023. Bodiyagalar ba'zan qayerlarga kirib qolib, suv yo'lini to'sib qo'yadi? **Quvurlarga kirib qolib, suv yo'lini to'sib qo'yadi.**

2024. Bozax – dag'al junli qo'y zoti bo'lib, qaysi Respublikalarda uchraydi? **Ozarbayjon va Armaniston Respublikalarida uchraydi.**

2025. Bozax qo'y zoti qanday junli qo'y zoti? **Dag'al junli qo'y zoti.**

2026. Bozax qo'y zoti nimalari uchun boqiladi? **Go'shti, juni, suti uchun boqiladi.**

2027. Bozax qo'y zoti qaysi Respublikalarda yaratilgan? **Ozarbayjon va Armaniston Respublikalarida yaratilgan.**

2028. Bozax qo'y zotining rangi qanday? **Har xil.**

2029. Bozax qo'y zoti qo'chqorlarining o'rtacha og'irligi qancha kg? **65 kg.**

2030. Bozax qo'y zoti sovliqlarining o'rtacha og'irligi qancha kg? **48 kg.**

2031. Bozax qo'y zotining qo'chqorlari qancha kg jun beradi? **2,3 – 2,5 kg jun beradi.**

2032. Bozax qo'y zotining sovliqlari qancha kg jun beradi? **2,2 kg jun beradi.**

2033. Boygalar ilonlarning bir urug'i bo'lib, qaysi oilaga mansub? **Suvilonsimonlar oilasiga mansub.**

2034. Boygalarning tanasi uzunligi necha m cha? **2 m cha.**

2035. Boygalar qayerlarda tarqalgan? **Tropik Afrika, Janubiy Osiyo, Avstraliya va Polinneziyada tarqalgan.**

2036. Boygalarning qancha turi bor? **30 ga yaqin turi bor.**

2037. Boygalarning O'zbekistonning janubida necha m keladigan qaysi boyga uchraydi? **1 m keladigan hind boygasi (B. trihonatum) uchraydi.**

2038. Boygalarning tanasi qanday? **Ingichka va chiroyli.**

2039. Boygalarning boshi qanday? **Katta, tanasidan ajralib turadi.**





2040. Boygalarning ko'zlari qanday? **Yirik.**

2041. Boygalarning ko'z qorachiqlari nima uchun tikka joylashgan? **Tungi hayvon bo'lganligidan tikka joylashgan.**

2042. Boygalarning yuqorigi jag'i orqasida qanday tishlarga o'xshaydigan, oldingi tomonida ariqchasi bor 2 – 3 ta katta tishi bo'ladi? **Zaharli tishlarga o'xshaydigan, oldingi tomonida ariqchasi bor 2 – 3 ta katta tishi bo'ladi.**

2043. Boygalar chaqish oldidan ular xuddi qanday ilonlarga o'xshash bosh va ko'kragini erdan g'oz ko'tarib, bo'ynini shishirgan holda pishqirib, sekin-asta chayqaladi va og'zini katta ochib, o'ljaga tashlanadi? **Kapcha ilonlar (kobra)ga o'xshash bosh va ko'kragini yerdan g'oz ko'tarib, bo'ynini shishirgan holda pishqirib, sekin-asta chayqaladi va og'zini katta ochib, o'ljaga tashlanadi.**

2044. Boygalar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Kaltakesak, mayda kemiruvchilar va qushlar bilan ovqatlanadi.**

2045. Boygalarning aksariyati qayerlarda yashaydi? **Daraxt va butaning shoxlarida yashaydi.**

2046. Boygalarning chaqishi odam uchun qanday? **Zararsiz.**

2047. Boyo'g'lilar, boyqushlar qaysi oilaga mansub tungi yirtqich qushlar urug'i? **Yapaloqqushlar oilasiga mansub tungi yirtqich qushlar urug'i.**

2048. Boyo'g'lilar qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Osiyo, Amerika va Afrikada tarqalgan.**

2049. Boyo'g'lilarning nechtacha turi bor? **20 tacha turi bor.**

2050. Boyo'g'lilarning O'zbekistonda nechta turi uchraydi? **Bir turi uchraydi.**

2051. Boyo'g'lilarning O'zbekistonda uchraydiganining nomi nima? **Uy boyo'g'lisi (A. noctua).**

2052. Boyo'g'lilarning qaysi a'zolari o'tkirligidan salgina yorug'ni ham sezadi? **Ko'zlari o'tkirligidan salgina yorug'ni ham sezadi.**

2053. Boyo'g'lilarni qayerlarda uchratish mumkin? **Dasht va cho'llarda, xaroba va qabristonlarda uchratish mumkin.**

2054. Boyo'g'lilarning nari bilan modasi faqat qaysi davrda birga yashaydi? **Urchish davrida birga yashaydi.**

2055. Boyo'g'lilar qaysi faslda, qachon sayraydi? **Bahorda (urchiydigan vaqtda) kechalari, ba'zan kunduzi ham sayraydi.**

2056. Boyo'g'lilar ovozi qanday bolaning tovushini eslatadi? **Yig'lagan bolaning tovushini eslatadi.**

2057. Boyo'g'lilar nechta tuxum qo'yadi? **4 – 9 ta tuxum qo'yadi.**

2058. Boyo'g'lilarning oyoqlari kuchlimi yoki zaif? **Kuchli.**

2059. Boyo'g'lilarning tumshug'i to'g'rimi yoki qayrilgan? **Qayrilgan.**

2060. Boyo'g'lilarning pati qattiqmi yoki mayin? **Mayin.**

2061. Boyo'g'lilar tovushsizmi yoki tovush chiqarib uchib kelib, o'ljasini tutib oladi? **Tovushsiz uchib kelib, o'ljasini tutib oladi.**

2062. Boyo'g'lilar nima uchun qorong'ida ko'zga chalinmaydi? **Chunki xira kul rang pati qorong'ida ko'zga chalinmaydi.**

2063. Boyo'g'lilarning bu turi qayerlarda ham tarqalgan? **Yevropa, Shimoliy Afrika, Osiyo va Koreyada ham tarqalgan.**

2064. Boyo'g'lilar O'rta Osiyoning qaerlaridan boshqa hamma erida uchraydi? **Baland tog'laridan boshqa hamma yerida uchraydi.**

2065. Boyo'g'lilar uyasini qayerlarga quradi? **Turli kovaklarga quradi.**

2066. Boyo'g'lilarning tuxumidan necha oyda bola chiqadi? **Bir oyda bola chiqadi.**

2067. Boyo'g'lilar qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Mayda kemiruvchilar, kaltakesaklar, hasharotlar va kichik qushlar bilan ovqatlanadi.**

2068. Boyo'g'lilar xo'jalikka qanday foyda keltiradi? **Zararkunanda kemiruvchilarni yeb foyda keltiradi.**

2069. Boyo'g'li nima yordamida o'z o'ljasining o'rnini necha m masofadan 1° aniqlikkacha biladi (passiv lokatsiya)? **Shitirlagan ovoz yordamida o'z o'ljasining o'rnini 15 – 20 m masofadan 1° aniqlikkacha biladi (passiv lokatsiya).**

2070. Boyqushning qaysi a'zosi rivojlangan? **Eshitish a'zosi rivojlangan.**

2071. Boltatumshuq qush qishlash uchun qayerlarga uchib ketadi? **Janubga-Qora dengiz atrofi va Sharqiy Xitoyga uchib ketadi.**





2072. Boltatumshuq qush qaysi davlatlarda o'troq yashaydi? **Afg'oniston, Pokiston va shimoli-g'arbiy Hindistonda o'troq yashaydi.**

2073. Boltatumshuq qush qayerlarda yashaydi? **O'rmonlar va bog'larda yashaydi.**

2074. Boltatumshuq qush chumchuqsimonlar turkumining qaysi oilasiga mansub sayroqi qush? **Targ'ilboshlar oilasiga mansub sayroqi qush.**

2075. Boltatumshuq qush qaysi qit'alarda tarqalgan? **Yevropa va Osiyoning o'rta mintaqalarida tarqalgan.**

2076. Boltatumshuq sayroqi qush O'zbekistonning qaysi tog'larida uchraydi? **Hisor – Olay tog'larida uchraydi.**

2077. Boltatumshuq qush nechta tuxum qo'yadi? **4 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

2078. Boltatumshuq sayroqi qushning bolasi necha kunda uchirma bo'ladi? **11 – 14 kunda uchirma bo'ladi.**

2079. Boltatumshuq qushning bolası necha kunda tuxumdan chiqadi? **14 kunda tuxumdan chiqadi.**

2080. Boltatumshuq qush tuxumini urg'ochisi bosadimi yoki erkagi? **Urg'ochisi bosadi.**

2081. Boltayutar qushning uzunligi necha m gacha, qanoti yoyilganda necha m ga boradi? **1,1 m gacha, 2,7 m ga boradi.**

2082. Boltayutar qush qayerlarda tarqalgan? **Markaziy Osiyo, Arabiston, Janubiy Yevropa va Afg'onistonning shimoli-sharqida tarqalgan.**

2083. Boltayutar qaysi oilaga mansub qush? **Yirtqich qushlar turkumining qayrag'ochsimonlar oilasiga mansub.**

2084. Boltayutar O'zbekistonda uchraydigan qaysi qushlarning eng kattasi? **Yirtqich qushlarning eng kattasi.**

2085. Boltayutar qushning uzunligi necha m gacha? **1,1 m gacha.**

2086. Boltayutar qushning qanoti yoyilganda necha m gacha boradi? **2,7 m gacha boradi.**

2087. Boltayutar qushning boshi va tanasining qorin tomoni qanday rangli? **Oqish yoki sarg'ish.**

2088. Boltayutar qushning qorni orqa tomoni qanday rangli? **Qoramtir.**

2089. Boltayutar qushning qaysi a'zosi ostida qattiq qilsimon patlardan hosil bo'lgan bir tutim kokili bor? **Tumshug'i ostida qattiq qilsimon patlardan hosil bo'lgan bir tutim kokili bor.**

2090. Boltayutar qush qayerlardan tarqalgan? **Markaziy Osiyo, Arabiston, Janubiy Yevropa va Afrikaning shimoli-sharqida tarqalgan.**

2091. Boltayutar qush O'zbekistonning qayerlarida yashaydi? **Tog'ning qoyali joylarida yashaydi.**

2092. Boltayutar qush qayerlarda uchraydi? **Nurotadek past tog'larda ham, Pomir va Tyanshan kabi baland tog'larda ham uchraydi.**

2093. Boltayutar qush uyasini qayerga quradi? **Qoyalar orasiga quradi.**

2094. Boltayutar qushning erkagimi yoki urg'ochisi tuxumini bosadi? **Erkagi bilan urg'ochisi galma-gal, lekin urg'ochisi ko'proq bosadi.**

2095. Boltayutar qush necha kunda bola ochadi? **55 – 60 kunda bola ochadi.**

2096. Boltayutar qushning bolasi necha oyda uchirma bo'ladi? **4 oyda uchirma bo'ladi.**

2097. Boltayutar qush odamga va yirik sut emizuvchilarga nima qilmaydi? **Hujum qilmaydi.**

2098. Boltayutar qush nimalar bilan ovqatlanadi? **O'limtiklar va suyaklar bilan ovqatlanadi.**

2099. Boltayutar qushning qaysi a'zosi katta va keng bo'lib, o'limtiklar axtarib uzoqlarga uchishga moslashgan? **Qanoti katta va keng bo'lib, o'limtiklar axtarib uzoqlarga uchishga moslashgan.**

2100. Boltayutar qush ba'zan qanday hayvonlarga hujum qiladi? **Kaklik, quyon, sug'urlarga hujum qiladi.**

2101. Boltayutar qush qayerda toshbaqalar bilan ovqatlanishi aniqlangan? **Kopetdog' etagida toshbaqalar bilan ovqatlanishi aniqlangan.**

2102. Boltayutar qush toshbaqaning qaysi a'zosini kuchli tumshug'i bilan sindira oladi? **Kosasini kuchli tumshug'i bilan sindira oladi.**

2103. Boltayutar qush nimalarni ham hazm qiladi? **Suyaklarni ham hazm qiladi.**





2104. Boltayutar qushning tirnoqlari qanday? **To'mtoq.**

2105. Boltayutar qush nima sababdan tirik hayvonlarni tutib o'ldira olmaydi? **Chunki barmoqlari kaltaligidan tirik hayvonlarni tutib o'ldira olmaydi.**

2106. Boltayutar qush o'ljasini qaysi a'zolari bilan changallab ucha oladi? **Panjalari bilan changallab ucha oladi.**

2107. Bolg'abaliq qaysi turkumga mansub baliq? **Akulasimonlar turkumiga mansub baliq.**

2108. Bolg'abaliqning tanasi uzunligi necha m cha? **3,5 m cha.**

2109. Bolg'abaliqning og'irligi qancha kg gacha bo'ladi? **150 kg gacha (ba'zida 400 kg gacha bo'lishi mumkin) bo'ladi.**

2110. Bolg'abaliqning ko'zlari boshidagi qaysi a'zolarida bo'ladi? **Boshidagi o'simtalarida bo'ladi. Shuning uchun u uzoq joyni ko'radi.**

2111. Bolg'abaliq nimalar bilan ovqatlanadi? **Kambala, skat, har xil umurtqasiz jonivorlar bilan ovqatlanadi.**

2112. Bolg'abaliq boshining ikki yonidagi o'simtasi nimaga o'xshaydi? **Bolg'aga o'xshaydi (nomi ham shundan olingan).**

2113. Bolg'abaliq dengizning qayerida yashaydi? **Dengizning tubida yashaydi.**

2114. Bolg'abaliq qaysi okeanlarning tropik hamda subtropik mintaqalarida tarqalgan? **Atlantika va Tinch okeanlarining tropik hamda subtropik mintaqalarida tarqalgan.**

2115. Bolg'abaliqning urg'ochisi nechtagacha tirik baliqchalar tug'adi? **40 tagacha tirik baliqchalar tug'adi.**

2116. Bolg'abosh, soyaqush qaysi qushlar turkumining bir turi hisoblanadi? **Uzunoyoq qushlar turkumining bir turi hisoblanadi.**

2117. Bolg'abosh deyilishiga sabab nima? **Bolg'abosh, kunduzi quyoshdan qochib, o'simliklar ostida yuradi, shuning uchun "soyaqush" deb ham ataladi.**

2118. Bolg'abosh qush qachon ovqat izlab chiqadi? **Qorong'i tushganda ovqat izlab chiqadi.**

2119. Bolg'abosh qushning qaysi biri (erkagimi yoki urg'ochisimi) tuxumini bosadi? **Erkagi bilan urg'ochisi galma-gal tuxumini bosadi.**

2120. Bolg'abosh qushning tuxumi necha kunda bola ochadi? **21 kunda bola ochadi.**

2121. Bolg'abosh, soyaqush qaerlarda tarqalgan? **Afrika, Madagaskar va Janubiy Arabistonda tarqalgan.**

2122. Bolg'abosh, soyaqush qaerlarda yashaydi? **Suvga yaqin qalin o'rmonlarda yashaydi.**

2123. Bolg'abosh, soyaqush nechta tuxum qo'yadi? **3 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

2124. Bolg'abosh, soyaqush qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baliq, baqa, chuvalchang va hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

2125. Bonelliya halqali chuvalchanglarning qaysi sinfiga mansub? **Exiruid sinfiga mansub.**

2126. Bonelliyaning qaysi turi O'rta dengiz, Atlantika okeani va Barens dengizida yashaydi? **V. viridis turi O'rta dengiz, Atlantika okeani va Barens dengizida yashaydi.**

2127. Bonelliya urg'ochisining tanasi qanday shaklda? **Silindrsimon shaklda.**

2128. Bonelliya urg'ochisining uzunligi necha sm gacha? **7 sm gacha.**

2129. Bonelliyaning xartumi necha m gacha cho'ziladi? **1 m gacha cho'ziladi.**

2130. Bonelliya qaysi a'zosi yordamida ovqat tutadi va harakatlanadi? **Xartumi yordamida ovqat tutadi va harakatlanadi.**

2131. Bonelliya erkagining uzunligi necha mm? **1 – 33 mm.**

2132. Bonelliya erkagi urg'ochisining qaysi a'zosi yo'llarida parazitlik qiladi? **Jinsiy yo'llarida parazitlik qiladi.**

2133. Borzaya, borzi itlarning qanday zoti sanaladi? **Ovchi (iskovich) itlarning bir zoti sanaladi.**

2134. Botqaldoqlar, sho'ng'uvchi o'rdaklar qaysi oilaga mansub? **G'ozsimonlar turkumining o'rdaklar kenja oilasiga mansub.**

2135. Botqaldoqlar nimalari bo'lishi bilan boshqa o'rdaklardan farq qiladi? **Orqa barmoqlari orasida keng teri pardalari bo'lishi bilan boshqa o'rdaklardan farq qiladi.**

2136. Botqaldoqlar qanday uchadi, suzadi va sho'ng'iydi? **Yaxshi uchadi, suzadi va sho'ng'iydi.**

2137. Botqaldoqlar qayerdan o'lja tutadi? **Suv tagidan o'lja tutadi.**





2138. Botqaldoqlar uyasini qayerga quradi? **Yirik va chuqur ko'llar sohilidagi qamish va qoyalar orasiga qo'radi.**

2139. Botqaldoqlar nechta tuxum qo'yadi? **7 – 12 ta tuxum qo'yadi.**

2140. Botqaldoqlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Suv o'simliklarining ildizi, barg va urug'lari, mollyuska, qisqichbaqasimonlar va suv hasharotlari bilan ovqatlanadi.**

2141. Botqaldoqlarning nimalaridan foydalaniladi? **Go'shti, pati va terisidan foydalaniladi.**

2142. Botqaldoqlar, sho'ng'uvchi o'rdaklarning O'zbekistonda qaysi turlari uchraydi? **Ko'kbel botqoldoqlar. (Aytya rerina), olaqanot botqoldoqlar (Aythya nyroca), haydarkokil botqoldoqlar (Aythya tuli gula) kabi turlari uchraydi.**

2143. Botqoq balchiqlar qaysi oilaga mansub qush? **Balchiqchilar turkumining bir urug'i, chuldoqlar oilasiga mansub qush.**

2144. Botqoq balchiqchilarning nechta turi bor? **4 ta turi bor.**

2145. Botqoq balchiqchilarning O'zbekistonda nechta turi bor? Ular qaysilar? **2 ta turi bor. Ular: kenja botqoqlik balchiqchisi va kichik botqoqlik balchiqchisi.**

2146. Botqoq balchiqchilarning oyoqlari qanday? **Uzun.**

2147. Botqoq balchiqchilarning tumshug'i qanday? **To'g'ri va juda uzun.**

2148. Botqoq balchiqchilarning erkagi kattaroqmi yoki urg'ochisi? **Urg'ochisi kattaroq.**

2149. Botqoq balchiqchilarning bo'yi necha sm gacha? **45 sm gacha.**

2150. Botqoq balchiqchilarning og'irligi qancha g cha? **350 g cha.**

2151. Botqoq balchiqchilar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda mollyuskalar, suvda va suvga yaqin erda yashaydigan hasharotlar, ularning qurtlari bilan ovqatlanadi.**

2152. Botqoq moshagi qaysi oilaga mansub? **Balchiqchilar turkumining chuldoqlar oilasiga mansub.**

2153. Botqoq moshagining bo'yi necha sm? **9,5 – 11 sm.**

2154. Botqoq moshagining og'irligi qancha g cha? **50 g cha.**

2155. Botqoq moshagi boshining ustida to'q qo'ng'ir va nechta qanday rangli yo'li bor? **Ikkita oq rangli yo'li bor.**

2156. Botqoq moshagining tanasi orqasidagi patlari rangi qanday? **Qoramtir, chetlari to'q malla.**

2157. Botqoq moshagining ko'krak va qorin tomoni rangi qanday? **Oq.**

2158. Botqoq moshagi qayerda yashaydi? **Tundra va o'rmon-tundrada yashaydi.**

2159. Botqoq moshagi qayerlarda uya solib, bola ochadi? **Norvegiya, Shvetsiya, Finlandiya va Osiyoning shimoliy qismida uya solib, bola ochadi.**

2160. Botqoq moshagi qishlash uchun qayerlarga uchib ketadi? **O'rta dengiz, Janubiy Osiyo va Avstraliyaga uchib ketadi.**

2161. Botqoq moshagini O'zbekistonda qaysi fasllarda, qayerlarda uchratish mumkin? **Bahor va kuzda ko'l, daryo qirg'oqlarida, suvga yaqin va botqoq yerlarda uchratish mumkin.**

2162. Botqoq moshagi nimalar bilan ovqatlanadi? **Mayda mollyuskalar, suvda va suv yaqinida yashaydigan hasharotlar va ularning qurtlari bilan ovqatlanadi.**

2163. Botqoq balchiqlari qushining nechta turi bor? **4 ta turi bor.**

2164. Boshko'krak qaysi jonivorlarning boshi va ko'kragi qo'shilishidan hosil bo'lgan tana bo'limi? **Bo'g'imoyoqlilarning boshi va ko'kragi qo'shilishidan hosil bo'lgan tana bo'limi.**

2165. Boshko'krak qaysi jonivorlarning turlari uchun xos? **Qisqichbaqasimonlar, qilichdumlilar, qirilib bitgan evripteridlar va ko'pchilik o'rgimchaksimonlar uchun xos.**

2166. Boshoqlilar, g'o'za zararkunandalarining qancha turi bor? **200 dan ortiq turi bor.**

2167. Boshoyoqli mollyuskalar yuksak tuzilgan dengiz mollyuskalari nimasi? **Sinfi.**

2168. Boshoyoqli mollyuskalarning tanasi necha sm dan necha m gacha? **1 sm dan 5 m gacha.**

2169. Boshoyoqli mollyuskalar nechta kenja sinfga bo'linadi? Ular qaysilar? **2 ta kenja sinfga bo'linadi. Ular: To'rt jabralilar, ikki jabralilar.**

2170. Boshoyoqli mollyuskalarning tanasi nima bilan qoplangan? **Qalin mantiya bilan qoplangan.**





2171. Boshoyoqli mollyuskalarning aksariyat turlarida qanday a'zolar bo'ladi? **Nur tarqatuvchi a'zolar bo'ladi.**

2172. Boshoyoqli mollyuskalar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

2173. Boshoyoqli mollyuskalarning necha juft so'lak bezi bor? **Ikki juft so'lak bezi bor.**

2174. Boshoyoqli mollyuskalar boshining ikki yonida yirik va yaxshi rivojlangan qaysi a'zolari joylashgan? **Ko'zlari joylashgan.**

2175. Boshoyoqli mollyuskalarda qaysi a'zolarni shikastlanishdan himoya qiladigan ichki tog'ayli skelet bor? **Miya va ko'zni shikastlanishdan himoya qiladigan ichki tog'ayli skelet bor.**

2176. Boshoyoqli mollyuskalarning og'iz teshigi atrofida nechta paypaslagich (oyoqlari) bo'ladi? **8 ta yoki 10 ta paypaslagich (oyoqlari) bo'ladi.**

2177. Boshoyoqli mollyuskalarning orqa ichagiga qanday yo'l ochiladi? **Siyoh xaltasi yo'li ochiladi.**

2178. Boshoyoqli mollyuskalar qanday xususiyatga ega? **Rangini tez o'zgartirish xususiyatiga ega.**

2179. Boshoyoqli mollyuskalarning qon aylanish sistemasi deyarli qanday? **Yopiq.**

2180. Boshoyoqli mollyuskalarning oyog'i nimaga aylangan? **Oyog'i voronkaga aylangan.**

2181. Boshskeletsizlar, boshqutsizlar qaysi jonivorlarning kenja sinfi? **Xordalilarning kenja sinfi.**

2182. Boshskeletsizlarning boshi qanday? **Ixtisoslashgan, bosh qutisi bo'lmaydi (nomi ham shundan).**

2183. Boshskeletsizlarning qaysi a'zolari segmentlashgan? **Tanasi va ayrim ichki a'zolari, jumladan, ayirish sistemasi va jinsiy bezlari hamda muskullari segmentlashgan.**

2184. Boshskeletsizlarning sezgi a'zolari qanday tuzilgan? **Oddiy tuzilgan.**

2185. Boshskeletsizlarning sezgi a'zolari faqat qayerlarida va nima bo'ylab sezgir hujayralar joylashgan? **Faqat terisida va asab (nerv) nayi bo'ylab sezgir hujayralar joylashgan.**

2186. Boshskeletsizlarda qaysi a'zo bo'lmaydi? **Yuragi bo'lmaydi.**

2187. Boshskeletsizlarda yurak funksiyasini nima bajaradi? **Qisqarib turuvchi aortasi bajaradi.**

2188. Boshskeletsizlarning nechta urug'i ma'lum? Ular qaysilar? **2 ta urug'i ma'lum. Ular: lansetniklar, asimmetron.**

2189. Boshskeletsizlar qaysi okeanlar dengizlarida keng tarqalgan? **Atlantika va Tinch okeanlari dengizlarida keng tarqalgan.**

2190. Boshqird ot zoti qachon qayerda yetishtirilgan (yaratilgan) zot? **Qadimda o'rmon va dasht otlari negizida Boshqirdistonda yetishtirilgan (yaratilgan) zot.**

2191. Boshqird ot zoti, asosan, nimalari uchun boqiladi? **Suti, go'shti uchun boqiladi.**

2192. Boshqird ot zoti qancha t gacha yuk torta oladi? **3 t gacha yuk torta oladi.**

2193. Boshqird ot zotining tirik og'irligi qancha kg? **420 – 460 kg.**

2194. Boshqird ot zotining biyalari sog'lom davrida qancha l sut beradi? **1720 – 2060 l (sersut biyalari 3000 l gacha) sut beradi.**

2195. Boshqird ot zotining biyalari sutidan sifatli nima tayyorlanadi? **Qimiz tayyorlanadi.**

2196. Bog'dod ipak qurti qayerdan keltirilgan? **Bog'dod shahridan keltirilgan.**

2197. Bog'dod ipak qurti qaysi zotga mansub ipak qurti? **Monovaltik zotiga mansub.**

2198. Bog'dod ipak qurtining pillasi qancha g? **2 – 3 g.**

2199. Bog'dod ipak qurti pillasidan necha foiz ipak chiqadi? **14 – 17 foiz** ipak chiqadi.

2200. Bog'dod ipagining cho'zilish kattaligi necha foiz? **60 – 80 foiz.**

2201. Breytovo cho'chqa zoti – nimalar beradigan zot? **Go'sht va yog' (solo) beradigan zot.**

2202. Breytovo cho'chqa zoti qayerda qaysi zotlar bilan chatishtirib yetishtirilgan? **Rossiyaning Yaroslavl viloyati Breytovo tumani xo'jaliklarida mahalliy kech yetiladigan cho'chqalarni yirik va o'rtacha oq, litva oq va daniya landras cho'chqa zotlari bilan chatishtirib yetishtirilgan.**

2203. Breytovo cho'chqa zoti nechanchi yilda zot sifatida tasdiqlangan? **1948-yilda zot sifatida tasdiqlangan.**





2204. Breytovo cho'chqa zoti voyaga etgan erkagining tirik og'irligi qancha kg? **300 – 320 kg.**

2205. Breytovo cho'chqa zoti urg'ochilarining tirik og'irligi qancha kg? **230 – 250 kg.**

2206. Breytovo cho'chqa zoti har gal nechta bola tug'adi? **10 – 11 ta bola tug'adi.**

2207. Breytovo cho'chqa zoti bolasining tirik og'irligi 6,5 – 7 oylikda qancha kg gacha boradi? **900 – 100 kg gacha boradi.**

2208. Brizgun, purkagich qaysi turkumga mansub baliq? **Okunsimonlar turkumiga mansub baliq.**

2209. Brizgun baliq necha m gacha suv purkay oladi? **1,5 m gacha suv purkay oladi.**

2210. Brobant ot zoti nechanchi asrda qayerda yetishtirilgan? **XIX asrda Belgiyaning Brabant viloyatida (nomi shundan) yetishtirilgan.**

2211. Brobant ot zoti erkagining tirik og'irligi o'rtacha qancha kg, ba'zan qancha kg? **800 – 1000 kg, ba'zan 1200 kg.**

2212. Brobant ot zoti biyalarining tirik og'irligi qancha kg ga boradi? **700 kg ga boradi.**

2213. Brobant ot zoti qaysi davlatlarda ham boqiladi? **Germaniya, Gollandiya, Daniya, Slovakiya, Vengriya davlatlarida ham boqiladi.**

2214. Broyler tez yetiladigan go'shtdor jo'ja bo'lib, 6 – 9 hafta boqilganda tirik og'irligi qancha kg bo'ladi? **1,5 – 2 kg bo'ladi.**

2215. Broyler qaysi a'zosi suyagining uchi elastik? **Ko'krak suyagining uchi elastik.**

2216. Broyler go'shtidan qanday taomlar tayyorlanadi? **Parhez taomlar tayyorlanadi.**

2217. Broyler jo'jasi necha kun boqiladi? **60 – 70 kun boqiladi.**

2218. Broyler go'shti qanday? **Yumshoq va mazali.**

2219. Broyler olish uchun jo'ja qisqa muddatda nima qilinadi? **Yetarli darajada semirtiriladi.**

2220. Broyler olish uchun og'ir va tez etiladigan qaysi sergo'sht va sertuxum zotli tovuq jo'jalaridan, zotlararo va liniyalararo chatishtirishdan olingan duragay jo'jalardan foydalaniladi? **"Kornish", "oq plimutrok", "susseks", "nyu-gempshir" kabi sergo'sht-sertuxum zotli tovuq jo'jalaridan, zotlararo va liniyalararo chatishtirishdan olingan duragay jo'jalardan foydalaniladi.**

2221. Budyonniy ot zoti qanday miniladigan ot zotlaridan biri? **Salt miniladigan ot zotlaridan biri.**

2222. Brokonidlar qaysi turkumga mansub foydali hasharotlar oilasi? **Pardaqanotlilar turkumiga mansub foydali hasharotlar oilasi.**

2223. Brokonidlarning tanasi uzunligi necha mm? **5 – 15 mm.**

2224. Brokonidlar bir yilda necha marta nasl beradi? **5 – 6 marta nasl beradi.**

2225. Brokonidlar qanday qanotlilar turkumi vakillarida parazitlik bilan hayot kechiradi? **Qattiq qanotlilar, tangaqanotlilar, tengqanotlilar turkumi vakillarida parazitlik bilan hayot kechiradi.**

2226. Brokonidlarning ko'pgina turlari qaysi jonivorlarning ichki paraziti? **Qandalalar, qo'ng'izlar, kapalaklar, arrakashlar, chumolilar va pashshalarning ichki paraziti.**

2227. Bronza qo'ng'izlari, tilla qo'ng'izlar – plastinka mo'ylovli qo'ng'izlar oilasining qaysi oilasi? **Kenja oilasi.**

2228. Bronza qo'ng'izlarining uzunligi necha sm? **1 – 10 sm.**

2229. Bronza qo'ng'izlarining ustki qanotlarining ikki yonida nimalari bo'ladi? **Tirqishlari bo'ladi.**

2230. Bronza qo'ng'izlarining qancha turi bor? **2700 dan ziyod turi bor.**

2231. Bronza qo'ng'izlari qayerlarda ko'p uchraydi? **Tropik Afrikada va Janubiy Osiyoda ko'p uchraydi.**

2232. Bronza qo'ng'izlarining O'zbekistonda nechta turi tarqalgan? **12 ta turi tarqalgan.**

2233. Bronza qo'ng'izlari, tilla qo'ng'izlar deyilishiga sabab nima? **Sababi shuki, ustki qanotlari metall tusda tovlanib turganidan tilla qo'ng'izlar deyiladi.**

2234. Bronza qo'ng'izlarining S-simon qurtlari qayerlarda rivojlanadi? **Chiriyotgan yog'ochlar, kompostlar, o'rmon to'shalmasida, ayrim turlari chumolilar va kemiruvchilar inida rivojlanadi.**

2235. Bronza qo'ng'izlarning qaysi turi ekinlarga ziyon keltiradi? **Olenka turi ekinlarga ziyon keltiradi.**

2236. Budyonniy otining yerdan yag'rinigacha necha sm? **157 – 161 sm.**





2237. Budyonniy otining tusi qanday rang, ko'pincha qanday tovlanadi? **Jigar rang, qo'ng'ir, ko'pincha oltinsimon tovlanadi.**

2238. Budyonniy ot zoti qaysi jihatlari bilan boshqa ot zotlaridan farq qiladi? **Chaqqonligi bilan boshqa ot zotlaridan farq qiladi.**

2239. Budyonniy ot zotidan qaysi ot zotlarini yaxshilashda foydalaniladi? **Jaydari ot zotlarini yaxshilashda foydalaniladi.**

2240. Buzovga baliq'i (Pandaka pygmaea) qaysi orollarda tarqalgan? **Filippin orollarida tarqalgan.**

2241. Buzoqboshilar qanday iqlimli mamlakatlarda ko'p tarqalgan? **Issiq mamlakatlarda** ko'p tarqalgan.

2242. Buzoqboshilarning O'zbekistonda nechta turi uchraydi? **Uch turi uchraydi.**

2243. Buzoqboshilar qaysi oilaga mansub hasharot? **To'g'riqanotlilar turkumining qora chigirtkasimonlar oilasiga mansub hasharot.**

2244. Buzoqboshilarning tuzilishi qayerda yashashga moslashgan? **Tuproqda yashashga moslashgan.**

2245. Buzoqboshilarning tanasi uzunligi necha sm? **3 – 6 sm.**

2246. Buzoqboshilarning urg'ochisi necha sm chuqurlikda qazilgan uyaga nechta tuxum qo'yadi? **15 – 20 sm chuqurlikda qazilgan keng uyaga 200 – 500 ta tuxum qo'yadi.**

2247. Buzoqboshilarning oldingimi yoki orqangi oyoqlari qazuvchan? **Oldingi oyoqlari qazuvchan.**

2248. Buzoqboshilarning ostkimi yoki ustki qanoti uzun pardali? **Ostki qanoti uzun pardali.**

2249. Buzoqboshilarning ostkimi yoki ustki qanoti qisqa? **Ustki qanoti qisqa.**

2250. Buzoqboshi qo'ng'izlar, may qo'ng'izlari qaysi oilaga mansub kenja oilaga kiradi? **Qo'ng'izlar turkumining plastinka mo'ylovlilar oilasiga mansub kenja oilaga kiradi.**

2251. Buzoqboshi qo'ng'izlarning kattaligi necha mm? **15 – 35 mm.**

2252. Buzoqboshi qo'ng'izlar lichinkalari (buzoqboshi)ning kattaligi necha mm? **30 – 70 mm.**

2253. Buzoqboshi qo'ng'izlar necha kun yashaydi? **20 – 40 kun yashaydi.**

2254. Buzoqboshi qo'ng'izlarning tuxumidan chiqqan lichinkalari qayerda qishlab qoladi? **Tuproq ostida qishlab qoladi.**

2255. Buyvollar qaysi oilaga mansub juft tuyoqli hayvonlar? **Quvushshoxlilar oilasiga mansub juft tuyoqli hayvonlar.**

2256. Buyvollarning Osiyoda nechta urug'i uchraydi? **Hindiston yoki Osiyo buyvoli va Filippin buyvoli degan ikkita urug'i uchraydi.**

2257. Buyvollarning yovvoyi holda yashaydigan bir necha turi bo'lib, ular qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Osiyo bilan Janubiy Afrikada tarqalgan.**

2258. Buyvollar qayerlarda tarqalgan? **Osiyo (Hindiston, Myanma, Xitoyning janubida, Hindixitoy yarim oroli, Kalimantan) va Fillipinning Mindanao orolida (mindanao kenja turi) tarqalgan.**

2259. Buyvollarning tanasi uzunligi necha sm? **100 – 129 sm.**

2260. Buyvollar dumi uzunligi necha sm? **15 – 90 sm.**

2261. Buyvollarning bo'yi necha sm? **62 – 180 sm.**

2262. Buyvollarning og'irligi qancha kg? **150 – 1200 kg.**

2263. Buyvollarning nechta turi bor? Ular qaysilar? **Uchta turi bor. Ular: anoa, Osiyo buyvoli, Afrika buyvoli (ba'zan 3 ta har xil uruqqa kiritiladi).**

2264. Buyvollar shoxining ko'ndalang kesimi necha qirrali? **Uch qirrali.**

2265. Buyvollarning buqalari urug'i boshqa turlari bilan qo'shilishib nasl beradimi? **Yo'q.**

2266. Buyvolning homiladorlik davri o'rtacha necha sutka? **307 sutka.**

2267. Buyvollar nechta bola tug'adi? **Bitta bola tug'adi, ba'zan 2 ta.**

2268. Buyvollar qayerlarda yashaydi? **Tog' va tepaliklardagi o'rmonlar, suv yoqalaridagi maysazorlar, hatto, ochiq yerlarda yashaydi.**

2269. Buyvollarning gavdasi qanday? **Yo'g'on va vazmin.**

2270. Buyvollarning qaysi a'zolari qisqa va kuchli? **Bo'yni, oyoqlari qisqa va kuchli.**

2271. Buyvollar erkagining bo'yin osti terisi qanday turadi? **Osilib turadi.**





2272. Buyvollarning juni qanday? **Qisqa, siyrak.**

2273. Buyvollarning dumi uchida nimasi bor? **Shokilasi bor.**

2274. Buyvollar qanday bo'lib yashaydigan poligam hayvon? **Poda bo'lib yashaydigan poligam hayvon.**

2275. Buyvollarning xonakilashtirilgani qayerda ko'p? **Zakavkazyeda ko'p.**

2276. Buyvollarning qaysi a'zosi yuqori sifatli? **Terisi yuqori sifatli.**

2277. Buyvollarning suti qanday? **Sermoy, oqsili ko'p, shirin.**

2278. Buyvollarning go'shti qanday bo'ladi? **Qattiq va badbo'y bo'ladi.**

2279. Buyvollar qayerlarda suti uchun, ba'zan ishchi hayvon sifatida boqiladi? **Janubiy Osiyo, Afrika, Janubiy Yevropa va Kavkazda suti uchun, ba'zan ishchi hayvon sifatida boqiladi.**

2280. Buyvollarning qaysi turlari Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgan? **Filippin va Osiyo buyvoli turlari Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgan.**

2281. Bukri baliq, gorbusha qaysi oilaga mansub? **Seldsimonlar turkumining lososimonlar oilasiga mansub.**

2282. Bukri baliq, asosan, qayerda tarqalgan? **Asosan, Tinch okeanining Uzoq Sharq dengizlari va qisman Shimoliy Muz okeanida tarqalgan.**

2283. Bukri baliq umrida necha marta uvildiriq (ikra) tashlaydi? **Bir marta uvildiriq (ikra) tashlaydi.**

2284. Bukri baliqning har biri suv tagiga nechtagacha tuxum tashlab, o'zi nima bo'ladi? **2000 tagacha tuxum tashlab, o'zi nobud bo'ladi.**

2285. Bukri baliqning tanasi uzunligi necha sm? **60 – 70 sm, ko'pincha 45 – 50 sm.**

2286. Bukri baliqning og'irligi qancha kg gacha? **1,7 kg gacha.**

2287. Bukri baliqlarning jag'lari qayrilib, qaysi a'zolari o'sib chiqadi va qaysi a'zolari bukri bo'lib qoladi? **Katta tishlari o'sib chiqadi va elkasi bukri bo'lib qoladi (bukri baliq degan nom ham shundan kelib chiqqan).**

2288. Bukri baliq qayerning eng qimmatbaho baliqlaridan? **Uzoq Sharqning eng qimmatbaho baliqlaridan.**

2289. Bukri baliq suv tagiga har biri nechtagacha tuxum tashlab, o'zi nobud bo'ladi? **2000 tagacha tuxum tashlab, o'zi nobud bo'ladi.**

2290. Bukri baliqning tuxumidan chiqqan chavoqlari daryo oqimi bilan qayerga tushib, voyaga yetadi? **Dengizga tushib, voyaga yetadi.**

2291. Bukri baliqlar qaysi paytda dengizdan daryolarga, xususan, Yapon dengiziga quyiladigan daryolarga va ko'proq Amurga katta gala bo'lib, daryoning yuqori oqimigacha boradi? **Urchish paytida dengizdan daryolarga, xususan, Yapon dengiziga quyiladigan daryolarga va ko'proq Amurga katta gala bo'lib, daryoning yuqori oqimigacha boradi.**

2292. Bukri pashshalar, namchil pashshalar qaysi jonivorlar oilasiga mansub? **Qo'shqanotlilar oilasiga mansub.**

2293. Bukri pashshalarning tanasi uzunligi necha mm? **0,5 – 4 mm.**

2294. Bukri pashshalarning tanasi qanday? **Bukri.**

2295. Bukri pashshalarning xartumi qanday? **Uzun.**

2296. Bukri pashshalar, namchil pashshalarning qanotlari ko'pincha nimalar bilan qoplangan? **Tangachalar bilan qoplangan.**

2297. Bukri pashshalarning qurtlari qaysi joylarda rivojlanadi? **Sohil yaqinidagi balchiqda, nam joylarda rivojlanadi.**

2298. Bukri pashshalarning qancha turi ma'lum? **4000 ga yaqin turi ma'lum.**

2299. Bukri pashshalarning O'zbekistonda qaysi urug'lariga mansub nechta turi tarqalgan? **Culicaides va Leptoconeps urug'lariga mansub 60 ta turi tarqalgan.**

2300. Bukri pashshalarning urg'ochisi suv ustida o'sadigan o'simlik barglarining ostki tomoniga nechta tuxum qo'yadi? **75 – 120 ta tuxum qo'yadi.**

2301. Bukri pashshalar ko'pchilik turlarining qaysi biri (erkagimi yoki urg'ochisimi) issiqqonli hayvonlar va odam qonini, ayrim turlari hasharotlar gemolimfasini so'radi? **Urg'ochisi issiqqonli hayvonlar va odam qonini, ayrim turlari hasharotlar gemolimfasini so'radi.**

2302. Bukri pashshalar erkaklari, ayrim turlarining urg'ochisi nima bilan ovqatlanadi? **Gul nektari bilan ovqatlanadi.**





2303. Bukri pashshalarning qurtlari nimalar bilan ovqatlanadi? **Detrit, suv o'tlari, tuban zamburug'lar, o'lik hayvonlar murdalarining parchalari bilan ovqatlanadi.**

2304. Bukri pashshalar qaysi hududlarda, ayniqsa, ko'p uchraydi? **Shimoliy hududlarda, ayniqsa, ko'p uchraydi.**

2305. Bukri pashshalar qayerlar yaqinida tarqalgan bo'lib, qanday komponentlardan biri hisoblanadi? **Cho'l mintaqasida quduqlar va boshq. suv manbalari yaqinida tarqalgan bo'lib, gnus komponentlaridan biri hisoblanadi.**

2306. Bukri pashshalar qaysi vaqtlarda faol qon so'radi? **Ertalab va kechqurun faol qon so'radi.**

2307. Bukri pashshalar qaysi kasalliklarning qo'zg'atuvchilarini tarqatishi mumkin? **Onxotserkoz, gemosparidioz, filyarioz, yapon entsefaliti, tulyaremiya kabi kasalliklarining qo'zg'atuvchilarini tarqatishi mumkin.**

2308. Bulbullar – chumchuqsimonlar turkumining qaysi oilasiga mansub sayroqi qush? **Qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush.**

2309. Bulbullar bir-biridan nimasi bilan farq qilishadi? **Ular faqat qanotining tuzilishi bilan bir-biridan farq qilishadi.**

2310. Bulbullarning usti rangi qanday? **Qo'ng'ir va to'q mallarang.**

2311. Bulbullarning qorni rangi qanday? **Oqish.**

2312. Bulbullar nari bilan modasining rangi qanday? **Bir xil.**

2313. Bulbullarning nechta turi bor? **6 ta turi bor.**

2314. Bulbullarning qaysi turlari tarqalgan? **Sharq bulbuli (Z. luscinia) va g'arb bulbuli (Z. megarhynchus) turlari tarqalgan.**

2315. Bulbullarning bo'yi necha sm gacha bo'ladi? **20 sm gacha bo'ladi.**

2316. Bulbullar qishlash uchun qayerga uchib ketadi? **G'arbiy Afrikaga uchib ketadi.**

2317. Bulbullar O'zbekistonga qaysi faslda uchib kelib, qaysi faslda uchib ketadi? **Bahor (aprel – may)da uchib kelib, kuz (avgust – sentabr)da uchib ketadi.**

2318. Bulbullar qaerlarda yashaydi? **Bog'lar, to'qay va butazorlarda yashaydi.**

2319. Bulbullar (g'arb bulbuli) qayerdan qayergacha qadar tarqalgan? **G'arbiy Yevropa, Kichik Osiyo, Eron, Afg'onistondan to Oltoyga qadar tarqalgan.**

2320. Bulbullar O'zbekistonda ham ko'p bo'lib, ular qayerlarda yashaydi? **Suvga yaqin butazor, o'rmon, to'qay kabi nam yerlarda yashaydi.**

2321. Bulbullar (g'arb bulbullari) qayerlarda qishlaydi? **Tropik Afrika, Hindiston va Arabistonda qishlaydi.**

2322. Bulbullar O'zbekistonga qaysi oyning oxirida uchib keladi? **Aprelning oxirida uchib keladi.**

2323. Bulbullarning erkaklari kelgan kundan boshlab, qachongacha necha-kunduz sayraydi? **Bolalari tuxumdan chiqquncha sayraydi.**

2324. Bulbullarning erkaklari, ayniqsa, qachon ko'p va baland ovoz bilan sayraydi? **Bolalari tuxumdan chiqadigan vaqtda.**

2325. Bulbullarning erkaklari qachon sayrashdan to'xtaydi? **Bolalari uchirma bo'lgandan keyin (iyunda) sayrashdan to'xtaydi.**

2326. Bulbullar qayerda sayramaydi? **Qafasda sayramaydi.**

2327. Bulbullar uyasini qayerlarga quradi? **Daraxt va butalarga quradi.**

2328. **Bulbullar nechta tuxum qo'yadi? 4 – 6 ta tuxum qo'yadi.**

2329. Bulbul bolasi tuxumdan necha kunda chiqadi? **13 – 14 kunda chiqadi.**

2330. Bulbullar nimalar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar va ularning lichinkalari bilan ovqatlanadi.**

2331. Bulduruqlar qaysi parrandalar turkumiga kiradi? **Qushlar turkumiga kiradi.**

2332. Bulduruqlar qayerlarda tarqalgan? **Afrikaning shimoliy qismida, Ispaniya va Osiyoda tarqalgan.**

2333. Bulduruqlar nechta uruqqa bo'linadi? **Ikkita uruqqa bo'linadi.**

2334. Bulduruqlar qaysi urug'larga bo'linadi? **Asl bulduruqlar va suv bulduruqlari urug'larga bo'linadi.**

2335. Bulduruqlar qishlash uchun qachon qayerlarga uchib ketadilar? **Qishlash uchun sentabr va oktabrda Pokiston, Eron, Afg'oniston hamda Janubiy Turkmanistonga uchib ketadilar.**





2336. Bulduruqlar O'zbekistonning qayerlarida yashaydi? **O'zbekistonning dasht va cho'llaridagi suvga yaqin yerlarida yashaydi.**

2337. Bulduruqlar oq bovurining bo'yi necha sm? **35 – 37 sm.**

2338. Bulduruqlar qora bovurining tanasi uzunligi necha sm? **33 – 35 sm.**

2339. Bulduruqlar urchish vaqtida (markazda) nechta bo'lib yuradi? **Juft bo'lib yuradi.**

2340. Bulduruqlar ko'pincha nechta tuxum qo'yadi? **3 ta, ba'zan 2 ta tuxum qo'yadi.**

2341. Bulduruqlarning bolalari qaysi oyda uchirma bo'ladi? **Iyunda uchirma bo'ladi.**

2342. Bulduruqlar kuniga necha mahal, qaysi vaqtlar gala bo'lib, suv ichishga boradilar? **Ikki mahal, tushda va kechqurun gala bo'lib, suv ichishga boradilar.**

2343. Bulduruqlar bolalariga qaysi a'zosida suv olib kelib ichirishadi? **Bolalariga jig'ildonida suv olib kelib ichirishadi.**

2344. Buloqchilarning O'zbekistonda qancha turi bor? **100 ga yaqin turi bor.**

2345. Buloqchilar, tuk qanotlilar qaysi jonivorlarning bir turkumi sanaladi? **Hasharotlarning bir turkumi sanaladi.**

2346. Buloqchilarning nimasi ko'proq uchraydi? **Lichinkalari ko'proq uchraydi.**

2347. Buloqchilarning ko'pchiligi qaerlarda yashaydi? **Tog' daryolari va boshqa suvlarda yashaydi.**

2348. Buloqchilarning lichinka va g'umbagi qayerlarda bo'ladi? **Buloq, ko'l, ariq va daryolarda bo'ladi.**

2349. Buloqchilarning lichinkalari qanday shaklda bo'lib, qayerda yashaydi? **Qurt shaklida bo'lib, suv ostida va qumlardan maxsus g'iloflar (uychalar) yasab, shunda yashaydi.**

2350. Buloqchilarning lichinkalari qaysi a'zolari orqali nafas oladilar? **Traxeyali jabralar orqali nafas oladilar.**

2351. Buloqchilarning O'zbekistonda qancha turi ma'lum? **100 ga yaqin turi ma'lum.**

2352. Buloqchilarning ko'pchiligi qayerlarda yashaydi? **Tog' daryolari va boshqa suvlarda yashaydi.**

2353. Buloqchilarning lichinkalari qaysi jonivorlar uchun yaxshi ovqat? **Baliqlar uchun yaxshi ovqat.**

2354. Buloqchilarning ayrim turlari qayerlarda qaysi o'simlik maysalariga zarar yetkazadi? **Uzoq Sharq va Yaponiyada sholi maysalariga zarar yetkazadi.**

2355. Bulutlar qaysi hayvonlarning bir tipi? **Radial simmetriyali umurtqasiz hayvonlarning bir tipi.**

2356. Bulutlar necha sinfga bo'linadi? **Bulutlar 3 sinfga (Calcispondia, Hyalospondia, Demospondia) bo'linadi.**

2357. Bulutlarning qancha turi bor? **5000 ga yaqin turi bor.**

2358. Bulutlarning qaysi turi xalq tabobatida qaysi kasallikka qarshi dori sifatida ishlatiladi? **Bod kasalligiga qarshi («Bodyaga poroshogi») dori sifatida ishlatiladi.**

2359. Bulutlarning ko'pchiligi qayerda yashaydi? **Dengizda, ba'zilari (bodyagalar) chuchuk suvda yashaydi.**

2360. Bulutlar qanday yo'l bilan ko'payadi? **Kurtaklanish yo'li bilan ko'payadi.**

2361. Bulutlarda qaysi a'zo teshigi bo'lmaydi? **Og'iz teshigi bo'lmaydi.**

2362. Bulutlar eng tuban tuzilgan qanday hujayralilardir? **Ko'p hujayralilardir.**

2363. Bulutlarda qanday to'qimalar bo'lmaydi? **Differentsiyalangan to'qimalar bo'lmaydi.**

2364. Bulutlar nima hosil qiladi? **Koloniya (to'da) hosil qiladi.**

2365. Bulutlarning (yakkasi) tanasi qanday shaklda bo'ladi? **Silindr yoki qadah shaklida bo'ladi.**

2366. Bulutlarning ko'pchiligi ohak, kremniy yoki shoxsimon moddalar va maxsus organik modda – spongindan iborat qaysi a'zo hosil qiladi? **Skelet hosil qiladi.**

2367. Bulutlarning yakkasi kattaligi necha sm? **2 – 3 sm.**

2368. Bulutlarning to'dasi kattaligi necha m ga yetadi? **1,5 m ga yetadi.**

2369. Bungarlar, kraytlar qaysi oilaga mansub zaharli ilonlarning urug'i? **Aspidlar oilasiga mansub zaharli ilonlarning urug'i.**

2370. Bungarlar, kraytlarning nechta turi bor? **12 ta turi bor.**

2371. Bungarlar, kraytlar qaysi joylarda tarqalgan? **Janubi-Sharqiy Osiyo, Yava, Hindiston, Malayya, Sumatra va boshqa joylarda tarqalgan.**





2372. Bungarlar, kraytlar qayerlarda yashaydi? **Dala va o'tloqlarda yashaydi.**

2373. Bungarlar, kraytlar ba'zan qayerlarga ham kiradi? **Ba'zan xonadonlarga ham kiradi.**

2374. Bungarlar nechtacha tuxum qo'yadi? **10 tacha tuxum qo'yadi.**

2375. Bungarlar, kraytlarning pama (B. Fasciafus) degan turi qayerda tarqalgan? **Indoneziyada tarqalgan.**

2376. Bungarlar, kraytlarning pama (B. Fasciafus)ning bo'yi necha m cha? **1,75 m cha.**

2377. Burgalar nima so'ruvchi hasharotlar turkumiga kiradi? **Qon so'ruvchi hasharotlar turkumiga kiradi.**

2378. Burgalarning uzunligi qancha mm? **1 – 6 mm.**

2379. Burgalarning ko'pchiligida necha juft oddiy ko'zi bor? **Bir juft oddiy ko'zi bor.**

2380. Burgalar necha yilgacha, odam burgasi esa necha yilgacha yashaydi? **3 yilgacha, 2 yilgacha yashaydi.**

2381. Burgalarning qancha turi, shunda nechta turi O'rta Osiyoda uchraydi? **1400 ga yaqin turi, shunda 310 ta turi O'rta Osiyoda uchraydi.**

2382. Burgalarning qaysi turlari keng tarqalgan? **Odam burgasi (Pulex irritons), it burgasi (Ctenocephalides canis), kalamush burgasi (Ceratophyllus fasciatus), olaqurt (Vermipsylla alacurt) turlari keng tarqalgan.**

2383. Burgalarning qaysi turlari odamda o'lat va terlama kasalligi qo'zg'atuvchilarini yuqtiradi? **Odam va kalamush burgasi odamda o'lat va terlama kasalligi qo'zg'atuvchilarini yuqtiradi.**

2384. Burgut qush eng katta va qanday? Chaqqon va kuchli.

2385. Burgut qushning qanoti necha sm? **62 – 72 sm.**

2386. Burgut qushning qanoti yoyilganda necha m cha? **2 m cha.**

2387. Burgut qush qaysi oilaga kiradi? **Yirtqich qushlar turkumining qirg'iylar oilasiga kiradi.**

2388. Burgut qushning tanasi uzunligi sm gacha? **95 sm gacha.**

2389. Burgut qushning orqa barmog'idan tirnog'ining necha sm dan oshiq bo'lishi o'ziga xos belgilaridandir? **4,2 sm dan oshiq bo'lishi o'ziga xos belgilaridandir.**

2390. Burgut qush qayerlarda ko'p? **Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikada ko'p.**

2391. Burgut qush O'rta Osiyoda qanday yashaydi? **O'troq yashaydi.**

2392. Burgut qush qayerlarda uchraydi? **Tog' va cho'llarda, odamdan uzoq joylarda, qoyalar orasida, saksovulzorda uchraydi.**

2393. Burgut qanday qush? **Monogam qush.**

2394. Burgut qushining erkagi bilan urg'ochisi qachon birga bo'ladi? **Doim birga bo'ladi.**

2395. Burgut qush qachon sherik axtaradi? **Biri o'lsagina ikkinchisi o'ziga boshqa sherik axtaradi.**

2396. Burgut qush uyasini qayerlarga xas-cho'p va latta-puttalardan quradi? **Odam chiqa olmaydigan yerlarga quradi.**

2397. Burgut qush qanday xollar bilan qoplangan nechta tuxum qo'yadi? **Xira oq va qo'ng'ir xollar bilan qoplangan 1 – 2 ta tuxum qo'yadi.**

2398. Burgut qush qaysi hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Parranda (kaklik, dudoq)lar, yumronqoziq, toshbaqa, quyon kabi hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

2399. Burgut qush bolasini qayerdayoq ovga o'rgata boshlaydi? **Uyadayoq ovga o'rgata boshlaydi.**

2400. Burgut qushning yosh bolasini mahalliy ovchilar nimaga o'rgatadilar? **Qo'lga o'rgatadilar.**

2401. Burgut qush tutqinlikda necha yil gacha yashaydi? **46 yil gacha yashaydi.**

2402. Burgut qush nimasini uzoqdan ko'ra oladi va tez uchib, unga tashlanadi? **O'ljasini uzoqdan ko'ra oladi va tez uchib, unga tashlanadi.**

2403. Burgut qush qishloq xo'jaligiga qanday foyda keltiradi? **Kemiruchqilarni qirib foyda keltiradi.**

2404. Burmabo'yin qaysi turkumga mansub qush? **Qizilishtonlar turkumiga mansub qush.**

2405. Burmabo'in qushi bo'yining uzunligi necha sm gacha bo'ladi? **20 sm gacha bo'ladi.**

2406. Burmabo'yin qaysi qit'alarda tarqalgan? **Afrika, Osiyo va Evropada tarqalgan.**





2407. Burmabo'yin qush nechta tuxum qo'yadi? **6 – 12 ta tuxum qo'yadi.**

2408. Burunduqlar, olasichqonlar qaysi oilaga mansub bo'ladi? **Kemiruvchilar turkumining tatinsimonlar oilasiga mansub bo'ladi.**

2409. Burunduqlar, olasichqonlar qaysi mintaqalarda tarqalgan? **Shimoli-sharqiy Yevropa, Uzoq Sharq, Sibir, Manchjuriya va Xitoyda tarqalgan.**

2410. Burunduqlar, olasichqonlar qayerlarda yashaydi? **Igna bargli o'rmonlarda yashaydi.**

2411. Burunduqlar, olasichqonlar tanasining uzunligi necha sm? **14 sm.**

2412. Burunduqlar, olasichqonlar dumi necha sm ga yaqin? **9 sm ga yaqin.**

2413. Burunduqlar, olasichqonlarning yelkasida nechta qora yo'l bor? **Beshta qora yo'l bor.**

2414. Burunduqlar, olasichqonlarning qayerida ovqat saqlaydigan xaltachasi bo'lib, unga nechtacha kedr yong'og'i yoki qancha g cha bug'doy sig'adi? **Lunjida ovqat saqlaydigan xaltachasi bo'lib, unga 15 tacha kedr yong'og'i yoki 10 g cha bug'doy sig'adi.**

2415. Burunduqlar, olasichqonlar qaysi faslda necha marta bola tug'adi? **Yoz faslida bir marta bola tug'adi.**

2416. Burunduqlar, olasichqonlar nechta bola tug'adi? **4 – 6 ta bola tug'adi.**

2417. Burunduqlar, olasichqonlarning homiladorlik davri necha kun bo'ladi? **31 kun bo'ladi.**

2418. Burchak qanotlilar qaysi turkumga mansub hasharotlarning bir oilasi? **Tanga qanotlilar turkumiga mansub hasharotlarning bir oilasi.**

2419. Burchak qanotlilarning qanoti qachon tanasidan yuqoriga ko'tarilib taxlanadi? **Tinch turganida tanasidan yuqoriga ko'tarilib taxlanadi.**

2420. Burchaktishlar, burchak tishli tritonlar dumli amfibiyalarning bir nimasi? **Urug'i.**

2421. Burchaktishlar qayerlarda tarqalgan? **Sharqiy Osiyo va Sibirda tarqalgan.**

2422. Burchaktishlarning nechta turi bor? **18 ta turi bor.**

2423. Burchaktishlar qanday amfibiyalarning bir urug'i? **Dumli amfibiyalarning bir urug'i.**

2424. Burchaktishlar deyilishiga sabab nima? **Tanglay tishlari burchak shaklida qayrilgani uchun burchaktishlilar deyiladi.**

2425. Burchaktishlar qayerlarda tarqalgan? **Sharqiy Osiyo va Sibirda tarqalgan.**

2426. Burchaktishlarning Rossiyada qaysi turi yashaydi? **Sibir burchaktishi yoki barmoqli tranton (Hynobius keyserlingii) yashaydi.**

2427. Burchaktishlarning Sibir burchaktishi bo'yi necha sm cha? **13 sm cha.**

2428. Burchaktishlarning Sibir burchaktishi dumi necha sm cha? **6,3 sm cha.**

2429. Burchaktishlarning Pomir va Samarqand o'rtasida nechta Turkiston burchaktishi (H. turcestanicus) topilgan? **4 ta Turkiston burchaktishi (H. turcestanicus) topilgan.**

2430. Burchaktishlarning Turkiston burchaktishi barmog'ining nechta bo'lishi bilan boshqa burchaktishlardan farq qiladi? **5 ta bo'lishi bilan boshqa burchaktishlardan farq qiladi.**

2431. Burchaktishlar qayerda yashaydi? **Quruqlikda yashaydi.**

2432. Burchaktishlar qachon suvga tushadi? **Urchish vaqtidagina suvga tushadi.**

2433. Burchaktishlarning uvildirig'i qayerda urug'lanadi? **Suvda urug'lanadi.**

2434. Burchaktishlar qanday mayda hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Umurtqasiz mayda hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

2435. Butilka burunlar (kitlar)ning nomlari nima va qayerlarda uchraydi? **Do'ngpeshona butilka burunlar (H. ampullatus) Atlantika okeanining shimoliy qismida uchraydi. Yassipeshona butilka burunlar (H. planifrons) Janubiy yarim sharda uchraydi.**

2436. Butilka burunlar qaysi hayvonlar urug'i? **Kitlar urug'i.**

2437. Butilka burunlarning uzunligi necha m? **9,4 m.**

2438. Butilka burunlar (kitlar)ning necha turi ma'lum? **Ikki turi ma'lum.**

2439. Butilka burunlar (kitlar)ning peshonasida qanday moddadan hosil bo'lgan qiya bo'rtig'i bor? **Yog' moddasidan hosil bo'lgan qiya bo'rtig'i bor.**



2440. Butilka burunlar (kitlar) qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Boshoyoqli mollyuskalar bilan ovqatlanadi.**

2441. Butilka burun (kitlar)ning tishlari qanday shaklda? **Konussimon shaklda.**

2442. Butilka burunlar (kitlar)ning tishlari necha juft? **2 juft.**

2443. Butilka burunlar (kitlar)ning tishlari qaysi jag'larida joylashgan? **Pastki jag'larida.**

2444. Butilka burunlar (kitlar) ba'zan qancha vaqt suvda sho'ng'iydi? **Ba'zan 1 soatdan ko'proq vaqt suvda sho'ng'iydi.**

2445. Butli baqalar qaysi jonivorlar turkumining sassiq baqalar oilasiga kiradi? **Dumsiz amfibiyalar turkumining sassiq baqalar oilasiga kiradi.**

2446. Butli baqalarning qaysi turlari qayerlarda uchraydi? **G'arbiy Yevropa pasttekisliklarida bir turi – ola butli baqa (P. punctatus), Kavkaz tog'larida ikkinchi turi – Kavkaz butli baqasi (P. caucasica) uchraydi.**

2447. Butli baqalarning qanday belgilari bor? **Terisi g'adir-budur, usti to'q qizil bo'lib, qora, yashil xollari bor.**

2448. Butli baqalar deb atalishiga sabab nima? **Chunki urg'ochisining orqasida butsimon oq dog'i bo'lganligi sababli.**

2449. Butli baqalarning panjaralari orqasidagi suzgich pardalari qanday rivojlangan? **Sust rivojlangan.**

2450. Butli baqalar qachon urchiydi? **Yoz bo'yi urchiydi.**

2451. Butun dunyoda qancha hayvonot bog'i bor? **72 dan ortiq (1972 y.) hayvonot bog'i bor.**

2452. Buxoro bug'usi qanday nom bilan ataladi? **Xongul nomi bilan ataladi.**

2453. Bushmeyster, surukuku qaysi o'rmonlarda yashaydi? **Janubiy Amerika o'rmonlarida yashaydi.**

2454. Bushmeyster, surukuku qaysi ilonlar oilasining chinqirbosh vineralar urug'iga mansub? **Chinqiroq ilonlar oilasining chinqirbosh vineralar urug'iga mansub.**

2455. Bushmeyster, surukuku qanday ilonlarning bir turi? **Zaharli ilonlarning bir turi.**

2456. Bushmeyster, surukuku ko'pincha qayerlarda, qanday bo'lib yotadigan, qanday ilon? **Soya yerlarda, kulcha bo'lib yotadigan, erinchoq ilon.**

2457. Bushmeyster, surukukuning bo'yi necha m? **4,3 m.**

2458. Bushmeyster ilonlarining zaharli tishi necha sm cha? **2,5 sm cha.**

2459. Bushmeyster, surukuku qanday ko'payadi? **Tuxum qo'yib ko'payadi.**

2460. Bushuev qoramol zoti O'zbekistonning qaysi viloyati zonasida yetishtirilgan sersut sermahsul qoramol sanaladi? **Sirdaryo viloyati zonasida yetishtirilgan sersut, sermahsul qoramol sanaladi.**

2461. Bushuev qoramol zotli sigirlarining tirik og'irligi qancha kg? **320 – 432 kg.**

2462. Bushuev qoramol zotli buqalarining tirik og'irligi qancha kg? **700 – 750 kg.**

2463. Bushuev qoramol zotining sog'inlik davri necha kun? **300 kun.**

2464. Bushuev qoramol zoti qancha kg gacha sut beradi? **3000 kg gacha sut beradi.**

2465. Bushuev qoramol zoti sutining yog'liligi necha foiz? **3,9 – 4,1 foiz.**

2466. Buqalar qanday tuyoqli sut emizuvchilar urug'i? **Juft tuyoqli sut emizuvchilar urug'i.**

2467. Buqalarning uzunligi necha sm? **180 – 325 sm.**

2468. Buqalarning dumi uzunligi necha sm? **70 – 140 sm.**

2469. Buqalarning og'irligi qancha kg? **325 – 1200 kg.**

2470. Buqalarning nechta turi ma'lum? Ular qaysilar? **5 ta turi ma'lum. Ular: banteng, gaur, kuprey, tur, yak.**

2471. Buqalarning tur turi nechanchi asrda qayerda qirilib ketgan? **XVII asrda Yevropada qirilib ketgan.**

2472. Buqalar vakillari hozir qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Shimoliy Afrika, Old, O'rta, Janubiy va Markaziy Osiyoda hamda Katta Zond orollarida tarqalgan.**

2473. Buqa – erkak qoramol bo'lib, og'irligi sigirnikidan necha foiz ortiq? **30 – 40 foiz ortiq.**

2474. Buqa yaylovda nechta, bog'lab boqilganda nechta sigirni qochirishi mumkin? **50 – 70 ta, 100 – 120 ta sigirni qochirishi mumkin.**

2475. Buqadan sigirlarni qochirishda necha oyligidan boshlab necha yil, ayrimlaridan necha yil foydalaniladi? **14 – 18 oyligidan boshlab, 6 – 8 yil, ayrimlaridan 12 – 14 yil foydalaniladi.**





2476. Buqabaqalar urug'ining nechta turi bor? **11 ta turi bor.**

2477. Buqabaqalar qaysi oilaga mansub? **Dumsiz amfibiyalar turkumi urug'i, tor og'izli baqalar oilasiga mansub.**

2478. Buqabaqalarning eng yirigi qaysi buqabaqasi? **Hind buqa baqasi.**

2479. Buqabaliqlar qaysi turkumning oilasi? **Oqunsimonlar turkumining oilasi.**

2480. Buqabaliqlarning uzunligi qancha sm gacha? **10 mm dan 20 – 30 sm gacha.**

2481. Buqabaliqlarda qorin suzgichlari birlashib nimani hosil qiladi? **So'rg'ichni hosil qiladi.**

2482. Buqabaliqlarning qancha urug'i bor? **200 dan ortiq urug'i bor.**

2483. Buqabaliqlarning qancha turi bor? **600 ga yaqin turi bor.**

2484. Buqabaliqlar dengizlarning qaysi qismida uchraydi? **Tropik va subtropik qismida uchraydi.**

2485. Buqabaliqlar qayerlarda hayot kechiradi? **Dengiz, okean, sho'rlangan va chuchuk suv havzalari sohillari yaqinida hamda tubida hayot kechiradi.**

2486. Buqabaliqlarning qaysi dengizlarda qaysi turi uchraydi? **Qora va Kaspiy dengizlarida bubur buqabaliqlar, maula buqabaliqlar, tsutsik buqabaliqlar, Orol dengizida esa buqabaliqlarning 6 ta turi uchraydi.**

2487. Buqabaliqlar qaysi faslda uya yasab uvildiriq tashlaydi? **Bahorda uya yasab uvildiriq tashlaydi.**

2488. Buqabaliqlarning erkagi uvildiriqni qo'riqlaydimi yoki urg'ochisi? **Erkagi uvildiriq qo'riqlaydi.**

2489. Buqabaliqlarning qaysi turlari ovlanadi? **Yumaloq buqa balig'i va qum buqa balig'i ovlanadi.**

2490. Buqalamunlar qaysi oilaga mansub sudralib yuruvchilar? **Kaltakesaklar oilasiga mansub sudralib yuruvchilar.**

2491. Buqalamunlarning nimasi uzun bo'lib, ancha uzoqdagi o'ljani ham ushlab olish xususiyatiga ega? **Tili uzun bo'lib, ancha uzoqdagi o'ljani ham ushlab olish xususiyatiga ega.**

2492. Buqoq ohu qaysi urug'ning bir turi? **G'izollar urug'ining bir turi.**

2493. Buqoqohu qaysi oilaga mansub? **Juft tuyoqlilar turkumining qovushshoxlilar oilasiga mansub.**

2494. Buqoqohu qaysi Osiyoda tarqalgan? **Markaziy Osiyoda tarqalgan.**

2495. Buqoqohu qayerlarda ko'p uchraydi? **Mo'g'ulistonning shimoli-sharqida va Qozog'istonning Chu cho'llarida ko'p uchraydi.**

2496. Buqoqohu qayerlarda yashaydi? **Qirli cho'llarda, ba'zan tog'li yerlarda yashaydi.**

2497. Buqoqohuning qomati qanday? **Kelishgan, chiroyli.**

2498. Buqoqohuning tanasi uzunligi necha sm? **110 sm.**

2499. Buqoqohuning bo'yi necha sm? **80 sm.**

2500. Buqoqohuning og'irligi qancha kg gacha? **50 kg gacha.**

2501. Buqoqohuning oyoqlari qanday? **Uzun va ingichka.**

2502. Buqoqohuning tuyoqlari qanday? **Ixcham.**

2503. Buqoqohuning qorin rangi qanday? **Oq.**

2504. Buqoqohuning elkasi va biqini rangi yozda qanday bo'ladi? **Sarg'ish qumrang bo'ladi.**

2505. Buqoqohuning elkasi va biqini rangi qishda qanday bo'ladi? **Ochroq bo'ladi.**

2506. Buqoqohuning dumi quzunmi yoki kalta? **Kalta.**

2507. Buqoqohuning erkagida qanday bo'g'imli uzun qanday rangli shox bor? **Halqa bo'g'imli uzun qora shox bor.**

2508. Buqoqohu qaysi o'tlar bilan ovqatlanadi? **Shuvoq, burgan kabi o'tlar bilan ovqatlanadi.**

2509. Buqoqohu qaysi oylarda nechta bola tug'adi? **May – iyun oylarida bitta, ba'zan ikkita bola tug'adi.**

2510. Buqoqohular qanday bo'lib yuradi? **Boshqa ohular kabi kichikroq poda bo'lib yuradi.**

2511. Buqoqohuning go'shti qanday? **Mazali.**

2512. Buqoqohu nima qilinadi? **Ovlanadi.**

2513. Buqoqohuning erkagi nima deb ataladi? **Erkagi dzeren deb ataladi.**

2514. Buqoqohuning urg'ochisi nima deb ataladi? **Urg'ochisi sergakchin deb ataladi.**

2515. Buqoqohuning erkagimi yoki urg'ochisi shoxsiz? **Urg'ochisi.**

2516. Bug'doy nematodasi qaysi boshoqli ekinlar boshog'ida g'udda (galla)lar paydo qiladigan zararkunanda to'garak chuvalchang? **Bug'doy, javdar, arpa, suli va boshq. boshoqli ekinlar boshog'ida g'udda (galla)lar paydo qiladigan zararkunanda to'garak chuvalchang.**





2517. Bug'doy nematodasi bilan o'simlik qattiq zararlanganda boshog'i nima bo'lib qoladi? **Maydalanib o'smay qoladi, doni o'rnida g'udda (galla)lar paydo bo'ladi.**

2518. Bug'doy nematodasi qanday tarqalgan? **Don, poxol hamda qishloq xo'jalik asbob-uskunalari vositasi bilan tarqalgan.**

2519. Bug'doy tripsi qaysi turkumga mansub hasharot? **Tripsilar turkumiga mansub hasharot.**

2520. Bug'doy tripsining bo'yi necha mm? **1,5 – 2 mm.**

2521. Bug'usimonlar qaysi oilaga mansub? **Sut emizuvchilar sinfining juft tuyoqlilar oilasiga mansub.**

2522. Bug'usimonlarning nechta turi, nechta kenja turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **11 ta turi, 20 ta kenja turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

2523. Bug'usimonlarning nechta turi bo'lib, nechta kenja oilaga bo'linadi? **48 ta turi bo'lib, ular muntajaklar (Cervulinae), suv bug'usimonlari (Hydropotinae), asl bug'usimonlar (Cervinae) va Amerika bug'usimonlari (Neocervinae) 4 ta kenja oilaga bo'linadi.**

2524. Bug'usimonning qanday turlari bor? **Shimol bug'usi, virgin bug'usi, los, xongul, chipor bug'u, asl bug'u turlari bor.**

2525. Bug'usimonlarning dumi, boshi qanday? **Dumi kalta, boshi uzunchoq.**

2526. Bug'usimonlarning erkaklari qaysi fasllarda qanday davrda bo'kirib yuradi? **Kuzda yoki yoz fasllarida juftlashish davrida bo'kirib yuradi.**

2527. Bug'usimonlarning bo'yi necha sm cha? **60 sm cha.**

2528. Bug'usimonlarning shoxi uzunmi yoki kalta? **Kalta.**

2529. Bug'usimonlar erkagining ustki jag'ida qanday tishlari bor? **Xanjardek uzun qoziq tishlari bor.**

2530. Bug'usimonlar necha yoshida voyaga yetadi? **1,5 yoshida voyaga yetadi.**

2531. Bug'usimonlar qaysi fasllarda nechta bola tug'adi? **Bahorda yoki yoz boshida 1 – ta, ba'zan 4 ta bola tug'adi.**

2532. Bug'usimonlarning yuqori jag'ida qaysi tishlari yo'q? **Kurak tishlari yo'q.**

2533. Bug'usimonlarning qaysi tishlari yassi? **Oziq tishlari yassi.**

2534. Bug'usimonlar qachon tullaydi? **Bahor va kuzda, ba'zi turlari faqat bahorda tullaydi.**

2535. Bug'usimonlarning qaysi a'zosi ustida katta oq holi – "darcha"si bor? **Dumi ustida.**

2536. Yosh bug'usimonlar ko'pincha qanday bo'ladi? **Ola-chipor bo'ladi.**

2537. Bug'usimonlar qayerda tarqalgan? **Yevropa, Osiyo, Amerika va Shimoliy Afrikada tarqalgan.**

2538. Bug'usimonlar qaerlarda yashaydi? **Tog' va tekisliklardagi o'rmon, to'qay, o'rmon-dasht va tundrada yashaydi.**

2539. Bug'usimonlar qanday o'simliklar bilan ovqatlanadi? **Turli o'tlar, butalar, har xil o'simliklar bilan ovqatlanadi.**

2540. Bug'usimonlarning muntjaklar urug'i vakili qaysi? **Hindiston muntjagi (Muntigcus muntjac).**

2541. Bug'usimonlar kaborgilarning nechta qaysi turi tarqalgan? **Bitta (Moschus moschif erus) turi tarqalgan.**

2542. Bug'usimonlarning nimalaridan foydalaniladi? **Go'shti va terisidan foydalaniladi.**

2543. Bug'usimonlar qaerlarda nechtadan bo'lib yuradi? **Daryo sohillaridagi qamishzorlarda 2 – 3 tadan bo'lib yuradi.**

2544. Bug'usimonlarning qaysi turi O'zbekistonda yashaydi? **Xongul turi O'zbekistonda yashaydi.**

2545. Bug'usimonlarning asl bug'usimonlar kenja oilasi qaysi urug'larga bo'linadi? **Elik, los va h.k. dan iborat urug'larga bo'linadi.**

2546. Bug'uchalar, kanchillar qaysi oilaga mansub? **Sut emizuvchilar sinfi juft tuyoqlilar turkumining bir oilasiga mansub.**

2547. Bug'uchalar, kanchillar nechta uruqqa bo'linadi? **Ikkita uruqqa bo'linadi.**

2548. Bug'uchalar, kanchillarning nomlari nima? **Afrika bug'uchalari (Hyemoschus) va Osiyo bug'uchalari yoki kanchillari (Tragulus).**





2549. Bug'uchalarning tuzilishi bug'iga o'xshaydi, lekin nimasi bo'lmaydi? **Shoxi bo'lmaydi.**

2550. Bug'uchalar qaysi fasllarda juftlashadi? **Kuzda yoki yoz oxirida juftlashadi.**

2551. Bug'uchalar juftlashgan vaqtda erkaklari o'zlarini qanday tutadilar? **Bu vaqtda erkaklari quturib, bo'kirib yuradilar.**

2552. Bug'uchalarning oyoqlarida nechtadan barmoq bor? **To'rttadan barmoq bor.**

2553. Bug'uchalarning kattaligi qaysi jonivordek keladi? **Quyondek keladi.**

2554. Bug'uchalarning eng mashhuri qaysi bug'ucha yoki kanchimi? **Yava bug'uchasi yoki kanchimidir (T. javanicus).**

2555. Bug'uchalar nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simlik va mevalar bilan ovqatlanadi.**

2556. Bug'uchalar nechta bola tug'adi? **2 ta bola tug'adi.**

2557. Bug'uchalarning go'shti qanday? **Yumshoq va mazali.**

2558. Bo'zdoqlar qaysi turkumning bir urug'i? **Ko'kqarg'alar turkumining bir urug'i.**

2559. Bo'zto'rg'ay qaysi oilaga mansub qush? **Chumchuqsimonlar turkumining to'rg'aylar oilasiga mansub qush.**

2560. Bo'zto'rg'ay qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy Afrika, Janubi-sharqiy Yevropa va Osiyoda tarqalgan.**

2561. Bo'zto'rg'ay, asosan, qayerlarda yashaydi? **Asosan, qumloqlarda, ba'zan sho'r yerlarda yashaydi.**

2562. Bo'zto'rg'ay O'zbekistonning qayerlarida uchraydi? **Faqat cho'l va dashtlarda uchraydi.**

2563. Bo'zto'rg'ayning nechtacha kenja turi bor? **10 tacha kenja turi bor.**

2564. Bo'zto'rg'ayning qaysi kenja turi O'zbekistonda uchraydi? **S. pispoletta kenja turi uchraydi.**

2565. Bo'zto'rg'ay yoz bo'yi necha marta, nechtadan tuxum qo'yadi? **2 marta 3 – 5 tadan tuxum qo'yadi.**

2566. Bo'zto'rg'ayning tuxumidan chiqqan bolasi necha kunda uchirma bo'ladi? **9 kunda uchirma bo'ladi.**

2567. Bo'kalar qanday harakatlilar turkumiga mansub hasharot? **Qo'sh qanotlilar turkumiga mansub hasharot.**

2568. Bo'kalar nechta oilaga bo'linadi? **3 ta oilaga bo'linadi.**
2569. Bo'kalarning oilalari nomlari nima? **Teri, me'da va bo'shlik yoki halqum bo'kalari.**
2570. Bo'kalarning voyaga yetgan qaysi a'zolari reduksiyaga uchragan, ovqatlanmaydi? **Og'iz a'zolari reduksiyaga uchragan, ovqatlanmaydi.**
2571. Bo'kalarning ko'pchilik turlarining qurtlari sut emizuvchilar va odamning nimasi hisoblanadi? **Ichki paraziti hisoblanadi.**
2572. Bo'kalarning O'rta Osiyoda nechta turi (shu jumladan, ot bo'kasi Gasterophilus intestnalis) keng tarqalgan? **6 ta turi keng tarqalgan.**
2573. Bo'kalarning qancha turi ma'lum? **30 ga yaqin turi ma'lum.**
2574. Bo'kalarning O'zbekistonda nechta turi bor? Ular qaysilar? **To'rtta turi bor. Ular: qo'y bo'kasi, tuya bo'kasi, rus bo'kasi, o'zbek bo'kasi, shuningdek, kalta bo'ka turlari.**
2575. Bo'ktargilar qaysi oilaga mansub yirtqich qushlar urug'i? **Qarchig'aysimonlar oilasiga mansub yirtqich qushlar urug'i.**
2576. Bo'ktargilar qaysi qit'alardan tashqari, hamma qit'alarda tarqalgan? **Avstraliya va Antarktidadan tashqari, hamma qit'alarda tarqalgan.**
2577. Bo'ktargilarning nechta turi bor? **9 ta turi bor.**
2578. Bo'ktargilar nechta tuxum qo'yadi? **3 – 5 ta tuxum qo'yadi.**
2579. Bo'ktargilarning qaysi turlari O'zbekistonda uchraydi?
**Soy bo'ktargisi (C. alryginosis), dala bo'katrgisi (C. cyaneus), cho'l bo'ktargisi (C. mecrourus), qo'riq bo'ktargisi (C. pugargus) turlari uchraydi.**
2580. Bo'ktargilar qishlash uchun kuzda qayerlarga uchib ketadi? **Hindiston va Afrikaga uchib ketadi.**
2581. Bo'ktargilarning qaysi turi O'zbekistonda qishlab qoladi? **Dala bo'ktargisi O'zbekistonda qishlab qoladi.**
2582. Bo'ktargilarning dala bo'ktargi turi qayerlarda yashaydi? **Daryo sohillari, cho'l, dasht va dalalarda yashaydi.**
2583. Bo'ktargilarning qaysi biri katta? **Urg'ochilari erkagidan katta.**





2584. Bo'ktargilarning qanotlari qanday? **Uzun va keng.**
2585. Bo'ktargilar qanday (sekinmi yoki tezmi) parvoz qilishga moslashgan? **Sekin parvoz qilishga moslashgan.**
2586. Bo'ktargilarning qaysi a'zosi ikki yoni va tomog'ini o'rab olgan "yoqasi" bor? **Boshi ikki yoni va tomog'ini o'rab olgan "yoqasi" bor.**
2587. Bo'ktargilar qayerlarda tarqalgan? **Avstraliya, Shimoliy va Janubiy qutbdan tashqari, hamma qit'alarda tarqalgan.**
2588. Bo'ktargilar uyasini qayerlarga quradi? **Quruq o't va xascho'plardan yerga quradi.**
2589. Bo'ktargilarning modasimi yoki erkagi uyasini doim tozalab turadi? **Modasi uyasini doim tozalab turadi.**
2590. Bo'ktargilarning modasimi yoki erkagi tuxumini bosadi? **Modasi tuxumini bosadi.**
2591. Bo'ktargilarning modasimi yoki erkagi nasl uchun g'amxo'rlik qiladi? **Modasi bilan nari o'rtasida qat'iy taqsimlangan.**
2592. Bo'ktargilarning qmodasimi yoki erkagi uyada tuxumdan chiqqan jish jo'jalarni qanoti ostida isitib, ularni ovqatlantiradi? **Modasi uyada tuxumdan chiqqan jish jo'jalarni qanoti ostida isitib, ularni ovqatlantiradi.**
2593. Bo'ktargilarning modasimi yoki erkagi oziq tashiydi? **Erkagi oziq tashiydi.**
2594. Bo'ktargilar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Har xil hasharotlar, mayda kemiruvchilar, qushlar, kaltakesaklar, qurbaqalar va boshq. hayvonlar bilan ovqatlanadi.**
2595. Bo'ktargilar qaysi jonivorlarni qirib, foyda keltiradi? **Kemiruvchilarni qirib, foyda keltiradi.**
2596. Bo'r davrining oxiriga kelib (mil. dan 136-66 mln yil avv.) ko'pchilik hayvonlar ketib, ularning o'rnini qaysi hayvonlar egallaydi? **Dengiz umurtqasizlari, dengiz va quruqlikda yashovchi sudralib yuruvchilar, jumladan, dinozavrlar qirilib ketib, ular o'rnini qushlar va sut emizuvchilar egallaydi.**
2597. Bo'ri, qashqir qaysi oilaga mansub yirtqich sut emizuvchi hayvon? **Itsimonlar oilasiga mansub.**
2598. Bo'ri qanday hayvon? **Monogam hayvon.**
2599. Bo'ri qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikada tarqalgan.**

2600. Bo'rining nechta kenja turi bor? **12 ta kenja turi bor.**

2601. Bo'rining erkagi necha yoshida, urg'ochisi necha yoshida voyaga yetadi? **Erkagi 2 yoshida, urg'ochisi 2 – 3 yoshida voyaga yetadi.**

2602. Bo'ri (yoshi, qarisi) nechta tug'adi? **Yoshi 3 – 5 ta, qarisi 6 – 8 ta, ba'zan 10 – 13 ta bola tug'adi.**

2603. Bo'ri yilda necha marta, qaysi fasllarda tullaydi? **Ikki marta, bahor va kuzda tullaydi.**

2604. Bo'ri qachondan boshlab birga bo'ladi? **Urg'ochisi bilan erkagi qo'shilgan kunidan boshlab, to bolalarini o'stirib o'zidan ajratguncha birga bo'ladi.**

2605. Bo'ri qaysi oydan boshlab urchiydi? **Yanvar oyidan boshlab urchiydi.**

2606. Bo'rining homiladorlik davri necha kun? **62 – 65 kun.**

2607. Bo'ri bolasini necha hafta emizadi? **5 – 6 hafta emizadi.**

2608. Bo'ri bolasi necha haftaligida uyasidan chiqa boshlaydi? **3 haftaligida uyasidan chiqa boshlaydi.**

2609. Bo'rining urg'ochisi emizikli davrida qaysi biri ovqat tashib keladi? **Erkagi ovqat tashib keladi.**

2610. Bo'ri bolalari nima bilan ovqatlanishga o'tganda ona bo'ri ham o'lja tutib kela boshlaydi? **Go'sht bilan ovqatlanishga o'tganda ona bo'ri ham o'lja tutib kela boshlaydi.**

2611. Bo'ri noyabrga qadar nechtasi gala bo'lib yuradi? **10 – 15 tasi gala bo'lib yuradi.**

2612. Bo'ri qanday hayvon? **Kuchli, chidamli, chaqqon hayvon.**

2613. Bo'rining qaysi a'zolari yaxshi taraqqiy etgan? **Hid bilish, eshitish a'zolari yaxshi taraqqiy etgan.**

2614. Bo'ri nima bilan ovqatlanadi, ba'zan nimalar yeydi? **Go'sht bilan ovqatlanadi, ba'zan olma, qovun, tarvuz kabi mevalarni ham yeydi.**

2615. Bo'ri juda nima? **Ochko'z, xo'ra.**

2616. Bo'rining nechtasi bitta qo'yni yeydi? **Ikkitasi bitta qo'yni yeydi.**

2617. Bo'ri podaga hujum qilganda nimani nobud qiladi? **Ko'p qo'yni nobud qiladi.**

2618. Bo'ri nima uchun ofat? **Chorvachilik uchun ofat.**





2619. Bo'rining faqat quturgani kimga hujum qiladi? **Odamga hujum qiladi.**

2620. Bo'ribosar, O'rta Osiyo ovcharkasining qaysi biri (erkagimi yoki urg'ochisimi) ko'proq qadrlanadi? Nima uchun? **Erkagi. Chunki chorva mollari podalarini bo'rilar hujumidan saqlash (nomi ham shundan), o'tov-qo'ralarni qo'riqlash vazifalarini bajaradi.**

2621. Bo'ribosar, O'rta Osiyo ovcharkasi jaydari itining qanday sifatlarini oshirish uchun yosh, ya'ni necha oyligidan quloq va dumi kesib qisqartiriladi? **necha oyligida urushqoqlik sifatlarini oshirish uchun yosh, ya'ni 1 – 2 oyligidan quloq va dumi kesib qisqartiriladi.**

2622. Bo'ribosar, O'rta Osiyo ovcharkasi qayerda tarqalgan jaydari qaysi hayvon zoti? **O'rta Osiyoda tarqalgan jaydari it zoti.**

2623. Bo'ritish ilonlar qaysi ilonlar oilasining bir urug'i? **Suv ilonlar oilasining bir urug'i.**

2624. Bo'ritish ilonlarning nechta turi bor? **16 ta turi bor.**

2625. Bo'ritish ilonlar qaerda ko'p? **Janubiy Osiyoda ko'p.**

2626. Bo'ritish ilonlarning jag'ida nechta katta egri tishlari bo'ladi? **2 – 6 ta tishi bo'ladi. Shuning uchun ular "bo'ritish" deb ataladi.**

2627. Bo'ritish ilonlarning O'zbekiston cho'llarida nechta turi uchraydi? Nomi nima? **1 ta turi. Nomi – ola bo'ritish (lucodon striata) uchraydi.**

2628. Bo'ritish ilonlarning uzunligi necha sm cha? **60 sm cha.**

2629. Bo'ritish ilonlarning usti qanday yo'lli? **To'q jigarrang, och sariq ko'ndalang yo'lli.**

2630. Bo'ritish ilonlarning qorin tomoni rangi qanday? **Sariq.**

2631. Bo'ritish ilonlar qachongi hayvon? **Tungi hayvon.**

2632. Bo'ritish ilonlar qaysi oyning oxirida nechta tuxum qo'yadi? **Iyun oyining oxirida 2 – 4 ta tuxum qo'yadi.**

2633. Bo'ritish ilonlar, asosan, qaysi hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Har xil kaltakesaklar bilan ovqatlanadi.**

2634. Bo'ronqushlar qanday burunlilar turkumining bir urug'i? **Nay burunlilar turkumining bir urug'i.**

2635. Bo'ronqushlar o'z tabiatiga ko'ra, qayerlarda yashashga yaxshi moslashgan qushlar sanaladi? **Suvda yashashga yaxshi moslashgan qushlar sanaladi.**

2636. Bo'ronqushlarining skeletida nima yaxshi rivojlangan? **Havo bo'shliqlari yaxshi rivojlangan.**

2637. Bo'ronqushlarning panjalari orasida qaysi a'zolar bor? **Suzgich pardalar bor.**

2638. Bo'ronqushlar qanotining tirsak suyagi uzunmi yoki qisqami? **Uzun.**

2639. Bo'ronqushlarning qaysi a'zosi uzun va uchi ilmoqqa o'xshash qayrilgan? **Tumshug'i uzun va uchi ilmoqqa o'xshash qayrilgan.**

2640. Bo'ronqushlarning tashqi burun teshigi maxsus nima uchida joylashgan? **Nay uchida joylashgan.**

2641. Bo'ronqushlarning pati qanday? **Qalin.**

2642. Bo'ronqushlar tuxumdan chiqqan bolasini nima bilan boqadi? **Ota-onasi jig'ildonida hosil bo'ladigan bo'tqa bilan boqadi.**

2643. Bo'ronqushlar erkagi bilan urg'ochisining rangi har xilmi yoki bir xilmi? **Bir xil.**

2644. Bo'ronqushlarning qaysi dengizda shimol bo'ronqushi (Puffinus puffinus) turi uchraydi? **Qora dengizda shimol bo'ronqushi (Puffinus puffinus) turi uchraydi.**

2645. Bo'ronqushlarning qaysi okean sohillarida ingichka tumshuqli bo'ronqush (P. tenuirostris) va bo'z bo'ronqush (P. griscus) turlari uchraydi? **Tinch okean sohillarida ingichka tumshuqli bo'ronqush (P. tenuirostris) va bo'z bo'ronqush (P. griscus) turlari uchraydi.**

2646. Bo'ronqushlar O'zbekistondagi Orol dengizda yashaydimi? **Yoq yashamaydi.**

2647. Bo'ronqushlar parvoz qilishda nima ustida hosil bo'ladigan havo quyunlaridan foydalanadi? **Suv to'lqinlari ustida hosil bo'ladigan havo quyunlaridan foydalanadi.**

2648. Bo'ronqushlar qanday (yaxshimi yoki yomonmi) uchadi va suzadi, lekin uncha nima qilolmaydi? **Yaxshi uchadi va suzadi, lekin uncha sho'ng'iy olmaydi.**

2649. Bo'ronqushlar baliq va har xil dengiz umurtqasiz hayvonlarini qayerda tutib yeydi? **Suv yuzi (beti)da tutib yeydi.**

2650. Bo'ronqushlar quruqlikka faqat qaysi vaqtda chiqadi? **Urchish vaqtida chiqadi.**

2651. Bo'ronqushlar qanday qush? **Monogam qush.**





2652. Bo'ronqushlar tuxum qo'yish uchun maxsus nima yasamaydi? **Uya yasamaydi.**

2653. Bo'ronqushlar bir dona tuxumini qayerga qo'yadi? **Ochiq yerga yoki toshlar orasiga qo'yadi.**

2654. Bo'ronqushlarning bolalari qanday bo'lganda dengizga uchib ketadi? **Uchirma bo'lganidan keyin dengizga uchib ketadi.**

2655. Bo'ronqushlarning nimalari iste'mol qilinadi? **Go'shti va tuxumi iste'mol qilinadi.**

2656. Bo'ronqushlarning nimasidan ham foydalaniladi? **Patidan ham foydalaniladi.**

2657. Bo'rsiq, qashqaldoq qaysi turkumning susarsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon? **Sut emizuvchilar turkumining susarsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon.**

2658. Bo'rsiq, qashqaldoq qaysi qit'alarda ko'p uchraydi? **Yevropa va Osiyoda ko'p uchraydi.**

2659. Bo'rsiq susarsimonlar oilasiga kirsa-da, tashqi ko'rinishi, oyoq va tirnoqlari, ba'zi belgilari va xulqi qaysi hayvonga o'xshaydi? **Yovvoyi cho'chqaga o'xshaydi.**

2660. Bo'rsiq barmoqlarini yerga bosmasdan qaysi a'zosida yuradi? **Tovonida yuradi.**

2661. Bo'rsiq yiliga necha marta, qaysi faslda tullaydi? **Bir marta, bahorda tullaydi.**

2662. Bo'rsiqning bo'yi necha sm cha? **90 sm cha.**

2663. Bo'rsiqning dumi necha sm gacha? **20 sm gacha.**

2664. Bo'rsiq qaysi fasllarda juftlashadi? **Bahor va yoz boshida juftlashadi.**

2665. Bo'rsiqning homiladorlik davri necha kun bo'ladi? **Bir yilcha, ba'zan 270 – 280 kun bo'ladi.**

2666. Bo'rsiqning urg'ochisi nechta tug'adi? **3 – 4 ta, ba'zan 6 tagacha tug'adi.**

2667. Bo'rsiqning bolasi necha yoshda voyaga yetadi? **Ikki yoshida voyaga yetadi.**

2668. Bo'rsiqning bolalari onasidan qaysi faslda ajralib, mustaqil yashay boshlaydi? **Kuzda ajralib, mustaqil yashay boshlaydi.**

2669. Bo'rsiqning terisi qaysi sanoatda, yog'i nima maqsadda ishlatiladi? **Ko'n sanoatida, yog'i mashina qismlarini moylashda va meditsinada ishlatiladi.**

2670. Bo'rsiqning junidan nima qilinadi? **Cho'tka qilinadi.**

2671. Bo'taloq – tuyaning necha yoshgacha bo'lgan bolasi? **Bir yoshgacha bo'lgan bolasi.**

2672. Bo'taloqlar umuman qanday tug'ilmaydi? **Egizak tug'ilmaydi, shu bois dastlab onasidan ajratilgan holda maxsus issiqxonalarda boqiladi.**

2673. Bo'taloq sutkasiga necha marta onasi yoniga olib chiqilib emizib turiladi? **6 – 8 marta onasi yoniga olib chiqilib emizib turiladi.**

2674. Bo'taloq necha yoshidan boshlab dastlab no'xta va jilovga, odamning talabi bilan yotib-turishga o'rgatiladi? **2 yoshdan boshlab dastlab no'xta va jilovga, odamning talabi bilan yotib-turishga o'rgatiladi.**

2675. Bo'taloq necha yoshdan boshlab ustiga qancha kg yuk ortishga o'rgatiladi? **3 yoshdan boshlab 60 – 80 kg yuk ortishga o'rgatiladi.**

2676. Bo'xchayasar qo'ng'izlar qanday mo'ylovli qo'ng'izlar? **Plastinka – mo'ylovli qo'ng'izlar.**

2677. Bo'xchayasar qo'ng'izlarning uzunligi necha mm? **20 – 40 mm.**

2678. Bo'xchayasar qo'ng'izlarning qaysi a'zolari tishli? **Oldingi oyoqlari panjasi va bosh qalqoni tishli.**

2679. Bo'xchayasar qo'ng'izlar qayerlarda tarqalgan? **O'rta dengiz havzasi, Janubiy Yevropa, G'arbiy va Markaziy Osiyoda tarqalgan.**

2680. Bo'xchayasar qo'ng'izlar orasida qaysi turi keng tarqalgan? **Avliyo skarabiy (S. sacer) turi keng tarqalgan.**

2681. Bo'xchayasar qo'ng'izlar orasida keng tarqalgan avliyo-ota skarabiy turining uzunligi necha mm? **21 – 37 mm.**

2682. Bo'xchayasar qo'ng'izlar tabiiy nimalar hisoblanadi? **Sanitarlar hisoblanadi.**

2683. Bo'shliq yoki halqum bo'kasi necha marta po'st tashlaydi? **2 marta po'st tashlaydi.**

2684. Bo'shliq yoki halqum bo'kasi qanday tug'adi? **Tirik tug'adi.**





2685. Bo'shliqlar yoki halqum bo'kalarning urg'ochilari uchib keta turib, lichinkalarini qaysi hayvonlarning qaeriga tashlaydi? **Ot, qo'y, echki va boshqa hayvonlarning burun bo'shlig'iga tashlaydi.**

2686. Bo'shliq yoki halqum bo'laklarining lichinkalari shilimshiq pardaga o'rnashib, yiring, qon yoki suyuqlik bilan necha oy ovqatlanadi? **3 – 11 oy ovqatlanadi.**

2687. Bo'shliqichlilar (gidralar, aktiniyalar, meduzalar)da zahar bezlari qanday hujayralar bilan bog'langan? **Otuvchi hujayralar bilan bog'langan.**

2688. Bo'shliqichlilar, kovakichlilar – tuban tuzilgan suvda yashovchi qanday hayvonlar tipi? **Umurtqasiz hayvonlar tipi.**

2689. Bo'shliqichlilar eng qadimiy ko'p hujayralilar bo'lib, qaysi davrdan ma'lum? **Vend davridan ma'lum.**

2690. Bo'shliqichlilarning ko'pchilik turlari dengizlarda qanday bo'lib yashaydi? **Yakka yoki koloniya bo'lib yashaydi.**

2691. Bo'shliqichlilarning tanasidagi entoderma oralig'ida hujayrasiz, quyuq modda nima bo'ladi? **Mezogliy bo'ladi.**

2692. Bo'shliqichlilar tanasi hujayralari to'la ixtisoslashganligi uchun nimalari rivojlanmagan? **To'qima va a'zolari rivojlanmagan.**

2693. Bo'shliqichlilar ektodermasidan hujayralarning asosiy qismi qaysi a'zolardan iborat? **Epiteliy-muskul, otuvchi va ixtisoslashmagan oraliq hujayralardan iborat.**

2694. Bo'shliqichlilar epiteliy – muskul hujayralari qanday funksiyalarni bajaradi? **Qoplash va harakatlanish funksiyalarini bajaradi.**

2695. Bo'shliqichlilardagi qanday hujayralar o'ljani falajlab ushlash va himoya vazifasini bajaradi, ularda qanday ipchalarga ega bo'lgan qanday kapsula shakllanadi? **Otuvchi, otiluvchi ipchalarga ega bo'lgan otuvchi kapsula shakllanadi.**

2696. Bo'shliqichlilarning tana bo'shlig'i qaysi a'zo teshigi orqali tashqariga ochiladi? **Og'iz teshigi orqali tashqariga ochiladi.**

2697. Bo'shliqichlilarning og'iz teshigi nimalar bilan o'ralgan? **Paypaslagichlar bilan o'ralgan.**

2698. Bo'shliqichlilarning og'iz teshigi orqali oziq moddalar qayerga o'tadi va hazm bo'lmagan oziq moddalar chiqib ketadi?

**Tana bo'shlig'iga o'tadi va hazm bo'lmagan oziq moddalar chiqib ketadi.**

2699. Bo'shliqichlilarning asab sistemasi qanday joylashgan? **Diffuz (tarqoq), tartibsiz joylashgan.**

2700. Bo'shliqichlilarning asab sistemasi nimalari orqali bir-biri bilan tutashib ketadigan asab hujayralaridan iborat? **O'simtalari orqali bir-biri bilan tutashib ketadigan asab hujayralaridan iborat.**

2701. Bo'shliqichlilarning meduzalarida soyaboni chetida nechta asab halqasi, sezgi a'zolari –yorug'lik sezuvchi ko'zchalar, muvozanat a'zolari (statotsistlar) va ropaliyalar (stsifomeduzalar) bo'ladi? **Ikkita asab halqasi, sezgi a'zolari – yorug'lik sezuvchi ko'zchalar, muvozanat a'zolari (statotsistlar) va ropaliyalar (stsifomeduzalar) bo'ladi.**

2702. Bo'shliqichlilar qanday ko'payadi? **Jinsiy va jinssiz ko'payadi.**

2703. Bo'shliqichlilarning ko'pchiligi qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

2704. Bo'shliqichlilarning qancha turi ma'lum? **9 mingdan ortiq turi ma'lum.**

2705. Bo'shliqichlilar qayerlarda uchraydi? **Barcha dengizlarda, ba'zi turlari (gidralar va ayrim meduzalar) chuchuk suvlarda uchraydi.**

2706. Bo'shliqichlilar nimalar bilan ovqatlanadi? **Yirtqich yoki plankton bilan ovqatlanadi.**

2707. Bo'shliqichlilarning ayrim turlari boshqa organizmlar uchun nima bo'ladi? **Ovqat bo'ladi.**

2708. Bo'shliqichlilarning qanday turlari ovqat uchun baliqlarga konkurentlik qilishi tufayli zararli hisoblanadi? **Yirtqich turlari ovqat uchun baliqlarga konkurentlik qilishi tufayli zararli hisoblanadi.**

2709. Bo'shliqichlilar orasida nimalar bilan simbioz yashovchilari ham bor? **Yashil xivchinlilar, turli yashil o'simliklar bilan simbioz yashovchilari ham bor.**

2710. Bo'shliqichlilarning koloniya bo'lib yashovchi korall poliplar orollar hosil qiladi va ko'pchilik dengiz hayvonlari uchun nima hisoblanadi? **Pana joy hisoblanadi.**





2711. Bo'shliqichlilarning korall poliplaridan nimalar uchun foydalaniladi? **Qurilish materiali va zeb-ziynat uchun foydalaniladi.**

2712. Bo'g'imdumlar qaysi hayvonlarning bir oilasi? **Kaltakesaklarning bir oilasi.**

2713. Bo'g'imdumlar nechta urug'dan iborat? **4 ta urug'dan iborat.**

2714. Bo'g'imdumlarning nechta turi bor? **24 ta turi bor.**

2715. Bo'g'imdumlar qaerlarda tarqalgan? **Janubiy va tropik Afrikada tarqalgan.**

2716. Bo'g'imdumlarning qaysi qismi hayvonlarga, qaysi qismi jonivorlarga o'xshaydi, lekin hamma qismi qaysi hayvonlardek yashaydi va qanday harakat qiladi? **Bir qismi asl kaltakesaklarga, bir qismi ilonlarga o'xshaydi, lekin hamma qismi kaltakesaklardek yashaydi va harakat qiladi.**

2717. Bo'g'imdumlarning oila vakili bo'g'imdum (Zomurus cordius) qaysi hayvonlarga o'xshaydi? **Agamalarga o'xshaydi.**

2718. Bo'g'imdumlarning rangi qanday? **O'zgaruvchan.**

2719. Bo'g'imdumlarning qaysi a'zolari sariq? **Boshi va oyoqlari sariq.**

2720. Bo'g'imdumlar qayerlarda yuradi? **Tog'larda, serqoya yerlarda qaltis yuradi.**

2721. Bo'g'imdumlar nimadan qoyalar orasiga yashirinadi? **Dushmandan qoyalar orasiga yashirinadi.**

2722. Bo'g'imdumlar tosh va g'adir-budur qirralarga yopishsa, butunligicha ajratib olish qanday (osonmi yoki qiyinmi)? **Qiyin.**

2723. Bo'g'imdumlar qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Turli umurtqasizlar, yiriklari esa mayda umurtqali jonivorlar bilan ovqatlanadi.**

2724. Bo'g'imdumlarning ko'p turlari qanday ko'payadi? **Tuxum qo'yib ko'payadi.**

2725. Bo'g'imdumlarning faqat qanday jonivor shakldagilari tirik tug'adi? **Ilon shakldagilari tirik tug'adi.**

2726. Bo'g'imoyoqlilarning barcha turi qanchadan oshadi? **2 mln dan oshadi.**

2727. Bo'g'imoyoqlilar qaysi hayvonlarning eng yuqori tuzilgan tipi? **Umurtqasiz hayvonlarning eng yuqori tuzilgan tipi.**

2728. Bo'g'imoyoqlilarning O'zbekistonda qancha turi bor? **100 mingga yaqin turi bor.**

2729. Bo'g'imoyoqlilar, asosan, qanday yo'l bilan ko'payadi? **Jinsiy yo'l bilan ko'payadi.**

2730. Bo'g'imoyoqlilar tipi nechta kenja tipga bo'linadi? Ular qaysilar? **Uchta kenja tipga bo'linadi. Ular: jabra bilan nafas oluvchilar, xelitseralilar va traxeyalilar kenja tipi.**

2731. Bo'g'imoyoqlilarning gavdasi qanday bo'lib, ikki yonida (simmetrik) bo'g'imli qaysi a'zolari bor? **Bo'g'im-bo'g'im bo'lib, oyoqlari yoki boshqa o'simtalari bor.**

2732. Bo'g'imoyoqlilarning maxsus qaysi a'zosi yo'q? **Nafas olish a'zosi yo'q.**

2733. Bo'g'imoyoqlilar qaysi a'zosi orqali nafas oladi? **Nozik xitin po'sti orqali nafas oladi.**

2734. Bo'g'imoyoqlilarning asab tizimi qaysi a'zolardan iborat? **Asab tizimi bosh miya hamda gavda bo'ylab tarqalgan narvonsimon yoki qorin asabidan iborat.**

2735. Bo'g'imoyoqlilarning asab sistemasi qaysi a'zo hamda gavda bo'ylab tarqalgan narvonsimon yoki qorin asabidan iborat? Bosh miya

2736. Bo'g'imoyoqlilarning yuragi qaysi a'zosi qismida joylashgan? **Elka qismida joylashgan.**

2737. Bo'g'imoyoqlilarning gavdasi ko'pincha qaysi a'zolar qismlaridan tuzilgan? **Bosh, ko'krak va qorin qismlaridan tuzilgan.**

2738. Bo'g'imoyoqlilarning qaysi a'zosi xitin bilan qoplangan bo'lib, tashqi skelet hosil qiladi? **Tanasi xitin bilan qoplangan bo'lib, tashqi skelet hosil qiladi.**

2739. Bo'g'imoyoqlilar o'sish davrida bir necha marta nima tashlaydi? **Po'st tashlaydi.**

2740. Bo'g'imoyoqlilarning ichki tuzilishi soddami yoki murakkab? **Murakkab.**

2741. Bo'g'imoyoqlilarning qaysi a'zolari yashash sharoitiga qarab turlicha? **Nafas a'zolari yashash sharoitiga qarab turlicha.**

2742. Bo'g'imoyoqlilarning qon aylanish tizimi tanasi qaysi qismida joylashgan, qanday a'zolardan iborat? **Yelka qismida joylashgan yurak va har tomonga tarqalgan arteriya yoki aortalardan iborat.**





2743. Bo'g'imoyoqlilarning suvda yashovchilari qaysi a'zo bilan, quruqlikdagilari qaysi a'zo bilan nafas oladi? **Jabra bilan, o'pka yoki traxeya bilan nafas oladi.**

2744. Bo'g'imoyoqlilarda qaysi a'zolar yaxshi rivojlanmagan? **Sezgi a'zolari – ko'rish, ta'm va hid bilish, eshitish va ovoz chiqarish a'zolari yaxshi rivojlanmagan.**

2745. Bo'g'imoyoqlilarning ovqat hazm qilish a'zosi qaysi a'zolardan iborat? **Oldingi, o'rta va orqa ichaklardan iborat.**

2746. Bo'g'imoyoqlarda zahar bezlari necha hujayrali, juft bo'ladi? **Ko'p hujayrali, juft bo'ladi.**

2747. Bo'g'imoyoqlilar (arilar, chayonlar)da zahar bezlari nimalar bilan bog'langan? **Nashtar yoki o'rgimchaklar bilan bog'langan.**

2748. Bo'g'ma ilonlar qaysi oilaga mansub ilonlarning kenja oilasi sanaladi? **Soxta oyoqlilar oilasining.**

2749. Bo'g'ma ilonlar hozirgi ilonlar orasida eng yiriklari shu oilaga kirib, uzunligi necha m dan necha m gacha? **0,5 m dan 11 m gacha.**

2750. Bo'g'ma ilonlarning nechta urug'i ma'lum? **16 ta urug'i ma'lum.**

2751. Bo'g'ma ilonlarning nechta turi ma'lum? **38 ta turi ma'lum.**

2752. Bo'g'ma ilonlar qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Amerika, Janubiy-G'arbiy va Shimoliy Amerika, Afrika, Madagaskar orollari, Markaziy va G'arbiy Osiyo, Malayya arxipelagida tarqalgan.**

2753. Bo'g'ma ilonlarning chiqaruv teshigi oldida tirnoq shaklidagi orqa qanday kamari qoldig'i bor? **Oyoq-chanoq kamari qoldig'i bor.**

2754. Bo'g'ma ilonlarning oshqozoniga tushgan ovqat necha kun davomida hazm bo'ladi? **3 – 4 kun davomida hazm bo'ladi.**

2755. Bo'g'ma ilon (asl)lar qaysi uruqqa kiradi? **Constrictor urug'iga kiradi.**

2756. Bo'g'ma ilon (asl)larning yagona turi oddiy bo'g'ma ilon, ya'ni uning nomi nima? **Boa.**

2757. Bo'g'ma ilonlarning nimalari ovqatga ishlatiladi? **Yog'i va go'shti ovqatga ishlatiladi.**

2758. Bo'g'ma ilonlarning qorin qalqonlari qornini to'la nima qilmaydi? **Qoplamaydi.**

2759. Bo'g'ma ilonlarning og'zi kattami yoki kichik? **Katta.**

2760. Bo'g'ma ilonlarning gavda muskullari zaifmi yoki baquvvat? **Baquvvat.**

2761. Bo'g'ma ilonlarning dumi uzunmi yoki qisqa? **Qisqa.**

2762. Bo'g'ma ilonlarning ba'zi urug'lari jag' oraliq suyagida ham qaysi a'zolari bo'ladi? Tishlari bo'ladi. **Bu oiladagi uruqqa kiradigan ilonlarning hammasi zaharsiz.**

2763. Bo'g'ma ilonlar qayerlardagi qalin, qorong'i, nam o'rmonlarda yashaydi? **Tropik o'rmonlar va daryo sohillaridagi qalin, qorong'i, nam o'rmonlarda yashaydi.**

2764. Bo'g'ma ilonlardan faqat sharq bo'g'ma iloni (Eryx Tatricus), qum bo'g'ma iloni (Eryx miliars) qanday iqlimli ochiq dasht-cho'llarda yashaydi? **Issiq iqlimli ochiq dasht-cho'llarda yashaydi.**

2765. Bo'g'ma ilonlarning ba'zi turlari qayerda yashashga moslashgan? **Suvda, masalan, anakonda.**

2766. Bo'g'ma ilonlar tungimi yoki kunduzgi hayvon? **Tungi hayvon.**

2767. Bo'g'ma ilonlarning o'pkasi nechta? **Ikkita.**

2768. Bo'g'ma ilonlarning gussasiga nisbatan kichkina va qorachig'i tik ko'zlari kechasimi yoki kunduzi ko'rishga yaxshi moslashgan? **Kechasi ko'rishga yaxshi moslashgan.**

2769. Bo'g'ma ilonlar o'ljasini poylab, nima bo'lib yotadi? **Kulcha bo'lib yotadi.**

2770. Bo'g'ma ilonlar yaqin-o'rtada o'lja borligini sezsa, darhol boshini ko'tarib, qaysi a'zosini kengaytiradi va unga tikilib, qaysi a'zosini tez-tez chiqaradi? **Ko'z qorachig'ini kengaytiradi va unga tikilib, tilini tez-tez chiqaradi.**

2771. Bo'g'ma ilonlar yo'lidagi narsalarni qaysi a'zosi bilan paypaslab, sekin o'rmalab boradi? **Tili bilan paypaslab, sekin o'rmalab boradi.**

2772. Bo'g'ma ilonlar o'ljasiga yaqinlashgach, hujumga tayyorlanib, qaysi a'zolarini sekin yig'ishtiradi va yana nima bo'lib oladi? **Dumi va tanasini sekin yig'ishtiradi va yana kulcha bo'lib oladi, so'ngra og'zini katta ochganicha unga tashlanib, tishlab oladi va bir-ikki halqa bo'lib o'raladi. Bu**





**hodisa shu qadar tez sodir bo'ladiki, hatto, uni diqqat bilan kuzatib turgan odam ham payqay olmaydi.**

2773. Bo'g'ma ilonlar o'ljasini nima qiladi, natijada, u bir pasda nima bo'ladi? **Mahkam bo'g'adi, natijada, u bir pasda o'ladi. Keyin asta-sekin bo'shatadi va tili bilan paypaslab, bosh tomonidan butunligicha yuta boshlaydi. Bu paytda ilonning og'zi katta ochilib, boshi tabiiy shaklini yo'qotadi.**

2774. Bo'g'ma ilonlarning ba'zi turlari qanday tug'adi? Tirik tug'adi.

2775. Bo'g'ma ilonlarning uzunligi necha sm keladigan qum bo'g'ma iloni kalamushlarni, ulkanlari kichik va cho'chqalarni yutadi? **70 – 80 sm keladigan qum bo'g'ma iloni kalamushlarni, ulkanlari kichik va cho'chqalarni yutadi.**

2776. Bo'g'ma ilonlarning suvda yashaydiganlari qaysi hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Baliqlar bilan ovqatlanadi.**

2777. Bo'g'ma ilonlarning quruqlikda yashovchilari qaysi hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Turli sut emizuvchilar, qushlar va reptiliyalar bilan ovqatlanadi.**

2778. Bo'g'ma ilonlarning terisi qayerlarda qo'llaniladi? **Jomadon, sumka va poyabzal tikishda qo'llaniladi.**

2779. Bo'g'ma ilonlarning nechta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **8 ta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

2780. Bo'g'ozlik – urg'ochi hayvon organizmida nimani olib yurish davridagi qanday holat? **Homilani olib yurish davridagi fiziologik holat.**

2781. Bo'g'ozlik necha homilali bo'lishi mumkin? **Bir homilali va ko'p homilali bo'lishi mumkin.**

2782. Bo'g'ozlikning kechishiga qarab qanday turlarga bo'linadi? **Fiziologik va patologik turlarga bo'linadi.**

2783. Bo'g'ozlikda bola qanday tuyuladi? **Qattiq va qo'zg'aluvchan tuyuladi.**

2784. Bo'g'ozlikda emchakda qandaysimon modda hosil bo'ladi? **Sirachsimon modda hosil bo'ladi.**

2785. Bo'g'ozlik qaysi hayvonlarda biqinini paypaslab va laboratoriyada qon, siydik, sut, junida serologik, biologik va kimyoviy o'zgarishi tekshirish asosida aniqlanadi? **Qo'y, echki, cho'chqa, it va boshq. mayda hayvonlar bo'g'ozligi biqini-**

ni paypaslab va laboratoriyada qon, siydik, sut, junida serologik, biologik va kimyoviy o'zgarishi tekshirish asosida aniqlanadi.**

2786. Bo'g'oz hayvonlarda qanday alomatlar yo'qoladi? **Siklik kuyukish alomatlari yo'qoladi.**

2787. Bo'g'ozlikning so'nggi davrida hayvon qanday o'zgaradi? **Ozib, qornining o'ng tomoni nomutanosib o'zgaradi.**

2788. Bo'g'ozlikning so'nggi davrida hayvon qaysi a'zolarining asosi ingichkalashadi? **Shoxlarining asosi ingichkalashadi.**

2789. Davriy bo'lmagan, ya'ni sporadik migratsiya qaysi hayvonlarning qanday ko'chishi? **O'troq yashovchi hayvonlar (olmaxonlar, lemminglar va boshq.) yashash muhitining yomonlashuvi (qurg'oqchilik, yong'in, toshqin va boshq.), individlar sonining oshib ketishi natijasida sodir bo'ladigan ommaviy ko'chish.**

2790. Davriy bo'lmagan hayvonlar migratsiyasi qanday bo'ladi? **Tartibsiz bo'ladi.**

2791. Davriy bo'lmagan hayvonlar migratsiyasi ko'p hollarda hayvonlarning nima bo'lib ketishiga olib keladi? **Qirilib ketishiga olib keladi.**

2792. Dala chumchug'i qaysi oilaga mansub qush? **Chumchuqsimonlar oilasiga mansub qush.**

2793. Dala chumchug'ining og'irligi qancha g? **20 – 25 g.**

2794. Dala chumchug'i boshqa chumchuqsimonlardan nimalari bilan farq qiladi? **Boshining ensa qismi qo'ng'ir,oq rangli chakkasida qoramtir dog'lari hamda qanotlarida ikkitadan oqish yo'li bo'lishi bilan farq qiladi.**

2795. Dala chumchug'i qayerning deyarli hamma joyida tarqalgan? **Yevrosiyoning deyarli hamma joyida tarqalgan.**

2796. Dala chumchug'i qayerlarga uya quradi? **Butalar orasiga, bog'lar va hiyobonlardagi daraxtlar tanasi yoki yerdagi yoriqlarga uya quradi.**

2797. Dala chumchug'i nechta qanday dog'li tuxum qo'yadi? **4 – 8 ta (odatda, (5 – 6 ta) oq yoki mayda qoramtir dog'li tuxum qo'yadi.**

2798. Dala chumchug'i qaysi hududlarda hasharotlar bilan ovqatlanib birmuncha foyda keltiradi? **Shimoliy hududlarda hasharotlar bilan ozvqatlanib birmuncha foyda keltiradi.**





2799. Dala sichqonlari qaysi oilaga mansub jonivor? **Kemiruvchilar oilasiga mansub jonivor.**

2800. Dala sichqonlarining tanasi uzunligi necha sm? **10 – 12 sm, ba'zi turlari 36 sm gacha.**

2801. Dala sichqonlarining qaysi tishlari doimo o'sib turadi? **Kurak va oziq tishlari doimo o'sib turadi.**

2802. Dala sichqonlari qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy yarim sharda barcha qit'alar va orollarda tarqalgan.**

2803. Dala sichqonlari yilning qaysi davrida faol hayot kechiradi? **Yil davomida faol hayot kechiradi.**

2804. Dala sichqonlarining ko'pchiligi qanday bo'lib yashaydi? **Koloniya bo'lib yashaydi.**

2805. Dala sichqonlarining nechta turi ma'lum? **43 ta turi ma'lum.**

2806. Dala sichqonlariga qaysi jonivorlar kiradi? **Lemminglar, ondatralar, ko'rsichqonlar, kulrang dala sichqonlari, suv sichqonlari va boshq. kiradi.**

2807. Dala sichqonlari, asosan, o'simliklarning qaysi qismi bilan ovqatlanadi? **Yer ustki qismi bilan ovqatlanadi.**

2808. Dala sichqonlarining qaysi turlari mo'ynasi uchun ovlanadi? **Ondatralar va suv sichqonlari ovlanadi.**

2809. Dala sustkashining tanasi uzunligi necha mm? **17 – 25 mm.**

2810. Dala sustkashi qanday rangda bo'ladi? **Qora rangda bo'ladi.**

2811. Dala sustkashi qayerlarda tarqalgan? **O'rta Osiyoning dasht zonalari, Rossiyaning Yevropa qismi, G'arbiy Sibirda tarqalgan.**

2812. Dala sustkashining qo'ng'izlari nima qilmaydi? **Uchmaydi.**

2813. Dala qandalasi qaysi ekinlarda uchraydigan zararkunanda? **G'o'za, kartoshka, tamaki, nasha va boshq. ekinlarda uchraydigan zararkunanda.**

2814. Dala qandalasining bo'yi necha mm? **3,5 – 4 mm.**

2815. Dala qandalasining tuxumi uzunligi necha mm? **1 mm.**

2816. Dala qandalasi mavsumda necha marta nasl beradi? **3 – 4 marta beradi.**

2854. Daryo gulmoyi balig'ining bo'yi necha sm? **35 – 45 sm.**

2855. Daryo gulmoyi balig'ining og'irligi qancha kg gacha? **1 kg gacha.**

2856. Daryo gulmoyi balig'i necha yoshda voyaga yetadi? **3 – 4 yoshda voyaga etadi.**

2857. Daryo delfinlarining ko'zlari nima? **Ojiz.**

2858. Daryo delfinlarining tishi qancha? **104 tadan 242 tagacha.**

2859. Daryo dreyssenalari qanday ko'payadi? **Juda tez ko'payadi.**

2860. Daryo dreyssenalarining soni 1 $m^2$ suv tubida nechtagacha? **10 mingtagacha.**

2861. Daryo dreyssenalarining biomassasi qancha kg gacha? **7 kg gacha.**

2862. Daryo qisqichbaqalarining nechta oilasi bor? **Uchta oilasi bor.**

2863. Daryo qisqichbaqalari necha oyoqli qisqichbaqalar turkumiga mansub hayvon? **O'n oyoqli qisqichbaqalar turkumiga mansub hayvon.**

2864. Daryo qisqichbaqalarining bo'yi necha sm? **6 – 30 sm.**

2865. Daryo qisqichbaqalarining ba'zilari necha sm gacha (Madagaskar daryo qisqichbaqasi)? **Ba'zilari 80 sm gacha.**

2866. Daryo qisqichbaqalari qorin qismining shakli qanday? **Yassi shaklda.**

2867. Daryo qisqichbaqalarining nechanchi juft oyog'i, ayniqsa, rivojlangan? **1-juft oyog'i, ayniqsa, rivojlangan.**

2868. Daryo qisqichbaqalari qaysi faslda nechta tuxum qo'yadi? **Kuzda 50 – 200 ta tuxum qo'yadi.**

2869. Daryo qisqichbaqalarining urg'ochisi tuxumlarini va yosh qisqichbaqalarini qayerlarida olib yuradi? **Qorin oyoqlarida olib yuradi.**

2870. Daryo qisqichbaqalari qaysi dengizlarda ko'plab ovlanadi? **Azov va Qora dengizlarda ko'plab ovlanadi.**

2871. Daryo qisqichbaqalarining bosh-ko'krak qismi qanday shaklda? **Silindrsimon shaklda.**

2872. Daryo qisqichbaqalarining oldingi necha juft oyog'ida qisqichlari bor? **3 juft oyog'ida qisqichlari bor.**





2873. Daryo qisqichbaqalari necha yilcha yashaydi? **25 yilcha yashaydi.**

2874. Dafniyalar, suv burgalari qisqichbaqasimonlarning qaysi turkumiga mansub? **Shoxdor mo'ylovlilar turkumiga mansub.**

2875. Dafniyalarning tanasi uzunligi necha mm? **1 – 3 mm.**

2876. Dafniyalarning tanasi necha pallali yupqa chig'anoq bilan qoplangan? **2 pallali yupqa chig'anoq bilan qoplangan.**

2877. Dafniyalarning nechta turi bor? **26 ta turi bor.**

2878. Dafniyalar, suv burgalari qaysi a'zolari orqali erkin harakat qiladi? **Orqa mo'ylovlari (antennalari) orqali erkin harakat qiladi.**

2879. Dafniyalar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

2880. Dafniyalarning gavdasi qaysi a'zolardan iborat? **Bosh, tana va qorindan iborat.**

2881. Dafniyalar qaysi faslda urug'langan tuxum qo'yadi, undan qaysi faslda yosh dafniyalar chiqadi? **Yozda, bahorda yosh dafniyalar chiqadi.**

2882. Dasht ot zotlari qaysilari? **Don, qo'stanay, kanada va boshqalar.**

2883. Dasht sustkashi qaysi oilaga mansub qo'ng'iz sanaladi? **Qora tanli qo'ng'izlar oilasiga mansub qo'ng'iz sanaladi.**

2884. Dasht sustkashining tanasi uzunligi necha mm? **17 – 25 mm.**

2885. Dasht sustkashining mo'ylovlari old ko'kragi asosiga nima qilmaydi? **Yetmaydi.**

2886. Dasht sustkashi qayerlarda tarqalgan? **O'rta Osiyoning dasht zonalari, Rossiyaning Yevropa qismi, G'arbiy Sibirda tarqalgan.**

2887. Dasht sustkashi yiliga qancha, qayerga tuxum qo'yadi? **500 ga yaqin, tuproqqa tuxum qo'yadi.**

2888. Dasht sustkashining tuxum qo'yishi qancha davom etadi? **Bahor va yoz bo'yi davom etadi.**

2889. Dasht sustkashining lichinkasi qaysi oyda g'umbakka aylanadi? **Avgust oyida (bu davr 2 – 3 hafta davom etadi) g'umbakka aylanadi.**

2890. Dasht sustkashining qo'ng'izlari nima qilmaydi? **Uchmaydi.**

2891. Dasht sustkashining qo'ng'izi qanday hidli suyuqlik ajratib, qanday yuradi? **Ko'lansa hidli suyuqlik ajratib, sekin sudralib yuradi.**

2892. Dasht sustkashining tug'ochilari o'simlik qoldiqlari orasida necha yilgacha yashab, nimalar bilan ovqatlanadi? **2 yilcha yashab, begona o'tlar bilan ovqatlanadi.**

2893. Devon davri oxiridan boshlab (mil. dan 400 – 345 mil. yil avv.) dastlab qayerda yashovchi umurtqalilar – suvda hamda quruqlikda yashovchilar rivojlangan? **Quruqlikda yashovchi.**

2894. Degeres qo'yi qayerdagi, qaysi ot zavodida, qaysi zotlar bilan chatishtirib yetishtirilgan? **Qozog'iston Respublikasining Olmaota viloyatidagi «Degeres» ot zavodida shropshir, perekos zotlari qo'chqorlarini dumbali jaydari sovliqlar bilan chatishtirib yetishtirilgan (akad. V. A. Balmont, T. B. Bokenbaev, M. A. Aletov, A. V. Chelodnov).**

2895. Degeres qo'yi nechanchi yildan zot tariqasida tasdiqlangan? **1980-yildan zot tariqasida tasdiqlangan.**

2896. Degeres qo'yining sergo'shtligi necha foiz? **92 – 120 foiz.**

2897. Degeres qo'chqorining og'irligi qancha kg? **90 – 110 kg (ayrimlari 135 kg).**

2898. Degeres sovlig'ining og'irligi qancha kg? **58 – 65 kg.**

2899. Degeres qo'chqorlaridan qancha kg jun qirqib olinadi? **6,5 – 7 kg jun qirqib olinadi.**

2900. Degeres sovlig'idan qancha kg jun qirqib olinadi? **3 – 3,5 kg jun qirqib olinadi.**

2901. Degeres qo'yidan necha foiz toza jun chiqadi? **58 – 65 foiz toza jun chiqadi.**

2902. Degeres qo'chqorining juni necha sm? **14 – 16 sm.**

2903. Degeres sovlig'ining juni necha sm? **9 – 11 sm.**

2904. Degeres qo'yi O'zbekistonga nechanchi yildan keltirilgan? **1959-yildan keltirilgan.**

2905. Dekorativ kaptarlar qaysi jihatalari bilan ajralib turadi? **Ajib qiyofasi va patining juda chiroyli bo'lishi (buqoq, yakbin, tovus kaptar) yoki o'ziga xos uchishi (turmanlar, baliqchi qorasimon zotlar) bilan ajralib turadi.**

2906. Delfinlar qaysi oilaga mansub sut emizuvchilarning kenja oilasi? **Kitlar turkumining delfinlar oilasiga mansub sut emizuvchilarning kenja oilasi.**





2907. Delfinlar kenja oilasining nechta turi birlashtirilgan, nechta urug'i bor? **48 ta turni birlashtirgan, 20 ta urug'i bor.**

2908. Delfinlar qanday chastotali tebranishlarni idrok eta (seza) oladi? **150 – 196 kgts gacha bo'lgan tebranishlarni seza oladi.**

2909. Delfinlarning homiladorlik davri necha oy? **10 – 12 oy.**

2910. Delfinlarning markaziy asab sistemasi qanday rivojlangan? **Juda yaxshi rivojlangan.**

2911. Delfinlar nechta bola tug'adi? **1 ta bola tug'adi.**

2912. Delfinlarni onasi necha oy emizadi? **4 – 6 oy emizadi.**

2913. Delfinlar necha yil yashaydi? **30 – 50 yil yashaydi.**

2914. Delfinlarning nechta turi Qora dengizda uchraydi? **3 ta turi uchraydi.**

2915. Delfinlar soatiga necha km tezlikkacha suza oladi? **55 km/soat tezlikkacha (kosatka) suza oladi.**

2916. Delfinlar necha yilda balog'atga etadi? **3 – 5 yilda balog'atga etadi.**

2917. Delfinlarning yirigi necha yil yashaydi? **50 yil yashaydi.**

2918. Delfinlarning maydalari necha yil yashaydi? **30 yil yashaydi.**

2919. Delfinlar nimaga taqlid qila oladi? **Ovozga taqlid qila oladi.**

2920. Delfinlar nimaga oson o'rganadi? **Qo'lga oson o'rganadi.**

2921. Delfinsimonlarning nechta turni birlashtirgan, nechta urug'i bor? **50 ta turni birlashtirgan, 22 ta urug'i bor.**

2922. Delfinsimonlarning beluxalar kenja oilasi nechta uruqqa bo'linadi? **2 ta uruqqa bo'linadi.**

2923. Delfinsimonlarning nomlari nima? **Belxular va norvallar.**

2924. Delfinsimonlar qaysi sinfning tishli kitlar kenja turkumiga mansub oila? **Sut emizuvchilar sinfining kenja turkumiga mansub oila.**

2925. Delfinsimonlarning bo'yi necha m gacha? **1,2 – 3 m, ba'zilari 10 m gacha.**

2926. Delfinsimonlarning tomog'ida uzunasiga ketgan nima yo'q? **Burmalar yo'q.**

2927. Dengiz arslonlari qaysi oilaga mansub 4 ta urug'ning umumiy nomi? **Quloqli tyulenlar oilasiga mansub 4 ta urug'ning umumiy nomi.**

2928. Dengiz arslonlarining erkagi kichikroqmi yoki urg'ochisi? **Urg'ochisi kichikroq.**

2929. Dengiz arslonlari qaysi jonivor bilan ovqatlanadi? **Baliq bilan ovqatlanadi.**

2930. Dengiz arslonlari nimalari uchun ovlanadi? **Yog'i va terisi uchun ovlanadi.**

2931. Dengiz arslonlari qo'lga tez o'rganadi yoki sekin? Tez o'rganadi

2932. Dengiz arslonlarining Otaria byronia turi qaerlarda tarqalgan? **Janubiy Amerika va Subantarktidadagi ba'zi orollarda, masalan, Folklendda tarqalgan.**

2933. Dengiz arslonlari qaysi faslda bolalaydi? **Yoz faslida bolalaydi.**

2934. Dengiz arslonlarining tanasi uzunligi necha sm? **200 – 250 sm.**

2935. Dengiz arslonlarining og'irligi qancha kg? **200 – 300 kg.**

2936. Dengiz arslonlari nechta kenja turga bo'linadi? Ular qaysilar? **3 ta turga bo'linadi. Z. c. californicus AQShning Tinch okeani sohillarida, Z. c. wollebaecki Galapagos orollari yaqinida, Z. c. japonicus – Yaponiya dengiz arslonlari Uzoq Sharqda tarqalgan.**

2937. Dengiz arslonlarining nechta urug'i Janubiy yarim sharda da uchraydi? Ular qaysilar? **3 ta urug'i Janubiy yarim sharda uchraydi. Avstraliya dengiz arslonlari – (Neophoca urug'i) Avstraliya sohillarida, Yangi Zelandiya dengiz arslonlari – Ph. Hookeri (Z. hocoretos urug'i) Yangi Zelandiya sohillarida; Janubiy dengiz arslonlari – O. byronia (Otaria urug'i) Janubiy Amerika va Antarktida sohillarida yashaydi.**

2938. Dengiz yong'oqlarining qancha turi ma'lum? **240 tacha turi ma'lum.**

2939. Dengiz yong'oqlari tuban qisqichbaqasimonlarning qaysi turkumiga mansub hayvon? **Mo'ylov oyoqlilar turkumiga mansub hayvon.**

2940. Dengiz yong'oqlari dengiz tubidagi nimalarga yopishib yashaydi va ko'pincha nimalarning harakatini sekinlashtirib





qo'yadi? **Har xil hayvonlarga, toshlarga, kemalar ostiga yopishib yashaydi va ko'pincha kemalarning harakatini sekinlashtirib qo'yadi.**

2941. Dengiz yong'oqlari chig'anog'ining bo'yi necha sm cha? **20 sm cha.**

2942. Dengiz yong'oqlarida qanday shaklga o'xshash ohakli chig'anoq joylashgan? **Kesilgan konusga o'xshash ohakli chig'anoq joylashgan.**

2943. Dengiz yong'oqlari qaysi dengizlardan boshqa hamma dengizlarda uchraydi? **Kaspiy va Orol dengizlaridan boshqa hamma dengizlarda uchraydi.**

2944. Dengiz ilonlari qayerlarda uchraydi? **Hind va Tinch okeanlarining tropik qismlarida uchraydi.**

2945. Dengiz ilonlarining zahari qanday? **Juda o'tkir, odamni o'ldiradi.**

2946. Dengiz ilonlari qaysi oilaga mansub gazanda? **Sudralib yuruvchilar oilasiga mansub gazanda.**

2947. Dengiz ilonlarining zaharli tishlari mayda bo'lib, qayerda joylashgan? **Yuqori jag' suyaklarining oldida joylashgan.**

2948. Dengiz ilonlarining tanasi uzunligi necha m gacha? **2,75 m gacha.**

2949. Dengiz ilonlarining qaysi a'zosi kichik bo'lib, yirik qalqonlar bilan qoplangan? **Boshi kichik bo'lib, yirik qalqonlar bilan qoplangan.**

2950. Dengiz ilonlarining ko'z qorachig'i qanday shaklda? **Dumaloq shaklda.**

2951. Dengiz ilonlarining burun teshiklari nimali bo'lib, sho'ng'iganda burniga suv kirmaydi? **Qopqoqli bo'lib, sho'ng'iganda burniga suv kirmaydi.**

2952. Dengiz ilonlarining nechta urug'i, qancha turi ma'lum? **16 ta urug'i, 50 ga yaqin turi ma'lum.**

2953. Dengiz ilonlari tuxum tug'adimi yoki tirik? **Tirik tug'adi.**

2954. Dengiz ilonlari qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baliqlar, boshoyoqli mollyuskalar va qisqichbaqalar bilan ovqatlanadi.**

2955. Dengiz ilonlarining tipik vakillaridan biri qayer atrofidagi dengizlarda yashaydigan necha rangli pelamida (Pelamis

platurus)dir? **Amerika atrofidagi dengizlarda yashaydigan ikki rangli pelamida (Pelamis platurus)dir.**

2956. Dengiz kaltakesagining nechta urg'ochisi va nechta erkagi urchish davrida dengiz sohiliga chiqadi? **3 – 4 ta urg'ochisi va 1 ta erkagi dengiz sohiliga chiqadi.**

2957. Dengiz kaltakesagi qaysi orollarda yashaydi? **Faqat Galapagos orollarida yashaydi.**

2958. Dengiz kaltakesagi ko'p vaqtini qayerda o'tkazadi? **Suvda o'tkazadi.**

2959. Dengiz kaltakesagi nima bilan ovqatlanadi? **Suv o'simliklari bilan ovqatlanadi.**

2960. Dengiz kaltakesagi qaysi oilaga mansub hayvon? **Iguanasimonlar oilasiga mansub.**

2961. Dengiz kaltakesagining voyaga etgan erkagining bo'yi necha sm? **135 sm.**

2962. Dengiz kaltakesagining erkagi ancha kichikmi yoki urg'ochisi? **Urg'ochisi ancha kichik.**

2963. Dengiz kaltakesagi boshining usti ko'p burchakli nimalar bilan qoplangan? **Qalqonlar bilan qoplangan.**

2964. Dengiz kaltakesagining tumshug'i qanday? **Tumtoq.**

2965. Dengiz kaltakesagining gavdasi qanday? **Katta.**

2966. Dengiz kaltakesagining dumi qanday shaklda? **Eshkaksimon shaklda.**

2967. Dengiz kaltakesagining barmoqlari orasida qanday suzgich parda bo'ladi? **Qisqa suzgich parda bo'ladi.**

2968. Dengiz kaltakesagi qanday hayvon? **Poligam hayvon.**

2969. Dengiz kaltakesagi suvda qanday suza oladi? **Yengil va tez suza oladi.**

2970. Dengiz ko'p qilli chuvalchanglarining qaysi a'zosi tog'ayli skeletdan tuzilgan? **Jabrasi tog'ayli skeletdan tuzilgan.**

2971. Dengiz mushugining ikkita kichkina qanday a'zosi bor? **Quloq suprasi bor.**

2972. Dengiz mushugining nechta turi bor? **Bitta turi bor.**

2973. Dengiz mushugi qaysi dengizlarda yashaydi? **Oxota va Bering dengizlarida yashaydi.**

2974. Dengiz mushugi qayerlarda uchraydi? **Tinch okeanning shimoliy qismida: Janubiy Saxalin, Kamchatkaning**





**sharqiy sohili, Kuril va Komandor orollari yaqinidagi suvlarda uchraydi.**

2975. Dengiz mushugi turiga kiradigan tyulenlar ikki urug'ining umumiy nomi nima? **Quloqli – Shimoliy dengiz mushugi (Callorhinus) urug'iga mansub yagona shimol dengiz mushugi (C. ursinus).**

2976. Dengiz mushugining yotoq joylari qaysi orollar? **Komandor orollari.**

2977. Dengiz mushugi qishda qaerda yashaydi? **Suvda yashaydi.**

2978. Dengiz mushugining bitta erkagi nechta urg'ochisini urug'lantiradi? **250 ta urg'ochisini urug'lantiradi.**

2979. Dengiz mushugining erkagi og'irligi qancha kg? **220 – 270 kg.**

2980. Dengiz mushugining urg'ochisi og'irligi qancha kg? **50 kg.**

2981. Dengiz mushugining erkagi tanasi uzunligi necha m gacha? **2 m gacha.**

2982. Dengiz mushugining urg'ochisi tanasi uzunligi necha m? **1,35 m.**

2983. Dengiz mushugining ikkita kichkina qaysi a'zosi bor? **Quloq suprasi bor.**

2984. Dengiz mushugi yozda qayerga chiqadi? **Quruqlikka chiqadi.**

2985. Dengiz mushugi qaysi faslda tullaydi? **Yozda tullaydi.**

2986. Dengiz mushugining erkagi necha yoshda voyaga yetadi? **Uch yoshda voyaga yetadi.**

2987. Dengiz mushugining urg'ochisi necha yoshda voyaga yetadi? **Ikki yoshda voyaga yetadi.**

2988. Dengiz mushugining homiladorlik davri necha yilcha? **1 yilcha.**

2989. Dengiz mushugi nechta bola tug'adi? **Bitta bola tug'adi.**

2990. Dengiz mo'ndilari dengizda yashovchi qanday hayvonlar, igna tanlilar tipining bir sinfi? **Umurtqasiz hayvonlar, igna tanlilar tipining bir sinfi.**

2991. Dengiz nilufarlari qanday hayvonlar? **Umurtqasiz hayvonlar.**

2992. Dengiz nilufarlari qaysi tipning bir sinfi? **Igna tanlilar tipining bir sinfi.**

2993. Dengiz nilufarlarining ko'rinishi nimaga o'xshaydi? **Gulga o'xshaydi.**

2994. Dengiz nilufarlarining nechta turi ma'lum? **500 ta turi ma'lum.**

2995. Dengiz nilufarlarining qancha qazilma turi bor? **1500 ga yaqin qazilma turi bor.**

2996. Dengiz nilufarlari qazilma turlarining bo'yi necha m ga yetgan? **21 m ga yetgan.**

2997. Dengiz ildizining oq piyozli xilidagi stsilaren glyukozid moddasi nima tayyorlashda ishlatiladi? **Dori tayyorlashda ishlatiladi.**

2998. Dengiz otchalari, dengiz toychalari – nina baliqlar oilasining bir necha urug'i bo'lib, uzunligi qancha sm? **4 – 20 sm.**

2999. Dengiz otchalari erkagi dumining qaysi tomonida chiqarish kamerasi (xaltasi) bor? **Keyingi tomonida chiqarish kamerasi (xaltasi) bor.**

3000. Dengiz otchalarining urg'ochilari chiqarish kamerasi (xaltasi)ga nima qo'yadi? **Tuxum qo'yadi.**

3001. Dengiz otchalarining qancha turi bor? **30 ga yaqin turi bor.**

3002. Dengiz otchalari qaysi faslda tuxum qo'yadi? **Bahorda tuxum qo'yadi.**

3003. Dengiz otchalarining erkagi xaltasida nechtadan nechtagacha tuxum olib yuradi? **100 dan 200 tagacha tuxum olib yuradi.**

3004. Dengiz otchalari qayerda yashaydi? **Suv osti o'simliklari orasida yashaydi.**

3005. Dengiz otchalari qanday xususiyatga ega? **Atrof muhit rangiga moslanish-niqoblanish xususiyatiga ega.**

3006. Dengiz sigiri qaysi orollar atrofida yashagan? **Komandor orollari atrofida yashagan.**

3007. Dengiz sigiri qaysi turkumga mansub qirilib bitgan dengiz hayvoni? **Sirenlar turkumiga mansub qirilib bitgan dengiz hayvoni.**

3008. Dengiz sigiri jag'ida nechta tishi bo'lgan? **Bitta ham tishi bo'lmagan.**

3009. Dengiz sigirining bo'yi necha m bo'ladi? **9 m.**

3010. Dengiz sigirining og'irligi qancha t bo'lgan? **3,5 t bo'lgan.**





3011. Dengiz sigiri gavdasining oxirida qanday suzgich qanoti bo'lgan? **Gorizontal suzgich qanoti bo'lgan.**

3012. Dengiz sigiri nimasi uchun ovlanganidan qirilib ketgan? **Go'shti, yog'i va terisi uchun ovlanganidan qirilib ketgan.**

3013. Dengiz sigirining so'nggisi nechanchi yilda o'ldirilgan? **1767-yilda o'ldirilgan.**

3014. Dengiz sipunkulidalari qaysi jonivorlarning tipi yoki sinfi? **Dengiz chuvalchanglari tipi yoki sinfi.**

3015. Dengiz sipunkulidalarining qancha turi ma'lum? **250 ga yaqin turi ma'lum.**

3016. Dengiz sipunkulidalari tuzilishi jihatdan qaysi jonivorlarga yaqin? **Halqali chuvalchanglarga yaqin.**

3017. Dengiz tipratikanlarining nimasi ba'zi mamlakatlarda eyiladi? **Uvildirig'i (ikrasi) ba'zi mamlakatlarda eyiladi.**

3018. Dengiz tipratikanlarining nechta qazilma turi bor? **2000 tacha qazilma turi bor.**

3019. Dengiz tipratikanlarining hozir nechtacha turi keng tarqalgan? **800 tacha turi keng tarqalgan.**

3020. Dengiz tipratikanlarining ko'pgina turlari qaysi dengizlarda uchraydi? **Uzoq Sharq dengizlarida uchraydi.**

3021. Dengiz tipratikanlari – dengizda yashaydigan umurtqasiz hayvonlar, igna tanlilar tipining bir nimasi? **Sinfi.**

3022. Dengiz tipratikanining tanasi diametri necha sm gacha? **30 sm gacha.**

3023. Dengiz tipratikanlarining tanasi qanday shakllarda? **Sharsimon, konussimon, tuxumsimon, yuraksimon shakllarda.**

3024. Dengiz tipratikanlari nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklar, turli mayda jonivorlar bilan ovqatlanadi.**

3025. Dengiz tipratikanlari, suvda va quruqlikda yashovchilar uvildirig'i nima ob'ekti? **Klassik tadqiqot ob'ekti.**

3026. Dengiz toshbaqalari sudralib yuruvchilarning bir nimasi? **Oilasi.**

3027. Dengiz toshbaqalari nechta oilaga bo'linadi? **Ikki oilaga bo'linadi.**

3028. Dengiz toshbaqalari oilasining nomlari nima? **1) terili toshbaqalar (dermochelodae); 2) asil dengiz toshbaqalari (cheloniidae).**

3029. Dengiz toshbaqalari – toshbaqalar oilasi bo'lib, suyri shakldagi kosasi nimalar bilan qoplangan? **Muguz qalqonlar bilan qoplangan.**

3030. Dengiz toshbaqalarining qaysi a'zolari kosasi ostiga to'liq joylashmaydi? **Boshi va kalta bo'yni kosasi ostiga to'liq joylashmaydi.**

3031. Dengiz toshbaqalarining qaysi a'zolari kosacha ichkarisiga tortilmaydi? **Oyoqlari kosacha ichkarisiga tortilmaydi.**

3032. Dengiz toshbaqalarining qaysi a'zolari suzgich kurakka aylangan? **Oyoqlari suzgich kurakka aylangan.**

3033. Dengiz toshbaqalarining eshkaksimon oldingi oyoqlari orqa oyoqlaridan uzunroqmi yoki kaltaroqmi? **Uzunroq.**

3034. Dengiz toshbaqalarining oldingi oyoqlarimi yoki orqangi 1 – 2 tirnoqli? **Oldingi oyoqlari 1 – 2 tirnoqli.**

3035. Dengiz toshbaqalarining oldingi oyoqlari qanday vazifani bajaradi? **Harakatlanish vazifasini bajaradi.**

3036. Dengiz toshbaqalari qanday suzadi, sho'ng'iydi? **Tez suzadi, chuqur sho'ng'iydi.**

3037. Dengiz toshbaqalarining nechta turi, urug'i tropik va subtropik dengizlarda tarqalgan? **6 ta turi, 4 ta urug'i tropik va subtropik dengizlarda tarqalgan.**

3038. Dengiz toshbaqalarining urg'ochisi nima uchun quruqlikka chiqadi? **Faqat tuxum qo'yish uchun quruqlikka chiqadi.**

3039. Dengiz toshbaqalari nechta va qanday tuxum qo'yadi? **200 va undan ko'proq terisimon po'stli tuxum qo'yadi.**

3040. Dengiz toshbaqalarining tanasi uzunligi necha sm dan necha m gacha? **80 sm dan 1,4 m gacha.**

3041. Dengiz toshbaqalarining eng yirik yashil, ya'ni sho'rvalik toshbaqa (Chelonia medas)ning uzunligi necha m? **1,4 m.**

3042. Dengiz toshbaqalarining eng yirik yashil, ya'ni sho'rvalik toshbaqa (C helonia medas)ning og'irligi qancha kg gacha? **600 kg gacha.**

3043. Dengiz toshbaqalari nimalari uchun ovlanadi? **Go'shti, tuxumi, kosasi uchun ovlanadi.**

3044. Dengiz toshbaqalaridan terili toshbaqa kosasi necha m gacha? **2 m gacha.**





3045. Dengiz toshbaqalari nimalarni qidirib yuzlab va minglab km yo'l bosadi? **Ovqat va ko'payish joyini qidirib yuzlab va minglab km yo'l bosadi.**

3046. Dengiz toshbaqalari nimalar bilan ovqatlanadi? **Mollyuska, baliq va suv o'tlari bilan ovqatlanadi.**

3047. Dengiz toshbaqalarining qaysi turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **Barcha turlari Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

3048. Dengiz toshbaqalari va sut emizuvchilarning okeanlarda, tuyoqli, yirtqich va kemiruvchi sut emizuvchilarning quruqlikda, ko'pchilik qushlar, ko'rshapalaklar va hasharotlarning havo orqali migratsiyasini qanday migratsiya deyish mumkin? **Davriy migratsiya deyish mumkin.**

3049. Dengiz toshbaqalariga qaysi jonivorlarni ham kiritishadi? **Bissani, ba'zan terili toshbaqa (Dermochelus)ni ham kiritishadi.**

3050. Dengiz toychasi balig'i erkagining dumi ostida maxsus nimasi bor? **Xaltachasi bor.**

3051. Dengiz toychasi balig'i erkagining dumi ostidagi maxsus xaltachaga urg'ochisi nima qo'yadi? **Urg'ochisi tuxum qo'yadi.**

3052. Dengiz fili – tyulenlar oilasi urug'i bo'lib, nechta turi ma'lum? **2 ta turi ma'lum.**

3053. Dengiz fili [(janubiy)(M. leonina) – eng yirik kurakoyoqlilardan bo'lib, tanasi uzunligi necha m gacha? **6,5 m gacha.**

3054. Dengiz fili [(janubiy)(M. leonina) – eng yirik kurakoyoqlilardan bo'lib, og'irligi qancha t gacha? **3,5 t gacha.**

3055. Dengiz fili erkagi tumshug'ining uchidagi teri xaltasining uzunligi necha sm gacha? **80 sm gacha.**

3056. Dengiz filining poligam to'dasida nechtagacha urg'ochisi bo'ladi? **20 tagacha urg'ochisi bo'ladi.**

3057. Dengiz filining homiladorlik davri necha oycha? **10 oycha.**

3058. Dengiz fili nechta bola tug'adi? **Bitta, ba'zan ikkita bola tug'adi.**

3059. Dengiz fili bolasini qayerda, necha oy emizadi? **Quruqlikda, ikki oy emizadi.**

3060. Dengiz fili qaerda tullaydi va urchiydi? **Quruqlikda tullaydi va urchiydi.**

3061. Dengiz fili qaysi orollargacha bo'lgan yerlarda uchraydi? **Janubiy Alyaskadan to Janubiy Kaliforniya va Galapagos orollarigacha bo'lgan yerlarda uchraydi.**

3062. Dengiz cho'rtanlari (Sphyraena) qaysi turkumga mansub baliqlar oilasi? **Kefalsimonlar turkumiga mansub baliqlar oilasi.**

3063. Dengiz cho'rtanları ba'zi turlarining uzunligi necha m ga yetadi? **3 m ga yetadi.**

3064. Dengiz cho'rtanlarining gavdasi qaysi baliqqa o'xshash xipcha? **Cho'rtan baliqqa o'xshash xipcha.**

3065. Dengiz cho'rtanlarining og'zi kattami yoki kichik? **Katta.**

3066. Dengiz cho'rtanlarning qanday tishlari bor? **Yirik va o'tkir tishlari bor.**

3067. Dengiz cho'rtanlari, asosan, qaysi hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

3068. Dengiz cho'rtanlarining ikki turi qaysi dengizlarda yashaydi? **Yapon va Qora dengizlarida yashaydi.**

3069. Dengiz cho'chqalari qaysi oilaning bir urug'i? **Cho'chqalar oilasining bir urug'i.**

3070. Dengiz cho'chqalarining tanasi uzunligi necha sm gacha? **35 sm gacha.**

3071. Dengiz cho'chqalarining orqa oyoq panjasi necha barmoqli? **Uch barmoqli.**

3072. Dengiz cho'chqalarining qancha turi bor? **5 – 6 turi bor.**

3073. Dengiz cho'chqalari qaysi faslda urchiydi? **Yozda urchiydi.**

3074. Dengiz cho'chqalarining homiladorlik davri necha oy? **9 – 10 oy.**

3075. Dengiz cho'chqalari nechta bola tug'adi? **1 – 4 ta bola tug'adi.**

3076. Dengiz cho'chqalari necha yil yashaydi? **8 yil yashaydi.**

3077. Dengiz cho'chqalari urg'ochisi necha oydan keyin yana erkagi bilan qo'shiladi? **2 – 3 oydan keyin yana erkagi bilan qo'shiladi.**

3078. Dengiz yulduzlari (Asteroidea) dengizda yashaydigan qanday hayvonlar, hozirgi zamon igna tanlilar tipining bir sinfi? **Umurtqasiz hayvonlar, hozirgi zamon igna tanlilar tipining bir sinfi.**





3079. Dengiz yulduzlari tanasi orqa tomonining markazidan chiqqan nimani eslatadi? **«Qo'llar» yoki nurlar yulduzni eslatadi.**

3080. Dengiz yulduzlarining diametri necha sm? **5 – 50 sm.**

3081. Dengiz yulduzlari suv tubida qaysi a'zolari bilan harakatlanadi? **Ambulakral oyoqlari bilan harakatlanadi.**

3082. Dengiz yulduzlarining qaysi a'zolari deyarli hamma vaqt tananing turli qismida joylashadi? **Og'iz va anal teshigi deyarli hamma vaqt tananing turli qismida joylashadi.**

3083. Dengiz yulduzlarining tuxumidan qanday lichinkalar chiqadi? **Erkin suzib yuruvchi lichinkalar chiqadi.**

3084. Dengiz yulduzlari qanday hayvonlar va qanday moddalar bilan ovqatlanadi? **Suv osti umurtqasiz hayvonlar va organik moddalar bilan ovqatlanadi.**

3085. Dengiz yulduzlarining qancha turi ma'lum? **1500 turi ma'lum.**

3086. Dengiz o'rgimchaklari (Pantopoda) dengizda yashovchi qanday hayvonlar? **Umurtqasiz hayvonlar.**

3087. Dengiz o'rgimchaklari bo'g'im oyoqlilar tipining bir nimasi? **Sinfi.**

3088. Dengiz o'rgimchaklari qayerda yashaydi? **Dengiz tubida yashaydi.**

3089. Dengiz o'rgimchaklari ko'rinishi nimaga o'xshaydi? **O'rgimchakka o'xshaydi.**

3090. Dengiz o'rgimchaklarining tanasi uzunligi necha mm dan necha sm gacha? **1,5 mm dan 5 sm gacha.**

3091. Dengiz o'rgimchaklari oyoqlarini cho'zganda uzunligi necha sm ga yetadi? **50 sm ga yetadi.**

3092. Dengiz o'rgimchaklari tanasi necha bo'lakdan iborat? Ular qaysilar? **Uch bo'lakdan iborat. Ular: kattagina xartum, bo'g'imli tana va bo'g'imsiz dumdan iborat.**

3093. Dengiz o'rgimchaklarining oyoqlari necha juft? **7 – 9 juft.**

3094. Dengiz o'rgimchaklarining oldingi necha juft oyoqlari ovqat tutadi va sezadi? **Uch juft oyoqlari ovqat tutadi va sezadi.**

3095. Dengiz o'rgimchaklarining qolgan 4 – 6 juft oyoqlari qanday vazifani o'taydi? **Yurish vazifasini o'taydi.**

3096. Dengiz o'rgimchaklarining nechta turi ma'lum? **350 ta turi ma'lum.**

3097. Dengiz o'rdakchalari (Lepas) qanday hayvonlar urug'iga mansub? **Umurtqasiz hayvonlar urug'iga mansub.**

3098. Dengiz o'rdakchalari qanday oyoqli qisqichbaqasimonlar turkumiga mansub hayvon? **Mo'ylov oyoqli qisqichbaqasimonlar turkumiga mansub hayvon.**

3099. Dengiz o'rdakchalarining tanasi uzunligi necha sm gacha? **5 sm gacha.**

3100. Dengiz o'rdakchalarining tanasi o'zaro tutashgan ohak plastinkali nechta chig'anoq bilan qoplangan? **5 ta chig'anoq bilan qoplangan.**

3101. Dengiz o'rdakchalarining qorin qismidagi torgina tirqishidan necha juft ikki shoxli mo'ylov oyoqchalari chiqib turadi? **6 juft ikki shoxli mo'ylov oyoqchalari chiqib turadi.**

3102. Dengiz o'rdakchalari mo'ylov oyoqchalari yordamida nima qiladi? **Mayda plankton organizmlarni tutib yeydi.**

3103. Dengiz qaldirg'ochlari qaysi turkumga mansub qushlar? **Baliqchilar turkumiga mansub qushlar.**

3104. Dengiz qoploni qayerlarda uchraydi? **Avstraliya va unga yaqin orollarda, Potoganiyada, Janubiy Muz okeanida, Folklend orollarida uchraydi.**

3105. Dengiz qoploni qayerlarda yashaydi? **Yangi Zelandiya, Antarktida sohillarida yashaydi.**

3106. Dengiz qoploni (Hudrurga leptonix) qaysi turkumning asl tyulenlar oilasiga mansub hayvon? **Kurakoyoqlilar turkumining asl tyulenlar oilasiga mansub hayvon.**

3107. Dengiz qoplonining tanasi usti qanday va nima bilan qoplangan? **Kalta va yaltiroq kumushrang jun bilan qoplangan.**

3108. Dengiz qoplonining urug'i nechta turdan iborat? **Faqat bitta turdan iborat.**

3109. Dengiz qoploni erkagining bo'yi necha m? **3,5 m.**

3110. Dengiz qoplonining og'irligi qancha kg gacha? **400 kg gacha.**

3111. Dengiz qoploni kurakoyoqlilar orasida qaysi jonivorlarga hujum qiladigan yagona tur hisoblanadi? **Suv qushlari va tyulenlarga hujum qiladigan yagona tur hisoblanadi.**

3112. Dengiz qoplonining soni qancha? **800 mingga yaqin.**





3113. Dengiz qoploni nima qilinmaydi? **Ovlanmaydi.**

3114. Dengiz qunduzi, kalan, kamchatka bobrlari qaysi orollarda keng tarqalgan? **Kuril, Yaponiya, Saxalin, Komandor, Aleut orollarida keng tarqalgan.**

3115. Dengiz qunduzi, kalan, kamchatka bo'brlari qaysi oilaga mansub sut emizuvchi? **Susarlar oilasiga mansub sut emizuvchi.**

3116. Dengiz qunduzi, kalan, kamchatka bobrining homiladorlik davri necha hafta? **8 – 9 hafta.**

3117. Dengiz qunduzi, kalanning urg'ochilari har necha yilda necha marta bolalaydi? **Har ikki yilda bir marta bolalaydi.**

3118. Dengiz qunduzi, kalan suv ostida necha minutgacha tura oladi? **45 minutgacha tura oladi.**

3119. Dengiz qunduzi, kalanning nechta kenja turi mavjud? **Ikkita turi mavjud.**

3120. Dengiz quyoni, laxtak (Erignatpus barbatus) qaysi turkumning tyulenlar oilasiga mansub hayvon? **Kurakoyoqlilar turkumining tyulenlar oilasiga mansub hayvon.**

3121. Dengiz quyoni qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy Muz okeanida, Atlantika okeanining shimolida (janubdan to Nyufaundlend oroli va Skandinaviya yarim oroligacha) va Tinch okeanda (Janubdan to Yapon dengizining shimoli va Bristol qo'ltig'iga) tarqalgan.**

3122. Dengiz quyonining erkagi yirikroqmi yoki urg'ochisi? **Erkagi yirikroq.**

3123. Dengiz quyonining tanasi uzunligi necha m? **2,5 – 3 m.**

3124. Dengiz quyonining og'irligi qancha kg? **250 – 300 kg.**

3125. Dengiz quyoni qaysi faslda tullaydi? **Yozda tullaydi.**

3126. Dengiz quyoni qaysi faslda nechta bola tug'adi? **Bahorda bitta bola tug'adi.**

3127. Dengiz quyoni uyasini nimadan yasaydi? **Qordan yasaydi.**

3128. Dengiz quyoni nimalari uchun ovlanadi? **Terisi va moyi uchun ovlanadi.**

3129. Dengizlarda yashaydigan sut emizuvchilar va baliqlar yog'i qayerlarda qanday maqsadlarda qo'llaniladi? **Tibbiyotda, atir-upa sanoatida, margarin ishlab chiqarishda va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi.**

3130. Dehqonchumchuqlar (Emberiza) qaysi turkumning bir urug'i? **Chumchuqsimonlar turkumining bir urug'i.**

3131. Dehqonchumchuqlar qaysi qit'alarda keng tarqalgan? **Yevropa va Shimoliy Amerikada keng tarqalgan.**

3132. Dehqonchumchuqlarning nechta turi O'rta Osiyoda yashaydi? **18 ta turi O'rta Osiyoda yashaydi.**

3133. Dehqonchumchuqlarning qaysi turlari O'zbekistonda tarqalgan? **Yulun, yantoq kabi turlari orasida sariq chumchuq, tog'laridagi butalar orasida tog' dehqonchumchug'i kabi turlari O'zbekistonda tarqalgan.**

3134. Dehqonchumchuqlar yiliga necha marta tuxum qo'yadi? **Ikki marta tuxum qo'yadi.**

3135. Dehqonchumchuqlar nechtadan tuxum qo'yadi? **2 – 6 tadan tuxum qo'yadi.**

3136. Dehqonchumchuqlarning qaysi turlari O'zbekistonga qishlash uchun shimoldan kelib, erta bahorda uchib ketadilar? **Prosyanka, oqbosh dehqonchumchuqlar O'zbekistonga qishlash uchun shimoldan kelib, erta bahorda uchib ketadilar.**

3137. Dehqonchumchuqlarning tanasi uzunligi necha sm? **13 – 20 sm.**

3138. Dehqonchumchuqlarning yer yuzida nechta turi bor? **317 ta turi bor.**

3139. Dehqonchumchuqlarning tumshug'i shakli qanday? **Konussimon o'tkir.**

3140. Dehqonchumchuqlarning nechta urug'i ma'lum? **82 ta urug'i ma'lum.**

3141. Dehqonchumchuqlarning O'zbekiston faunasida Emberiza urug'ining nechta turi tarqalgan? **10 ta turi tarqalgan.**

3142. Dehqonchumchuqlarning Amerika turlaridan ayrimlari qayerga ham o'tadi? **Shimoli-sharqiy Sibirga ham o'tadi.**

3143. Dehqonchumchuqlar qayerlarda yashaydi? **Ochiq joylarda (toshloq tundralar, tog'larning yon bag'irlarida, butalar orasida, ba'zan o'rmonlarda) yashaydi.**

3144. Dehqonchumchuqlar qanday sayraydi? **Juda yoqimli sayraydi.**

3145. Dehqonchumchuqlar qayerda uya quradi? **Yerda uya quradi.**





3146. Dehqonchumchuqlar nimalar bilan ovqatlanmaydi? **O'simlik urug'i va boshqa qismlari, shuningdek, hasharotlar bilan ovqatlanmaydi.**

3147. Dehqonchumchuqlarning Emberiza urug'i turlari nisbatan uzunmi yoki kaltami? **Uzun.**

3148. Dehqonchumchuqlarning Emberiza urug'i dumida qanday rangli dog'lari bo'ladi? **Oq rangli dog'lari bo'ladi.**

3149. Dehqonchumchuqlar deb atalishiga sabab nima? **Ko'pchilik turlari, asosan, qushlar uchib o'tadigan erta bahor va kuz faslda uchrashi sababli dehqonchumchuqlar deb ataladi.**

3150. Diana qaysi uruqqa mansub maymun? **Martishkalar urug'iga mansub maymun.**

3151. Digenetik so'rg'ichlilar – qanday chuvalchanglarning bir sinfiga mansub ikki so'rg'ichli gelmintlar? **Yassi chuvalchanglarning bir sinfiga mansub ikki so'rg'ichli gelmintlar.**

3152. Dizenteriya amyobasi – amyobalar turkumiga mansub necha hujayrali parazit hayvon? **Bir hujayrali parazit hayvon.**

3153. Dizenteriya amyobasi bilan zararlangan odam ichagidan bir kecha-kunduz tashqi muhitga qanchaga sista chiqishi mumkin? **300 mln., ba'zan 600 mln gacha sista chiqishi mumkin.**

3154. Dizenteriya amyobasini nechanchi yilda qaysi rus olimi kashf etgan? **1875-yilda F. A. Lesh kashf etgan.**

3155. Dikusha qaysi oilaga mansub qush? **Tovuqsimonlar turkumining qursimonlar oilasiga mansub qush.**

3156. Dikusha qushining og'irligi qancha g cha? **600 g cha.**

3157. Dikusha qushi qayerlarda uchraydi? **Baykal ko'lining sharqidagi tayga o'rmonlarida, Saxalin orolida va boshqa yerlarda uchraydi.**

3158. Dikusha qushi bolalarini boqishda erkagi qatnashmaydimi yoki urg'ochisi? **Erkagi qatnashmaydi.**

3159. Dikusha qushi nechta tuxum qo'yadi? **8 ta tuxum qo'yadi.**

3160. Dingo qaysi oilaga mansub yirtqich sut emizuvchi hayvon? **Itsimonlar oilasiga mansub yirtqich sut emizuvchi hayvon.**

3161. Dingo hayvoni qayerlarda qanday bo'lib yashaydi? **O'rmonlarda, tog'lardagi butazorlarda va dashtlarda to'da bo'lib yashaydi.**

3162. Dingo qayerda tarqalgan? **Avstraliyada tarqalgan.**

3163. Dingoning bo'yi va tuzilishi nimaga o'xshaydi? **Nemis ovcharkasiga o'xshaydi.**

3164. Dingo qayerdan keltirilgan? **Tinch okeani orollaridan keltirilgan.**

3165. Dingoning tanasi uzunligi necha sm? **90 – 110 sm.**

3166. Dingo qachongi hayvon? **Tungi hayvon.**

3167. Dinozavrlar qaysi yerida yashagan sudralib yuruvchi hayvonlarning katta bir guruhi? **Mezazoy erasida yashagan sudralib yuruvchi hayvonlarning katta bir guruhi.**

3168. Dinozavrlar nechta turkumga bo'linadi? **Ikkita turkumga bo'linadi.**

3169. Dinozavrlarning nomlari nima? **Kaltakesak chanoqli va qush chanoqli.**

3170. Dinozavrlar nechta kenja turkum va qancha turga birlashgan? **7 ta kenja turkum, bir necha yuz turga birlashgan.**

3171. Dinozavrlar qanday mitti shakldan tortib, bo'yi necha m keladigan ulkanlari ham bo'lgan? **Mushukdek shakldan tortib, bo'yi 30 m, og'irligi 40 – 50 t keladigan ulkanlari ham bo'lgan.**

3172. Dinozavrlarning boshi gavdasiga nisbatan qanday bo'lgan? **Juda kichkina bo'lgan.**

3173. Dinozavrlarning miya qutisi g'oyat qanday bo'lgan? **Tor bo'lgan.**

3174. Dinozavrlarning orqa miyasi bosh miyasidan hajmi jihatdan qanday bo'lgan? **Ortiq (katta) bo'lgan.**

3175. Dinozavrlar qaysi jonivorlardan chiqib kelgan? **Tekodontlardan chiqib kelgan.**

3176. Dinozavrlarning baquvvat orqa oyoqlari yordamida sakrab yuradigan yirtqich, diplodok, brontozavrlar kabi bahaybat turlari bo'lib, bo'yi necha m? **22 – 27 m.**

3177. Dinozavrlarning og'irligi qancha t keladigan necha oyoqlab yuradigan o'simlikxo'rlari bor edi? **30 – 40 t, to'rt oyoqlab yuradigan o'simlikxo'rlari bor edi.**





3178. Dinozavrlar nimadan ko'paygan? **Tuxumdan ko'paygan.**

3179. Dinozavrlarning qoldiqlari Markaziy Osiyoning qaysi hududlaridan topilgan? **Qozog'iston, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston hududlaridan topilgan.**

3180. Dinotseratlar nechalamchi davrda yashagan tuyoqli hayvonlar? **Uchlamchi davrda.**

3181. Dinotseratlarning qoldiqlari Osiyo va Shimoliy Amerikaning qaysi davri qatlamlaridan topilgan? **Paleotsen va eotsen davri qatlamlaridan topilgan.**

3182. Dinotseratlarning eng kichigi, eng kattasi qaysi hayvondek bo'lgan? **Eng kichigi ayiqdek, eng kattasi fildek bo'lgan.**

3183. Dinotseratlarning boshida necha juft shoxsimon o'simtasi bo'lgan? **Uch juft shoxsimon o'simtasi bo'lgan.**

3184. Dinotseratlarning qaysi jag'idagi qoziq tishi katta va filniki kabi chiqib turgan? **Yuqori jag'idagi qoziq tishi katta va filniki kabi chiqib turgan.**

3185. Dinotseratlarning gavdasi kattaligiga qaramasdan qaysi a'zosining hajmi juda kichikligi aniqlangan? **Bosh miyasining hajmi juda kichikligi aniqlangan.**

3186. Diplodokk – qazilma holida topilgan sudralib yuruvchilar urug'i bo'lib, qaysi guruhga kiradi? **Dinozavrlar guruhiga.**

3187. Diplodokkning bo'yi necha m ga yaqin? **25 m ga yaqin.**

3188. Diplodokk qanday holda topilgan sudralib yuruvchilarning bir nimasi? **Qazilma holida topilgan sudralib yuruvchilarning bir urug'i.**

3189. Diplodokk qaysi guruhga kiradi? **Dinozavrlar guruhiga kiradi.**

3190. Diplodokk qayerning qaysi qatlamidan topilgan? **Shimoliy Amerikaning yura qatlamidan topilgan.**

3191. Diplodokkning bo'yi necha m cha? **25 m cha.**

3192. Diplodokkning boshi qanday? **Kichkina.**

3193. Diplodokkning qaysi a'zolari uzun bo'lgan? **Dumi va bo'yni uzun bo'lgan.**

3194. Diplodokk nimalar bilan ovqatlangan? **O'simliklar bilan ovqatlangan.**

3195. Diplodokkning nechta turi ma'lum? **Bir nechta turi ma'lum.**

3196. Diplokokklar qaysi oilaga mansub bakteriyalar turkumi? **Lactobacteriaceae oilasiga mansub bakteriyalar turkumi.**

3197. Diplokokklar qanchadan ortiq serotiplarga ega? **80 dan ortiq serotiplarga ega.**

3198. Disk barmoqli baqalar kenja oilasi Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo, Shimoliy Avstraliya va uning atrofidagi orollarda tarqalgan nechta urug'i bor? **10 ta urug'i bor.**

3199. Disk barmoqli baqalarning vakillaridan biri qaysi orollarda yashaydigan shoxli baqadir? **Solomon orollarida yashaydigan shoxli baqadir.**

3200. Dodo qaysi turkumga kiradigan qush? **Kaptarsimonlar turkumiga kiradigan qush.**

3201. Don kuyasi – ombor zararkundasi bo'lib, bir yilda necha marta po'st tashlaydi? **To'rt marta po'st tashlaydi.**

3202. Don kuyasining g'umbagi necha mm? **6 – 6,5 mm.**

3203. Don kuyasining g'umbaklik davri necha kunga boradi? **10 – 15 kunga boradi.**

3204. Don ot zoti – salt miniladigan ot aravacha qo'shiladigan ot zoti bo'lib, qayerda, qaysi ot zotlari bilan chatishtirib yaratilgan? **Don kazaklari tomonidan Don daryosi havzasidagi dasht mintaqasida mahalliy otlarni, XV – XIX asrlarda mahalliy janubiy Rossiya zotlarini Qorabog', fors, arab, sof naslli turkman ot zotlari bilan chatishtirib yaratilgan.**

3205. Don ot zoti chopqirlikda uch yoshlisi 2400 m masofani qancha vaqtda bosib o'tgan? **2 min 43,2 sek da bosib o'tgan.**

3206. Don ot zoti qayerlarda urchitiladi? **Rossiyaning Rostov, Qozog'istonning Janubiy Qozog'iston viloyatida urchitiladi.**

3207. Don ot zotining tusi qanday? **Malla.**

3208. Don ot zoti yozning jazira issiq va qishning qahraton sovuqlariga bardoshlimi yoki bardoshsizmi? **Bardoshli.**

3209. Don ot zotining yag'rini balandligi necha sm? **160 – 163 sm.**

3210. Don ot zotining tana qiya uzunligi necha sm? **162 – 165 sm.**

3211. Don ot zotining ko'krak aylanasi necha sm? **195 – 198 sm.**





3212. Don ot zotining pocha aylanasi necha sm? **20 – 21 sm.**

3213. Don parvonasi qaysi oilaga mansub ombor zararkunandasi? **Parvonalar oilasiga mansub ombor zararkunandasi.**

3214. Don parvonasi nechtagacha tuxum qo'yadi? **150 tagacha tuxum qo'yadi.**

3215. Don parvonasi yiliga necha marta nasl beradi? **3 – 4 marta nasl beradi.**

3216. Don ot zoti ko'pgina mamlakatlarda, jumladan, O'rta Osiyoda qaysi ot zotlarini yaxshilashda foydalaniladi? **Mahalliy ot zotlarini yaxshilashda foydalaniladi.**

3217. Don parvonasining qanotlari yoyilganda necha mm? **12 – 17 mm.**

3218. Donxo'r qo'ng'izlarning qancha turi ma'lum? **900 ga yaqin turi ma'lum.**

3219. Donxo'r qo'ng'izlar qaysi oilaga yaqin turadi? **Bargxo'r qo'ng'izlar oilasiga yaqin turadi.**

3220. Donxo'r qo'ng'izlar nechta bo'g'imli? **11 ta bo'g'imli.**

3221. Donxo'r qo'ng'izlar qayerlarda bor? **Dunyoning hamma joyida bor.**

3222. Donxo'r qo'ng'izlarning boshi qaysi a'zosiga egilgan? **Ko'kragiga egilgan.**

3223. Donxo'r qo'ng'izlarning tuxumdan endigina chiqqan lichinkalarining necha juft oyog'i bo'lib, ular keyinchalik nima bo'lib ketadi? **Uch juft, keyinchalik yo'qolib ketadi.**

3224. Dog'li, ya'ni olovli salamandraning uzunligi necha sm? **20 – 28 sm.**

3225. Dog'li, ya'ni olovli salamandraning qora yaltiroq tanasida qanday rangli dog'lari bo'ladi? **Yorqin sariq rangli dog'lari bo'ladi.**

3226. Dog'li, ya'ni olovli salamandra qanday tug'adi? **Tirik tug'adi.**

3227. Dreyssenalar necha tabaqali mollyuskalar oilasi? **Ikki tabaqali mollyuskalar oilasi.**

3228. Dreyssenalarning qaysi a'zosi bor? **Chig'anog'i bor.**

3229. Dreyssenalarning oyog'i qanday tovonli? **Yassi tovonli.**

3230. Dreysenalar qanday mollyuskalar singari oyoqlari bilan sudralib yuradi? **Qorinoyoqli mollyuskalar singari oyoqlari bilan sudralib yuradi.**

3231. Dreysenalarning lichinkalari yetilgan yosh mollyuskalar qanday oyoqli bo'lib, suv qayerida o'rmalab yuradi? **Uzun oyoqli bo'lib, suv tubida o'rmalab yuradi.**

3232. Dreysenalarning Dreissena va Conjeria urug'larining turlari Yevropadagi daryo va ko'llarda, shuningdek, qaysi dengizlarda yashaydi? **Kaspiy hamda Orol dengizlarda yashaydi.**

3233. Dreysenalarning polgmorpha turi qanday suv havzalarida ko'p tarqalgan? **Chuchuk suv havzalarida ko'p tarqalgan.**

3234. Dreyssenalar necha yil yashaydi? **7 – 8 yil yashaydi.**

3235. Dreyssenalar faul nima? **Filtrlovchilar.**

3236. Dreysenalar qayerlarga kirib, mazkur qurilmalarning normal ishlashiga to'sqinlik qiladi? **Vodoprovod quvurlari, turbalar va gidrostantsiyadagi boshqa inshootlarga kirib, mazkur qurilmalarning normal ishlashiga to'sqinlik qiladi.**

3237. Dreysenalarga qarshi kurashish uchun suvga qaysi kimyoviy element qo'shiladi va inshootlar mollyuskalar uchun zaharli bo'lgan nimalar bilan moylab turiladi? **Xlor qo'shiladi va bo'yoqlar bilan moylab turiladi.**

3238. Drill qayerlarda qanday bo'lib yashaydi? **G'arbiy Afrikaning tog' o'rmonlarida hamda Fernando-Po orollaridagi qoyalar orasida to'da bo'lib yashaydi.**

3239. Drill qaysi urug'qa mansub tor burunli maymun? **Mandirlar urug'iga mansub.**

3240. Drillning bo'yi necha sm gacha? **90 sm gacha.**

3241. Drillning dumi necha sm? **5 – 7 sm.**

3242. Drillning og'irligi qancha kg gacha? **50 kg gacha.**

3243. Driopiteklarning qancha turi qayerlarda topilgan? **10 ga yaqin turi G'arbiy Yevropa, Misr va Hindistonda topilgan.**

3244. Driopiteklar necha yil ilgari qaerlarda yashagan? **5 – 20 mln yil ilgari qalin tropik o'rmonlarda yashagan.**

3245. Driopiteklar qanday maymunlar ajdodi sanaladi? **Eng qadimgi odamsimon maymunlar ajdodi sanaladi.**

3246. Driopiteklar – qirilib ketgan odamsimon maymunlarning qaysi oilasi? **Kenja oilasi.**

3247. Drozofila, meva pashshasining uzunligi necha mm gacha? **3,5 mm gacha.**

3248. Drozofila, meva pashshasining ko'zlari, odatda, qanday rangda bo'ladi? **Qizil rangda bo'ladi.**





3249. Drozofila, meva pashshasi qayerlarda tarqalgan? **Butun dunyoda tarqalgan.**

3250. Drozofilasimonlilar, meva pashshalari qaysi jonivorlar oilasiga mansub? **Hasharotlar oilasiga mansub.**

3251. Drozofilasimonlilarning tanasi uzunligi necha mm? **1 – 5 mm.**

3252. Drozofilasimonlilarning mevani qayta ishlash zavodlarida qaysi turlari ko'p uchraydi? **Drosophila funbris, D. fasciata va Citona beckeri turlari ko'p uchraydi.**

3253. Dromedar, bir o'rkachli tuya – tuyaning bir turi bo'lib, baqtriya tuyasidan nimasi bilan farq qiladi? **O'rkachining bittaligi bilan farq qiladi.**

3254. Dromedar, bir o'rkachli tuyaning bo'yi necha sm ga boradi? **210 sm ga boradi.**

3255. Dromedar, bir o'rkachli tuyaning homiladorlik davri necha oy? **13 oy.**

3256. Dromedar, bir o'rkachli tuyadan qancha kg jun qirqib olinadi? **2 – 4 kg jun qirqib olinadi.**

3257. Drongo qaysi parrandalar turkumining bir oilasi? **Chumchuqsimonlar turkumining bir oilasi.**

3258. Drongo parrandalarining qancha turi bor? **20 ga yaqin turi bor.**

3259. Drongoning kattaligi qanday? **Chug'urchiqnikidek.**

3260. Drongo qanday rangda bo'ladi? **Qora yoki to'q kulrangda bo'ladi.**

3261. Drongo nechta tuxum qo'yadi? **3 – 7 ta tuxum qo'yadi.**

3262. Drongoning qora drongo turi Primoreda nechanchi yillarda uchragan? **1944, 1947-yillarda, ya'ni 2 marta uchragan.**

3263. Drongoning hind drongosi turi (Chidia hottentotus) Vladivostok yaqinida nechanchi yili tutilgan? **1947-yili tutilgan.**

3264. Drontalar qaysi parrandalar turkumining bir oilasi sanaladi? **Kaptarsimonlar turkumining bir oilasi sanaladi.**

3265. Drontalar nechanchi asrlarda qirilib ketgan? **XVII – XVIII asrlarda qirilib ketgan.**

3266. Drontalarning nechta turi bo'lgan? **3 ta turi bo'lgan.**

3267. Drontalarning kattaligi qanday parrandadek bo'lgan? **G'ozdek bo'lgan.**

3268. Drontalar yashagan orollarda ularning nimalari bo'lmaganligidan, ularda o'zini mudofaa etish layoqati rivojlanmagan? **Kushandalari bo'lmaganligidan, ularda o'zini mudofaa etish layoqati rivojlanmagan.**

3269. Drontalar nima sababli tez qirilib ketgan? **Kushandasi – cho'chqa va boshqalar sababli tez qirilib ketgan.**

3270. Drontalar qaysilar va qaysi orollarda yashagan? **Mavriniy orolida yashagan dodo (Raphus cucullaius), Pogpurec orolida yashagan darveshqush (Pezopnaps solitarius) va Peyunon orolida tarqalgan oq dodo (R. apteroznis) degan uchta turi yashagan.**

3271. Drontalar qayerlarda yashagan? **O'rmonlarda yashagan.**

3272. Drontalar nima uchun ucholmagan va yaxshi yurolmagan? **Qanotlari kichikligidan ucholmagan va yaxshi yurolmagan.**

3273. Dudak qaysi turkumga mansub qush? **Tuvaloqlar turkumiga mansub qush.**

3274. Dukerlar, kokildor kiyiklar-quvushshoxli juft tuyoqlilarning kenja nimasi? **Oilasi.**

3275. Dukerlarning nechta urug'i bor? **2 ta urug'i bor.**

3276. Dukerlarning nechtacha turi bor? **19 tacha turi bor.**

3277. Dukerlarning shoxlari qanday? **To'g'ri va kalta.**

3278. Dukerlarning shoxlari uzunligi necha sm cha? **7 – 12 sm cha.**

3279. Dukerlarning gavdasi uzunligi necha sm cha? **55 – 110 sm cha.**

3280. Dukerlarning og'irligi qancha kg? **5 – 65 kg.**

3281. Dukerlarning qaysi a'zosi katta? **Boshi katta.**

3282. Dukerlarning oyoqlari yo'g'onmi yoki ingichka? **Ingichka.**

3283. Dukerlarning qanday turlari bor? **Kulrang duker, qora peshonali duker va boshq. turlari bor.**

3284. Dukerlar qaysi a'zosining bo'lmasligi bilan boshqa quvushshoxlilardan farq qiladi? **O't pufagining bo'lmasligi bilan boshqa quvushshoxlilardan farq qiladi.**

3285. Dukerlarning qaysi a'zolari orasida quyuq suyuqliq ajratadigan bezlari bor? **Ko'zlari ostida va tuyoqlari orasida quyuq suyuqliq ajratadigan bezlari bor.**





3286. Dukerlar qayerlarda tarqalgan? **Afrika, Tanzaniya, Mozambik va boshq. yerlarda tarqalgan.**

3287. Dukerlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Har xil barg va mevalar bilan ovqatlanadi.**

3288. Dumli amfibiyalar, suvda va quruqlikda yashovchi dumlilar – amfibiyalar sinfining bir nimasi? **Turkumi.**

3289. Dumli amfibiyalarning bir nechta turi qayerda tarqalgan? **Janubiy Amerikada tarqalgan.**

3290. Dumli amfibiyalarning hammasi bo'lib nechta turi bor? **150 ta turi bor.**

3291. Dumli amfibiyalarning gavda tuzilishi qaysi hayvonnikiga o'xshaydi? **Kaltakesaknikiga o'xshaydi.**

3292. Dumli amfibiyalarning ba'zilarida qaysi a'zo bo'lmaydi? **Oyoq bo'lmaydi (sirenda) bo'lmaydi.**

3293. Dumli amfibiyalar qaysi a'zolari yordamida suvda suzadi? **Tanasi va dumi yordamida suvda suzadi.**

3294. Dumli amfibiyalarning bo'yi necha sm cha? **100 sm cha.**

3295. Dumli amfibiyalarning qaysi turlarida jabra va yon chizig'i umrbod saqlanib qoladi? **Siren, protet kabi turlarida jabra va yon chizig'i umrbod saqlanib qoladi.**

3296. Dumli amfibiyalar nechtadan nechtagacha tuxum qo'yadi? **2 tadan bir necha yuztagacha tuxum qo'yadi.**

3297. Dumli amfibiyalar qayerlarda yashaydi? **Suvda va nam yerlarda yashaydi.**

3298. Dumsiz amfibiyalar (dumsiz suvda va quruqlikda yashovchilar), dumsizlar – amfibiyalar sinfining bir nimasi? **Turkumi.**

3299. Dumsiz amfibiyalarning nechta turi ma'lum? **2500 ta turi ma'lum.**

3300. Dumsiz amfibiyalar qanday tarqalgan? **Keng tarqalgan.**

3301. Dumsiz amfibiyalar amfibiyalarning eng yuqori tuzilgan nimasi? **Guruhi.**

3302. Dumsiz amfibiyalarning tuzilishi qaysi jonivorga o'xshaydi? **Baqaga o'xshaydi.**

3303. Dumsiz amfibiyalarning tanasi uzunmi yoki kalta? **Kalta.**

3304. Dumsiz amfibiyalarning shakli qanday? **Yapaloq va keng.**

3305. Dumsiz amfibiyalarning oyoqlari yaxshimi yoki yomon rivojlangan? **Yaxshi rivojlangan.**

3306. Dumsiz amfibiyalarning qaysi oyoqlari ancha uzun? **Orqa oyog'i oldingisiga nisbatan ancha uzun.**

3307. Dumsiz amfibiyalarning orqa oyog'i oldingisiga nisbatan ancha uzun bo'lib, qanday yurishga moslashgan? **Sakrab yurishga moslashgan.**

3308. Dumsiz amfibiyalarning itbalig'ida dastlab qaysi oyoqlari paydo bo'ladi? **Orqa oyoqlari paydo bo'ladi.**

3309. Dumsiz amfibiyalarning keyin, ya'ni so'ngra qaysi oyoqlari paydo bo'ladi? **Oldingi oyoqlari paydo bo'ladi.**

3310. Dumsiz amfibiyalarning boshi nima uchun tanasidan yaqqol ajralib turmaydi? **Chunki bo'yni juda qisqa tanasidan yaqqol ajralib turmaydi.**

3311. Dumsiz amfibiyalar, asosan, qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

3312. Dumsiz amfibiyalarning tuxumi (uvildirig'i) qayerda (tashqaridami yoki ichkaridami) urug'lanadi? **Tashqarida urug'lanadi.**

3313. Dumsiz amfibiyalar nima orqali rivojlanadi? **Metamorfoz orqali rivojlanadi.**

3314. Dumsiz amfibiyalarning tuxumidan chiqqan itbalig'i qaysi a'zo orqali nafas oladi? **Jabra orqali nafas oladi.**

3315. Dumsiz amfibiyalar qaerda yashashga moslashgan? **Suvda yashashga moslashgan.**

3316. Dumsiz amfibiyalar umurtqalilarning tuzilishidagi tafovutlarga qarab nechta kenja turkumga bo'linadi? Ular qaysilar? **6 ta kenja turkumga bo'linadi. Ular: birlamchi dumlilar, silliq oyoq baqalar, uvilloq baqalar, sassiq baqalar, qurbaqalar, baqalar.**

3317. Dumsiz amfibiyalarning birlamchi dumlilari kenja turkumi qanday holda uchraydi? **Juda qadimgilari bo'lib, hozir qirilib ketgan, qoldiqlari qazilma holida uchraydi.**

3318. Dumsiz amfibiyalarning uvilloq baqalar kenja turkumiga sobiq Ittifoqda uchraydigan qaysilar kiradi? **Sassiq baqalar va butli baqalar kiradi.**





3319. Dumsiz amfibiyalarning qurbaqalar kenja turkumiga qaysilar kiradi? **Baqaqurulloqlar, qisqaboshli baqalar va boshq. kiradi.**

3320. Dumsiz amfibiyalarning baqalar kenja turkumiga qaysilar kiradi? **Tor og'izli baqalar va kurak oyoqli baqalar va boshq. kiradi.**

3321. Dumsiz amfibiyalarning tipik vakillari qaysilar? **Baqa va qurbaqa.**

3322. Dumsiz amfibiyalarning sobiq Ittifoqda nechta urug'i tarqalgan? **12 ta urug'i tarqalgan.**

3323. Dumsiz amfibiyalarning sobiq Ittifoqda nechta turi tarqalgan? **33 ta turi tarqalgan.**

3324. Dumsiz amfibiyalarning O'zbekistonda qaysi turlari uchraydi? **Ko'k qurbaqa va ko'l baqa turlari uchraydi.**

3325. Dumsiz maymun – magot qanday maymunlar kenja turkumining martishkasimonlar oilasiga, makakalar urug'iga mansub hayvon? **Tor burunli maymunlar kenja turkumining martishkasimonlar oilasiga, makakalar urug'iga mansub hayvon.**

3326. Dumsiz maymunning bo'yi necha sm? **55 sm.**

3327. Dumsiz maymunning oyoqlari uzunmi yoki kalta? **Uzun.**

3328. Dumsiz maymunning chekkasida qalin nimasi bor? **Kokili bor.**

3329. Dumsiz maymun qayerlarda tarqalgan? **Shimoli-G'arbiy Afrika va Gibraltarda tarqalgan.**

3330. Dumsiz maymun qayerda yovvoyi holda uchraydigan yagona maymun? **Yevropada yovvoyi holda uchraydigan yagona maymun.**

3331. Dumsiz maymun qayerlarda yashaydi? **Tog' qoyalarida yashaydi.**

3332. Dumsiz maymun nimalar bilan ovqatlanadi? **Hasharot va chuvalchanglar hamda meva, ildiz, yangi barg bilan ovqatlanadi.**

3333. Dumsiz maymun qanday bo'lib yashaydi? **Gala bo'lib yashaydi.**

3334. Dumsiz maymun qanday? **Kuchli, makkor va chaqqon.**

3335. Dumsiz sichqon qayerlarda yashaydi? **Cho'llarda yashaydi.**

3336. Dumbali qo'ylar nima uchun boqiladigan qo'y zotlari? **Go'shti va yog'i uchun boqiladigan qo'y zotlari.**

3337. Dumbali qo'ylarga qaysi qo'y zotlari kiradi? **Bularga chuntuk (Ukraina, Qrimda), manich (Don va Shimoliy Kavkazda), qalmoq (Volga bo'yi va Uralda), ordin (Sibirda), saraja (Turkmanistonda), hisori (Tojikiston va O'zbekistonda), jaydari (O'zbekistonda), edilboy (Qozog'istonda), yangi tojik (Tojikistonda va qisman O'zbekistonda) qo'y zotlari kiradi.**

3338. Dumbali qo'ylar qanday (rang) bo'ladi? **Malla. Jigarrang, qora, kamdan-kam qora quloq va qora boshli oq bo'ladi.**

3339. Dumbali qo'ylarning juni qanday? **Dag'al.**

3340. Dumbali qo'ylar dumbasining shakliga qarab, nima deb yuritiladi? **Do'ngalakquyruq, tegirmonquyruq, ayriquyruq, ketmonquyruq va solfiquyruq deb yuritiladi.**

3341. Dumbali qo'ylar zotiga va boqish sharoitiga qarab, o'rtacha hisobda qancha kg, bo'rdoqiga boqilgan ba'zi xisori qo'ylar qancha kg gacha yog' qiladi? **10 – 20 kg, 60 kg gacha yog' qiladi.**

3342. Dumli qo'ylar – dumba o'rnida nechta umurtqadan iborat dumi bo'lgan qo'ylar? **12 – 24 ta umurtqadan iborat dumi bo'lgan qo'ylar.**

3343. Dumli qo'ylar zotiga qarab qanday bo'ladi? **Qisqa, oriq ("qotma"); uzun, oriq; qisqa, yog'li; uzun, yog'li bo'ladi.**

3344. Dumli qo'ylar sobiq Ittifoqning shimoliy rayonlaridagi Romanov, Vereska kabi qo'y zotlarining dum umurtqasi nechtagacha, yog'siz, echki dumiga o'xshash? **12 tagacha, yog'siz, echki dumiga o'xshash.**

3345. Dumli qo'ylarning Ukrainadagi sokol, reshetilov, sigay va barcha merenos zotlarining dum umurtqasi nechtagacha, uzun, qotma, sirti jun bilan qoplangan? **24 tagacha, uzun, qotma, sirti jun bilan qoplangan.**

3346. Dumli qo'ylarning Kavkazdagi volosh, malich, tushin, bozak, osetii va boshq. zot qo'ylarining dum umurtqasi nechtagacha? **15 – 24 tagacha.**





3347. Dumli qo'ylardan Qorako'l qo'ylarining dumi yog'li, uzun, uchi deyarli yog'siz, ketmonquyruq, zog'oraquyruq va boshq. shaklda, qayoqqa (o'ngga, chapga) qayrilgan? **O'ngga, ba'zilari chapga qayrilgan.**

3348. Dumparast, uzunquyruq qaysi parrandalar turkumining pashshaxo'rlar oilasiga mansub qush? **Chumchuqsimonlar turkumining pashshaxo'rlar oilasiga mansub qush.**

3349. Dumparast qush nechta tuxum qo'yadi? **4 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

3350. Dumparast qush qaysi parrandadek? **Chumchuqdek.**

3351. Dumparast qush narining ikkita dum pati juda uzun bo'lib, necha sm gacha yetadi? **50 sm gacha (dumparast nomi shu tariqa yuzaga kelgan) yetadi.**

3352. Dumparast qushning erkagimi yoki urg'ochisining ikkita dum pati juda uzun? **Erkagining ikkita dum pati juda uzun.**

3353. Dumparast qush qayerdan qayergacha tarqalgan? **Janubiy Manchjuriya va Primoredan O'rta Osiyogacha tarqalgan.**

3354. Dumparast qush O'zbekistonning qaysi vodiysi va viloyatlariga qaysi faslda kelib, qaysi fasl boshlarida uchib ketadi? **Farg'ona vodiysi, Toshkent, Samarqand, Surxondaryo viloyatlariga kech bahorda kelib, kuz boshlarida uchib ketadi.**

3355. Dumparast qush qayerlarda yashaydi? **Tog' hamda tog' etaklaridagi o'rmon va bog'larda yashaydi.**

3356. Dumparast qush qayerga uya quradi? **Daraxtga uya quradi.**

3357. Dumparast qush nimalar bilan ovqatlanadi? **Turli hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

3358. Dumg'aza umurtqalari sudralib yuruvchilarda nechta? **Ikkita.**

3359. Dumg'aza umurtqalari sut emizuvchilarda nechta? **1 – 10 ta va h.k.**

3360. Dunyodagi barcha mamlakatlarda qancha ot zotlari mavjud? **250 dan ziyod ot zotlari mavjud.**

3361. Dunyodagi eng katta ayiq – qayerdagi, qaysi orolda yashaydigan, qanday ayiq? **Alyaskadagi Kadiyak orolida yashovchi qo'ng'ir ayiq.**

3362. Dunyodagi eng katta qo'ng'ir ayiqning og'irligi qancha kg? **680 kg.**

3363. Dunyoda quloq bo'yicha rekordchi hayvon qayerda yashaydi? **Sahroi Kabirda yashaydi.**

3364. Dunyoda eng katta to'tining nomi nima? **Kakapo.**

3365. Dunyo bozorida qaysi baliq eng oldingi o'rinda turadi? **Osyotr balig'i eng oldingi o'rinda turadi.**

3366. Duragay echkilar qanday junli jaydari echkilarni angora yoki sertivit pridon zotlari bilan chatishtirib olingan echkilar? **Dag'al junli jaydari echkilarni angora yoki sertivit pridon zotlari bilan chatishtirib olingan echkilar.**

3367. Duragay echkilardan jaydari echkilarning jun mahsuloti qancha kg? **0,4 – 0,5 kg.**

3368. Duragay echkilarning har biridan qirqilgan jun jaydari echkilarnikidan 1-bo'g'inda necha foiz ortiq? **32,7 foiz ortiq.**

3369. Duragay echkilarning har biridan qirqilgan jun jaydari echkilarnikidan 2-bo'g'inda necha foiz ortiq? **52,2 foiz ortiq.**

3370. Duragay echkilarning har biridan qirqilgan jun jaydari echkilarnikidan 3-bo'g'inda nechabarobar ortiq? **2 barobar ortiq.**

3371. Duragay qo'ylar qaysi qo'ylarni zotdor qo'ylar bilan chatishtirish natijasida olingan qo'ylar? **Jaydari qo'ylarni zotdor qo'ylar bilan chatishtirish natijasida olingan qo'ylar.**

3372. Duragay qo'ylarning og'irligi qancha kg? **60 – 62 kg.**

3373. Dyugon qayerlarda tarqalgan? **Qizil dengizda, Afrikaning sharqiy qirg'oqlarida, Hindiston yarim orolida, Hind-Malayya va Filippin arxipelagida, Tayvan, Yangi Gvineya, Shimoliy Avstraliya, Solomon orollari, Yangi Kaledoniya orollarida tarqalgan.**

3374. Dyugon, dyugonlar qaysi turkumning bir urug'i? **Sirenalar turkumining bir urug'i.**

3375. Dyugonning nechta turi bor? **Bitta turi bor.**

3376. Dyugonlar qayerda yashashga moslashgan sut emizuvchi hayvon? **Suvda yashashga moslashgan sut emizuvchi hayvon.**

3377. Dyugon erkagining tanasi uzunligi necha sm cha bo'lgan kurak tishi qaysi hayvonnikiga o'xshash tashqariga chiqib turadi? **7 sm cha, filnikiga o'xshash tashqariga chiqib turadi.**

3378. Dyugonning uzunligi necha m cha? **3,5 m cha.**





3379. Dyugonning og'irligi qancha kg gacha? **140 – 170 kg gacha.**

3380. Dyugon, dyugonlarning tanasi oxirida ko'ndalang joylashgan ikki pallali nimalar bor? **Suzgich qanot bor.**

3381. Dyugon, dyugonlar gavdasi qanday? **Duksimon.**

3382. Dyugonning oldingi oyoqlari nimaga aylangan? **Kurakka aylangan.**

3383. Dyugonning homiladorlik davri necha muddat bo'ladi? **Bir yilcha.**

3384. Dyugon nechta bola tug'adi? **Bitta bola tug'adi.**

3385. Dyugon go'shti nima qilinadi? **Yeyiladi.**

3386. Dyugonning nimasidan foydalaniladi? **Terisidan foydalaniladi.**

3387. Dyugonning terisi nima qilinadi? **Tagcharm qilinadi.**

3388. Do'lana kapalagi qaysi oilaga mansub zararkunanda? **Oq kapalaklar oilasiga mansub zararkunanda.**

3389. Do'lana kapalagi O'rta Osiyoning qaysi tumanlarida uchraydi? **Tog'li tumanlarida uchraydi.**

3390. Do'lana kapalagining qanotlari kattaligi yozilganda necha sm? **6 – 6,5 sm.**

3391. Do'lana kapalagining qanotlari g'adir-budur bo'lib, uzunligi necha sm? **2 sm.**

3392. Do'lana kapalagining mo'ylovlari qanday? **To'nog'ichsimon.**

3393. Do'lana kapalagining rangi qanday? **Oq.**

3394. Do'lana kapalagining g'umbagi rangi qanday? **Sarg'ish oq yoki och yashil, qora dog'chalalari bor.**

3395. Do'lana kapalagining turtib chiqqan qaysi a'zolari bor? **Qora tomirlari bor.**

3396. Do'lana kapalagining tuxumi qanday shaklda? **Butilkasimon shaklda.**

3397. Do'lana kapalagining urg'ochisi barg ustiga nechta tuxum qo'yadi? **30 – 200 ta tuxum qo'yadi.**

3398. Do'lana kapalagi daraxt shoxlarida qaysi stadiyada qishlaydi? **Lichinkalik stadiyasida qishlaydi.**

3399. Do'lana kapalagining lichinkasi uzunligi necha sm? **4,5 sm.**

3400. Do'lana kapalagining tuxumi qanday rangda? **Zarg'aldoq rangda.**

3401. Do'lana kapalagining voyaga yetgan lichinkalari qaysi oy boshlarida g'umbakka aylanadi? **May oyi boshlarida g'umbakka aylanadi.**

3402. Do'lana kapalagi lichinkalaridan necha haftada kapalak chiqadi? **1,5 haftada kapalak chiqadi.**

3403. Do'lana kapalagi yiliga necha marta nasl beradi? **Bir marta nasl beradi.**

3404. Do'lana kapalagi nimalar bilan ovqatlanadi? **Daraxt kurtagi va bargi bilan ovqatlanadi.**

3405. Elets qaysi oilaga mansub baliq? **Karpsimonlar oilasiga mansub baliq.**

3406. Eletsning bo'yi necha sm gacha? **30 sm gacha.**

3407. Eletsning og'irligi qancha kg gacha? **0,5 kg gacha.**

3408. Elik qaysi oilaga mansub juft tuyoqli hayvon? **Kiyiklar oilasiga mansub juft tuyoqli hayvon.**

3409. Elikning og'irligi qancha kg gacha? **55 kg gacha.**

3410. Elikning qaysi a'zolari rangi sarg'ish? **Ko'kragi, qorni va oyoqlari rangi sarg'ish.**

3411. Elikning sonida qanday rangli dog'i bor? **Oq rangli dog'i bor.**

3412. Elik yozda qayerlarda yashaydi? **O'tloqlarda va tog' yon bag'irlarida yashaydi.**

3413. Elik qayerlarda tarqalgan? **Yevropa va Osiyoda tarqalgan.**

3414. Elik qishda tog'dan qayerlarga tushadi? **Vodiylarga tushadi.**

3415. Elik ko'pincha nechta, ba'zan nechta bola tug'adi? **2 ta, ba'zan 3 ta bola tug'adi.**

3416. Elik qanday mevalar, o'simliklar bilan ovqatlanadi? **Daraxt bargi va novdalari, rezavor mevalar, yo'sin hamda lishayniklar bilan ovqatlanadi.**

3417. Elik nimalari uchun ovlanadi? **Mazali go'shti va terisi uchun ovlanadi.**

3418. Elikning nechta kenja turi bor? Qaysi kenja turlari? **2 ta kenja turi bor. Yevropa elik (S. c. capreolus) va Sibir elik (C. c. pygargus) kenja turlari.**





3419. Elik O'zbekistonda qaysi viloyatning tog'li hududlarida uchraydi? **Toshkent viloyatining tog'li hududlarida uchraydi.**

3420. Elka oyoqlilar – umurtqasiz hayvonlar tipi bo'lib, qayerlarda o'troq hayot kechiradi? **Dengizlarda o'troq hayot kechiradi.**

3421. Elka oyoqlilarning tanasi nima bilan qoplangan? **Pushti rang, ikki pallali ohak chig'anoq bilan qoplangan.**

3422. Elka oyoqlilarning qaysi a'zolari harakati tufayli mantiya bo'shlig'iga suv kirib turadi? **Kipriklari harakati tufayli mantiya bo'shlig'iga suv kirib turadi.**

3423. Elka oyoqlilarning qaysi a'zosi bo'shlig'i «qo'llar»ning asosida joylashgan? **Og'iz bo'shlig'i «qo'llar»ning asosida joylashgan.**

3424. Elka oyoqlilarning ayrimlarida qaysi a'zo mavjud? **Ko'richak mavjud.**

3425. Elka oyoqlilarning qancha turi tarqalgan? **28 dan ortiq turi tarqalgan.**

3426. Elka oyoqlilarning qancha turi bor? **200 ga yaqin turi bor.**

3427. Elka oyoqlilar qaysi hayvonlarning bir tipi? **Umurtqasiz hayvonlarning bir tipi.**

3428. Elka oyoqlilarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **10 sm gacha.**

3429. Elka oyoqlilar qazilma turlari nechtacha? **700 tacha.**

3430. Elkan kapalaklarning qancha turi ma'lum? **550 dan ortiq turi ma'lum.**

3431. Elkan kapalaklarning nechta turi O'rta Osiyoda uchraydi? **18 ta turi O'rta Osiyoda uchraydi.**

3432. Elkan kapalaklarning qancha turi ma'lum? **700 tacha turi ma'lum.**

3433. Elkan kapalaklar qachongi kapalaklarning bir oilasi? **Kunduzgi kapalaklarning bir oilasi.**

3434. Elkan kapalaklar qanotlarini yozganda uzunligi necha sm ga boradi? **30 sm ga boradi.**

3435. Elkan kapalaklarning eng katta va chiroyli turlari qaysi mamlakatlarda tarqalgan? **Tropik mamlakatlarda tarqalgan.**

3436. Elkan kapalaklarning (aksariyatida) orqa qanoti tagida qanday o'simta bo'ladi? **«Dum» yoki elkansimon o'simta (nomi ham shundan olingan) bo'ladi.**

3437. Papilio urug‘idan eng ko‘p tarqalganining nomi nima? **Maxaon (P. machaon).**

3438. Elpig‘ich qanotlilarning nechta turi ma’lum? **300 ta turi ma’lum.**

3439. Elpig‘ich qanotlilar qanday hasharotlar turkumi? **Parazit hasharotlar turkumi.**

3440. Elpig‘ich qanotlilar qanoti necha juft? **Ikki juft.**

3441. Elpig‘ich qanotlilar qaysi hasharotlarda parazitlik qiladi? **Pardaqanotlilar, saratonlar to‘g‘riqanotlilar, beshiktervatarlar, qandalalar, ikki qanotlilar va qildumli hasharotlarda parazitlik qiladi.**

3442. Elpig‘ich qanotlilarning qaysi a’zolari rivojlanmagan? **O‘zi va mo‘ylovlari rivojlanmagan.**

3443. Elpig‘ich qanotlilar erkaklarining tanasi qaysi a’zolarga bo‘linadi? **Bosh, ko‘krak va qoringa bo‘linadi.**

3444. Elpig‘ich qanotlilarning qaysi a’zolari kuchli reduksiyalangan? **Og‘iz a’zolari kuchli reduksiyalangan.**

3445. Elpig‘ich qanotlilar urg‘ochilarining kattaligi necha sm? **1 – 1,5 sm.**

3446. Elpig‘ich qanotlilar erkaklarining kattaligi necha mm? **1 – 6 mm.**

3447. Elpig‘ich qanotlilar nima qilmaydi? **Ovqatlanmaydi.**

3448. Elpig‘ich qanotlilarning oldingi qanoti qanday shaklda? **O‘simta shaklida.**

3449. Elpig‘ich qanotlilarning keyingi qanoti qanday? **Keng pardasimon.**

3450. Elpig‘ich qanotlilarning qaysi biri (urg‘ochisimi yoki erkagimi) hayoti davomida hasharotlar qaysi a’zolarida parazitlik qiladi? **Hayoti davomida hasharotlarning ichki a’zolarida urg‘ochisi parazitlik qiladi.**

3451. Elpig‘ich dumli qushlar – qushlar kenja sinfi bo‘lib, qaysi qushlarni o‘z ichiga oladi? **Arxeopteriksdan tashqari hamma qushlarni o‘z ichiga oladi.**

3452. Elpig‘ich dumli qushlar nechta turkum, nechta turni o‘z ichiga oladi? **34 ta turkum, 9600 (jumladan hozir 8660) ta turni o‘z ichiga oladi.**

3453. Elpig‘ich dumlilarga nechta turkum va qancha tur kiradi? **347 ta turkum va 9000 ga yaqin tur kiradi.**





3454. Emuranchiq qo‘shoyoq qaysi turkumning bir turi? **Kemiruvchilar turkumining bir turi.**

3455. Emuranchiq qo‘shoyoq qaysi oilaga kiradi? **Qo‘shoyoqlar oilasiga kiradi.**

3456. Emuranchiq qo‘shoyoqning tanasi uzunligi necha sm? **12,5 sm.**

3457. Emuranchiq qo‘shoyoqning dumi uzunligi necha sm? **16,5 sm.**

3458. Emuranchiq qo‘shoyoqning elkasi rangi qanday? **Qoramtir-kulrang.**

3459. Emuranchiq qo‘shoyoqning qorni rangi qanday? **Oq.**

3460. Emuranchiq qo‘shoyoqning qaysi oyoq panjalaridagi manuk yaxshi o‘smagan? **Orqa oyoq panjalaridagi manuk yaxshi o‘smagan.**

3461. Emuranchiq qo‘shoyoqning qanday uyasi bo‘ladi? **Doimiy hamda vaqtincha uyasi bo‘ladi.**

3462. Emuranchiq qo‘shoyoq nechta bola tug‘adi? **3 – 5 ta bola tug‘adi.**

3463. Emuranchiq qo‘shoyoq, asosan, nimalar bilan ovqatlanadi? **O‘simliklar bilan ovqatlanadi.**

3464. Emuranchiq qo‘shoyoq qayerlarda tarqalgan? **Qozog‘iston, O‘rta Osiyo va Ukrainada tarqalgan.**

3465. Emuranchiq qo‘shoyoq O‘zbekistonning qayerida uchraydi? **Qizilqumda uchraydi.**

3466. Emuranchiq qo‘shoyoqning nima uchun zarari kam? **Chunki cho‘llarda yashagani uchun zarari kam.**

3467. Emuranchiq qo‘shoyoqning qaysi (orqangimi yoki oldingimi) oyoq panjalaridagi popuk yaxshi o‘smagan? **Orqa oyoq panjalaridagi popuk yaxshi o‘smagan.**

3468. Enotlar qaysi oilaga mansub? **Enotsimonlar oilasiga mansub.**

3469. Enotlarning nechta turi bor? **Ikkita turi bor.**

3470. Enotlarning nomlari nima? **Chayuvchi enot (Procyon lotor) va qisqichbaqaxo‘r enotlar.**

3471. Enotlar qaysi oylarda juftlashadi? **Yanvar – fevral oylarida juftlashadi.**

3472. Enotlarning homiladorlik davri necha hafta bo‘ladi? **9 hafta bo‘ladi.**

3473. Enotlar qaysi oyda, nechtagacha bola tug'adi? **May oyida 2 – 8 tagacha bola tug'adi.**

3474. Enotlar nimalari uchun ovlanadi? **Go'shti va mo'ynasi uchun ovlanadi.**

3475. Enotsimonlar qaysi turkumning bir oilasi? **Yirtqich sut emizuvchilar turkumining bir oilasi.**

3476. Enotsimonlar oilasi nechta uruqqa bo'lingan? **8 ta uruqqa bo'lingan.**

3477. Enotsimonlar nechta turdan iborat? **15 ta turdan iborat.**

3478. Enotsimon itning og'irligi qancha kg? **4 – 10 kg.**

3479. Enotsimon itning tanasi uzunligi necha sm? **65 – 80 sm.**

3480. Enotsimon itning dumi necha sm? **15 – 25 sm.**

3481. Enotsimon itning homiladorlik davri necha kun? **64 kun.**

3482. Enotsimon it nechtagacha bola tug'adi? **6 – 8 tagacha bola tug'adi.**

3483. Enotsimon it qaysi fasida tullaydi? **Bahor faslida tullaydi.**

3484. Exidnalar qaysi sut emizuvchilar turkumining bir oilasi? **Tuxum qo'yib ko'payuvchi sut emizuvchilar turkumining bir oilasi.**

3485. Exidnalar nechta uruqqa bo'linadi? Ular qaysilar? **2 ta uruqqa bo'linadi. Ular: kalta tumshuq va uzun tumshuqlar.**

3486. Exidnalar birinchi urug'ining nechta turi bor? **2 ta turi bor.**

3487. Exidnalar ikkinchi urug'ining nechta turi bor? **3 ta turi bor.**

3488. Exidnalarning nechta turi bor? **4 (yoki 5) ta turi bor.**

3489. Exidnalar, yovuz ilonlar, battol ilonlar qaysi oilaga mansub zaharli ilonlar urug'i sanaladi? **Aspidlar oilasiga mansub zaharli ilonlar urug'i sanaladi.**

3490. Exidnalar, yovuz ilonlar, battol ilonlar tanasining uzunligi necha m gacha? **3 m gacha.**

3491. Exidnalarning nechta turi qayerda, qolganlari qayerda tarqalgan? **2 ta turi yangi Gvineyada, qolganlari Avstraliyada tarqalgan.**

3492. Exidnalar zaharida organizmning nimalarini ivitish (koagulyatsiya qilish) xususiyati bor? **Oqsillarini ivitish(koagulyatsiya qilish) xususiyati bor.**





3493. Exidnalar tuxumdan qanday tug'adi? **Tirik tug'adi.**

3494. Evolyutsiya jarayonida asab tizimi rivojlanib, ba'zi mollyuskalar – (yuqori tuzilgan qorinoyoqlilar va boshoyoqlilar) da qaysi a'zo vujudga kelgan? **Bosh miya vujudga kelgan.**

3495. Evolyutsiya jarayonida har xil a'zolar funksional sistemalari, ya'ni qaysilarning shakllanishi hayvonlar uchun xos bo'lgan muhim xususiyatlardan hisoblanadi? **Muskul, ayirish, nafas olish, qon aylanish, jinsiy va asab sistemalarining shakllanishi hayvonlar uchun xos bo'lgan muhim xususiyatlardan hisoblanadi.**

3496. Evripteridlar, qisqichbaqa chayonlar qaysi sinfga mansub o'lib bitgan umurtqasiz hayvonlar guruhi? **Merostomalilar sinfiga mansub o'lib bitgan umurtqasiz hayvonlar guruhi.**

3497. Evripteridlar qaysi davrda yashagan? **Ordovik va perm davrlarida yashagan.**

3498. Evripteridlarning qancha urug'i ma'lum? **30 ga yaqin urug'i ma'lum.**

3499. Evripteridlarning tanasi necha sm? **10 – 20 sm (ba'zilari 1,8 m gacha, masalan, interogotus).**

3500. Evripteridlar qanday suv havzalarida yashagan? **Chuchuk va sho'r suv havzalarida yashagan.**

3501. Evripteridlar qanday hayvonlar? **Yirtqich hayvonlar.**

3502. Evripteridlar qanday jonivorlar bilan ovqatlangan? **Trilobitlar, mollyuskalar va boshq. bilan ovqatlangan.**

3503. Evripteridlar qaysi jonivorlar evolyutsiyasini o'rganishda katta ahamiyatga ega? **Bo'g'im oyoqlilar evolyutsiyasini o'rganishda katta ahamiyatga ega.**

3504. Edilboy qo'y zoti nimalar yo'nalishidagi dag'al jun beradigan yirik dumbali qo'y zoti? **Go'sht, sut yo'nalishidagi dag'al jun beradigan yirik dumbali qo'y zoti.**

3505. Edilboy qo'y zoti nechanchi asrda qayerda xalq seleksionerlari tomonidan mahalliy dumbali qo'ylarni tanlash va ko'paytirish yo'li bilan yaratilgan (yetishtirilgan)? **XIX asrda Qozog'istonda yaratilgan.**

3506. Edilboy qo'y zoti qo'chqorlarining tirik og'irligi qancha kg? **100 – 105, ba'zan 150 kg.**

3507. Edilboy qo'y zoti sovliqlarining tirik og'irligi qancha kg? **65 – 70, ba'zan 115 kg.**

3508. Edilboy qo'y zoti qo'chqorlaridan qancha kg jun olinadi? **3 – 3,5 kg jun olinadi.**

3509. Edilboy qo'y zoti sovliqlaridan qancha kg jun olinadi? **2,5 kg jun olinadi.**

3510. Elektrli ilon baliqlarning nechta urug'i va turi ma'lum? **Bitta urug'i va bitta turi ma'lum.**

3511. Elektrli ilon baliqlar qayerlarda yashaydi? **Janubiy Amerikaning shimoli-sharqidagi daryolarda va Amazonkaning o'rta va quyi qismidagi irmoqlarda yashaydi.**

3512. Elektrli ilon baliqlarning tanasi uzunligi necha m? **1 – 2 m.**

3513. Elektrli ilon baliqlarning og'irligi qancha kg cha? **20 kg cha.**

3514. Elektrli ilon baliqlarning elektr a'zosi qayeri bo'ylab joylashgan? **Gavdasi bo'ylab joylashgan.**

3515. Elektrli ilon baliqlarda qaysi suzgichlar yo'q? **Orqa va qorin suzgichlari yo'q.**

3516. Elektrli ilon baliqlarning anal teshigi qaysi a'zosi ostida? **Tomog'i ostida.**

3517. Elektrli ilon baliqlar qanday qaysi suzgichining to'lqinsimon tebranishi tufayli suvda suzadi? **Juda katta anal suzgichining to'lqinsimon tebranishi tufayli suvda suzadi.**

3518. Elektrli ilon baliqlar qancha V gacha elektr kuchlanish (razryad) hosil qiladi? **650 V gacha elektr kuchlanish (razryad) hosil qiladi.**

3519. Elektrli ilon baliqlar elektr a'zolaridan qanday maqsadlarda foydalaniladi? **Dushmanlaridan himoyalanish, o'ljasini falajlash va mo'ljal olishda foydlaniladi.**

3520. Elektrli ilon baliqlarning nechta turi Janubiy Amerikaning shimoli-sharqiy qismida hamda Amazonkaning quyi va o'rta oqimidagi daryolarda uchraydi? **1 ta turi uchraydi.**

3521. Elektrli lappak baliqlarning qancha turi ma'lum? **30 dan ortiq turi ma'lum.**

3522. Elektrli lappak baliqlarning tanasi uzunligi necha m cha? **1,8 m cha.**

3523. Elektrli lappak baliqlarning og'irligi qancha kg cha? **90 kg cha.**

3524. Elektrli lappak baliqlar, asosan, qaysi dengizlarda tarqalgan? **Janubiy dengizlarda tarqalgan.**





3525. Elektrli lappak baliqlar (oddiyi) qaysi okean va dengizda uchraydi? **Atlantika okeanining sharqiy qismi va O'rta dengizda uchraydi.**

3526. Elektrli lappak baliqlarning gavdasi shakli qanday? **Dumaloq.**

3527. Elektrli lappak baliqlarning dum suzgichi qanday (uzunmi yoki qisqami)? **Qisqa.**

3528. Elektrli lappak baliqlarning qaysi a'zosi silliq? **Terisi silliq.**

3529. Elektrli lappak baliqlarning elektr toki kuchlanishini (70 V gacha) hosil qiluvchi a'zosi qaysi a'zolari oralig'ida? **Boshi bilan ko'krak suzgich qanotlari oralig'ida.**

3530. Elektrli lappak baliqlar kam harakatli bo'lib, odatda, nimalarga ko'milib, qayerlarda yashaydi? **Qum yoki balchiqqa qisman ko'milib, suv tubida yashaydi.**

3531. Elektrli lappak baliqlar qanday ko'payadi? **Tuxumdan tirik tug'ib ko'payadi.**

3532. Elektrli lappak baliqlar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar, chuvalchanglar va mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

3533. Elektrli laqqa baliqlarning tanasi uzunligi necha sm (ba'zan 1 m) cha? **50 sm cha.**

3534. Elektrli laqqa baliqlarning boshida necha juft mo'ylovi bor? **Uch juft mo'ylovi bor.**

3535. Elektrli laqqa baliqlarning qayerida elektr kuchlanish (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 360 V gacha) hosil qiluvchi juft a'zo joylashgan? **Boshi bilan ko'krak suzgich qanotlari oralig'ida joylashgan.**

3536. Elektrli laqqa baliqlarning elektr kuchlanishi (razryad kuchi) qancha V ga boradi? **360 V ga boradi.**

3537. Elektrli laqqa baliqlarning qaysi suzgichi bo'lmaydi? **Orqa suzgichi bo'lmaydi.**

3538. Elektrli laqqa baliqlaning qaysi suzgichlari yaxshi rivojlangan? **Yog' suzgichlari yaxshi rivojlangan.**

3539. Elektrli laqqa baliqlarning qaysi a'zo suzgichlari tikansiz? **Ko'krak suzgichlari tikansiz.**

3540. Elektrli laqqa baliqlarning qaysi a'zosi ostida juft elektr a'zolari joylashgan? **Terisi ostida juft elektr a'zolari joylashgan.**

3541. Elektrli laqqa baliqlarning elektr a'zolari qaysi a'zolari o'rta chizig'ida o'zaro yondashgan bo'ladi? **Tanasining orqa va bo'yin qismi o'rta chizig'ida o'zaro yondashgan bo'ladi.**

3542. Elektrli laqqa baliqlarning elektr a'zolari og'irligi baliq tanasi umumiy og'irligining necha foizini tashkil etadi? **25 foizini tashkil etadi.**

3543. Elektrli laqqa baliqlarning nechta turi G'arbiy Afrika suvlari va Nil daryosida tarqalgan? **1 ta turi G'arbiy Afrika suvlari va Nil daryosida tarqalgan.**

3544. Elektrli laqqa baliqlar qanday tusda? **Ola-bula tusda**

3545. Elektrli laqqa baliqlarning qaysi a'zosi qorong'ulikda nurlanadi? **Ko'zi qorong'ulikda nurlanadi.**

3546. Elektrli skatlar qanday baliqlar turkumi? **Tog'ayli baliqlar turkumi.**

3547. Elektrli skatlarning nechta oilasi ma'lum? **3 ta oilasi ma'lum.**

3548. Elektrli skatlarning qancha turi ma'lum? **30 dan ortiq turi ma'lum.**

3549. Elektrli skatlar, asosan, qaysi dengizlarda tarqalgan? **Janubiy dengizlarda tarqalgan.**

3550. Elektrli skatlarning tanasi uzunligi necha m cha? **1,8 m cha.**

3551. Elektrli skatlarning og'irligi qancha kg cha? **90 kg cha.**

3552. Elektrli skatlarning kuchlanishi (70 V gacha) hosil qiluvchi a'zosi qaysi a'zolari oralig'ida? **Boshi bilan ko'krak suzgichlari oralig'ida.**

3553. Elektrli skatlar, odatda, nimalarga qisman ko'milib, qayerda yashaydi? **Qum yoki balchiqqa qisman ko'milib, suv tubida yashaydi.**

3554. Elektr skatning tanasi ikki yonida qanday a'zolar joylashgan? **Elektr a'zolari joylashgan.**

3555. Elektrli skatlar o'z o'ljasini nima ta'sirida o'ldiradi? **Elektr toki razryadi ta'sirida o'ldiradi.**

3556. Elektrli skatlar qaysi okean va dengizda uchraydi? **Atlantika okeanining sharqiy qismi va O'rta dengizda uchraydi.**

3557. Elektrli skatlar qanday ko'payadi? **Tuxumdan tirik tug'ib ko'payadi.**





3558. Elektrli skatlar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar, chuvalchanglar va mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

3559. Elektrli skatlarning elektr kuchlanishi (razryadi) odam uchun ham qanday? **Xavfli.**

3560. Eman ipak qurti qaysi jonivorlar oilasi? **Tovusko'zlilar oilasi.**

3561. Eman ipak qurti nima olish hamda undan nima ishlab chiqarish uchun boqiladigan kapalaklar turi? **Ipak olish hamda undan jujuncha ishlab chiqarish uchun.**

3562. Eman ipak qurti sobiq Ittifoqda nechanchi yildan boqila boshlangan? **1937-yildan boqila boshlangan.**

3563. Eman ipak qurti nima bilan ovqatlanadi? **Har xil turdagi eman bargi bilan ovqatlanadi.**

3564. Eman ipak qurti bir yilda necha marta nasl beradi? **Ikki marta nasl beradi.**

3565. Eman ipak qurtining g'umbagi pillada harorati qancha °C bo'lgan maxsus xonalarda saqlanadi? **Harorati 2° C bo'lgan maxsus xonalarda saqlanadi.**

3566. Eman ipak qurti qaysi faslda ulardan yirik (qanoti yoyilganda 10,5-11,5 sm) kapalaklar chiqadi? **Bahorda ulardan yirik (qanoti yoyilganda 10,5-11,5 sm) kapalaklar chiqadi.**

3567. Eman ipak qurti urug'laridan taxminan necha kunda qurt chiqadi? **15 kunda qurt chiqadi.**

3568. Eman ipak qurtlari nima bilan boqiladi? **Eman daraxti bargi bilan boqiladi.**

3569. Eman ipak qurti necha marta po'st tashlaydi? **To'rt marta po'st tashlaydi.**

3570. Eman ipak qurti necha kunda pillab o'rab, uning ichida g'umbakka aylanadi? **35 – 45 kunda pilla o'rab, g'umbakka aylanadi.**

3571. Eman ipak qurtining yozgi g'umbaklaridan qachon kapalaklar chiqadi? **Iyul oyining o'rtalarida kapalaklar chiqadi.**

3572. Eman ipak qurtining urug'langan urg'ochi kapalaklari urug' tashlaydi, rivojlanishi bahorgidek davom etsa ham necha kunda tugaydi? **20 – 25 kunda tugaydi.**

3573. Eman ipak qurti, asosan, qaysi mamlakatlarda bo'ladi? **Sharqiy Osiyo mamlakatlarida bo'ladi.**

3574. Eman ipak qurtining pillasi tut ipak qurtinikidan necha marta og'ir bo'ladi? **2 – 3 marta og'ir bo'ladi.**

3575. Eman ipak qurtining ipagi og'irligi tut ipak qurtinikidan necha marta kam? **1,7 – 2 marta kam.**

3576. Eman ipak qurti (yapon) (A. Jomamai) qaerda hayot kechiradi? **O'rmonda hayot kechiradi.**

3577. Eman ipak qurtining pillasi to'lapigicha nima qilmaydi? **Chuvalanmaydi.**

3578. Eman ipak qurtining pillasidan qayerda foydalaniladi? **Ip yigirishda foydalaniladi.**

3579. Eman ipak qurti (Xitoy)ning ipagi tut ipak qurtinikidan nimasi bilan farq qiladi? **Yo'g'onligi bilan, lekin juda pishiqligi bilan ham farq qiladi.**

3580. Eman ipak qurti (Xitoy)ning kamchiligi nimalardan iborat? **Uning qiyin chuvalanishi, pillada ipak miqdorining kamligi (o'rtacha 8 – 9 foiz) hamda qurtning ozuqa sifatida yuqori talabchanligi va boqishning qiyinligi.**

3581. Embiyalar qaysi jonivorlar turkumi? **Hasharotlar turkumi.**

3582. Embiyalarning nechta turi ma'lum? **150 ta turi ma'lum.**

3583. Embiyalar qaysi mintaqalarda ko'p? **Iliq va tropik mintaqalarda ko'p.**

3584. Embiyalarning qanoti nechta juft? **2 juft.**

3585. Embiyalarning uzunligi necha mm? **1,5 – 22 mm.**

3586. Embiyalarning qaysi birida (erkaklaridami yoki urg'ochilaridami) qanotlari rivojlangan? **Erkaklarida qanotlari rivojlangan.**

3587. Embiyalarning qaysi a'zolari kemiruvchi? **Og'iz a'zolari kemiruvchi.**

3588. Embiyalarning qaysi a'zolari boshidan uzunroq? **Mo'ylovlari boshidan uzunroq.**

3589. Embiyalarning ipak hosil qiluvchi suyuqlik ishlab chiqaradigan qaysi a'zolari bor? **Bezlari bor.**

3590. Embiyalar qorin bo'limining uchki qismida necha bo'g'imli o'simtasi joylashgan? **2 bo'g'imli o'simtasi joylashgan.**

3591. Embiyalar ko'proq qayerlarda qanday bo'lib inda yashaydi? **O'rmonlarda oila bo'lib inda yashaydi.**





3592. Embiyalar qayerlarga qandaysimon in quradi? **Daraxtlar po'stlog'i va toshlar ostiga, tuproqqa ipak iplardan ko'p tarmoqli naysimon in quradi.**

3593. Embiyalarning ba'zi turlari qanday hayvon? **Yirtqich hayvon.**

3594. Embiyalarning qaysi turi Qrim va Kavkazda tarqalgan? **Pelikt embiya turi Qrim va Kavkazda tarqalgan.**

3595. Embiyalarning qanday qaysi turi O'rta Osiyo hududida tarqalgan? **Qanotsiz Turkiston embiyasi tarqalgan.**

3596. Embrion rivojlanishining so'nggi davrlarida allantoisning embrionda qolgan qismi nimaga aylanadi? **Qovuqqa aylanadi.**

3597. Emu, emular qanday qushlar oilasi? **Yuguruvchi qushlar oilasi.**

3598. Emu qushlarning hozir saqlanib qolingan nechta turi bor? **Bitta turi bor.**

3599. Emu qush qayerlardagi cho'l va dashtlardagi butazorlarda yashaydi? **Avstraliya, Tasmaniyadagi cho'l va dashtlardagi butazorlarda yashaydi.**

3600. Emu qushning bo'yi necha sm gacha? **170 sm gacha.**

3601. Emu qushning og'irligi qancha kg? **45 – 55 kg.**

3602. Emu qushlar goho bir nechta moda birgalikda nechta tuxum qo'yadi? **8 – 10 ta tuxum qo'yadi.**

3603. Emu qushning tuxumini qaysi biri (narimi yoki modasimi) necha kun bosadi? **53 – 66 kun nari bosadi.**

3604. Eng kam uvildiriq (tuxum) tashlaydigan baliqlar qaysilar? **Ba'zi akulalar.**

3605. Eng katta baliqning nomi nima? **Kit-akula.**

3606. Eng katta baliqning tanasi uzunligi necha m gacha? **15 m gacha.**

3607. Eng katta kaptar qayerda yashaydi? **Yangi Gvineyada yashaydi.**

3608. Eng katta kaptar bo'yi necha sm cha? **80 sm cha.**

3609. Eng katta kaptar qanday kaptar? **Tojli kaptar.**

3610. Eng katta qush qaysi? **Afrika tuyaqushi.**

3611. Eng katta Afrika qushining bo'yi necha m? **3 m.**

3612. Eng katta Afrika qushining og'irligi qancha kg? **160 kg.**

3613. Eng katta, ya'ni o'z og'irligiga nisbatan yurakli qushning nomi nima? **Kolibri.**

3614. Eng katta timsoh qaysi? **Nil timsohi.**
3615. Eng katta timsohning uzunligi necha m? **6 – 7 m.**
3616. Eng katta fil qaysi? **Afrika fili.**
3617. Eng katta filning og'irligi qancha t? **12 t.**
3618. Eng katta elektr kuchlanishli baliq qaysi? **Afrika Nil laqqasi.**
3619. Eng katta urug'i – baqalarning er yuzida keng tarqalgan qancha turi bor? **200 ga yaqin turi bor.**
3620. Eng katta qurbaqa qaysi? **Golliaf.**
3621. Eng katta qurbaqaning tanasi uzunligi necha sm? **30 sm.**
3622. Eng katta qurbaqaning og'irligi qancha kg? **3,5 kg.**
3623. Eng katta pingvinning nomi nima? **Imperator.**
3624. Eng katta ilonning nomi nima? **Anakonda.**
3625. Eng katta ilonning tanasi uzunligi necha m? **12 m.**
3626. Eng katta ilonning og'irligi qancha kg? **250 kg.**
3627. Eng katta kemiruvchining nomi nima? **Kabibara.**
3628. Eng katta echkiemarning nomi nima? **Komandor ajdari.**
3629. Eng katta maymun qaysi? **Gorilla.**
3630. Eng katta maymunning og'irligi qancha kg? **200 kg.**
3631. Eng kichik maymunning og'irligi qancha g? **400 g.**
3632. Eng katta pingvinning og'irligi qancha kg? **400 kg.**
3633. Eng katta pingvinning bo'yi necha m? **1,17 m.**
3634. Eng katta xaltali hayvon qaysi? **Kenguru.**
3635. Eng katta kapalak qayerda? **Yangi Zellandiyada.**
3636. Eng katta kapalakning nomi nima? **Qirol Aleksandr qo'shqanoti.**
3637. Eng katta kapalakning tanasi uzunligi necha sm? **28 sm.**
3638. Eng yirik chumoli qaysi? **Avstraliya buqa chumolisi.**
3639. Eng yirik pashsha – ulkan qitirning uzunligi necha mm ga yetadi? **50 mm ga yetadi.**
3640. Eng kichik baliqning nomi nima? **Buzovga (Pandaka pygmaea).**
3641. Eng kichik baliqning tanasi uzunligi necha sm? **1 sm.**
3642. Eng kichik qush qaysi? **Kolibri qushi.**
3643. Eng kichik qush turi qaysi? **Melyuziga minima turi.**
3644. Eng kichik qushning og'irligi qancha g? **2 g.**
3645. Eng mitti o'rgimchak qayerda yashaydi? **Panamaning tropik o'rmonlarida yashaydi.**





3646. Eng mitti sut emizuvchi hayvon qaysi? **Mitti ko'rshapalak.**
3647. Eng mitti sut emizuvchi hayvonning nomi nima? **Krazelanikteres tongloniya.**
3648. Eng mitti sut emizuvchi hayvon – ko'rshapalakning og'irligi qancha g? **1,8 g.**
3649. Eng zaharli ilon qaysi? **Yashil bambuk iloni.**
3650. Eng ko'p ovlanadigan baliqlar qaysilar? **Seldsimonlar.**
3651. Eng yirtqich baliqning nomi nima? **Piraniya.**
3652. Eng sodda organizmlar haqidagi fanning nomi nima? **Protozoologiya.**
3653. Eng sodda hayvonlar tipiga mansub bir hujayrali eukariot organizmlarni o'rganuvchi fanning nomi nima? **Protistologiya.**
3654. Eng chopqir hayvonning nomi nima? **Gepard.**
3655. Eng uzoqqa uchuvchi qush qaysi? **Manorx qushi.**
3656. Eng uzun bo'yli hayvon qaysi? **Jirafa.**
3657. Eng uzun bo'yli hayvon jirafaning bo'yi necha m? **5 m.**
3658. Eng uzoqqa uchuvchi baliqning nomi nima? **Sumatra balig'i.**
3659. Eng uzoqqa uchuvchi baliq necha m gacha necha m balandlikda uchib boradi? **400 m gacha 12 m balandlikda uchib boradi.**
3660. Eng faol yirtqich kanalar qaysi oilalarga mansub turlar? **Fitoesid va boshq. oilalarga mansub turlar.**
3661. Eng faol yirtqich kanalar qayerlarda yetishtiriladigan bodringlardagi hamda bog' va tokzorlardagi o'rgimchakkanalarga qarshi qo'llaniladi? **Issiqxonalarda yetishtiriladigan bodringlardagi hamda bog' va tokzorlardagi o'rgimchakkanalarga qarshi qo'llaniladi.**
3662. Erkak kapalak necha oyligida jinsiy yetiladi? **6 – 8 oyligida jinsiy yetiladi.**
3663. Erkak va urg'ochi kapalaklar bir-biri bilan juftlashib, nima tashlaydi? **Tuxum tashlaydi.**
3664. Erkak cho'chqalardan necha yil foydalaniladi? **7 – 8 yil foydalaniladi.**
3665. Erkak hayvonlarning sut bezlari hayoti davomida qanday holatda bo'ladi? **Pudimang holatda bo'ladi.**

3666. Erkin birlamchi bo'shliqlilar qayerlarda yashaydi? **Dengizlarda, chuchuk suvlarda yashaydi.**

3667. Erkin suzuvchi igna tanlilarda og'iz odatda, qaysi tomonda, chiqarish teshigi qaysi tomonda? **Qorin (oral) tomonida. Chiqarish teshigi esa qarama-qarshi-orqa (aboral) tomonida.**

3668. Erkin yashovchi to'garak chuvalchanglar maydasining uzunligi necha mm dan necha mm gacha? **0,05 mm dan 5 mm, ba'zan 50 mm gacha.**

3669. Erkin yashovchi to'garak chuvalchanglarning parazit turlari, odatda, mayda, lekin bir qancha turlari uzunligi necha sm ga etadi? **20 – 40 sm ga, ba'zan 8,4 m ga etadi (kashalotlar bachadonidan topilgan gigant platsentonema).**

3670. Eskulap ilon qaysi oilaga mansub? **Suvilonlar oilasiga mansub.**

3671. Eskulap ilon qayerlarda tarqalgan? **Janubiy, O'rta va Sharqiy Yevropa, G'arbiy Kavkaz, Yevropaning janubida tarqalgan.**

3672. Eskulap ilonning urg'ochisi nechta tuxum qo'yadi? **5 – 8 ta tuxum qo'yadi.**

3673. Eskulap ilonning uzunligi necha m gacha? **1,5 m gacha.**

3674. Eskulap ilon qayerlarda yashaydi? **Tog'larning toshli yon bag'irlari, xarobalar va bargli o'rmonlarda yashaydi.**

3675. Eskulap ilon qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Kemiruvchi va mayda qushlar bilan ovqatlanadi.**

3676. Eskulap ilon o'ljasini qanday o'ldiradi? **Tanasi bilan o'rab olib, bo'g'ib o'ldiradi.**

3677. Eublefarlar qaysi jonivorlarning kenja oilasi? **Kaltakesaklarning kenja oilasi.**

3678. Eublefarlarning nechta turi ma'lum? **15 ta turi ma'lum.**

3679. Eublefarlar qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy Amerikaning janub va o'rta qismi, Ekvador, G'arbiy Afrika, Somali, Hindiston, Mesopotamiya va boshqa joylarda tarqalgan.**

3680. Eublefarlar qayerlarda yashaydi? **Dasht va cho'llarda yashaydi.**

3681. Eublefarlarning qaysi turi Janubiy Turkmanistonda uchraydi? **Eron eublefari turi uchraydi.**





3682. Eublefarlarning tanasi necha sm gacha? **16 sm gacha.**

3683. Eublefarlar qaysi oylarda tuxum qo'yadi? **May – iyulda tuxum qo'yadi.**

3684. Efa qanday ilonlarning bir urug'i? **Qora ilonlarning bir urug'i.**

3685. Exinokokk qanday chuvalchanglar sinfiga mansub parazit? **Tasmasimon chuvalchanglar sinfiga mansub parazit.**

3686. Exinokokk voyaga etgan davrda qaysi yirtqich hayvonlar ichagida parazitlik qiladi? **It, bo'ri, chiyabo'ri, mushuk ichagida parazitlik qiladi.**

3687. Exinokokkning tanasi uzunligi necha mm? **3 – 6 mm.**

3688. Exinokokkning gavdasi nechta so'rg'ichli bosh, necha bo'g'imli tanadan iborat? **4 ta so'rg'ichli bosh, 3 – 4 bo'g'imli tanadan iborat.**

3689. Exinokokkning qaysi bo'g'imdagi a'zolarida tuxum hujayralar yetiladi? **Oxirgi bo'g'imdagi jinsiy a'zolarida tuxum hujayralar yetiladi.**

3690. Exiuridlar qanday hayvonlar tipi? **Umurtqasiz hayvonlar tipi.**

3691. Exiuridlarning gavdasi qanday shaklda? **Silindrsimon shaklda.**

3692. Exiuridlar nimalarga bo'lingan? **Bo'g'imlarga bo'lingan.**

3693. Exiuridlarning gavdasi uzunligi necha sm dan necha sm gacha? **3 sm dan 185 sm gacha.**

3694. Exiuridlarning uzun (1 m gacha) kipriklar bilan qoplangan qaysi a'zosi ovqatni og'ziga surish uchun xizmat qiladi? **Xartumi ovqatni og'ziga surish uchun xizmat qiladi.**

3695. Exiuridlarning og'zi qaysi a'zosi asosida joylashgan? **Xartumi asosida joylashgan.**

3696. Exiuridlar tanasining oldingi qorin tomonida necha juft qili bor? **Bir juft qili bor.**

3697. Exiuridlarning ichagi qaysi teshigiga ochiladi? **Anal teshigiga ochiladi.**

3698. Exiuridlarning juft anal xaltasi kiprikli voronka bilan ta'minlangan bo'lib, qanday funksiyalarni bajaradi? **Ayirish va nafas olish funksiyalarini bajaradi.**

3699. Exiuridlarning jinsiy hujayralari necha juft nefromiksiyalar orqali chiqariladi? **1 – 4 juft nefromiksiyalar orqali chiqariladi.**

3700. Exiuridlarning qaysi sistemasi yaxshi rivojlangan? **Qon aylanish sistemasi yaxshi rivojlangan.**

3701. Exiuridlarning asab sistemasi halqum atrofidagi qanday zanjirdan iborat? **Asab halqasi va qorin asab zanjiridan iborat.**

3702. Exiuridlar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

3703. Exiuridlarning I sinfga mansub qancha turi bor? **150 ga yaqin turi bor.**

3704. Exiuridlar qayerdagi nimaga ko'milib yashaydi? **Dengiz tubidagi balchiqqa ko'milib yashaydi.**

3705. Echki qaysi oilaga mansub juft tuyoqli kovsh qaytaruvchi hayvon? **Quvushshoxlilar oilasiga mansub kovsh qaytaruvchi hayvon.**

3706. Echkidan olinadigan asosiy mahsulotlar nima? **Sut, go'sht, teri, jun, tivit.**

3707. Echkidan xo'jaliklarda necha yil foydalaniladi? **7 – 8 yil foydalaniladi.**

3708. Echki necha oyligida dastlab jinsiy uyg'onadi? **5 – 8 oyligida dastlab jinsiy uyg'onadi.**

3709. Echki necha oyligida qochiriladi? **14 – 18 oyligida qochiriladi.**

3710. Echki necha yil yashaydi? **9 – 10 yil, ko'pi 17 yil yashaydi.**

3711. Echki sutining yog'liligi necha foiz? **3,8 – 4,5 foiz.**

3712. Echkining homiladorlik davri necha oycha? **5 oychadi?** 3713. Echki (urg'ochisi)ning 100 boshidan nechta uloq olinadi? **150 – 250 ta uloq olinadi.**

3714. Echkilarning ba'zilari bir galda nechtadan bola tug'adi? **5 tadan bola tug'adi.**

3715. Echki yaxshi sharoitda asrab boqilganda yiliga necha marta bolalaydi? **2 marta bolalaydi.**

3716. Echki serkasining tirik og'irligi qancha kg? **60 – 65 kg, ba'zan 100 kg gacha.**

3717. Echkining urg'ochisi og'irligi qancha kg? **40 – 60 kg.**





3718. Echkining sersut zotlaridan yiliga qancha kg sut sog'ib olinadi? **450 – 550 kg sut sog'ib olinadi.**

3719. Echkidan ilg'or xo'jaliklarda qancha kg gacha sut sog'ib olinadi? **1000 kg gacha. sut sog'ib olinadi.**

3720. Echki sutining yog'liligi necha foiz? **3,8 – 4,5 foiz.**

3721. Echki junining uzunligi necha sm? **15 – 18 sm.**

3722. Echki serkasining har biridan qancha kg jun qirqib olinadi? **4 – 6 kg jun qirqib olinadi.**

3723. Echkining urg'ochisidan qancha kg jun qirqib olinadi? **3 – 5 kg jun qirqib olinadi.**

3724. Echkining sertivit zotlari qancha kg, ko'pi bilan qancha kg gacha tivit beradi? **0,2 – 0,5 kg, ko'pi bilan 2 kg gacha tivit beradi.**

3725. Echkining yaxshi boqilgan katta yoshdagisi qancha kg go'sht qiladi? **20 – 28 kg go'sht qiladi.**

3726. Echkining yaxshi boqilgan katta yoshdagisi qancha kg yog' qiladi? **4 – 6 kg yog' qiladi.**

3727. Echkilarning 7 – 10 oyligi qancha kg go'sht qiladi? **12 kg go'sht qiladi.**

3728. Echkilarning 7 – 10 oyligi qancha kg yog' qiladi? **1,5 kg yog' qiladi.**

3729. Echkemarsimonlar qaysi jonivorlar kenja turkumiga mansub sudralib yuruvchilar oilasi? **Kaltakesaklar kenja turkumiga mansub sudralib yuruvchilar oilasi.**

3730. Echkemarsimonlarning hozir yashab turgan necha urug'i mavjud? **Bir urug'i (Varanus) mavjud.**

3731. Echkemarsimonlarning tanasi qanday? **Cho'ziq.**

3732. Echkemarsimonlarning oyoqlari qanday rivojlangan? **Yaxshi rivojlangan.**

3733. Echkemarsimonlarning tili qanday, uchi necha ayrili? **Uzun, ikki ayrili.**

3734. Echkemarsimonlarning nechta turi bor? **24 ta turi bor.**

3735. Echkemarsimonlar qaysi mintaqalarda tarqalgan? **Sharqiy yarim shardagi tropik, subtropik va qisman mo''tadil mintaqalarda tarqalgan.**

3736. Echkemarsimonlar qaerda uchramaydi? **Madagaskarda uchramaydi.**

3737. Echkemarsimonlar, odatda, qayerlarda yashaydi? **Ochiq yerlarda, daryo va boshq. chuchuk suv havzalari qirg'oqlarida yashaydi.**

3738. Echkemarsimonlar suvda yaxshi nima qiladi? **Suzadi va sho'ng'iydi.**

3739. Echkemarsimonlar qanday yuguradi? **Tez yuguradi.**

3740. Echkemarsimonlarning pleyston davrida yashagan qazilma ajdodlarining uzunligi necha m gacha bo'lgan? **10 m gacha bo'lgan.**

3741. Echkemarsimonlar qanday hayvon? **Yirtqich hayvon.**

3742. Echkemarsimonlarning urg'ochisi nechta tuxum qo'yadi? **10 – 23 ta tuxum qo'yadi.**

3743. Echkemarsimonlar necha yoshida jinsiy yetiladi? **3 yoshida jinsiy yetiladi.**

3744. Echkemarsimonlar O'zbekiston Respublikasi va O'rta Osiyo davlatlarining qaysi kitobiga kiritilgan? **Qizil kitobiga kiritilgan.**

3745. Eshak – otlar urug'ining qanday (juftmi yoki toqmi) tuyoqli sut emizuvchilar kenja urug'i (A sinus)ga masub hayvon? **Toq tuyoqli sut emizuvchilar kenja urug'i (A sinus)ga masub hayvon.**

3746. Eshak necha ming yil avval dastlab qayerda xonakilashtirilgan? **5 – 6 ming yil avval dastlab Qadimgi Misrda xonakilashtirilgan.**

3747. Eshak soni jahon bo'yicha necha mln boshni tashkil etadi? **43,4 mln boshni tashkil etadi.**

3748. Eshak qaysi mamlakatlarda ko'p boqiladi? **Misr, Efiopiya, Nigeriya, Braziliya, Eron, Pokiston, Ispaniya va boshqa mamlakatlarda ko'p boqiladi.**

3749. Eshak (xonaki)larning urug'boshi qaysi davlatlarda tarqalgan? Bo'yi necha sm li Afrika yovvoyi eshagi (Egnus asinus) hisoblanadi? **Somali, Efiopiyada tarqalgan. Bo'yi 100 – 120 sm li Afrika yovvoyi eshagi (Egnus asinus) hisoblanadi.**

3750. Eshak (xonaki) necha zot guruhini tashkil qiladi? Ular qaysilar? **2 zot guruhini tashkil qiladi. Ular quyidagilar: Afrika va Osiyo (jumladan, Qozog'iston, O'rta Osiyo, Kavkaz) da tarqalgan mayda jaydari hamda Xitoy (Shandun provintsiyasi)da tarqalgan yirik eshaklar – zavod zotlari eshaklari**





**(bo'yi otlar kabi 145 – 160 sm). Bulardan, asosan, Yevropaning janubidagi va Amerika davlatlarida yirik xachirlar olish uchun foydalaniladi.**

3751. Eshak nimalari bilan otlardan farq qiladi? **Qulog'ining uzunligi, tuyog'ining torligi, dumining ingichkaligi, kalta va faqat uchida uzun juni borligi bilan otlardan farq qiladi.**

3752. Eshakdan qaerlarda qanday maqsadda foydalaniladi? **Tog'li rayonlarda yurish qiyin bo'lgan joylarda, cho'l-yaylovlarda minish va yuk tashish uchun foydalaniladi.**

3753. Eshak qancha kg, aravaga qo'shilganda qancha t gacha yuk tashiydi? **70 – 80 kg, 2,5 t gacha yuk tashiydi.**

3754. Eshak necha yil yashaydi? **18 – 30 yil yashaydi.**

3755. Eshak xo'tigi necha yoshidan boshlab qochiriladi? **2 yoshidan boshlab qochiriladi.**

3756. Eshakning homiladorlik davri o'rtacha necha sutka? **380 sutka.**

3757. Eshakdan necha yoshidan boshlab xo'jalik ishlarida foydalanish mumkin? **2 yoshidan boshlab xo'jalik ishlarida foydalanish mumkin.**

3758. Eshakqurtlar – tengoyoqli qisqichbaqasimonlar turkumiga mansub qanday hayvonlar? **Umurtqasiz hayvonlar.**

3759. Eshakqurtlarning qancha turi ma'lum? **1000 ga yaqin turi ma'lum.**

3760. Eshakqurtlar qayerlarda tarqalgan? **Hamma yerda tarqalgan.**

3761. Eshakqurtlar qayerlarda yashaydi? **Nam, iliq va quruq yerlarda yashaydi.**

3762. Eshakqurtlar qayerlarda ham uchraydi? **Rossiya, O'rta Osiyo, Kavkaz, Qrimda ham uchraydi.**

3763. Eshakqurtlarning tanasi uzunligi necha mm? **1 – 50 mm.**

3764. Eshakqurtlarning boshida nimalar bor? **Uzun antennalari va kalta antennulari bor.**

3765. Eshakqurtlarning ko'krak oyoqlari necha juft? **7 juft.**

3766. Eshakqurtlarning qorin oyoqlari necha juft? **5 juft.**

3767. Eshakqurtlarning yuragi qaysi qismida? **Qorin qismida.**

3768. Eshakqurtlar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

3769. Eshkakburunlilar qaysi turkumga mansub baliqlar oilasi? **Ostyorsimonlar (bakrabaliqlar) turkumiga mansub baliqlar oilasi.**

3770. Eshkakburunlilarning qaysi a'zosi yalong'och yoki mayda suyak tangachalar bilan qoplangan? **Terisi yalong'och yoki mayda suyak tangachalar bilan qoplangan.**

3771. Eshkakburunlilarning tumshug'i kengmi yoki tormi? **Keng.**

3772. Eshkakburunlilarning tumshug'i qanday shaklda? **Eshaksimon yoki qilichsimon shaklda.**

3773. Eshkakburunlilarning jag'laridа juda ko'p qanday (yirikmi yoki maydami) tishlari bor? **Mayda tishlari bor.**

3774. Eshkakburunlilarning necha urug'i bor? **2 ta urug'i bor.**

3775. Eshkakburunlilarning har qaysi urug'ida nechtadan turi ma'lum? **1 tadan turi ma'lum.**

3776. Eshkakburunlilarning uzunligi necha m gacha? **2 m gacha.**

3777. Eshkakburunlilarning og'irligi qancha kg gacha? **75 kg gacha.**

3778. Eshkakburunlilar qayerdagi nimalar bilan ovqatlanadi? **Bantosdagi chuvalchanglar, hasharotlar, qisqichbaqasimonlar va suv o'tlar bilan ovqatlanadi.**

3779. Eshkakburunlilar qaysi oylarda ko'payadi? **Mart – iyun oylarida ko'payadi.**

3780. Eshkakburunlilarning soni kamayib ketganligi sababli qaysi kitobga kiritilgan? **Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

3781. Eshkakburunlilarning qaysi turi Yantszi daryosi (Xitoy) da yashaydi? **Psefur turi yashaydi.**

3782. Eshkakburunlilarning psefur turi uzunligi necha m gacha? **7 m gacha.**

3783. Eshkakburunlilarning psefur turi qanday hayvon? **Yirtqich hayvon.**

3784. Eshkakburunlilarning psefur turi qanday ovlanadi? **Qisman ovlanadi.**

3785. Eshkakoyoqli, kurakoyoqli qushlar barmog'ining nechtasi suzgich parda bilan birlashgan? **To'rt barmog'ining hammasi suzgich parda bilan birlashgan (nomi shundan).**

3786. Eshkakoyoqli baqalar baqalarning qaerlarda yashovchilar oilasi? **Dumsiz suvda va quruqlikda yashovchilar oilasi.**

3787. Eshkakoyoqli baqalarning nechta urug'i, qancha turi mavjud? **17 ta (yoki 10) urug'i, 400 dan ortiq turi mavjud.**





3788. Eshkakoyoqli baqalar qayerlarda mavjud? **Markaziy va janubiy Afrikada, Madagaskarda, Janubi-sharqiy Osiyoda va Zond arxipelagida mavjud.**

3789. Eshkakoyoqli baqalarning ko'pchilik turi qaerlarda yashaydi? **Daraxtlarda yashaydi.**

3790. Eshkakoyoqli baqalarning qaysi urug'a mansub? **Rhacophorus urug'iga mansub eshkakoyoqli baqalar.**

3791. Eshkakoyoqli baqalarning oldingi va orqa panjalari orasida nima bor? **Parda bor.**

3792. Eshkakoyoqli baqalarning oldingi va orqa panjalari orasida parda bo'lib, shu yordamida necha m gacha masofaga sakraydi? **12 m gacha.**

3793. Eshkakoyoqli qisqichbaqalar qaysi sinfga mansub umurtqasiz hayvonlar sanaladi? **Qisqichbaqasimonlar sinfiga mansub umurtqasiz hayvonlar sanaladi.**

3794. Eshkakoyoqli qisqichbaqalarning kattaligi necha mm? **0,1 – 13 mm.**

3795. Eshkakoyoqli qisqichbaqalar dengizda planktonning necha foizgacha qismini tashkil etadi? **90 foizgacha qismini tashkil etadi.**

3796. Eshkakoyoqli qisqichbaqalarning ayrim parazit turlari uzunligi necha sm gacha? **30 sm gacha.**

3797. Eshkakoyoqli qisqichbaqalarning gavdasi qaysi qismlarga bo'linadi? **Murakkab bosh, ko'krak va qoringa bo'linadi.**

3798. Eshkakoyoqli qisqichbaqalarning murakkab boshga yana qaysi a'zo ham kiradi? **1-ko'krak bo'g'imli ham kiradi.**

3799. Eshkakoyoqli qisqichbaqaning ko'kragi necha bo'g'imli? **5 bo'g'imli.**

3800. Eshkakoyoqli qisqichbaqaning qorini necha bo'g'imli? **4 bo'g'imli.**

3801. Eshkakoyoqli qisqichbaqalarning qorni bo'limida qaysi a'zolari bo'lmaydi? **Oyoqlari bo'lmaydi.**

3802. Eshkakoyoqli qisqichbaqalarda faqat qanday ko'zehasi bor? **Nauplius ko'zehasi bor.**

3803. Eshkakoyoqli qisqichbaqalarning antennulalari uzun bo'lib, qaysi vazifalarni bajaradi? **Sezgi a'zosi, suzish va suvda muallaq turish vazifalarini bajaradi.**

3804. Eshkakoyoqli qisqichbaqalar suzganda qaysi a'zolar eshkak rolini o'ynaydi? **Ko'krak oyoqlar (nomi shundan) eshkak rolini o'ynaydi.**

3805. Eshkakoyoqli qisqichbaqalar qaysi a'zosi orqali nafas oladi? **Tana yuzasi orqali nafas oladi.**

3806. Eshkakoyoqli qisqichbaqalar qaysi suv hayvonlari uchun ovqat? **Baliqlar va ularning chavoqlari, mo'ylovli kitlar va boshq. suv hayvonlari uchun ovqat.**

3807. Eshkakoyoqli qisqichbaqalarning qaysi a'zosi shakli yashash tarziga bog'liq? **Tana shakli yashash tarziga bog'liq.**

3808. Eshkakoyoqli qisqichbaqalarning qancha turi ma'lum? **6 mingdan ortiq turi ma'lum.**

3809. Eshkakoyoqli qisqichbaqalar chuchuk suv va dengizlarda nimaning asosiy qismini tashkil etadi? **Planktonning asosiy qismini tashkil etadi.**

3810. Eshkakoyoqli qisqichbaqalarning chuchuk suv havzalarida, jumladan, O'zbekistonda qaysi turi, dengizlarda qaysi turi keng tarqalgan? **Sikloplar, kalanuslar keng tarqalgan.**

3811. Faol migratsiya qilish uchun hayvonlar nimalarni biologik sezish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak? **Vaqt va yo'nalishini biologik sezish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.**

3812. Farishta qanotlari deb ataluvchi, o'zidan nur taratuvchi chig'anoq faqat qaysi daryoda uchraydi? **Faqat Niger daryosida uchraydi.**

3813. Fastsiolidalar qaysi jonivorlar sinfining bir turkumi? **Termatodalar sinfining bir turkumi.**

3814. Fastsiolidalarning nechta kenja turkumi bor? **12 ta kenja turkumi bor.**

3815. Fastsiolidalar yovvoyi va uy hayvonlari, shuningdek, odam nimasi? **Paraziti.**

3816. Fastsiolidalar turli shakldagi tanasi uzunligi necha mm dan necha sm gacha? **Bir necha mm dan bir necha sm gacha.**

3817. Fastsiolidalarning qaysi a'zo teshigi bosh so'rg'ichda joylashgan? **Og'iz teshigi bosh so'rg'ichda joylashgan.**

3818. Fastsiolidalar ayrimlarining qaysi a'zo so'rg'ichi tikanaklar va muskulli "yoqa" bilan o'ralgan? **Bosh so'rg'ichi tikanaklar va muskulli "yoqa" bilan o'ralgan.**





3819. Fastsiolidalarning qaysi a'zo so'rg'ichi ham mavjud? **Qorin so'rg'ichi ham mavjud.**

3820. Fastsiolidalarning tipik vakili qaysi a'zo qurti? **Jigar qurti.**

3821. Faqat ma'lum bir viloyatdagina uchraydigan turlar nimalar deb ataladi? **Endemiklar deb ataladi.**

3822. Faqat o'simlik bilan oziqlanuvchi hayvonlar nima deyiladi? **Fitooraglar deyiladi.**

3823. Faqat o'simlik bilan ovqatlanuvchi hayvonlarga, asosan, qaysi jonivorlar kiradi? **Hasharotlar kiradi.**

3824. Faqat qaysi skat mugus kapsulaga o'ralgan yirik tuxumlarini suv tubiga qo'yadi? **Pombsimon skat mugus kapsulaga o'ralgan yirik tuxumlarini suv tubiga qo'yadi.**

3825. Faqat qaysi xordalilar (lantsentniklar)da qorin tomiri qisqarish xususiyatiga ega? Tuban xordalilar **(lantsentniklar)da qorin tomiri qisqarish xususiyatiga ega.**

3826. Faqat quruqlikda va suvda yashovchilarda qovuq nimadan hosil bo'ladi? **Kloakaning qorin o'simtasidan hosil bo'ladi.**

3827. Faeton qanday qushlar turkumining bir oilasi? **Kurakoyoqli qushlar turkumining bir oilasi.**

3828. Faetonning nechta turni birlashtirgan nechta urug'i ma'lum? **3 turni birlashtirgan bir urug'i ma'lum.**

3829. Faeton qaysi okeanlarning tropik qismida tarqalgan? **Hind, Atlantika va Tinch okeanlarning tropik qismida tarqalgan.**

3830. Faetonning tanasi uzunligi necha sm? **30 – 45 sm.**

3831. Faetonning og'irligi qancha kg? **0,9 – 1,4 kg.**

3832. Faeton qanday rangda? **Nim pushti rangda.**

3833. Faetonning dumi qanday? **Juda uzun.**

3834. Faetonning qanday xollari bor? **Qora xollari bor.**

3835. Faeton nima uchun quruqlikda qiyinchilik bilan yuradi? **Chunki oyog'i qisqa, nozik bo'lgani uchun quruqlikda qiyinchilik bilan yuradi.**

3836. Fierasferalar, karapuslar qaysi turkumga mansub baliqlarning oilasi? **Olabug'asimonlar turkumiga mansub baliqlarning oilasi.**

3837. Fierasferalar, karapuslarning nechta uruqqa birlashgan nechta turi ma'lum? **4 ta uruqqa birlashgan 25 ta turi ma'lum.**

3838. Fierasferalar, karapuslarning anal teshigi qayerda joylashgan? **Jabralari orasida joylashgan.**

3839. Fierasferalar qaerlardagi dengiz qirg'oqlarida tarqalgan? **Tropik va subtropikdagi dengiz qirg'oqlarida tarqalgan.**

3840. Fierasferalarning gavdasi uzunligi necha sm cha? **30 sm cha.**

3841. Fierasferalar tanasi nimasiz? **Tangachasiz.**

3842. Fierasferalarning metamorfozi necha bosqichda o'tadi? **2 bosqichda o'tadi.**

3843. Fierasferalar metamorfozining birinchi bosqichida lichinka (veksillifer) qaerda yashasa, keyingisida esa lichinka (tenuis) qaerda goloturiya, dengiz yulduzlari, ikki tavaqali mollyuska, astsidiya va boshq. xo'jayin hayvon organizmida parazitlik qiladi? **Suv qatlamida yashasa, keyingisida suv tubida goloturiya, dengiz yulduzlari, ikki tavaqali mollyuska, astsidiya va boshq. xo'jayin hayvon organizmida parazitlik qiladi.**

3844. Fil – xartumlilar turkumining bir nimasi? **Oilasi.**

3845. Fil qaysi a'zosi yordamida ovqatni qamrab oladi? **Xartumi yordamida ovqatni qamrab oladi.**

3846. Fil bir minutda necha marta nafas oladi? **10 marta nafas oladi.**

3847. Fillar va primatlarda sut bezlari qaysi a'zo qismida? **Ko'krak qismida.**

3848. Fillarning nechta urug'i bor? Ular qaysilar? **2 ta urug'i bor. Ular quyidagilar: Afrika fillari (2 tur) va osiyo fillari (1 tur) urug'i bor.**

3849. Fillar, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Asosan, Osiyo va Afrikaning o'rmon hamda savannalarida tarqalgan.**

3850. Fillarning bo'yi necha m? **3 – 3,5 m.**

3851. Fillarning og'irligi qancha t? **5 – 7,5 t.**

3852. Fillarning terisi qanday? **Kalta va siyrak tukli.**

3853. Fillar oyoqlari qanday? **Yo'g'on, baquvvat.**

3854. Fillarning oldingi oyoqlarida nechta barmoq bor? **5 ta barmoq bor.**

3855. Fillarning orqasidagi oyoqlarida nechta barmoq bor? **4 ta yoki 5 ta barmoq bor.**





3856. Fillar oyoq kaftining tagida yumshoq massa bo'lishiga sabab nima? **Fillarning tovushsiz harakatlanishini ta'minlashi uchun.**

3857. Fillar bir kunda necha km cha yo'l yurishi mumkin? **100 km cha yo'l yurishi mumkin.**

3858. Fillar jag'ining ustki va pastki qismida nechtadan oziq tishi bor? **1 tadan oziq tishi bor, ular vaqt-vaqti bilan yeyilib, tushadi va o'rniga boshqasi chiqadi.**

3859. Fillarning yuqori jag'idagi nechta kurak tishi tashqariga chiqib turadi? **2 ta kurak tishi tashqariga chiqib turadi.**

3860. Fillarning yuqori jag'idagi kurak tishlari necha yoshgacha o'sadi? **Umr bo'yi o'sadi.**

3861. Filning qaysinisida (erkagidami yoki urg'ochisidami) yuqori jag'idagi 2 ta kurak tishlari yo'q? **Osiyo filining urg'ochisida yo'q.**

3862. Fillarda xartum qanday hosil bo'lgan? **Yuqorigi lab va burunning qo'shilib o'sishidan xartum (uchida sezgir o'simta bor) hosil bo'lgan.**

3863. Fillar xartumi qanday vazifani bajaradi? **Hid bilish, sezish va qamrab olish vazifasini bajaradi.**

3864. Fillar qanday yashaydi? **Turli yoshdagi individlarining 9 – 12 tasi poda bo'lib, goho yolg'iz yashaydi.**

3865. Fillarning bo'g'ozlik davri necha oy? **22 – 24 oy.**

3866. Fillar nechta, og'irligi qancha kg bola tug'adi? **Bitta (osiyo fillari, ba'zisi ikkita) 90 – 100 kg li bola tug'adi.**

3867. Fillar nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simlik, shox-shabbalari, bargi, mevasi, kurtaklari va boshq. (bir kunda 100 kg cha) bilan ovqatlanadi.**

3868. Fillar necha yil yashaydi? **70 – 80 yil yashaydi.**

3869. Fillar go'shti nimaga ishlatiladi? **Ovqatga ishlatiladi.**

3870. Fillarning qaysi a'zolaridan turli buyumlar yasaladi? **Suyagidan, dumidagi qattiq qilidan, terisidan turli buyumlar yasaladi.**

3871. Fillarni muhofaza qilish maqsadida joylarda nimalar tashkil qilingan? **Qo'riqxonalar tashkil qilingan.**

3872. Fillar suyagi – fillar qaysi tishining dektipi? **Kurak tishining dektipi.**

3873. Fillar suyagi mustahkam bo'lib, qanday tusda tovlanadi? **Oq-sarg'ish tusda tovlanadi.**

3874. Fillar suyagini qanday usullarda ishlov berish yo'li bilan eni 0,4 m li plastinalar olish mumkin? **Silliqlash, kesish, egish, plastifikatsiyalash va boshq. usullarda ishlov berish yo'li bilan eni 0,4 m li plastinalar olish mumkin.**

3875. Fillar suyagi qaysi bozorda juda qadrlanadi? **Xalqaro bozorda juda qadrlanadi.**

3876. Fillar suyagining eng yaxshilari qayerlardan eksport qilinadi? **Afrika va Hindistondan eksport qilinadi.**

3877. Fillar suyagidan qanday buyumlar tayyorlanadi? **Madaniy, xo'jalik va bezak buyumlari tayyorlanadi.**

3878. Fillar suyagi o'rnida qaysi hayvonlarning tishlari ham ishlatiladi? **Kashalot, morj kabilarning tishlari ham ishlatiladi.**

3879. Filtoshbaqa qaerda yashovchi toshbaqalarning bir turi? **Quruqlikda yashovchi toshbaqalarning bir turi.**

3880. Filtoshbaqalarning nechta kenja turi ma'lum? **10 ta kenja turi ma'lum (shundan bir nechta turi qirilib bitgan).**

3881. Filtoshbaqaning kosasi uzunligi necha sm cha? **150 sm cha.**

3882. Filtoshbaqaning bo'yi necha sm cha? **60 sm cha.**

3883. Filtoshbaqaning voyaga etganlarining og'irligi qancha kg cha? **100 kg, ba'zilari 400 kg cha.**

3884. Filtoshbaqaning erkagi yoki urg'ochisi yirikmi? **Erkagi yirik.**

3885. Filtoshbaqa qaysi orollarda tarqalgan? **Galapagos orollarida tarqalgan.**

3886. Filtoshbaqa nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklar bilan ovqatlanadi.**

3887. Filtoshbaqa necha oygacha suvsiz va ovqatsiz yashay oladi? **12 – 14 oygacha suvsiz va ovqatsiz yashay oladi.**

3888. Filtoshbaqasining inkubatsiya davri necha oy? **6 – 7 oy.**

3889. Filtoshbaqaning urg'ochisi qaysi oylarda yerni o'yib, 40 sm chuqurlikda, 2 – 22 ta sharsimon oq tuxumini (tovuq tuxumidan katta) ko'mib qo'yadi? **Noyabr – aprel oylarida yerni o'yib, 40 sm chuqurlikda, 2 – 22 ta sharsimon oq tuxumini (tovuq tuxumidan katta) ko'mib qo'yadi.**





3890. Filtoshbaqaning bolasi tuxumidan og'irligi qancha g li necha oyda chiqadi? **70 g li bolasi 6 – 7 oyda chiqadi.**

3891. Filippin buyvoli faqat qaysi orolda yashaydi? **Filippin orolida yashaydi.**

3892. Filippin buyvoli Hindiston buyvolidan kichikmi yoki kattami? **Kichik.**

3893. Filchalar qaysi turkumga mansub hasharotlar oilasi? **Qo'ng'izlar turkumiga mansub hasharotlar oilasi.**

3894. Filchalarning qancha turi ma'lum? **45 mingdan ziyod turi ma'lum.**

3895. Filchalarning O'zbekistonda nechta turi uchraydi? **1000 ga yaqin turi uchraydi.**

3896. Filchalarning uzunligi necha mm? **3 – 60 mm.**

3897. Filyarialar parazit yumaloq chuvalchanglarning nimasi? **Oilasi.**

3898. Filyarialarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **45 sm gacha.**

3899. Filyarialarning tanasi eni necha mm gacha? **0,33 mm gacha.**

3900. Filyarialarning nechta turi ma'lum? **380 ta turi ma'lum.**

3901. Filyarialar yetuk individ asosiy xo'jayin – odam va umurtqali hayvonlar qaysi a'zolarida yashaydi? **Tana bo'shlig'i, teri osti kletchatkasi, limfa hamda qon tomirlari va yuragida yashaydi.**

3902. Filyarialarning nechta turi odamda parazitlik qilib, filyariatozalarni qo'zg'aydi? **10 ta turi odamda parazitlik qilib, filyariatozalarni qo'zg'aydi.**

3903. Filloksera qaysi oilaga mansub to'g'riqanotli hasharot, xavfli tok zararkunandasi? **Fillokserasimonlar oilasiga mansub to'g'riqanotli hasharot, xavfli tok zararkunandasi.**

3904. Filokseraning uzunligi necha mm? **0,8 – 1,2 mm.**

3905. Filloksera birinchi marta nechanchi yilda qayerda topilgan? **1854-yilda Shimoliy Amerikada topilgan.**

3906. Filloksera qachon Yevropa tokzorlarida tarqalgan? **XX asr boshlarida Yevropa tokzorlarida tarqalgan.**

3907. Fillomeduzalar qaysi oilaning bir urug'i? **Baqaqurilloqlar oilasining bir urug'i.**

3908. Fillomeduzalarning nechta turi ma'lum? **30 ta turi ma'lum.**

3909. Fillomeduzalar, asosan, qaerda tarqalgan? **Markaziy va Janubiy Amerikada tarqalgan.**

3910. Fillomeduzalarning oyoqlaridagi nechanchi barmog'ini boshqalariga qarshi qo'ya olgani uchun narsalarni qamrab ushlaydi? **Birinchi (bosh) barmog'ini boshqalariga qarshi qo'ya olgani uchun narsalarni qamrab ushlaydi.**

3911. Fillomeduzalar quruqlikda qanday yuradilar? **Qadamlab yuradilar.**

3912. Fillomeduzalar o'ljasini qaysi a'zosi bilan ushlab yutadi? **Uzun, yopishqoq tili bilan ushlab yutadi.**

3913. Fillomeduzalarning tanasi uzunligi necha sm cha? **6 sm cha.**

3914. Fillomeduzalarning tanasi, odatda, usti rangi qanday? **Yashil.**

3915. Fillomeduzalarning qorin rangi qanday? **Qizil, binafsha va boshq. yorqin tusda.**

3916. Fillomeduzalarning barmoqlari orasidagi suzgich parda qanday? **Kam rivojlangan yoki yo'q.**

3917. Fillomeduzalar qayerlarda yashaydi? **Daraxtlarda yashaydi.**

3918. Fillomeduzalar qachon faol? **Qorong'i tushganda yoki tunda faol.**

3919. Fillomeduzalar yopishqoq uvildirig'ini (100 ga yaqin) qaysi oyda qayerlarga qo'yadi? **Yanvar oyida suv ustida osilib turgan barglarga o'rab yoki ular orasiga qo'yadi.**

3920. Fillomeduzalarning uvildirig'idan chiqqan itbaliq rivojlanishning qolgan bosqichlari (metamorfoz)ni qayerda o'tkazadi? **Suvda o'tkazadi.**

3921. Finval, seldsimon kit qaysi a'zosiz kitlar kenja turkumiga mansub sut emizuvchi? **Tishsiz kitlar kenja turkumiga mansub sut emizuvchi.**

3922. Finval qayerlarda tarqalgan? **Arktikadan Antarktikagacha bo'lgan joylarda tarqalgan.**

3923. Finval qaysi dengizlarda uchraydi? **Uzoq Sharq dengizlarida, kamdan-kam Barents va Oq dengizlarda uchraydi.**





3924. Finvalning urg'ochisi uzunligi necha m? **19 – 20 m (ba'zan 27,3 m, odatda, erkaklari urg'ochisidan 1 m gacha kalta).**

3925. Finvalning mo'ylovi plastinkalari soni qancha? **360 ga yaqin.**

3926. Finvalning bolasi uzunligi necha m? **6 – 7 m.**

3927. Finval qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Qisqichbaqasimonlar, baliqlar, boshoyoqli mollyuskalar bilan ovqatlanadi.**

3928. Finval qaysi Qizil kitobga kiritilgan? **Soni kamayib ketganligi bois tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgan.**

3929. Finka, finka qanday chuvalchanglarning lichinkalik bosqichlaridan biri? **Tasma (lenta)simon chuvalchanglarning lichinkalik bosqichlaridan biri.**

3930. Finka oraliq xo'jayinda nima qiladi? **Parazitlik qiladi.**

3931. Finkaning qanday turlari bor? **Sistitserkoiz (bir boshi, 6 ta ilmog'i va dum o'simtasi bor), sistitserk (bir boshli, dumsiz), sepur (juda ko'p boshli), exinokokk kabi turlari bor.**

3932. Fisrasferalar qayerlardagi dengiz qirg'oqlarida tarqalgan baliqlar? **Tropik va subtropikdagi dengizlar qirg'oqlarida tarqalgan baliqlar.**

3933. Fisrasferalarning gavdasi uzunligi necha sm cha? **30 sm cha.**

3934. Fisrasferalarning metamarfozi necha bosqichda o'tadi? **2 bosqichda o'tadi.**

3935. Fitogelmintlar, fitonematodalar nimalarda parazitlik qiluvchi to'garak chuvalchanglarning umumiy nomi? **O'simliklarda parazitlik qiluvchi to'garak chuvalchanglarning umumiy nomi.**

3936. Fitogelmintlar qaysi sinfga mansub? **Nematodalar sinfiga mansub.**

3937. Fitogelmintlarning qancha turi ma'lum? **10 mingdan ortiq turi ma'lum.**

3938. Fitogelmintlarning O'zbekistonda qancha turi ma'lum? **700 ga yaqin turi ma'lum.**

3939. Fitogelmitlarning gavdasi uzunligi necha mm? **0,2 – 5,0 (ba'zan 11) mm.**

3940. Fitogelmitlarning yo'g'onligi necha mkm? **10 – 100 mkm.**

3941. Fitogelmintlar bilan zararlangan o'simlik nimadan qoladi? **O'sishdan qoladi.**

3942. Fitogelmintlar bilan zararlangan a'zolarda nima paydo qiladi? **Bo'rtma (shish) paydo qiladi.**

3943. Fitogelmintlar bilan zararlangan a'zo to'qimalari yemirilib, nimaga uchraydi? **Nekrozga uchraydi.**

3944. Fifi qushi qaysi oilaga mansub? **Pjankalar oilasiga mansub.**

3945. Fifi qushi qayerlarda yashaydi? **Daryo va ko'l sohillaridagi botqoqliklarda yashaydi.**

3946. Flamingolar, qizil qanotlilar – qushlar turkumi bo'lib, gavdasining uzunligi necha sm gacha? **91 – 120 sm gacha.**

3947. Flamingolarning tumshug'i yuqoriga yoki pastga egilganmi? **Pastga egilgan.**

3948. Flamingolarning tili va tumshug'i chetlaridan qaysi a'zolari yordamida balchiqdan va loyqalangan suvdan mayda qisqichbaqasimonlar, chuvalchanglar, o'simlik urug'i va boshq. oziq moddalarni sizdirib oladi? **Muguz tishchalari yordamida balchiqdan va loyqalangan suvdan mayda qisqichbaqasimonlar, chuvalchanglar, o'simlik urug'i va boshq. oziq moddalarni sizdirib oladi.**

3949. Flamingolarning nechta oilasi bor? **1 ta oilasi bor.**

3950. Flamingolarning nechta turi bor? **6 ta turi bor.**

3951. Flamingolar qayerdan boshqa barcha tropik va subtropik hududlarda tarqalgan? **Avstraliyadan boshqa barcha tropik va subtropik hududlarda tarqalgan.**

3952. Flamingolarning nechta turi O'zbekiston hududida qachon uchraydi? U qaysi turi? **1 ta turi – Amudaryo vodiysi, Orol dengizi, Zarafshon, Farg'ona vodiysi suv havzalarida qishlab uchib o'tishi davrida uchraydi. Oddiy flamingo, ya'ni qizilqanot turi.**

3953. Flamingolar nechtadan nechtagacha qushlardan iborat koloniya hosil qiladi? **50 tadan 25 mingtagacha qushlardan iborat koloniya hosil qiladi.**

3954. Flamingolar nimalardan qanday uya qurib, nechta tuxum qo'yadi? **Qumdan va loydan konussimon uya qurib, 1 – 2 ta tuxum qo'yadi.**





3955. Flamingolarning qaysi biri (narimi yoki modasimi) necha kun tuxumlarini bosadi? **Nari va modasi navbatlashib 30 kunga yaqin bosadi.**

3956. Flamingolarning soni kamayib borayotganligi tufayli ovlash taqiqlanib, qanday kitobga kiritilgan? **O'zbekiston Respublikasi va boshq. mamlakatlarning Qizil kitobiga kiritilgan.**

3957. Foydali hasharotlar qanday guruhlarga ajratiladi? **O'simlik gullarini changlatuvchi, oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun ashyo beruvchi, ekinlar zarakunandalari va boshq. zarar beruvchi hayvonlar hamda begona o'tlarning tabiiy kushandalari, tabiiy jarayonlarda ishtirok etuvchilar kabi guruhlarga ajratiladi.**

3958. Foydali hasharotlardan qaysilari oziq-ovqat mahsulotlari va texnika materiallari beruvchilarga kiradi? **Asalarilar (asal va mum beradi), tut ipak qurti (pilla), ayrim gervetslar (lok ishlab chiqaradi) va boshq. kiradi.**

3959. Foydali hasharotlardan qaysilari zararkunanda hasharotlar kushandasi yoki ularda parazitlik qiluvchilarga kiradi? **Oltinko'zlar, sirfidlar, xonqizi qo'ng'izlari, kanaxo'r, tripslar, yirtqich qandala – ariuslar, afididlar va boshq. o'simliklarni himoya qilishning biologik usulida parazit entomofaglardan trixogramma, gidrabrakondan (tunlamlar tuxumi va qurtiga qarshi) foydalaniladi, shumg'uyaga qarshi mahalliy gerbifagfitomiza pashshasi muvaffaqiyatli qo'llaniladi.**

3960. Foydali hasharotlardan qaysi biri tuproq paydo bo'lishida ishtirok etadi? **Birlamchi qanotsiz hasharotlardan oyoqdumlilar tuproq paydo bo'lishida ishtirok etadi.**

3961. Foydali hasharotlardan qaysilari tuproq qatlamini organik moddalar bilan boyitadi? **Tuproqda yashovchi chumolilar, termitlar, chuvalchanglar va ba'zi qo'ng'izlar tuproq qatlamini organik moddalar bilan boyitadi.**

3962. Foronidlar qanday dengiz hayvonlari tipi? **Umurtqasiz dengiz hayvonlari tipi.**

3963. Fossa qaysi oilaga mansub sut emizuvchi hayvon? **Viverrasimonlar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon.**

3964. Fossa hayvoni faqat qayerda tarqalgan? **Madagaskarning qisman o'rmonlarida tarqalgan.**

3965. Fossaning uzun tamog'i qaysi a'zo ichiga tortilgan? **Panja ichiga tortilgan.**

3966. Fossaning ko'z qorachig'i qaysi hayvonnikiga o'xshaydi? **Mushuknikiga o'xshaydi.**

3967. Fossaning tanasi uzunligi necha sm? **61 – 76 sm.**

3968. Fossaning dumi uzunligi necha sm gacha? **66 sm gacha.**

3969. Foronidlarning nechta turi ma'lum? **23 ta turi ma'lum.**

3970. Foronidlarning ichagi qanday shaklda bo'ladi? **Halqasimon shaklda bo'ladi.**

3971. Foronidlarning chuvalchangsimon tanasi uzunligi necha sm? **0,6 – 45 sm.**

3972. Fregatlar qanday oyoqli qushlar turkumining bir oilasi? **Kurak oyoqli qushlar turkumining bir oilasi.**

3973. Fregatlarning nechta turini birlashtirgan bir urug'i, shuningdek, nechta qazilma turi ma'lum? **5 ta turni birlashtirgan, shuningdek, 2 ta qazilma turi ma'lum.**

3974. Fregatlarning og'irligi qancha g cha? **1500 g cha.**

3975. Fregatlarning tirnog'i qayerga qayrilgan? **Ichiga qayrilgan.**

3976. Fregatlar koloniya bo'lib qayerlarda yashaydi? **Xilvat orol va okean qirg'og'idagi cho'llarda yashaydi.**

3977. Fregatlar tuxumini nari va modasi navbat bilan necha kun bosadi? **40 – 50 kun bosadi.**

3978. Fregatlar qayerlarda tarqalgan? **Avstraliya, Yangi Zelandiya, Galapagos orollarida tarqalgan.**

3979. Fregatlar Rossiya Federatsiyasining qaysi o'lkasida ba'zan uchrab qoladi? **Xabarovsk o'lkasida ba'zan uchrab qoladi.**

3980. Fregatlar, asosan, qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Asosan, boshqa qushlar tutgan o'ljasini tortib olib yoki uchar baliqlar, meduza, mollyuska, qisqichbaqalar bilan ovqatlanadi.**

3981. Fregatsimonlar qaysi jonivorlar oilasi? **Dengiz saqoqushlari oilasi.**

3982. Fregatsimonlarning uzunligi necha sm? **78 – 104 sm.**

3983. Fregatsimonlarning tumshug'i uzunmi yoki kaltami? **Uzun.**





3984. Fregatsimonlarning tumshug'i uchi qanday? **Juda egilgan.**

3985. Fregatsimonlarning qanotlari uzunligi necha m gacha va yo'g'on yoki ingichka? **2 m gacha va ingichka.**

3986. Fregatsimonlarning barmoqlari uzunmi yoki kalta tirnoqlari bormi? **Uzun tirnoqlari bor.**

3987. Fregatsimonlarning suzgich pardasi faqat qaysi a'zolari asosida rivojlangan? **Faqat barmoqlari asosida rivojlangan.**

3988. Fregatsimonlar qanday uchadi? **Yengil va chiroyli uchadi.**

3989. Fregatsimonlar nima sababdan dam olish uchun suvga qo'nmaydi? **Chunki dumg'aza bezi yaxshi rivojlanmagan, qanotlari ho'l bo'lib qoladi.**

3990. Fregatsimonlarning okeanlardagi orollarda nechta turni o'z ichiga olgan nechta urug'i bor? **5 ta turni o'z ichiga olgan 1 ta urug'i (fregatlar) bor.**

3991. Fregatsimonlar qanday bo'lib, daraxt, qoyalar yoki yerga in quradi? **Guruh bo'lib, daraxt, qoyalar yoki yerga in quradi.**

3992. Fregatsimonlar nechta tuxum bosadi? **1 ta ba'zan 2 ta tuxum bosadi.**

3993. Fregatsimonlar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baliqlar va dengiz umurtqasizlari bilan ovqatlanadi.**

3994. Fregatsimonlar o'ljasini qanday uchib va qayerdan ushlaydi? **Pastlab uchib suvdan ushlaydi.**

3995. Fregatsimonlar boshqa qushlar koloniyasi yaqinida yashab, ularning o'ljasini va jo'jalarini nima qiladi? **O'g'irlaydi.**

3996. Fregatsimonlarning nechta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **2 ta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

3997. Gavial, gxarial qaysi turkumga kiradigan hayvon? **Sudralib yuruvchilarning timsohlar turkumiga kiradigan hayvon.**

3998. Gavialning bo'yi necha m gacha? **6,6 m gacha.**

3999. Gavialning yuqori jag'ida nechta, pastki jag'ida nechta tishi bor? **Yuqori jag'ida 27 ta, pastkisida 24 ta tishi bor.**

4000. Gavialning tumshug'i qanday? **Uzun va ingichka.**

4001. Gavial erkaklari tumshug'ining kengaygan uchida yumshoq to'qimadan iborat nimasi bo'ladi? **O'simtasi bo'lib, bu**

o'simta hind sopol tuvagiga o'xshash bo'lganidan bu hayvonlarga **gavial, ya'ni tuvak (ghara) degan nom berilgan.**

4002. Gavial qayerlarda tarqalgan? **Hindiston yarim oroli va Myanmadagi Hind, Gang, Maxanadi, Brahmaputra, Kolodana daryo tizimlarida tarqalgan.**

4003. Gavial, asosan, qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baliqlar, ba'zan qushlar va mayda sut emizuvchilar, o'simliklar bilan ovqatlanadi.**

4004. Gavial hayotining ko'p qismini qayerda o'tkazadi? **Suvda o'tkazadi.**

4005. Gavialning urg'ochisi nechtagacha tuxum qo'yadi? **40 tagacha tuxum qo'yadi.**

4006. Gavial noyob tur sifatida qaysi kitobga kiritilgan? **Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

4007. Gagalar qaysi oilaga kiradigan qushlar urug'i? **G'ozsimonlar turkumining o'rdaksimonlar oilasiga kiradigan qushlar urug'i.**

4008. Gagalar qayerlarda yashaydigan yirik dengiz o'rdaklari sanaladi? **Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerikada yashaydigan yirik dengiz o'rdaklari sanaladi.**

4009. Gagalarning nechta turi bor? **To'rtta turi bor.**

4010. Gagalar uyalarini qayerga quradi? **Tundra yoki dengiz orollariga quradi.**

4011. Gagalarning har bir uyasida qancha g toza par bo'ladi? **18 – 20 g toza par bo'ladi.**

4012. Gagalarning har bir uyasida toza par nima uchun bo'ladi? **Yumshoq parlar issiqlik saqlash xususiyatiga ega bo'lganligi uchun bo'ladi.**

4013. Gagalarning tanasi og'irligi qancha kg gacha? **3 kg gacha.**

4014. Gagalar, odatda, nechta tuxum qo'yadi? **4 – 5 ta, ko'pincha 2 ta tuxum qo'yadi.**

4015. Gagalarning tuxumidan chiqqan bolalari qancha vaqtdan keyin modasi bilan dengizga tushib ketadi? **1,5 – 2 sutkadan keyin modasi bilan dengizga tushib ketadi.**

4016. Gagalarning qaysi turlari koloniya bo'lib ko'paymaydi? **Ko'zoynakli gaga (S. fischeri), tog' gagasi (S. spectabilis),**





**kichik yoki sibir gagasi (Polysticta stelleri) (ba'zi turlarining koloniyadagi uyalar soni 10 minggacha yetganligi ma'lum).**

4017. Gagalar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Dengiz umurtqasizlari, mollyuskalari bilan ovqatlanadi.**

4018. Gagaralar qaysi parrandalarning bir turkumi? **Qushlarning bir turkumi.**

4019. Gagaralarning nechta turi bor? **5 ta turi bor.**

4020. Gagaralar turlarining nomlari nima? **Qiziltomoq gagara, qoratomoq gagara, oq bo'yinli gagara, oq tumshuqli gagara, qutb gagarasi.**

4021. Gagaralarning tanasi og'irligi qancha kg gacha? **1 kg dan 6,4 kg gacha.**

4022. Gagaralar qayerda qanday tezlikda yuradi? **Yerda yura olmaydilar.**

4023. Gagaralar nisbatan qanday qushlardan? **Yirik qushlardan.**

4024. Gagaralar qaerlarda yashashga juda yaxshi moslashgan? **Suv muhitida yashashga juda yaxshi moslashgan.**

4025. Gagaralar hayotining asosiy qismini qayerda o'tkazadi? **Suvda o'tkazadi.**

4026. Gagaralar qayer qushi? **Dengiz qushi.**

4027. Gagaralarning barmoqlari orasida suzgich nimasi bo'ladi? **Pardasi bo'ladi.**

4028. Gagaralar qisqa oyoqlari tanasining qayerida bo'lganidan yerda yaxshi yura olmaydi? **Ketida bo'lganidan yerda yaxshi yura olmaydi.**

4029. Gagaralar uyasini qayerga soladi? **Quruqlikka soladi.**

4030. Gagaralar chuchuk suvli havzalarda qaysi davrda uchraydi? **Migratsiya va urchish davrida uchraydi.**

4031. Gagaralar nima uchun quruqlikka chiqadi? **Ko'payish uchun quruqlikka chiqadi.**

4032. Gagaralar tuxumlarini qaysi biri necha kun bosadi? **Modasi va nari navbat bilan 24 2 29 kun bosadi.**

4033. Gagaralar, asosan, qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

4034. Gagaralar go'shti nima qilinadi? **Yeyiladi.**

4035. Gagaralarning patli terisi qayerlarga ishlatiladi? **Bosh kiyim va yoqaga ishlatiladi.**

4036. Gagaralarning ba'zilari qaysi dengizda qishlaydi? **Orol dengizida qishlaydi.**

4037. Gagaralar Shimoliy yarim sharning qaysi mintaqalarida tarqalgan? **Sovuq va mo'tadil mintaqalarida tarqalgan.**

4038. Gagaralarning qaysi turlari O'zbekistonda qishlaydi va uchib o'tish davrida ahyon-ahyonda uchraydi? **Qiziltomoq va qoratomoq gagaralar O'zbekistonda qishlaydi va uchib o'tish davrida ahyon-ahyonda uchraydi.**

4039. Gagarka qaysi oilaga mansub dengiz qushi? **Chistiklar oilasiga mansub dengiz qushi.**

4040. Gagarka qush qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy Atlantikaning mo'tadil kengliklaridagi Yevropa hamda Amerika qirg'oqlarida va orollarida tarqalgan.**

4041. Gagarka nechta tuxum qo'yadi? **Bitta tuxum qo'yadi.**

4042. Gagarka qushning kattaligi qaysi o'rdakdek? **Xonaki o'rdakdek.**

4043. Gagarka qushning qorni qanday rangda? **Oq rangda.**

4044. Gagarka qush suvda yaxshi suzadimi yoki yomon? **Yaxshi suzadi.**

4045. Gagarka qush qayerda yura olmaydi? **Yerda yura olmaydi.**

4046. Gagarka qush qaysi dengizlarda va ko'lda uchraydi? **Barens, Oq dengizlarda, Ladoga ko'lida uchraydi.**

4047. Gagarka qush qayerlarga to'planib uya soladi? **Dengiz qirg'oqlari hamda orollardagi baland jar va qoyalarga to'planib uya soladi.**

4048. Gagarka qushlar to'planib uya soladigan joylari "nima" deb ataladi? **"Qushlar bozori" deb ataladi.**

4049. Gagarka qush qanday baliqlar bilan ovqatlanadi? **Mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

4050. Gala bo'lib yashovchi chigirtkasimonlar serharakat lichinkalar yoki qanotli imagodan iborat tuzlar hosil qilish nimasiga ega? **Xususiyatiga ega.**

4051. Gamadril qaysi oilaga va uruqqa mansub maymun? **Tor burunli maymunlar kenja turkumining martishkalar oilasiga va paviańlar urug'iga mansub.**

4052. Gamadril qaysi hayvonlarning bir turi? **Maymunlarning bir turi.**





4053. Gamadril maymuni qayerlarda tarqalgan? **Arabiston yarim orolida, Sudan va Efiopiyada tarqalgan.**

4054. Gamadril maymuni qayerlarda qanday yashaydi? **Tog' bag'ridagi qoyalarda va ochiq tekisliklarda poda bo'lib yashaydi.**

4055. Gamadril maymunlarning qaysi birida (urg'ochisidami yoki erkagidami) yoping'ichga o'xshagan yoli bor? **Erkagida, shu belgisi bilan boshqa pavianlardan farq qiladi.**

4056. Gamadril maymunlarning qaysi biri podaga bosh bo'lib yuradi? **Qari erkagi podaga bosh bo'lib yuradi.**

4057. Gamadril maymunlar maymunlarning qadimgi ajdodi qayerlarda yashagan? **Daraxtlarda yashagan.**

4058. Gamadril maymunlarning bo'yi necha m cha? **1 m cha.**

4059. Gamadril maymunlarning dumi uzunmi yoki kalta? **Kalta.**

4060. Gamadril maymunlarning qaysi a'zolari qizil? **Yuzining junsiz qismi, qulog'i va katta quylig qadag'oi qizil.**

4061. Gamadril maymunlar qachon urchiydi? **Yil bo'yi urchiydi.**

4062. Gamadril maymunlar nechtadan tug'adi? **Bittadan tug'adi.**

4063. Gamadril maymunlar qaysi davlatda qadimdan muqaddas hisoblanadi? **Misrda qadimdan muqaddas hisoblanadi.**

4064. Gamazidlar nechta urug'dan iborat? **3000 ta urug'dan iborat.**

4065. Gamazidlarning nechta oilasi bor? **20 ta oilasi bor.**

4066. Gamazidlar qaysi jonivorlar guruhiga kiradi? **Kanalar guruhiga kiradi.**

4067. Gamazidlar (kanalar guruhi)ning tanasi uzunligi necha mm? **0,3 – 4 mm.**

4068. Gamazidlar (kanalar guruhi) necha bo'g'imli bo'ladi? **6 bo'g'imli.**

4069. Gamazidlar (kanalar guruhi) qaysi a'zosi orqali nafas oladi? **Traxeya orqali nafas oladi.**

4070. Gamazidlarning og'iz apparati qanday? **Og'iz apparati kemirib so'ruvchi yoki sanchib so'ruvchi.**

4071. Gamazidlar (kanalar guruhi) qanday ko'payadi? **Ko'pchiligi tirik tug'adi, ba'zan tuxumdan ko'payadi.**

4072. Gamazidlar (kanalar guruhi)dan dastlab nechta oyoqli lichinka tug'iladi? **6 ta oyoqli lichinka tug'iladi.**

4073. Gamazidlar (kanalar guruhi)ning oyoqlari nechta? **8 ta.**

4074. Gamazidlarning ingichka, uzun tirnoqlari uchida qaysi a'zo bor? **So'rg'ichi bor.**

4075. Gamazidlar bir yilda necha marta nasl qoldiradi? **8 – 10 marta nasl qoldiradi.**

4076. Gamazidlar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Tuproqda, go'ngda yashovchi mayda bo'g'im oyoqlilar va boshqalar bilan ovqatlanadi.**

4077. Gamazidlar qayerlarda yashaydi? **Qushlar tanasi, burun bo'shlig'i, o'pkasi va xaltachalarida; ayrim turlari kemiruvchi hayvonlar inida va tanasida yashaydi.**

4078. Gamma tunlami qaysi oilaga mansub kapalak? **Tunlamlar oilasiga mansub kapalak.**

4079. Gamma tunlami deyilishiga sabab nima? **Chunki gamma tunlamining qanotlari yoyilganda 40 – 48 mm; oldingi qanotlari to'q qo'ng'ir yoki kulrangroq bo'lib, yunon harfi – gamma shaklidagi kumushsimon dog' bor (nomi shundan).**

4080. Gamma tunlami qayerlarda tarqalgan? **Rossiyaning Yevropa qismida, Kavkaz, Markaziy Osiyo va boshq yerlarda tarqalgan.**

4081. Gamma tunlami yiliga necha avlod beradi? **2 – 5 avlod beradi.**

4082. Gamma tunlami bir avlodining rivojlanish davri necha kun? **25 – 45 kun.**

4083. Gambuziya qayerlardagi suvlarda yashaydi? **Shimoliy Amerikaning sharqiy tumanlari va qisman Janubiy Amerika suvlarida yashaydi.**

4084. Gambuziya qaysi turkumga kiradigan mayda baliq? **Tishli karpsimonlar turkumiga kiradigan mayda baliq.**

4085. Gambuziya balig'ining erkagi bo'yi necha sm? **4 sm.**

4086. Gambuziya balig'ining urg'ochisi bo'yi necha sm gacha? **7 sm gacha.**

4087. Gambuziya balig'ining erkagi orqa suzgich qanoti qanday o'zgarib, qaysi a'zosiga aylangan? **Qo'shilish a'zosiga aylangan.**





4088. Gambuziya necha oyda voyaga yetadi? **Bir oyda voyaga yetadi.**

4089. Gambuziya balig'ining tuxumi qayerda urug'lanadi? **Tuxumi urg'ochisining jinsiy yo'llarida urug'lanadi.**

4090. Gambuziya balig'ining tuxumi necha kunda rivojlanib, necha mm li chavoq baliq shaklida tug'iladi? **25 – 28 kunda rivojlanib, 7 – 8 mm li chavoq baliq shaklida tug'iladi.**

4091. Gambuziya balig'i nima maqsadda 1930 – 1940-yillarda O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda iqlimlashtirilgan? **Bezgak chivinlarning suvda yashaydigan lichinka va g'umbaklarini yo'qotish maqsadida. Gambuziya balig'i bezgak kasalligini tarqatuvchi anofeles chivinini yo'qotishda katta rol o'ynaganligi sababli.**

4092. Gambuziya va tezsuzar baliqlar necha yilda voyaga yetadi? **Bir yilda voyaga yetadi.**

4093. Gang gaviali (Gavialis gangeticus) degan turi qayerda tarqalgan? **Hindistonda tarqalgan timsohlar turkumiga mansub tur tarqalgan.**

4094. Gang gavialining uzunligi necha sm gacha bo'lgan nechtacha tuxum qo'yadi? **9 sm gacha bo'lgan 40 tacha tuxum qo'yadi.**

4095. Gang delfinlarida ko'z nimasi bo'lmaydi? **Gavhari bo'lmaydi.**

4096. Gaotsinlar turkumining nechta turi bor? **Gaotsin (Opisthocomus hoatzin) degan bitta turi bor.**

4097. Garder bezi (quruqlikda yashovchi ko'pchilik umurtqali hayvonlar ko'zidagi pirpiratuvchi parda bezi, muguz pardani moylab turadigan yog'li modda ajratadi) ko'pchilik hayvonlarning qayerida joylashgan? **Pastki qovoqning ichida (burun tomonda), ko'z burchagida joylashgan.**

4098. Garder bezi qayerda yashovchi sudralib yuruvchilarda yaxshi rivojlangan? **Tuproq ichida yashovchi sudralib yuruvchilar (mas., amfisbenlar va ko'r ilonlar)da yaxshi rivojlangan.**

4099. Gatteriya qaysi turkumning hozirgi yagona turi? **Xartumboshlilar turkumining hozirgi yagona turi.**

4100. Gatteriya qaysi hayvon, xartumboshlilar turkumining hozirgi yagona vakili (turi)? **Sudralib yuruvchi, xartumboshlilar turkumining hozirgi yagona vakili (turi).**

4101. Gatteriya qanday yuruvchi hayvon? **Sudralib yuruvchi hayvon.**

4102. Gatteriyaning ko'rinishi qaysi hayvonga o'xshaydi? **Kaltakesakka o'xshaydi.**

4103. Gatteriya qayerda yashaydi? **Yangi Zelandiyada yashaydi.**

4104. Gastrotrixlar, qorinkipriklilar qayerda yashovchi juda mayda (bo'yi 0,5 – 1,5 mm) chuvalchanglar? **Dengiz va chuchuk suvlarda yashovchi juda mayda (bo'yi 0,5 – 1,5 mm) chuvalchanglar.**

4105. Gastrotrixlar, qorinkipriklilar tanasining qorin tomoni qanday a'zolar bilan qoplangan? **Kipriklar, terisi tangachalar, tuklar hamda maxsus yopishqoq bezchalar bilan qoplangan.**

4106. Gastrotrixlarning qancha turi ma'lum? **200 ga yaqin turi ma'lum.**

4107. Gastrotrixlar, qorinkipriklar qaysi sinfga kiradi? **Tuban chuvalchanglar sinfiga kiradi.**

4108. Gastrotrixlar bir qancha belgilari bilan qaysi chuvalchanglarga yaqin? **Kiporinxalar va yumaloq chuvalchanglarga yaqin.**

4109. Gaur qaysi oilaga mansub yovvoyi qoramol? **Juft tuyoqlilar turkumining qovushshoxlilar oilasiga mansub yovvoyi qoramol.**

4110. Gaur qayerlarda tarqalgan? **Hindiston, Nepalo, Hindixitoy yarim orollarida tarqalgan.**

4111. Gaur yovvoyi qoramoli nechtadan bo'lib, qayerlarda yashaydi? **10 – 12, ba'zan 30 – 40 tadan poda bo'lib, 1600 – 1700 m balandlikdagi tog' o'rmonlarida yashaydi.**

4112. Gaur qayerda qo'lga o'rgatilgan? **Hindistonda qo'lga o'rgatilgan.**

4113. Gaur erkagining uzunligi (dumi bilan) necha m cha? **3,85 m cha.**

4114. Gaur erkagining bo'yi necha m cha? **2,2 m cha.**

4115. Gaur urg'ochisi kichik bo'lib, bo'yi necha m dan ortiq bo'lmaydi? **1,5 m dan ortiq bo'lmaydi.**

4116. Gaurning homiladorlik davri necha oy? **8 – 9 oy.**

4117. Gaurning tug'ish davri qachongacha? **May – iyundan oktabrgacha.**





4118. Gaur nechta bola tug'adi? **Bitta tug'adi.**

4119. Gaur yovvoyi qoramol nimalari uchun ovlanadi? **Go'shti va terisi uchun ovlanadi.**

4120. Gaurning xonaki xili nima deb ataladi? **Gayal deb ataladi.**

4121. Gaur nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklar bilan ovqatlanadi.**

4122. Gaur qaysi Qizil kitobga kiritilgan? **Jahon Qizil kitobiga kiritilgan.**

4123. Gekkonsimonlarning tanasi uzunligi necha sm cha? **30 sm cha.**

4124. Gekkonsimonlarning qaysi a'zosi katta, g'adir-budur tangalar bilan qoplangan? **Boshi katta, g'adir-budur tangalar bilan qoplangan.**

4125. Gekkonsimonlarning barmoqlari osti nimalar bilan qoplangan? **Shox plastinkali mayda so'rg'ichlar (qillar) bilan qoplangan.**

4126. Gekkonsimonlar qaysi a'zolari yordamida devor, daraxt, qoya, jar kabi tik joylarda, hatto oyna betida ham yura oladi? **So'rg'ichlari va changal barmoqlari yordamida devor, daraxt, qoya, jar kabi tik joylarda, hatto oyna betida ham yura oladi.**

4127. Gekkonsimonlarning qaysi a'zosi sinuvchan, singan qismi qaytadan o'sib chiqadi? **Dumi.**

4128. Gekkonsimonlarning qancha turi ma'lum? **480 tacha turi ma'lum.**

4129. Gekkonsimonlar qayerlarda tarqalgan? **Qozog'iston, O'rta Osiyo, Kavkaz va Qrimda tarqalgan.**

4130. Gekkonsimonlarning nechta turi O'zbekistonda uchraydi? **8 ta turi O'zbekistonda uchraydi.**

4131. Gekkonsimonlarning oyoqlari yaxshi rivojlanganmi yoki yomon? **Yaxshi rivojlangan.**

4132. Gekkonsimonlar nima chiqaradi? **Tovush chiqaradi.**

4133. Gekkonsimonlarning rangi qanday? **Kulrang yoki to'q jigarrang.**

4134. Gekkonsimonlarning tipik vakillari qaysilar? **Turkiston harom kaltakesagi; taroq barmoqli gekkon, parrak dumli gekkon va boshq. ma'lum.**

4135. Gekkonsimonlar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Lichinkalar, o'rgimchaklar bilan ovqatlanadi.**

4136. Gekkonsimonlarning barmoqlari tormi yoki keng? **Keng.**

4137. Gekkon (kaltakesak)ning tipik vakillari qaysilar? **Turkiston harom kaltakesagi; tirnoq barmoqli gekkon, parrak dumli gekkon.**

4138. Gempshir qo'y zoti – yarim mayin junli qo'y zoti bo'lib, qachon qayerdagi Xempshir (Gempshir), Uiltishr va boshq. grafiklarda mahalliy dag'al junli va duragay qora boshli qo'ylarni sautdaun zotlari bilan chatishtirib yaratilgan? **XIX asrning 1-yarmida Buyuk Britaniyadagi Xempshir (Gempshir), Uiltishr va boshq. grafiklarda mahalliy dag'al junli va duragay qora boshli qo'ylarni sautdaun zotlari bilan chatishtirib yaratilgan.**

4139. Gempshir qo'y zoti qo'chqorlarining og'irligi qancha kg? **100 – 110 kg.**

4140. Gempshir qo'y zoti sovliqlarining og'irligi qancha kg? **65 – 70 kg.**

4141. Gempshir qo'y zotining har 100 boshidan nechta qo'zi olinadi? **120 – 140 ta qo'zi olinadi.**

4142. Gempshir qo'y zotining qo'chqorlari qancha kg jun beradi? **5 – 6 kg jun beradi.**

4143. Gempshir qo'y zotining sovliqlari qancha kg jun beradi? **3 – 4 kg jun beradi.**

4144. Gempshir qo'y zotining jun tolasi uzunligi necha sm? **8 – 10 sm (asosan, trikotaj mahsulotlari tayyorlanadi, qo'zilarining juni juda qadrlanadi).**

4145. Gempshir qo'y zoti qaysi mamlakatlarda boqiladi? **Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh va boshq. mamlakatlarda boqiladi.**

4146. Gemmulalar qishlab, bahorda yosh nimaga aylanadi? **Bulutga aylanadi.**

4147. Genetta yirtqich darrandalar turkumining qaysi oilasiga mansub urug'i? **Viverrasimonlar oilasiga mansub urug'i.**

4148. Genettaning necha turi bor? **Bir necha turi bor.**

4149. Genetta, asosan, qayerlarda yashaydi? **Asosan, Afrika savannalarida va tropik o'rmonlarda yashaydi.**





4150. Genettaning tanasi uzunligi necha sm? **55 sm.**

4151. Genettaning dumi necha sm cha? **40 sm cha.**

4152. Genettaning dumi qanday rangli? **Qora rangli.**

4153. Genettaning dumida nechtacha oq halqasi bor? **7 – 8 tacha oq halqasi bor.**

4154. Genetta qachongi (kunduzgimi yoki tungimi) hayvon? **Tungi hayvon.**

4155. Genetta qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Mayda kemiruvchilar, qushlar va turli hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

4156. Genetta ba'zan uy parrandalariga ham nima qiladi? **Hujum qiladi.**

4157. Genetta qo'lga tez o'rganadimi yoki sekin? **Tez o'rganadi.**

4158. Genetta nima uchun asraladi? **Mayda kemiruvchilarni yo'qotish maqsadida uyda asraladi.**

4159. Genettaning qaysi bezlari, hidli yog'liq modda ajratadi? **Anal bezlari, hidli yog'liq modda ajratadi.**

4160. Genettaning nimasi ishlatiladi? **Mo'ynasi ishlatiladi.**

4161. Gepard qayerlarda tarqalgan? **Afrika, Hindiston, Eron, Afg'oniston va Balujistonda tarqalgan.**

4162. Gepardning qaysi turi Turkmanistonda uchrab qoladi? **Osiyo gepardi Turkmanistonda uchrab qoladi.**

4163. Gepard qayerlarda yashaydi? **To'qay, dasht, cho'l va tog' etaklarida yashaydi.**

4164. Gepard kunduzimi yoki kechasi faol hayot kechiradi? **Kunduzi.**

4165. Gepardning homiladorlik davri necha sutka? **84 – 95 sutka.**

4166. Gepard nechta bola tug'adi? **2 – 4 ta bola tug'adi.**

4167. Gepardning tanasi uzunligi necha sm? **150 sm.**

4168. Gepardning dumi necha sm cha? **75 sm cha.**

4169. Gepard nimaga chiqa olmaydi? **Daraxtga chiqa olmaydi.**

4170. Gepard qaysi jonivorga o'xshab miyovlaydi? **Mushukka o'xshab miyovlaydi.**

4171. Gepard soni hozir juda kamayib ketgan bo'lib, tabiatda butun dunyo bo'yicha qancha saqlanib qolingan? **Bir necha yuzta saqlanib qolingan.**

4172. Gepard qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Tuyoqlilar, kemiruvchilar, qushlar bilan ovqatlanadi.**

4173. Gepard chitaning tezligi qancha km/soat? **110 km/soat.**

4174. Gepard qaysi kitobga kiritilgan? **Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

4175. Gepard tutqinlikda qanday ko'payadi? **Yaxshi ko'payadi.**

4176. Gereford qoramol zoti qachon qayerda mahalliy zotlardan tanlash va saralash yo'li bilan yetishtirilgan? **XVIII asrning 2-yarmida Angliyaning Gereford (Xerefordshir) grafligida mahalliy zotlardan tanlash va saralash yo'li bilan yetishtirilgan.**

4177. Gereford qoramol zotining yangi tug'ilgan buzoqlari tirik og'irligi qancha kg? **30 – 336 kg.**

4178. Gereford qoramol zotining buzoqlari 18 oyligida tirik og'irligi qancha kg? **400 – 450 kg.**

4179. Gereford qoramol zoti bo'rdoqiga boqilganda necha foiz go'sht-yog' qiladi? **65 –68 foiz** go'sht-yog' qiladi.

4180. Gereford qoramol zoti qaysi davlatlarda keng tarqalgan? **Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Rossiya va Qozog'istonda keng tarqalgan.**

4181. Gereford qoramol zoti buqalari O'zbekistonga nechanchi yilda keltirilgan? **1963 yilda keltirilgan.**

4182. Gessen pashshasi qaysi oilaga mansub zararkunanda? **Gallits (shish paydo qiluvchi)lar oilasiga mansub zararkunanda.**

4183. Gessen pashshasi nechtagacha tuxum qo'yadi? **500 tagacha tuxum qo'yadi.**

4184. Gessenning voyaga yetgan pashshasi necha mm? **2,5 – 3,5 mm.**

4185. Gessen pashshasining ko'kragi qanday rangda? **Qora rangda.**

4186. Gessen pashshasining biqinida qanday chiziqlar bor? **Pushti chiziqlar bor.**

4187. Gibbonlar tuzilishi jihatdan qaysi maymunlar o'rtasidagi oraliq shakli hisoblanadi? **Itsimon maymunlar bilan odamsimon maymunlar o'rtasidagi oraliq shakli hisoblanadi.**

4188. Gibbonlarning qancha turi bor? **6 tacha turi bor.**

4189. Gibbonlarning Hindiston va Hindixitoy yarim orolida qaysi turlari tarqalgan? **Katta gibbon yoki xulok gibbon, Sumatra orolida chaqqon gibbon, Kalimanton, Silu va Yava orollarida vau-vau yoki Yava gibboni tarqalgan.**





4190. Gibbonlarning qaysi turi Malakka yarim orolida uchraydi? **Oq qo'lli gibbon, myuller gibboni Malakka yarim orolida uchraydi.**

4191. Gibbonlarninrg Hindixitoy yarim orolida qaysi turi uchraydi? **Bir tusli yoki kokilli gibbon turi uchraydi.**

4192. Gibbonlar bir-biridan faqat nimasi bilan farq qiladi? **Rangi bilan farq qiladi.**

4193. Gibbonlar – kichik odamsimon maymunlar oilasi bo'lib, qaysi a'zosi yo'q? **Dumi yo'q.**

4194. Gibbonlarning qanday quymich qadog'i bor? **Kichkina quymich qadog'i bor.**

4195. Gibbonlar nima qurmaydi? **Uya qurmaydi.**

4196. Gibbon qayerda uxlaydi? **Shoxlardagi qalin barglar ustida uxlaydi.**

4197. Gibbonlarning qaysi turlarida, ayniqsa ovozi juda baland? **Katta bo'g'iz xaltalariga ega bo'lgan qora gibbon va siamangda juda baland.**

4198. Gibbonlarning nechta urug'i bor? **2 ta urug'i bor.**

4199. Gibbonlarning nechta turi bor? **6 ta turi bor.**

4200. Gibbonlarning homiladorlik davri necha kun? **210 – 235 kun.**

4201. Gibbonlar necha yoshida jinsiy voyaga yetadi? **5 – 10 yoshida voyaga yetadi.**

4202. Gibbonlar necha yil yashaydi? **30 – 35 yil yashaydi.**

4203. Gibbonlarning qaysi oyoqlari uzun? **Oldingi oyoqlari.**

4204. Gibbonlarning qaysi a'zolari suyaklari daraxt shoxlarini tutishga moslashgan? **Bilak va kaft suyaklari daraxt shoxlarini tutishga moslashgan.**

4205. Gibbonlarning bo'yi necha m cha? **1 m cha.**

4206. Gibbonlarning og'irligi qancha kg? **4 – 8 kg.**

4207. Gibbonlarning ko'krak qafasi tormi yoki keng? **Keng.**

4208. Gibbonlar qayerlarda yashaydi? **Janubiy Osiyoning tropik o'rmonlarida yashaydi.**

4209. Gibbonlar qayerda yaxshi yura olmaydi? **Yerda yaxshi yura olmaydi.**

4210. Gibbonlar qachon urchiydi? **Yil bo'yi urchiydi.**

4211. Gibbonlar nechta bola tug'adi? **Bitta bola tug'adi.**

4212. Gibbonlar nechtadan poda bo'lib yuradi? **20 – 30 tadan poda bo'lib yuradi.**

4213. Gibbonlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Meva, yosh novda, turli hasharotlar, o'rgimchak va qushlar hamda ularning tuxumlari bilan ovqatlanadi.**

4214. Gibbonlarning qaysi turlari Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **Qalpoqchali gibbon (H. pileatus), bir xil tusli gibbon (H. concolor), kloss gibbon (H. klossii) turlari Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

4215. Gibbonlar qanday? Tutqunlik sharoitiga qanday? **Qo'rqoq. Uncha chidamli emas.**

4216. Gigant salaka qayerlarda tarqalgan? **Boltiq dengizining sharqiy qismi, ayrim Shvetsiya ko'llarida tarqalgan.**

4217. Gigant salakaning uzunligi necha sm gacha? **38 sm gacha.**

4218. Gigant yapon krabi qisqichbaqalari yoyilganida necha m ga boradi? **3 m ga boradi.**

4219. Gigantopiteklar qirilib bitgan yuksak qaysi jonivorlar urug'i? **Primatlar urug'i.**

4220. Gidrasimonlar qanday jonivorlar tipining bir sinfiga mansub hayvonlar? **Kovakichlilar tipining bir sinfiga mansub hayvonlar.**

4221. Gidrasimonlarning ko'pchiligi qaerda qanday bo'lib yashaydi? **Dengizda koloniya bo'lib yashaydi.**

4222. Gidrasimonlarning qancha turi ma'lum? **2700 dan ortiq turi ma'lum.**

4223. Gidrasimonlarning ko'pchiligi dengizning qanday joylarida yashaydi? **Qirg'oqqa yaqin joylarida yashaydi.**

4224. Gidrasimonlarning ayrimlari dengizning qanday joylarida yashaydi? **Ancha chuqur joylarida yashaydi.**

4225. Gijjalarni o'rganadigan fanning nomi nima? **Gelmintologiya.**

4226. Gimenolepidlar qaysi sinfga kiradigan gijjalar? **Lenta (tasma)simon chuvalchanglar sinfiga kiradigan gijjalar.**





4227. Gimenolepidlar ba'zi qaysi jonivorlarda parazitlik qiladilar? **Parrandalar va sut emizuvchilarda parazitlik qiladilar.**

4228. Gimenolepidlarning voyaga yetgan tanasi, ya'ni strobilasining uzunligi necha sm dan necha sm gacha? **2 – 3 sm dan 4 – 5 sm gacha.**

4229. Gimenolepidlar boshi (skoleksi)ning diametri necha mm? **0,25 – 0,3 mm.**

4230. Gimenolepidlar katta bo'g'imining kengligi necha mm? **0,5 – 1 mm.**

4231. Gimenolepidlar skoleksida nechta so'rg'ich va harakatchan hartumcha bo'ladi? **To'rtta so'rg'ich va harakatchan hartumcha bo'ladi.**

4232. Gimenolepidlar skoleksidan hartumcha ichida nechta ilgagi bor? **20 ta ilgagi bor.**

4233. Gimenolepidlarning tuxumi qanday shaklda? **Ellips, ba'zan sharsimon shaklda.**

4234. Gimenolepidlarning tuxumi necha mm gacha bo'ladi? **0,068 mm gacha bo'ladi.**

4235. Gimenolepidlarning tuxumidan necha ilgakli onxosfera lichinkasi chiqadi? **6 ilgakli onxosfera lichinkasi chiqadi.**

4236. Gimenolepidlar lichinkasi ichak voronkasiga kirib, necha kunda so'rg'ichli va ilgakli ikkinchi lichinkalik davri – tsistitserkoidga aylanadi? **5 – 8 kunda so'rg'ichli va ilgakli ikkinchi lichinkalik davri – tsistitserkoidga aylanadi.**

4237. Gippopotam qaysi oilasiga mansub hayvon? **Juft tuyoqlilar turkumining kavsh qaytaruvchilar kenja turkumiga va suv ayg'irlari oilasiga mansub.**

4238. Gipparionlar qaysi davrning oxirida (yuqori miotsen va pliotsen davrlarida) yashagan otsimonlar oilasiga mansub tuyoqli hayvonlar? **Uchlamchi davrning oxirida yashagan otsimonlar oilasiga mansub tuyoqli hayvonlar.**

4239. Gipparionlarning kattaligi qaysi hayvonday? **Eshakday.**

4240. Gipparionlarning oldingi va orqa oyoqlarida nechtadan barmog'i bo'lgan? **Uchtadan barmog'i bo'lgan.**

4241. Gipparionlar qanday tekisliklarda poda bo'lib yashagan? **Nam va sero't ochiq tekisliklarda poda bo'lib yashagan.**

4242. Gippanionlarning o'rnini quruq cho'l sharoitiga moslashgan necha tuyoqli hayvonlar egallagan? **Bir tuyoqli otlar egallagan.**

4243. Girdak kuya, gilamkuyasi qaysi oilaga mansub hasharot? **Tanga qanotlilar turkumining kuyalar oilasiga mansub hasharot.**

4244. Gliptodontlar qirilib ketgan qazilma qanday hayvonlar? **Darrandalar.**

4245. Gliptodontlar qaysi turkumning hozirgi zihrlilarga yaqin vakili? **Oz tishlilar turkumining hozirgi zihrlilarga yaqin vakili.**

4246. Gliptodontlardan ba'zilarining kattaligi qanday hayvondek bo'lgan? **Ho'kizdek bo'lgan.**

4247. Gliptodontlar gavdasining usti zihrlilarnikiga o'xshab qanday qalqon bilan qoplangan? **Suyak qalqon bilan qoplangan.**

4248. Gliptodontlarning oyoqlari uzunmi yoki qisqa? **Qisqa.**

4249. Gliptodontlarda tuyoqsimon nechta serbar barmog'i bor? **4 – 5 ta serbar barmog'i bor.**

4250. Gliptodontlar qayerda nechalamchi davrning oligotsen va pleystotsen qatlamlarida uchraydi? **Janubiy Amerikada uchlamchi davrning oligotsen va pleystotsen qatlamlarida uchraydi.**

4251. Gliptodontlar tishlari tuzilishi ularning nima bilan ovqatlanganligini ko'rsatadi? **O'simlik bilan ovqatlanganligini ko'rsatadi.**

4252. Gnu – kiyik qanday hayvonlarning sigirsimon kiyiklar kenja oilasiga mansub urug'i? **Juft tuyoqli hayvonlarning sigirsimon kiyiklar kenja oilasiga mansub urug'i.**

4253. Gnuning nechta turi bor? **2 ta turi bor.**

4254. Gnuning nomlari nima? **Oq dum va chipor.**

4255. Gnuning bo'ynida nimasi bor? **Yoli bor.**

4256. Gnu nechta bola tug'adi? **Bitta, ba'zan ikkita bola tug'adi.**

4257. Gnuning tanasi uzunligi necha sm? **170 – 240 sm.**

4258. Gnuning yag'rinidan balandligi necha sm? **90 – 145 sm.**

4259. Gnuning shoxlari uzunligi necha sm cha? **8,5 sm cha.**

4260. Gnuning tumshug'i kengmi yoki tor? **Keng.**





4261. Gnuning shoxlari uzunmi yoki kalta? **Kalta.**

4262. Gnuning shoxlari to'g'rimi yoki qayrilgan? **Qayrilgan.**

4263. Gnu qayerlarda qanday bo'lib yashaydi? **Dasht va cho'llarda poda bo'lib yashaydi.**

4264. Gnu nimalar bilan ovqatlanadi? **Har xil o'simliklar bilan ovqatlanadi.**

4265. Gnu nimalari uchun ovlanadi? **Go'shti va terisi uchun ovlanadi.**

4266. Gnu qayerlarda tarqalgan? **Janubiy va Janubi- Sharqiy Afrikada o't va butali dashtlarda tarqalgan.**

4267. Gnu qayerda yashaydi? **Janubiy Afrikada yashaydi.**

4268. Gnu qanday bo'lib o'tlab yuradi? **Kichik guruh bo'lib o'tlab yuradi.**

4269. Gnu sobiq Ittifoqning qayerida iqlimlashtirilgan? **Askaniya – Novada iqlimlashtirilgan.**

4270. Gnuning qaysi turi hozir faqat tutqinlikda saqlanib qolgan? **Afrika oqdum gnusi (C. gnou) turi saqlanib qolgan.**

4271. Gnu qaysi Qizil kitobga kiritilgan? **Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

4272. Gnus – qon so'ruvchi necha qanotli hasharotlarning umumiy nomi? **Ikki qanotli.**

4273. Gnusga qaysi hasharotlar kiradi? **Pashsha, chivin, mayda chivin, so'na, iskabtopar va boshqalar.**

4274. Gnus qanday joylarga tuxum qo'yadi? **Botqoqliklar, hayvon chiqindilari, kemiruvchilar ini va boshq. zax joylarga.**

4275. Gnus qon so'rganida odam va hayvonlarga nima bermaydi? **Tinchlik bermaydi.**

4276. Gnus hayvonlarning qonini so'rganda nimasi kamayadi? **Mahsuldorligi kamayadi.**

4277. Gnusning yashash sharoitiga qarab nimalari tarkibi o'zgaradi? **Turlari tarkibi o'zgaradi.**

4278. Gnus Yer sharining qayerida keng tarqalgan? **Hamma joyida keng tarqalgan.**

4279. Gnus faqat qayerlarda uchramaydi? **Faqat tog' cho'qqilari va Arktikada uchramaydi.**

4280. Gnus qayerlarda keng tarqalgan? **Sibir va Uzoq Sharqda, sobiq Ittifoqning Yevropa qismi va Bolqon yarim oroli, Shimoliy Amerikada keng tarqalgan.**

4281. Gnus O'zbekistonning qanday rayonlarida ko'p uchraydi? **Chorvachilik va sholikorlik rayonlarida ko'p uchraydi.**

4282. Goatsin qaysi tovuqsimonlar sinfining bir turkumi? **Qushlar sinfining bir turkumi.**

4283. Goatsin qaysi joylarda yashaydi? **Janubiy Amerikaning tropik o'rmonlarida, suv bo'ylarida chala bo'lib yashaydi.**

4284. Goatsinning boshida uzun nimasi bor? **Kokili bor.**

4285. Goatsinning tumshug'i qanday? **Yo'g'on, ilmoqli.**

4286. Goatsinning juda yirik qaysi a'zosi bo'lgani tufayli to'sh suyagi va to'sh muskullarining ko'p qismi qisqarib ketgan? **Jig'ildoni bo'lgani tufayli to'sh suyagi va to'sh muskullarining ko'p qismi qisqarib ketgan.**

4287. Goatsinning qaysi a'zosi ovqat bilan to'lganda uning tanasi og'irlik markazi oldinga tushadi? **Jig'ildoni, shuning uchun goatsin ko'kragi (maxsus qadog'i)ga tayanib va qanotlari bilan shoxlarni ushlab daraxtda o'rmalab yuradi.**

4288. Goatsinning tanasi uzunligi necha sm cha? **60 sm cha.**

4289. Goatsin nechta tuxum qo'yadi? **2 – 4 ta tuxum qo'yadi.**

4290. Goatsinning go'shti nima qilinadi? **Yeyilmaydi.**

4291. Goatsin jig'ildoni oziq bilan to'lganda tanasining massa markazi qayerga tushadi? **Oldinga tushadi, shuning uchun goatsin ko'kragi (maxsus qadog'i)ga tayanib va qanotlari bilan shoxlarni ushlab daraxtda o'rmalab yuradi.**

4292. Goatsin yaxshi nima qilolmaydi? **Ucholmaydi.**

4293. Goatsin, asosan, qayerda yashaydi? **Asosan, daraxtlarda yashaydi.**

4294. Goatsin qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Amerikaning shimoli-sharqiy qismidagi yirik daryolar va ular irmoqlari vodiylarining suv bosgan o'rmonlarida tarqalgan.**

4295. Goatsin qancha qushlardan iborat gala bo'lib yashaydi? **40 ga yaqin qushlardan iborat gala bo'lib yashaydi.**

4296. Goatsinning tuxumdan chiqqan jo'jasi oyoq va tumshuqlari hamda qanotlaridagi nechanchi barmoqlarining uzun tirnoqlari yordamida daraxtlarda o'rmalab yuradi? **Birinchi va ikkinchi barmoqlarining uzun tirnoqlari yordamida daraxtlarda o'rmalab yuradi.**





4297. Goatsin jo'jasi suvda qanday suzadi va sho'ng'iydi? **Yaxshi suzadi va sho'ng'iydi, lekin bu xususiyatini keyinchalik yo'qotadi.**

4298. Goatsin nimalar bilan ovqatlanadi? **Meva, don va barglar bilan ovqatlanadi.**

4299. Govkaptar qush qaysi turkumga mansub qush? **Kaptarlar turkumiga** mansub qush.

4300. Govkaptar qush qishlash uchun qayoqqa uchib ketadi? Qachon qaytib keladi? **Janubga uchib ketadi. Bahorda qaytib keladi.**

4301. Govkaptar qush qayerlarda yashaydi? **Tog' o'rmonlarida suvga yaqin yerlarda yashaydi.**

4302. Govkaptar qush uyasini qayerlarga soladi yoki qanday uyalardan foydalaniladi? **Daraxt shoxchalariga soladi va boshqa qushlarning eski uyasidan foydalanadi.**

4303. Govkaptar qush nechta tuxum qo'yadi? **2 ta tuxum qo'yadi.**

4304. Govkaptar qush tuxumini qaysi biri necha kun bosadi? **Nari bilan modasi galma-gal 17 – 18 kun bosadi.**

4305. Govkaptar qush qanday qush sifatida ahamiyati oshib bormoqda? **Ov qush sifatida ahamiyati oshib bormoqda.**

4306. Govkaptar qush qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyoda tarqalgan.**

4307. Govkaptar qush O'zbekistonning qaysi yerlarida uchraydi? **Tog'li yerlarda uchraydi.**

4308. Govqush kaptarlar (C. palumbus) va tog' kaptarlari (C. rupestr) qaysi hududlarda tarqalgan? **Tog'li hududlarda tarqalgan.**

4309. Gokkolar qaysi turkumning bir oilasiga mansub qushlar? **Tovuqsimonlar turkumining bir oilasiga mansub qushlar.**

4310. Gokkolar tanasining uzunligi necha m gacha? **1 m gacha.**

4311. Gokkolar qayerlarda tarqalgan? **Markaziy va Janubiy Amerikada tarqalgan.**

4312. Gokkolarning nechtacha turi bor? **44 tacha turi bor.**

4313. Gokkolar qanday joylarda tez yugura oladi? **Tekis joylarda tez yugura oladi.**

4314. Gokkolar qaysi davrda juft, boshqa vaqtlarda esa qanday bo'lib yashaydi? **Urchish davrida juft, boshqa vaqtlarda esa gala bo'lib yashaydi.**

4315. Gokkolar uyasini qayerga quradi? **Daraxtga quradi.**

4316. Gokkolar tovuq tuxumidan yirikroq nechta tuxum qo'yadi? **2 – 3 ta tuxum qo'yadi.**

4317. Gokkolar nimalar bilan ovqatlanadi? **Mevalar va ularning urug'lari bilan ovqatlanadi.**

4318. Gokkolar nima uchun ko'plab ovlanadi? **Chunki go'shti yumshoq va juda mazali bo'lganida uchun ko'plab ovlanadi.**

4319. Golland qoramol zoti nimasi uchun boqiladi? **Suti uchun boqiladi.**

4320. Golland qoramol zotining sof zotlari bir yilda qancha kg gacha sut beradi? **4500 – 5500 kg gacha sut beradi.**

4321. Golland qoramol zoti Rossiyaga qachon keltirilgan? **XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Rossiyaga keltirilgan.**

4322. Golland qoramol zotlaridan AQSh golshtin-friz qoramoli eng yuqori mahsuldorligi bilan ajralib, sog'im davrida qancha kg gacha sut beradi? **10 ming kg gacha sut beradi.**

4323. Golland qoramol zotini jaydari qoramol zotlari bilan urchitib, qanday zotlarni yaratishda foydalanilgan? **Xolmogor, tagil, byestujev zotlarini yaratishda foydalanilgan.**

4324. Golland qoramol zoti bilan O'zbekistonda mahalliy qoramol zotlarini urchitib yetishtirilgan qaysi zot respublikaning hamma viloyatlarida boqiladi? **Qora-ola zot respublikaning hamma viloyatlarida boqiladi.**

4325. Goliof baqasi (R. goliaph)ning uzunligi necha sm? **32 sm.**

4326. Goliof baqasi (R. goliaph)ning og'irligi qancha kg? **3,5 kg.**

4327. Goloturiyalar, dengiz bodringlari, ko'zachalari qaysi tipning bir sinfi? **Igna tanlilar tipining bir sinfi.**

4328. Goloturiyalar tanasi qanday shaklda? **Tanasi cho'zinchoq, ko'pincha, bodring yoki chuvalchang shaklida.**

4329. Goloturiyalarning tanasi uzunligi necha m cha? **1 m cha.**

4330. Goloturiyalarning qancha turi bor? **600 ga yaqin turi bor.**

4331. Goloturiyalar qayerda yashaydi? **Suv tubida yashaydi.**

4332. Goloturiyalarning qaysi turi yeyiladi? **Trepang turi yeyiladi.**





4333. Gorillaning boshi, gavdasi qanday? **Katta, yo'g'on.**

4334. Gorillaning burni, labi qanday? **Keng, qalin.**

4335. Gorillaning ko'zlari qanday? **Chuqur.**

4336. Gorillaning miya qutisi hajmi qancha sm³? **500 – 685 sm³.**

4337. Gorillaning qo'llari, oyoqlaridan qaysi biri uzun? **Qo'llari uzun.**

4338. Gorilla qayerda kichkina to'da bo'lib yashaydi? **Afrikadagi qalin o'rmonlarda kichkina to'da bo'lib yashaydi.**

4339. Gorilla necha yilda nechta tug'adi? **3 – 5 yilda bitta tug'adi.**

4340. Gorilla maymunining tanasi uzunligi necha m gacha? **2 m gacha.**

4341. Gorilla maymunining og'irligi qancha kg gacha? **300 kg gacha.**

4342. Gorillaning erkaklari necha yoshda jinsiy voyaga yetadi? **6 – 7 yoshda voyaga yetadi.**

4343. Gorilla qanday tug'ilishi ham ma'lum? **Egizak yoki albinoslar tug'ilishi ham ma'lum.**

4344. Gorilla tutqunlikda ham ko'payadimi? **Ha, ko'payadi.**

4345. Gorillalarning to'da boshida erkagimi yoki urg'ochisi yo'lboshchisi bo'lib turadi? **Erkak yo'lboshchisi bo'lib turadi.**

4346. Gorilla tunash uchun qayerga uya quradi? **Daraxt ostiga yoki yerdan uncha baland bo'lmagan joyda uya quradi.**

4347. Gorillaning qaysi a'zosi yaxshi rivojlangan? **Muskullari yaxshi rivojlangan.**

4348. Grenlandiya kiti, qutb kiti qaysi sinfning kenja turkumiga mansub hayvon? **Sut emizuvchilar sinfining kenja turkumiga mansub hayvon.**

4349. Grenlandiya kiti, qutb kitining tanasi uzunligi necha m gacha? **21 m gacha.**

4350. Grenlandiya kitining og'iz bo'shlig'ida qayerdan o'sib chiqqan necha m keladigan nechtacha shoxsimon plastinkalar – kit «mo'ylov»lari bor? **Tanglayidan o'sib chiqqan 3 – 4 m keladigan 300 – 400 tacha shoxsimon plastinkalar – kit «mo'ylov»lari bor.**

4351. Grenlandiya kiti, asosan, qaysi okeanlarning shimoliy tumanlarida tarqalgan? **Atlantika va Tinch okeanlarining shimoliy tumanlarida tarqalgan.**

4352. Grelandiya kiti qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Mayda umurtqasiz hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

4353. Grenlandiya, qutb kitlarining qaysi suzgichi yo'q? **Orqa suzgichi yo'q.**

4354. Grenlandiya, qutb kitlari qaysi dengizlarda kamdan-kam uchraydi? **Chukotka va Bering dengizlarida kamdan-kam uchraydi.**

4355. Grenlandiya kiti qaysi faslda urchib, qaysi faslda necha yilda necha marta necha m gacha kattalikda nechta bola tug'adi? **Kuzda urchib, bahorda, ikki yilda bir marta, 5 m gacha kattalikda 1 ta bola tug'adi.**

4356. Grenlandiya tyuleni, lisun qayerdagi suvlarda uchraydi? **Arktikadagi suvlarda uchraydi.**

4357. Grenlandiya tyuleni, lisun qaysi oilaga mansub sut emizuvchi hayvon? **Kurak oyoqlilar turkumining asl tyulenlar oilasiga mansub.**

4358. Grenlandiya tyuleni, lisunning tanasi uzunligi necha sm? **160 – 195 sm.**

4359. Grenlandiya tyuleni rangi, asosan, qanday? **Oq.**

4360. Grenlandiya tyuleni – lisunning og'irligi qancha kg? **100 – 160 kg.**

4361. Grenlandiya tyuleni nechta bola tug'adi? **1 – 2 ta bola tug'adi.**

4362. Grenlandiya tyuleni nimalari uchun ovlanadi? **Mo'ynasi va yog'i uchun ovlanadi.**

4363. Grenlandiya tyuleni qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baliq va umurtqasizlar bilan.**

4364. Grenlandiya tyuleni necha yilga yaqin umr ko'radi? **40 yilga yaqin umr ko'radi.**

4365. Grenlandiya tyuleni nima uchun 1950-yilda taxm 7 – 10 mln. dan 1960-yilda taxm 1,75 – 2,5 mln gacha kamayib ketgan? **Mo'ynasi va yog'i uchun ko'p ovlangani sababli kamayib ketgan.**





4366. Grenlandiya tyuleni qayerda ko'payadi? **Katta muz bo'laklari ustida ko'payadi.**

4367. Grenlandiya tyulenining voyaga yetgan erkaklarida nechta qora dog' bo'ladi? **Ikkita qora dog' bo'ladi.**

4368. Grenlandiya tyulenining boshi qanday rangda? **Qora.**

4369. Grenlandiya tyuleni – lisun qaysi faslda gala bo'lib janubroq tomonlarga o'tadi va shu yerlarda nima qiladi? **Kuzda, bolalaydi.**

4370. Gregarinalar qanday hayvonlar tipining sporalilar sinfiga mansub bir turkumi? **Eng sodda hayvonlar tipining sporalilar sinfiga mansub bir turkumi.**

4371. Gregarinalarning qancha turi bor? **500 ga yaqin turi bor.**

4372. Gregarinalar qaysi hayvonlarda parazitlik qiladi? **Umurtqasiz hayvonlarda parazitlik qiladi.**

4373. Gregarinalarning uzunligi necha mm? **10 mk – 16 mm.**

4374. Gregarinalarning tanasi qanday shaklda? **Chuvalchangsimon shaklda.**

4375. Gregarinalarning ko'pi qanday yo'l bilan ko'payadi? **Jinsiy yo'l bilan ko'payadi.**

4376. Gregarinalar qanday hayvonlarda parazitlik qiladi? **Umurtqasiz hayvonlarda parazitlik qiladi.**

4377. Gregarinalarning shizogregarinalar kenja turkumi vakillari qanday yo'l bilan ko'payadi? **Jinsiy va jinssiz yo'l (gregarinalarning mayda qismlarga – shizoniylarga bo'linish yo'li) bilan ko'payadi.**

4378. Grevi zebrasi qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Efiopiya, Keniya va Somalida tarqalgan.**

4379. Grevi zebrasi tog' zebrasiga qaraganda ancha ginakattami yoki kichik? **Katta.**

4380. Grevi zebrasi toychasining yelkasidan dumigacha tik, to'q qizil nimasi bor? **Juni bor.**

4381. Guanako qaysi hayvonlarning yovvoyi ajdodi sanaladi? **Xonaki lamalarning yovvoyi ajdodi sanaladi.**

4382. Guanako qaysi oilaga kiradigan sut emizuvchi hayvon? **Lamalar urug'ining tuyasimonlar oilasiga kiradigan sut emizuvchi hayvon.**

4383. Guanako nimalari uchun ovlanadi? **Go'shti va terisi uchun ovlanadi.**

4384. Guanakoning tanasi uzunligi necha sm? **120 – 175 sm.**

4385. Guanako faqat Janubiy Amerikaning aholi kam yashaydigan qaysi mintaqasida yashaydi? **And baland tog'li chalacho'l mintaqasida yashaydi.**

4386. Guanakolar qanday bo'lib yuradi? **Poda bo'lib yuradi.**

4387. Gubanlar, do'rdoq baliqlar qaysi oilaga mansub? **Okun (olabug'a)simonlar turkumining bir oilasiga mansub.**

4388. Guban baliqlarning ko'pchilik turlari tanasi uzunligi necha sm? **10 – 30 sm, ba'zi turlarining bo'yi 180 sm ga yetadi.**

4389. Guban baliqlarning og'irligi qancha g? **250 g, ba'zi turlarining og'irligi 27 kg ga yetadi.**

4390. Gubanlar, do'rdoq baliqlar nechta turni o'z ichiga olgan qancha urug'i ma'lum? **400 ta turni o'z ichiga olgan 50 ga yaqin urug'i ma'lum.**

4391. Gubanlar, do'rdoq baliqlarning bir qancha turi qayerlarda yashaydi? **Suvo'tlari yoki marjon poliplar orasida yashaydi.**

4392. Gubanlar, do'rdoq baliqlar qaysi zona dengizlarida uchraydi? **Tropik va mo'tadil zona dengizlarida uchraydi.**

4393. Gubanlarning rangi yashash muhitga moslashgan bo'lib, qanday bo'ladi? **Yaltiroq, tiniq bo'ladi.**

4394. Gubanlarning Azov va Qora dengizlari sohillarida nechta turi bor? **8 ta turi bor.**

4395. Gubanlar, asosan, qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Umurtqasiz mayda hayvonlar: qisqichbaqalar, dengiz mollyuskalari va h.k. bilan ovqatlanadi.**

4396. Gubanlarning o'simlikxo'rlari ham bo'lib, ular, ko'pincha, suvo'tlari orasiga nima tashlab ko'payadi? **Tuxum tashlab ko'payadi.**

4397. Gulli o'simliklarning hasharotlar yordamida changlanishiga nima deyiladi? **Zoogamiya (zoo... va yunon. gamos – nikoh) deyiladi.**

4398. Gulmoyi, forel, guldor baliq qaysi oilaga mansub baliq? **Seldsimonlar turkumining lossossimonlar oilasiga mansub baliq.**





4399. Gulmoyi balig'i qanday suvli daryo va ko'llarda yashaydi? **Aksari erigan kislorod ko'p, toza va sovuq daryo va ko'llarda yashaydi.**

4400. Gulmoyi balig'i tanasi va suzgichlari mayda rangli nimalar bilan qoplangan? **Dog'lar bilan qoplangan.**

4401. Gulmoyi balig'i urchish davrida tanasining shakli va rangi nima bo'ladi? **O'zgaradi: jag'lari uzayadi va qiyshayadi.**

4402. Gulxayri kuyasi – o'yiqqanotli kuyalar oilasiga mansub zararkunanda kapalak bo'lib, qanotlari yoyilganda necha mm bo'ladi? **10 – 12 mm bo'ladi.**

4403. Gulxayri kuyasi yiliga necha avlod beradi? **Ikki, ba'zan uch avlod beradi.**

4404. Gulxayri kuyasining ikkita nechanchi bo'g'imi binafsha rang, to'q qizil? **Birinchi bo'g'imi binafsha rang, to'q qizil.**

4405. Gulxayri kuyasining oxirgi yoshdagi qurtlari necha sm tuproq tagida yumaloq pishiq pilla ichida qishlaydi? **3 – 10 sm tuproq tagida yumaloq pishiq pilla ichida qishlaydi.**

4406. Gutsul oti nimaga mo'ljallangan ot zoti? **Yuk tortish va salt minishga mo'ljallangan ot zoti.**

4407. Gutsul oti qayerda qaysi millat tomonidan yaratilgan? **Karpat tog'lari kengliklarida qadimdan o'troqlashib qolgan ukrainlar (ruminlar ularni «gutsullar» deb ataydilar) tomonidan yaratilgan.**

4408. Gutsul oti qaysi sharoitga o'ta moslashgan? **Tog' sharoitiga o'ta moslashgan.**

4409. Gutsul oti qancha kg yuk bilan bir kecha-kunduzda tog' yo'llari orqali necha chaqirim masofani bosib o'ta oladi? **100 – 150 kg yuk bilan 100 chaqirim masofani bosib o'ta oladi.**

4410. Gutsul otining tanasi uzunligi necha sm? **137 – 145 sm.**

4411. Gutsul otining ko'krak qafasi aylanasi uzunligi necha sm? **154 – 160 sm.**

4412. Gutsul otining to'pig'i aylanasi necha sm? **16 – 17 sm.**

4413. Gutsul oti qayerlarda urchitiladi? **Ukrainaning tog'li va tog' oldi viloyatlarida, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Ruminiya va Avstriyada urchitiladi.**

4414. Go'ngxo'r qo'ng'izlar qaysi hasharotlar oilasiga mansub? **Plastinka mo'ylovlilar oilasiga mansub.**

4415. Go'ngxo'r qo'ng'izlarning tanasi uzunligi necha sm? **0,3 – 7 sm.**

4416. Go'ngxo'r qo'ng'izlar qayerga tuxum qo'yadi? **Go'ngga tuxum qo'yadi.**

4417. Go'ngxo'r qo'ng'izlarning qancha turi ma'lum? **3500 dan ortiq turi ma'lum.**

4418. Go'ngxo'r qo'ng'izlarning rangi qanday? **Qora, qo'ng'ir, ko'pincha, usti yaltiroq.**

4419. Go'ngxo'r qo'ng'izlar lichinka va qo'ng'izlik davrlarida nimalar bilan ovqatlanadi? **Go'ng va o'simliklar, ayrim turlari esa o'simliklar bilan ovqatlanadi.**

4420. Go'ngxo'r qo'ng'izlarning ko'pchiligi yiliga necha marta bo'g'in beradi? **Bir marta, ayrimlari ikki marta bo'g'in beradi.**

4421. Go'ngxo'r qo'ng'izlarning qancha turi sobiq Ittifoqda bo'lib, ularning qanchasi O'rta Osiyoda uchraydi? **400 ga yaqin turi bo'lib, ularning deyarli yarmi O'rta Osiyoda uchraydi.**

4422. Go'ngxo'r qo'ng'izlar nimalarni tuproqqa ko'mib, atrofini bir qadar tozalaydi? **Axlat va o'limtiklarni tuproqqa ko'mib, atrofini bir qadar tozalaydi.**

4423. Go'ng chivinlari necha qanotli hasharotlar turkumi oilasi? **Ikki qanotli hasharotlar turkumi oilasi.**

4424. Go'ng chivinlari go'ng bilan ovqatlanadigan qanday hayvonlar? **Koprofag hayvonlar.**

4425. Go'ngda, odatda, qanday rangli go'ng chivinlari (Scatophaga stercoraria) ko'p uchraydi? **Sariq go'ng chivinlari ko'p uchraydi.**

4426. Go'ng chivinlarining qurtlari qayerlarda yashaydigan mayda hasharotlar bilan ovqatlanadi? **Go'ng va chiqindilarda yashaydigan mayda hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

4427. Go'ng chivinlari oilasiga qancha tur kiradi? **500 dan ortiq tur kiradi.**

4428. Go'ngqarg'a qaysi qit'alarda keng tarqalgan? **Yevropa va Osiyoda keng tarqalgan.**

4429. Go'ngqarg'a qayerlarda yashaydi? **Tog'li yerlardan boshqa hamma joyda yashaydi.**

4430. Go'ngqarg'a qaysi oilaga mansub parranda? **Chumchuqsimonlar turkumining qarg'asimonlar oilasiga mansub parranda.**





4431. Go'ngqarg'a qanday xolli, nechta, qanday rangli tuxum qo'yadi? **Qo'ng'ir xolli, 3 – 7 ta ko'k tuxum qo'yadi.**

4432. Go'ngqarg'a qaysi faslda Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari bo'ylarida qanday bo'lib yashaydi? **Bahorda koloniya bo'lib yashaydi.**

4433. Go'ngqarg'aning jo'jasi tuxumdan necha kunda chiqadi? **16 – 20 kunda chiqadi.**

4434. Go'ngqarg'a nimalar bilan ovqatlanadi? **Har xil hasharotlar va ularning lichinkalari, mayda kemiruvchilar, o'simlik urug'lari bilan ovqatlanadi.**

4435. Go'ngqarg'a jo'jasi necha kundan so'ng uchirma bo'ladi? **30 kundan so'ng uchirma bo'ladi.**

4436. Go'rkov qo'ng'izlar o'zi tuproqqa ko'mgan kemiruvchilar, qush va boshq. jasadiga nima qo'yadi? **Tuxum qo'yadi.**

4437. Go'sht pashshalari qaysi turkumning (ko'k, yashil va kulrang pashshalar) kenja oilasiga mansub hasharotlar? **Ikki qanotlilar turkumining kenja oilasiga mansub hasharotlar.**

4438. Go'sht pashshalarining tanasi uzunligi necha mm? **5 – 10 mm.**

4439. Go'sht pashshalarning qancha turi ma'lum? **2500 ga yaqin turi ma'lum.**

4440. Go'sht pashshalarning O'zbekistonda qancha turi ma'lum? **150 – 170 turi ma'lum.**

4441. Go'sht pashshalar qanday tug'adi? **Tirik tug'adi.**

4442. Go'sht pashshalari lichinkalari qayerlarda rivojlanadi? **Go'shtda, hayvonlar o'limtigida, go'ngda rivojlanadi, ayrimlari hayvonlar tanasida parazitlik qiladi.**

4443. Go'shti va uvildirig'i (ikrasi)ning sifati jihatidan qaysi baliqlar dunyoda birinchi o'rinni oladi? **Osyotrsimonlar dunyoda birinchi o'rinni oladi.**

4444. Go'shtdor kaptar zotlarining bir juftidan bir yilda qancha kg go'sht olish mumkin? **8 – 9 kg olish mumkin.**

4445. Havo pufagi, suzgich pufak-baliqlar qaysi a'zosining oldingi qismida paydo bo'ladigan a'zo? **Ichagining oldingi qismida paydo bo'ladigan a'zo.**

4446. Havo pufagi devori qanday qon tomirlar to'ri bilan qoplangan? **Kapillyar qon tomirlari bilan qoplangan.**

4447. Havo pufagi ichidagi gaz tarkibi qanday? **Atmosfera havosi tarkibiga o'xshash yoki undan bir oz farq qiladi.**

4448. Havo pufagi ko'pchilik suyakli baliqlarda qanday a'zo hisoblanadi? **Gidrostatik a'zo hisoblanadi.**

4449. Havo xaltalariga dumsiz suvda va quruqlikda yashovchilarning qaysi xaltasi kiradi? **Ovoz xaltasi kiradi.**

4450. Havo xaltalariga sudralib yuruvchilarning qaysi a'zo xaltasi kiradi? **O'pka xaltasi kiradi.**

4451. Haddan tashqari ochko'z qush qaysi? **Marabu qushi.**

4452. Hayotiy sikl bir individning rivojlanishi bilan belgilanadi, masalan, kapalaklarda qanday? **Tuxum-qurt-g'umbak-voyaga etgan kapalak.**

4453. Hayvonlarda hayotiy sikl, rivojlanish sikli qanday bo'ladi? **Oddiy va murakkab bo'ladi.**

4454. Hayvonlar haqidagi fanning nomi nima? **Zoologiya.**

4455. Hayvonlar solishtirma anatomiyasi, solishtirma morfologiyasiga qaysi yunon olimi mil. avv. nechanchi asrda asos solgan? **Aristotel IV asrda asos solgan.**

4456. Hayvonlar haqidagi ilk yozma ma'lumotlar mil. avv. nechanchi asrlarga oid qaysi mamlakatlar adabiyotlarida uchraydi? **V – IV asrlarga oid Misr, Xitoy va Yunon mamlakatlari adabiyotlarida uchraydi.**

4457. Hayvonlardagi harakatning hamma shakllarini, jumladan, muskul qisqarishini va ovqat hazm qilishini mexanika qonunlari bilan izohlashga qaysi olim intilgan? Nechanchi yili? **J. Borelli intilgan. 1680-yili.**

4458. Hayvonot dunyosini umurtqasizlar va umurtqalilarga ajratishni qachon qaysi frantsuz olimi taklif etgan? **XIX asr boshida J. B. Lamark taklif etgan.**

4459. Hayvonlarning biror ob'ekt o'zlariga nisbatan qanday holatda turganligini aniqlab olishga nima deyiladi? **Biolokatsiya deyiladi.**

4460. Hayvonlarning hujayra devori, asosan, uglevodlar va ularning oqsillari bilan birikmasidan, shuningdek, qanday mod-





dalardan iborat? **Lipidlar va anorganik moddalardan iborat.**

4461. Hayvonlarning mavsum sari muntazam (qishlash yoki urchish joyiga) ko'chib yuradigan vaqtida harakat yo'nalishini tanlab olish xususiyati nima deyiladi? **Bionavigatsiya deyiladi.**

4462. Hayvonlarning muayyan ekologik sharoitga nisbatan morfofiziologik moslanish natijasi nima? **Orientatsiya usullari.**

4463. Hayvonlarning o'z mavqei yoki o'rnini fazoda, o'z turi individlari yoki boshqa turlari o'rtasida aniqlash qobiliyatiga nima deyiladi? **Hayvonlar orientsatsiyasi (frants. orientatsion – sharq tomonga yo'nalish), bioorentatsiya, mo'ljal olish deyiladi.**

4464. Hayvonlar orientatsiyasi qanday holatni aniqlashdan iborat? **Signallarni qabul qilish va qayta ishlash, obrazni topib olish va signal manbai holatini aniqlashdan iborat.**

4465. Hayvonning orientatsiyali xatti-harakatiga nima kiritiladi? **Populyatsiya, poda, gala yoki koloniyadagi boshqa individlar tomonidan tegishli tuzatish kiritiladi.**

4466. Hayvonlarning optik orientatsiyasi nimalar bilan bog'liq? **Fotoritsentlar bilan bog'liq.**

4467. Hayvonlar solishtirma anatomiyasining hozirgi vazifasi nimadan iborat? **Hayvonot dunyosi tabiiy sistemasini tuzish hamda anatomiya, embrologiya va paleontologiya dalillari asosida evolyutsiyaning marfologik qonuniyatlarini aniqlab berishdan iborat.**

4468. Hayvonlar uchun o'simlik oqsillari qaysi kimyoviy element manbai bo'lib hisoblanadi? **Azot manbai bo'lib hisoblanadi.**

4469. Hayvonlarda ovqat qidirish, yo'l topish, aniq joyni belgilash, qarama-qarshi jinsli izlash, shuningdek, bilish vositalaridan biri nima hisoblanadi? **Hid bilish hisoblanadi.**

4470. Hayvonlar to'qima va a'zolari ontogenezda nechta murtak varaqlari hisobidan hosil bo'ladi? **3 ta murtak varaqlari (ektoderma, endoderma va medoderma) hisobidan.**

4471. Hayvonlar hujayraviy tuzilishga binoan qanday hujayralilarga ajratiladi? **Bir hujayrali va ko'p hujayralilarga ajratiladi.**

4472. Hayvonlar hujayrasi qanday sellyuloza qobiqning bo'lishi bilan o'simliklardan farq qiladi? **Qattiq sellyuloza qobig'ining bo'lishi bilan o'simliklardan farq qiladi.**

4473. Hayvonlarda metabolizm faol kechishi tufayli ularning o'sishi cheklangan? **O'sishi cheklangan.**

4474. Hayvonlar qanday organizmlar? **Geterotrof organizmlar.**

4475. Hayvonlar qanday moddalar bilan ovqatlanadi? **Tayyor organik moddalar bilan ovqatlanadi.**

4476. Hayvonlarning bundan necha yil ilgari qayerda mikroskopik, xlorofillsiz amyobasimon xivchinlilar shaklida paydo bo'lganligi tahlil qilinadi? **1 – 1,5 mlrd yil ilgari okean suvida mikroskopik, xlorofillsiz amyobasimon xivchinlilar shaklida paydo bo'lganligi tahlil qilinadi.**

4477. Hayvonlarning eng qadimgi qazilma qoldiqlari yoshi necha yildan oshmaydi? **0,8 mlrd yildan oshmaydi.**

4478. Hayvonlarda hayotiy shakl qanday hayot muhitida yashaydigan, o'zaro qarindoshligidan qat'i nazar, o'xshash moslanish belgilariga ega bo'lgan hayvonlar guruhi? **Muayyan bir xil hayot muhitida yashaydigan, o'zaro qarindoshligidan qat'i nazar, o'xshash moslanish belgilariga ega bo'lgan hayvonlar guruhi.**

4479. Hayvonlar, odatda, nima orqali migratsiya qiladi? **Ajdodlari o'tgan yo'l orqali migratsiya qiladi.**

4480. Hayvonlarning davriy migratsiyasi qanday xillarga ajratiladi? **Vertikal (sut emizuvchilar va hasharotlarning tog'ning vertikal mintaqalari bo'yicha, umurtqasizlarning tuproq va suv qatlamlari bo'yicha migratsiyasi), anadrom (o'tkinchi baliqlarning dengizlardan daryoga o'tishi), katadrom (o'tkinchi baliqlarning daryolardan dengizlarga o'tishi) xillarga ajratiladi.**





4481. Hayvonot dunyosining turli xil sistemasida tiplar soni nechtadan nechtagacha? **1 tadan 33 tagacha, hatto undan ham ko'proq ko'rsatiladi.**

4482. Hayvon chaqqanida zahari qaysi a'zolari yordamida o'lja tanasiga yuboriladi? **Tishlari yordamida o'lja tanasiga yuboriladi.**

4483. Halqali oqkaltakesakning shakli qanday? **Chuvalchangsimon.**

4484. Halqali oqkaltakesakning tanasi uzunligi necha sm cha? **50 sm cha.**

4485. Halqali oqkaltakesak, ibijara, oq amfis qanday kaltakesaklarning bir turi? **Oyoqsiz kaltakesaklarning bir turi.**

4486. Halqali oqkaltakesak, ibijara, oq amfisbena qayerda keng tarqalgan? **Janubiy Amerikada keng tarqalgan.**

4487. Halqali oqkaltakesak qanday ko'payadi? **Tuxum qo'yib ko'payadi.**

4488. Halqali oqkaltakesak qaysi a'zolari bilan oldinga harakatlanadi? **Ham bosh, ham dum qismi bilan oldinga harakatlanadi.**

4489. Halqali chuvalchanglar qaysi hayvonlarning tipi? **Umurtqasiz hayvonlarning tipi.**

4490. Halqali chuvalchanglarning B. viridis turi qaysi dengizlar va okeanda yashaydi? **O'rta, Barents dengizlari va Atlantika okeanida yashaydi.**

4491. Halqali chuvalchanglar urg'ochisining tanasi qanday shaklda? **Silindrsimon shaklda.**

4492. Halqali chuvalchanglarning tanasi uzunligi necha sm? **7 sm.**

4493. Halqali chuvalchanglar xartumini necha m gacha cho'ziladi? **1 m gacha cho'ziladi.**

4494. Halqali chuvalchanglar erkagining tanasi uzunligi necha mm? **1 – 33 mm.**

4495. Halqali chuvalchanglarning qancha turi ma'lum? **8 mingga yaqin turi ma'lum.**

4496. Halqali chuvalchanglarning qon o'tkazish tizimi ochiqmi, yopiq? **Yopiq.**

4497. Halqasimon chuvalchanglar qaysi a'zolari orqali nafas oladi? **Teri, ba'zilari jabra orqali nafas oladi.**

4498. Halqali chuvalchanglarning asab tizimini qaysi a'zolar tashkil etadi? **Bosh miya, halqum osti chap miyasi va yuqori asab zanjirlari tashkil etadi.**

4499. Halqali chuvalchanglar xartumi yordamida nimalar qiladi? **Ovqat tutadi va harakatlanadi.**

4500. Halqali chuvalchanglar erkagi urg'ochisining qaysi yo'llarida parazitlik qiladi? **Jinsiy yo'llarida parazitlik qiladi.**

4501. Hamma qo'shoyoqlar qaysi fasldа uyquga ketadi? **Qish faslida uyquga ketadi.**

4502. Har bir kurka tuxumidan necha bosh yosh kurka olish mumkin? **40 – 60 bosh yosh kurka olish mumkin.**

4503. Har xil tirnoqli kanalar oilasi (Tarsonomidae)ning ko'pgina turlari nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklar bilan ovqatlanadi.**

4504. Harakatlanish muskullari kuchli rivojlangan yirik va suv tubida yashovchi baliqlar, masalan: akulalar, cho'rtanlar, skatlar, kambalarda qaysi a'zo rivojlanmagan? **Havo pufagi rivojlanmagan.**

4505. Haromqoravoy qaysi oilaga mansub qush? **Qoravoylar oilasiga mansub qush.**

4506. Haromqoravoy qushi qayerlarda keng tarqalgan? **Sharqiy yarim sharning Shimoli-Sharqiy Yevropa va Sibirdan boshqa hamma joylarda tarqalgan.**

4507. Haromqoravoyning urchish davrida ensasida nimalar paydo bo'ladi? **Uzun, ingichka patlar paydo bo'ladi.**

4508. Haromqoravoyning og'irligi qancha kg cha? **3 kg cha.**

4509. Haromqoravoyning qanoti uzunligi necha sm? **33 – 38 sm.**

4510. Haromqoravoyning narimi yoki modasi kichikroq? **Modasi kichikroq.**





4511. Haromqoravoyning qanday individlari yashil-binafsha rangda nimadek yaltiraydi? **Individlari metalldek yaltiraydi.**

4512. Haromqoravoy boshining qaysi qismida yarimoysimon oq dog'i bor? **Pastki qismida yarimoysimon oq dog'i bor.**

4513. Haromqoravoy qanday parranda? **Monogam parranda.**

4514. Haromqoravoy uyasini qanday bo'lib, qayerlarga yasaydi? **Koloniya bo'lib, suv havzalari qirg'og'idagi qoyalarga, qamishlar orasi va daraxtlarga yasaydi.**

4515. Haromqoravoy nechta tuxum qo'yib, qaysi biri (narimi yoki modasimi) necha kun bosadi? **5 – 6 ta tuxum qo'yib, nari va modasi navbatlashib 28 – 30 kun bosadi.**

4516. Haromqoravoy, asosan, qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baliqlar bilan ovqatlanadi.**

4517. Har 100 bosh urg'ochi echkidan nechta uloq olinadi? **150 – 200 ta uloq olinadi.**

4518. Har bir serkadan qancha kg jun qirqib olinadi? **4 – 6 kg jun qirqib olinadi.**

4519. Har bir urg'ochi echkidan qancha kg jun qirqib olinadi? **3 – 5 kg jun qirqib olinadi.**

4520. Hasharotlarni o'rganadigan fanning nomi nima? **Entomologiya.**

4521. Hasharotlar qo'ygan tuxumlardan nuqul erkak chiqish hodisasi nima deyiladi? **Arrenotokiya deyiladi.**

4522. Hasharotlarning gavdasi qaysi a'zolardan iborat? **Bosh, ko'krak va qorindan iborat.**

4523. Hasharotlar tabiatda qanday ahamiyatga ega? **Ular turli oziqlar bilan ovqatlanib, moddalar aylanishida va tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadi. Chiriyotgan moddalarni eb, sanitarlik vazifasini bajaradi. Gulli o'simliklar gulining changlanishida muhim vosita hisoblanadi. Qimmatli oziqovqat va texnik mahsulotlar beradi. Masalan: asalarilar, pillao'rovchilar va boshqalar. Ba'zi hasharotlar begona o't**

**hamda zararkunandalar bilan oziqlanib, foyda keltiradi. Ko'pgina turlari xo'jalik ahamiyatga ega hayvonlarga ovqat. Qator kasallik qo'zg'atuvchilarni tarqatadigan hasharotlar ham bor. Masalan, qon so'ruvchi pashshalar va boshqalar.**

4524. Hasharotlar va ko'poyoqlilar malpigi naychalari qanday kislota chiqaradi? **Siydik kislota chiqaradi.**

4525. Hasharotlar qaysi tipning bir sinfi? **Bo'g'im oyoqlilar tipining bir sinfi.**

4526. Hasharotlar yer yuzida ko'pmi yoki kam tarqalgan? **Ko'p tarqalgan.**

4527. Hasharotlar nima bilan qoplangan? **Kutikula bilan qoplangan.**

4528. Hasharotlarning qaysi a'zolari kemiruvchi? Ular qaysilar? **Og'iz a'zolari kemiruvchi. Ular quyidagilar: to'g'ri qanotlilar, qo'ng'izlar, pardaqanotlilar va boshq.**

4529. Hasharotlarning qaysilarida og'iz apparati so'ruvchi? **Kapalaklar va pashshalarda og'iz apparati so'ruvchi.**

4530. Hasharotlarning qaysilarida og'iz apparati sanchib-so'ruvchi? **Qandalalar, tangaqanotlilar, tripslar, qon so'ruvchi chivinlar, so'na va boshq.**

4531. Hasharotlarda necha juft murakkab va oddiy ko'zlar hamda mo'ylovlar bor? **Bir juft murakkab va oddiy ko'zlar hamda mo'ylovlar bor.**

4532. Hasharotlarning necha bo'g'imli ko'krakda necha juft oyoqlari joylashgan? **3 bo'g'imli 3 juft oyoqlari joylashgan.**

4533. Hasharotlarning oyoqlari nimalarga moslashgan? **Yurish, yugurish, qazish, suzish yoki sakrash va boshq. ga moslashgan.**

4534. Hasharotlarning qo'rin bo'g'imi nechtagacha? **11 tagacha.**

4535. Hasharotlarning ko'pchiligida qorni uchida nimalar bo'ladi? **Tuxum qo'ygich, nayza, tserk kabi o'simtalari bo'ladi.**

4536. Hasharotlarning ovqat hazm qilish sistemasi qaysi a'zolardan tarkib topgan? **Og'iz, ichaklar va so'lak bezlaridan tarkib topgan.**





4537. Hasharotlarda qon o'tkazish sistemasi ochiqmi yoki yopiq? **Ochiq.**

4538. Hasharotlar qaysi a'zosidan nafas oladi? **Traxeyadan nafas oladi.**

4539. Hasharotlar chiqindi mahsulotlarni qaysi a'zolari yordamida chiqaradi? **Malpigi tomirlari yordamida chiqaradi.**

4540. Hasharotlarda bosh miya, qorin asab zanjiri qaysi sistemani tashkil etadi? **Asab sistemasini tashkil etadi.**

4541. Hasharotlarning ko'pchiligida zaharli modda, shuningdek, nimalar ajratuvchi bezlar rivojlangan? **Hid, mum va ipak ajratuvchi bezlar rivojlangan.**

4542. Hasharotlarning so'lak bezlari qanday shaklda bo'lib, qaysi jag'da joylashgan? **Xalta yoki shodasimon shaklda bo'lib, yuqori va pastki jag'da joylashgan.**

4543. Hasharotlarda jinsiy sistemasi erkaklarida, urg'ochilarida va boshqa nimalardan iborat? **Erkaklarida urug'don, urg'ochilarida tuxumdon, qo'shimcha bezlar va chiqarish yo'llaridan iborat.**

4544. Hasharotlarda qaysi a'zolari ham mavjud? **Tuyish, hid va ta'm bilish, eshitish a'zolari ham mavjud.**

4545. Hasharot turli oziqlar bilan ovqatlanib, moddalar aylanishida va nima hosil bo'lishida ishtirok etadi? **Tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadi.**

4546. Hasharotlar qanday qilib, sanitarlik vazifasini bajaradi? Chiriyotgan moddalarni eb, **sanitarlik vazifasini bajaradi.**

4547. Hasharotlar nimaning changlanishida muhim vosita hisoblanadi? **Gulli o'simliklar gulining changlanishida muhim vosita hisoblanadi.**

4548. Hasharotlar insoniyatga qimmatli nimalar beradi? **Oziq-ovqat va texnik mahsulotlar beradi, masalan: asalarilar, pilla o'rovchilar va boshq.**

4549. Hasharotlarning ba'zilari begona o't hamda zararkunandalar bilan ovqatlanib, nima keltiradi? **Foyda keltiradi.**

4550. Hasharotlarning ko'pgina turlari qanday ahamiyatga ega hayvonlarga ovqat? **Xo'jalik ahamiyatiga ega hayvonlarga ovqat.**

4551. Hasharotlarning ayrimlari qanday nurlarni qabul qiladi? **Ultrabinafsha nurlarni qabul qiladi.**

4552. Hasharotlardan qaysilari qator kasallik qo'zg'atuvchilarni tarqatadi? **Masalan, qon so'ruvchi pashshalar va boshq. qator kasallik qo'zg'atuvchilarni tarqatadi.**

4553. Hasharotlardan oyoqdumlilar qoldig'i qaysi qatlamlardan topilgan? **O'rta devon qatlamlaridan topilgan.**

4554. Hasharotlardan toshko'mir davrida hozirda o'lib bitgan qaysilari taraqqiy etgan? **Paleodiktisperalar, gigant ninachilar, suvarak va boshq. taraqqiy etgan.**

4555. Hasharotlar hidni antennalaridagi nimalar bilan sezadi? **Sensillalar bilan sezadi.**

4556. Hasharotxo'rlar qaysi turkumga mansub? **Sut emizuvchilar turkumiga mansub.**

4557. Hasharotxo'rlar qaysi davrda paydo bo'lgan? **Bo'r davrida paydo bo'lgan.**

4558. Hasharotxo'rlardan qaysi davrda dastlabki qo'ng'izlar, chayon pashshalar va boshq., triasda pardaqanotlilar paydo bo'la boshlagan va h.k.? **Perm davrida dastlabki qo'ng'izlar, chayon pashshalar va boshq., triasda pardaqanotlilar paydo bo'la boshlagan va h.k.**

4559. Hasharotxo'rlarning qancha turi ma'lum? **300 ga yaqin turi ma'lum.**

4560. Hasharotxo'rlarning O'zbekistonda qaysi turlari yashaydi? **Kirpi va yerqazar turlari yashaydi.**

4561. Hasharotxo'rlarning ko'pchiligi qaysi a'zolarida yuradi? **Besh barmoqda, tovonda yuradi.**

4562. Hasharotxo'rlarning tanasi uzunligi necha sm dan necha sm gacha? **3 sm dan (kichik qo'ng'irtish) – 39 sm gacha (tenrek).**

4563. Hasharotxo'rlarning boshi qanday? **Cho'ziq.**





4564. Hasharotxo'rlar serharakat qanday a'zoli? **Hartumchali.**

4565. Hasharotxo'rlarning ko'zlari kattami yoki kichik? **Kichik.**

4566. Hasharotxo'rlarning ko'zlari ba'zilariniki qayerda joylashgan? **Teri parda tagida joylashgan.**

4567. Hasharotxo'rlardan qaysilari qalin jun bilan qoplangan? **Kratlar, vixuxollar, yerqazarlar qalin jun bilan qoplangan.**

4568. Hasharotxo'rlardan ayrimlarida qil yoki tikan bilan qoplangan? **Qil bilan tenreklar, tikan bilan (tipratikanlar) qoplangan.**

4569. Hasharotxo'rlar qanday ranglarda bo'ladi? **Kulrang, qo'ng'ir yoki qora, goho xolli bo'ladi.**

4570. Hasharotxo'rlarda qanday bezlar yaxshi rivojlangan? **Teri bezlari yaxshi rivojlangan.**

4571. Hasharotxo'rlardan ba'zilarinikining teri bezlari nima ajratadi? **Hidli sekret ajratadi.**

4572. Hasharotxo'rlardan qaysilari yer ustida yashaydi? **Kirpi, tenrek, yerqazarlar yer ustida yashaydi.**

4573. Hasharotxo'rlardan qaysilari yer tagida yashaydi? **Oltin krotlar, krotlar yer tagida yashaydi.**

4574. Hasharotxo'rlarning qaysi a'zolari yaxshi ixtisoslashgan? **Tishlari yaxshi ixtisoslashgan.**

4575. Hasharotxo'rlar bosh miyasining qaysi bo'laklari kuchli rivojlangan? **Hidlov bo'laklari kuchli rivojlangan.**

4576. Hasharotlarda qaysi sezgi a'zolar yaxshi rivojlangan? **Ko'rish, ta'm va hid bilish, eshitish va ovoz chiqarish a'zolari yaxshi rivojlangan.**

4577. Hasharotxo'rlarning nechta oilasi bor? Ular qaysilar? **6 ta oilasi bor. Ular: tipratikanlar, tenreklar, tilla krotlar, yoriqtishlilar, yerqazarlar, sakrovchilar.**

4578. Hasharotxo'rlar qayerlardan tashqari barcha qit'alarda tarqalgan? **Avstraliya, Janubiy Amerikaning ko'p qismi, Antarktida va Grenlandiyadan tashqari barcha qit'alarda tarqalgan.**

4579. Hasharotxo'rlarning ayrim turlari nima qilinadi? **Ovlanadi.**

4580. Hasharotxo'rlardan qaysilari suvda yashaydi? **Kutoralar, vixuxollar suvda yashaydi.**

4581. Hasharotxo'rlar qachon faol? **Tunda faol.**

4582. Hasharotxo'rlar hammaxo'r bo'lib, asosan, qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Umurtqasiz va mayda umurtqali hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

4583. Hasharotxo'rlar qayerga uya qaziydi? **Yerga uya qaziydi.**

4584. Hasharotxo'rlarning o'rmonlardagi ba'zi turlari qayerlarda hayot kechiradi? **Barg, shox-shabba va boshq.dan hosil bo'lgan to'shamalarda hayot kechiradi.**

4585. Hasharotxo'rlardan qaysilari terisi uchun ovlanadi? **Vixuxol, krotlar terisi uchun ovlanadi.**

4586. Hasharotxo'rlar qoldig'i qaysi davr yotqiziqlaridan ma'lum? **Quyi bo'r davri yotqiziqlaridan ma'lum.**

4587. Hasharotxo'rlar qaysi jonivorlarning eng qadimgi va sodda tuzilgan guruhi? **Yo'ldoshli sut emizuvchilarning eng qadimgi va sodda tuzilgan guruhi.**

4588. Hasharotxo'rlarning nechta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **8 ta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

4589. Haqiqiy kuyalar oilasiga mansub zararkunandalardan poya kuyasining nimalari qaysi o'simliklari poyalarini zararlaydi? **Qurtlari bug'doy va javdar o'simliklari poyalarini zararlaydi.**

4590. Haqiqiy salamandralarga qaysi hayvonlar kiradi? **Dumli salamandralar, tritonlar urug'lari kiradi.**

4591. Haqiqiy salamandralar qayerlarda tarqalgan? **Markaziy va Janubiy Yevropa, Shimoli-g'arbiy Afrika, Janubi-g'arbiy Osiyoda tarqalgan.**

4592. Haqiqiy eshkakoyoqli baqalar qancha turni birlashtiradi? **130 ga yaqin turni birlashtiradi.**





4593. Haqqush qush qaerlarda yashaydi? **Daryo, ko'l va boshqa suv havzalarining qirg'og'ida yashaydi.**

4594. Haqqush qush nechta tuxum qo'yadi? **4 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

4595. Haqqush qush tuxumini necha kun bosadi? **21 – 22 kun bosadi.**

4596. Haqqush qush O'zbekistonning qaysi vohalarida uchraydi? **Amudaryo va Sirdaryo vohalarida uchraydi.**

4597. Haqqush qush qaysi oilaga mansub qush? **Qarqaralar oilasiga mansub qush.**

4598. Haqqush qushning tanasi uzunligi necha sm ga yaqin? **60 sm ga yaqin.**

4599. Haqqush qushning qanoti necha sm? **26 – 30 sm.**

4600. Haqqush qush(etuk)ning boshida nechta uzun, ingichka patdan iborat kokili bor? **3 – 4 ta uzun, ingichka patdan iborat kokili bor.**

4601. Haqqushning rangi qanday? **Qora, oqish yoki kulrang.**

4602. Haqqush qush qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Yevropa, Osiyo, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerika, sobiq Ittifoq Yevropa qismining janubi hamda O'rta Osiyoda tarqalgan.**

4603. Hid bilish a'zolarining spetsifik funksiyasini ulardagi nimalar ta'minlaydi? **Urchuqsimon hujayra – retseptorlar ta'minlaydi.**

4604. Hind kapcha ilonlari, ya'ni ko'zoynakli kapcha ilonlar (Naja naja) qayerda tarqalgan? **Sharqiy Osiyo (jumladan, Hindiston) janubida tarqalgan.**

4605. Hind ko'zoynakli ilonning "ko'zoynak" rasmi nechta halqadan iborat? **Bitta halqadan iborat.**

4606. Hind krayti (B. Colrus) qayerlarda tarqalgan? **Hindiston va Seylonda tarqalgan.**

4607. Hind kraytining bo'yi necha m gacha? **1,5 m cha.**

4608. Hind drongosi (Chidia hottentotus) qayer yaqinida nechanchi yili tutilgan? **Vladivostok yaqinida 1947-yili tutilgan.**

4609. Hindiston buyvoli nima deb ham ataladi? **Arni deb ham ataladi.**

4610. Hindiston buyvolining balandligi necha m cha? **1,8 m cha.**

4611. Hindiston buyvolining og'irligi qancha kg gacha? **500 kg gacha.**

4612. Hindiston buyvolining shohi uzunmi yoki kaltami? **Uzun.**

4613. Hindiston buyvolining tusi qanday? **Kulrang, ba'zan qoramtir.**

4614. Hindiston buyvolining urg'ochisimi yoki erkagi kichikroq? **Urg'ochisi kichikroq.**

4615. Hindiston buyvoli qaysi orollarda tarqalgan? **Hindiston, Birma, Hindixitoy, Seylon va Borneo orollarida tarqalgan.**

4616. Hindiston buyvoli nima sababdan kamayib ketgan? **Ko'p ovlanganidan kamayib ketgan.**

4617. Hindiston buyvollari qayerlarda yashaydi? **Daryo va suv havzalarida sohillaridagi chakalakzorlar, botqoqlik o'rmonlarda yashaydi.**

4618. Hindiston buyvoli qachon xonakilashtirilgan? **Qadimdayoq xonakilashtirilgan.**

4619. Hirot kaltakesagi qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Kaliforniya yarim oroli va Meksikaning g'arbiy qismida tarqalgan.**

4620. Hirot kaltakesagi qaysi oilaga mansub kaltakesak? **Amfisbenalar oilasiga mansub kaltakesak.**

4621. Hirot kaltakesagining ko'zini nima qoplagan? **Teri parda qoplagan.**

4622. Hirot kaltakesagining chuvalchangsimon tanasi uzunligi necha sm cha? **20 sm cha.**

4623. Hirot kaltakesagi oilasining boshqa turlaridan nimasi bilan farq qiladi? **Baravar uzunlikdagi 3 yoki 5 barmoqli, oldingi oyoqlarining yaxshi taraqqiy etmaganligi bilan farq qiladi.**





4624. Hisori qo'y zoti qayerda qanday yo'l bilan yaratilgan qadimgi qo'y zotlaridan biri? **Tojikiston Hisori tog'i etaklarida xalq seleksiyasi yo'li bilan yaratilgan qadimgi qo'y zotlaridan biri.**

4625. Hisori qo'y zoti – nima yo'nalishdagi dumbali, dag'al junli qo'y zoti? **Go'sht-yog' yo'nalishidagi dumbali, dag'al junli qo'y zoti.**

4626. Hisori qo'y zoti qo'chqorlarining balandligi o'rtacha necha sm? **87 sm.**

4627. Hisori qo'y zoti qo'chqorlarining tanasi uzunligi necha sm? **85 sm.**

4628. Hisori qo'y zoti sovliqlarining balandligi o'rtacha necha sm? **79 sm.**

4629. Hisori qo'y zoti sovliqlarining tanasi uzunligi necha sm? **75 sm.**

4630. Hisori qo'y zoti qo'chqorlarining tirik og'irligi qancha kg gacha? **110 – 120 kg (160 – 180 kg)gacha.**

4631. Hisori qo'y zoti sovliqlarining tirik og'irligi qancha kg gacha? **80 – 90 kg (110 – 115 kg)gacha.**

4632. Hisori qo'y zoti qo'chqorlarining dumbasi o'rtacha qancha kg gacha? **15 – 20 kg, ba'zan 30 kg gacha.**

4633. Hisori qo'y zotining 4,5 – 5 oylik erkak qo'zilarining tirik og'irligi qancha kg gacha? **50 – 54 kg gacha.**

4634. Hisori qo'y zotining serpushtligi necha foizgacha? **110 – 120 foizgacha.**

4635. Hisori qo'y zotining sovliqlaridan qancha kg jun qirqib olinadi? **1 – 1,2 kg jun qirqib olinadi.**

4636. Hozir boshoyoqli mollyuskalarning qancha turi okean va ochiq dengizlarda tarqalgan? **650 ga yaqin turi okean va ochiq dengizlarda tarqalgan.**

4637. Hozir yovvoyi lan kamayib ketganligi sababli nima qilinadi? **Muhofaza qilinadi.**

4638. Hozir yashayotgan mollyuskalarning nechta turi ma'lum? **107 ming ta turi ma'lum.**

4639. Hozir yashab turgan nayzadumlilarning nechta turi bor? **3 ta turi bor.**

4640. Hozir stafilokokk qo'zg'atadigan juda ko'p nima aniqlangan? **Kasallik aniqlangan.**

4641. Hozirgi vaqtda umurtqali hayvonlarning nechta turi yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi? **600 ta turi yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi.**

4642. Hozirgi davrda Yer sayyorasida yashaydigan hayvonlarning qancha turi aniqlangan? **1,5 mln turi aniqlangan.**

4643. Hozirgi zamon ot zotlarining bo'yi necha m gacha? **2,5 m gacha.**

4644. Hozirgi zamon ot zotlarining balandligi necha sm dan necha sm gacha? **50 sm dan 185 sm gacha.**

4645. Hozirgi zamon ot zotlarining og'irligi qancha kg dan qancha kg gacha? **60 kg dan 1500 kg gacha.**

4646. Hozirgi mavjud maymunlar orasida eng sodda tuzilgani qaysi maymunlar? **O'ynoqi maymunlar.**

4647. Hozirgi mastodontlar qanday tishli mastodotlardan kelib chiqqan? **Taroq tishli mastodontlardan kelib chiqqan.**

4648. Hozirgi sut emizuvchilarning eng yirigi qaysi hayvon? **Ko'k kit.**

4649. Hozirgi toshbaqalarning eng yirigi qaysi toshbaqa? **Terili toshbaqa.**

4650. Hozirgi shu'laqanotlilar qaysi qanotlilardan kelib chiqqan? **Ko'p suzgich qanotlilardan kelib chiqqan.**

4651. Hozirgi eng kichik sut emizuvchilar qaysi? **Mitti jing'archa.**

4652. Hozirda yashayotgan baliqlarning necha foizini shu'laqanotlilar tashkil etadi? **95 foizini shu'laqanotlilar tashkil etadi.**

4653. Hozirgi eng kichik mitti jing'archaning tanasi uzunligi necha mm? **38 – 53 mm.**

4654. Homiladorlik biyalarda necha oy bo'ladi? **O'n bir oy bo'ladi.**





4655. Homiladorlik mushuklarda necha oy? **Ikki oy.**

4656. Homiladorlik sigirlarda necha oy? **To'qqiz oy.**

4657. Homiladorlik tuyalarda necha oy kechadi? **O'n uch yarim oy.**

4658. Homiladorlik cho'chqalarda necha oy? **To'rt oy.**

4659. Homiladorlik shimol bug'ularida necha oy? **Yetti oy.**

4660. Homiladorlik quyonlarda necha oy? **Bir oy.**

4661. Homiladorlik qo'y va echkilarda necha oy? **Besh oy.**

4662. Homiladorlik davrida hayvonlar qanday bo'lib, nima qilmaydi, nimasi ochiladi? **Yuvosh, ehtiyotkor bo'lib, tez yurmaydi, ishtaxasi ochiladi.**

4663. Homiladorlik (bo'g'ozlik) oxirida qog'onoq suvining miqdori qancha l ga yetadi? **1 – 1,5 l ga yetadi.**

4664. 120 – 180 bosh kichik guruh sovliqlar ichiga necha bosh qo'chqorlar qo'yiladi? **3 bosh qo'chqor (60 sovliqqa bir sinovchi qo'chqor hisobidan) qo'yiladi.**

4665. Ibijara qayerda yashaydigan sudralib yuruvchilarning bir turi? **Yer tagida yashaydigan sudralib yuruvchilarning bir turi.**

4666. Ibislar, ibissimonlar qanday qushlar turkumining bir oilasi? **Uzunoyoq qushlar turkumining bir oilasi.**

4667. Ibislar qanday iqlimli joylardagi botqoqliklarda yashaydi? **Tropik va mo'tadil iqlimli joylardagi botqoqliklarda yashaydi.**

4668. Ibislar qanday kattalikda? **Yirik va o'rtacha kattalikda.**

4669. Ibislarning tumshug'i uzunmi yoki kalta? **Uzun.**

4670. Ibislar tumshug'ining uchi yuqoriga qayrilganmi yoki pastga? **Pastga qayrilgan.**

4671. Ibislarning qaysi a'zolarida patsiz joylar bor? **Bosh va bo'ynida patsiz joylar bor.**

4672. Ibislarning oyoqlari uzunmi yoki kalta? **Uzun.**

4673. Ibislarning barmoqlari qanday parda bilan qo'shilgan? **Suzgich parda bilan qo'shilgan.**

4674. Ibislar qayerlarga gala bo'lib uya soladi? **Qamishzor va ba'zan qoyalarga gala bo'lib uya soladi.**

4675. Ibislar qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar, chuvalchanglar, mollyuskalar, mayda baliqlar, baqalar bilan ovqatlanadi.**

4676. Ibissimonlar qaysi turkum oilasi? **Kemiruvchilar turkumi oilasi.**

4677. Ibissimonlar laylaksimonlar turkumi oilasi bo'lib, nechta urug'i bor? **20 ta urug'i bor.**

4678. Ibissimonlar laylaksimonlar turkumi oilasi bo'lib, nechta turi bor? **32 ta turi bor.**

4679. Ibissimonlarning O'zbekistonda nechta turi bor? **Ikkita turi bor.**

4680. Ibissimonlarning O'zbekistonda ikki turi bo'lib, ularning nomlari nima? **Qoshiqburun (Platateo leucorodia) va qoravoy (Plegadis falcinellus).**

4681. Igna baliqlar qaysi oilaga mansub baliqlar urug'i? **Dengiz kirpilari oilasiga mansub baliqlar urug'i.**

4682. Igna baliqlarning tanasi necha qirrali? **6 yoki 7 qirrali.**

4683. Igna baliqlarning tanasi uzunligi necha sm cha? ***40 sm* cha.**

4684. Igna baliqlarning qancha turi ma'lum? **50 ga yaqin turi ma'lum.**

4685. Igna baliqlarning qaysi a'zosi naysimon cho'ziq? **Tumshug'i naysimon cho'ziq.**

4686. Igna baliqlarning og'zi kattami yoki kichkina? **Kichkina.**

4687. Igna baliqlar og'zi qaysi a'zosiz? **Tishsiz.**

4688. Igna baliqlarning qaysi suzgichlari yo'q? **Qorin suzgichlari yo'q.**

4689. Igna baliqlarning qaysi suzgichlari juda kichik? **Dum suzgichlari juda kichik.**

4690. Igna baliqlarda uvildiriq shilimshiq parda orqali keladigan qondagi nimadan foydalanib rivojlanadi? **Kisloroddan foydalanib rivojlanadi.**

4691. Igna baliqlar qaysi iqlimli dengizlarda tarqalgan? **Tropik, subtropik va mo'tadil dengizlarda tarqalgan.**

4692. Igna baliqlarning Qora, Kaspiy, Boltiq va Yapon dengizlarida nechtacha turi bor? **10 tacha turi bor.**

4693. Igna baliqlar ovlanadimi? **Yo'q, ovlanmaydi.**





4694. Igna baliqlar erkagining qornida yoki dum tomonida bola ochish uchun nimasi bo'lib, bunga urg'ochisi ko'payish davrida nima tashlaydi? **Kamerasi bo'lib, uvildiriq tashlaydi.**

4695. Igna baliqlar uvildirig'i qanday rivojlanadi? **Uvildiriq shilimshiq parda orqali keladigan qondagi kisloroddan foydalanib rivojlanadi.**

4696. Igna junlilar qayerlarda keng tarqalgan? **Shimoliy va Markaziy Amerikada.**

4697. Igna junlilar qaysi turkumga mansub hayvon? **Kemiruvchilar turkumiga mansub** hayvon.

4698. Igna junlilarning bo'yi necha sm? **30 – 86 sm.**

4699. Igna junlilarning dumi uzunligi necha sm? **7 – 45 sm.**

4700. Igna junlilarning og'irligi qancha kg cha? **18 kg cha.**

4701. Igna junlilarning nechta turni birlashtirgan, nechta urug'i bor? **20 ta turni birlashtirgan, 4 ta urug'i bor.**

4702. Igna junlilar hayvoni tanasi nima bilan qoplangan? **Qisman jun bilan qalin qoplangan.**

4703. Igna junlilar hayvoni orqasidagi junlari orasida uzunligi necha sm keladigan nimalar bor? **2,5 – 11 sm keladigan o'tkir ignasimon qillari bor.**

4704. Igna junlilarning tirnoqlari qanday? **Uzun, o'tkir.**

4705. Ignaterililar qanday hayvonlar tipi? **Umurtqasiz hayvonlar tipi.**

4706. Ignaterililar chala xordalilar va xordalilar tipi bilan birga qaysi jonivorlarga kiradi? **Ikkilamchi og'izlilarga kiradi.**

4707. Ignaterililar tanasi (hozirgi shakllari) necha mm dan necha m gacha, qazilmalari necha m gacha boradi? **Bir necha mm dan 5 m gacha, qazilmalari 20 m gacha boradi.**

4708. Ignaterililar (erkin suzuvchi)da qaysi a'zo, odatda, qorin (oral) tomonida? **Og'iz, odatda, qorin (oral) tomonida.**

4709. Ignaterililar (erkin suzuvchi)da qaysi a'zosi qarama-qarshi – orqa (aboral) tomonida? **Chiqarish teshigi qarama-qarshi – orqa (aboral) tomonida.**

4710. Ignaterililarda ichakning ikkala teshigi bir-biriga yaqinlashgan va qayoqqa (pastgami yoki yuqorigami) qaragan? **Yuqoriga qaragan.**

4711. Ignaterililar ignasi, odatda, harakatchan (ayniqsa, dengiz kirplarida), uzunligi necha sm ga borib, qanday vazifalarni bajaradi? **30 sm ga borib, himoyalanish va harakatlanish vazifasini bajaradi.**

4712. Ignaterilillarning tanasi epiteley va biriktiruvchi nima bilan o'ralgan? **To'qimalar qatlami bilan o'ralgan.**

4713. Ignaterililarning qancha turi ma'lum? **6000 ga yaqin turi ma'lum.**

4714. Ignaterililar qanday ko'payadi? **Jinsiy yo'l bilan, ba'zilari ikkita bo'lib ko'payadi.**

4715. Ignaterililar tuxumining urug'lanishi va embrionning rivojlanishi qayerda o'tadi? **Suvda o'tadi.**

4716. Ignaterililar (yopishib yashaydigan)da qaysi a'zoning ikkala teshigi bir-biriga yaqinlashgan va yuqoriga qaragan? **Ichakning ikkala teshigi bir-biriga yaqinlashgan va yuqoriga qaragan.**

4717. Ignaterililarning qaysi a'zosi epiteliy va biriktiruvchi to'qimalar qatlami bilan o'ralgan? **Tanasi epiteliy va biriktiruvchi to'qimalar qatlami bilan o'ralgan.**

4718. Ignaterililarning tanasi epiteliy va biriktiruvchi to'qimalar qatlami bilan o'ralgan bo'lib, shu qatlamda qaysi a'zolari bor? **Ignali ohak skelet va muskullar bor.**

4719. Ignaterililarning qaysi a'zosi yaxshi rivojlangan? **Sezish a'zosi yaxshi rivojlangan.**

4720. Ignaterililarning qaysi a'zosi uzun nay (dengiz limiyasida) yoki xaltacha ko'rinishida? **Ichagi uzun nay (dengiz limiyasida) yoki xaltacha ko'rinishida.**

4721. Ignaterililar qanday (kamini yoki ko'pmi) harakatli hayvon? **Kam harakatli hayvon.**

4722. Ignaterililarning aksariyati nimalar bilan ovqatlanadi? **Yirtqich jonivorlar bilan ovqatlanadi.**

4723. Ignaterililarning ba'zilari nimalar bilan ovqatlanadi? **Suvo'tlari bilan ovqatlanadi.**

4724. Ignaterililar qanday dengizlarda yashaydi? **Iliq dengizlarda yashaydi.**

4725. Ignaterililar qaysi oblastlarda kam? **Arktik oblastlarda kam.**





4726. Ignaterililar nechta kenja tipga bo'linadi? **2 ta tipga bo'linadi.**

4727. Ignaterililarning nomlari nima? **Yopishib yashovchilar va erkin suzuvchilar.**

4728. Ignaterililar keng tarqalganligi dengiz iqtisodiyotida qanday ahamiyatga ega? **Katta ahamiyatga ega.**

4729. Ignaterililardan ba'zi golotiriyalar (trepang) qaysi davlatlarda ovqatga ishlatiladi? **Xitoy va Yaponiyada ovqatga ishlatiladi.**

4730. Ignaterililarning ikrasi iste'mol qilinadigan dengiz kirpilari qaysi dengizdan ovlanadi? **O'rta dengizdan ovlanadi.**

4731. Ignaterililardan goloturiyalar (terpang, kukumariya) qaysi dengizdan ovlanib, quritiladi yoki konserva qilinadi, shuningdek, dengiz kirpilarining ikrasi ham konservalanadi? **Yapon dengizidan ovlanib, quritiladi yoki konserva qilinadi, shuningdek, dengiz kirpilarining ikrasi ham konservalanadi.**

4732. Ignaterililardan qaysi qurilish materiallari hosil bo'lgan? **Ohaktosh hosil bo'lgan.**

4733. Ignaterililarning shakli nimalarga o'xshaydi? **Igna tanlilar shakli yulduz (dengiz yulduzlari, ofiurlar), gul (dengiz nilufarlari), shar, disk yoki yurak (dengiz kirpilari), bodring yosh chuvalchang (goloturiyalar)ga o'xshaydi.**

4734. Iguanalar qaysi hayvonlarning bir oilasi? **Kaltakesaklarning bir oilasi.**

4735. Iguanalar qaysi turkumga kiradi? **Tangachalilar turkumiga kiradi.**

4736. Iguanalarning boshida mayda qaysi a'zolar bor? **Qalqonchalar bor.**

4737. Iguanalarning elkasida ko'ndalangiga qator o'rnashgan nimalar bor? **Tangachalar bor.**

4738. Iguanalarning kattaligi qaysi jonivorga o'xshash? **Echkiemarga o'xshash.**

4739. Iguanalar qaysi jonivorlarga juda o'xshaydi? **Agamalarga o'xshaydi, shu bois Amerika agamalari deb ham yuritiladi.**

4740. Iguanalarning oyoqlari uzunmi yoki kalta? **Uzun.**

4741. Iguanalarning dumi uzunmi yoki kalta? **Uzun.**

4742. Iguanalar nechta urug'dan iborat? **50 ta urug'dan iborat.**

4743. Iguanalarning nechta turi bor? **700 ta turi bor.**

4744. Iguanalarning nechta turi Madagaskar va nechta turi Polineziya orollarida yashaydi? **3 ta turi Madagaskar va 1 ta turi Polineziya orollarida yashaydi.**

4745. Iguanalarning oyoqlarida nechta barmog'i bor? **Beshta barmog'i bor.**

4746. Iguanalar qayerlarda uchraydi? **Cho'llardagi quruq pastliklarda, qalin o'rmonlardagi nam yerlarda va aholi yashaydigan joyga yaqin xarobalarda uchraydi.**

4747. Iguanalar qachon suvda yaxshi suzadi? **Xatar sezsa, o'zini darhol suvga tashlab, yaxshi suzadi.**

4748. Iguanalarning ko'pchiligi qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

4749. Iguanalarning ba'zilari nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklar bilan ovqatlanadi.**

4750. Iguanalarning nimalari iste'mol qilinadi? **Go'shti va tuxumi iste'mol qilinadi.**

4751. Iguanalar kaltakesaklarning bir oilasi bo'lib, mazkur oilaning vakillari qaysilar? **Ko'k iguana, qiziltomoq analis, Amerika ajdahosi, dengiz kaltakesagi va h.k. mazkur oila vakillari.**

4752. Izyubr qayerlarda yashaydi? **Sharqiy Osiyoda (Shimoliy Xitoy, Koreyada; Rossiya Federatsiyasining Sharqiy Sibir va Uzoq Sharqi)da yashaydi.**

4753. Izyubr qaysi turkumning bug'ular oilasiga mansub sut emizuvchi hayvoni? **Juft tuyoqlilar turkumining bug'ular oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon.**

4754. Izyubr erkaklarining tanasi uzunligi necha sm? **220 – 250 sm.**

4755. Izyubr hayvoni erkagining bo'yi balandligi necha sm? **145 – 165 sm.**

4756. Izyubr hayvoni erkagi og'irligi qancha kg? **170 – 250 kg.**





4757. Izyubr shoxlarining uzunligi, odatda, necha sm gacha? **85 sm gacha.**

4758. Izyubrning har qaysi shoxida nechta o'simta bor? **10 – 12 ta o'simta bor.**

4759. Izyubrning juni yozda, qishda qanday rangda bo'ladi? **Yozda qizg'ish-sariq, qishda sarig'-kulrangda bo'ladi.**

4760. Ikki tavaqalilar, plastinka jabralilar qaysi tipning bir sinfi? **Mollyuskalar yoki yumshoq tanlilar tipining bir sinfi.**

4761. Ikki tavaqalilar qanday hayvon? **Ayrim jinsli hayvon.**

4762. Ikki tavaqadan iborat chig'anog'i qaysi tomonda bir-biri bilan qo'shiladi? **Orqa tomonda bir-biri bilan qo'shiladi.**

4763. Ikki tavaqalilarning tanasi uzunligi necha m gacha bo'ladi? **Bir necha mm dan 1,5 gacha bo'ladi.**

4764. Ikki tavaqalilarning ko'pchiligi qayerda yashaydi? **Dengizda yashaydi.**

4765. Ikki tavaqalilar, odatda, erkin suzib yuradigan nimalardan rivojlanadi? **Lichinkalardan rivojlanadi.**

4766. Ikki tavaqalilarning chuchuk suvda yashaydigan ko'pgina shakllarining lichinkasi (gloxidiy) qaysi jonivorlarda parazitlik qiladi? **Baliqlarda parazitlik qiladi.**

4767. Ikki tavaqalilarning qancha turi bor? **25 mingga yaqin turi bor.**

4768. Ikki tavaqalilar qanday organizmlar bilan ovqatlanadi? **Mikroskopik organizmlar bilan ovqatlanadi.**

4769. Ikki tavaqalilarning nechta turkumi bor? **Uchta turkumi bor.**

4770. Ikki tavaqalilarning uchta turkumi bo'lib, ular qaysilar? **Har xil tishlilar, har xil muskullilar va chin plastinka jabralilar.**

4771. Ikki tavaqalilarning ko'pchiligi nima qilinadi? **Ovlanadi.**

4772. Ikki tavaqalilardan qaysilari ovqatga ishlatiladi? **Ustritsalar, midiyalar va boshq. ovqatga ishlatiladi.**

4773. Ikki tavaqalilarning ko'pi qaysi jonivorlarga yemish? **Ovlanadigan baliqlarga yemish.**

4774. Ikki tavaqalilardan ba'zilari dengizlardagi har xil inshootlarni nima qiladi? **Emiradi (masalan, kema qurtlari).**

4775. Ikki tavaqalilarning ayrimi qaysi jonivor parazitlarining oraliq xo'jayini? **Baliq parazitlarining.**

4776. Ikki tavaqalilarning ko'pchiligi chig'anog'idan nima olish uchun ovlanadi? **Sadaf olish uchun ovlanadi.**

4777. Ikki tavaqalilardan ustritsalar maxsus "zavod"larda qanday yo'l bilan ko'paytiriladi? **Sun'iy yo'l bilan ko'paytiriladi.**

4778. Ikki tavaqalilarni ovlash, asosan, qayerda rivojlangan? **Uzoq Sharqda rivojlangan.**

4779. Ikki tavaqalilar jahon mamlakatlarida har yili qancha s ovlanadi? **7 – 8 mln s ovlanadi.**

4780. Ikki xil nafas oluvchilarning qayerlarda yashashga imkon beradigan a'zolari bo'ladi? **Suvda yashashga moslashgan a'zolari (jabralar) bilan bir qatorda atmosfera havosidan nafas olishga imkon beradigan a'zolari (o'pkasi) ham bo'ladi.**

4781. Ikki xil nafas oluvchilar qayerlardagi qaysi daryoda yashaydi? **Shimoli-Sharqiy Avstraliyadagi Kvinslend daryosida yashaydi.**

4782. Ikki xil nafas oluvchilarning suzgichlari nechta? **Ikkita.**

4783. Ikki xil nafas oluvchilarning suzgichlari qanday shaklda? **Ipsimon shaklda.**

4784. Ikki xil nafas oluvchilarning suzgich pufagi (o'pkasi) nechta? **Ikkita.**

4785. Ikki xil nafas oluvchi baliqlarning yuragi necha kamerali? **Uch kamerali.**

4786. Ikki xil nafas oluvchilar suyakli baliqlar kenja nimasi? **Sinfi.**

4787. Ikki xil nafas oluvchilarning o'ziga xos belgilari nimalar hisoblanadi? **O'pka bilan nafas olish, yurak bo'lmasa-da, uni bo'lib turuvchi bo'lakcha bo'lishi, bosh miyasining kuchli rivojlanganligi ularning o'ziga xos belgilari hisoblanadi.**

4788. Ikki xil nafas oluvchilar qaysi turkumlarga bo'linadi? **Bir o'pkalilar (Monopnenmones) va ikki o'pkalilar (Dipnumones) turkumlariga bo'linadi.**

4789. Ikki xil nafas oluvchilardan bir o'pkalilarning yagona turi qaysi? **Muguztilli (Neoceratodus forsteri).**

4790. Ikki xil nafas oluvchilarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **175 sm gacha.**





4791. Ikki xil nafas oluvchilarning juft suzgichlari qanday shaklda bo'ladi? **Bargenmon shaklda bo'ladi.**

4792. Ikki xil nafas oluvchilardan ikki o'pkalilarning tanasi qanday? **Cho'ziq.**

4793. Ikki xil nafas oluvchilar, ko'p shu'lalilar, suyakli ganoidlilarda havo pufagi qanday funksiyani bajaradi? **Qo'shimcha nafas olish a'zosi funksiyasini bajaradi.**

4794. Ikkinchi o'rinda ovlanadigan baliqlar qaysilar? **Treskasimonlar.**

4795. Ikki o'rkachli tuyalardan qancha kg, bir o'rkachlilardan qancha kg jun qirqib olinadi? **5 – 10 kg, 2 – 4 kg jun qirqib olinadi.**

4796. Ikki o'rkachli tuyaning homiladorlik davri necha oy? **14 oy.**

4797. Ikki pallali mollyuskalar, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Dengizlarda tarqalgan.**

4798. Ikki pallalilar qaysi jonivorlar tipining bir sinfi sanaladi? **Mollyuskalar tipining bir sinfi sanaladi.**

4799. Ikki pallalilarning tanasi uzunligi necha m gacha? **Bir necha mm dan 1,5 m gacha.**

4800. Ikki pallalilarning og'irligi qancha kg? **30 kg, ba'zan 200 kg gacha (tridakna).**

4801. Ikki pallalilarning qaysi a'zosi bo'lmaydi? **Boshi bo'lmaydi.**

4802. Ikki pallali mollyuskalarining qaysi turlari go'shti uchun ovlanadi? **Miziyalar, ustritsalar go'shti uchun ovlanadi.**

4803. Ikki pallali mollyuskalarning qaysi turlari marvarid olish va go'sht uchun boqiladi? **Marvariddorlari marvarid olish va go'sht uchun boqiladi.**

4804. Ikki pallali mollyuskalarning ayrim turlari tuxumlari va lichinkalarini qaysi a'zolarida olib yuradi? **Jabralarida olib yuradi.**

4805. Ikki pallali mollyuskalarning qancha turi bor? **20 mingga yaqin turi bor.**

4806. Ikki pallali mollyuskalar chig'anog'ining ichki tomoni ko'pincha nima bilan qoplangan? **Sadaf bilan qoplangan.**

4807. Ikki pallali mollyuskalarning jigari necha bo'lakdan iborat? **3 bo'lakdan iborat.**

4808. Ikki pallalilarning oyog'i ko'pincha nechta bo'ladi? **Bitta bo'ladi.**

4809. Ikki pallalı mollyuskalarning asab tizimi necha juft? **3 juft.**

4810. Ikki pallali mollyuskalarning qon aylanish sistemasi ochiqmi yoki yopiq? **Ochiq.**

4811. Ikki pallali mollyuskalarning qaysi turlari chuchuk suvlarda tarqalgan? **Sadafdorlar, marvariddorlar va baqachanoqlar tarqalgan.**

4812. Ikki pallali mollyuskalar qayerlarda yashashadi? **Suv tubida yashashadi.**

4813. Ikki pallali mollyuskalarning ayrim turlari qanday xususiyatga ega? **Tosh yoki yog'ochni teshish xususiyatiga ega.**

4814. Ikki pallali mollyuskalarning nechta turi endemik bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan? **5 ta turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.**

4815. Ikki so'rg'ichlilar qaysi sinfga mansub ba'zi chuvalchanglar yoki digenetik so'rg'ichlarning umumiy nomi? **Trematodalar sinfiga mansub (masalan: jigar, qon va o'pka qurti).**

4816. Ikki jinsli egizaklar nima bermaydi? **Nasl bermaydi.**

4817. Ikki qanotlilar, qo'sht qanotlilarning qancha turi ma'lum? **80 mingga yaqin turi ma'lum.**

4818. Ikki qanotlilar, qo'sht qanotlilar qaysi jonivorlar turkumi? **Hasharotlar turkumi.**

4819. Ikki qanotlilarning qaysi (oldingisimi yoki keyingisimi) juft qanoti reduksiyalanib ching'illovchi a'zoga aylangan? **Keyingisi.**

4820. Ikki qanotlilarning qaysi a'zosi harakatchan? **Boshi harakatchan.**

4821. Ikki qanotlilarning qaysi a'zolari katta? **Ko'zlari katta.**

4822. Ikki qanotlilarning qaysi a'zosi yaxlit? **Ko'kragi yaxlit.**

4823. Ikki qanotlilar, asosan, nechta kenja turkumga bo'linadi? **2 ta turkumga bo'linadi.**

4824. Ikki qanotlilarning nomlari nima? **Uzun mo'ylovlilar va kalta mo'ylovlilar.**

4825. Ikki qanotlilar qayerda tarqalgan? **Hamma joyda tarqalgan.**





4826. Ikki qanotlilarning ko'pgina turlari ekinlarga katta nima yetkazadi? **Zarar, masalan: gessen pashshasi, karam pashshasi, piyoz pashshasi va boshq turlari.**

4827. Ikki qanotlilardan qaysi turlari hayvonlarga yuqumli kasalliklar tarqatadi? **So'nalar, chivinlar, qon so'ruvchilar va boshqa turlari hayvonlarga yuqumli kasalliklar tarqatadi.**

4828. Ikki qanotlilardan qaysi turlari odamlarga yuqumli kasalliklar tarqatadi? **Bezgak chivinlari, pashsha va boshqa turlari odamlarga yuqumli kasalliklar tarqatadi.**

4829. Ikki qanotlilardan Afrikada yashaydigan setse pashshasi qanday kasallikni yuqtiradi? **Uyqu kasalligini yuqtiradi.**

4830. Ikki qanotlilarning roli nimada katta? **O'simliklarning changlanishida, masalan, taxin pashshalarning roli katta.**

4831. Ikki qanotlilarning gul pashshalaridan sirfidlarning lichinkalari barglardagi nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simlik bitlari bilan ovqatlanadi.**

4832. Ikki juftoyoqlilar qanday oyoqlilarning kenja sinfi sanaladi? **Qo'shoyoqlilarning kenja sinfi sanaladi.**

4833. Ikki juftoyoqlilarning har bir tana bo'g'imida necha juftdan oyoqlari bo'ladi? **2 juftdan oyoqlari bo'ladi.**

4834. Ikki juftoyoqlilarning oyoqlari soni necha juftdan necha juftgacha? **12 juftdan 375 juftgacha (tropik kivsyak).**

4835. Ikki juftoyoqlilarning nechta turkumi ma'lum? **13 ta turkumi ma'lum.**

4836. Ikki juftoyoqlilarning qancha turi ma'lum? **50 mingga yaqin turi ma'lum.**

4837. Ikki juftoyoqlilar qaysi qit'adan boshqa hamma qit'alarda mavjud? **Antarktidadan boshqa hamma mavjud tarqalgan.**

4838. Ikki juftoyoqlilar nisbiy namligi necha foizga yaqin bo'lgan pana joylarda yashaydi? **100 foizga yaqin bo'lgan pana joylarda yashaydi.**

4839. Ikkilamchi og'izlilar necha tipga mansub hayvonlar? **Uch tipga mansub hayvonlar.**

4840. Ikkilamchi og'izlilar uch tipga mansub hayvonlar bo'lib, ular qaysilar? **Chala xordalilar, ignatanlilar va xordalilar.**

4841. Ikkilamchi og'izlilarning skeleti ichki bo'lib, nimadan kelib chiqadi? **Mezodermadan kelib chiqadi.**

4842. Ikkilamchi og'izlilarning qaysi sistemasi ektoderma plastinkasi shaklida vujudga keladi? **Asab sistemasi ektoderma plastinkasi shaklida vujudga keladi.**

4843. Ikkilamchi og'izlilarga qo'shimcha ravishda qaysi tiplar ham kiritilgan? **Qiljag'lilar va pogonofora tiplari ham kiritilgan.**

4844. Ikra nima? **Baliqlar, amfibiyalar, mollyuskalar va boshq. dengiz hayvonlari qo'yadigan tuxum – hujayralar yig'indisi.**

4845. Ilvasin qaysi qushlarning umumiy nomi? **Qirg'ovul, qarqur, kaklik, bedana, yovvoyi o'rdak, tuvaloq, chumchuq, kaptar, chug'urchiq, qorayaloq va shu kabi qushlar.**

4846. Ilvasin nimasi uchun ovlanadigan yovvoyi qushlar? **Go'shti uchun ovlanadigan yovvoyi qushlar.**

4847. Ilvasin qushlar nimalar bilan ovlanadi? **To'r, tuzoq yoki miltiq bilan ovlanadi.**

4848. Ilvasin qushlarning go'shtidan, asosan, qanday taomlar tayyorlanadi? **Asosan, sho'rva, kabob, dimlama, palov va boshq. taomlar tayyorlanadi.**

4849. Ilvirs, qor qoploni qaysi turkumning mushuksimonlar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon? **Yirtqichlar turkumining mushuksimonlar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon.**

4850. Ilvirsning tanasi uzunligi necha sm? **130 sm.**

4851. Ilvirsning dumi uzunligi necha sm ga yaqin? **90 sm ga yaqin.**

4852. Ilvirsning og'irligi qancha kg? **25 – 40 kg.**

4853. Ilvirs qaysi oyning oxirlarida nechta bola tug'adi? **May oxirlarida 2 – 3 ta bola tug'adi.**

4854. Ilvirsning homiladorlik davri necha oy? **3 oy.**

4855. Ildam kaltakesak qaysi oilaga kiradi? **Tangachalilar turkumining chin kaltakesaklar oilasiga kiradi.**

4856. Ildam kaltakesakning tanasi uzunligi necha sm gacha? **8,5 sm gacha.**

4857. Ildam kaltakesakning dumi tanasidan necha marta uzun? **1,4 – 2 marta uzun.**

4858. Ildam kaltakesak necha marta nechtadan tuxum qo'yib ko'payadi? **2 – 3 marta 3 – 5 tadan tuxum qo'yib ko'payadi.**





4859. Ildam kaltakesak qayerlarda tarqalgan? **Eron, Shimoli-G'arbiy Xitoy, Kavkaz, Astraxan, Volgabo'yi, O'rta Osiyo Respublikalarida tarqalgan.**

4860. Ildam kaltakesakni qayerlarda uchratish mumkin? **Sho'rxok taqirlar, qumli cho'llar, to'qay hamda chakalakzor, ariq va hovuzlar bo'yida ko'plab uchratish mumkin.**

4861. Ildam kaltakesakning qorin tomoni qanday rangda? **Oq rangda.**

4862. Ildam kaltakesakning dumi osti qanday rangda? **Qizil rangda.**

4863. Ildam kaltakesak nimalar bilan ovqatlanadi? **Har xil hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

4864. Ildizoyoqlilar, sarkodalilar qaysi tipning bir sinfi? **Sodda hayvonlar tipining** bir sinfi.

4865. Ildizoyoqlilar nechta turkumga bo'linadi? **5 ta turkumga bo'linadi.**

4866. Ildizoyoqlilarning 5 turkumi bo'lib, ular qaysilar? **Ular: amyobalar, chig'anoqli amyobalar, foraminiferalar, nursimonlar va quyoshsimonlar, ya'ni (radiolyariyalar)ga bo'linadi.**

4867. Ildizoyoqlilarda protoplazmaning muvaqqat o'siqlaridan iborat qanday oyoqlar, ya'ni psevdopodiylar hosil qilish xususiyati bor? **Soxta oyoqlar, ya'ni psevdopodiylar hosil qilish xususiyati bor.**

4868. Ildizoyoqlilarda soxta oyoqlar qanday vazifalarni bajaradi? **Harakatlanish va ovqat tutish vazifalarini bajaradi.**

4869. Ildizoyoqlilarning kattaligi necha mk dan necha sm gacha? **Bir necha mk dan 3 sm gacha (hozir mavjud shakllari) va 5 sm gacha (qazilma shakllari).**

4870. Ildizoyoqlilarning ba'zilari odam va hayvonlarning qaysi a'zosida yashab, kasallikka sabab bo'ladi? **Ichagida yashab, kasallikka sabab bo'ladi.**

4871. Ildiz tukchalari qanday vazifani o'taydi? **So'rg'ich vazifasini o'taydi.**

4872. Ilgari antilopalarga qaysi quvushshoxli hayvonlar kiritilgan? **Echki, qo'y va ho'kizlardan boshqa barcha quvushshoxli hayvonlar kiritilgan.**

4873. Ilk hayvonot bog'i qayerda eramizdan taxminan necha yil oldin mavjud bo'lgan? **Misrda 1500 yil oldin mavjud bo'lgan.**

4874. Ilonlar tangachalilar kenja turkumi bo'lib, qadimgi ilonlarning qazilma qoldig'i (uzunligi 11 m gacha) qaysi davrdan ma'lum? **Bo'r davridan ma'lum.**

4875. Ilonlarning tanasi ingichka va uzun bo'lib, uzunligi necha sm dan necha m gacha? **8 sm dan 10 m gacha.**

4876. Ilonlarning tanasi nimalar bilan qoplangan? **Muguzsimon qalqon va tangachalar bilan qoplangan.**

4877. Ilonlarning qaysi suyaklari bo'lmaydi? **Oyoq kamari suyaklari bo'lmaydi.**

4878. Ilonlarning umurtqalari nechtadan nechtagacha? **141 tadan 435 tagacha.**

4879. Ilonlarning qanday suyagi bo'lmaydi? **To'sh suyagi bo'lmaydi.**

4880. Ilonlarning qovurg'alari qanday? **Harakatchan.**

4881. Ilonlarning qaysi a'zosini shaffof qovoqlar qoplab turadi? **Ko'zini shaffof qovoqlar qoplab turadi.**

4882. Ilonlarning qaysi a'zolari bo'lmaydi? **Quloq teshigi va nog'ora pardasi bo'lmaydi.**

4883. Ilonlarning o'rta qulog'i qanday tuzilgan? **Sodda tuzilgan.**

4884. Ilonlarning tili qanday? **Uzun, ayrisimon.**

4885. Ilonlarning qanday a'zosi bor? **Yakobson a'zosi bor.**

4886. Ilonlarning yirik o'ljani yutayotganida og'zining keng ochilishiga nima imkon beradi? **Bosh skeletining yuz suyaklari elastik naylar orqali o'zaro birikkani.**

4887. Ilonlarning zahari o'lja tanasiga nima orqali oqib keladi? **Tishlari sirtidagi egatcha yoki ichidagi nay orqali oqib keladi.**

4888. Ilonlarning ichki a'zolari qanday joylashgan? **Asimmetrik joylashgan.**

4889. Ilonlarning o'pkasi, odatda, nechta? **Bitta.**

4890. Ilonlarning qaysi a'zosi bo'lmaydi? **Siydik pufagi bo'lmaydi.**

4891. Ilonlar erkagining kuyikish a'zolari bir juft xaltachalardan iborat bo'lib, anal teshigidan orqaroqda, qayerida joylashgan? **Terisining ostida joylashgan.**





4892. Ilonlar yilda necha marta tullaydi? **Bir necha marta tullaydi.**

4893. Ilonlarning qancha turi nechta oilaga bo'linadi? **3000 ga yaqin turi 13 ta oilaga bo'linadi.**

4894. Ilonlarning asosiy oilalari qaysilar? **Suv ilonlari, aspidlar, dengiz ilonlari, qora ilonlar, chuqurchaboshlilar, so'qir-ilonlar, torog'izlilar, bo'g'ma ilonlar, qalqondumlilar.**

4895. Ilonlar yer yuzida qayerdan tashqari, hamma yerda uchraydi? **Antarktidadan tashqari, hamma yerda uchraydi.**

4896. Ilonlar, arilar va boshq. ba'zi zaharli jonivorlar zaharidan qanday miqdorda davolash maqsadida foydalaniladi? **Kam miqdorda davolash maqsadida foydalaniladi.**

4897. Ilon dumlar qaysi tipning umurtqasizlar sinfiga mansub hayvonlar? **Igna tanlilar tipining umurtqasizlar sinfiga mansub hayvonlar.**

4898. Ilon dumlarining gavdasi yassi disk va nechta soxta «qo'l»dan iborat? **5 ta soxta «qo'l»dan iborat.**

4899. Ilonbosh qaysi turkumga mansub? **Ilonboshlar turkumiga mansub.**

4900. Ilonbosh baliqning asl vatani qayer? **Asl vatani – tropik Afrika, g'arbiy va janubi-sharqiy Osiyo, Amur daryosi havzasi.**

4901. Ilonbosh baliqning tanasi uzunligi necha sm gacha? **85 sm gacha.**

4902. Ilonbosh baliqning og'irligi qancha kg gacha? **7 kg gacha.**

4903. Ilonbosh baliq necha yoshida voyaga yetadi? **3 yoshida voyaga yetadi.**

4904. Ilonbosh baliq qaysi oylarda urchiydi? **Iyun – iyul oylarida urchiydi.**

4905. Ilonbosh baliqning urg'ochilari qayerda nimalardan yasalgan uyaga o'rtacha nechta uvildiriq tashlaydi? **Poya va barglardan yasalgan uyaga o'rtacha 7300 ta uvildiriq tashlaydi.**

4906. Ilonbosh baliqning urg'ochisimi yoki erkagi tuxumlarni qo'riqlaydi? **Erkagi tuxumlarni qo'riqlaydi.**

4907. Ilonbosh baliq qanday? **Yirtqich.**

4908. Ilonbosh qanday suvda yashaydigan baliq? **Chuchuk suvda yashaydigan baliq.**

4909. Ilonbosh baliqning atmosfera havosidan nafas olishi uchun qanday a'zosi bor? **Jabra usti a'zosi bor.**

4910. Ilonbosh baliq qachon O'zbekiston suv havzalariga qanday kelib qolgan? **XX asrning 60-yillarida tasodifan kelib qolgan.**

4911. Ilonbosh baliq qanday joylarda ham yashay oladi? **Iflos suvlarda ham, hatto suvsiz joylarda ham yashay oladi.**

4912. Ilonbosh baliq qayerlarda uchraydi? **Xitoy, Koreyada, sobiq Ittifoqning Amur daryosi havzasida uchraydi.**

4913. Ilonbosh qanday baliqlar bilan ovqatlanadi? **Mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

4914. Ilonbosh ko'proqmi yoki ozroq ovlanadi? **Ozroq ovlanadi.**

4915. Ilonburgut qaysi turkumning qarchig'aysimonlar oilasiga mansub qush? **Yirtqich qushlar turkumining qarchig'aysimonlar oilasiga mansub qush.**

4916. Ilonburgut qush qayerlarda uchraydi? **Yevropa, Osiyo va Shimoliy Afrikada uchraydi.**

4917. Ilonburgut qush qishlash uchun qayerlarga uchib ketadi? **Qishlash uchun Hindiston, Arabiston va Afrikaga uchib ketadi.**

4918. Ilonburgut qush nechta tuxum qo'yadi? **Bitta tuxum qo'yadi.**

4919. Ilonburgut qushning tanasi uzunligi necha sm gacha? **72 sm gacha.**

4920. Ilonburgut qushning og'irligi qancha kg? **1,5 – 2 kg.**

4921. Ilonburgut qushning tanasi ustki tomoni rangi qanday? **Xira qo'ng'ir.**

4922. Ilonburgut qushning tanasi ostki tomoni rangi qanday? **Oqish.**

4923. Ilonburgut qushning tanasida yirik qanday xollari bor? **Qo'ng'ir xollari bor.**

4924. Ilonburgut qushning ko'zlari, rangi qanday? **Sariq, yirik.**

4925. Ilonburgut qush O'zbekistonda qayerlarga uya quradi? **Daraxt va qoyalarga uya quradi.**

4926. Ilonburgut qush nechta qanday rangli tuxum qo'yadi? **1 ta oq rangli tuxum qo'yadi.**





4927. Ilonburgut qushning qaysi biri necha kun tuxum bosadi? **Urg'ochisi 45 kun bosadi.**

4928. Ilonburgut qushning jo'jasi necha kunda uchirma bo'ladi? **70 – 90 kunda uchirma bo'ladi.**

4929. Ilonburgut qush ovqatining asosiy qismini har xil qaysi jonivorlar tashkil etadi? **Ilonlar, kaltakesaklar tashkil etadi.**

4930. Ilonburgut qush noyob tur bo'lgani uchun qaysi Qizil kitobga kiritilgan? **O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.**

4931. Ilonbo'yin toshbaqalarning nechta uruqqa bo'linadigan, nechta turi bor? **10 ta uruqqa bo'linadigan, 30 dan ortiq turi bor.**

4932. Ilonbo'yin toshbaqalar qaysi turkumning bir oilasi? **Yon bo'yinli toshbaqalar kenja turkumining bir oilasi.**

4933. Ilonbo'yin toshbaqalar qayerlardagi ko'l va daryolarda yashaydi? **Janubiy Amerika, Avstraliya hamda Yangi Gvineyadagi ko'l va daryolarda yashaydi.**

4934. Ilonbo'yin toshbaqalarning kosasi qanday shaklda bo'lib, necha sm cha? **Oval shaklda bo'lib, 24 sm cha.**

4935. Ilonbo'yin toshbaqalarning urg'ochisi qaysi oyda necha dona tuxum qo'yadi? **Yanvar oyida 15 – 25 dona tuxum qo'yadi.**

4936. Ilonbo'yin toshbaqalarning ayrim turlari nima qilinadi? **Ovlanadi.**

4937. Ilonbo'yin toshbaqalarning nechta turi Tabiatni Muhofaza qilish Xalqaro ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgan? **1 ta turi Tabiatni Muhofaza qilish Xalqaro ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgan.**

4938. Ilonbosh kaltakesaklar qaysi turkumning chin kaltakesaklar oilasiga kiradigan bir urug'i? **Tangachalilar turkumining chin kaltakesaklar oilasiga kiradigan bir urug'i.**

4939. Ilonkaltakesaklar qaysi oilaga mansub kaltakesaklar urug'i? **Stsinklar oilasiga mansub kaltakesaklar urug'i.**

4940. Ilonkaltakesaklarning qaysi a'zosi ilonsimon? **Gavdasi ilonsimon.**

4941. Ilonkaltakesaklarning oyoqlari qanday? **Kuchsiz rivojlangan yoki bo'lmaydi.**

4942. Ilonkaltakesaklarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **20 sm gacha.**

4943. Ilonkaltakesaklarning pastki harakatchan qovog'ida nimasi bo'ladi? **Tiniq tuynukchasi bo'ladi.**

4944. Ilonkaltakesaklar Yevrosiyoning qaysi mintaqalarida tarqalgan? **Tog' va cho'l mintaqalarida tarqalgan.**

4945. Ilonkaltakesaklarning nechta turi ma'lum? **9 ta turi ma'lum.**

4946. Ilonkaltakesaklar Markaziy Osiyoning qaysi Respublikasida uchraydi, qaysi kitobga kiritilgan? **Turkmanistonda uchraydi, Qizil kitobga kiritilgan.**

4947. Ilonquyruqlar qaysi jonivorlarning bir urug'i? **Kaltakesaklarning bir urug'i.**

4948. Imillab yuruvchilar – sistematik o'rni to'la aniqlanmagan qanday (umurtqalimi yoki umurtqasizmi) hayvonlar? **Umurtqasiz hayvonlar.**

4949. Imillab yuruvchilar qaysi jonivorlar tipiga mansub sinf sifatida taxmin qilinadi? **Bo'g'imoyoqlilar tipiga mansub sinf sifatida taxmin qilinadi.**

4950. Imillab yuruvchilarning tanasi uzunligi necha mm? **0,1 – 1 mm.**

4951. Imillab yuruvchilar aniq bo'g'imlarga nima qilingan? **Bo'linmagan.**

4952. Imillab yuruvchilarning oyoqlari necha juft? **4 juft (ko'pincha bo'g'imsiz).**

4953. Imillab yuruvchilarning boshida nechta stileti bor? **2 ta stileti bor.**

4954. Imillab yuruvchilarning asab sistemasi qanday a'zolardan iborat? **Halqum usti va 5 ta qorin asabi gangliylaridan iborat.**

4955. Imillab yuruvchilarning qancha turi ma'lum? **300 ga yaqin turi ma'lum.**

4956. Imillab yuruvchilar qayerlarda yashaydi? **Dengiz va chuchuk suvlarda, kichik ko'lmaklarda, hatto, o'simlik barglari, yo'sinlar orasida yig'ilib qolgan suv tomchisida ham yashaydi.**

4957. Imillab yuruvchilar bir necha soat davomida minus qancha ° C haroratga chidashi mumkin? **Minus 271° C haroratga chidashi mumkin.**





4958. Imillab yuruvchilar qancha ° C haroratga qisqa muddat chidashi mumkin? **150° C haroratga chidashi mumkin.**

4959. Imperator-pingvinlar suv ostiga necha m gacha sho'ng'iy oladi? **256 m gacha sho'ng'iy oladi.**

4960. Indov bargxo'r qaysi oilaga mansub hasharot? **Qo'ng'izlar turkumining bargxo'rlar oilasiga mansub hasharot.**

4961. Indov bargxo'r qo'ng'izining tanasi uzunligi necha sm cha? **1 sm cha.**

4962. Ingichkabarmoq qo'shoyoq qaysi oilaga mansub kemiruvchi hayvon? **Tiyinsimonlar oilasiga mansub kemiruvchi hayvon.**

4963. Ingichkabarmoq qo'shoyoq urug'ning qanday turi? **Yagona turi.**

4964. Ingichkabarmoq qo'shoyoqning tanasi uzunligi necha sm gacha? **30 sm gacha.**

4965. Ingichkabarmoq qo'shoyoqning dumi uzunligi necha sm gacha? **10 sm gacha.**

4966. Ingichkabarmoq qo'shoyoqning tirnoqlari, ayniqsa, qaysi oyog'ida uzun? **Oldingi oyog'ida uzun.**

4967. Ingichkabarmoq qo'shoyoq qayerlarda tarqalgan? **O'rta Osiyo va Qozog'iston, Eron va Afg'onistonning shimoliy qismida tarqalgan.**

4968. Ingichkabarmoq qo'shoyoq qanday joylarda uchraydi? **Qum tuproqli va soz tuproqli qumliklarda uchraydi.**

4969. Ingichkabarmoq qo'shoyoq yil davomida qanday yashaydi? **Faol, yakka yashaydi.**

4970. Ingichkabarmoq qo'shoyoq necha marta nechtadan bolalaydi? **Bir marta (ba'zan 2 marta) 3 – 7 tadan bolalaydi.**

4971. Ingichkabarmoq qo'shoyoq nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklarning turli qismlari bilan ovqatlanadi.**

4972. Ingichkabarmoq qo'shoyoq nimasi uchun ovlanadi? **Terisi uchun ovlanadi.**

4973. Ingliz olimi A. G. Uollesning qaysi asari evolyutsion zoogeografiyaga asos solgan asar hisoblanadi? **"Hayvonlarning geografik tarqalishi" (1876) asari hisoblanadi.**

4974. Infuzoriyalar qanday rivojlangan necha hujayrali hayvonlar turi? **Yuksak rivojlangan bir hujayrali hayvonlar turi.**

4975. Infuzoriyalarning tanası uzunlıgı necha mkm dan necha mm gacha? **12 mkm dan 3 mm gacha.**

4976. Infuzoriyalarning harakatlanish organlari tanasini qoplab turuvchi qaysı a'zodan iborat? **Kipriklardan iborat.**

4977. Infuzoriyalarning erkin yashovchilarida qanday a'zolar bo'ladi? **Og'izoldi chuqurchasi, og'iz, halqum, hazm qilish vakuollar va chiqarish teshigi bo'ladi.**

4978. Infuzoriyalar nimalar bilan ovqatlanadi? **Bakteriyalar va suv o'tlari bilan, og'izsiz parazit turlari fagotsitoz usulda ovqatlanadi.**

4979. Infuzoriyalarning qancha turi ma'lum? **8000 ga yaqin turi ma'lum.**

4980. Infuzoriyalar qayerlarda uchraydi? **Dengiz, chuchuk suv va tuproqda uchraydi.**

4981. Infuzoriyalar necha sinfga bo'linadi? **2 sinfga bo'linadi.**

4982. Infuzoriyalar ikki sinf bo'lib, ular qaysilar? **Kiprikli va so'ruvchi infuzoriyalar.**

4983. Infuzoriyalarning ayrımları qaysi hayvonlarning oshqozonida simbioz yashaydi? **Halqali chuvalchanglar, mollyuskalar, sut emizuvchilar oshqozonida simbioz yashaydi.**

4984. Infuzoriyalarning qaysı turi kavsh qaytaruvchi sut emizuvchilar oshqozonida yashaydı? **Ofrioskoleks infuzoriyasi kavsh qaytaruvchi sut emizuvchilar oshqozonida yashaydi.**

4985. Infuzoriyalarning qaysı turlari baliqlarda, uy hayvonlari va odamlarda parazitlik qilib, katta ziyon keltiradi? **Baliqlarda ixtioftirius, uy hayvonlari va odamlarda balanditiy turlari katta ziyon keltiradi.**

4986. Infuzoriyalarning qaysı turi laboratoriya hayvonlari hisoblanadı? **Tufelka turi laboratoriya hayvonlari hisoblanadi.**

4987. Ipak qurti so'lak bezlarining bir qismi nima bezlarga aylangan? **Ipak bezlariga aylangan.**

4988. Ipak qurtining so'lak bezları ishlab chiqargan suyuqlik havoda qotib, nimani hosil qiladi? **Ipak iplarini hosil qiladi.**

4989. Ipak qurti iplaridan nima yasaydi? **In yasaydi.**

4990. Ipak qurtining bo'yi 1-yoshı boshida necha mm bo'ladi? **3 – 4 mm bo'ladi.**

4991. Ipak qurtining bo'yi 5-yoshi oxirida necha mm ga yetadı? **85 – 88 mm ga yetadi.**





4992. Ipak qurtining og'irligi 1-yoshdan 5-yoshi oxirigacha qancha g dan qancha g ga yetadi? **0,0004 g dan 3,5-5 g ga yetadi.**

4993. Ipak qurtining bitta urug'i og'irligi o'rtacha qancha mg? **0,5 – 0,7 mg.**

4994. Ipak qurtining nechta urug'i og'irligi 1 g? **1500 – 2000 ta urug'ining og'irligi 1 g.**

4995. Ipak qurtining bittasi hayoti davomida qancha g barg yeydi? **20 – 25 g barg (75 – 80 foizini 5-yoshida) yeydi.**

4996. Ipak qurtining gavdasi qaysi a'zo qismlaridan iborat? **Bosh, ko'krak va qorin qismlaridan iborat.**

4997. Ipak qurtining ko'krak qismida nechta bo'g'im (sigment) bor? **3 ta bo'g'im (sigment) bor.**

4998. Ipak qurtining qorin qismida nechta bo'g'im (sigment) bor? **9 ta bo'g'im (sigment) bor.**

4999. Ipak qurtining lichinka davri monovoltin zotlarida necha kun? **24 kun.**

5000. Ipak qurtining lichinka davri bivoltin zotlarda necha kun? **20 kun.**

5001. Ipak qurti necha marta po'st tashlab, 5-yoshni o'tadi va pilla o'rashga kirishadi? **4 marta po'st tashlab, 5-yoshni o'tadi va pilla o'rashga kirishadi.**

5002. Ipak qurtining pilla o'rashi necha kun davom etadi? **3 kun davom etadi.**

5003. Ipak qurti qayerda g'umbakka aylanadi? **Pilla ichida g'umbakka aylanadi.**

5004. Ipak qurtining g'umbaklik davri haroratga qarab, necha hafta davom etadi? **2 – 3 hafta davom etadi.**

5005. Ipak qurtining g'umbak tanasi shakli qanday bo'lib, nima bilan qoplangan? **Duksimon bo'lib, xitin bilan qoplangan, harakatlanmaydi.**

5006. Ipak qurti g'umbagi rivojlanishi davom etib, nimaga aylanadi? **Kapalakka aylanadi.**

5007. Ipak qurti kapalagi qaysi a'zosidan maxsus suyuqlik chiqarib pillaning bir uchini ho'llaydi va uni teshib, tashqariga chiqadi? **Og'zidan maxsus suyuqlik chiqarib pillaning bir uchini ho'llaydi va uni teshib, tashqariga chiqadi.**

5008. Ipak qurti kapalagi havo haroratiga qarab, necha kun yashaydi? **5 – 10 kun yashaydi.**

5009. Ipak qurti zararkunandalari qaysi jonivorlar? **Chumoli, ari, qora chigirtka, qurbaqa, ilon, sichqon, qush va boshq.**

5010. Ipak qurtlarini chumolidan saqlash uchun nima qilinadi? **So'kchaklar oyog'iga qoramoy surkaladi, namakobli latta o'raladi yoki xantal kukuni sepiladi.**

5011. Ipak qurtlarini arilar va qushlardan saqlash uchun nima qilinadi? **Deraza va tuynuklarga mayda ko'zli simto'r tutiladi.**

5012. Ipak qurtlarini qurbaqalardan saqlash uchun nima qilinadi? **Qurtxona ostonasi baland qilib ishlanadi.**

5013. Ipak qurtlarini sichqonlardan saqlash uchun nima qilinadi? **Sichqon ini sement shisha parchalari qo'shilgan loy bilan suvaladi, qopqon qo'yiladi va zaharli xo'rak sochiladi.**

5014. Ipak qurtining bitta kapalagi hammasi bo'lib qancha mg urug' tashlaydi? **280 – 380 mg urug' tashlaydi.**

5015. Ipak qurti kapalagi nechta urug' (tuxum) tashlaydi? **300 – 700 urug' (tuxum) tashlaydi.**

5016. Ipak qurti qanday hayot kechiradi? **Erkin yoki yashirin hayot kechiradi.**

5017. Ipak qurtining ayrimi daraxtlar bargi, novdalarining o'rab olgan to'rsimon iplarida qanday bo'lib yashaydi? **To'da bo'lib yashaydi.**

5018. Ipak qurtining rangi va shakli qayerga moslashgan bo'ladi? **Atrof muhitga moslashgan bo'ladi.**

5019. Ipak qurtining bir qanchasi qanday ziyon yetkazadi? **Turli ekinlarga mevali daraxtlar va boshq. o'simliklarga, oziq-ovqat zaxiralari, jundan to'qilgan gazlamalar va kiyim-kechaklarga jiddiy ziyon yetkazadi.**

5020. Irg'a, qo'ng'ir – o'rdaksimonlar qayerlarda qishlaydi? **Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo qit'alarning janubida va qisman Afrikada qishlaydi.**

5021. Irg'a O'rta Osiyoning qayerida uchraydi? **O'rta Osiyoning hamma yerlarida uchraydi.**

5022. Irg'a qaysi qit'alarda tarqalgan? **Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyoda tarqalgan.**

5023. Irg'a, qo'ng'ir qaysi oilaning bir turi? **O'rdaksimonlar oilasining bir turi.**

5024. Irg'a, qo'ng'irning tanasi uzunligi necha sm? **60 sm.**

5025. Irg'a qayerlarda yashaydi? **Irg'a suv o'simliklari ko'p bo'lgan ko'llarda yashaydi.**





5026. Irg'a, qo'ng'ir qaysi oy o'rtalarida nechta tuxum qo'yadi? **May oyi o'rtalarida 5 – 12 ta tuxum qo'yadi.**

5027. Irg'a, qo'ng'irning og'irligi qancha g gacha? **950 g gacha.**

5028. Irg'a, qo'ng'ir nimasi uchun ovlanadi? **Go'shti uchun ovlanadi.**

5029. Iskabtopar, iskabtoparlar, flebotomuslar qon so'ruvchi qo'sh qanotlilarning qaysi oilasi? **Kenja oilasi.**

5030. Iskabtoparlarning kattaligi necha mm? **1,5 – 3,5 mm.**

5031. Iskabtoparlar tanasi va boshi nimalar bilan qoplangan? **Mayda tuklar bilan qoplangan.**

5032. Iskabtoparlarning necha bo'g'imli uzun nimasi bor? **16 bo'g'imli uzun mo'ylovi bor.**

5033. Iskabtoparlarninig boshida nechta qanday ko'zi bor? **Ikkita qora ko'zi bor.**

5034. Iskabtoparlarning qancha turi aniqlangan? **300 ga yaqin turi aniqlangan.**

5035. Iskabtoparlarning urg'ochisi nimani so'radi? **Qonni so'radi.**

5036. Iskabtoparlarning erkagi, asosan, o'simlikning nimasini so'radi? **Shirasini so'radi.**

5037. Iskabtoparlar turlarini o'rganishda erkagining qaysi apparati katta ahamiyatga ega? **Ombursimon kopulyatov apparati katta ahamiyatga ega.**

5038. Iskabtoparlar qanday iqlimli mamlakatlarda ko'p? **Issiq iqlimli mamlakatlarda ko'p.**

5039. Iskabtoparlarning nechtacha turi uchraydi? **20 tacha turi uchraydi.**

5040. Iskabtoparlarning qaysi turlari ko'p tarqalgan? **Phlebotomus papa-tasii, Ph. sergenti, Ph. caucasis va boshqa turlari ko'p tarqalgan.**

5041. Iskabtoparlar qayerlarda, qanday hayot kechiradi? **Cho'l va qirlarda, daryo vodiylarida, molxona va xonadonlarda yashirin hayot kechiradi.**

5042. Iskabtoparlar qayerga tuxum qo'yib rivojlanadi? **Tuproqqa tuxum qo'yib rivojlanadi.**

5043. Iskabtoparlar qaysi faslda nechta bo'g'in beradi? **Yozda 2 – 3 ta bo'g'in beradi.**

5044. Iskabtoparlarning qaysi turi qaysi hayvonlar va odamning qonini so'rib, qaysi kasalliklarni tarqatadi? **Ph. papatasii turi qoramol, echki, it va turli yovvoyi sut emizuvchilar, kaltakesaklar va odamning qonini so'rib, pappatachi, isitmasi, qo'tir, leyshmanioz va boshqa kasalliklarni tarqatadi.**

5045. Iskod kanalar qanday kanalar oilasiga kiradi? **Parazit kanalar oilasiga kiradi.**

5046. Iskod kanalar (ochligida)ning kattaligi necha mm? **1 – 10 mm.**

5047. Iskod kanalarning tanasi qanday kutila bilan qoplangan? **Elastik kutila bilan qoplangan.**

5048. Iskod kanalar oziqlanganda kutikulasi qanday xususiyatga ega? **Cho'zilish xususiyatiga ega.**

5049. Iskod kanalarning qancha turi bor? **1000 ga yaqin turi bor.**

5050. Iskod kanalarning O'rta Osiyoda qaysi urg'larning turlari keng tarqalgan? **Hyalomma, Ornithodorus va boshqa urug'larining turlari keng tarqalgan.**

5051. Iskod kanalardan qaysi turlari shimoliy mintaqalarda keng tarqalgan? **It kanasi (Ixodes ricinus), tayga kanasi (I. persulcatus) turlari shimoliy mintaqalarda keng tarqalgan.**

5052. Iskod kanalar qaysi hayvonlarning qonini so'radi? **Yovvoyi va uy hayvonlarining qonini so'radi.**

5053. Iskod kanalarning voyaga yetganlari qanday hayvonlarning qonini so'radi? **Yirik hayvonlarning qonini so'radi.**

5054. Iskod kanalarning lichinkalari qaysi jonivorlarga yopishib parazitlik qilib yashaydi? **Mayda sut emizuvchilardan kemiruvchilarga va qushlarga yopishib parazitlik qilib yashaydi.**

5055. Iskod kanalarning bir qancha turlari nimalarga ham yopishadi? **Odamlarga ham yopishadi.**

5056. Iskod kanalar nechtagacha tuxum qo'yadi? **10 mingtaga yaqin, tropik mintaqada uchraydigan ayrim turlari 30 mingtagacha tuxum qo'yadi.**

5057. Issiq nurlanishni qabul qilish xususiyati ilonlardagi kemiruvchilarni ovlaydigan, tumshug'ida havo haroratining mingdan bir gradusgacha o'zgarishini sezadigan maxsus botiq a'zo – termoretseptor bo'lgan qalqontumshuq va bo'g'ma ilonlar uchun xoslikka nima deyiladi? **Termoretseptsiya deyiladi.**





5058. Itning homiladorlik davri o'rtacha necha sutka? **62 sutka.**

5059. Itbaliq qanday (dumsizmi yoki dumlimi) amfibiyalar lichinkasi? **Dumsiz amfibiyalar lichinkasi.**

5060. Itbaliq quruqlikda yashaydimi yoki suvdami? **Suvda yashaydi.**

5061. Itbaliqning qaysi a'zolari bo'lmaydi? **Oyoqlari.**

5062. Itbaliq nima bilan ovqatlanadi? **O'simliklar bilan.**

5063. Itbaliqning yuragi dastlab necha kamerali? **2 kamerali.**

5064. Itbaliqning yuragi rivojlanishi davomida (3 – 4 oydan keyin) necha kamerali bo'lib qoladi? **3 kamerali.**

5065. Itbaliqning qaysi a'zosi yo'qoladi? **Dumi yo'qoladi.**

5066. Itbaliqning qaysi oyoqlari rivojlanadi? **Orqa oyoqlari rivojlanadi.**

5067. Itbaliqning jabra va jabra yoriqlari yo'qolib, qaysi a'zo bilan nafas ola boshlaydi? **O'pka bilan nafas ola boshlaydi.**

5068. Itbaliqning qaysi a'zolari o'zgaradi? **Sezgi a'zolari.**

5069. Itbaliq o'zgarishlardan keyin qaysi hayvonga aylanib, qaerga chiqadi? **Baqaga aylanib, quruqlikka chiqadi.**

5070. It bilan bo'ridan tug'ilgan kuchukni ham "nima" deyishadi? **"Sirtlon" deyishadi.**

5071. Itolg'i qaysi oilaga mansub qush? **Yirtqichlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush.**

5072. Itolg'i qush qayerlarda tarqalgan? **Yevropa va Osiyoda tarqalgan.**

5073. Itolg'i qush qayerlarda o'troq yashaydi? **O'rta Osiyo tog'larida, tekisliklarda, cho'l va dashtlarida o'troq yashaydi.**

5074. Itolg'i qushning qaysi turi O'zbekistonda uchraydi? **Turkiston itolg'isi degan turi O'zbekistonda uchraydi.**

5075. Itolg'i qush uyasini qayerlarga quradi? **Daraxtlarga, qoya va jarliklarga quradi.**

5076. Itolg'i qush qaysi oyda nechta tuxum qo'yadi? **Martda 3 – 4 ta tuxum qo'yadi.**

5077. Itolg'i qushni ovchilar qo'lga o'rgatib, undan qanday maqsadda foydalanadi? **Quyon va har xil qushlarni ovlashda foydalanadi.**

5078. Itolg'i qushning kattaligi qaysi qushdan kattaroq? **Qarg'adan kattaroq.**

5079. Itsimonlar nimalarning bir oilasi? **Yirtqich sut emizuvchilarning bir oilasi.**

5080. Itsimonlarning tipik vakillari qaysilar? **Avstraliyada tarqalgan dingo, Shimoliy Amerikadagi koyot, Afrikadagi fenek, xonaki itlar va hokazolar itsimonlarning tipik vakillari.**

5081. Itsimonlarga qaysi hayvonlar kiradi? **Bo'ri, chiyabo'ri, tulki, shimol tulkisi, dingo, kayot, fenek, xonaki itlar va h.k. kiradi.**

5082. Itsimonlar qaysi qit'adan boshqa hamma qit'alarda tarqalgan? **Antarktidadan boshqa hamma qit'alarda tarqalgan.**

5083. Itsimonlar qaysi a'zolariga tayanib yuradilar? **Barmoqlariga tayanib yuradilar.**

5084. Itsimonlarning tishlari qanday tipda? **Kesuvchi tipda.**

5085. Itsimonlarning qaysi tishlari yaxshi rivojlangan? **Qoziq tishlari yaxshi rivojlangan.**

5086. Itsimonlarning oldingi oyoqlarida nechtadan barmoq bor? **Beshtadan barmoq bor.**

5087. Itsimonlarning orqa oyoqlarida nechtadan barmoq bor? **To'rttadan barmoq bor.**

5088. Itsimonlarning qaysi birlarining orqa oyoqlarida beshtadan barmoq bor? **Xonaki itlarning ba'zilarida beshtadan barmoq bor.**

5089. Itsimonlar, asosan, nimalar bilan ovqatlanadi? **Asosan, hayvonlar, ba'zilari o'limtiklar bilan ovqatlanadi.**

5090. Itsimonlarning ko'pchiligi qanday? **Monogam.**

5091. Itsimonlar yiliga necha marta tug'adi? **Bir marta tug'adi.**

5092. Itsimonlardan shimol tulkilari nechtagacha tug'adi? **18 tagacha tug'adi.**

5093. Itsimonlarning ko'p turlari nimasi uchun ovlanadi? **Mo'ynasi uchun ovlanadi.**

5094. Itsimonlarning qora tulki turi mo'ynasi uchun qayerlarda ko'plab boqiladi? **Mo'ynachilik fermalarida ko'plab boqiladi.**





5095. Itsimonlarning qaysi turidan boshqasi yil bo'yi faol? **Yonotsimon it turidan boshqasi yil bo'yi faol.**

5096. Itsimonlarning qaysi turi Rossiyaning bir qancha viloyatlarida iqlimlashtirilgan? **Yonotsimon it turi Rossiyaning bir qancha viloyatlarida iqlimlashtirilgan.**

5097. Itsimonlar oilasi nechta turni o'z ichiga olgan nechta uruqqa bo'linadi? **35 ta turni o'z ichiga olgan 14 ta uruqqa bo'linadi.**

5098. Itsimonlarning O'zbekistonda nechta uruqqa birlashgan nechta turi uchraydi? **4 ta uruqqa birlashgan 7 ta turi uchraydi.**

5099. Itsichqonlar, tiyinsichqonlar, dumsiz sichqonlar qaysi turkumning bir oilasi? **Kemiruvchilar turkumining bir oilasi.**

5100. Itsichqonlarning nechta turi qayerlarda uchraydi? **Tyan-Shan, Pomir, Kopetdog', Oltoy, Hisor-Olay tog'larida va ba'zi baland tekisliklarda 8 ta turi, O'rta Osiyo tog'larida 5 ta turi uchraydi.**

5101. Itsichqonlar qayerlarda tarqalgan? **Markaziy Osiyo, Sharqiy Sibir va Shimoliy Amerikada tarqalgan.**

5102. Itsichqonlar, tiyinsichqonlar, dumsiz sichqonlar nechta uruqdan iborat? **Bitta uruqdan iborat.**

5103. Itsichqonlar erga bir nechta teshikli nima qaziydi? **Uya qaziydi.**

5104. Itsichqonlar nima bilan ovqatlanadi? **O't bilan ovqatlanadi.**

5105. Itsichqonlarning tanasi uzunligi necha sm? **15 – 20 sm.**

5106. Itsichqonlarning orqangi yoki oldingi oyoqlari sal uzun? **Orqa oyoqlari sal uzun.**

5107. Itsichqonlarning barmoqlari va kaftlari nima bilan qoplangan? **Tuk bilan qoplangan.**

5108. Itsichqonlar bir yilda necha marta urchiydi? **2 – 3 marta urchiydi.**

5109. Itsichqonlar har safar nechta bola tug'adi? **4 – 12 ta bola tug'adi.**

5110. Itsichqonlar, tiyinsichqonlar va dumsiz sichqonlarning qanchacha turi bor? **18 tacha turi bor.**

5111. Ixneumonidlar qaysi turkumga mansub parazit hasharotlar oilasi sanaladi? **Pardaqanotlilar turkumiga mansub parazit hasharotlar oilasi sanaladi.**

5112. Ixneumonidlarning tanasi uzunligi necha mm? **10 – 25 mm.**

5113. Ixneumonidlarning qanotlari necha juft? **2 juft.**

5114. Ixneumonidlarning lichinkasi qaysi jonivorlarning tuxumida, lichinkasi va g'umbaklarida parazitlik qiladi? **Hasharot va o'rgimchaklarning tuxumida, lichinkasi va g'umbaklarida parazitlik qiladi.**

5115. Ixneumonidlarning voyaga yetganlari nimalar bilan ovqatlanadi? **Gul changi va nektari, bitlar hamda koktsidlar chiqargan suyuq shirasimon modda bilan ovqatlanadi.**

5116. Ixneumonidlardan ba'zi turlarining qaysi birlari urg'ochilarimi yoki erkaklarimi tuxum qo'yish uchun nayza sanchganda ajralgan xo'jayin genolimfasini ichadi, ba'zi hollarda faqat ovqatlanish uchun nayza sanchadi? **Urg'ochilari tuxum qo'yish uchun nayza sanchganda ajralgan xo'jayin genolimfasini ichadi, ba'zi hollarda faqat ovqatlanish uchun nayza sanchadi.**

5117. Ixneumonidlar O'rta Osiyo mintaqalarining qayerlarida keng tarqalgan? **Hamma joylarda keng tarqalgan.**

5118. Ixneumonidlardan qaysi turlarining paxta zararkunandalari sonini tartibga solishda ahamiyati katta? **O'roqsimon bexus (Banchus falcatorius F.) va shiddatli amblitcis (Amblyteles vadatorius ile) kabi turlarining paxta zararkunandalari sonini tartibga solishda ahamiyati katta.**

5119. Ixtiozavrlar, baliq kaltakesaklar qirilib ketgan qanday jonivorlar? Qirilib ketgan **dengiz kaltakesaklari.**

5120. Ixtiozavrlar sudralib yuruvchilar orasida nimada yashashga eng yaxshi moslashgan hayvonlar hisoblanadi? **Suvda yashashga sudralib yuruvchilar orasida eng yaxshi moslashgan hayvonlar hisoblanadi.**

5121. Ixtiozavrlar qaysi davrdan qaysi davrgacha yashagan? **O'rta triasdan bo'r davrigacha yashagan.**

5122. Ixtiozavrlarning tanasi shakli qaysi hayvonikiga o'xshash? **Delfinikiga o'xshash.**

5123. Ixtiozavrlarning uzunligi necha m gacha? **15 m gacha.**

5124. Ixtiozavrlarning qaysi a'zosi uzun? **Tumshug'i uzun.**

5125. Ixtiozavrlarning tishlari shakli qanday, necha qator joylashgan? **Konussimon, bir qator joylashgan.**





5126. Ixtiozavrlarning eshkak oyoqlari, panjalari yoki barmoqlari qanday? **Juda kengaygan.**

5127. Ixtiozavrlar qaysi hayvonlar bilan ovqatlangan? **Yirtqich baliqlar va mollyuskalar bilan ovqatlangan.**

5128. Ixtiozavrlar qaysi hayvonlardan kelib chiqqanligi taxmin qilinadi? **Kotilozavrlardan kelib chiqqanligi taxmin qilinadi.**

5129. Ixtiozavrlar, baliq kaltakesaklar qirilib ketgan jonivorlarning skelet qoldiqlari qayerlarda topilgan? **Amerika, Avstraliya, Yevrosiyoda topilgan.**

5130. Ixtiologiya sohasidagi eng qadimgi ma'lumotlar mil. avv. nechanchi asrda qaysi hind olimi ishlarida uchraydi? **VI asrda Susruta ishlarida uchraydi.**

5131. Ichakdan nafas oluvchilar – chalaxordalilar, tuban ikkilamchi og'izlilardan bo'lib, nimalari ularni ignaterililar va pogonoforalarga yaqinlashtiradi? **Bir qancha belgilari ularni ignaterililar va pagonoforalarga yaqinlashtiradi.**

5132. Ichakdan nafas oluvchilarning uzunligi bir necha sm dan necha m gacha? **2,5 m gacha.**

5133. Ichakdan nafas oluvchilarning tanasi qandaysimon jonivor? **Chuvalchangsimon jonivor.**

5134. Ichakdan nafas oluvchilarning tanasi nimalardan iborat? **Xartum, yoqacha va bo'limlardan iborat.**

5135. Ichakdan nafas oluvchilarning xartumida qanday (juftmi yoki toqmi), boshqa tana bo'limmalarida necha juftdan selomik bo'shliqlari bor? **Toq, bir juftdan selomik bo'shliqlari bor.**

5136. Ichakdan nafas oluvchilarning qizilo'ngach devorida necha qator jabra yoriqlari bo'ladi? **2 qator jabra yoriqlari bo'ladi (nomi ana shundan olingan).**

5137. Ichakdan nafas oluvchilarning qaysi a'zosi xartum asosida (qorin tomonida) joylashgan? **Og'zi xartum asosida (qorin tomonida) joylashgan.**

5138. Ichakdan nafas oluvchilarning qaysi a'zolari selomodukt tipida tuzilgan? **Ayirish a'zolari selomodukt tipida tuzilgan.**

5139. Ichakdan nafas oluvchilar gavdasining juft a'zolari (jabra yoriqlari, jigar o'simtalari, jinsiy bezlari) qanday joylashgan? **Metamer joylashgan.**

5140. Ichakdan nafas oluvchilarning qaysi sistemasi yaxshi rivojlangan? **Qon aylanish sistemasi yaxshi rivojlangan.**

5141. Ichakdan nafas oluvchilarning qaysi a'zolari faqat epiteliydagi yorug'likka sezgir hujayralardan iborat? **Sezgi a'zolari faqat epiteliydagi yorug'likka sezgir hujayralardan iborat.**

5142. Ichakdan nafas oluvchilar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

5143. Ichakdan nafas oluvchilarda jinsiy dimorfizm qanday? **Pivojlangan.**

5144. Ichakdan nafas oluvchilarning tuxumlari qayerda urug'lanadi? **Suvda urug'lanadi.**

5145. Ichakdan nafas oluvchilarning lichinkasi qaysi jonivorlarnikiga o'xshash? **Tornariya ignaterilarnikiga o'xshash.**

5146. Ichakdan nafas oluvchilarning qancha turi, asosan, qanday dengizlarda tarqalgan? **80 ga yaqin turi, asosan, iliq dengizlarda tarqalgan.**

5147. Ichakdan nafas oluvchilar qaysi dengizlarda uchraydi? **Bering, Barens, Oq, Oxota va Yapon dengizlarida uchraydi.**

5148. Ichakdan nafas oluvchilarning tipik vakili qaysi jonivor? **Balanogloss.**

5149. Ishlab chiqarishda xonaki ona cho'chqalardan necha yil foydalaniladi? **5 – 6 yil foydalaniladi.**

5150. Ishlab chiqarishda xonaki erkak cho'chqalardan necha yil foydalanish mumkin? **7 yil foydalanish mumkin.**

5151. Ishchi va sog'in otlardan necha yil foydalaniladi? **15 – 18 yil foydalaniladi.**

5152. Jabra orqali nafas oluvchilar – bo'g'imoyoqlilar kenja tipi, 1 ta sinf – qisqichbaqasimonlarni o'z ichiga olib, odatda, qaysi a'zolar orqali nafas oladi? **Jabralar orqali nafas oladi.**

5153. Jabra orqali nafas oluvchilarning qaysi a'zosida 2 juft mo'ylov – aktenuula va antennalar bo'ladi? **Boshida. Shuning uchun ularni ba'zan 2 juft mo'ylovlilar deb ham ataladi.**

5154. Jabraoyoqli qisqichbaqasimonlar tuban qisqichbaqasimonlarning qanday turkumi? **Eng sodda turkumi.**

5155. Jabraoyoqli qisqichbaqasimonlarning ko'krak oyoqlari qanday shaklda? **Yaproq shaklda.**

5156. Jabraoyoqli qisqichbaqasimonlarning oyoqlari necha juft bo'ladi? **4 – 70 juft bo'ladi.**

5157. Jabraoyoqli qisqichbaqasimonlarning kattaligi bir necha mm dan necha sm gacha? **10 sm gacha.**





5158. Jabraoyoqli qisqichbaqasimonlar, asosan, qanday suvlarda yashaydi? **Chuchuk suvlarda yashaydi.**

5159. Jabraoyoqli qisqichbaqasimonlar nechta kenja turkumga bo'linadi? Ular qaysilar? **2 ta kenja turkumga bo'linadi. Ular: chin yaproq oyoqlilar va shoxlangan mo'ylovlilar.**

5160. Jabraoyoqli qisqichbaqasimonlarning yaproq oyoqlilar turkumi qaysi ekin maysalarini yeb, bir oz zarar yetkazadi? **Sholi maysalarini yeb, bir oz zarar yetkazadi.**

5161. Jabraoyoqli qisqichbaqasimonlarning shoxlangan mo'ylovlilar turkumi nimalar uchun ovqat bo'ladi? **Baliq chavoqlari uchun ovqat bo'ladi.**

5162. Jaydari zot eshaklar tuzilishi pishiq, bo'yi o'rtacha necha sm atrofida, tanasi ingichkaroq, boshi qanday (kaltami yoki kichikmi), quloqlari uzun, bo'yni qanday (to'g'rimi yoki egrimi), kalta, tik o'sib chiqqan kalta yoli bor, beli to'g'ri, ko'kragi tor, sag'risi qisqa, rusi kulrang, ovqat va joy tanlamaydi, ishga chidamli, yuqumli kasalliklarga chalinmaydi? **100 sm, to'g'ri.**

5163. Jayralar qaysi turkumning bir oilasi? **Kemiruvchi sut emizuvchilar turkumining bir oilasi.**

5164. Jayralarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **90 sm gacha.**

5165. Jayralarning og'irligi qancha kg gacha? **15 kg gacha.**

5166. Jayralar qancha turni o'z ichiga olgan? **10 ga yaqin turni o'z ichiga olgan.**

5167. Jayralar nechta urug'dan iborat? **4 ta urug'dan iborat.**

5168. Jayralar qaysi faslda urchiydi? **Bahor faslida urchiydi.**

5169. Jayralar nechta bola tug'adi? **2 – 4 ta bola tug'adi.**

5170. Jayran, qoraquyruq qovushshoxlilar oilasining qaysi urug'iga kiradi? **Ohular (g'izollar) urug'iga kiradi.**

5171. Jayran, qoraquyruq qaysi hayvonlarning bir turi? **Kiyiklarning bir turi.**

5172. Jayran, qoraquyruq tanasining uzunligi necha sm? **110–115 sm.**

5173. Jayranning bo'yi necha sm? **65 – 70 sm.**

5174. Jayranning og'irligi qancha kg? **25 – 30 kg.**

5175. Jayran qayerlarda yashaydi? **Sahro, chala sahrolarda yashaydi.**

5176. Jayran ba'zan tog'larda necha m gacha yuqoriga ko'tariladi? **1500 m gacha yuqoriga ko'tariladi.**

5177. Jayran qaerda tarqalgan? **Osiyoda tarqalgan.**

5178. Jayran, odatda, yozda nechtadan, qishda nechtadan poda bo'lib yurishadi? **Odatda, yozda 4 – 7 tadan, qishda 15 – 20 tadan poda bo'lib yurishadi.**

5179. Jayran soatiga necha km gacha yuguradi? **Soatiga 60 km gacha yuguradi.**

5180. Jayran qaysi oylarda nechta bola tug'adi? **Aprel – may oylarida 1 – 3 ta bola tug'adi.**

5181. Jayran nimalari uchun ovlanadi? **Go'shti, terisi va shoxi uchun ovlanadi.**

5182. Jako, bo'z to'ti qayerlarda tarqalgan? **Afrikaning tropik o'rmonlarida tarqalgan.**

5183. Jako, bo'z to'ti nima uchun bo'z to'ti deb ataladi? **Chunki qizil, har xil tovlanadigan pati bo'z tusda bo'lgani uchun bo'z to'ti deb ataladi.**

5184. Jako, bo'z to'ti qaysi turkumga mansub qush? **To'tilar turkumiga mansub qush.**

5185. Jako, bo'z to'ti tanasining uzunligi necha sm gacha? **30 sm gacha.**

5186. Jako, bo'z to'tining tumshug'i qayoqqa qayrilgan? **Pastga qayrilgan.**

5187. Jako, bo'z to'ti uyasini qayerga soladi? **Daraxt kovaklariga soladi.**

5188. Jako, bo'z to'ti qayerlarda uchraydi? **Gvineyadan to Angolagacha va Nyasa ko'llarida uchraydi.**

5189. Jako, bo'z to'ti qayerlarda yashaydi? **Katta daraxtli botqoq o'rmonlarda yashaydi.**

5190. Jako, bo'z to'ti kechasi nechtadan bo'lib, qayerda tunaydi? **100 – 200 tadan bo'lib, baland daraxtlarda tunaydi.**

5191. Jako, bo'z to'ti nechta tuxum qo'yadi? **4 ta tuxum qo'yadi.**

5192. Jannat pashshaxo'rlari, jannat chivinxo'rlari qaysi oila urug'iga mansub qush? **Pashshaxo'r (chivinxo'r)lar oilasi urug'iga mansub qush.**

5193. Jannat pashshaxo'rlarining qancha turi bor? **10 ga yaqin turi bor.**

5194. Jannat pashshaxo'rlari qayerlarda uchraydi? **Tropik Afrika, Avstraliya, Janubiy va Sharqiy Osiyoda uchraydi.**





5195. Jannatqushlar erkaklarining «qanday» pati uzun bo'ladi? **«Bezatuvchi» pati uzun bo'ladi.**

5196. Jannatqushlarning nechta turi ma'lum? **43 ta turi ma'lum.**

5197. Jannatqushlar nimalar turkumining bir oilasi? **Chumchuqsimonlar turkumining bir oilasi.**

5198. Jannatqushlar, odatda, nechta tuxum qo'yadi? **2 ta tuxum qo'yadi.**

5199. Jannatqushlar qaerlarda yashaydi? **Molukka yarim orolidan to Luiziada arxipelagigacha bo'lgan joylarda va Sharqiy Avstraliyada yashaydi.**

5200. Jannatqushlar qaysi qushdan qaysi qushgacha kattalikda bo'ladi? **Qorayapaloqdan qizg'ungacha kattalikda bo'ladi.**

5201. Jannatqushlar ba'zilarining dumi qanday? **Juda uzun.**

5202. Jannatqushlar qayerlarda yashaydi? **O'rmonlarda yashaydi.**

5203. Jannatqushlar qayerlarga in quradi? **Daraxt yoki butalarga in quradi.**

5204. Jannatqushlar nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simlik urug'lari, mevalari, mayda umurtqasiz hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

5205. Janub parvonasi qaysi turkumga mansub ombor zararkunandasi? **Tanga qanotlilar turkumiga mansub ombor zararkunandasi.**

5206. Janub parvonasi yiliga nechta tuxum, nasl beradi? **3 – 4 ta tuxum, nasl beradi.**

5207. Janub parvonasining tuxumi o'rtacha necha mm? **0,5 mm.**

5208. Janub parvonasining g'umbagi uzunligi necha mm? **6,2 – 9,0 mm.**

5209. Janub poya tunlami qanday qanotli kanalar turkumining tunlamlar oilasiga mansub zararkunanda? **Tanga qanotli turkumining tunlamlar oilasiga mansub zararkunanda.**

5210. Janub poya tunlami qaysi ekinlarni zararlaydi? **Arpa, bug'doy, makkajo'xori, oq jo'xori, javdar va sulini zararlaydi.**

5211. Janub poya tunlamining kapalagi necha mm? **15 – 17 mm.**

5212. Janub poya tunlamining kapalagi qanotini yozganda necha mm? **30 – 36 mm.**

5213. Janub poya tunlamining tuxumi necha mm? **0,5 – 0,6 mm.**

5214. Janub poya tunlamining qurti necha mm? **2,5 – 3 sm.**

5215. Janub poya tunlami qurti g'umbagi necha sm? **1,5 sm.**

5216. Janub poya tunlami qaysi davrda qishlaydi? **Tuxumlik davrida qishlaydi.**

5217. Janub poya tunlami qurti qaysi oylarda yerda 10 sm chuqurlikkacha kirib, g'umbakka aylanadi? **May – iyun oylarida g'umbakka aylanadi.**

5218. Janub cho'l chigirtkasi qaerga tuxum qo'yadi? **Tuproqqa tuxum qo'yadi.**

5219. Janubiy Turkmanistonda qaysi olato'g'anoq uchraydi? **Hind olato'g'anog'i uchraydi.**

5220. Janubiy Amerikada yashaydigan ulkan qushning nomi nima? **Nandu.**

5221. Janubiy Amerikada uchraydigan boa yoki oddiy bo'g'ma ilon (Bja constrictor), Madagaskar bo'g'ma iloni (Boa madagascariensis), Hindiston va Seylonda uchraydigan yo'lbars piton (Python molurus) qayerda yashaydi? **Quruqlikda yashaydi.**

5222. Janubiy Yevropa aterinasi (Alherina boyeri), Kaspiy aterinasi (A. boyeri kaspia) turlari qaysi dengizlarda va ko'llarda tarqalgan? **Qora va Azov dengizlarida Janubiy Yevropa aterinasi, Kaspiy va Orol dengizlarida, Uzboy o'zanidagi ko'llarda Kaspiy aterinasi tarqalgan.**

5223. Janubiy hududlarda tarqalgan cho'l so'qir qirqoyoi dorm qaerda yashaydi? **Tuproq ichida yashaydi.**

5224. Janubiy hududlarda tarqalgan cho'l cho'qir qirqoyog'ining qaysi a'zolari bo'lmaydi? **Ko'zlari bo'lmaydi.**

5225. Jarroh baliqlar qaysi turkumga mansub baliqlar oilasi? **Okunsimonlar turkumiga mansub baliqlar oilasi.**

5226. Jarroh baliqlarning qancha turi qaysi dengizlarda tarqalgan? **300 ga yaqin turi tropik dengizlarda tarqalgan.**

5227. Jarqaldirg'ochlar qaysi turkumga mansub qushlarning kenja turkumi sanaladi? **Uzunqanotlilar turkumiga mansub qushlarning kenja turkumi sanaladi.**

5228. Jarqaldirg'ochlarning qaysi turi Hindiston va Afrikada qishlaydi? **Qora jarqaldirg'ochlar Hindiston va Afrikada qishlaydi.**





5229. Jarqaldirg'ochlarning nechta turi bor? **86 ta turi bor.**

5230. Jarqaldirg'ochlar qaerdan boshqa hamma joyda, tekislik va tog' yalangliklarida uchraydi? **Chekka shimol bilan chet janubdan boshqa hamma joyda, tekislik va tog' yalangliklarida uchraydi.**

5231. Jarqaldirg'ochlar nechtagacha qanday rangli tuxum qo'yadi? **4 tagacha oq tuxum qo'yadi.**

5232. Jarqaldirg'ochlarning bolasi necha kunda tuxumdan chiqadi? **11 – 12 kunda tuxumdan chiqadi.**

5233. Jarqaldirg'ochlarning bolasi necha kunda uchirma bo'ladi? **38 – 40 kunda uchirma bo'ladi. Ob-havo noqulay yillari 56 kungacha qolib ketadi.**

5234. Jarqaldirg'ochlar qachon qaerga kelib bolalaydi? **Mart boshlarida O'zbekistonga kelib bolalaydi.**

5235. Jarqaldirg'ochlar qaerlarga uya soladi? **Daraxt kovaklariga, uylarga, tik qoyalardagi yoriqlar va boshq. joylarga uya soladi.**

5236. Jarqaldirg'ochlarning nechta turi O'zbekistonda yashaydi? **5 ta turi yashaydi, shundan 3 ta turi uya quradi.**

5237. Jarqaldirg'ochlar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar, o'rgimchaklar bilan ovqatlanadi.**

5238. Jarqaldirg'ochlar xo'jalikka qanday foyda yoki zarar keltiradi? **Hasharotlarni qirib, xo'jalikka foyda keltiradi.**

5239. Jarqanotlar, qizilqanotlar qayerlardagi tog'larda uchraydi? **Janubiy va O'rta Yevropa hamda Osiyoning janubidagi tog'larda uchraydi.**

5240. Jarqanotlar, qizilqanotlar qaysi turkumning bir turi? **Chumchuqsimonlar turkumining bir turi.**

5241. Jarqanotlar, qizilqanotlar nechta tuxum qo'yadi? **3 – 4 ta tuxum qo'yadi.**

5242. Jarqanotlar, qizilqanotlar O'zbekiston tog'larining qayerlarida o'troq yashaydi? **O'rmonsiz tik jarliklari va qoyalarida o'troq yashaydi.**

5243. Jarqanotlar, qizilqanotlar qishda qayerlarga tushadi? **Qishda vodiylarga tushadi.**

5244. Jahonda jami qancha bosh o'rdak boqiladi? **830 mln bosh (1999) o'rdak boqiladi.**

5245. Jerex balig'ining tanasi uzunligi necha sm? **60 – 80 sm.**

5246. Jerex balig'ining og'irligi qancha kg gacha? **12 kg gacha.**

5247. Jerex balig'i necha yoshda voyaga yetadi? **3 – yoshida voyaga yetadi.**

5248. Jerex balig'i martdan maygacha qanchadan qancha uvildiriq tashlaydi? **40 mingtadan 300 mingtagacha uvildiriq tashlaydi.**

5249. Jerex balig'i qaysi oilaga mansub baliq? **Karpsimonlar oilasiga mansub baliq.**

5250. Jerex balig'i qayerlarda uchraydi? **Shimoliy Boltiq, Qora, Orol dengizlari havzalarida, O'zbekistonning deyarli barcha havzalarida, jumladan Amudaryo va Sirdaryoda uchraydi.**

5251. Jerex balig'i qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda baliqlar, plankton, voyaga yetgan davrida esa baliq chavoqlari bilan ovqatlanadi.**

5252. Jersi qoramol zoti nimalari uchun boqiladi? **Suti uchun boqiladi.**

5253. Jersi qoramol zoti eng qadimgi madaniy zotlardan biri bo'lib qayerda tarqalgan? **Angliya tasarrufidagi Jersi orolida tarqalgan.**

5254. Jersi qoramol zotining ajdodi qaysi zotlardan? **Normandiya va Bretanning jaydari zotlaridan.**

5255. Jersi qoramol zoti buqalarining tirik og'irligi qancha kg? **600 – 700 kg.**

5256. Jersi qoramol zoti sigirlarining tirik og'irligi qancha kg? **360 – 400 kg.**

5257. Jersi qoramol zoti sigirlari sog'lom davrida qancha kg sut beradi? **3000 – 3500 kg sut beradi.**

5258. Jersi qoramol zoti Yevropaning qaysi mamlakatlarida tarqalgan? **AQSh, Kanada, Avstraliya va boshq. mamlakatlarida tarqalgan.**

5259. Jersi qoramol zoti sutining yog'lilik darajasi necha foiz? **5 – 6 foiz, ba'zida 8 foizga boradi.**

5260. Jersi qoramol zoti O'zbekistonga nechanchi yilda keltirilgan? **1968-yilda keltirilgan.**





5261. Jibilaboshsimonlarning O'zbekistonda eng ko'p tarqalgan turlaridan biri – oq jiblajibon (Motacilla alba)ning bo'yi (tumshug'idan dumining uchigacha) necha mm? **200 mm.**

5262. Jiblajibonsimonlarning O'zbekistonda eng ko'p tarqalgan oq jiblajimbon turining og'irligi qancha g? **20 – 30 g.**

5263. Jiblajibonsimonlar, asosan, qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar va ularning lichinkalari, shuningdek, o'rgimchaklar va mayda qisqichbaqasimonlar bilan ovqatlanadi.**

5264. Jibilajibonsimonlar qaysi turkumning oilasi? **Chumchuqsimonlar turkumining oilasi.**

5265. Jibilajibonsimonlarning nechta turi ma'lum? **54 ta turi ma'lum.**

5266. Jibilajibonsimonlarning O'zbekistonda nechta turi uchraydi? **15 ta turi uchraydi.**

5267. Jibilajibonsimonlarning tanasi uzunligi necha sm? **12 – 23 sm.**

5268. Jibilajibonsimonlarning og'irligi qancha g? **20 – 30 g.**

5269. Jibilajibonsimonlarning uyasi shakli qanday bo'lib, nimalardan yasaydi va qayerlarga quradi? **Kosasimon bo'lib, uni o'simlik, hayvon junlaridan yasaydi va yerga, daraxtlar yoki binolarga quradi.**

5270. Jibilajibonsimonlar nechta tuxum qo'yadi? **4 – 6 ta tuxum qo'yadi.**

5271. Jibilajibonsimonlarning jo'jalari necha kunda uchirma bo'ladi? **14 kunda uchirma bo'ladi.**

5272. Jibilajibonsimonlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Mayda umurtqasiz hayvonlar, asosan, hasharotlar, migratsiya davrida esa o'simliklar urug'i va vegetativ qismlari bilan ovqatlanadi.**

5273. Jibilajibonsimonlarning O'zbekistonda qaysi turlari eng ko'p tarqalgan? **Oq jibilajibon (Motacilla alba), sariq jiblajibon (Motacilla flava) eng ko'p tarqalgan.**

5274. Jigar qurti qaysi sinfga mansub parazit chuvalchang turi? **So'rg'ichlar sinfiga mansub parazit chuvalchang turi.**

5275. Jigar qurtining uzunligi necha mm? **20 – 30 mm.**

5276. Jigar qurtining eni necha mm? **8 – 13 mm.**

5277. Jigar qurtining so'rg'ichlari nechta? **Ikkita.**

5278. Jigar qurtining oldingi og'iz so'rg'ichi o'rtasida qaysi a'zo teshigi bo'ladi? **Og'iz teshigi bo'ladi.**

5279. Jigar qurtining oldingi og'iz so'rg'ichidan orqaroqda ikkinchi qo'shimcha qaysi a'zo so'rg'ichi joylashgan? **Qorin so'rg'ichi joylashgan.**

5280. Jigar qurtining 1- va 2-so'rg'ichlari o'rtasida qaysi a'zo teshigi bor? **Jinsiy a'zo teshigi bor.**

5281. Jigar qurti tanasining orqa uchida qaysi a'zosi bor? **Ayrish a'zosi bor.**

5282. *Jiyronqarqara, qizilqo'ton qayerlarda tarqalgan?* ***Yevropaning janubida va Afrikada tarqalgan.***

5283. *Jiyronqarqara, qizilqo'ton qaysi oilaga mansub qush?* ***Uzun oyoqlilar turkumining qarqarlar oilasiga mansub qush.***

5284. Jiyronqarqara qayerlarga uya quradi? **Qamishzorlar, ba'zan butazorlarga uya quradi.**

5285. Jiyronqarqara nechta tuxum qo'yadi? **3 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

5286. Jiyronqarqara O'zbekistonning qayerlarida uchraydi? **Sirdaryo, Amudaryo atroflarida, Chirchiq** va **Ohangaron vodiylarida uchraydi.**

5287. Jiyronqarqara nimasi bilan oq va ko'kqarqaradan farq qiladi? **Boshidagi pati va uzun kokilining gunafsha rang hamda qanotining atrofidagi patlar qizil bo'lishi bilan oq va ko'k qarqaradan farq qiladi.**

5288. Jilg'a salamandra qayerda yashaydi? **Tog'da yashaydi.**

5289. Jing'archalar qaysi hayvonlarning yer qazuvchilar oilasiga mansub bir urug'li, hasharotxo'rlar turkumiga kiradi? **Sut emizuvchi hayvonlarning yer qazuvchilar oilasiga mansub bir urug'li, hasharotxo'rlar turkumiga kiradi.**

5290. Jing'archalar qaysi turkumga kiradi? **Hasharotxo'rlar turkumiga kiradi.**

5291. Jing'archalarning tashqi ko'rinishi qaysi kemiruvchiga o'xshash? **Sichqonga o'xshash.**

5292. Jing'archalar nimasi bilan sichqondan farq qiladi? **Tumshug'ining xartumsimon cho'ziqligi bilan sichqondan farq qiladi.**

5293. Jing'archalar qayerlarning qaysi zonalarida ko'p? **Yevropa va Osiyoning tundra, o'rmon va o'rmon-dasht zonalarida ko'p.**





5294. Jing'archalar tishlarining yuqori yarmi qanday tusda? **Qizg'ish-qo'ng'ir tusda.**

5295. Jing'archalar tanasining uzunligi necha mm? **30 – 80 mm.**

5296. Jirafalar qaysi turkumning kovshlovchi hayvonlar oilasi? **Jufttuyoqlilar turkumining kovshlovchi hayvonlar oilasi.**

5297. Jirafalarning og'irligi qancha kg gacha? **500 kg gacha.**

5298. Jirafalarning bo'yi yag'rinidan necha m gacha? **3 m gacha.**

5299. *Jirafalar yerdan necha m baland?* **5 – 6 m.**

5300. *Jirafalarning qaysi a'zosi juda uzun?* ***Bo'yni juda uzun.***

5301. *Jirafalarning qaysi a'zosi gavdasiga nisbatan kichkina?* ***Boshi gavdasiga nisbatan kichkina.***

5302. Jirafalarning qaysi oyoqlari *(oldingisimi yoki keyingisimi)* uzun? **Oldingi oyoqlari uzun.**

5303. Jirafalarning boshida teri bilan qoplangan nechta kalta suyak shoxlari bor? **2 – 6 ta kalta suyak shoxlari bor.**

5304. Jirafalarning yuqori jag'ida qaysi tishlar yo'q? **Kurak va qoziq tishlar yo'q.**

5305. Jirafalarning 2 ta urug'i bo'lib, ularning nomlari nima? **Asl jirafalar va okapi.**

5306. Jirafalar qayerda uchraydi? **Afrikada uchraydi.**

5307. Jirafalar (asl jirafalar urug'i)ning nechta turi bor? Ular qaysilar? **2 ta turi bor. Ular quyidagilar: to'rsimon jirafalar va oddiy jirafalar.**

5308. Jirafalar (to'rsimon)ning tanasi usti qanday yo'llar bilan ajralib turadigan to'q jigarrangli katta xollar bilan qoplangan? **Kambar oq yo'llar bilan ajralib turadigan to'q jigarrangli katta xollar bilan qoplangan.**

5309. Jirafalar (oddiy) oqish bo'lib, usti har xil shakldagi to'q jigarrang nimalar bilan qoplangan? **Xollar bilan qoplangan.**

5310. Jirafalarning okapi urug'iga nima degan yagona tur kiradi? **Jonston okapisi degan tur kiradi.**

5311. Jirafalar qayerlarda kichik poda bo'lib (erkagi, urg'ochisi va bolalari bilan) yuradi? **Cho'llarda kichik poda bo'lib (erkagi, urg'ochisi va bolalari bilan) yuradi.**

5312. Jirafalar, asosan, nima bilan ovqatlanadi? **Akatsiyaning barg va novdalari bilan ovqatlanadi.**

5313. Jirafalarning go'shti nima qilinadi? **Yeyiladi.**

5314. Jirafalarning qaysi a'zosidan har xil buyumlar tayyorlanadi? **Terisidan har xil buyumlar tayyorlanadi.**

5315. Jirafaning qon bosimi boshqa sut emizuvchilarnikiga qaraganda nima uchun yuqori? Qon bosimi o'rtacha necha mm sim. ust.ga teng? **Jirafa tez harakatlanganida bo'yin venasidagi klapanlar qon bosimining keskin ko'tarilib tushishiga imkon bermaydi. 220/160 mm sim. ust. ga teng.**

5316. Jirafa Afrika qit'asining Sahroi Kabirdan janubdagi hududlarning savannalari va juda siyraklashgan o'rmonlarida, ko'pincha nechta hayvondan iborat poda bo'lib yashaydi? **10 – 12 ta hayvondan iborat poda bo'lib yashaydi.**

5317. Jirafa qachon faol? **Kunduzi faol.**

5318. Jirafa nimada ko'payadi? **Tutqinlikda ko'payadi.**

5319. Jish jo'ja ochuvchi qushlar, jish bolali qushlar qanday qushlar guruhi sanaladi? **Tuxumdan chiqqan bolalarining par qoplami rivojlanmagan, hatto butunlay yalang'och bo'lgan, ma'lum vaqtgacha ota-onasi yordamiga muhtoj qushlar guruhi** sanaladi.

5320. Jish jo'ja ochuvchi qushlar jumlasiga qaysilar kiradi? **Chumchuqsimonlar, qizilishtonlar, yapaloqqushlar, yirtqich qushlar, kaptarlar va boshqalar kiradi.**

5321. Jiq-jiq qaysi oilaga mansub kichkina qush? **Chumchuqsimonlar turkumining moyqutlar oilasiga mansub kichkina qush.**

5322. Jiq-jiq qush qayerlarda yashaydi? **Cho'l va dashtlardagi past bo'yli butalar orasida yashaydi.**

5323. Jiq-jiq qush O'zbekistonning qayerida uchraydi? **Qizilqum sahrosida uchraydi.**

5324. Jiq-jiq qush qayerlarga in quradi? **Yulg'un, ba'zan shuvoqlar orasiga in quradi.**

5325. Jiq-jiq qushning og'irligi qancha g? **8 – 9 g.**

5326. Jiq-jiq qush qaysi oylarda tuxum qo'yadi? **Mart – iyun oylarida tuxum qo'yadi.**

5327. Jiq-jiq qush nechtadan tuxum qo'yadi? **5 – 8 tadan tuxum qo'yadi.**

5328. Jiqtoqlar qaysi uruqqa mansub qushlar? **Balchiqchilar turkumining bir urug'iga mansub qushlar.**

5329. Jiqtoqlarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **25 sm gacha.**





5330. Jiqtoqlar qayerlarda uchraydi? **Yevropa, Osiyo, Afrikada (qishda Avstraliyada ham) uchraydi.**

5331. Jiqtoqlarning nechta turi bor? **7 ta turi bor.**

5332. Jiqtoqlarning nechta turi O'zbekistonda yashaydi? **2 ta turi O'zbekistonda yashaydi.**

5333. Jiqtoqlar nimasi bilan balchiqchilardan farq qiladi? **Og'zi kattaligi bilan balchiqchilardan farq qiladi.**

5334. Jiqtoqlar qayerlarda tarqalgan? **Dalalar, cho'llar va o'tloqzorlarda tarqalgan.**

5335. Jiqtoqlar qanday qushlardan? **Yozda uchib kelib, qishda uchib ketuvchi qushlardan.**

5336. Jiqtoqlar, odatda, qanday bo'lishib uya quradi? **To'dalashib uya quradi.**

5337. Jiqtoqlar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

5338. Jiqtoqlar qanday foyda keltiradi? **Chigirtka va boshq. zararkunandalarni qirib, foyda keltiradi.**

5339. Jig'oltoy yirtqich qush qaysi qit'alarda tarqalgan? **Osiyo, Yevropa va qisman Afrikada tarqalgan.**

5340. Jig'oltoy qaysi oilaga mansub yirtqich qush sanaladi? **Lochinsimonlar oilasiga mansub yirtqich qush sanaladi.**

5341. Jig'oltoy qushi O'rta Osiyoning qayerlarida uchraydi? **Tog'li o'rmonlarida, bog' va chakalakzorlarda uchraydi.**

5342. Jig'oltoy qush qaysi parrandadek? **Kaptardek.**

5343. Jig'oltoy qush qishlash uchun qayerlarga uchib ketadi? **Afrika va Hindistonga uchib ketadi.**

5344. Jig'oltoy qush nechta tuxum qo'yadi? **3 ta, ba'zan 4 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

5345. Jig'oltoy qush qaysi oylarda bola ochadi? **Iyun – iyul oylarida bola ochadi.**

5346. Jig'oltoy qush qaysi hayvaonlar bilan ovqatlanadi? **Yirik hasharotlar va mayda qushlar bilan ovqatlanadi.**

5347. Jun oyoqli qo'shoyoq qaysi turkumning qo'shoyoqlar oilasiga kiruvchi hayvon? **Kemiruvchilar turkumining qo'shoyoqlar oilasiga kiruvchi hayvon.**

5348. Jun oyoqli qo'shoyoqning tanasi uzunligi necha sm? **11 – 14 sm.**

5349. Jun oyoqli qo'shoyoqning dumi uzunligi necha sm? **11 – 17 sm.**

5350. Jun oyoqlı qo'shoyoq qaysi oydan qaysi oygacha necha marta bolalaydi? **Maydan avgustgacha 2 – 3 marta bolalaydi.**

5351. Jundor maymunlar qanday dumlı maymunlarning urug'i? **Ilmoq dumli maymunlarning urug'i.**

5352. Jundor maymunlarning tanasi uzunligi necha sm? **39 – 58 sm.**

5353. Jundor maymunlarning dumi uzunligi necha sm? **56 – 73 sm.**

5354. Jundor maymunlarning nechta turi ma'lum? **Ikkita turi ma'lum.**

5355. Jundor maymunlar turining nomlari nima? **Sariqdum jundor maymun (Z. flavicauda) va gumboldt jundor maymun (Z. lagothricha).**

5356. Jundor maymunlar qaysi vodiy o'rmonlarida yashaydi? **Amazonka o'rmonlarida yashaydi.**

5357. Jundor maymunlar qaerlarda yashaydı? **Daraxtlarda yashaydi.**

5358. Jundor maymunlar qanday yashaydi? **15 – 20 tadan iborat guruh bo'lib yashaydi.**

5359. Jundor maymunlarning homiladorlik davri necha sutka bo'ladi? **225 sutka.**

5360. Jundor maymunlar nechta bola tug'adi? **Bitta bola tug'adi.**

5361. Junxo'rlar qaysi turkumning oilasi? **Parxo'rlar turkumining oilasi.**

5362. Junxo'rlarning tanasi uzunligi necha mm gacha? **10 mm gacha.**

5363. Junxo'rlarning qancha turi ma'lum? **200 dan ortiq turi ma'lum.**

5364. Junxo'rlar qayerda parazitlik qiladi? **Sut emizuvchilar yungida parazitlik qiladi.**

5365. Junxo'rlar tasmasimon chuvalchanglardan qanday gijjaning oraliq xo'jayni hisoblanadi? **Qovoqsimon gijjaning oraliq xo'jayni hisoblanadi.**

5366. Junqanot qaysi turkumga mansub sut emizuvchi? **Junqanotlilar turkumiga mansub sut emizuvchi.**

5367. Junqanot qaysi orollardagi o'rmonlarda yashaydi? **Filippin, Kalimantan, Yava, Sumatra orollaridagi o'rmonlarda yashaydi.**





5368. Juft xromosomalarning o'z qismlarini o'zaro almashtirishi nima? **Krossingover.**

5369. Juft tuyoqlilar qaysi sinfning bir turkumi? **Sut emizuvchilar sinfining bir turkumi.**

5370. Juft tuyoqlilarni oyoqlarining asosiy o'qi nechanchi barmoqlari oralig'idan o'tadi? **3- va 4- barmoqlari oralig'idan o'tadi.**

5371. Juft tuyoqlilarning tanasi nechta barmoqqa tayanadi? **2 ta barmoqqa tayanadi.**

5372. Juft tuyoqlilarning oshqozoni qanday? **Oshqozoni oddiy yoki murakkab (ko'p kamerali).**

5373. Juft tuyoqlilarning qaysi barmoqlari uncha rivojlanmagan yoki butunlay yo'q? **Yon barmoqlari (2- va 5- barmoqlari) uncha rivojlanmagan yoki butunlay yo'q.**

5374. Juft tuyoqlilar nechta kenja turkumga bo'linadi? **Ikkita kenja turkumga bo'linadi.**

5375. Juft tuyoqlilarning nomlari nima? **1. Kovsh qaytarmaydiganlar (bular begemotlar, pekarlar va cho'chqalar). 2. Kovsh qaytaruvchilar (bular qadoqoyoqlilar, bug'ular, kaborgalar, bug'uchalar (kanchillar), kovushshoxlilar, sixshoxlilar va jirafalar).**

5376. Juft tuyoqlilarning qancha turi hozirgi zamon faunasida ma'lum? **150 ga yaqin turi hozirgi zamon faunasida ma'lum.**

5377. Juft tuyoqlilarning nechta turi O'zbekistonda ma'lum? **8 ta turi O'zbekistonda ma'lum.**

5378. Juft tuyoqlilar keng tarqalgan bo'lib, qayerlarga introduktsiya qilingan? **Avstraliya va Yangi Zelandiyaga introduktsiya qilingan.**

5379. Juft tuyoqlilar nimaxo'r? **O'simlikxo'r, ba'zan hammaxo'r (to'ng'iz).**

5380. Juft tuyoqlilarning qaysi turlari xonakilashtirilgan? **Echki, qo'y, sigir kabi turlari xonakilashtirilgan.**

5381. Juft tuyoqlilarning qaysi turlari O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan? **Jayron, arxar, tog' echkisi kabi turlari O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.**

5382. Jo'rchi qaysi oilaning bir turi? **To'rg'aylar oilasining bir turi.**

5383. Jo'rchi, kal jo'rchi qaysi parrandalarga mansub yirtqich qushlarning bir turi? **Qarchig'aysimonlarga mansub yirtqich qushlarning bir turi.**

5384. Jo'rchi, kal jo'rchining bo'yi necha sm? **60 – 70 sm.**

5385. Jo'rchi, kal jo'rchining og'irligi qancha kg cha? **2,5 kg cha.**

5386. Jo'rchi, kal jo'rchi qaysi oylarda nechta tuxum qo'yadi? **Aprel – may oylarida 2 ta tuxum qo'yadi.**

5387. Jo'rchi, kal jo'rchi tuxumini necha kungacha bosib yotadi? **40 kungacha bosib yotadi.**

5388. Jo'rchi, kal jo'rchi bolalari qaysi oylarda uchirma bo'ladi? **Iyul – avgust oylarida uchirma bo'ladi.**

5389. Kabarda ot zotlari qanday miniladigan va nima tashiydigan qachongi ot zotlaridan? **Salt miniladigan va yuk tashiydigan qadimgi ot zotlaridan.**

5390. Kabarda ot zotlari qayerning tog'li rayonlarida uzoq vaqt olib borilgan nasl ishlari natijasida yetishtirilgan? **Shimoliy Kavkazning tog'li rayonlarida uzoq vaqt olib borilgan nasl ishlari natijasida yetishtirilgan.**

5391. Kabarda ot zotlarining boshi qanday? **Ixcham.**

5392. Kabarda ot zotlarining tanasi qisqami yoki cho'ziq? **Cho'ziq.**

5393. Kabarda ot zotlarining ko'kragi kattami yoki kichik? **Katta.**

5394. Kabarda ot zotlarining oyoqlari nisbatan uzunmi yoki kalta? **Kalta.**

5395. Kabarda ot zotlarining tusi, asosan, qanday? **To'riq.**

5396. Kabarda ot zotlari qanday yuradi va yo'rg'alaydi? **Tez yuradi va tekis yo'rg'alaydi.**

5397. Kabarda ot zotlari ayg'irlarining balandligi (qarchig'aydan hisoblaganda) necha sm? **155 sm.**

5398. Kabarda ot zotlarining ko'krak aylanasi necha sm? **180 sm.**

5399. Kabarda ot zotlari pochasining yo'g'onligi necha sm? **19,5 sm.**

5400. Kabarda ot zotlari qaysi rayonlarda salt minish va yuk tashish uchun eng yaxshi ot hisoblanadi? **Tog'li rayonlarda salt minish va yuk tashish uchun eng yaxshi ot hisoblanadi.**





5401. Kabarga qayerlarda, (qaysi mamlakat hududida) uchraydi? **Rossiya Federatsiyasi hududida uchraydi.**

5402. Kabarga qaysi hayvonlar oilasining yagona vakili hisoblangan juft tuyoqlisi sanaladi? **Kabargalar oilasining yagona vakili hisoblangan juft tuyoqlisi sanaladi.**

5403. Kabarganing tanasi uzunligi necha m gacha? **1 m gacha.**

5404. Kabarganing dumi uzunligi necha sm? **4 – 5 sm.**

5405. Kabarga yag'rinidan bo'yi necha sm cha? **70 sm cha.**

5406. Kabarga tusi qanday rangli? **Jigar rangli.**

5407. Kabargalardan qaysi birlari (erkagimi yoki urg'ochisimi)ning ustki jag'idagi qaysi tishlari og'zidan chiqib turadi? **Erkaklarining qoziq tishlari og'zidan chiqib turadi.**

5408. Kabarga (qaysi biri erkagimi yoki urg'ochisimi) qornida nima ajratadigan bezli qopchig'i bor? **Erkak kabarga qornida mushk ajratadigan bezli qopchig'i bor.**

5409. Kabarga qayerda tarqalgan? **Osiyoda tarqalgan.**

5410. Kabarga necha oyda voyaga etadi? **15 – 18 oyda voyaga etadi.**

5411. Kabarganing qanday (rangi) dog'lari bor? **Oqish dog'lari bor.**

5412. Kabarganing shoxi nechta? **Shoxi yo'q.**

5413. Kabarganing homiladorlik davri necha kun? **185 – 195 kun.**

5414. Kabarga nechta bola tug'adi? **1 – 2 ta bola tug'adi.**

5415. Kabarga yozda, qishda qaysi o'simliklar bilan ovqatlanadi? **Yozda o't, qishda lishaynik bilan ovqatlanadi.**

5416. Kabarga mushk qaysi sanoatda va qayerda ishlatiladi? **Mushk upa-elik sanoatida va meditsinada ishlatiladi.**

5417. Kavkaz bug'usi qayerlarda yashaydi? **Kavkaz, O'rta Osiyo, Janubiy Sibir, Oltoy tog'laridagi bargli o'rmonlarda, to'qaylarda yashaydi.**

5418. Kavkaz bug'usining homiladorlik davri necha hafta bo'ladi? **34 – 35 hafta** bo'ladi.

5419. Kavkaz bug'usining tanasi uzunligi necha sm cha? **200 sm cha.**

5420. Kavkaz bug'usining balandligi necha sm? **120 – 150 sm.**

5421. Kavkaz bug'usining og'irligi qancha kg? **100 – 300 kg.**

5422. Kavkaz bug'usining erkaklarida nechta butoqli shox bor? **5 butoqli shox bor.**

5423. Kavkaz bug'usi nechta bola tug'adi? 1 ta **bola tug'adi.**

5424. Kavkaz bug'usi nimalari uchun ko'plab ovlanadi? **Go'shti, terisi, juni, panja (dori tayyorlashda ishlatiladigan yoki shoxlari) uchun ko'plab ovlanadi.**

5425. Kavkaz salamandrasi qayerda uchraydi? **G'arbiy Kavkazda uchraydi.**

5426. Kavkaz salamandrasining dumi uzunligi necha sm gacha? **19 sm gacha.**

5427. Kavkazdagi qaysi hayvonning bir turi ham tur deyiladi? **Yovvoyi echkining bir turi ham tur deyiladi.**

5428. Kavkaz, Qozog'iston va O'rta Osiyoning tog'li tumanlarida olmaxonlarning nechta turi bor? **5 ta turi bor.**

5429. Kavkaz quri faqat qayerlarga xos? **Katta va Kichik Kavkaz, Turkiya, Eronga xos.**

5430. Kavlovchi arilar qaysi turkumning katta oilasi? **Pardaqanotlilar turkumining katta oilasi.**

5431. Kavlovchi arilarning tanasi uzunligi necha mm? **5 – 60 mm.**

5432. Kavlovchi arilar qaerda bitta yoki ko'pincha bir necha (30 tagacha) katakchali in quradi (nomi shundan olingan)? **Tuproqda bitta yoki ko'pincha bir necha (30 tagacha) katakchali in quradi (nomi shundan olingan).**

5433. Kavlovchi arilar qurtlarini qanday jonivorlar bilan boqadi? **Falajlangan hasharotlar (asosan, o'simlik shiralari) va o'rgimchaklar bilan boqadi.**

5434. Kavlovchi arilarning ayrim turlari qayerda parazitlik qiladi? **Hasharotlar inida parazitlik qiladi.**

5435. Kavlovchi arilarning qancha turi ma'lum? **8000 ga yaqin turi ma'lum.**

5436. Kavlovchi arilarning O'rta Osiyoda nechta turi ma'lum? **800 ta turi ma'lum.**

5437. Kavlovchi arilarning O'zbekistonda qancha turi ma'lum? **300 ga yaqin turi ma'lum.**

5438. Kavsh qaytaruvchilar qaysi turkumga mansub sut emizuvchilarning kenja turkumi? **Juft tuyoqlilar turkumiga mansub sut emizuvchilarning kenja turkumi.**

5439. Kavsh qaytaruvchilar ko'pchiligining oshqozoni necha bo'limdan iborat? **To'rt bo'limdan iborat.**





5440. Kavsh qaytaruvchilar ko'pchiligining oshqozoni qanday bo'limlardan iborat? **Katta qorin, to'r qorin, qatqorin va shirdondan iborat. ba'zi bir kavsh qaytaruvchilarda qatqorin yo'q.**

5441. Kavsh qaytaruvchilarda qaysi tishlar jag'ida chuqur o'rnashgan? **Oziq tishlar jag'ida chuqur o'rnashgan.**

5442. Kavsh qaytaruvchilarning yuqori jag'ida qaysi tishlar yo'q? **Kurak tishlari yo'q.**

5443. Kavsh qaytaruvchilar oyoqlarining nechanchi barmoqlari ancha kuchli rivojlangan? **3- va 4- barmoqlari** ancha kuchli rivojlangan.

5444. Kavsh qaytaruvchilarning kenja turkumi nechta oila, turni o'z ichiga olgan nechta urug'dan iborat? **5 ta oila, 180 ta turni o'z ichiga olgan 76 ta urug'dan iborat.**

5445. Kavsh qaytaruvchilarning yovvoyi turlari qayerlardan tashqari hamma yerda tarqalgan? **Avstraliya, Madagaskar va Antil orollaridan tashqari hamma yerda tarqalgan.**

5446. Kagu qaysi turkumga mansub qush? **Turnasimonlar turkumiga mansub qush.**

5447. Kagu qaysi turkumning yagona vakili sanaladi? **Kenja turkumining yagona vakili sanaladi.**

5448. Kagu qayerlarda tarqalgan? **Yangi Kaledoniya orolidagi tog' o'rmonlarida tarqalgan.**

5449. Kagu uyasini qayerga quradi? **Yerga quradi.**

5450. Kagu nechta tuxum qo'yadi? **Bitta tuxum qo'yadi.**

5451. Kagu tuxumini necha kun bosadi? **36 kun bosadi.**

5452. Kagu qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Chuvalchanglar va boshq. mayda umurtqasiz hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

5453. Kaguanga qanday nom berilgan? **Tuzilishi hasharotxo'rlar, ko'rshapalaklar va chala maymunlarga o'xshaganligidan unga qanotli maymun, uchqur maki, ugar mushuk, ajoyib ko'rshapalak kabi nomlar berilgan.**

5454. Kaguan, junqanot, qanotli maymun, uchqur maki qaysi turkumga mansub sut emizuvchi? **Junqanotlar turkumiga mansub sut emizuvchi.**

5455. Kaguanning tanasi uzunligi necha sm? **40 sm cha.**

5456. Kaguanning dumi uzunligi necha sm? **13 sm cha.**

5457. Kaguanning tishi nechta? **34 ta.**

5458. Kazarka qush qaysi turkumga mansub qushlar urug'i hisoblanadi? **G'ozsimonlar turkumiga mansub qushlar urug'i hisoblanadi.**

5459. Kazarka qushning nechta turi bor? **5 ta turi bor.**

5460. Kazarka qushning tashqi ko'rinishi qaysi jonivorga o'xshaydi? **G'ozga o'xshaydi.**

5461. Kazarka qushning qaysi a'zosi rivojlanmagan? **Jinsiy dimorfizmi rivojlanmagan.**

5462. Kazarka qush qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerikada tarqalgan.**

5463. Kazarka qushdan qaysi turini qaysi davrda O'zbekistonda uchratish mumkin? **Qiziltomoq kazarkani ba'zan migratsiya davrida uchratish mumkin.**

5464. Kazarka qush qayerlarda yashaydi? **Arktika dengizlaridagi va Shimoliy Muz okeanidagi orollar qirg'oqlarida yashaydi.**

5465. Kazarka qush uyasini qayerga quradi? **Yerga quradi.**

5466. Kazarka qush nechta tuxum qo'yadi? **4 – 7 ta tuxum qo'yadi.**

5467. Kazarka qush nimalari uchun ovlanadi? **Go'shti va pati uchun ovlanadi.**

5468. Kazarka qushning qaysi turi Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgan? **Gavay kazarka (B. sandvicensis) turi Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgan.**

5469. Kazuarlar, Avstraliya tuyaqushlarining nechta oilaga birlashgan, nechta turi bor? **Ikkita oilaga birlashgan, 14 ta turi bor. (3 ta turi emu oilasiga, 11 ta turi kazuarlar oilasiga kiradi).**

5470. Kazuarlar qaysi orollarda tarqalgan (Avstraliya tuyaqushlari nomi shundan)? **Avstraliyada va uning atrofida Yangi Gvineya, Tasmaniya, Seram va Aru kabi orollarda tarqalgan.**

5471. Kazuarlar, Avstraliya tuyaqushlari qaysi qushlar turkumi? **Ko'kraktojsiz yoki yuguruvchi qushlar turkumi.**

5472. Kazuarlar, Avstraliya tuyaqushlarining oyoqlari necha barmoqli? **Uch barmoqli.**





5473. Kazuarlarning tuxumini urg'ochisi bosadimi yoki erkagi? **Erkagi bosadi.**

5474. Kazuarlarning bo'yi necha m? **1,8 m.**

5475. Kazuarlarning og'irligi qancha kg gacha? **80 – 90 kg gacha.**

5476. Kazuarlarning oyoqlari qanday? **Kuchli.**

5477. Kazuarlar nima qilolmaydi? **Ucholmaydi.**

5478. Kazuarlar qanday yuguradi? **Yaxshi yuguradi.**

5479. Kazuarlar qayerlarda yashaydi? **Qalin tropik o'rmonlarda yashaydi.**

5480. Kazuarlar nimalardan qayerda uya quradi? **Xas-cho'plardan yerda uya quradi.**

5481. Kazuarlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Mevalar va urug'lar bilan ovqatlanadi.**

5482. Kazuarlar tuxumdan necha oyda jo'ja ochadi? **1,5 – 2 oyda jo'ja ochadi.**

5483. Kaymanlarning nechta turi Janubiy va Markaziy Amerika suvlarida tarqalgan? **5 ta turi Janubiy va Markaziy Amerika suvlarida tarqalgan.**

5484. Kaymanlar qaysi oilaga mansub sudralib yuruvchilardan uchta urug'ning umumiy nomi? **Alligatorlar oilasiga mansub sudralib yuruvchilardan uchta urug'ning umumiy nomi.**

5485. Kaymanlar alligatorlardan qaysi a'zolarining bo'lmasligi va borligi bilan farq qiladi? **Burun bo'shlig'ida suyak to'sqichining bo'lmasligi va suyakli qorin kosa (zirh)sining borligi bilan farq qiladi.**

5486. Kaymanlarning eng yirigi qaysi kayman? **Qora Kayman.**

5487. Kaymanlarning bo'yi necha m keladi? **5 m keladi.**

5488. Kaymansimon baliqlar qaysi turkumga mansub baliqlar urug'i? **Zirhli cho'rtanlar turkumiga mansub baliqlar urug'i.**

5489. Kaymansimon baliqlar qayerlardagi chuchuk suvlarda tarqalgan? **Shimoliy Amerika va Kuba orolidagi chuchuk suvlarda tarqalgan.**

5490. Kaymansimon baliqlarning tanasi uzunligi necha m gacha? **2,5 – 3 m, ba'zilari 6 m gacha.**

5491. Kaymansimon baliqlarning nechta turi bor? **3 ta turi bor.**

5492. Kaymansimon baliqlar qaysi faslda uvildiriq tashlaydi? **Bahorda uvildiriq tashlaydi.**

5493. Kaymansimon toshbaqalar qaysi turkumning bir oilasi? **Yashirin bo'yinli toshbaqalar kenja turkumining bir oilasi.**

5494. Kaymansimon toshbaqalarning qorin kosasi qanday? **Kichkina.**

5495. Kaymansimon toshbaqalarning qorin kosasi qanday shaklda? **But shaklida.**

5496. Kaymansimon toshbaqalarning jag'lari qanday? **Baquvvat.**

5497. Kaymansimon toshbaqalarning nechta urug'i va har bir urug'ida nechtadan turi bor? **2 ta urug'i, 1 tadan turi bor.**

5498. Kaymansimon toshbaqalar vakillaridan birining nomi nima? **Tishlog'ich toshbaqa.**

5499. Kaymansimon toshbaqalar vakillaridan biri – tishlog'ich toshbaqaning uzunligi necha sm cha? **90 sm cha.**

5500. Kaymansimon toshbaqalar vakillaridan biri – tishlog'ich toshbaqaning kosasi necha sm? **40 sm.**

5501. Kaymansimon toshbaqalar vakillaridan biri – tishlog'ich toshbaqaning og'irligi qancha kg cha? **20 kg cha.**

5502. Kaymansimon toshbaqalar vakillaridan biri – tishlog'ich toshbaqa qayerdagi qayerlarda uchraydi? **Amerikadagi daryo, ko'l va botqoqlilarda uchraydi.**

5503. Kayot, o'tloq bo'risi qaysi hayvonlar oilasiga mansub yirtqich sut emizuvchi hayvon? **Itlar oilasiga mansub yirtqich sut emizuvchi hayvon.**

5504. Kayotning tanasi uzunligi necha sm cha? **90 sm cha.**

5505. Kayotning dumi necha sm cha? **30 sm cha.**

5506. Kayotning og'irligi qancha kg? **13 kg cha.**

5507. Kayotning juni qaysi yirtqich hayvonnikidan uzunroq? **Bo'rinikidan uzunroq.**

5508. Kayot qayerdan qayergacha tarqalgan? **Alyaskadan Markaziy Amerikagacha tarqalgan.**

5509. Kayot qayerlarda juft-juft bo'lib yashaydi? **Yalangliklarda juft-juft bo'lib yashaydi.**

5510. Kayot qaysi oyda urchiydi? **Yanvar oyida urchiydi.**

5511. Kayotning homiladorlik davri necha kun? **60 – 65 kun.**





5512. Kayot nechta bola tug'adi? **5 – 10 ta bola tug'adi.**

5513. Kayot qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Quyonlar, kemiruvchilar, murdalar bilan ovqatlanadi.**

5514. Kayot ba'zan qaysi hayvonlarga hujum qiladi? **Qo'y va echkilarga hujum qiladi.**

5515. Kayralar qaysi turkumning chistiklar kenja turkumiga mansub qushlar urug'i? **Pjankalar tukumining.**

5516. Kayralar qushlarining og'irligi qancha kg ga yaqin? **1,4 kg ga yaqin.**

5517. Kayralar qaysi turkumning chistiklar kenja turkumiga mansub qushlar urug'i? **Sivkasimonlar turkumining chistiklar kenja turkumiga mansub qushlar urug'i.**

5518. Kayralarning tanasi uzunligi necha sm? **40 – 48 sm.**

5519. Kayralarning nechta turi bor? **Ikki turi bor.**

5520. Kayralar turining nomlar nima? **Uzun tumshuqli kayralar va kalta tumshuqli kayralar.**

5521. Kayralar qaysi yarim shardagi mo'tadil va shimoliy dengizlarda tarqalgan? **Shimoliy yarim shardagi mo'tadil va shimoliy dengizlarda tarqalgan.**

5522. Kayralar barmoqlari nima bilan qoplangan? **Parda bilan qoplangan.**

5523. Kayralar yerda qanday yuradi? **Yerda yaxshi yurolmaydi.**

5524. Kayralar qanday uchadi? **Tez uchadi.**

5525. Kayralar suvda qanday suzadi va sho'ng'iydi? **Yaxshi suzadi va sho'ng'iydi.**

5526. Kayralar uya quradigan joyga qaysi oylarda keladi? **Aprel – may oylarida keladi.**

5527. Kayralar nechta tuxum qo'yadi? **Bitta tuxum qo'yadi.**

5528. Kayralar tuxumini necha kun bosadi? **35 kun bosadi.**

5529. Kakadular silliq tilli to'tiqushning qaysi oilasi? **Kenja oilasi.**

5530. Kakadularning nechta turi ma'lum? **17 ta turi ma'lum.**

5531. Kakadular nechta uruqqa birlashgan? **5 ta uruqqa birlashgan.**

5532. Kakadular qayerlarga in quradi? **Daraxt kovaklari va qoyalar orasiga in quradi.**

5533. Kakadular nechta rangli qanday tuxum qo'yadi? **2 – 5 ta oq tuxum qo'yadi.**

5534. Kakadular nimalar bilan ovqatlanadi? **Mevalar, yong'oqlar, daraxtlar va ba'zan hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

5535. Kakadular qanday kattalikda bo'ladi? **Zag'chadan to qarg'agadekgacha kattalikda bo'ladi.**

5536. Kakadular qayerlarda tarqalgan? **Avstraliya, Tasmaniya, Yangi Gvineya, Filippin va Indoneziyada tarqalgan.**

5537. Kakadularning hamma turlari qayerlarda yashaydi? **O'rmonlarda yashaydi.**

5538. Kakapo qayerda yashaydi? **Yangi Zelandiyada yashaydi.**

5539. Kaklik qaysi turkumning qirg'ovulsimonlar oilasiga mansub? **Tovuqsimonlar turkumining qirg'ovulsimonlar oilasiga mansub.**

5540. Kaklikning og'irligi qancha g? **370 – 770 g.**

5541. Kaklikning qaysi a'zolari qizil? **Tumshug'i, oyoqlari qizil.**

5542. Kaklikning erkagimi yoki urg'ochisining oyog'ida kichkina to'mtoq mixi bor? **Erkagining oyog'ida kichkina to'mtoq mixi bor.**

5543. Kaklik qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Yevropa, Kichik, O'rta va Markaziy Osiyoda tarqalgan.**

5544. Kaklik qayerlarda o'troq yashaydi? **O'rta Osiyo tog'larida, tog' yonbag'irlarida o'troq yashaydi.**

5545. Kakliklar qayerlarda yashashga moslashgan? **Tog'larda yashashga moslashgan.**

5546. Kakliklar qaysi oyda urchiydi? **Mart oyida urchiydi.**

5547. Kakliklar jo'jasi tuxumdan necha kunda chiqadi? **20 kunda chiqadi.**

5548. Kakku qayerlarda tarqalgan? **Yevropa va Osiyoning o'rta va janubiy hududlarida tarqalgan.**

5549. Kakku O'zbekistonning qayerlarida uchraydi? **Hamma daraxtzorlarida uchraydi.**

5550. Kakku, oddiy kakku qaysi turkumga mansub qush? **Kakkusimonlar turkumiga mansub qush.**





5551. Kakku, oddiy kakku qushning tanasi uzunligi necha sm? **33 – 38 sm.**

5552. Kakku, oddiy kakku qushning og'irligi qancha g gacha? **100 g gacha.**

5553. Kakku qushning qaysi a'zosi kalta, qaysi a'zosi uzun? **Qanoti kalta, dumi uzun.**

5554. Kakku qush qaysi oylarda nechta tuxum qo'yadi? **May – avgust oylarida 12 – 25 ta tuxum qo'yadi.**

5555. Kakku qush tuxumini qayerga tashlab ketadi? **Chumchiqsimonlar uyasiga tashlab ketadi.**

5556. Kakku qushning tuxumdan chiqqan jo'jasi uya egasining tuxumlarini uyadan nima qilib tashlaydi? **Chiqarib tashlaydi.**

5557. Kakkular, chin kakku qushlarning qancha turi nechta uruqqa birlashgan? **128 taga yaqin turi 38 ta uruqqa birlashgan.**

5558. Kakkular, chin kakku qushlar qaysi turkumning oilasi? **Kakkusimonlar turkumining oilasi.**

5559. Kakku qushlar qayerlarda tarqalgan? **Arktika va Antarktikadan boshqa Yer yuzining hamma qismidagi o'rmonlarda tarqalgan.**

5560. Kakku qushlar qayerlarda qishlaydi? **Afrika va Janubiy Amerikada qishlaydi.**

5561. Kakku qushlar qaysi oylarda urchiydi? **Aprel – iyun oylarida urchiydi.**

5562. Kakkusimonlar qushlarning bir nimasi? **Turkumi.**

5563. Kakkusimonlarning nechta uruqqa birlashgan nechta turi bor? **39 ta uruqqa birlashgan 150 ta turi bor.**

5564. Kakkusimonlar nechta turkumga bo'linadi? Ular qaysilar? **2 ta turkumga bo'linadi. Ular: chin kakkular va turakolar kenja turkumlari.**

5565. Kakkusimonlar qayerlardan tashqari, Yer yuzining barcha joyida tarqalgan? **Antarktika va Arktikadan tashqari, Yer yuzining barcha joyida tarqalgan.**

5566. Kakkusimonlarning ko'pchilik turlari qanday iqlimli hududlarda yashaydi? **Iliq iqlimli hududlarda yashaydi.**

5567. Kakkuning O'zbekistonda uchraydigan oddiy turi qayerlarda qishlaydi? **Afrika va Janubiy Amerikada qishlaydi.**

5568. Kakkusimonlar qaysi oylarda urchiydi? **Aprel – iyun oylarida urchiydi.**

5569. Kakkusimonlarning ko'pchiligi chumchuqsimonlar uyalaridagi tuxumlardan nechtasini chiqarib tashlab, nechta tuxum qo'yadi? **1 – 2 tasini chiqarib tashlab, bitta tuxum qo'yadi.**

5570. Kakkusimonlarning modasi nechta tuxum qo'yadi? **12 – 20 ta tuxum** qo'yadi.

5571. Kakkusimonlar jo'jasi uya egasi jo'jalarini surib uyadan chiqarib tashlaydi va uning nimasida qoladi? **Boquvida qoladi.**

5572. Kal jo'rchi qaysi oilaga mansub qush? **Yirtqich qushlar turkumining qarchig'aysimonlar oilasiga mansub qush.**

5573. Kalan, dengiz qunduzi, kamchatka susari qaysi oilaga mansub sut emizuvchi? **Susarlar oilasiga mansub sut emizuvchi.**

5574. Kalan qayerlargacha tarqalgan? **Tinch okean sohillari bo'ylab Kaliforniyadan Alyaska, Aleut orollarigacha, Kamchatkadan Yaponiyagacha tarqalgan.**

5575. Kalan suvga sho'ng'iganda qaysi a'zolari bekiladi? **Quloqlari va burun teshigi bekiladi.**

5576. Kalanning nechta kenja turi mavjud? **2 ta kenja turi mavjud.**

5577. Kalan qachon tullaydi? **Yil davomida tullaydi.**

5578. Kalanning tanasi uzunligi necha sm? **100 – 150 sm.**

5579. Kalanning dumi uzunligi necha sm? **30 – 36 sm.**

5580. Kalanning qaysi a'zolari eshkakga aylangan? **Panja va tovonlari eshkakga aylangan.**

5581. Kalanning homiladorlik davri necha oy? **8 – 9 oy.**

5582. Kalanning urg'ochilari har necha yilda nechta bolalaydi? **Har 2 yilda bir marta bolalaydi.**

5583. Kalan qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Dengiz tipratikanlari, mollyuskalar va baliqlar bilan ovqatlanadi.**

5584. Kalan qanday ahamiyatga ega? **Kalanlar sohil bo'yi biotsenozlarining asosiy komponenti bo'lib, umurtqali hayvonlar sonini boshqarib turishi, qo'ng'ir suv o'tlarining saqlanib qolishida muhim ahamiyatga ega.**

5585. Kalao qayerlarda tarqalgan? **Sharqiy Hindiston, Malakka va Hindiston tog' o'rmonlarida tarqalgan.**





5586. Kalao qaysi oilaga mansub parranda? **Karkidon qushlar oilasiga mansub parranda.**

5587. Kalaoning tanasi uzunligi necha sm gacha? **120 sm gacha.**

5588. Kalao nechta tuxum qo'yadi? **2 ta tuxum qo'yadi.**

5589. Kalaoning tumshug'ida nechta shoxsimon bo'rtma bor? **Ikkita shoxsimon bo'rtma bor.**

5590. Kalamushlar qaysi turkumning bir urug'i? **Kemiruvchilar turkumining bir urug'i.**

5591. Kalamushlar qaysi oilaga mansub? **Sichqonlar oilasiga mansub.**

5592. Kalamushlarning tanasi qanday va nimalar bilan qoplangan? **Cho'ziq va tangachalar bilan qoplangan.**

5593. Kalamushlarning kalta oyog'ida siyrak nima bor? **Jun bor.**

5594. Kalamushlarning qulog'i qanday? **Katta.**

5595. Kalamushlarning O'zbekistonda qaysi turlari tarqalgan? **Ombor, ya'ni kulrang kalamush, turkiston kalamushi tarqalgan.**

5596. Kalamushlarning Turkmanistonda qaysi turi tarqalgan? **Qora kalamush turi tarqalgan.**

5597. Kalamushlar qayerda keng tarqalgan? **Yer kurrasida tarqalgan.**

5598. Kalamushlarning necha turi ma'lum? **60 turi ma'lum.**

5599. Kalamushlarning vatani qayer? **Sharqiy Xitoy.**

5600. Kalamushlar qaysi tog'larda yashab, ko'pincha yong'oqzorlarda, daraxt ildizlari ostida va turli kovaklarda uya yasaydi? **Shimoliy Hindiston va O'rta Osiyo tog'larida yashab, ko'pincha yong'oqzorlarda, daraxt ildizlari ostida va turli kovaklarda uya yasaydi.**

5601. Kalamushlar bir yilda necha marta nechtadan bolalaydi? **5 marta 2 – 13 tadan bolalaydi.**

5602. Kalamushlarning bolasi necha oyda voyaga yetadi? **3 – 4 oyda voyaga yetadi.**

5603. Kalamushlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Hayvonlar murdasi, o'simliklar va ularning qoldiqlari bilan ovqatlanadi.**

5604. Kalamushlar qaysi yuqumli kasalliklarni tarqatadi? **O'lat kabi yuqumli kasalliklarni tarqatadi.**

5605. Kalamushlarning qaysi shakli laboratoriya hayvoni hisoblanadi? **Albinos shakli (oq kalamush) laboratoriya hayvoni hisoblanadi.**

5606. Kalamushlar O'zbekistonda qachon paydo bo'lgan? **2-jahon urushi davrida paydo bo'lgan.**

5607. Kaliforniya dengiz arsloni boshqa turlarga nisbatan qanday (kattami yoki kichikmi)? **Kichik.**

5608. Kaliforniya dengiz arslonining tusi qanday? **Qoramtir.**

5609. Kaliforniya dengiz arsloni erkagining bo'yi necha m gacha? **3,5 m gacha.**

5610. Kaliforniya dengiz arslonining og'irligi qancha kg gacha? **700 kg gacha.**

5611. Kaliforniya qalqondori qaysi oilaga mansub hasharot? **Teng qanotli xartumlilar turkumining qalqondorlar oilasiga mansub** hasharot.

5612. Kaliforniya qalqondorining qancha turi ma'lum? **1300 ga yaqin turi ma'lum.**

5613. Kaliforniya qalqondori nechanchi yilda D. Komstok tomonidan Kaliforniya (AQSh)da aniqlangan? **1881 yilda aniqlangan.**

5614. Kaliforniya qalqondorining og'iz a'zolari qanday? **So'ruvchi.**

5615. Kaliforniya qalqondori urg'ochilarining tanasi qanday shaklda bo'ladi? **Dumaloq shaklda bo'ladi.**

5616. Kaliforniya qalqondorining rangi qanday? **Och sariq.**

5617. Kaliforniya qalqondorining tanasi uzunligi necha mm cha? **2 mm cha.**

5618. Kaliforniya qalqondori urg'ochilarining qaysi a'zolari yo'q? **Ko'zi, mo'ylovi, oyog'i va qanoti yo'q.**

5619. Kaliforniya qalqondori erkaklari qalqonining diametri necha mm cha? **0,6 mm cha.**

5620. Kaliforniya qalqondori erkagining qanoti necha juft? **Bir juft.**

5621. Kaliforniya qalqondori erkagining oyog'i necha juft? **Uch juft.**

5622. Kaliforniya qalqondori erkagining qaysi a'zolari bor? **Ko'zi, mo'ylovi bor.**





5623. Kaliforniya qalqondorining urg'ochilari nechtagacha tuxum qo'yadi? **20 – 170 tagacha tuxum qo'yadi.**

5624. Kaliforniya qurtchasi qanday o'simliklar zararkunandasi? **Mevali daraxtlar va manzarali o'simliklar zararkunandasi.**

5625. Kalxatlar qaysi oilaga mansub parranda sanaladi? **Yirtqich qushlar turkumining qarchig'aysimonlar oilasiga mansub parranda sanaladi.**

5626. Kalxatlar qaysi qit'alarda keng tarqalgan? **Yevropa, Osiyo, Afrika, Avstraliya, Amerikada keng tarqalgan.**

5627. Kalxatlarning nechta turi bor? **5 ta turi bor.**

5628. Kalxatlar uyasini qayerga yaqin, nimalarga quradi? **Uyasini suvga yaqin baland daraxtlarga, qoyalarga quradi.**

5629. Kalxatlar qaysi oylarda nechta tuxum qo'yadi? **Aprel – may oylarida 2 – 4 ta tuxum qo'yadi.**

5630. Kalxatlar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Umurtqali mayda hayvonlar, baliqlar va hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

5631. Kalmarlarning qanday xaltasi bor? **Siyoh xaltasi bor.**

5632. Kalmarlarning qanday a'zosi bor? **Nur sochuvchi a'zosi bor.**

5633. Kalmarlar mollyuskalarning qanday turkumi? **O'n oyoqli boshoyoqli mollyuskalarning kenja turkumi.**

5634. Kalmarlarning tanasi uzunligi necha sm? **25 – 50 sm.**

5635. Kalmarlarning nechta «qo'li» bor? **10 ta «qo'li» bor.**

5636. Kalmarlarning nechta «qo'li» ov qo'llari deb ataladi? **2 tasi ov qo'llari deb ataladi.**

5637. Kalmarlarning «ov qo'llari»dan nechtasi o'lja tutayotganda uzayadi va suzayotganda qisqaradi? **2 tasi o'lja tutayotganda uzayadi va suzayotganda qisqaradi.**

5638. Kalmarlarning qancha turi bor? **300 ga yaqin turi bor.**

5639. Kalmarlarning Uzoq Sharqda qancha turi bor? **30 ga yaqin turi bor.**

5640. Kalmarlarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **95 – 50 sm gacha.**

5641. Kalmarlarning ba'zi turlari uzunligi paypasligichi bilan necha m ga yetadi? **18 m ga yetadi.**

5642. Kalmarlar suvdan necha m gacha balandlikka sakray oladi? **7 m gacha balandlikka sakray oladi.**

5643. Kalmarlar, asosan, qanday suvli dengizlarda yashaydi? **Iliq suvli dengizlarda yashaydi.**

5644. Kalmarlar qayerda yashab, qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Suv qatlamida yashab, baliqlar va umurtqasiz hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

5645. Kalmarlarning nimasi eyiladi va nima qilinadi? **Go'shti eyiladi va ovlanadi.**

5646. Kalta xartumli uzun tumshuq qo'ng'izlar tuxumini qayerga qo'yadi? **Tuproqqa, o'simlik to'qimalariga qo'yadi.**

5647. Kaltakesak ilonlar qayerda tarqalgan? **Janubiy Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo, Shimoliy Afrikada tarqalgan.**

5648. Kaltakesak ilonlarning nechta turi bor? **3 ta turi bor.**

5649. Kaltakesak ilonlarning tumshug'i qaysi jonivornikiga o'xshash? **Kaltakesaknikiga o'xshash.**

5650. Kaltakesak ilonlar biqini va manglayi qanday? **Botiq.**

5651. Kaltakesak ilonlarning ko'zlari qanday? **Katta.**

5652. Kaltakesak ilonlar qanday? **Juda chaqqon va ehtiyotkor.**

5653. Kaltakesak ilonlar qaysi oilaga mansub ilonlarning bir urug'i? **Suvilonsimonlar oilasiga mansub ilonlarning bir urug'i.**

5654. Kaltakesak ilonlar qayerlarda uchraydi? **Arabiston, Eron, Zakavkaze Respublikalarida uchraydi.**

5655. Kaltakesak ilonlar, asosan, qayerlarda yashaydi? **Sahro va cho'llarda yashaydi.**

5656. Kaltakesak ilonlarning nechta turi bor? **3 ta turi bor.**

5657. Kaltakesak ilonlarning uzunligi necha m cha? **2 m cha.**

5658. Kaltakesak ilonlar qaysi oyda nechta tuxum qo'yadi? **Iyulda 4 – 12 ta tuxum qo'yadi.**

5659. Kaltakesak ilonlarning bolasi tuxumdan qaysi oyda chiqadi? **Bolasi tuxumdan oktabrda chiqadi.**

5660. Kaltakesak ilonlar qachon uzoq vaqtgacha baland ovoz bilan vishillaydi? **Achchiqlanganda uzoq vaqtgacha baland ovoz bilan vishillaydi.**

5661. Kaltakesak ilonlar dushmaniga qanday holda tashlanadi va nima qiladi? **Bosh va ko'kragini yuqori ko'targan holda tashlanadi va chaqib o'ldiradi, keyin butunligicha bosh tomonidan yutadi.**





5662. Kaltakesaklar qaysi sinfning bir turkumi (Gauria) yoki kenja turkumi (lacertilia)? **Sudralib yuruvchilar sinfining.**

5663. Kaltakesaklarning qancha turi bor? **2000 ga yaqin turi bor.**

5664. Kaltakesaklarning O'zbekistonda nechta turi bor? **38 ta turi bor.**

5665. Kaltakesaklar (asl) oilasining nechtacha turi bor? **156 tacha turi bor.**

5666. Kaltakesaklar (asl) nechta uruqqa kiradi? **21 ta uruqqa kiradi.**

5667. Kaltakesaklarning gavdasi qanday shaklda? **Silindr shaklda.**

5668. Kaltakesaklarning qaysi a'zosi ajralib turadi? **Bo'yni ajralib turadi.**

5669. Kaltakesaklarning dumi qanday? **Uzun va uziluvchan.**

5670. Kaltakesaklarning oyoqlari qanday rivojlangan? **Yaxshi rivojlangan.**

5671. Kaltakesaklarning qaysi a'zolari qalqonlar bilan qoplangan? **Boshi va qorni qalqonlar bilan qoplangan.**

5672. Kaltakesaklarning qaysi a'zosi tangachalar bilan qoplangan? **Gavdasi tangachalar bilan qoplangan.**

5673. Kaltakesaklarning qaysi a'zosidagi tangachalar halqa shaklda? **Dumidagi tangachalar halqa shaklda.**

5674. Kaltakesaklarning qaysi a'zosida teshigi bor? **Qulog'ida teshigi bor.**

5675. Kaltakesaklar nima qo'yib ko'payadi? **Tuxum qo'yib ko'payadi.**

5676. Kaltakesaklarning qanday turlari ham bor? **Tuxumdan tirik tug'uvchi turlari ham bor.**

5677. Kaltakesaklar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Hasharot va boshq. bilan ovqatlanadi.**

5678. Kaltakesaklarning qaysi turlari O'zbekistonda keng tarqalgan? **Yugurdak kaltakesak, tirik tug'ar kaltakesak, ildam kaltakesakcha va h.k. keng tarqalgan.**

5679. Kaltakesakchalar qaysi hayvonlarni qirib foyda keltiradi? **Hasharot va mayda umurtqasizlarni qirib foyda keltiradi.**

5680. Kaltakesaklar qayerlarda yashaydi? **Afrika, Osiyo va Yevropaning serquyosh, issiq mintaqalarida yashaydi.**

5681. Kaltakesaklar qaysi oylarda karaxt bo'ladi? **Noabrdan martgacha karaxt bo'ladi.**

5682. Kaltakesaklar qaysi oilalarga birlashadi? **Gekkansimonlar, tangacha oyoqlilar, agamalar, iguanalar, urchuqchasimonlar, zahartishlilar, echkemarsimonlar, amfisbenalar, asl kaltakesaklar, stsinkasimonlar kabi oilalarga birlashadi.**

5683. Kaltakesaklarning necha barmoqli oyoqlilari uchraydi? **Besh barmoqli oyoqlilari ham, oyoqsizlari ham uchraydi.**

5684. Kaltakesaklar yer yuzining faqat qaysi mintaqalarida yo'q? **Sovuq mintaqalarida yo'q.**

5685. Kaltakesak chanoqlilar orasida bo'yi necha m li seratozavrlar bor edi? **5 – 6 m li seratozavrlar bor edi.**

5686. Kaltakesakchalar qaysi hayvonlarning bir urug'i? **Kaltakesaklarning bir urug'i.**

5687. Kaltakesakchalar qaysi qit'alarda tarqalgan? **Afrika, Osiyo va Yevropada tarqalgan.**

5688. Kaltakesakchalarning qancha turi O'zbekistonda uchraydi? **9 ga yaqin turi uchraydi.**

5689. Kaltakesakchalar qachongi (kunduzgimi yoki tungimi) hayvon? **Kunduzgi hayvon.**

5690. Kaltakesakchalar qayerlarda yashaydi? **Cho'l, chala cho'l, qum va toshloq yerlarda yashaydi.**

5691. Kaltakesakchalar, asosan, nimasi bilan boshqa kaltakesaklar urug'idan farqlanadi? **Asosan, tangachalari va boshidagi qalqonlarning tuzilishi, son teshikchalarining bo'lishi bilan boshqa kaltakesaklar urug'idan farqlanadi.**

5692. Kaltakesakchalarning Nikolskiy kaltakesakchasi qayerlarda yashaydi? **Tog'larning 1000 – 3000 m gacha baland joylarida, ba'zi turlari tog' etaklarida yashaydi.**

5693. Kaltakesakchalarning nechta turi bor? **45 ta turi bor.**

5694. Kaama kiyik qaysi oilaga mansub juft tuyoqli sut emizuvchi? **Quvushshoxlilar oilasiga mansub juft tuyoqli sut emizuvchi.**

5695. Kaama kiyik balandligi necha sm cha? **150 sm cha.**

5696. Kaama kiyigining og'irligi qancha kg cha? **180 kg cha.**





5697. Kaama kiyigining dumi uzunligi necha sm ga yaqin? **30 sm ga yaqin.**

5698. Kaama kiyigining dumi uchida nimasi yo'q? **Popugi yo'q.**

5699. Kaama kiyigining tusi (rangi) qanday? **Och sariq.**

5700. Kaama kiyigining tanasi uzunligi necha sm cha? **230 sm cha.**

5701. Kaama kiyigi qayerda tarqalgan? **Janubiy Amerikada** tarqalgan.

5702. Kaama kiyigi qanday bo'lib yashaydi? **Poda (5 – 10 tadan) bo'lib yashaydi.**

5703. Kambalasimonlar turkumiga mansub, paltuslar qaysi okeanlarning shimoliy qismlarida tarqalgan? **Tinch va Atlantika okeanlarining shimoliy qismlarida tarqalgan.**

5704. Kambalasimonlar qanday baliqlar turkumi? **Suyakli baliqlar turkumi.**

5705. Kambalasimonlarning tanasi uzunligi necha sm dan necha m gacha? **6 sm dan 4,7 m gacha.**

5706. Kambalasimonlarning og'irligi qancha g dan qancha kg gacha? **Bir g dan 330 kg gacha.**

5707. Kambalasimonlarning jabra pardasi necha nurli? **6 – 7 nurli.**

5708. Kambalasimonlarda qanday pufak bo'lmaydi? **Suzgich pufagi bo'lmaydi.**

5709. Kambalasimonlarning ikkala ko'zi boshining qaysi tomonida? **Bir tomonida.**

5710. Kambalasimonlarning qaysi a'zolari asimmetrik tuzilgan? **Bosh suyagi, juft suzgichlari, og'zi, asab va ichki a'zolari asimmetrik tuzilgan.**

5711. Kambalasimonlar nechta oilani o'z ichiga oladi? **7 ta oilani o'z ichiga oladi.**

5712. Kambalasimonlar qancha turni o'z ichiga oladi? **500 ga yaqin turni o'z ichiga oladi.**

5713. Kambalalar, asosan, qayerlarda yashaydi? **Dengizlarda yashaydi.**

5714. Kambalalarning kalla suyagi qanday? **Asimmetrik.**

5715. Kambalalarning ko'zi qaysi tomonda? **Bir tomonda.**

5716. Kambalalar suv tubi tuprog'ining tusiga qarab, nimasini tez o'zgartiradi? **Tanasining rangini tez o'zgartiradi.**

5717. Kambalalarning sobiq Ittifoqda qanday turlari ovlangan? **Sariq qanot kambalalar, sariq qorin kambalalar, cho'ziq bosh kambalalar, yulduzsimon kambalalar, daryo kambalalari, dengiz kambalalari va boshq. turlari ovlangan.**

5718. Kamptozoylar qanday chuvalchanglar tipi? **Tuban chuvalchanglar tipi.**

5719. Kamptozoylarni ayrim zoologlar qaysi jonivorlarga kiritadi? **Mshankalarga kiritadi.**

5720. Kamptozoylar qanday bo'lib, qayerlarda yashaydi? **O'troq yakka yoki kolonna bo'lib, dengiz va chuchuk suvda yashaydi.**

5721. Kamptozoylarning tanasi nimaga o'xshash? **Likopchaga o'xshash.**

5722. Kamptozoylarning tanasi uzunligi necha mm dan necha sm gacha? **1 mm dan 1 sm gacha.**

5723. Kamptozoylarning qaysi a'zo teshigi hilpillovchi paypaslagichlar bilan o'ralgan? **Og'iz teshigi hilpillovchi paypaslagichlar bilan o'ralgan.**

5724. Kamptozoylarning qaysi teshigi orqa tomoniga ko'chgan? **Anal teshigi orqa tomoniga ko'chgan.**

5725. Kamptozoylarning ichagi qanday shaklda? **Taqasimon shaklda.**

5726. Kamptozoylarda qaysi sistemasi bo'lmaydi? **Qon aylanish va nafas olish sistemasi bo'lmaydi.**

5727. Kamptozoylarning asab (nerv) gangliysi qaysi teshiklar o'rtasida joylashgan? **Og'iz va anal teshiklari o'rtasida joylashgan.**

5728. Kamptozoylar nima orqali rivojlanadi? **Metamorfoz orqali rivojlanadi.**

5729. Kamptozoylar tipi qancha sinf va turni o'z ichiga oladi? **1 sinf va 60 ga yaqin turni o'z ichiga oladi.**

5730. Kamptozoylar qaysi dengizda uchraydi? **Hamma dengizlarda uchraydi.**

5731. Kamptozoylarning ayrim turlari necha m gacha chuqurlikda yashaydi? **300 m gacha chuqurlikda yashaydi.**





5732. Kamptozoylar nimalar bilan ovqatlanadi? **Detrit va fitoplankton bilan ovqatlanadi.**

5733. Kamtukli halqalilar qanday chuvalchanglar sinfi? **Halqali chuvalchanglar sinfi.**

5734. Kamtukli halqalilarning tanasi uzunligi bir mm ning bir necha ulushidan necha m gacha? **2,5 m gacha.**

5735. Kamtukli halqalilarning halqalari soni 5 – 7 dan qanchagacha? **600 tagacha.**

5736. Kamtukli halqalilarda qanday a'zolar, odatda, bo'lmaydi? **Sezgi a'zolar, odatda, bo'lmaydi.**

5737. Kamtukli halqalilarning faqat suvda yashovchi ayrim turlarida yorug'lik sezuvchi qanday a'zolar bor? **Ko'zchalari bor.**

5738. Kamtukli halqalilarning qancha oilasi, turi bor? **25 – 27 oilasi, 5000 ga yaqin turi bor.**

5739. Kamtukli halqalilarning qancha turi dengizlarda hayot kechiradi? **200 ga yaqin turi dengizlarda hayot kechiradi.**

5740. Kamtukli halqalilarning qolgan turlari qayerlarda hayot kechiradi? **Tuproq va chuchuk suvda hayot kechiradi.**

5741. Kamtukli halqalilarning jinsiy bezlari tanasi oldingi qismida bir necha nimalarda joylashgan? **Bo'g'imlarida joylashgan.**

5742. Kamtukli halqalilarning tuxumlari qayerda urug'lanadi? **Pilla ichida urug'lanadi.**

5743. Kamtukli halqalilarning ba'zan tuxumlari urug'lanmasdan qanday usulda ko'payadi? **Partenogenez usulda ko'payadi.**

5744. Kamtukli halqalilarning ayrim turlari ko'ndalangiga bo'linish orqali qanday ko'payadi? **Jinssiz ko'payadi.**

5745. Kamtukli halqalilarning tuproqda yashovchi turlari nima hosil bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi? **Gumus hosil bo'lishiga, ya'ni tuproq strukturasini yaxshilab, uning unumdorligini oshiradi.**

5746. Kamtukli halqalilar qaysi jonivorlar uchun ovqat bo'ladi? **Baliqlar uchun ovqat.**

5747. Kam qilli chuvalchanglar va zuluklarda qovuq qancha (ko'pmi yoki kammi) bo'ladi? **Ko'p bo'ladi.**

5748. Kam qilli halqalilar, oligoxetlar qanday tipga mansub umurtqasizlar sinfi? **Halqali chuvalchanglar tipiga mansub.**

5749. Kam qilli halqalilarning nechta turi tuproqda yashaydi? **2500 ta turi tuproqda yashaydi.**

5750. Kam qilli halqalilarning nechta turi chuchuk suv va oz qismi dengiz tagida yashaydi? **400 ta turi chuchuk suv va oz qismi dengiz tagida yashaydi.**

5751. Kam qilli halqalilarning xarakterli vakillaridan biri qaysi chuvalchanglar? **Yomg'ir chuvalchanglari.**

5752. Kam qilli halqalilardan nechta turi sobiq Ittifoqda ma'lum? **300 ta turi sobiq Ittifoqda ma'lum.**

5753. Kam qilli halqalilarning kattaligi bir necha mm dan necha m gacha? **2,5 m gacha.**

5754. Kam qilli halqalilarning tanasi nechtagacha segmentdan tuzilgan? **47 – 500 tagacha segmentdan tuzilgan.**

5755. Kam qilli halqalilardagi har bir segmentda nechtadan qil tutamlari joylashgan? **4 tadan qil tutamlari joylashgan.**

5756. Kam qilli halqalilarning qaysi a'zolari oldi qismida qil tutamlari yo'q? **Og'iz va og'iz oldi qismida qil tutamlari yo'q.**

5757. Kam qilli halqalilarning ovqat hazm qilish sistemasi qaysi a'zolardan iborat? **Og'iz, tomoq, qizilo'ngach, jig'ildon, muskulli oshqozon, o'rta va orqa ichakdan; asab sistemasi tomoq usti, tomoq osti gangliysi va asab zanjiridan iborat.**

5758. Kam qilli halqalilarning qon aylanish sistemasi qanday? **Yopiq.**

5759. Kam qilli halqalilar qaysi a'zosi orqali nafas oladi? **Terisi orqali nafas oladi.**

5760. Kam qilli halqalilarning chuchuk suvda yashovchi ba'zi turlarida qaysi a'zo bor? **Tashqi jabra bor.**

5761. Kanalar qaysi sinfga mansub mayda bo'g'imoyoqlilar? **O'rgimchaksimonlar sinfiga mansub mayda bo'g'imoyoqlilar.**

5762. Kanalar nechta turkumga bo'linadi? **3 ta turkumga bo'linadi.**

5763. Kanalar uchta turkumi bo'lib ular qaysilar? **Ular quyidagilar: akariformli kanalar (Acariformes), parazitformli kanalar (Parasitiformes) va pichano'rar kanalar (Opiliocarina).**

5764. Kanalarning tanasi uzunligi necha mm? **0,1 – 0,3 mm.**

5765. Kanalarning aksariyati bo'g'imlarga bo'linganmi? **Yo'q, bo'linmagan.**





5766. Kanalarning tanasi, odatda, necha qismdan iborat? **2 qismdan iborat.**

5767. Kanalarning tanasi qaysi qismlardan iborat? **Og'iz apparati joylashgan oldingi – giatosoma va oyoqlari joylashgan orqa qism – idisomadan iborat.**

5768. Kanalar hasharotlardan qaysi a'zolarining bo'lishi yoki bo'lmasligi bilan farqlanadi? **Kanalar hasharotlardan 4, ba'zilari esa 2 juft oyoqlari bo'lishi, tanasining bosh, ko'krak va qorin qismga bo'linmasligi, mo'ylovlari bo'lmasligi bilan farqlanadi.**

5769. Kanalarning tanasi yashash sharoitga ko'ra, tiniq yoki juda zichlashgan qanday qoplamga ega? **Muskulli qoplamga ega.**

5770. Kanalarning barchasi qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

5771. Kanalarning ko'pchiligi qanday ko'payadi? **Tuxum qo'yib ko'payadi.**

5772. Kanalar ovqatlanish tipiga qarab necha guruhga bo'linadi? Ular qaysilar? **3 guruhga bo'linadi. Ular: o'simlikxo'r, yirtqich va parazit kanalar.**

5773. Kanalarning ba'zilari nima hosil bo'lish jarayonida muhim rol o'ynaydi (masalan, Oridalidae oilasiga mansub qalqonli kanalar va Acaroideaning vakillari)? **O'simlik qoldiqlari bilan (sanprofeglar) ovqatlanib, tuproq hosil bo'lish jarayonida.**

5774. Kanalarning Tetranychidal oilasiga mansub turlar qanday qilib qishloq xo'jalik ekinlariga katta zarar keltiradi? **Bu oilaga mansub turlar o'simlik shirasi bilan (fitofaglar) ovqatlanib zarar keltiradi.**

5775. Kanalarning Ixodidal, Argasidae, Dermanyssidae va boshq. oiladagi turlari qanday zarar yetkazadi? **Sodda zamburug'lar bilan ovqatlanib (mikofaglar) hamda parazit kanalar qishloq xo'jalik hayvonlari va odamga zarar yetkazadi.**

5776. Kannakiyik qaysi oilaga mansub juft tuyoqli sut emizuvchi sanaladi? **Qovushshoxlilar oilasiga mansub juft tuyoqli sut emizuvchi sanaladi.**

5777. Kannakiyikning tanasi uzunligi necha m? **3,5 m.**

5778. Kannakiyikning og'irligi qancha kg ga boradi? **900 kg ga boradi.**

5779. Kannakiyikning yag'rinidan necha m gacha? **1,8 m gacha.**

5780. Kannakiyikning dumi necha sm gacha? **60 sm gacha.**

5781. Kannakiyikning dumi uchi qanday? **Popukli.**

5782. Kannakiyikning shoxlari qanday? **Uzun, burma.**

5783. Kannakiyikning qaysi a'zosida teri burmasi bor? **Tomog'ida teri burmasi bor.**

5784. Kannakiyik qayerlarda tarqalgan? **Sharqiy va Janubiy Afrikada tarqalgan.**

5785. Kannakiyik qanday bo'lib yashaydi? **Gala bo'lib yashaydi.**

5786. Kannakiyik nimalar bilan ovqatlanadi? **O'tlar, daraxtlar va butalar bargi bilan ovqatlanadi.**

5787. Kannakiyikning homiladorlik davri necha oy? **8,5 – 9 oy.**

5788. Kannakiyik nechta bola tug'adi? **1 ta bola tug'adi.**

5789. Kannakiyikning nimalaridan foydalaniladi? **Go'shti va terisidan foydalaniladi.**

5790. Kanada bobrlari qaysi hududlarda tarqalgan? **Kanada bobrlari (C. canadensis) – Shimoliy Amerikadan Meksikagacha bo'lgan hududlarda tarqalgan.**

5791. Kanareyka qaysi turkumning yuraklari (vyuroklar) oilasiga mansub qush? **Chumchuqsimonlar turkumining yuraklari (vyuroklar) oilasiga mansub qush.**

5792. Kanareyka tabiatda qaysi orollarda tarqalgan? **Kanar, Madeyra va Azor orollarida tarqalgan.**

5793. Kanareyka qushining tanasi uzunligi necha sm? **12 – 14 sm.**

5794. Kanareyka qushining modasi patlari qanday rangli? **Yashil.**

5795. Kanareyka qushining nari patlari qanday rangli? **Sarg'ish-yashil.**

5796. Kanareyka qushi qayerlarda yashaydi? **O'rmon, bog' va butazorlarda yashaydi.**

5797. Kanareyka qushi qayerlarda uya yasab, nechtagacha tuxum qo'yadi? **Daraxtlarda uya yasab, 3 – 5 tagacha tuxum qo'yadi.**





5798. Kanareyka qushi bir yilda necha marta jo'ja ochadi? **2 marta jo'ja ochadi.**

5799. Kanareyka qushi nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simlik urug'i va mevalari bilan ovqatlanadi.**

5800. Kanareyka qushi nima qilgani uchun xonadonlarda ham boqiladi? **Yaxshi sayragani uchun.**

5801. Kanareyka qushining har xil qanday zotlari yaratilgan? **Sayroq va dekorativ (kokildor, jingalak patli, bukri) zotlari yaratilgan.**

5802. Kanareyka qushining qaysi biri (xonakisimi yoki yovvoyisimi) har xil ovozlarga taqlid qila oladi? **Yovvoyisi har xil ovozlarga taqlid qila oladi.**

5803. Kanar orollaridan keltirilgan sayroqi qushlardan vyuroklar nima deb ataladi? **Kanareyka deb ataladi.**

5804. Kapalaklar, tangachaqanotlilar qachon kelib chiqqan? **Mezozoyning boshlarida kelib chiqqan.**

5805. Kapalaklarning mo'ylovlari shakli va uzunligi qanday? **Har xil.**

5806. Kapalaklarning qurtlarida necha juft ko'krak oyoqlari bilan birga necha juft soxta qorin oyoqlari ham bo'ladi? **3 juft ko'krak oyoqlari bilan birga 5 juft soxta qorin oyoqlari ham bo'ladi.**

5807. Kapalaklarning qancha turi ma'lum? **140 mingga yaqin turi ma'lum.**

5808. Kapalaklarning O'zbekistonda qancha turi aniqlangan? **1500 ga yaqin turi aniqlangan.**

5809. Kapalak qurti – kapalaklar turkumidan chiqadigan qanday shakldagi hasharot? **Chuvalchangsimon shakldagi hasharot.**

5810. Kapalak qurti nimalar va qanday moddalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklarning turli qismlari, ba'zi turlari jun, mum va boshq. organik moddalar bilan ovqatlanadi.**

5811. Kapalak qurti qanday tullab, g'umbakka aylanadi? **Ketma-ket tullab, g'umbakka aylanadi.**

5812. Kapalak qurtining gavdasi qanday bo'g'imli? **Ko'p bo'g'imli.**

5813. Kapalak qurtining og'iz a'zolari qanday tipda tuzilgan? **Kemiruvchi tipda tuzilgan.**

5814. Kapalak qurti boshqa hasharotlar qurtlaridan nimasi bilan farq qiladi? **8 juft soxta oyoqlari bo'lishi bilan farq qiladi.**

5815. Kapalak qurti nima yordamida harakatlanadi? **8 juft soxta oyoqlari yordamida harakatlanadi.**

5816. Kapalak qurtining qaysi a'zolari ovqatni ushlab turadi? **Ko'krak oyoqlari ovqatni ushlab turadi.**

5817. Kapalaklarning asosiy a'zolari qaysi davrning boshlarida shakllangan? **Paleogenning boshlarida shakllangan.**

5818. Kapalaklarning qazilma qoldiqlari, asosan, qaysi davrdan ma'lum? **Bo'r davridan ma'lum.**

5819. Kapalaklar ko'pchiligining og'iz a'zolari yuksak ixtisoslashgan qaysi a'zodan iborat bo'lib, boshining ostki tomonida qanday shaklda o'ralib turadi? **So'ruvchi hartumdan iborat bo'lib, spiral shaklda o'ralib turadi.**

5820. Kapalaklarning pardasimon qanotlari rangli nimalar bilan qoplangan? **Tangachalar bilan qoplangan.**

5821. Kapalaklar qanotlarining rangi, ayniqsa, ularning turli rangda tovlanishi rangsiz tangachalarning nimani har xil burchak ostida sindirishi bilan qora, sariq va boshq. rangli dog'lar esa nima bilan bog'liq? **Yorug'lik nurini, pigment bilan bog'liq.**

5822. Kapalaklarning yozilgan qanotlari necha mm dan necha sm gacha? **3,2 mm dan (mitti kuyachalar) 30 sm gacha (tunlamlar).**

5823. Kapalaklarning tuxumlari shakli qanday? **Har xil.**

5824. Kapalaklarning tuxumlari qanday ahamiyatga ega? **Sistematik ahamiyatga ega.**

5825. Kapalaklarning g'umbaklari qanday bo'ladi? **Yopiq (ko'pincha, pilla ichida), tuban vakillarida ochiq (erkin) bo'ladi.**

5826. Kapalaklar, odatda, qaysi kenja turkumlarga bo'linadi? **Tuban kapalaklar (teng qanotlilar) va yuksak kapalaklar (har xil qanotlilar) kenja turkumlariga bo'linadi.**

5827. Kapalaklarning ayrim hollarda og'iz a'zolari kemiruvchi tipda bo'lgan qanday a'zoli kuyalar alohida kenja turkumga ajratiladi? **Tishli kuyalar alohida kenja turkumga ajratiladi.**

5828. Kapalaklar faunasi, ayniqsa, qaysi mintaqada xilma-xil? **Tropik mintaqada xilma-xil.**





5829. Kapalaklarning qaysi katta oilalari, ayniqsa, turlarga boy? **Tunlam kapalaklar, odimlovchilar, barg o'rovchilar oilalari, olovrang kapalaklar, kuyalarning katta oilalari, ayniqsa, turlarga boy.**

5830. Kapalaklarning ko'pchiligi qachon faol hayot kechiradi? **Shomda yoki kechasi, ayrimlari kunduzi faol hayot kechiradi.**

5831. Kapalaklarning voyaga yetganlari nimalar bilan ovqatlanadi? **Gul nektari yoki o'simlik (ba'zan hayvonlar) shirasi bilan ovqatlanadi.**

5832. Kapalaklar ko'pchiligi imagosining qaysi a'zolari reduksiyaga uchragan? **Og'iz a'zolari reduksiyaga uchragan.**

5833. Kapalaklar ko'pchiligi imagosining og'zi nima qilmaydi? **Ovqatlanmaydi (afagiya).**

5834. Kapalaklar qaysi davrda bir necha kun, hatto bir necha soatdan (ovqatlanmaydigan turlari) bir necha oygacha (voyaga yetgan davrida qishlaydigan kapalaklar) yashaydi? **Voyaga yetgan davrida bir necha kun, hatto bir necha soatdan (ovqatlanmaydigan turlari) bir necha oygacha (voyaga yetgan davrida qishlaydigan kapalaklar) yashaydi.**

5835. Kapalaklarning ko'pchiligi qurtlari nima? **Fitofag.**

5836. Kapalaklar qurtlarining qandaylari ham uchraydi? **Saprofaglar, kerotofaglar (yung va patxo'r), yirtqichlar, hatto parazitlar (tropikada) ham uchraydi.**

5837. Kapalaklarning yillik rivojlanish sikli qanday? **Turlicha bo'lib, ko'pchilik turlari (monovoltinlar) yilda bir marta, boshqalari (bi – va polivoltinlar) ikki yoki ko'p marta nasl beradi.**

5838. Kapalaklarning daraxtning yog'ochlik qismida rivojlanadigan turlari generatsiyasi necha yil davom etadi? **2 – 3 yil davom etadi.**

5839. Kapalaklar, odatda, qaysi davrda, ba'zi turlari qaysi davrda qishlaydi? **Qurtlik davrida, ba'zi turlari imago yoki tuxum davrida qishlaydi.**

5840. Kapalaklar ayrim turlarining nimasi turli rivojlanish davrlarida o'tadi? **Alauzasi turli rivojlanish davrlarida o'tadi.**

5841. Kapalaklarning ko'pchiligi nimada ishtirok etadi? **O'simliklarni changlatishda ishtirok etadi.**

5842. Kapalaklarning qancha turi mevali daraxtlar va qimmatbaho yovvoyi o'simliklarga ziyon keltiradi? **100 dan ortiq turi mevali daraxtlar va qimmatbaho yovvoyi o'simliklarga ziyon keltiradi.**

5843. Kapalaklarning qaysi qurtlari katta ziyon keltiradi? **Tunlamlar, kuyalar va boshq. qishloq xo'jalik ekinlari, o'rmonchilik xo'jaliklari (odimlovchi, barg o'rovchilar va boshq. oziq-ovqat zaxiralari, yung va mo'ynadan tayyorlangan mahsulotlarga (kuyalar, tunlamlar va boshq.) katta ziyon keltiradi.**

5844. Kaparetka qushi bir yilda necha marta bola ochadi? **Bir yilda ikki marta bola ochadi.**

5845. Kaparetka qushi tanasining uzunligi necha sm? **12 – 14 sm.**

5846. Kaparetka qushi nechta tuxum qo'yadi? **3 – 5 tacha tuxum qo'yadi.**

5847. Kaptar kabutarlar, qaysi turkumga mansub qushlar nimasi? **Qushlar oilasi.**

5848. Kaptarlarning qaysi zotlari faqat nima uchun ko'paytiriladi? **Sersavlat zotlari faqat havaskorlik uchun ko'paytiriladi.**

5849. Kaptar, kaptarlar turkumiga qaysi qushlar kiradi? **Barcha kaptar, musicha, g'urrak qumrilar kiradi.**

5850. Kaptarlar qaysi qit'alardan tashqari, boshqa barcha qit'alarda tarqalgan? **Arktika va Antarktikadan tashqari, boshqa barcha qit'alarda tarqalgan.**

5851. Kaptarlarning nechtacha turi bor? **285 tacha turi bor.**

5852. Kaptarlarning nechta urug'i ma'lum? **43 ta urug'i ma'lum.**

5853. Kaptarlarning g'urraklar urug'idan qaysilari ko'p uchraydi? **Musicha (streptopelia Senegalensis) va g'urrak (S. turtur) ko'p uchraydi.**

5854. Kaptarlarning tog' g'urragi (S. orientalis) turi qaysi hududlarda yashaydi? **Tog'li hududlarda yashaydi.**

5855. Kaptarlar qaerlarga nechta bo'lib uya quradi? **Daraxtlar va ularning kovagiga, jarliklar, qoyalar, binolar tomiga juft-juft bo'lib uya quradi.**





5856. Kaptarlar qaerlarda yashaydi? **O'rmonlarda, bog'larda, butazorlarda, cho'llarda, tog'larda, shahar va qishloqlarda yashaydi.**

5857. Kaptarlarning sport zotlari qaysilar? **Buqoqli, soqolli, kokilli.**

5858. Kaptarlarning go'shtdor zotlari yirik bo'lib, og'irligi qancha g gacha? **Karno, king, rim zotlari bo'lib, og'irligi 900 g gacha.**

5859. Kaptarlarning eng kichigi qayerda tarqalgan? **Markaziy Afrikada tarqalgan.**

5860. Kaptarlarning bo'yi necha sm bo'lgani mitti kaptar sanaladi? **10 – 15 sm bo'lgani mitti kaptar sanaladi.**

5861. Kaptarlarda qaysi a'zosi yaxshi rivojlangan? **Jig'ildoni yaxshi rivojlangan.**

5862. Kaptarlar necha marta, har gal nechta tuxum qo'yadi? **4 – 5 marta, har gal 2 tadan tuxum qo'yadi.**

5863. Kaptarlarning qaysi biri tuxumlarini bosadi? **Moda va nari navbat bilan bosadi.**

5864. Kaptarlar nechta oilaga bo'linadi? **Ikki oilaga bo'linadi.**

5865. Kaptarlar nima qilolmaydigan katta qush bo'lgan? **Ucholmaydigan katta qush bo'lgan.**

5866. Kaptarlarning biri nechanchi asrda qirilib bitgan drontalar bo'lib, qaysi orollarda yashagan? **XVI asrda, Mavrikiya, Burbon va Rodriges orollarida yashagan.**

5867. Kaptarsimonlar – qushlar sinfining bir nimasi? **Turkumi.**

5868. Kaptarsimonlarning nechta turi mavjud? **311 ta turi mavjud.**

5869. Kaptarsimonlar yer yuzining (chekka shimoliy va janubiy sovuq hududlardan tashqari) qaysi mintaqalarida tarqalgan? **Hamma mintaqalarida tarqalgan.**

5870. Kaptarsimonlar qayerlarda yashaydi? **O'rmon, bog', butazor, qoyalar, jarlik va binolar bo'tog'ida yashaydi.**

5871. Kaptarsimonlarning uzunligi necha sm dan necha sm gacha? **15 sm dan 85 sm gacha.**

5872. Kaptarsimonlarning og'irligi qancha g dan qancha kg gacha? **30 g dan 3 kg gacha.**

5873. Kaptarsimonlardan drantalarning og'irligi qancha kg ga etadi? **22,5 kg ga etadi.**

5874. Kaptarsimonlar boshi, bo'yi va oyoqlari qanday? **Kichik, qisqa.**

5875. Kaptarsimonlarning qanotlari qanday? **Uzun va o'tkir.**

5876. Kaptarsimonlarning narlarimi yoki modalari nisbatan yirik va rangi chiroyliroq? **Narlari nisbatan yirik va rangi chiroyliroq.**

5877. Kaptarsimonlar nima sababli yaxshi yuguradi? **Yerda ovqatlanganligi sababli yaxshi yuguradi.**

5878. Kaptarsimonlarning barcha turlari juftlari qanday? **Barqaror (monogam).**

5879. Kaptarsimonlar uyasini qayerlarga quradi? **Daraxtlar, qoyalar, jarlardagi kovaklarga, binolarga, yerga quradi.**

5880. Kaptarsimonlar, asosan, nechta, ayrim turlari nechta tuxum qo'yadi? **2 ta, ayrim turlari 1 ta yoki 3 ta tuxum qo'yadi.**

5881. Kaptarsimonlarning tuxum bosish davri necha kundan necha kungacha? **14 kundan 30 kungacha.**

5882. Kaptarsimonlar bir yilda, odatda, necha marta, ayrim turlari necha martagacha tuxum qo'yadi? **2 marta, ayrim turlari 4 – 5 martagacha tuxum qo'yadi.**

5883. Kaptarsimonlarning yirik turlarida necha kunligida uchirma bo'ladi? **25 kunligida uchirma bo'ladi.**

5884. Kaptarsimon bulduruqlarning nechta avlodi bor? **3 ta avlodi bor.**

5885. Kaptarsimon bulduruqlarning nechta turi bor? **16 ta turi bor.**

5886. Kaptarsimon drontlarning necha avlodi bor? **2 ta avlodi bor.**

5887. Kaptarsimon drontlarning nechta turi bor? **3 ta turi bor.**

5888. Kaptarsimonlarning O'zbekistonda uchraydigani nechta uruqqa mansub? **4 ta uruqqa mansub.**

5889. Kaptarsimonlarning O'zbekistonda nechta turi uchraydi? **12 ta turi uchraydi.**

5890. Kaptarsimonlarning O'zbekistonda qaysi turlari qisman ovlanadi? **Qorabovur, suv bulduruq, ko'k kaptar, govkaptar, klintux, qo'ng'ir kaptar, qumri kabi turlari qisman ovlanadi.**





5891. Kaptarsimonlarning O'zbekistonda tarqalgan turkumining barchasi nima bilan ovqatlanadi? **O'simlik urug'lari bilan ovqatlanadi.**

5892. Kaptarsimonlarning qaysi turlari O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan? **Oqbovur, qora kaptar kabi turlari O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.**

5893. Kaputsinlar qaysi jonivorlar turkumining bir urug'i? **Maymunlar turkumining bir urug'i.**

5894. Kaputsinlar nechta turdan iborat? **4 ta turdan iborat.**

5895. Kaputsinlar nechta kenja turdan iborat? **33 ta kenja turdan iborat.**

5896. Kaputsinlarning tanasi uzunligi necha sm? **32 – 57 sm.**

5897. Kaputsinlarning dumi uzunligi necha sm? **29 – 56 sm.**

5898. Kaputsinlarning urg'ochisimi yoki erkagi bir oz kichikroq? **Urg'ochisi bir oz kichikroq.**

5899. Kaputsinlarning qaysi (orqami yoki oldingimi) oyoqlari uzun? **Orqa oyoqlari uzun.**

5900. Kaputsinlarning panjalari qanday (yaxshimi yoki yomonmi) rivojlangan? **Yaxshi rivojlangan.**

5901. Kaputsinlar qaysi a'zosi bilan daraxtga mahkam osilib tura oladi? **Dumi bilan daraxtga mahkam osilib tura oladi.**

5902. Kaputsinlarning boshidagi junlari nimaga o'xshaydi? **Qalpoqqa o'xshaydi.**

5903. Kaputsinlar juda qanday? **Chaqqon.**

5904. Kaputsinlar nechta bola tug'adi? **Bitta bola tug'adi.**

5905. Kaputsinlar quyuq o'rmonlarda nechtasi qanday bo'lib yuradi? **10 – 12 tasi poda bo'lib yuradi.**

5906. Kaputsinlar qayerdan qayergacha tarqalgan? **Gondurasdan Braziliyagacha tarqalgan.**

5907. Kaputsinlar qayerda hayot kechiradi? **Daraxt ustida hayot kechiradi.**

5908. Kaputsinlar daraxtlar ustidan yerga faqat nima uchun tushadi? **Suv ichgani tushadi.**

5909. Kaputsinlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Meva va hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

5910. Kapachi qushlar qayerlarda tarqalgan? **Avstraliya va Yangi Gvineyada tarqalgan.**

5911. Kapachi qushlar qanday o'rmonlarda yashaydi? **Nam tropik o'rmonlarda yashaydi.**

5912. Kapachi qushlar qaysi davrda maxsus qanday maydonchasi tayyorlaydi? **Kuyikish davrida kuyikish maydonchasi tayyorlaydi, uni chig'anoqlar, mayda toshlar, mevalar, cho'llar bilan bezaydi. Maydonchada shox va poyalardan balandligi 50 sm gacha, uzunligi 1 m gacha kapa ham quradi.**

5913. Kapachi qushlarning nechta urug'i ma'lum? **8 ta urug'i ma'lum.**

5914. Kapachi qushlar qaysi turkumning bir oilasi? **Chumchuqsimonlar turkumining bir oilasi.**

5915. Kapachi qushlarning tanasi uzunligi necha sm? **23 – 40 sm.**

5916. Kapachi qushlarning nechta turi ma'lum? **18 ta turi ma'lum.**

5917. Kapachi qushlar nechta tuxum qo'yadi? **1 – 3 ta tuxum qo'yadi.**

5918. Kapcha ilonlarga qaysi ilonlar kiradi? **Kapcha ilonlarga qoshiqboshlar, kobralar, telpaklilar, nayalar, qalqonlilar, ko'zoynakli ilonlar kiradi.**

5919. Kapcha ilonlar qaysi oilaga mansub? **Aspidlar oilasiga mansub.**

5920. Kapcha ilonlar qaysi urug'larga ajratiladi? **Suv kapcha ilonlari, bo'yinbog'li kapcha ilonlari, daraxt kapcha ilonlari, qirol kapcha ilonlari, qalqonli kapcha ilonlari, asl kapcha ilonlari kabi urug'larga ajratiladi.**

5921. Kapcha ilonlarning nechta turi bor? **12 ta turi bor.**

5922. Kapcha ilonlarning Afrikada bo'yi necha m keladigan qaysi turi tarqalgan? **2,5 m keladigan gaya yoki aspid turi tarqalgan.**

5923. Kapcha ilonlarning Sharqiy Osiyoda qaysi turi tarqalgan? **Serzahar shoh ilon, bo'ynidagi ko'zoynak rasmi bilan mashhur ko'zoynakli ilon kabi turi tarqalgan.**

5924. Kapcha ilonlarning O'zbekistonning janubida va Turkistonda aspidlar urug'iga mansub, bo'yi necha m keladigan qaysi kapcha ilon uchraydi? **1,8 m keladigan O'rta Osiyo kapcha iloni uchraydi.**





5925. Kapcha ilonlar qaysi zaharli ilonlarni tutib yeydi? **Charx ilonlarni tutib yeydi.**

5926. Kapcha ilonlar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baqa, qurbaqa, ilon, kaltakesak, mayda kemiruvchilar, ba'zan qush va tuxum bilan ovqatlanadi.**

5927. Kapcha ilonlar O'zbekistonda qaysi oylarda nechta tuxum qo'yadi? **Iyul – avgust oylarida 8 – 12 ta tuxum qo'yadi.**

5928. Kapcha ilonlar xavf tug'ilganda tanasining old qismini nima qiladi? **Yerdan dast ko'taradi.**

5929. Kapcha ilonlar deyilishiga sabab nima? **Kapcha ilonlar bir necha qovurg'alarini ikki yonga yoyib, bo'yining boshidan keyingi qismini kichik belkurash (kapcha)ga o'xshash kengaytiradi (nomi shundan olingan).**

5930. Kapcha ilonlar dushmaniga nima otadi? **Zahar otadi (tupuruvchi kapcha ilonlar).**

5931. Kapcha ilonlarning qaysi jag'ida nechta zahar tishi bor? **Yuqori jag'ida ikkita zahar tishi bor.**

5932. Kapcha ilonlarning zahari odam uchun qanday? **Halokatli.**

5933. Kapcha ilonlar qayerlarda boqiladi? **Serpentariylarda boqiladi.**

5934. Kapcha ilonlar qaysi oyda po'st tashlaydi? **May oyida po'st tashlaydi.**

5935. Kapcha ilonlar yozning jazira issig'ida qaysi paytlarda faol? **Ertalab va kechqurun faol.**

5936. Kapcha ilonlarning zahari qanday xossaga ega? **Neyrotoksik xossaga ega.**

5937. Kapcha ilonlarning zaharidan qayerda foydalaniladi? **Meditsinada foydalaniladi.**

5938. Karadrina, kichik quruqlik tunlami qaysi oilaga mansub zararkunanda? **Tunlamlar oilasiga mansub zararkunanda.**

5939. Karadrinaning tanasi uzunligi necha mm? **11 – 13 mm.**

5940. Karadrinaning qanotlari yozilganda necha mm? **26 – 34 mm.**

5941. Karadrina qurti tuxumini (16 – 150 ta) qachon, qayerga qo'yadi? **Kuzda tuproqqa qo'yadi.**

5942. Karadrina qurtining uzunligi necha sm? **2,5 – 3,0 sm.**

5943. Karadrinaning nechta oyog'i bor? **16 ta oyog'i bor.**

5944. Karadrina havo haroratiga qarab yilda necha avlod beradi? **2 – 8 avlod beradi.**

5945. Karadrinaning oldingi qanotlarida nechtadan dog'i bor? **Ikkitadan dog'i bor.**

5946. Karadrina qayerlarda keng tarqalgan? **Afrika, Janubiy Osiyo va Shimoliy Amerikada keng tarqalgan.**

5947. Karadrinaning rivojlanish davri uchun samarali harorat yig'indisi qancha ° C bo'lishi shart? **Harorat yig'indisi 350° C bo'lishi shart.**

5948. Karadrinaning rivojlanish sikli O'rta Osiyoda issiq oylarda necha kunda tugaydi? **19 – 20 kunda tugaydi.**

5949. Karadrinaning rivojlanish tsikli O'rta Osiyoda kech kuzda necha kunda tugaydi? **60 va undan ko'proq kunda tugaydi.**

5950. Karadrinaning yashash areali qanday? **Juda keng.**

5951. Karakatitsa necha oyoqlilar turkumiga mansub boshoyoqli mollyuskalar urug'i? **O'n oyoqlilar turkumiga mansub boshoyoqli mollyuskalar urug'i.**

5952. Karakatitsaning tanasi cho'ziq bo'lib, uzunligi necha mm dan necha sm gacha? **8,3 mm dan 50 sm gacha.**

5953. Karakatitsaning og'irligi qancha kg? **10 – 12 kg gacha.**

5954. Karakatitsaning ikki yonida jiyaksimon qaysi a'zolari bor? **So'rg'ichlari bor.**

5955. Karakatitsaning paypaslagichlari nechta? **10 ta.**

5956. Karakatitsaning paypaslagichlari 10 ta bo'lib, ularning nechtasi boshqalariga nisbatan uzun? **Ikkitasi boshqalariga nisbatan uzun.**

5957. Karakatitsaning paypaslagichlarining ikkitasi boshqalariga nisbatan uzun va uchki qismi kengaygan bo'lib, nima uchun xizmat qiladi? **O'ljani tutish uchun xizmat qiladi.**

5958. Karakatitsaning qaysi paypaslagichi gektakotillashgan? **Chap qorin paypasligichi gektakotillashgan.**

5959. Karakatitsa chap qorni paypaslagichi yordamida erkagi o'zining nimalarini urg'ochining mantiya bo'shlig'iga kiritadi? **Spermatoforalarini urg'ochining mantiya bo'shlig'iga kiritadi.**

5960. Karakatitsaning chig'anog'i tanasining orqa tomonida mantiyasi ustidami yoki ostida joylashgan? **Ostida joylashgan.**

5961. Karakatitsa nima tug'ilganda siyoh xaltachasidan chiqadigan suyuqlik (sepiya) yordamida suvni loyqalatib dushmanini chalg'itadi? **Xavf tug'ilganda siyoh xaltachasidan chiqadigan suyuqlik (sepiya) yordamida suvni loyqalatib dushmanini chalg'itadi.**





5962. Karakatitsa tuxumlarini suv ostida nimalarga nechtadan yopishtirib qo'yadi? **O'simliklarga bittadan yoki bir nechtadan yopishtirib qo'yadi.**

5963. Karakatitsa qayerda hayot kechiradi? **Suv tubida hayot kechiradi.**

5964. Karakatitsa tanasining rangini atrofdagi narsalarga mos qilib o'zgartirish nimasiga ega? **Xususiyatiga ega.**

5965. Karakatitsa tropik va iliq suvli dengizlarda necha m gacha chuqurlikda tarqalgan? **200 m gacha chuqurlikda tarqalgan.**

5966. Karakatitsaning qancha turi ma'lum? **90 ga yaqin turi ma'lum.**

5967. Karakatitsaning nimasi iste'mol qilinadi? **Go'shti iste'mol qilinadi.**

5968. Karakatitsaning nimasi qimmatbaho bo'yoq sifatida qo'llaniladi? **Siyohi qimmatbaho bo'yoq sifatida qo'llaniladi.**

5969. Karakatitsaning nimasi qoldig'i metall va yog'ochdan ishlangan buyumlarga sayqal berishda, atir-upa sanoatida va tibbiyotda dorivor modda sifatida qo'llaniladi? **Chig'anog'i qoldig'i metall va yog'ochdan ishlangan buyumlarga sayqal berishda, atir-upa sanoatida va tibbiyotda dorivor modda sifatida qo'llaniladi.**

5970. Karam kuyasi qaysi o'simliklarga katta zarar keltiradi? **Karam va butguldoshlarga mansub boshqa o'simliklarga katta zarar keltiradi.**

5971. Karapuziklarning ko'pchiligi qayerlarda yashaydi? **Go'ngda, o'limtiklar tanasida, chirindilar orasida, daraxt po'stlog'i ostida, qush va hayvonlar inida yashaydi.**

5972. Karapuziklar qaysi hasharotlarning bir oilasi? **Qo'ng'izlarning bir oilasi.**

5973. Karapuziklarning kattaligi necha mm? **0,5 – 22 mm.**

5974. Karapuziklarning nechta turi bor? **3600 ta turi bor.**

5975. Karaslarning nechta turi bor? **2 ta turi bor.**

5976. Karaslar oilasining chuchuk suvlarda yashaydigan bir urug'iga mansub baliqlarning nomlari nima? **Tilla (oddiy yoki yumaloq) karas yoki kumush karas.**

5977. Karaslar qaysi oilaning chuchuk suvlarda yashaydigan bir urug'iga mansub baliqlar? **Karpsimonlar oilasining chuchuk suvlarda yashaydigan bir urug'iga mansub baliqlar.**

5978. Karaslarning qaysi turi Yevropa va Shimoliy Osiyoda tarqalgan? **Tilla karas turi Yevropa va Shimoliy Osiyoda tarqalgan.**

5979. Karaslarning bo'yi necha sm? **20 – 35 sm, ba'zida 50 sm gacha.**

5980. Karaslarning og'irligi qancha kg? **1 – 2 kg (Ural tog'ining sharq tomonidagi ko'llarda 5 kg gacha).**

5981. Karaslar necha yoshida jinsiy yetiladi? **2 – 4 yoshida jinsiy yetiladi.**

5982. Karaslarning qaysi turi Yevropa va Osiyoda tarqalgan? **Kumush karas turi Yevropa va Osiyoda tarqalgan.**

5983. Karaslardan kumush karas turining bo'yi necha sm gacha? **45 sm gacha.**

5984. Karetta qaysi toshbaqalar oilasiga mansub toshbaqa? **Dengiz toshbaqalari oilasiga mansub toshbaqa.**

5985. Karkidonlar qaysi turkumning bir oilasi? **Toq tuyoqli sut emizuvchilar turkumining bir oilasi.**

5986. Karkidonlarning nechtacha turi va kenja turlari bor? **7 tacha turi va kenja turlari bor.**

5987. Karkidonlarning tanasi uzunligi necha m cha? **5 m cha.**

5988. Karkidonlarning bo'yi necha m cha? **2 m cha.**

5989. Karkidonlarning qaysi a'zosi yaxshi rivojlangan? **Hidlash va eshitish a'zolari yaxshi rivojlangan.**

5990. Karkidonlar barmoqlarining uchida nimalari bor? **Tuyoqlari bor.**

5991. Karkidonlar qanday bo'lib yuradi? **Yakka yoki juft bo'lib, ba'zan 4 – 5 tasi poda bo'lib yuradi.**

5992. Karkidonlarning tug'ilgan bolasi qancha kg cha? **25 kg cha.**

5993. Karkidonlar oilasi nechta uruqqa bo'linadi? Ular qaysi urug'lar? **Uchta uruqqa bo'linadi. Ular quyidagilar: Bir shoxli yoki qalqopli karkidonlar, ikki shoxli yoki chala qalqopli karkidonlar, Afrika karkidonlari urug'iga bo'linadi.**

5994. Karkidonlar qaysi oyda urchiydi? **Noyabrda urchiydi.**





5995. Karkidonlarning homiladorlik davri necha oy? **17 – 19 oy.**

5996. Karkidonlarning tug'ilgan bolasi qancha kg cha bo'ladi? **25 kg cha bo'ladi.**

5997. Karkidon qushlar qayerlarda tarqalgan? **Afrika, Avstraliya va Hindistonda tarqalgan.**

5998. Karkidon qushlar qaysi turkumning bir oilasi? **Popushaklar turkumining bir oilasi.**

5999. Karkidon qushlar tanasining uzunligi necha sm dan necha sm gacha? **50 sm dan 165 sm gacha.**

6000. Karkidon qushlarning og'irligi qancha g dan qancha kg gacha? **150 g dan 4 kg gacha.**

6001. Karkidon qushlar nechta uruqqa birlashgan? **14 ta uruqqa birlashgan.**

6002. Karkidon qushlarning nechta turi mavjud? **45 ta turi mavjud.**

6003. Karkidon qushlarning inkubatsiya davri necha oy? **1,5 oy.**

6004. Karkidon qushlar nechtagacha tuxum qo'yadi? **1 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

6005. Karkidon qushlarning modasi tuxum bosayotganda nari kovak og'zini nima qoldirib shuvab tashlab, modasi va jo'jalarini ovqatlantiradi? **Kichik teshik qoldirib shuvab tashlab, modasi va jo'jalarini ovqatlantiradi.**

6006. Karkidon qushlar uya og'zini qachon ochadi? **Jo'jalari uchirma bo'lgandan keyin ochadi.**

6007. Karkidon qushlarning ayrim turlari bolalari necha haftaligida modasi uyadan chiqib, kovakni qaytadan shuvaydi, bolalarini qaysi biri ovqatlantiradi? **2 – 3 haftaligida, bolalarini nari va modasi ovqatlantiradi.**

6008. Karkidonlarning dumi, terisi qanday? **Qisqa, qalin.**

6009. Karkidonlarning burni ustida va qanashida nechta shoxi bor? **1 – 2 (qora karkidonda, ba'zan 3 yoki 5) ta shox bor.**

6010. Karkidonlarning ko'zi qanday? **Kichkina, yaxshi ko'rmaydi.**

6011. Karkidonlarning bo'yni qanday? **Qisqa va yo'g'on.**

6012. Karkidonlarning oyog'i qanday? **Qisqa, yo'g'on.**

6013. Karkidonlarning barmoqlari nechta? **3 ta.**

6014. Karkidonlar qachongi hayvon? **Tungi hayvon.**

6015. Karkidonlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Turli o'simliklar bilan ovqatlanadi.**

6016. Karkidonlar qaysi hayvonlardan qochib, nimaga tushib yotadi? **Pashsha va so'nalardan qochib, botqoqqa tushib yotadi.**

6017. Karkidonlarning tanasi og'ir va qo'polligiga qaramay qanday yuguradi? **Tez yuguradi.**

6018. Karkidonlarning nimalari yeyiladi? **Go'shti, yog'i yeyiladi.**

6019. Karkidonlarning nimalaridan turli buyumlar tayyorlanadi? **Terisi va shoxidan turli buyumlar tayyorlanadi.**

6020. Karkidonlarning nechta turi bor? Ular qaysilar? **5 ta turi bor. Ular: sumatra, hind, yava karkidoni, qora, oq karkidon.**

6021. Karkidonlarning qaysi turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **Barcha turlari Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

6022. Karkidon ilon qaysi uruqqa mansub zaharli ilonlarning bir turi sanaladi? **Qora ilonlar urug'iga mansub zaharli ilonlarning bir turi sanaladi.**

6023. Karkidon ilon qaysi oylarda nechtacha bola tug'adi? **Avgust – sentabr oylarida 20 tacha bola tug'adi.**

6024. Karkidon ilonning tumshug'ida mayda nimalar bor? **Tangachalar bor.**

6025. Karkidon ilonning bo'yi necha sm? **60 – 90 sm.**

6026. Karkidon ilonning tusi qanday rang? **Kulrang.**

6027. Karkidon ilon qayerlarda tarqalgan? **Italiya, Yugoslaviya, Ruminiya, G'arbiy Kavkazda va boshqa yerlarda tarqalgan.**

6028. Karlik to'ng'izlar qayerda yashaydi? **Himolayda yashaydi.**

6029. Karnay o'rovchilar qaysi turkumga mansub qo'ng'izlar oilasi? **Qattiq qanotlilar turkumiga mansub.**

6030. Karnay o'rovchilarning tanasi uzunligi necha mm? **2 – 15 mm.**

6031. Karnay o'rovchilarning qaysi a'zosi nayga o'xshash cho'ziq? **Boshi.**

6032. Karnay o'rovchilarning mo'ylovlari qanday shaklda? **To'g'nog'ichsimon shaklda.**





6033. Karnay o'rovchilarning qaysi qanotlari, odatda, qorinning uchki qismini yopmaydi? **Ustki qanotlari.**

6034. Karnay o'rovchilarning qancha turi ma'lum? **1300 ga yaqin turi.**

6035. Karnay o'rovchilarning barcha turlari fitofag, odatda, qayerlarda ovqatlanadi? **Daraxt va butalarda ovqatlanadi.**

6036. Karnay o'rovchilarning ko'pincha urg'ochisi qayerga tuxum qo'yib, ularni karnayga o'xshatib (nomi shundan olingan) yoki qopchiq yasaydi? **Barglarga tuxum qo'yib, ularni karnayga o'xshatib (nomi shundan olingan) yoki qopchiq yasaydi.**

6037. Karnay o'rovchilarning qayerda oqish qurtlari rivojlanadi? **Karnay ichida oqish qurtlari rivojlanadi.**

6038. Karnay o'rovchilarning ba'zi turlari qurtlari qayerlarida rivojlanadi? **Poya, kurtak yoki mevalar ichida rivojlanadi.**

6039. Karnay o'rovchilarning ko'pchilik turlari qanday daraxtlarga ziyon yetkazadi? **Har xil mevali va mevasiz daraxtlarga ziyon yetkazadi.**

6040. Karnay o'rovchilarning O'rta Osiyoda, jumladan,O'zbekistonda qaysi turlari qanday daraxtlarga jiddiy ziyon keltiradi? **O'rik filchasi (Ph. auratus), olcha filchasi (Phynhitus auratus) va boshq. turlari danak mevali daraxtlarga jiddiy ziyon keltiradi.**

6041. Karnaychi qushlar qaysi turkumning bir oilasi? **Turnasimonlar turkumining bir oilasi.**

6042. Karnaychi qushlar nechta tuxum qo'yadi? **7 ta tuxum qo'yadi.**

6043. Karnaychi qushlarning nechta turi bor? **3 ta turi bor.**

6044. Karnaychi qushlarning nechta urug'i bor? **1 ta urug'i bor.**

6045. Karnaychi qushlarning og'irligi qancha kg? **1 – 1,5 kg.**

6046. Karnaychi qushlar qayerlarda yashaydi? **Venesuela, Kolumbiya, Sharqiy Ekvador, Braziliyaning sernam o'rmonlarida yashaydi.**

6047. Karnaychi qushlar patlarining rangi ko'proq qanday baxmalsimon? **Qoramtir baxmalsimon.**

6048. Karnaychi qushlar qayerlarga uya quradi? **Daraxtlarning shoxlari va kovaklariga uya quradi.**

6049. Karnaychi qushlarning nechta qanday rangli tuxumlarini modasi bosadi? **5 – 7 ta oq rangli tuxumlarini modasi bosadi.**

6050. Karnaychi qushlar qayerlarda qanday bo'lib yashaydi? **Sernam o'rmonlarda gala bo'lib yashaydi.**

6051. Karnaychi qushlar yerda qanday chopadi? **Tez chopadi.**

6052. Karnaychi qushlar qanday uchadi? **Kam uchadi.**

6053. Karnaychi qushlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Mevalar, har xil hasharotlar, xususan, chumolilar va ikki qanotlilar bilan ovqatlanadi.**

6054. Karnaychi qushlar uy parrandalariga qanday o'rganadi? **Tez o'rganadi.**

6055. Karnaychi qushlar tutqinlikda ko'payishi mumkinmi? **Ha, mumkin.**

6056. Karp balig'ining xonakilashtirilgani qaysi baliq? **Zog'ora balig'i.**

6057. Karpsimonlar qanday baliqlarning bir turkumi hisoblanadi? **Suyakli baliqlarning bir turkumi hisoblanadi.**

6058. Karpsimonlar, zog'orabaliqsimonlar qaysi turkumga mansub baliqlar oilasi? **Karpsimonlar turkumiga mansub baliqlar oilasi.**

6059. Karpsimonlarning tana uzunligi necha sm dan necha m gacha? **2 sm dan 1,5 m gacha.**

6060. Karpsimonlarning jag'larida tishlari bo'lmaydi, ammo ovqati qanday maydalanadi? **Ovqati halqumidagi yutinish tishlari yordamida maydalanadi.**

6061. Karpsimonlar qayerlarda tarqalgan? **Yevrosiyo, Afrika, Shimoliy va Markaziy Amerikaning chuchuk va nam sho'rlangan suvlarida tarqalgan.**

6062. Karpsimonlarga qancha urug' kiradi? **200 ga yaqin urug' kiradi.**

6063. Karpsimonlarga qancha tur kiradi? **1500 ga yaqin tur kiradi.**

6064. Karpsimonlarning O'zbekistonda nechta oilaga mansub nechta turi tarqalgan? **17 ta oilaga mansub 19 ta turi tarqalgan.**

6065. Karpsimonlardan oddiy oqqayroq turi qanday? **Yirtqich.**

6066. Karpsimonlar, odatda, qaysi faslda urchiydi? **Bahorda urchiydi.**





6067. Karpsimonlarning uvildiriq tashlash davri necha oy davom etadi? **1 – 3 oy davom etadi.**

6068. Karpsimonlar qancha uvildiriq tashlaydi? **Bir necha yuzdan 1 mln tagacha uvildiriq tashlaydi.**

6069. Karpsimonlar nechta kenja turkumga bo'linadi? **To'rtta kenja turkumga bo'linadi.**

6070. Karpsimonlar kenja turkumlari qaysilar? **Xaratsinlar, elektrli ugorlar, karpnamolar va laqqanamolar.**

6071. Karpsimonlarning qanday zoti bor? **Tangachali, oynasimon zoti bor.**

6072. Karpsimonlarning O'zbekiston suv havzalaridan qaysi turlari ovlanadi? **Zog'ora baliq, maybaliq, tovonbaliq, qorabaliq, oqcha, oq amur, amur xumboshi va boshq. ovlanadi.**

6073. Karpsimonlarning qaysi turlari O'zbekiston suv havzalarida boqiladi? **Karp, tovonbaliq, oq amur, amur xumboshi turlari O'zbekiston suv havzalarida boqiladi.**

6074. Karpsimonlarning qaysi turlari Amur havzasidan keltirilib, O'zbekiston suv havzalarida iqlimlashtirilgan? **Oq amur, amur xumboshi turlari Amur havzasidan keltirilib, O'zbekiston suv havzalarida iqlimlashtirilgan.**

6075. Karp tishlilar qanday turkumning bir oilasi? **Karp tishlinamolar turkumining bir oilasi.**

6076. Karp tishlilarning qaysi turlaridan qayerlarda foydalaniladi? **Fundulus, guppi, mukani kabi turlaridan embriologiyada, fiziologiyada tadqiqot ishlari uchun foydalaniladi.**

6077. Karp tishlilarning nechtacha turi bor? **430 tacha turi bor.**

6078. Karptishlisimonlar qayerlarda tarqalgan? **Amerika, Afrika, Janubiy Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyodagi chuchuk suvlarda tarqalgan.**

6079. Karptishlisimonlarning ko'pchilik turlari qanday ko'payadi? **Uvildiriq tashlab ko'payadi.**

6080. Karptishlisimonlarning nechta turi tirik tug'adi? **To'rtta turi, jumladan, O'zbekiston suv havzalarida uchraydigan gumbuziya tirik tug'adi.**

6081. Karptishlisimonlarga qancha tur kiradi? **400 ga yaqin tur kiradi.**

6082. Karptishlisimonlarning elka suzgichi nechta bo'ladi? **Bitta bo'ladi.**

6083. Karptishlisimonlarning tanasi shakli qanday? **Silindrsimon.**

6084. Karptishlisimonlarning ko'pchilik turlari suvning qaysi qatlamlarida yashaydi? **Yuqori qatlamlarida yashaydi.**

6085. Karptishlisimonlarning og'zi qayoqqa (pastgami yoki yuqorigami) qaragan? **Yuqoriga qaragan.**

6086. Karptishlisimonlarning suzgichlari qanday? **Yumshoq.**

6087. Karptishlisimonlarning tishlari qanday (rivojlanganmi yoki rivojlanmaganmi)? **Rivojlangan.**

6088. Karptishlisimonlarning ko'llar va sekin oqadigan suv havzalarida yashaydigan turlari nimalar bilan ovqatlanadi? **Bezgak chivinining suvdagi qurtlari bilan ovqatlanadi.**

6089. Karptishlisimonlarning keng tarqalgan oilalardan biri karptishlilar (Cyprinodontidal)ning uzunligi necha sm? **3 – 5 sm.**

6090. Karptishlisimonlarning karptishlilar oiladan qaysi turlari akvariumlarda boqiladi? **Fundulus, karptish, guppilar va lukani akvariumda boqiladi.**

6091. Karptishlisimonlarning karptishlilar oilasidan Lukani turi harorati necha ° C ga yaqin bo'lgan issiq suvli buloqlarda yashaydi? **40° C haroratli buloqlardagi suvlarda yashaydi.**

6092. Karpxo'rlar, karp bitlari – qisqichbaqasimonlar turkumi bo'lib, qayerda yashaydi? **Baliqlar va qisman amyaibiyalar terisida yashaydi.**

6093. Karpxo'rlar nima bilan ovqatlanadi? **Qon bilan ovqatlanadi.**

6094. Karpxo'rlarning tanasi uzunligi necha sm ga yaqin? **3 sm ga yaqin.**

6095. Karpxo'rlarning tanasi shakli qanday? **Yassi.**

6096. Karpxo'rlarning necha juft boshoyoqlilari o'zgarib, yopishish a'zosiga aylangan? **Uch juft boshoyoqlari o'zgarib, yopishish a'zosiga aylangan.**

6097. Karpxo'rlarning qancha turi ma'lum? **50 tacha turi ma'lum.**

6098. Kartoshka nematodasi qaysi jonivorlar oilasiga mansub parazit chuvalchang? **Yumaloq chuvalchanglar oilasiga mansub parazit chuvalchang.**





6099. Kartoshka nematodasining tanasi qanday? **Cho'ziq.**

6100. Kartoshka nematodasi tanasining ikki uchi qanday? **Ingichka.**

6101. Kartoshka nematodasi qanday tuslarda bo'ladi? **Avval oq, keyinroq sariq, oxiri jigarrang tuslarda bo'ladi.**

6102. Kartoshka nematodasining voyaga yetganining kattaligi necha mm? **1,1 – 1,2 mm.**

6103. Kartoshka nematodasining erkagimi yoki urg'ochisi kichikroq? **Erkagi kichikroq.**

6104. Kartoshka nematodasining tuxumdan chiqqan lichinkasi necha mk? **250 mk.**

6105. Kartoshka saqlanayotgan ombor harorati qancha ° C dan oshib ketsa, kartoshkadan nematoda tuxum qo'yib ko'payadi? **Harorat 5° C dan oshib ketsa, kartoshkadan nematoda tuxum qo'yib ko'payadi.**

6106. Karqurlar qaysi turkumga mansub yirik qushlar urug'i? **Tovuqsimonlar turkumiga mansub yirik qushlar urug'i.**

6107. Karqurlar narining o'rtacha og'irligi qancha kg? **4,1 kg.**

6108. Karqurlar modasining og'irligi qancha kg? **2 kg.**

6109. Karqurlar qayerlarda yashaydi? **Yevropa va Osiyodagi o'rmonlarda yashaydi.**

6110. Karqurlar nechta tuxum qo'yadi? **6 – 16 ta tuxum qo'yadi.**

6111. Karqurlar urg'ochisi tuxumini necha kun bosadi? **25 – 28 kun bosadi.**

6112. Karqurlar qushi qaysi oilaga mansub? **Tovuqsimonlar turkumining qurlar oilasiga mansub.**

6113. Kaspiy dengizda nechta tur baliq va suv hayvonlari bor? **854 ta tur baliq va suv hayvonlari bor.**

6114. Katadrom migratsiya qaysi baliqlar uchun xos? **Ayrim buqabaliqlar, daryo ilon balig'i (ugor) va tropik laqqa baliqlar uchun xos.**

6115. Katta amudaryo soxta kurakburunlilarning uzunligi necha sm gacha? **75 sm gacha.**

6116. Katta amudaryo soxta kurakburunlilarning og'irligi qancha kg gacha? **2,5 kg gacha.**

6117. Katta amudaryo soxta kurakburunlilar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

6118. Katta amudaryo soxta kurakburunlilar necha yoshda voyaga yetadi? **6 – 7 yoshda voyaga yetadi.**

6119. Katta amudaryo soxta kurakburunlilar qaysi oyda uvildiriq tashlaydi? **Aprel oyida uvildiriq tashlaydi.**

6120. Katta amudaryo soxta kurakburunlilar necha mingga yaqin tuxum qo'yadi? **2 mingga yaqin tuxum qo'yadi.**

6121. Katta kuduning balandligi yag'rinidan necha sm? **132 sm.**

6122. Katta kuduning tanasi uzunligi necha sm cha? **245 sm cha.**

6123. Katta kudu qayerda tarqalgan? **Afrikaning ko'p qismida tarqalgan.**

6124. Katta ko'zli ilonlar qaysi oilaning bir urug'i? **Suv ilonsimonlar oilasining bir urug'i.**

6125. Katta ko'zli ilonlar, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda tarqalgan.**

6126. Katta ko'zli ilonlarning tanasi uzunligi necha m ga yetadi? **3,5 m ga yetadi.**

6127. Katta ko'zli ilonlar Turkmaniston Respublikasining qayerlarida yashaydi? **Murg'ob vodiysining to'qayzor, botqoqlik va daryo bo'yi hamda kanallar atrofida zax joylarda yashaydi.**

6128. Katta ko'zli ilonlarning nechta turi bor? **8 – 10 ta turi bor.**

6129. Kattaog'izlar qaysi jonivorlar turkumi? **Baliqlar turkumi.**

6130. Kattaog'izlar baliqlarining nechta oilasi bor? **Ikkita oilasi bor.**

6131. Kattaog'izlar baliqlarining qaysi a'zosi juda katta? **Og'zi juda katta.**

6132. Kattaog'izlar baliqlarining qaysi a'zosining qopqog'i yo'q? **Jabrasining qopqog'i yo'q.**

6133. Kattaog'izlar baliqlari qaysi okeanlarda, necha m chuqurlikda uchraydi? **Atlantika, Tinch, Hind okeanlarida, 4000 m chuqurlikda uchraydi.**

6134. Kattaog'izlar baliqlarining uzunligi necha m cha? **2 m cha.**

6135. Kattaog'izlar baliqlarining tanasi qanday shaklda? **Ipsimon shaklda.**





6136. Katta panda, bambuk aviq qaysi oilaga mansub sut emizuvchi hayvon sanaladi? **Yenotsimonlar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon sanaladi.**

6137. Katta panda, ba'zan qaysi oilaga kiritiladi? **Ayiqsimonlar oilasiga kiritiladi.**

6138. Katta pandaning tashqi ko'rinishi qaysi hayvonga o'xshaydi? **Ayiqqa o'xshaydi.**

6139. Katta panda ayiqdan nimalari bilan farq qiladi? **Tishlarining tuzilishi va dumining uzun bo'lishi bilan farq qiladi.**

6140. Katta panda qayerda tarqalgan? **Xitoyda tarqalgan.**

6141. Katta panda ilgari qayerlarda yashagan? **Hindixitoy va Kalimantan orollaridagi bambuk o'rmonlarda yashagan.**

6142. Katta panda nechta bola tug'adi? **1 – 2 ta bola tug'adi.**

6143. Katta panda Xitoyda nima deb e'lon qilingan? **«Milliy xazina» deb e'lon qilingan.**

6144. Katta qanotlilar, uchar itlar, uchar tulkilar qo'lqanotlilarning kenja nimasi? **Turkumi.**

6145. Katta qanotlilarning tanasi uzunligi necha sm dan necha sm gacha? **6 sm dan 40 sm gacha.**

6146. Katta qanotlilarning qanotlari yozilganda necha m gacha? **1,7 m gacha.**

6147. Katta qanotlilarning oldingi oyoq panjasining qaysi barmoqlarida tirnoqlari bor? **I va II barmoqlarida tirnoqlari bor.**

6148. Katta qanotlilarning ko'pchiligida qaysi a'zosi bo'lmaydi? **Dumi bo'lmaydi.**

6149. Katta qanotlilarning qaysi a'zosi chetlari yopiq bo'lishi bilan ko'rshapalaklardan farq qiladi? **Quloq suprasi chetlari yopiq bo'lishi bilan ko'rshapalaklardan farq qiladi.**

6150. Katta qanotlilardan faqat qaysi birlarida exolokatsiya xususiyati aniqlangan? **Uchar tulkilarda exolokatsiya xususiyati aniqlangan.**

6151. Katta qanotlilardan uchar tulkilarda exolokatsion signallar ko'rshapalaklarnikiga o'xshash bo'g'izida emas, balki qaysi a'zosi orqali generatsiyalanadi? **Tili orqali generatsiyalanadi.**

6152. Katta qanotlilarning bitta oilasi qancha urug' va nechta turni o'z ichiga oladi? **50 ga yaqin urug' va 150 ta turni o'z ichiga oladi.**

6153. Katta qanotlilar qayerlarda tarqalgan? **Sharqiy yarim sharning tropik va subtropik hududlarida (Shimolda Misrgacha), Janubiy Yaponiyada tarqalgan.**

6154. Katta qanotlilar kunduzi qayerlarda yashirinib oladi? **Daraxtlarning shox-shabbalari orasiga, ba'zan, g'orlar va qoyalarning yorig'iga yashirinib oladi.**

6155. Katta qanotlilar qanday bo'lib yashaydi? **Koloniya bo'lib (ba'zan, bir necha ming individlardan iborat) yashaydi.**

6156. Katta qanotlilar, asosan, nimalar bilan ovqatlanadi? **Mevalar bilan ovqatlanadi.**

6157. Katta qanotlilarning nechta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **4 ta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

6158. Katta qiziloyoq qaysi turkumga mansub qush? **Balchiqchilar turkumiga mansub qush.**

6159. Katta qiziloyoq yer yuzining qaysi qismidan boshqa barcha qit'alarda tarqalgan? **Yer yuzining shimoliy qismidan boshqa barcha qit'alarda tarqalgan.**

6160. Katta qiziloyoq qushining pati qanday rangli? **Qora va oq rangli.**

6161. Katta qiziloyoq qushining tumshug'i ingichkami yoki yo'g'onmi? **Ingichka.**

6162. Katta qiziloyoq qushining oyog'i necha barmoqli? **Uch barmoqli.**

6163. Katta qiziloyoq qushi sobiq Ittifoqning qaysi dengizlari atrofida uchraydi? **Qora, Kaspiy va Orol dengizlari atrofida uchraydi.**

6164. Katta qiziloyoq qushi qanday bo'lib yashaydi? **Gala bo'lib yashaydi.**

6165. Katta qiziloyoq qushi nechta tuxum qo'yadi? **3 – 4 ta tuxum qo'yadi.**

6166. Katta qiziloyoq qushi qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda hasharotlar, ularning lichinkalari va mollyuskalar bilan ovqatlanadi.**

6167. Katta qiziloyoq qushi qaysi oyda qishlash joylariga uchib ketadi? **Sentabr oyida qishlash joylariga uchib ketadi.**

6168. Katta g'o'za biti qaysi oilaga mansub qanotli yoki qanotsiz hasharot? **Afidiidlar oilasiga mansub qanotli yoki qanotsiz hasharot.**





6169. Katta g'o'za bitining tanasi uzunligi necha mm? **3,5 – 4,0 mm.**

6170. Katta g'o'za biti qanotli va qanotsiz tirik tug'adigan urg'ochilari qanday tusda bo'ladi? **Och-yashil yoki sariq tusda bo'ladi.**

6171. Katta g'o'za bitining ko'zlari qanday tusda? **Qizil tusda.**

6172. Katta g'o'za bitining shira chiqaruvchi naychalari va dumi qanday? **Ingichka, tana uzunligi yarmiga keladi.**

6173. Katta g'o'za bitining tuxum qo'yuvchi urg'ochisi qanday tusli? **Sariq-qo'ng'ir tusli.**

6174. Katta g'o'za biti yil davomida nechta jinsiy avlod beradi? **Bitta jinsiy avlod beradi.**

6175. Katta g'o'za biti tuxum xolida qaerda qishlaydi? **G'o'zalar va yantoqda qishlaydi.**

6176. Katta g'o'za biti g'o'za niholariga qachon o'tadi? **2-chin barg paydo bo'lishi bilan o'tadi.**

6177. Katta g'o'za bitining har tupdagi soni qachon 100 – 200 taga yetadi? **Iyulda va avgustning boshlarida, so'ngra bir oz kamayadi.**

6178. Katta g'o'za bitining soni qachonga borib yana ortadi? **Kuzga borib yana ortadi.**

6179. Katta g'o'za biti g'o'zaning nimasi? **Eng xavfli zararkunandasi.**

6180. Katta g'o'za bitlari faqat barglardagina tarqalib qolmay, balki qayerlarni ham egallaydi? **Poya va gulоldi qismini ham egallaydi; bu esa hosil a'zolarining to'kilishiga sabab bo'ladi.**

6181. Katta g'o'za bitlari najasidan ifloslangan paxta tolalarining nimasi kuzda buziladi? **Texnologik sifati buziladi.**

6182. Kachurkalar qanday dumli urug'lardan iborat? **Ayrim dumli va to'g'ri dumli urug'lardan iborat.**

6183. Kachurkalarning qaysi (oldingisimi yoki keyingisimi) barmoqlari pardali? **Oldingisi.**

6184. Kachurkalar qaer qushi? **Dengiz qushi.**

6185. Kachurkalar qaysi okeanlarda tarqalgan? **Atlantika, Hind va Tinch okeanlarda tarqalgan.**

6186. Kachurkalar qaysi turkumga mansub qushlar? **Nayburunlar turkumiga mansub qushlar.**

6187. Kachurka qushlar tanasining uzunligi necha sm? **20 sm.**

6188. Kachurkalarning nechta turi bor? **11 ta turi bor.**

6189. Kachurkalar qanday dumli urug'lardan iborat? **Ayri va to'g'ri dumli** urug'lardan iborat.

6190. Kachurkalarning oyog'i necha panjali? **To'rt panjali.**

6191. Kashalot, kashalotlar qanday jonivorlar kenja turkumiga mansub sut emizuvchi suv hayvoni? **Tishli kitlar kenja turkumiga mansub sut emizuvchi suv hayvoni.**

6192. Kashalotning tanasi uzunligi necha m? **20 m.**

6193. Kashalotning og'irligi qancha t? **30 – 70 t.**

6194. Kashalotning qaysi a'zosi juda katta, qo'pol, old tomoni to'mtoq? **Boshi.**

6195. Kashalotning ingichka va uzun pastki jag'ida necha juft tishi bor? **18 – 30 juft tishi bor.**

6196. Kashalotning yuqorigi jag'ida necha juft tishi bor? **Tishlari yo'q.**

6197. Kashalot qaerlarda tarqalgan? **Okean va ochiq dengizlarda tarqalgan.**

6198. Kashalot necha yoshida jinsiy yetiladi? **5 yoshida jinsiy yetiladi.**

6199. Kashalot necha yilcha yashaydi? **50 yilcha yashaydi.**

6200. Kashalotning bittasidan qancha t yog' olinadi? **9 – 10 t yog' olinadi.**

6201. Kvagga, yo'lbars ot qaerda tarqalgan? **Janubiy Afrikada tarqalgan.**

6202. Kvagga, yo'lbars ot qaysi hayvonlarning bir turi? **Zebralarning bir turi.**

6203. Kvagga, yo'lbars otning nechta kenja turi bor? **5 ta kenja turi bor.**

6204. Kvagga zebrasi qayerda tarqalgan? **Janubi-Sharqiy Afrikada tarqalgan.**

6205. Kvagga zebrasining ko'rinishi qaysi hayvonga o'xshash? **Otga o'xshash.**

6206. Kedrxo'r, yong'oqxo'r qaysi parrandalar turkumining qarg'asimonlar oilasiga mansub qush? **Chumchuqsimonlar turkumining qarg'asimonlar oilasiga mansub qush.**

6207. Kedrxo'rlarning bo'yi necha sm cha? **35 sm cha.**





6208. Kedrxo'rlar, asosan, nimalar bilan ovqatlanadi? **Kedrxo'rlar, asosan, ninabargli daraxtlarning yong'oqlari bilan ovqatlanadi.**

6209. Kedrxo'rlar nechta tuxum qo'yadi? **3 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

6210. Kedrxo'rlar tuxumini necha kun bosadi? **20 kun bosadi.**

6211. Kembriy davri boshlaridan (mil. dan 570 – 490 mln yil avv.) tashqi mineral skeletli (chig'anoqli yoki xitinli) dengiz umurtqasizlarining ko'pchilik qaysi guruhlari rivojlangan? **Trilobitalar, jabraoyoqlilar, mollyuskalar, arxeotsiatlar rivojlangan.**

6212. Kemiruvchilar, sudralib yuruvchilar, hasharot va boshqa mayda cho'l hayvonlari qaysi jarayon hisobiga bo'lganda, u xavfsiz hisoblanadi? **Oksidlanish hisobiga bo'lganda, u xavfsiz hisoblanadi.**

6213. Kemiruvchilar qaysi sinfga mansub hayvonlar turkumi? **Sut emizuvchilar sinfiga mansub hayvonlar turkumi.**

6214. Kemiruvchilarning qancha turi ma'lum? **1600 ta, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 2000 ga yaqin turi ma'lum.**

6215. Kemiruvchilarning tanasi uzunligi necha sm? **5 – 130 sm.**

6216. Kemiruvchilar (ko'pchilik)ning oyog'ida yer qazish (kovlash)ga moslashgan nimalari bor? **Tirnoqlari bor.**

6217. Kemiruvchilarning qaysi a'zosi uzunchoq? **Boshi uzunchoq.**

6218. Kemiruvchilarning tepasi qanday shaklda? **Yassi shaklda.**

6219. Kemiruvchilarning qaysi a'zosi bo'rtib chiqqan? **Ko'zi.**

6220. Kemiruvchilarning qayerida qilsimon mo'ylovi bor? **Labida.**

6221. Kemiruvchilarning qaysi tishlari ko'rinib turadi? **Qoziq tishlari ko'rinib turadi.**

6222. Kemiruvchilarning O'rta Osiyoda uchraydigan eng yiriklari qaysilar? **Jayra, sariq yumronqoziqlar.**

6223. Kemiruvchilar qayerlarga, qanday zarar keltiradi? **Beda ekiniga, daladagi g'allaga, tokzorlarga, mevali bog'larga zarar keltiradi va o'lat kasalligini tarqatadi.**

6224. Kemiruvchilardan qadimgi yumronqoziq O'zbekiston va Qirg'izistonning qaysi hududlarida tarqalgan? **Tog'li hududlarida tarqalgan.**

6225. Kemiruvchilardan qadimgi yumronqoziqning tanasi uzunligi necha sm cha? **22 sm cha.**

6226. Kemiruvchilardan qadimgi yumronqoziq nechtagacha bola tug'adi? **To'rttagacha bola tug'adi.**

6227. Kemiruvchilardan Turkiston olmaxoni O'rta Osiyo va Qozog'istonning qaysi hududlarida tarqalgan? **Tog'li hududlarida tarqalgan.**

6228. Kemiruvchilardan Turkiston olmaxonining tanasi uzunligi necha sm cha? **10 sm cha.**

6229. Kemiruvchilardan Turkiston olmaxoni mavsumda necha marta nechtadan bola tug'adi? **1 – 3 marta 2 – 6 tadan bola tug'adi.**

6230. Kemiruvchilardan kichik qo'shoyoq qayerlarda tarqalgan? **O'rta Osiyo, Janubiy va Markaziy Qozog'iston va boshq. joylarda tarqalgan.**

6231. Kemiruvchilardan kichik qo'shoyoq qaysi faslda uyquga kiradi? **Kuzda uyquga kiradi.**

6232. Kemiruvchilardan Turkiston kalamushi qayerlarda tarqalgan? **O'rta Osiyo va Qozog'istonda tarqalgan.**

6233. Kemiruvchilardan Severtsov sichqonining tanasi uzunligi necha sm? **9 – 10 sm.**

6234. Kemiruvchilardan ko'rsichqonlar qaysi hududlarda tarqalgan? **O'rta Osiyo, Qozog'iston, Zakavkaze va boshq. hududlarda tarqalgan.**

6235. Kemiruvchilardan ko'rsichqonlarning tanasi uzunligi necha sm? **9 – 12 sm.**

6236. Kemiruvchilardan ko'rsichqonlar qayerda yashaydi? **Yer ostida yashaydi.**

6237. Kemiruvchilardan ko'rsichqonlar mavsumda necha marta urchiydi? **3 marta urchiydi.**

6238. Kemiruvchilardan jamoatchi dala sichqon qayerlarda uchraydi? **Janubiy Qozog'istondagi tog'oldi yerlari hamda tog'larda, Qirg'iziston, Janubiy Turkmaniston va boshq. yerlarda uchraydi.**





6239. Kemiruvchilardan jamoatchi dala sichqonining kattaligi necha sm? **9 – 11 sm.**

6240. Kemiruvchilardan eversiman qumsichqoni yoki qizilqum qumsichqoni qayerlarda tarqalgan? **Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'izistonning ba'zi hududlarida tarqalgan.**

6241. Kemiruvchilardan eversiman qumsichqonining tanasi uzunligi necha sm cha? **15 sm cha.**

6242. Kemiruvchilardan eversiman qumsichqoni yiliga necha marta urchiydi? **3 – 4 marta urchiydi.**

6243. Kemiruvchilardan katta qumsichqon qayerlarda tarqalgan? **O'rta Osiyo va Qozog'iston cho'llarida tarqalgan.**

6244. Kemiruvchilardan katta qumsichqonning tanasi uzunligi necha sm? **17 – 20 sm.**

6245. Keng burunli qaysi hayvonlar kenja turkumining kaputsinlar oilasiga mansub? **Maymunlar kenja turkumining kaputsinlar oilasiga mansub.**

6246. Keng burunli maymunlar deyilishiga nima sabab? **Burun to'siqlarining kengligi.**

6247. Keng burunli maymunlar tor burunli maymunlardan qaysi a'zolarining soni va tuzilishi bilan farq qiladi? **Tishlarining soni va tuzilishi bilan farq qiladi.**

6248. Keng burunli maymunlarda ovqat saqlash nimasi bor? **Xaltasi bor.**

6249. Keng burunli maymunlar qayerlarda tarqalgan? **Markaziy va Janubiy Amerikada tarqalgan.**

6250. Keng burunli maymunlar nima uchun tutqunlikda ham saqlanadi? **Chunki kasallikka chalinuvchan bo'lganligi uchun tutqunlikda ham saqlanadi.**

6251. Keng burunli maymunlar nechta oilaga bo'linadi? Ular qaysilar? **Ikkita oilaga bo'linadi. Ular: O'ynoqi maymunlar, gajak dumli maymunlar oilasi.**

6252. Keng tarqalgan yo'lbars ambistomasimonlar (Ambystoma tiranum)ning uzunligi necha sm ga yetadi? **28 sm ga yetadi.**

6253. Kenguru qaysi orollarda va arxipelagda tarqalgan? **Avstraliyada, Yangi Gvineya, Tasmaniya orollarida, Bismark arxipelagida tarqalgan.**

6254. Kenguruga dastlab nechanchi yilda qayerlik kimning ko'zi tushgan? **1629-yilda gollandiyalik dengizchi Frank Pelsardning ko'zi tushgan.**

6255. Kenguru xaltali sut emizuvchilarning qaysi oilasi? **Kenja oilasi.**

6256. Kengurining tanasi uzunligi necha sm? **25 – 160 sm**

6257. Kenguru qancha turni birlashtirgan nechta urug'i bor? **55 tacha turi birlashtirgan 15 – 17 ta urug'i bor.**

6258. Kenguru yiliga necha marta bolalaydi? **Bir marta bolalaydi.**

6259. Kenguru nechta qanday bola tug'adi? **1 – 2 ta jish bola (gigant kenguru bolasi 3 sm cha) tug'adi.**

6260. Kenguruning homiladorlik davri necha kun? **30 – 40 kun.**

6261. Kenguru bolasi ona xaltasida necha oy yashaydi? **6 – 8 oy yashaydi.**

6262. Kengurusimonlar qanday sut emizuvchilar oilasi? **Xaltali sut emizuvchilar oilasi.**

6263. Kengurusimonlar tanasining uzunligi necha sm? **23 – 160 sm.**

6264. Kengurusimonlarning ko'pchilik turlari orqa oyoqlarida necha m gacha sakrab harakat qiladi? **10 m gacha sakrab harakat qiladi.**

6265. Kengurusimonlarning nechta kenja oilasi bor? **3 ta kenja oilasi bor.**

6266. Kengurusimonlarning qaysi oyoqlari ancha uzun va baquvvat? **Orqa oyoqlari ancha uzun va baquvvat.**

6267. Kengurusimonlarning nechtacha turi ma'lum? **50 tacha.**

6268. Kengurusimonlar qaysilar? **Kenguru, kengurusimon kalamushlar va kengurusimon mushukli kalamushlar bor.**

6269. Kenja turkumga mansub kaptarlar bir-biridan nimalari bilan farq qiladi? **Katta-kichikligi va rangi bilan farq qiladi.**

6270. Kenja qanotlilarning qaysi a'zolari yaxshi rivojlangan? **Ko'zlari yaxshi rivojlangan.**

6271. Kefallar qaysi turkumga mansub baliqlar oilasi? **Kefalsimonlar turkumiga mansub baliqlar oilasi.**

6272. Kefallarning og'zi qanday? **Kichik.**

6273. Kefallarning orqa suzgichi nechta? **Ikkita.**

6274. Kefallarning nechtacha urug'i bor? **14 tacha urug'i bor.**

6275. Kefallarning qancha turi bor? **150 dan ortiq turi bor.**





6276. Kefallar, asosan, qanday iqlimli dengizlarda tarqalgan? **Mo'tadil va issiq iqlimli dengizlarda tarqalgan.**

6277. Kefallarning sobiq Ittifoqda nechta turi uchragan? **8 ta turi uchragan.**

6278. Kefallarning og'irligi qancha kg gacha? **40 kg gacha.**

6279. Kefallarning jabra pardasi necha yoyli? **6 – 7 yoyli.**

6280. Kefallarning suzgichlari qanday? **Tikanli.**

6281. Kefallarning qorin suzgichlari necha nurli? **6 nurli.**

6282. Kefallarning tangachalari shakli qanday? **Sikloid yoki ktenoid.**

6283. Kefallarning nechta oilasi bor? **3 ta oilasi bor.**

6284. Kefallar qanday iqlimli dengizlarning qirg'oqqa yaqinroq qismida yashaydi? **Tropik va mo'tadil iqlimli dengizlarning qirg'oqqa yaqinroq qismida yashaydi.**

6285. Kefallar qaysi hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Detrit, bentos hayvonlar va baliqlar bilan ovqatlanadi.**

6286. Kefallarning okeanlarda qaysi turlari tarqalgan? **Loban yoki singil, o'tkir burunli kefal, hindiston kefali va boshq. keng tarqalgan.**

6287. Kefallarning ayrim turlari qaysi dengizlar sohillarida ham uchraydi? **Uzoq Sharq, Qora va Kaspiy dengizlari sohillarida ham uchraydi.**

6288. Kefallarning og'izdagi tishlari maxsus nimada joylashgan? **Chuqurchada joylashgan.**

6289. Kefallarning boshi qanday? **Kichik, tepadan pastga qarab siqilgan.**

6290. Kefallar qanday suzadi? **Juda tez suzadi.**

6291. Kefallar suvdan qanday chiqish xususiyatiga ega? **Sakrab (uchib) chiqish xususiyatiga ega.**

6292. Kefallarning keng tarqalgan lobanning uzunligi necha sm gacha? **90 sm gacha.**

6293. Kefallarning keng tarqalgan lobanning og'irligi qancha kg gacha? **6,7 kg gacha.**

6294. Kefallarning loban turi nima bilan ovqatlanadi? **Bentosdagi chirindi bilan ovqatlanadi.**

6295. Kefallar necha yoshida voyaga yetadi? **6 – 7 yoshida voyaga yetadi.**

6296. Kiang qaysi hayvonning kenja turi? **Qulonning kenja turi.**

6297. Kiang qaysi hayvonlar oilasiga mansub toq tuyoqli sut emizuvchi? **Otsimonlar oilasiga mansub toq tuyoqli sut emizuvchi.**

6298. Kivi qush qayerda yashaydi? **Yangi Zelandiyada yashaydi.**

6299. Kivisimonlar, qanotsizlar qaysi parrandalar turkumi? **Qushlar turkumi.**

6300. Kivisimonlar, qanotsizlarning oyoqlari necha barmoqli? **To'rt barmoqli.**

6301. Kivisimonlar, qanotsizlarning nechta turi bor? **3 ta turi bor.**

6302. Kivisimonlar, qanotsizlar qaerda tarqalgan? **Yangi Zelandiyada** tarqalgan.

6303. Kivisimonlar, qanotsizlarning og'irligi qancha kg? **1,4 – 4 kg.**

6304. Kivisimonlar yiliga necha marta urchiydi? **2 marta urchiydi.**

6305. Kivisimonlar nechta tuxum qo'yadi? **1 – 2 ta tuxum qo'yadi.**

6306. Kivisimonlar tuxumini erkagi bosadimi yoki modasi necha kun? **Erkagi 75 – 77 kun bosadi.**

6307. Kivsyaklar necha juftoyoqlilar kenja sinfiga mansub ko'poyoqlilar? **Ikki juftoyoqlilar kenja sinfiga mansub ko'poyoqlilar.**

6308. Kivsyaklar qaysi turkumlarning umumiy nomi? **Julida, Spirob lida, Spirostri prida turkumlarining.**

6309. Kivsyaklarning tanasi uzunligi necha sm? **1 – 30 sm.**

6310. Kivsyaklarning tana shakli qanday shaklda? **Silindrsimon shaklda.**

6311. Kivsyaklardan ayrimlarining bezlari suyuqligi qanday? **Zaharli.**

6312. Kivsyaklarning qancha turi qaysi mintaqalarda tarqalgan? **30 mingdan ortiq turi, asosan, tropik, subtropik va dasht mintaqalarda tarqalgan.**

6313. Kivsyaklarning qaysi turlari o'rmonlarda keng tarqalgan? **Kulrang kivsyak, qum kivsyagi, qrim kivsyagi turlari o'rmonlarda keng tarqalgan.**





6314. Kivsyaklar nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simlik qoldiqlari bilan ovqatlanadi.**

6315. Kivsyaklar nima hosil bo'lishida katta ahamiyatga ega? **Tuproq hosil bo'lishida katta ahamiyatga ega.**

6316. Kijuch qaysi okean lososlari urug'iga mansub baliq? **Tinch okean lososlari urug'iga mansub baliq.**

6317. Kijuch uvildiriq tashlash uchun dengizdan qayerga chiqadi? **Daryoga chiqadi.**

6318. Kijuch qaysi uruqqa mansub baliq? **Tinch okeani lososlari urug'iga mansub baliq.**

6319. Kijuchning og'irligi qancha kg? **3 – 4 kg.**

6320. Kijuchning bo'yi necha sm? **60 – 65 sm.**

6321. Kijuch balig'i qaysi fasllarda ko'payadi? **Kuzda va qishda ko'payadi.**

6322. Kijuch balig'i necha oyda voyaga yetadi? **15 – 16 oyda voyaga yetadi.**

6323. Kijuch uvildiriq tashlash uchun dengizdan qayerga chiqadi? **Daryoga chiqadi.**

6324. Kijuch balig'i govotslari necha yilgacha qayerda yashab, so'ng qayerga qaytadi? **1 – 2 yilgacha daryoda yashab, so'ng dengizga qaytadi.**

6325. Kiyiklarning kenja oilalariga qaysi kiyiklar kiradi? **Serna kiyiklar, Hindistonda tarqalgan to'rt shoxli kiyiklar, o'rmon kiyiklar, Kavkaz va Karpat tog'larida yashaydigan sernalar kiradi.**

6326. Kiyiklar qaysi oilaga mansub juft tuyoqli hayvonlarning bir guruhi? **Quvushshoxlilar oilasiga mansub juft tuyoqli hayvonlarning bir guruhi.**

6327. Kiyiklar qanday kattalikda bo'ladi? **Quyondan tortib, bo'kizgacha kattalikda bo'ladi.**

6328. Kiyiklarning Yevropada nechta turi bor? **Uchta turi bor.**

6329. Kiyiklarning Shimoliy Amerikada nechta turi bor? **Bitta turi bor.**

6330. Kiyiklarning O'zbekistonda nechta turi bor? **Ikkita turi bor.**

6331. Kiyiklarning O'zbekistonda uchraydigan turlarining nomlari nima? **Jayron, sayg'oq.**

6332. Kiyiklarga qaysi hayvonlardan tashqari barcha kavsh qaytaruvchilar kiritiladi? **Qoramollar, qo'ylar va echkilardan tashqari barcha kavsh qaytaruvchilar kiritiladi.**

6333. Kiyiklar qaysi oilaning kenja oilalarini birlashtiradi? **Quvushshoxlilar oilasining kenja oilalarini birlashtiradi.**

6334. Kiyiklar filogenetik jihatdan qaysi hayvonlarga yaqinroq? **Echkilar va sigirlarga yaqinroq.**

6335. Kiyiklarning asosiy kenja oilalari g'izollar yoki ohularga qaysi jonivor kiradi? **Jayron kiradi.**

6336. Kiyiklarning Hindistonda tarqalgan garna, sigirsimonlarga yoki buballarga Afrikada tarqalgan qaysi jonivorlar kiradi? **Kaama va gnular kiradi.**

6337. Kiyiklarga Afrikada yashaydigan qaysi jonivorlar kiradi? **Qora kiyik, beyza, kiyik-ho'kiz, serna kiyik, to'rt shoxli kiyik, o'rmon kiyiklari kiradi.**

6338. Kiyiklarning ko'p turlari qayerlarda yashaydi? **Afrikada, ayrim turlari Janubiy va Markaziy Osiyoda yashaydi.**

6339. Kiyiklarning ko'pchiligi qayerlarda qanday bo'lib yashaydi? **Cho'llarda, ayrim turlari o'rmonda poda bo'lib yashaydi.**

6340. Kiyiklar qanday? **Poligam.**

6341. Kiyiklar nimalari uchun ovlanadi? **Go'shti, terisi va shoxi uchun ovlanadi.**

6342. Kiyik-ho'kiz, passan qaysi hayvonlarning bir turi? **Kiyiklarning bir turi.**

6343. Kiyik-ho'kiz, passanning og'irligi qancha kg? **200 kg dan ortiq.**

6344. Kiyik-ho'kiz, passanning homiladorlik davri necha oy? **9 oy.**

6345. Kiyik-ho'kiz, passan bir yilda nechta bola tug'adi? **Bitta bola tug'adi.**

6346. Kinorinxlarning qanday chuvalchanglar sinfi? **Birlamchi tana bo'shliqli chuvalchanglar sinfi.**

6347. Kinorinxlarning uzunligi necha mm? **0,1 – 1 mm.**

6348. Kinorinxlarning tanasi qanday? **Yassi.**

6349. Kinorinxlarning tanasi nima bilan qoplangan? **Qalin kutila bilan qoplangan.**





6350. Kinorinxlarning tanasi nechta segmentga bo'lingan? **13 ta segmentga bo'lingan (bosh, bo'yin va 11 ta bo'g'im).**

6351. Kinorinxlarning tanasida nimalar bo'ladi? **Pixlar va ilmoqlar bo'ladi.**

6352. Kinorinxlar tanasining old qismi burilib chiqadigan qaysi a'zoni hosil qiladi? **Hartumni.**

6353. Kinorinxlarning ko'ndalang targ'il muskullari qanday bo'lib joylashgan? **Dasta bo'lib joylashgan.**

6354. Kinorinxlarning ichagi qanday? **Naysimon shaklda.**

6355. Kinorinxlarning asab sistemasi qaysi a'zolardan iborat? **Halqum atrofi asab halqasi va qorin asab stvolidan iborat.**

6356. Kinorinxlarning sezgi a'zolari qaysi a'zolaridan tashkil topgan? **Xartumdagi qillar va 1 – 2 juft pigment ko'zlaridan tashkil topgan.**

6357. Kinorinxlarning qaysi sistemasi – 1 juft protonefridiy? **Ayirish sistemasi.**

6358. Kinorinxlar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

6359. Kinorinxlar nima orqali rivojlanadi? **Metaford orqali rivojlanadi.**

6360. Kinorinxlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Bir hujayrali suv o'tlari va mikroorganizmlar bilan ovqatlanadi.**

6361. Kinorinxlarning nechta turkumi ma'lum? **2 ta turkumi ma'lum.**

6362. Kinorinxlarning qancha turi ma'lum? **100 ga yaqin turi ma'lum.**

6363. Kinorinxlar qayerlarda uchraydi? **Ko'pchilik dengizlarda uchraydi.**

6364. Kirpilar – hasharotxo'r sut emizuvchilar turkumining bir nimasi? **Oilasi.**

6365. Kit suv bilan og'ziga kirgan hayvonlardan suvni shu nimalar orqali sizdirib o'tkazib keyin ovqatlanadi? **Naychalar orqali sizdirib o'tkazib keyin ovqatlanadi.**

6366. Kit mo'ylovining soni nechtadan nechtagacha? **130 tadan (kulrang) 400 tagacha (yo'l-yo'l kitlar).**

6367. Kit mo'ylovi – mo'ylovli (tishsiz) kitlar qaysi jag'idagi shox plastinkalar? **Yuqori jag'idagi shox plastinkalar.**

6368. Kit mo'ylovi qaysi a'zosi cheti bo'ylab joylashgan? **Og'iz cheti bo'ylab joylashgan.**

6369. Kit mo'ylovining keng tomoni qaysi a'zo bo'shlig'iga o'girilgan? **Og'iz bo'shlig'iga o'girilgan.**

6370. Kit mo'ylovining kichik (tor) tomoni qayerga chuqur botib kirgan? **Milkka chuqur botib kirgan.**

6371. Kit mo'ylovi – mo'ylovli (tishsiz) kitlar yuqori jag'ida-gi shox plastinkalar bo'lib, ularning og'iz bo'shlig'iga o'girilgan qirralari qanday shox naychalardan iborat? **Uzun va ingichka shox naychalardan iborat.**

6372. Kit mo'ylovidagi naychalar bir-biri bilan tutashib, nima-ga o'xshash apparatni hosil qiladi? **G'alvirga o'xshash appa-ratni hosil qiladi.**

6373. Kitlar nechta turkumga bo'linadi? Ular qaysilar? **Ikkiga bo'linadi. Tishsiz (mo'ylovli) va tishli kitlar kenja turkum-lari.**

6374. Kitbosh qaysi turkumga mansub parranda? **Uzun oyoqli qushlar turkumiga mansub parranda.**

6375. Kitboshning tanasi uzunligi necha sm cha? **140 sm cha.**

6376. Kitbosh nechta tuxum qo'yadi? **2 ta tuxum qo'yadi.**

6377. Kitbosh Afrikadagi qaysi daryolarda butali botqoqliklar-da yashab, uya quradi? **Oq Nil va Kongo daryolarida butali botqoqliklarda yashab, uya quradi.**

6378. Kitsimonlar – suvda yashaydigan qaysi hayvonlar turku-mi? **Sut emizuvchilar turkumi.**

6379. Kitsimonlarning qancha turi bor? **100 ga yaqin turi bor.**

6380. Kitsimonlarning Uzoq Sharq va Shimoliy dengizlarda nechta oilaga mansub nechta turi uchraydi? **6 ta oilaga mansub 21 ta turi uchraydi.**

6381. Kitsimonlarning bo'yi necha m dan necha m gacha? **1,2 m dan (dengiz cho'chqasi) 33 m gacha (ko'k kit).**

6382. Kitsimonlar turkumiga qaysi hayvonlar kiradi? **Mo'ylovli kitlar, delfinlar, kashalotlar kiradi.**

6383. Kitsimonlarning nimalari suv muhitga moslashgan? **Tu-zilishi va hayoti suv muhitiga moslashgan.**

6384. Kitsimonlarning qaysi oyog'i (oldingimi yoki orqami) bo'lmaydi? **Orqa oyog'i bo'lmaydi.**





6385. Kitsimonlarning oldingi oyoqlari qanday vazifa bajara-digan kurakka aylangan? **Boshqaruv vazifasini bajaradigan kurakka aylangan.**

6386. Kitsimonlarning qaysi a'zosi yalang'och, qanday modda bilan qoplangan? **Terisi, shilimshiq modda bilan qoplangan.**

6387. Kitsimonlarning dum suzgichlari necha bo'lakdan iborat? **Ikki bo'lakdan iborat.**

6388. Kitsimonlar nima uchun suv beti (yuzi)ga suzib chiqadi? **Nafas olish uchun suv beti (yuzi)ga suzib chiqadi.**

6389. Kitsimonlar qaysi a'zosini havo bilan to'ldirib oladi? **O'pkasini havo bilan to'ldirib oladi.**

6390. Kitsimonlarning qaysi a'zosi ustiga o'rnashgan tashqi burun teshiklari ochilib yopilib turadigan qopqoqlar bor? **Boshi ustiga o'rnashgan tashqi burun teshiklari ochilib yopilib turadigan qopqoqlar bor.**

6391. Kitsimonlarning qaysi a'zosidan suv aralash havo fav-vora bo'lib otilib turadi? **Burun teshigidan suv aralash havo favvora bo'lib otilib turadi.**

6392. Kitsimonlarning homiladorlik davri necha yil? **Bir yil.**

6393. Kitsimonlarning bolasi necha oy onasini emadi? **4 – 8 oy onasini emadi.**

6394. Kitsimonlar necha yoshida voyaga yetadi? **3 yoshida voyaga yetadi.**

6395. Kitsimonlarning sut bezlari muskuli maxsus nimada joylashgan? **Cho'ntakda joylashgan.**

6396. Kitsimonlar necha m gacha chuqurlikka sho'ng'iydi? **200 m gacha chuqurlikka sho'ng'iydi.**

6397. Kitsimonlar qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Mol-lyuskalar, qisqichbaqalar va boshq. umurtqasiz hayvonlar, baliqlar bilan ovqatlanadi.**

6398. Kitsimonlar suv ostida qancha vaqt tura oladi? **Bir soat va undan ortiq vaqt tura oladi.**

6399. Kitsimonlar nechta turkumga bo'lingan? Ular qaysilar? **2 ta turkumga bo'lingan. Ular: tishsiz (mo'ylovli) va tishli kitlar kenja turkumlari.**

6400. Kitsimonlar qaysi dengizlardan tashqari barcha dengiz va okeanlarda uchraydi? **Kaspiy va Orol dengizlaridan tashqa-ri barcha dengiz va okeanlarda uchraydi.**

6401. Kitsimonlar qaerdagi yirik daryolarda uchraydi? **Tropikdagi yirik daryolarda uchraydi.**

6402. Kitsimonlarning iqtisodiy ahamiyati qanday? **Katta.**

6403. Kitsimonlarning yog'ida nimalar tayyorlashda foydalaniladi? **Glitserin, margarin, sovun tayyorlashda foydalaniladi.**

6404. Kitsimonlarning go'shtidan nima tayyorlanadi? **Konserva tayyorlanadi.**

6405. Kitsimonlarning suyagidan nima tayyorlanadi? **Talqon tayyorlanadi.**

6406. Kitsimonlarning qaysi a'zosida A vitamin ko'p bo'ladi? **Jigarida A vitamin ko'p bo'ladi.**

6407. Kitsimonlarning nechta katta turi va kenja turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **18 ta katta turi va bitta kenja turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

6408. Kitsimonlarning sut bezlaridan qachon sut otilib chiqadi? **Muskullar qisqarganida katta bosim ostida sut otilib chiqadi.**

6409. Kitsimonlarning sut bezlari soni nechtadan nechtagacha va joylashishishi qanday? **2 tadan 20 tagacha va joylashishi har xil.**

6410. Kitsimon delfinlar qaysi oilaning bir urug'i hisoblanadi? **Delfinlar oilasining bir urug'i hisoblanadi.**

6411. Kitsimon delfinlarning tanasi uzunligi necha m gacha bo'ladi? **2,5 m gacha bo'ladi.**

6412. Kitsimon delfinlarning qaysi a'zosi bo'lmaydi? **Orqa suzgichi bo'lmaydi.**

6413. Kitsimon delfinlarning qaysi a'zosidagi yog' yostiqchasi past? **Boshidagi yog' yostiqchasi past.**

6414. Kitsimon delfinlarning tumshug'i qanday? **Ingichka.**

6415. Kitsimon delfinlarning nechta turi bor? **Ikkita turi bor.**

6416. Kitsimon delfinlar turining nomlari nima? **Shimoliy kitsimon delfinlar – Tinch okeanining shimoliy qismida, jumladan, Uzoq Sharq dengizlarida; janubiy kitsimon delfinlar – Janubiy yarim sharning mo'tadil iqlimidan Antarktidagacha bo'lgan okean va dengizlarda tarqalgan.**





6417. Kichik amudaryo soxta kurakburunlilarning uzunligi necha sm gacha? **27 sm gacha.**

6418. Kichik burgut qaysi turkumning qarchig'aysimonlar oilasiga mansub qush? **Yirtqich qushlar turkumining qarchig'aysimonlar oilasiga mansub qush.**

6419. Kichik burgutning tanasi uzunligi necha sm? **46 – 53 sm.**

6420. Kichik burgutning qanoti uzunligi necha sm? **35 – 43,5 sm.**

6421. Kichik burgut qaysi oyda nechta tuxum qo'yadi? **May oyida 1 – 3 ta tuxum qo'yadi.**

6422. Kichik burgut qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Osiyo, Afrika va Avstraliyada tarqalgan.**

6423. Kichik burgut O'zbekistonning qaysi joylarida yashab, qachon qishlash uchun qayerlarga uchib ketadi? **Tog'li joylarida yashab, kuzda qishlash uchush Hindiston, Afrikaga uchib ketadi.**

6424. Kichik burgut uyasini qayerlarga quradi? **Baland daraxtlarga, qoyalarga quradi.**

6425. Kichik burgut yirtqich bo'lib, boshqa burgutlarga nisbatan qanday uchadi? **Tez va chaqqon uchadi.**

6426. Kichik burgutning panjalari qanday? **Baquvvat.**

6427. Kichik burgutning barmoqlari qanday? **Uzun.**

6428. Kichik burgutning tirnoqlari qanday? **O'tkir.**

6429. Kichik burgutlar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda sut emizuvchilar va qushlar bilan ovqatlanadi.**

6430. Kichik kuduning balandligi necha sm cha? **100 sm cha.**

6431. Kichik kudu qayerda tarqalgan? **G'arbiy Afrikada tarqalgan.**

6432. Kichik ko'lbuqalar qaysi qushlar turkumining qarqaralar oilasiga mansub parrandalar? **Uzun oyoqli qushlar turkumining qarqaralar oilasiga mansub parrandalar.**

6433. Kichik ko'lbuqalarning nechta turi bor? **10 ta turi bor.**

6434. Kichik ko'lbuqalarning nechta turi O'zbekistonda bor? **1 ta turi O'zbekistonda bor.**

6435. Kichik ko'lbuqalarning og'irligi qancha g ga yaqin? **145 g ga yaqin.**

6401. Kitsimonlar qaerdagi yirik daryolarda uchraydi? **Tropikdagi yirik daryolarda uchraydi.**

6402. Kitsimonlarning iqtisodiy ahamiyati qanday? **Katta.**

6403. Kitsimonlarning yog'idan nimalar tayyorlashda foydalaniladi? **Glitserin, margarin, sovun tayyorlashda foydalaniladi.**

6404. Kitsimonlarning go'shtidan nima tayyorlanadi? **Konserva tayyorlanadi.**

6405. Kitsimonlarning suyagidan nima tayyorlanadi? **Talqon tayyorlanadi.**

6406. Kitsimonlarning qaysi a'zosida A vitamin ko'p bo'ladi? **Jigarida A vitamin ko'p bo'ladi.**

6407. Kitsimonlarning nechta katta turi va kenja turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **18 ta katta turi va bitta kenja turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

6408. Kitsimonlarning sut bezlaridan qachon sut otilib chiqadi? **Muskullar qisqarganida katta bosim ostida sut otilib chiqadi.**

6409. Kitsimonlarning sut bezlari soni nechtadan nechtagacha va joylashishishi qanday? **2 tadan 20 tagacha va joylashishi har xil.**

6410. Kitsimon delfinlar qaysi oilaning bir urug'i hisoblanadi? **Delfinlar oilasining bir urug'i hisoblanadi.**

6411. Kitsimon delfinlarning tanasi uzunligi necha m gacha bo'ladi? **2,5 m gacha bo'ladi.**

6412. Kitsimon delfinlarning qaysi a'zosi bo'lmaydi? **Orqa suzgichi bo'lmaydi.**

6413. Kitsimon delfinlarning qaysi a'zosidagi yog' yostiqchasi past? **Boshidagi yog' yostiqchasi past.**

6414. Kitsimon delfinlarning tumshug'i qanday? **Ingichka.**

6415. Kitsimon delfinlarning nechta turi bor? **Ikkita turi bor.**

6416. Kitsimon delfinlar turining nomlari nima? **Shimoliy kitsimon delfinlar – Tinch okeanining shimoliy qismida, Uzoq Sharq dengizlarida; janubiy kitsimon delfinlar – Janubiy yarim sharning mo'tadil iqlimidan Antarktidagacha bo'lgan okean va dengizlarda tarqalgan.**





6417. Kichik amudaryo soxta kurakburunlilarning uzunligi necha sm gacha? **27 sm gacha.**

6418. Kichik burgut qaysi turkumning qarchig'aysimonlar oilasiga mansub qush? **Yirtqich qushlar turkumining qarchig'aysimonlar oilasiga mansub qush.**

6419. Kichik burgutning tanasi uzunligi necha sm? **46 – 53 sm.**

6420. Kichik burgutning qanoti uzunligi necha sm? **35 – 43,5 sm.**

6421. Kichik burgut qaysi oyda nechta tuxum qo'yadi? **May oyida 1 – 3 ta tuxum qo'yadi.**

6422. Kichik burgut qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Osiyo, Afrika va Avstraliyada tarqalgan.**

6423. Kichik burgut O'zbekistonning qaysi joylarida yashab, qachon qishlash uchun qayerlarga uchib ketadi? **Tog'li joylarida yashab, kuzda qishlash uchush Hindiston, Afrikaga uchib ketadi.**

6424. Kichik burgut uyasini qayerlarga quradi? **Baland daraxtlarga, qoyalarga quradi.**

6425. Kichik burgut yirtqich bo'lib, boshqa burgutlarga nisbatan qanday uchadi? **Tez va chaqqon uchadi.**

6426. Kichik burgutning panjalari qanday? **Baquvvat.**

6427. Kichik burgutning barmoqlari qanday? **Uzun.**

6428. Kichik burgutning tirnoqlari qanday? **O'tkir.**

6429. Kichik burgutlar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda sut emizuvchilar va qushlar bilan ovqatlanadi.**

6430. Kichik kuduning balandligi necha sm cha? **100 sm cha.**

6431. Kichik kudu qayerda tarqalgan? **G'arbiy Afrikada tarqalgan.**

6432. Kichik ko'lbuqalar qaysi qushlar turkumining qarqaralar oilasiga mansub parrandalar? **Uzun oyoqli qushlar turkumining qarqaralar oilasiga mansub parrandalar.**

6433. Kichik ko'lbuqalarning nechta turi bor? **10 ta turi bor.**

6434. Kichik ko'lbuqalarning nechta turi O'zbekistonda bor? **1 ta turi O'zbekistonda bor.**

6435. Kichik ko'lbuqalarning og'irligi qancha g ga yaqin? **145 g ga yaqin.**

6436. Kichik ko'lbuqalar O'zbekistonga qaysi oyda uchib keladi? **Mart oyida uchib keladi.**

6437. Kichik ko'lbuqalar nechta tuxum qo'yadi? **4 – 9 ta tuxum qo'yadi.**

6438. Kichik ko'lbuqalar tuxumini necha kun bosadi? **17 – 20 kun bosadi.**

6439. Kichik ko'lbuqalar qaysi oylarda O'rta Osiyoga uchib keladi? **Mart – may oylarida O'rta Osiyoga uchib keladi.**

6440. Kichik ko'lbuqalar qaysi qit'alarda uchraydi? **Yevropa, Osiyo, Afrika va Avstraliyada uchraydi.**

6441. Kichik ko'lbuqalar uyasini qayerlarga quradi? **To'qayzorlarga quradi.**

6442. Kichik ko'lbuqalar qachongi qush? **Tungi qush.**

6443. Kichik ko'lbuqalar qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Baliq, baqa, itbaliq, umurtqasiz hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

6444. Kichik oqqushlarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **120 sm gacha.**

6445. Kichik oqqushlarning og'irligi qancha kg gacha? **7 kg gacha.**

6446. Kichik oqqushlar, asosan, qayerda yashaydi? **Tundrada yashaydi.**

6447. Kichik oqqushlar qayerlarga uya quradi? **Chuchuk suvli ko'l, ba'zan dengiz qirg'oqlaridagi qamishzorlarga uya quradi.**

6448. Kichik oqqushlarning urg'ochisi nechta tuxum qo'yib, necha kun bosadi? **5 – 12 kun tuxum qo'yib, 35 – 40 kun bosadi.**

6449. Kichik oqqushlarning qaysi biri (narimi yoki modasimi) uya qurishda va bolalarini boqishda qatnashadi? **Nari ham uya qurishda va bolalarini boqishda qatnashadi.**

6450. Kichik suv ayg'irining gavdasi uzunligi necha m? **1,5 – 1,75 m.**

6451. Kichik suv ayg'irining og'irligi qancha kg? **160 – 240 kg.**

6452. Klintux kaptari (C. oenas) qaysi hududlarda tarqalgan? **Sharqiy hududlarda tarqalgan.**

6453. Kloakalilar, bir teshiklilar, tuxum qo'yuvchilar – qaysi jonivorlar turkumi? **Sut emizuvchilar turkumi.**





6454. Kloakalilarning nechta oilasi bor? Ular qaysilar? **Ikkita oilasi bor. Ular: o'rdakburunlar va exidnalar.**

6455. Kloakalilarning har oilasiga nechtadan tur kiradi? **Beshtadan tur kiradi.**

6456. Kloakalilar nechta tuxum qo'yadi? **1 – 2 ta, ba'zan 3 ta** tuxum qo'yadi.

6457. Kloakalilarning exidnalar oilasidagi exidnalar tuxumini alohida nimasida bola chiqquncha olib yuradi? **Xaltasida bola chiqquncha olib yuradi.**

6458. Kloakalining o'rdakburunlar oilasidagi o'rdakburun tuxumini qayerda bosib yotadi? **Uyasida bosib yotadi.**

6459. Kloakalilarning ichak va siydik jinsiy kanallari qayerga umumiy teshik-kloakaga ochiladi (nomi ham shundan)? **Tashqariga umumiy teshik-kloakaga ochiladi.**

6460. Kloakalilar qanday qopli? **Issiqqopli.**

6461. Kloakalilar qayerlarda tarqalgan? **Avstraliya, Tasmaniya va Yangi Gvineyada tarqalgan.**

6462. Kloakalilar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Chuvalchanglar, chumolilar bilan ovqatlanadi.**

6463. Kloakalilar sut emizuvchilar (o'rdakburun, exidnalar) erkaklarining zahar bezlari qaysi a'zolariga joylashgan? **Orqa oyoqlariga joylashgan.**

6464. Kloakalilar, tuxum qo'yuvchilar, bir teshiklilar, dastlabki darrandalar – hozirgi sut emizuvchilarning eng tuban tuzilgan kenja sinfi bo'lib, qazilma qoldiqlari qayerlarda qaysi davr qatlamlaridan ma'lum? **Avstraliya va Janubiy Amerikada pleystotsen davri qatlamlaridan ma'lum.**

6465. Kloakalilarning yuragi va bosh miyasi tuzilishi qaysi jonivorlarnikiga o'xshaydi? **Sudralib yuruvchilarnikiga o'xshaydi.**

6466. Kloakalilarning tanasi uzunligi necha sm? **30 – 80 sm.**

6467. Kloakalilarning voyaga yetganlarida qaysi a'zo bo'lmaydi? **Tish bo'lmaydi.**

6468. Kloakalilarning oshqozonida qanday bezlar yo'q? **Hazm bezlari yo'q.**

6469. Kloakalilarning jinsiy va ayirish sistemasi nayi, qaysi a'zosi kloakaga ochiladi? **Ichagi a'zosi kloakaga ochiladi.**

6470. Kloakalilarning tana harorati nisbatan past bo'lib, qancha ° C dan qancha ° C gacha? **25° C dan 36° C gacha.**

6471. Kloakalilar bolasini nima bilan boqadi? **Sut bilan boqadi.**

6472. Kloakalilar sut bezlarining nimasi bo'lmaydi? **So'rg'ichi bo'lmaydi.**

6473. Kloakalilarning suti qayerga oqib chiqadi? Bolasi uni nima qiladi? **Terisi ustiga oqib chiqadi. Yalaydi.**

6474. Klostridiylar – spora hosil qiluvchi bakteriyalar turkumi bo'lib, qanday shaklda? **Tayoqchasimon shaklda.**

6475. Klostridiylar qanday organizmlar? **Mezofil va termofil organizmlar.**

6476. Klostridiylarning qancha turi qayerlarda uchraydi? **50 dan ortiq turi tuproqda. Balchiqda va oziq-ovqat mahsulotlarida uchraydi.**

6477. Klostridiylarning ayrimlari atmosferadagi qaysi kimyoviy elementni bog'laydi? **Azot elementini bog'laydi.**

6478. Klostridiylarning saxarolitik turidan sanoatda qanday modda olishda foydalaniladi? **Atseton va butanol moddalari olishda foydalaniladi.**

6479. Knidosporidiyalar qanday hayvonlar guruhi? **Parazit, bir hujayrali hayvonlar guruhi.**

6480. Koala, vombat kabi hayvonlar qaysi materikda yashaydi? **Avstraliya materigida yashaydi.**

6481. Koala qaerda yashaydi? **Sharqiy Avstraliya o'rmonlarida yashaydi.**

6482. Koala, xaltali ayiq qaysi sinfga mansub hayvon? **Xaltali sut emizuvchilar kenja sinfiga mansub hayvon.**

6483. Koala, xaltali ayiqning tanasi uzunligi necha m cha? **0,6 m cha.**

6484. Koala, xaltali ayiqning oyog'i necha barmoqli? **5 barmoqli.**

6485. Koala, xaltali ayiq necha yilda bir marta tug'adi? **Ikki yilda bir marta tug'adi.**

6486. Koala, xaltali ayiqning homiladorlik davri necha kun? **30 – 35 kun.**

6487. Koala bolasini qayerida olib yuradi? **Xaltasida olib yuradi.**





6488. Koala necha yil yashaydi? **12 – 20 yil yashaydi.**

6489. Koalaning qaysi a'zosida ovqat saqlovchi xaltasi bo'ladi? **Og'iz bo'shlig'ida ovqat saqlovchi xaltasi bo'ladi.**

6490. Koalaning ko'rinishi qaysi hayvonga o'xshash? **Ayiqqa o'xshash.**

6491. Koala kunduzi faolmi yoki tunda? **Tunda faol.**

6492. Koalaning boshidagi qaysi a'zosi katta? **Qulog'i katta.**

6493. Koalaning tirnog'i qanday? **Baquvvat.**

6494. Koalaning qaysi a'zosi yo'q? **Dumi yo'q.**

6495. Koala nimalar bilan ovqatlanadi? **Barg va kurtaklar bilan ovqatlanadi.**

6496. Koala bolasini nimasida olib yuradi? **Xaltasida olib yuradi.**

6497. Koala soni nima uchun kamayib ketgan? **Mo'ynasi uchun ko'plab ovlanganidan kamayib ketgan.**

6498. Koala qanday hayvon? **Juda yuvosh hayvon.**

6499. Koatalar, o'rgimchaksimon qora maymunlar qanday dumli maymunlar oilasiga mansub maymunlar urug'i? **Gajak dumli.**

6500. Koatalarning nechta turi bor? **4 ta turi bor.**

6501. Koatalarning tanasi uzunligi necha sm? **70 sm.**

6502. Koatalarning dumi necha sm cha? **90 sm cha.**

6503. Koatalarda qaysi barmoq bo'lmaydi? **Bosh barmoq bo'lmaydi.**

6504. Koatalar qayerdagi tropik o'rmonlarda nechtadan gala bo'lib yashaydi? **Janubiy va Markaziy Amerikadagi tropik o'rmonlarda 10 – 12 tadan gala bo'lib yashaydi.**

6505. Koatalar har yili nechta bola tug'adi? **1 ta bola tug'adi.**

6506. Koatalarning homiladorlik davri necha kun? **140 kun.**

6507. Koatalar qaysi a'zolari yordamida daraxt shoxlarini tutib harakat qiladi? **Oldingi oyoqlari va dumi yordamida daraxt shoxlarini tutib harakat qiladi.**

6508. Koatalar qanday bo'lib yurishadi? **Oila yoki gala bo'lib yurishadi.**

6509. Kobralar qaysi jonivorlarning bir urug'i? **Ilonlarning bir urug'i.**

6510. Kobralar qaysi oilaga mansub? **Aspidlar oilasiga mansub.**

6511. Kovakichlilar, asosan, qayerlarda qanday holda yashaydi? **Dengizlarda yakka yoki koloniya holda yashaydi.**

6512. Kovakichlilar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

6513. Kovakichlilar tanasi necha qavat hujayralardan iborat? Ular qaysilar? **Ikki qavat hujayralardan iborat. Ular quyidagilar: ektoderma va endoderma hujayralar.**

6514. Kovakichlilarda jinsiy hujayralar qayerga chiqadi va u yerda nima bo'ladi? **Tashqariga chiqadi va shu yerda otalanadi.**

6515. Kovakichlilarning sobiq Ittifoqda qancha turi ma'lum? **500 ga yaqin turi ma'lum.**

6516. Kovakichlilar qaysi dengizlarda tarqalgan? **Hamma dengizlarda tarqalgan.**

6517. Kovakichlilarning hammasi qanday? **Yirtqich.**

6518. Kovakichlilardan qaysilari zeb-ziynat ishlashda qadrlanadi? **Qizil va qora marjon poliplar ishlashda qadrlanadi.**

6519. Kovakichlilardan meduzalarning ba'zi turlari tuzlangan holda qayerda ovqatga ishlatiladi? **Janubi-g'arbiy Osiyoda ovqatga ishlatiladi.**

6520. Kovakichlilar tipi nechta sinfga bo'linadi? Ular qaysilar? **Uchta sinfga bo'linadi. Ular: gidroidlar, stsifoidlar va marjon poliplar.**

6521. Koyot, o'tloq bo'risi qaysi oilaga mansub yirtqich sut emizuvchi hayvon? **Itlar oilasiga mansub yirtqich sut emizuvchi hayvon.**

6522. Koyotning tanasi uzunligi necha sm cha? **90 sm cha.**

6523. Koyotning dumi necha sm cha? **30 sm cha.**

6524. Koyotning og'irligi qancha kg cha? **13 kg cha.**

6525. Koyotning juni bo'rinikidan kaltaroqmi yoki uzunroq? **Uzunroq.**

6526. Koyot junining rangi qanday? **Qo'ng'ir.**

6527. Koyot junida qanday dog'lari bor? **Qora va kulrang dog'lari bor.**

6528. Koyot qayerdan qayergacha tarqalgan? **Alyaskadan Markaziy Amerikagacha tarqalgan.**

6529. Koyot qayerlarda qanday bo'lib yashaydi? **Yalangliklarda juft-juft bo'lib yashaydi.**

6530. Koyot qaysi oyda urchiydi? **Yanvar oyida urchiydi.**

6531. Koyotning homiladorlik davri necha kun? **60 – 65 kun.**





6532. Koyot nechta bola tug'adi? **5 – 10 ta bola tug'adi.**

6533. Koyot qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Quyonlar, kemiruvchilar, murdalar bilan ovqatlanadi.**

6534. Koyotlar ba'zan qaysi hayvonlarga hujum qiladi? **Qo'y va echkilarga hujum qiladi.**

6535. Koyotlar qayerga yaxshi moslanishi tufayli areali kengayib bormoqda? **Tashqi muhitga yaxshi moslashgani tufayli areali kengayib bormoqda.**

6536. Kokildor arguslar (Ph. Ocellota) qayerlarda tarqalgan? **Laos, Vetnam va Malakkaning tog' o'rmonlarida tarqalgan.**

6537. Kokilli suralay g'ozlar qayerlarda uchraydi? **Primore o'lkasining janubiy qismida, Koreya va Yaponiyada uchraydi.**

6538. Kokklar (yunon. kokkos – don) qanday bakteriyalar? **Harakatsiz sharsimon bakteriyalar.**

6539. Kokklarning diametri qancha mk? **0,5 – 0,4 mk.**

6540. Kokklar nimalar hosil qilmaydi? **Sporalar hosil qilmaydi.**

6541. Kokklar hujayralarining bo'linish soni va ularning bir-biriga nisbatan joylashish tartibiga qarab qanday shakllari bilan farq qiladi? **Mikrokokklar, diplokokklar, streptokokklar, tetrakokklar, sartsinalar, stafilokokklar.**

6542. Kokklarning ko'pchiligi qanday? **Grammusbat, ayrimlari grammanfiy.**

6543. Kokklar yashash sharoitiga ko'ra, qanday bo'ladi? **Aerob yoki anaerob bo'ladi.**

6544. Kokklarning qaysi turlari yallig'lanish va yiringli kasalliklarni qo'zg'atadi? **Patogen turlari yallig'lanish va yiringli kasalliklarni qo'zg'atadi.**

6545. Koktsidlar qaysi hasharotlarning kenja turkumi? **Teng qanotli hasharotlarning kenja turkumi.**

6546. Koktsidlar qaysi birlari (erkagimi yoki urg'ochisimi) chala rivojlangan, qanotsiz, harakatlanmaydi? **Urg'ochilari chala rivojlangan, qanotsiz, harakatlanmaydi.**

6547. Koktsidlarning qancha turi bor? **7 mingtacha turi bor.**

6548. Koktsidlarning O'rta Osiyoda nechta turi qayd etilgan? **120 ta turi qayd etilgan.**

6549. Koktsidlar yilda necha marta po'st tashlaydi? **3 – 4 marta po'st tashlaydi.**

6550. Koktsidlarning kattaligi necha mm? **1 – 7 mm.**

6551. Koktsidlarning cho'zinchoq yoki shakllari-sporozoit va merozoitlar qanday harakat qiladi? **Faol harakat qiladi.**

6552. Koktsidlarning qaysi birlari (erkagimi yoki urg'ochisimi) juft qanotli, ba'zan qanotsiz bo'ladi? **Erkaklari juft qanotli, ba'zan qanotsiz bo'ladi.**

6553. Koktsidlarning lichinka va urg'ochilari nimadan ovqatlanadi? **O'simlik shirasidan ovqatlanadi.**

6554. Koktsidlar orasida foydali turlari ham uchrab, ulardan nima maqsadda foydalaniladi? **Bo'yoq beruvchi qurtlar tomonidan ajralib chiqadigan yelimsimon moddalar koshenil bo'yog'i olish uchun foydalaniladi.**

6555. Koktsidiyalarning qancha turi bor? **1000 ga yaqin turi bor.**

6556. Koktsidiyalar qaysi sinfga mansub bir hujayrali hayvonlar turkumi? **Sportlilar sinfiga mansub bir hujayrali hayvonlar turkumi.**

6557. Koktsidiyalar qaysi hayvonlar a'zolarining qayerlarida parazitlik qiladi? **Umurtqali va umurtqasiz hayvon a'zolaring epitelniy to'qima hujayralarida parazitlik qiladi.**

6558. Kolibrilar uzun qanotlilar turkumining qaysi turkumi sanaladi? **Kenja turkumi sanaladi.**

6559. Kolibrilar nechta turni birlashtiradi? **319 ta turni birlashtiradi.**

6560. Kolibrilar, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Asosan, Markaziy va Janubiy Amerikada, qisman Shimoliy Amerikada tarqalgan.**

6561. Kolibri qayerda yurolmaydi? **Yerda yurolmaydi.**

6562. Kolibri qushlar orasida eng kichigi bo'lib, ayrimlari qaysi jonivordek keladi? **Qovoqaridek keladi.**

6563. Kolibri qushlar orasida eng kichigi bo'lib, og'irligi qancha g? **1,6 – 20 g.**

6564. Kolibri qushlari og'irligi qancha g lik nechta tuxum qo'yadi? **0,2 g lik 2 ta tuxum qo'yadi.**

6565. Kolibri qushining tanasi og'irligi necha foizni tashkil etadi? **2,85 foizni tashkil etadi.**

6566. Kolibrining bolasi necha oyda uchirma bo'ladi? **Bir oyda uchirma bo'ladi.**





6567. Kolovratkalar, boshaylangichlilar qanday chuvalchanglar tipiga mansub umurtqasiz hayvonlar sinfi? **To'garak chuvalchanglar tipiga mansub umurtqasiz hayvonlar sinfi.**

6568. Kolovratkalarning bo'yi necha mm? **0,04 – 2,5 mm.**

6569. Kolovratkalarning nechtacha turi bor? **2000 tacha turi bor.**

6570. Kolovratkalarning tanasi nima bilan qoplangan? **Kutila bilan qoplangan.**

6571. Kolovratkalar necha bo'limdan iborat? **3 bo'limdan iborat.**

6572. Kolovratkalar qanday bo'limlardan iborat? **Bosh, tana va oyoqdan iborat.**

6573. Kolovratkalarda qaysi sistema yo'q? **Qon aylanish va nafas olish sistemasi yo'q.**

6574. Kolovratkalarning bosh tomonida doira bo'lib, necha qator joylashgan kipriklari og'iz aylangich apparatni hosil qiladi? **2 qator joylashgan kipriklari og'iz aylangich apparatni hosil qiladi.**

6575. Kolovratkalar nimalarining ma'lum tomonga qarab tebranishi natijasida harakatlanadi? **Kipriklarining ma'lum tomonga qarab tebranishi natijasida harakatlanadi.**

6576. Kolovratkalar qanday suzib yuradi? **Kipriklarining ma'lum tomonga qarab bir me'yorda tebranishi tufayli suzib yuradi.**

6577. Kolovratkalarning sezgi a'zosi qaysi a'zolardan iborat? **Ko'z (ko'pincha bitta) va paypaslagichlardan iborat.**

6578. Kolovratkalarning ayrim juft a'zosi nima tipida? **Protonefridiy tipida.**

6579. Kolovratkalarning erkaklari ancha kichikmi yoki urg'ochilari? **Erkaklari ancha kichik.**

6580. Kolovratkalar qanday suvlarda, ba'zan qayerlarda yashaydi? **Chuchuk va sho'rtob suvlarda, ba'zan dengiz va tuproqda yashaydi.**

6581. Kolonok qaysi oilaga mansub yirtqich sut emizuvchi? **Susarsimonlar oilasiga mansub yirtqich sut emizuvchi.**

6582. Kolonokning homiladorlik davri necha kunga yaqin? **30 kunga yaqin.**

6583. Kolonok nechta bola tug'adi? **7 – 10 ta bola tug'adi.**

6584. Kolonok Rossiyada qayerdan qayergacha bo'lgan hududda uchraydi? **Uzoq Sharqdan Uralgacha bo'lgan hududda uchraydi.**

6585. Kolonok, asosan, qayerda yashaydi? **Asosan, Osiyoda yashaydi.**

6586. Kolonok qaysi oylarda urchiydi? **Fevral – mart oylarida urchiydi.**

6587. Kolonokning nimasi qimmatli? **Mo'ynasi qimmatli.**

6588. Kolonok qaysi ko'l atrofida va orolda iqlimlashtirilgan? **Issiqko'l atrofida va Saxalin orolida iqlimlashtirilgan.**

6589. Koloniya bo'lib yashovchi gidrasimonlarda jinssiz bo'g'in, jinsiy bo'g'in nimalar bilan almashinib turadi? **Jinssiz – polip, jinsiy bo'g'in – meduza bilan almashinib turadi.**

6590. Kolorado kartoshka qo'ng'izi qaysi oilaga mansub hasharot? **Bargxo'rlar oilasiga mansub hasharot.**

6591. Kolorado kartoshka qo'ng'izining tanasi uzunligi necha mm? **9 – 12 mm.**

6592. Kolorado kartoshka qo'ng'izi qanday shaklda? **Uzunchoq-oval shaklda.**

6593. Kolorado kartoshka qo'ng'izining vatani qayer? **Shimoliy Amerika.**

6594. Kolorado kartoshka qo'ng'izi yiliga necha marta bo'g'in beradi? **1 – 2 marta bo'g'in beradi.**

6595. Kolorado kartoshka qo'ng'izlari qaerda qishlaydi? **Tuproqda qishlaydi.**

6596. Kolorado kartoshka qo'ng'izlari lichinkasi nima bilan ovqatlanadi? **Barg bilan ovqatlanadi.**

6597. Kolorado kartoshka qo'ng'izi Yevropada birinchi marta nechanchi yilda qayerda topilgan? **1922 yilda Fransiyada topilgan.**

6598. Kolorado kartoshka qo'ng'izi tuxumini qaerga nechtadan qo'yadi? **Kartoshka nihollari bargining orqasiga 15 – 20 tadan qo'yadi.**

6599. Kolorado kartoshka qo'ng'izlari qaysi oylarda yer yuziga chiqadi? **May – iyun oylarida** yer yuziga chiqadi.

6600. Komstok qurti qaysi turkumga mansub zararkunanda? **Teng qanotli xartumlilar turkumiga mansub zararkunanda.**

6601. Komstok qurti tanasi chetlarida necha juft mumsimon





o'siq, jumladan, nechta uzun o'siq-dum bor? **17 juft mumsimon o'siq, ikkita uzun o'siq-dum bor.**

6602. Komstok qurtining mo'ylovlari necha bo'g'imli? **8 bo'g'imli.**

6603. Kondor qaysi turkumning Amerika tasqaralari kenja turkumiga mansub eng yirik parranda? **Yirtqich qushlar turkumining Amerika tasqaralari kenja turkumiga mansub eng yirik parranda.**

6604. Kondor qushning tanasi uzunligi necha m? **1,2 m dan ortiq.**

6605. Kondor qush qanotlari yozilganda necha m ga yetadi? **3 m ga yetadi.**

6606. Kondor qush har necha yilda tuxum qo'yadi? **Har ikki yilda bir marta tuxum qo'yadi.**

6607. Kondor qush nechta tuxum qo'yadi? **1 – 2 ta tuxum qo'yadi.**

6608. Kondor qush narining boshida etdor nimasi bo'ladi? **Toji bo'ladi.**

6609. Kondor qush qayerdan qayergacha bo'lgan hududlarda tarqalgan? **And tog'larining Kolumbiyadan Olovli Yergacha bo'lgan hududlarda tarqalgan.**

6610. Kondor qush nimaxo'r? **O'simlikxo'r.**

6611. Kondor qush qaysi hayvonlarga hujum qilishi mumkin? **Yosh lamalar, qo'zichoqlar va yosh buzoqlarga hujum qilishi mumkin.**

6612. Konolof, butoqbosh kaltakesak – tangachalar turkumining qaysi oilasiga mansub kaltakesak? **Iguanalar oilasiga mansub kaltakesak.**

6613. Konolofning uzunligi necha m gacha? **1 m gacha.**

6614. Konolof uzunligining qanchasi dum? **Deyarli yarmi dum.**

6615. Konolof qaysi orollarda uchraydi? **Galapagos orollarida uchraydi.**

6616. Konolof qayerda yashaydi? **Katta toshlar ustida yashaydi.**

6617. Konolofning qaysi a'zosi sariq? **Boshi sariq.**

6618. Konolofning qaysi a'zosi to'q sariq? **Yag'rini to'q sariq.**

6619. Konolof nimalar bilan ovqatlanadi? **Meva, barg, kaktus kabi o'simliklar bilan ovqatlanadi.**

6620. Konolofning mahalliy xalq nimalarini iste'mol qiladi? **Go'shti va tuxumini iste'mol qiladi.**

6621. Korall poliplar, marjon poliplar-dengiz bo'shliqichlilari sinfi bo'lib, qanday yashaydi? **Koloniya bo'lib, ayrim turlari yakka yashaydi.**

6622. Korall poliplar nima hosil qilmaydi? **Meduza hosil qilmaydi.**

6623. Korall poliplarning ko'pchiligi qanday skelektli? **Ohak yoki muguz skeletli.**

6624. Korall poliplarning qanday yashovchilari skeletsiz? **Yakka yashovchilari skeletsiz.**

6625. Korall poliplar tovanining qarama-qarshi tomonda joylashgan qaysi a'zosi paypaslagichlar bilan o'ralgan? **Og'zi paypaslagichlar bilan o'ralgan.**

6626. Korall poliplarning gastral bo'shlig'i radial to'siqlar (muzenteriylari yordamida nimalarga bo'lingan? **Kameralarga bo'lingan.**

6627. Korall poliplarning ektodermal halqadumi qaysi a'zosidan kameralar bo'shlig'iga osilib tushadi? **Og'zidan kameralar bo'shlig'iga osilib tushadi.**

6628. Korall poliplarning jinsiy hujayralari qanday to'siqlar endodermasida rivojlanadi? **Mezenteriy to'siqlar endodermasida rivojlanadi.**

6629. Korall poliplar qanday ko'payadi? **Jinsiy va jinsiz ko'payadi.**

6630. Korall poliplar necha nurlilar kenja sinflariga bo'linadi? **6 nurlilar va 8 nurlilar kenja sinflariga bo'linadi.**

6631. Korall poliplarning qancha turi ma'lum? **6000 ga yaqin turi ma'lum.**

6632. Korall poliplarning koloniya bo'lib yashovchi qaysi turlari ko'pchilikka ma'lum? **Qizil korall va yakka yashovchi aktiniyalar ko'pchilikka ma'lum.**

6633. Kornish tovuqlari qanday tovuqlar zoti sanaladi? **Xonaki tovuqlar zoti sanaladi.**

6634. Kornish tovuqlari qaysi davlatdan olib kelingan? **AQShdan olib kelingan.**

6635. Kornish tovuqlarining har biri yiliga nechtagacha tuxum qiladi? **110 – 130 tagacha tuxum qiladi.**





6636. Kornish tovuqlarining xo'rozi og'irligi qancha kg? **3,8 – 4,5 kg.**

6637. Kornish tovuqlarining makiyoni og'irligi qancha kg? **3 – 3,2 kg.**

6638. Kornish tovuqlaridan qanday jo'ja olish maqsadida ham foydalaniladi? **Go'shtdor, duragay jo'ja olish maqsadida ham foydalaniladi.**

6639. Kornish tovuqlarining xo'rozlari bilan qanday rangli qaysi tovuqlar bilan chatishtirib, O'zbekistonda yaxshi natijalar olingan? **Oq klimutrok tovuqlarini chatishtirib, O'zbekistonda yaxshi natijalar olingan.**

6640. Korolyoklar qaysi oilaga mansub qush? **Chumchuqsimonlar turkumining korolyoklar oilasiga mansub qush.**

6641. Korolyok qushining og'irligi qancha g? **5 – 7 g.**

6642. Korolyok qushining uzunligi necha sm? **9 – 11 sm.**

6643. Korolyoklar nechtagacha tuxum qo'yadi? **5 – 10 tagacha tuxum qo'yadi.**

6644. Korolyoklar necha kunda bola ochadi? **16 kunda bola ochadi.**

6645. Korsak qaysi uruqqa mansub sut emizuvchi hayvon hisoblanadi? **Tulkilar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon hisoblanadi.**

6646. Korsakning tanasi uzunligi necha sm gacha? **60 sm gacha.**

6647. Korsakning dumi uzunligi necha sm gacha? **35 sm gacha.**

6648. Korsak qayerlarda tarqalgan? **Yevrosiyo cho'llari va sahrolarida tarqalgan.**

6649. Korsak O'zbekistonning qayerlarida uchraydi? **Ustyurt, Mirzacho'l, Qizilqum va janubiy hududlarda uchraydi.**

6650. Korsak qancha muddatga juft tanlaydi? **Bir umrga juft tanlaydi.**

6651. Korsak nechtadan bolalaydi? **3 – 6 tadan bolalaydi.**

6652. Korsak qayerda yashaydi? **Uyada yashaydi.**

6653. Korsak nimalar bilan ovqatlanadi? **Mayda kemiruvchilar va qushlar bilan ovqatlanadi.**

6654. Korsak nima uchun ovlanadi? **Terisi uchu**[illegible]**di.**

6655. Kosatka qaysi turkumning delf[illegible]onlar [illegible]an-sub sut emizuvchi hayvon? **Tishli ki**[illegible]**nja** [illegible]**ng delfinsimonlar oilasiga mansub sut e**[illegible]**i ha**[illegible]

6656. Kosatka erkagining tanasi uzunligi necha m cha? **10 m cha.**

6657. Kosatkaning og'irligi qancha t cha? **8 t cha.**

6658. Kosatka necha yilda, nechta bola tug'adi? **Ikki yilda bitta bola tug'adi (uzunligi 2 – 3 m).**

6659. Kosatkaning o'rtacha kattaligidan qancha t yog', go'sht olinadi? **1 t gacha yog', 1,5 – 2 t go'sht** olinadi.

6660. Kosatkaning elka suzgichi qanday? **To'mtoq va juda keng.**

6661. Kosatkaning orqa suzgichi juda baland bo'lib, erkagida necha m gacha? **1,7 m gacha.**

6662. Kosatkaning orqa suzgichi juda baland bo'lib, urg'ochisida necha m gacha? **0,9 m gacha.**

6663. Kosatka qayerdan qayergacha bo'lgan qanday dengizlarda tarqalgan? **Arktikadan Antarktidagacha bo'lgan ochiq dengizlarda tarqalgan.**

6664. Kosatka soatiga necha km gacha tezlikda suza oladi? **Soatiga 55 km gacha tezlikda suza oladi.**

6665. Kosatkaning homiladorlik davri necha oyga yaqin? **16 oyga yaqin.**

6666. Kosatka uzunligi necha m keladigan nechta bola tug'adi? **2 – 3 m keladigan bitta bola tug'adi.**

6667. Kosatka necha yil umr ko'radi? **35 yil umr ko'radi.**

6668. Kosatka kitsimonlar orasida yagona qanday tur? **Yirtqich tur.**

6669. Kosatkalar, asosan, qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Boshoyoqli mollyuskalar va baliqlar bilan ovqatlanadi.**

6670. Kosatka, ba'zan qaysi hayvonlarga hujum qiladi? **Kurakoyoqlilar (tyulen) va kitsimon (delfin)larga hujum qiladi.**

6671. Kosatka odam uchun xavflimi yoki xavfsiz? **Xavfsiz.**

6672. Kosatka ko'nikadimi yoki ko'nikmaydi? **Ko'nikadi.**

6673. Kosatka qo'lga qanday o'rganadi? **Oson o'rganadi.**

6674. Kosatka oz ovlanadimi yoki ko'p? **Ko'p ovlanadi.**

6675. Kostyankalar qaysi sinfiga mansub ko'poyoqlilarning bir turkumi? **Laboyoqlilar kenja sinfiga mansub ko'poyoqlilarning bir turkumi.**





6676. Kostyankalarning urg'ochilarida urug'lanayotgan spermatoforinni tutib turadigan va tuxum qo'yish vazifasini bajaradigan qanday oyoqlar (gonopodalar) rivojlangan? **Jinsiy oyoqlar rivojlangan.**

6677. Kostyankalarning tashqi ko'rinishi skolopendralarga o'xshash, lekin necha juft uzun oyoqlari bilan ulardan farq qiladi? **15 juft uzunoyoqlari bilan farq qiladi.**

6678. Kostyankalar malla ko'zlarining har biri qancha oddiy ko'zchalardan iborat? **40 ga yaqin oddiy ko'zchalardan iborat.**

6679. Kostyankalarning mo'ylovlari qanday? **Uzun.**

6680. Kostyankalar tez yuradi mi yoki sekin? **Tez yuradi.**

6681. Kostyankalar qachon ovga chiqadi? **Kunduzi pana joyda bekinib olib, kechasi ovga chiqadi.**

6682. Kostyankalar qanday o'ldiradi? **Oyoq jag'laridagi zahar bezlari yordamida o'ldiradi.**

6683. Kostyankalarning tuxumidan necha juft oyoqli lichinka chiqadi? **7 juft oyoqli lichinka chiqadi.**

6684. Kostyankalarning qancha turi ma'lum? **800 ga yaqin turi ma'lum.**

6685. Kostyankalar qayerlarda tarqalgan? **Yevropa va Osiyoda tarqalgan.**

6686. Kostroma qoramol zoti nima maqsadda boqiladi? **Suti va go'shti uchun boqiladi.**

6687. Kostroma qoramol zoti qayerda mahalliy zotlarni qaysi zot bilan chatishtirishda yaratilgan? **Rossiya Federatsiyasining Kostroma viloyatida «Karavayevo» xo'jaligida mahalliy zotlarni shvits zoti bilan chatishtirish, sermahsul duragay mollarini tanlash va saralash asosida yaratilgan.**

6688. Kostroma qoramol zoti nechanchi yilda zot deb e'tirof etilgan? **1945-yilda zot deb e'tirof etilgan.**

6689. Kostroma qoramol zotining buqalari og'irligi qancha kg? **1000 – 1100 kg.**

6690. Kostroma qoramol zotining sigirlari og'irligi qancha kg? **550 – 600 kg.**

6691. Kostroma qoramol zotli sigiri qancha kg sut beradi? **4000 – 5000** kg **sut beradi.**

6692. Kostroma qoramol zotli sigiri sutining yog'liligi necha foiz? **3,7 – 3,9** foiz.

6693. Kostroma qoramol zotli sigirining sutida oqsil necha foiz? **3,3 – 3,6 foiz.**

6694. Kostroma qoramol zotli sigirlari (rekord qo'yganlari) bir yilda qancha kg sut bergan? **14 – 15 ming kg sut bergan.**

6695. Kostroma qoramol zotli sigirlari qancha umr ko'rishadi? **20 – 22 yil umr ko'rishadi.**

6696. Kostroma bo'rdoqi qoramollarining go'sht miqdori necha foiz? **58 – 60 foiz.**

6697. Kotinglar qayerlarda tarqalgan? **Markaziy va Janubiy Amerikaning tropik o'rmonlarida tarqalgan.**

6698. Kotinglarning ba'zilari qanday ovoz chiqaradi? **Qo'ng'iroq jaranglashi, hayvonlarning bo'kirishi, ma'rashiga o'xshagan ovoz chiqaradi.**

6699. Kotinglar qaysi turkumga mansub qushlar oilasi? **Chumchuqsimonlar turkumiga mansub qushlar oilasi.**

6700. Kotinglarning tanasi uzunligi necha sm? **10 – 50 sm.**

6701. Kotinglarning qancha turi bor? **90 ga yaqin turi bor.**

6702. Kotinglar qayerlarga uya quradi? **Daraxtlar, qoyalarga uya quradi.**

6703. Kotinglar nimalar bilan ovqatlanadi? **Mevalar, hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

6704. Kaffer buyvoli yoki qora buyvol faqat qayerda uchraydi? **Afrikada uchraydi.**

6705. Koshenilning qaysi turlari bor? **Polyak koshenili, arman koshenili, Meksika koshenili turlari bor.**

6706. Koshenil qaysi turkumga mansub bir necha tur hasharotlarning umumiy nomi? **Koktsidalar kenja turkumiga mansub bir necha tur hasharotlarning umumiy nomi.**

6707. Koshenilning tanasi uzunligi necha mm? **2 – 12 mm.**

6708. Koshenil, ko'pincha, qayerda yashaydi? **O'simlik ildizida yashaydi.**

6709. Koshenil urg'ochisidan nechanchi asr oxirigacha qanday bo'yoq tayyorlashda keng foydalanilgan? **Kormiin (qizil) bo'yoq tayyorlashda keng foydalanilgan.**

6710. Krablar, kaltadum qisqichbaqalar qaysi turkumga mansub umurtqasiz hayvonlarning kenja turkumi? **O'n oyoqli qisqichbaqasimonlar turkumiga mansub umurtqasiz hayvonlarning kenja turkumi.**

6711. Krablar, kaltadum qisqichbaqalarning oldingi juft oyoqlari qanday? **Qisqichli.**





6712. Krablar qanday yo'l bilan rivojlanadi? **Metamorfoz yo'l bilan rivojlanadi.**

6713. Krablar erkagining necha juft qorin oyoqlari qanday apparatga aylangan? **2 juft qorin oyoqlari kopulyativ apparatga aylangan.**

6714. Krablarning urg'ochisi necha juft oyoqlarida tuxumlarini olib yuradi? 4 **juft oyoqlarida tuxumlarini olib yuradi.**

6715. Krablarning nechta turi bor? **4500 ta turi bor.**

6716. Krablarning boshi kattami yoki kichikina? **Kichkina.**

6717. Krablarning ko'zi oddiymi yoki murakkab? **Murakkab.**

6718. Krablarning antenna va antenkulalari uzunmi yoki kalta? **Kalta.**

6719. Krablarning boshko'kragi kengmi yoki tor? **Keng.**

6720. Krablar ko'krak qalqonining kengligi necha sm? **2 – 20 sm, ba'zan 60 sm gacha.**

6721. Krablarning qorni kalta bo'lib, qaysi a'zosi ostiga egilgan? **Boshko'krak qismi ostiga egilgan.**

6722. Krablar qayerlarda yashaydi? **Chuchuk suvlarda, dengizlarda, bir qancha turlari quruqlikda yashaydi.**

6723. Krablar qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Mayda sut emizuvchilar, umurtqasiz hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

6724. Krablarning qaysi turlari ovlanadi? **Bir qancha turlari, jumladan, kamchatka krabi ovlanadi.**

6725. Krasnostep qoramol zotining rangi qanday? **To'q qizildan och qizilgacha.**

6726. Krasnostep qoramol zotining tana tuzilishi qanday? **Pishiq, issiq iqlimga chidamli.**

6727. Krasnostep qoramol zotining balandligi yag'rinidan necha sm? **129 sm.**

6728. Krasnostep qoramol zotining dumg'azasidan necha sm? **130 sm.**

6729. Krasnostep qoramol zotining ko'krak aylanasi necha sm? **186 sm.**

6730. Krasnostep qoramol zoti pochasining aylanasi necha sm? **18 sm.**

6731. Krasnostep qoramol zotining elini kattami yoki kichik? **Katta.**

6732. Krevetkalar qayerlarda yashaydi? **Hamma dengiz, okean va ba’zi chuchuk suvlarda yashaydi.**

6733. Krevetkalar qaysi jonivorlarning kenja turkumi? **O‘n oyoqli qisqichbaqasimonlarning kenja turkumi.**

6734. Krevetkalarning tanasi uzunligi necha sm? **2 – 20 sm.**

6735. Krevetkalar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

6736. Kriofillar (yunon. kiyos – sovuq, muz va ... fil) – qanday haroratda yashovchi organizmlar? **Turg‘un past haroratda** yashovchi organizmlar.

6737. Kriofillarga qaysi hayvonlar kiradi? **Janubiy va shimoliy qutb dengizlarida (ignaterililar, baliqlar, mollyuskalar), sovuq suvli daryo va soylarda (gulmoyi baliq, ayrim plaporiyalar va boshq.), shuningdek, shimoliy kengliklar va baland tog‘larda hayot kechiradigan hayvonlar kiradi.**

6738. Kriofillarning ko‘pchiligi, odatda, qanday haroratga moslashgan bo‘ladi? **Harorat kam o‘zgarishiga moslashgan (stenotermlar) bo‘ladi. Masalan, bir qancha ignaterililar (ilondumlilar, dengiz ko‘zachalari)ga suv haroratining 1° C dan yuqori ko‘tarilishi halokatli ta’sir etadi. Harorat ko‘tarilganda sovuq suvlarda yashovchi ayrim baliqlarning harakatlanishi va oziqlanishi intensivligi pasayadi. Kriofillar harorat ko‘tarilgan sayin suvda eriydigan kislorod miqdorining kamayib borishi bilan bog‘liq. Arktika dengizlarida yashovchi ayrim baliqlar qonida suyuqlikning muzlash nuqtasini pasaytiruvchi moddalar (biologik antifrizlar) bo‘ladi.**

6739. Kriofillarga qayerda yashovchi qaysi organizmlar ham kiradi? **Erigan qor suvlari, muz va qor ustida yashovchi organizmlar (bir hujayrali suvo‘tlar, krioplankton, ayrim chuvalchanglar, hasharotlar) ham kiradi.**

6740. Krotsimonlar qaysi turkumga mansub sut emizuvchi hayvonlar oilasi? **Hasharotxo‘rlar turkumiga mansub sut emizuvchi hayvonlar oilasi.**

6741. Krotsimonlarning hammasi (yer yuzasida hayot kechiruvchi yerqazirnamo krotdan tashqari) yer qazib, qayerda hayot kechirishga moslashgan? **Yer ostida hayot kechirishga moslashgan.**

6742. Krotsimonlar, asosan, nimalar bilan ovqatlanadi? **Asosan, tuproq hayvonlari, jumladan, yomg‘ir chuvalchanglari, hasharotlar va ularning lichinkalari bilan ovqatlanadi.**





6743. Krotsimonlarning tanasi qanday shaklda bo‘ladi? **G‘o‘lasimon shaklda bo‘ladi.**

6744. Krotsimonlarning tashqi eshitish qaysi a’zosi yo‘q? **Quloq suprasi yo‘q.**

6745. Krotsimonlarning qaysi a’zolari yaxshi rivojlangan? **Eshitish, hid bilish a’zolari yaxshi rivojlangan.**

6746. Krotsimonlar qancha turni, nechta urug‘ni birlashtirgan nechta oilasi bor? **30 dan ortiq turni, 17 urug‘ni birlashtirgan 4 oilasi bor.**

6747. Krotsimonlar qayerlarda yashaydi? **Yaponiya, Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyoda yashaydi.**

6748. Krotsimonlar qayerlarda tarqalgan? **Kavkaz va Sibirda tarqalgan.**

6749. Krotsimonlar yiliga necha marta, qaysi faslda, nechta bola tug‘adi? **Bir marta, bahorda, 4 – 9 ta bola tug‘adi.**

6750. Krotsimonlarning homiladorlik davri necha kun? **38 – 40 kun.**

6751. Krotsimonlar yer qazib, nimalarni yaxshilaydi? **Tuproqqa havo o‘tishini va suv shimilishini yaxshilaydi.**

6752. Krotsimonlar o‘tloq tuproqlarda bir yilda qancha t ga yaqin tuproqni yer yuziga qazib chiqaradi? **160 t ga yaqin tuproqni yer yuziga qazib chiqaradi.**

6753. Krotsimonlarning ayrim turlari nima qilinadi? Ovlanadi.

6754. Krotsimonlarning nechta turi qaysi Qizil kitobga kiritilgan? **2 ta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

6755. Krotsimon ko‘rsichqonlar qaysi turkumning bir urug‘i? **Kemiruvchilar turkumining bir urug‘i.**

6756. Krotsimon ko‘rsichqonlarning bir necha turi qayerda tarqalgan? **Afrikaning shimoli-sharqida, Osiyoning janubi-g‘arbida va Yevrosiyoning janubi-sharqida tarqalgan.**

6757. Krotsimon ko‘rsichqonlarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **35 sm gacha.**

6758. Krotsimon ko‘rsichqonlarning dumi qanday tarzda? **Murtak tarzida.**

6759. Krotsimon ko‘rsichqonlarning boshi yo‘g‘onmi yoki ingichka? **Yo‘g‘on.**

6760. Krotsimon ko‘rsichqonlarning bo‘yni uzunmi yoki kalta? **Kalta.**

6761. Krotsimon ko'rsichqonlarning qaysi a'zosi tumtoq? **Tumshug'i tumtoq.**

6762. Krotsimon ko'rsichqonlarning ko'zi kattami yoki kichik? **Kichik.**

6763. Krotsimon ko'rsichqonlarning ko'zi ustini nima qoplagan? **Teri qoplagan.**

6764. Krotsimon ko'rsichqonlarning oyoqlari uzunmi yoki qisqa? **Qisqa.**

6765. Krotsimon ko'rsichqonlar oyoqlarining panjasi qanday shaklda? **Kuraksimon shaklda.**

6766. Krotsimon ko'rsichqonlarning oyoqlari qanday? **Baquvvat.**

6767. Krotsimon ko'rsichqonlarning qaysi a'zolari yer kovlashga moslashgan? **Tirnoqlari, kurak tishlari yer kovlashga moslashgan.**

6768. Krotsimon ko'rsichqonlarning juni qanday? **Yumshoq va silliq.**

6769. Krotsimon ko'rsichqonlar nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simlik ildizi va kartoshkalari bilan ovqatlanadi.**

6770. Kraniologik belgilariga qarab, qoramol nechta asosiy kenja turga bo'linadi? Ular qaysilar? **4 ta asosiy kenja turga bo'linadi. Ular: dasht va tekis zona Evropa qoramoli-uzun shoxli (Bos taurus primigenius), tog' va o'rmon zonasi qoramoli-kalta shoxli (Bos taurus brachyclros), Markaziy Osiyo qoramoli (Bos taurus brachyclros), Janubiy Osiyo va Shimoliy Afrika qoramoli-zebu (Bos taurus indicus).**

6771. Kudu qaysi kiyiklarning boshqa urug'lariga yaqin? **Burama shox kiyiklarning boshqa urug'lariga yaqin.**

6772. Kudu qaysi oilaga mansub juft tuyoqli hayvonlar urug'i? **Quvushshoxlilar oilasiga mansub juft tuyoqli hayvonlar urug'i.**

6773. Kuduning nechta turi bor? Ular qaysilar? **2 ta turi bor. Ular: katta kudu, kichik kudu.**

6774. Kuduning qaysi biri shoxli, qaysi biri shoxsiz? **Erkagi shoxli, urg'ochisi shoxsiz.**

6775. Kuduning homiladorlik davri necha oy? **7 – 8 oy.**

6776. Kudu nechta bola tug'adi? **1 – 2 ta bola tug'adi.**





6777. Kuduning erkagi kichikmi yoki urg'ochisi? **Urg'ochisi kichik.**

6778. Kuduning tanasi qaysi rangdan qaysi ranggacha? **Sarg'ish-kulrangdan ko'k kulranggacha.**

6779. Kuduning qayerida oq yo'llari bor? **Biqinida oq yo'llari bor.**

6780. Kudu qanday bo'lib yashaydi? **Poda bo'lib, ba'zan yakka yashaydi.**

6781. Kudular nimalar bilan ovqatlanadi? **O'tlar va daraxt barglari bilan ovqatlanadi.**

6782. Kudu nima uchun ovlanadi? **Go'shti juda mazali bo'lgani uchun ovlanadi.**

6783. Kuzgi tunlam lichinkasi qanday rangda? **Qoramtir-bo'zrangda.**

6784. Kuzgi tunlam qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Afrika, Amerikada, shuningdek, Rossiyaning Yevropa qismida, Zakavkazye Pespublikalari, O'rta Osiyo, Qozog'iston va qisman Sibirda tarqalgan.**

6785. Kuzgi tunlam tuxumidan endigina chiqqan lichinkalari nimalarni yeydi? **O'simlikning yer ustki qismlarini, urug'pallalarni yeydi.**

6786. Kuzgi tunlam lichinkalari kechalari tuproqdan chiqib, nimalarni yeb ketadi? **Barglarni teshadi, chetlarini kemiradi, g'o'za, poliz ekinlari va pomidor mevalarini, ba'zan maysalarning butun yer ustki qismini yeb ketadi.**

6787. Kuzgi tunlam, ko'kqurt tunlami qaysi oilaga mansub kapalak? **Tunlamlar oilasiga mansub kapalak.**

6788. Kuzgi tunlam, ko'kqurt tunalami qanotlari yozilganda necha mm? **35 – 40 mm.**

6789. Kuzgi tunlam, ko'kqurt tunalami lichinkasi (qurti)ning uzunligi necha mm? **45 – 50 mm.**

6790. Kuzgi tunlam, ko'kqurt tunlami kapalaklarining oldingi qanotlari qaysi rangda? **Qo'ng'ir rangda.**

6791. Kuzgi tunlam, ko'kqurt tunlami kapalaklarining keyingi qanotlari qaysi rangda? **Oq rangda.**

6792. Kuyka – yirtqich qushlar turkumining qaysi oilasiga mansub qush? **Lochinsimonlar oilasiga mansub qush.**

6793. Kuyka qushning tanasi uzunligi necha sm? **31 – 35 sm.**

6794. Kuyka qushning qanoti uzunligi necha sm? **22 – 25 sm.**

6795. Kuyka qush nechtacha tuxum qo'yadi? **3 – 7 tacha tuxum qo'yadi.**

6796. Kuyka qush qayerda ko'p? **Yevropaning janubida, Osiyoda, Rossiyada ko'p.**

6797. Kuyka qush qayerlarda qishlaydi? **Janubiy Afrikada qishlaydi.**

6798. Kuyka qush O'rta Osiyoga qachon uchib keladi? **Mart oyining oxirida uchib keladi.**

6799. Kuyka qush uyalarini qayerlarga yasaydi? **Qoya, jarlarga, daraxt kovaklariga yasaydi.**

6800. Kuyka qush nimalar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar, kaltakesaklar, mayda kemiruvchi hayvonlar, qushlar bilan** ovqatlanadi.

6801. Kuylovchi sikadalarning rivojlanish sikli necha yil davom etadi? **17 yil davom etadi.**

6802. Kulrang go'sht pashshalari qanday lichinka tug'adi? **Tirik lichinka tug'adi.**

6803. Kulrang kalamushlar qaysi yillarda Toshkentda qayerlarda keng tarqalib, qaysi kalamushlarni siqib chiqargan? **Urushdan keyingi yillarda Toshkentda ariq bo'yi, molxona, omborxonalarda keng tarqalib, turkiston kalamushlarini siqib chiqargan.**

6804. Kulrang yer salamandrasi qayerda yashaydi? **Quruqlikda yashaydi.**

6805. Kulrang kit mo'ylovi nechta? **130 ta.**

6806. Kumay qanday qush? **Yirtqich qush.**

6807. Kumay qushining og'irligi qancha kg? **10 – 11 kg.**

6808. Kumay qushi nechta tuxum qo'yadi? **1 – 2 ta tuxum qo'yadi.**

6809. Kumja, losos – taymen qaysi oilaga mansub baliq? **Lososlar oilasiga mansub baliq.**

6810. Kumja, losos – taymen balig'ining tanasi nima bilan qoplangan? **Mayda qora dog'lar bilan qoplangan.**

6811. Kumja, losos – taymen balig'ining qaysi turlari chuchuk suvda yashaydi? **Ko'l foreli va daryo foreli degan turlari chuchuk suvda yashaydi.**





6812. Kumja, losos – taymen balig'ining og'irligi qancha kg cha? **13 kg cha.**

6813. Kumja, losos – taymen balig'ining tanasi uzunligi necha m cha? **1 m cha.**

6814. Kumja, losos – taymen balig'i uvildiriq tashlash uchun dengizdan qaerlarga o'tadi? **Uvildiriq tashlash uchun daryolarga o'tadi.**

6815. Kumja, losos – taymen balig'ining yoshlari necha yil qayerda yashab, so'ngra qayerga o'tadi? **Yoshlari 2 – 7 yil daryoda yashab, so'ngra dengizga o'tadi.**

6816. Kumja, losos – taymen baliqlari qaysi dengizlarda tarqalgan? **Boltiq, Oq, Qora, Kaspiy va Orol dengizlarida tarqalgan.**

6817. Kumush karas qayerlarda tarqalgan? **Yevropa va Osiyoda tarqalgan.**

6818. Kumush karasning bo'yi necha sm gacha? **45 sm gacha.**

6819. Kungaboqar kapalagi, kungaboqar kuyasi qaysi oilaga mansub kapalak? **Parvona kapalaklar oilasiga mansub kapalak.**

6820. Kungaboqar kapalagi qaysi o'simlikning xavfli zararkunandasi? **Kungaboqar o'simligining xavfli zararkunandasi.**

6821. Kungaboqar kapalagi qayerlarda uchraydi? **Yevropa, Kichik va Janubi-sharqiy Osiyo, G'arbiy Sibir, Qozog'iston va O'rta Osiyoda uchraydi.**

6822. Kungaboqar kapalagi qanotlari yoyilganda necha mm? **20 – 27 mm.**

6823. Kungaboqar kapalagi qanotining o'rtasida nechta qora rangli nuqtasi bor? **4 ta qora rangli nuqtasi bor.**

6824. Kungaboqar kapalagi qurtining uzunligi necha mm? **17 mm.**

6825. Kungaboqar kapalagi qurti tanasining usti tomonida nechta jigarrang chizig'i bor? **3 ta jigarrang chizig'i bor.**

6826. Kungaboqar kapalagining bittasi kungaboqar savatchasiga nechtagacha tuxum qo'yadi? **200 – 300 tagacha tuxum qo'yadi.**

6827. Kungaboqar kapalagi tuxumidan necha kundan so'ng qurt chiqadi? **4 – 5 kundan so'ng qurt chiqadi.**

6828. Kungaboqar kapalagi qurtlari necha yoshgacha gul, so'ngra qayerga kirib pista mag'zi bilan ovqatlanadi? **3 yosh-**

**gacha, so'ngra urug' ichiga kirib pista mag'zi bilan ovqatlanadi.**

6829. Kungaboqar kapalagi bir yilda necha marta avlod beradi? **Ikki marta avlod beradi.**

6830. Kunjut qo'ng'izi qattiqqanotlilar turkumining qaysi oilasiga mansub zararkunanda hasharot sanaladi? **Oltinqo'ng'izlar oilasiga mansub zararkunanda hasharot sanaladi.**

6831. Kunjut qo'ng'izi qaysi mamlakatlarda uchraydi? **O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va boshq. mamlakatlarda uchraydi.**

6832. Kunjut qo'ng'izi yiliga necha marta avlod qoldiradi? **Bir marta avlod qoldiradi.**

6833. Kunjut qo'ng'izining lichinkasi qaysi a'zosiz, tepasida nimalar bor? **Oyoqsiz, tuklari bor.**

6834. Kunjut qo'ng'izi lichinkasi tanasining oldingi bo'g'imlari keyingilarga nisbatan qanday? **Keng.**

6835. Kunjut qo'ng'izining qaysi a'zosi ko'krak qismining birinchi bo'g'imigacha cho'zilib kelgan? **Boshi ko'krak qismining birinchi bo'g'imigacha cho'zilib kelgan.**

6836. Kunjut qo'ng'izi lichinkalik davrida qayerda qishlab chiqadi? **Kunjut, kungaboqar yoki begona o'tlarning poyasi ichida qishlab chiqadi.**

6837. Kunjut qo'ng'izi lichinkasi qachon ovqatlanib, turgan joyida g'umbakka aylanadi? **Aprel oyining 2-yarmida ovqatlanib, turgan joyida g'umbakka aylanadi.**

6838. Kunjut qo'ng'izi lichinkasining g'umbaklik davri necha kun? **30 kun.**

6839. Kunjut qo'ng'izi g'ubmakdan qaysi oy oxirida uchib chiqadi? **May oyi oxirida uchib chiqadi.**

6840. Kunjut qo'ng'izi tuxumini qayerga qo'yadi? **Kunjut yoki kungaboqar poyasining ichiga yoki novdalariga qo'yadi.**

6841. Kunqarg'ar, kunqarg'ar kaltakesak, cho'l agamasi qaysi oilaning qaysi turiga mansub? **Tangachalilar turkumining agamasimonlar oilasiga mansub.**

6842. Kunqarg'ar kaltakesagining bo'yi necha sm? **26 – 29 sm.**





6843. Kunqarg'ar kaltakesagining erkaklari qattiq ta'sirlanganda, masalan, urchish paytida tomoq, qorin va oyoqlari, dumi qanday tusga kiradi? **Tomoq, qorin va oyoqlari ko'k, dumi esa to'q sariq tusga kiradi.**

6844. Kunqarg'ar kaltakesagi yiliga necha marta, nechtadan tuxum qo'yadi? **Yiliga uch marta, 5 – 14 tadan tuxum qo'yadi.**

6845. Kunqarg'ar kaltakesagi tuxumidan necha kunda bola chiqadi? **Tuxumidan 50 – 60 kunda bola chiqadi.**

6846. Kunqarg'ar kaltakesagi o'z tuxumini nimaga ko'madi? **Tuproqqa ko'madi.**

6847. Kunqarg'ar kaltakesaklardan erkagi dumi uzunmi yoki urg'ochisimi? **Erkaginiki dumi uzun.**

6848. Kunqarg'ar kaltakesagi rangining o'zgaruvchanligidan nima deb ham ataladi? **«Cho'l xameleoni» deb ham ataladi.**

6849. Kunqarg'ar kaltakesagi necha yoshida jinsiy yetiladi? **Ikki yoshida jinsiy yetiladi.**

6850. Kunqarg'ar kaltakesagi qachon kemiruvchilar uyasida tuproqqa ko'milib karaxtlik davriga kiradi? **Sovuq tushishi bilan kemiruvchilar uyasida tuproqqa ko'milib karaxtlik davriga kiradi.**

6851. Kunqarg'ar kaltakesagi qachon qishki uyqudan turadi? **Erta bahorda uyqudan turadi.**

6852. Kunqarg'ar kaltakesagi juda issiq bo'lganda qaysi o'simliklarning shoxlariga chiqib issiqdan saqlanadi? **Saksovul, qandim kabi butalarning shoxlariga chiqib issiqdan saqlanadi.**

6853. Kunqarg'ar kaltakesagi O'rta Osiyo va Qozog'istonning qayerlarida ko'p? **Cho'l va sahrolarida ko'p.**

6854. Kunqarg'ar kaltakesagi qanday foyda yetkazadi? **Hasharotlarni yeb, foyda yetkazadi.**

6855. Kurakburun-balchiqchi qaysi turkumga mansub qush? **Balchiqchilar turkumiga mansub qush.**

6856. Kurakburun-balchiqchi qush qanotining uzunligi necha sm? **9,5 – 10 sm.**

6857. Kurakburun-balchiqchi qush nechta tuxum qo'yadi? **4 ta tuxum qo'yadi.**

6858. Kurakoyoqli qushlar qaysi qushlar turkumiga kiradi? **Suvda suzuvchi qushlar turkumiga kiradi.**

6859. Kurakoyoqli qushlar turkumining nechta oilasi bor? **6 ta oilasi bor.**

6860. Kurakoyoqli qushlarning nomlari nima? **Olushalar, faetonlar, fregatlar, qoravoylar, inxingalar (ilon bo'yinlilar), meshkopchi qushlar.**

6861. Kurakoyoqlilar, kurakoyoqli sut emizuvchilar turkumiga qaysi jonivorlar kiradi? **Morj, dengiz mushugi, dengiz arsloni, quloqli tyulen, tojli tyulen, dengiz quyoni, qo'ng'ir tyulen, xoldor tyulen, asl tyulenlar kiradi.**

6862. Kurakoyoqlilar, kurakoyoqli sut emizuvchilar qaysi sinfning bir turkumi? **Sut emizuvchilar sinfining bir turkumi.**

6863. Kurakoyoqlilar dengiz mollyuskalari nimasi? **Sinfi.**

6864. Kurakoyoqlilarning nechta turi ma'lum? **31 ta turi ma'lum.**

6865. Kurakoyoqlilar turkumi nechta oilaga bo'linadi? **3 ta oilaga bo'linadi.**

6866. Kurakoyoqlilar och holda nima hisobiga yashaydi? **Yog' qatlami hisobiga yashaydi.**

6867. Kurakoyoqlilarning tanasi uzunligi necha mm dan necha sm gacha? **3 mm dan 12 sm gacha.**

6868. Kurakoyoqlilar shakli qaysi hayvon tishiga o'xshash yaxshi chig'anoq? Uzunligi necha mm dan necha sm gacha? **Fil tishiga o'xshash. 1,5 mm dan 15 sm gacha.**

6869. Kurakoyoqlilar chig'anog'ining 2 uchida nimasi bor? **Teshigi bor.**

6870. Kurakoyoqlilar chig'anog'ining oldingi teshigidan qaysi a'zolari chiqib turadi? **Boshi bilan oyog'i chiqib turadi.**

6871. Kurakoyoqlilarning o'simtaga o'xshash boshining uchki qismida qaysi a'zo teshigi joylashgan? **Og'iz teshigi joylashgan.**

6872. Kurakoyoqlilarning boshidagi uchi to'mtoq mo'ylovlari qanday vazifalarni bajaradi? **Sezish va ovqatni ushlash vazifalarini bajaradi.**

6873. Kurakoyoqlilar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

6874. Kurakoyoqlilarning tuxumlari qayerda urug'lanadi? **Suvda urug'lanadi.**

6875. Kurakoyoqlilarning lichinkasi necha kundan so'ng qayerda voyaga yetadi? **5 – 6 kundan so'ng suv ostiga cho'kib voyaga yetadi.**





6876. Kurakoyoqlilar qayerda hayot kechiradi? **Suv tubidagi loyga ko'milib hayot kechiradi, loydan chig'anog'ining uchi chiqib turadi.**

6877. Kurakoyoqlilarning eng kichik turi (halqa naqshli tyulen yoki nerpa)ning bo'yi necha m? **1,3 m.**

6878. Kurakoyoqlilarning eng kattasining bo'yi necha m cha (dengiz fili)? **5,5 m cha.**

6879. Kurakoyoqlilar qayerda zo'rg'a sudralib yuradi? **Yerda zo'rg'a sudralib yuradi.**

6880. Kurakoyoqlilarning qaysi a'zolari, asosan, konus shaklda? **Tishlari, asosan, konus shaklda.**

6881. Kurakoyoqlilarning ko'zlari qayerda ko'rishga moslashgan? **Suv ostida ko'rishga moslashgan.**

6882. Kurakoyoqlilarning qaysi a'zosi juda kichkina yoki bo'lmaydi? **Quloq suprasi juda kichkina yoki bo'lmaydi.**

6883. Kurakoyoqlilarning burun teshiklari qachon ochiladi? **Faqat nafas olganda ochiladi.**

6884. Kurakoyoqli qushlarning oyog'ida nechta barmoq bor? **To'rtta barmog'i bor.**

6885. Kurakoyoqli qushlar barmog'ining hammasi nima bilan birlashgan? **Suzgich parda bilan birlashgan (nomi ham shundan).**

6886. Kurakoyoqlilarning juni uzunmi yoki qisqa? **Qisqa.**

6887. Kurakoyoqlilarning qaysi a'zolari suvda suzishga moslashib, kurak (eshkak)ka aylangan? **Oyoqlari suvda suzishga moslashib, kurak (eshkak)ka aylangan (nomi shundan).**

6888. Kurakoyoqlilar qaerga chiqmasdan oylab qayerda yashaydi? **Quruqlikka chiqmasdan oylab suvda yashaydi.**

6889. Kurakoyoqlilar nimalar bilan ovqatlanadi? **Foraminiferalar va boshq. bentos hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

6890. Kurakoyoqlilar qayerda ovqatlanadi? **Suvda ovqatlanadi.**

6891. Kurakoyoqlilar suvda ovqatni qanday yutadi? **Chaynamay yutadi.**

6892. Kurakoyoqlilar urchish, tullash, tug'ish va bolasini emizish, dam olish uchun qayerga chiqadi? **Quruqlikka va muz ustiga chiqadi.**

6893. Kurakoyoqlilar, asosan, qanday dengizlarda tarqalgan? **Asosan, tropik dengizlarda tarqalgan.**

6894. Kurakoyoqlilarning qancha turi mavjud? **1000 ga yaqin turi mavjud.**

6895. Kurakoyoqlilar qaerda dam oladi va uxlaydi? **Kurakoyoqlilar suv betida dam oladi va uxlaydi.**

6896. Kurakoyoqlilar qayerlarda uchraydi? **Okeanlarda, sovuq va o'rta mintaqadagi dengizlarda, jumladan, Qora va Kaspiy dengizlarda uchraydi.**

6897. Kurakoyoqlilarning ayrim turlari qaerlarda ham yashaydi? **Ko'llar (masalan, Ladoga va Baykal)da ham yashaydi.**

6898. Kurakoyoqlilarning nechta turi va nechta kenja turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **6 ta turi va 3 ta kenja turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

6899. Kurgalaklar qaysi oilaga mansub parranda? **Chumchuqsimonlar turkumining mayqutsimon qushlar oilasiga mansub parranda.**

6900. Kurgalaklar qaysi qit'ada tarqalgan? **Yevropa, Osiyo va Afrikada tarqalgan.**

6901. Kurgalaklar nechta tuxum qo'yadi? **4 – 6 ta tuxum qo'yadi.**

6902. Kurka, qulqul qaysi oilaga mansub parranda? **Tovuqsimonlar turkumining kurkasimonlar oilasiga mansub parranda.**

6903. Kurkaning boshi va bo'ynida nimalari bor? **«Toj»lari bor.**

6904. Kurka qayerda tarqalgan qaysi kurkadan kelib chiqqan? **Markaziy Amerikada tarqalgan, oddiy yovvoyi kurka (Meleagris gollopavo)dan kelib chiqqan.**

6905. Kurka Yevropaga, dastlab, qachon keltirilgan? **XVI asr boshlarida keltirilgan.**

6906. Kurka qaysi a'zosining yuqori qismida teri o'simta osilib turadi? **Tumshug'ining yuqori qismida teri o'simta osilib turadi.**

6907. Kurkaning qaysi davrida o'simta uzunligi 12 – 15 sm ga yetadi? **Jinsiy qo'zg'alish davrida o'simta uzunligi 12 – 15 sm ga yetadi.**





6908. Kurka patlarining rangi qanday? **Oq, jezranng, qora, ola.**

6909. Kurkalar, asosan, nima olish uchun yetishtiriladi? **Go'sht olish uchun yetishtiriladi.**

6910. Kurkaning tuxumdan chiqqan bolalari onasi bilan, xo'rozlari esa qanday bo'lib yuradi? **Alohida gala bo'lib yuradi.**

6911. Kurka nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simlik va hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

6912. Kurkaning yovvoyisi ovlanadimi yoki xonakisi? **Yovvoyisi ovlanadi.**

6913. Kurkaning yovvoyisi juftlashib, nasl beradimi yoki xonakisi? **Xonakisi juftlashib, nasl beradi.**

6914. Kurka necha oyligida, asosan, qaysi oylarda tuxum qila boshlaydi? **8 – 9 oyligida, asosan, fevral – mart oylarida tuxum qila boshlaydi.**

6915. Kurka nechta tuxum qo'yadi? **10 – 15 ta tuxum qo'yadi.**

6916. Kurka tuxumining (bir donasining ) og'irligi qancha g? **80 – 88 g.**

6917.Kurka tuxumining inkubatsiya davri necha sutka? **28 sutka.**

6918. Kurka 4 – 5 oy boqib semirtirilsa, qancha kg go'sht etishtiriladi? **160 – 200 kg go'sht etishtiriladi (40 – 60 bosh jo'jasi).**

6919. Kurka qaysi mamlakatlarda urchitiladi? **Deyarli barcha mamlakatlarda urchitiladi.**

6920. Kurkaning qanday zotlari ko'p tarqalgan? **Jezrang, Shimoliy Kavkaz, Moskva, Isroil oq kurkalari va boshq. zotlari ko'p tarqalgan.**

6921. Kurkunaklar qaysi joniverlar turkumiga mansub qushlarning bir oilasi? **Ko'kqarg'alar turkumiga mansub qushlarning bir oilasi.**

6922. Kurkunaklar qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy Afrikada, Osiyoda, Yevropaning janubida tarqalgan.**

6923. Kurkunaklarning nechta turi ma'lum? **25 ta turi ma'lum.**

6924. Kurkunaklarning nechta turi O'rta Osiyoda uchraydi? **2 ta turi O'rta Osiyoda uchraydi.**

6925. Kurkunaklarning nomlari nima? **Ko'kkunak va ko'k kurkunak yoki bo'zdoq.**

6926. Kurkunaklar (O'zbekistondagisi) qishlash uchun qayerga uchib ketadi? **Janubiy Afrikaga uchib ketadi.**

6927. Kurkunaklar qayerlarda yashaydi? **Daraxtsiz ochiq yerlarda, jarliklarda, daryo bo'ylarida yashaydi.**

6928. Kurkunaklar qaysi vaqtda katta gala bo'lib, baland tik jar va tepaliklar yonbag'rini tumshug'i bilan kovlab, uya yasaydi? **Urchish vaqtida katta gala bo'lib, baland tik jar va tepaliklar yonbag'rini tumshug'i bilan kovlab, uya yasaydi.**

6929. Kurkunaklar qaysi oylarda nechta tuxum qo'yadi? **May – iyun oylarida 4 – 10 ta tuxum qo'yadi.**

6930. Kurkunaklar nimalar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar, chigirtkalar, qo'ng'izlar va boshq. bilan ovqatlanadi.**

6931. Kurkunaklarning qaysi turlari O'rta Osiyoda uchraydi? **Ko'kqunoq va ko'kkurkunak yoki bo'zdoq turlari O'rta Osiyoda uchraydi.**

6932. Kurkunaklarning patlari qanday rangli? **Yashil, sariq, havo rangli.**

6933. Kurtakxo'r kapalaklar turkumining qaysi jonivorlar oilasiga mansub hasharot? **Parvonalar oilasiga mansub hasharot.**

6934. Kurtakxo'r kapalaklar qayerlarda tarqalgan? **O'rta Osiyo, G'arbiy Yevropa, Uzoq Sharq, Shimorliy Amerikada tarqalgan.**

6935. Kurtakxo'r kapalaklarning qurti uzunligi necha mm? **9 – 12 mm.**

6936. Kurtakxo'r kapalaklarning rangi qanday? **Jigarrang.**

6937. Kurtakxo'r kapalaklarning birinchi va ikkinchi yoshdagi qurtlari qayerlarda qishlaydi? **Yupqa pilla ichida, po'stloq yoriqlarida, ko'pincha kurtaklarga yopishgan quruq barglar ostida qishlaydi.**

6938. Kurtakxo'r kapalaklar qachon g'umbakdan uchib chiqadi? **May oyining 2-o'n kunligida g'umbakdan uchib chiqadi.**

6939. Kurtakxo'r kapalaklarning bitta urg'ochisi barg ustiga nechtagacha tuxum qo'yadi? **70 – 180 tagacha tuxum qo'yadi.**

6940. Kuskuslar qaysi oilaga mansub hayvonlar? **Qo'sh kuraktishlar kenja turkumining o'rmalovchi qopchilari oilasiga mansub hayvonlar.**





6941. Kuskuslar qaysi orollarda tarqalgan? **Avstraliya, Yangi Gvineyada, Timor va Sulavesi orollarida tarqalgan.**

6942. Kuskuslarning kattaligi qanday hayvondek? **Mushukdek.**

6943. Kuskuslar nechtagacha bola tug'adi? **4 tagacha bola tug'adi.**

6944. Kutikulali skelet ko'pgina qaysi jonivorlarga xos? **Chuvalchanglar va bo'g'im oyoqlilarga xos.**

6945. Kutoralar, suv yerqazarlarning qanday turlari bor? **Oddiy kutora va kichik kutora degan turlari bor.**

6946. Kutoralar, suv yerqazarlarning dum osti junlari nima vazifasini bajaradi? **Eshkak vazifasini bajaradi.**

6947. Kutoralar, suv yerqazarlar qayerda yashaydi? **Suv havzasiga yaqin erda yashaydi.**

6948. Kutoralar, suv yerqazarlar qaysi turkumga mansub hayvonlar urug'i? **Hasharotxo'r sut emizuvchilar turkumiga mansub hayvonlar urug'i.**

6949. Kutoralar, suv yerqazarlarning bo'yi necha sm ga? **7 sm cha.**

6950. Kutoralar, suv yerqazarlarning dumi necha sm cha? **5 sm cha.**

6951. Kutoralar, suv yerqazarlarning homiladorlik davri necha oy? **Bir oy.**

6952. Kutoralar, suv yerqazarlar nechta bola tug'adi? **6 – 10 ta bola tug'adi.**

6953. Kushum ot zotlari qanday miniladigan va nimaga qo'shiladigan ot zotlari? **Salt miniladigan va arava qo'shiladigan ot zotlari.**

6954. Kushum ot zotlari qaerda qaysi ot zotlari bilan chatishtirib etishtirilgan? **Qozog'istonda qozoqi ot biyalarini chopqir, salt miniladigan Don ayg'irlari bilan chatishtirib etishtirilgan.**

6955. Kushum ot zotlarining ayg'irlari gavdasi uzunligi o'rtacha necha sm? **206 sm.**

6956. Kushum ot zotlarining qarchig'ayi yerdan necha sm? **159,4 sm.**

6957. Kushum ot zotlari biyalarining gavdasi necha sm? **190,2 sm.**

6958. Kushum ot zotlarining o'rtacha og'irligi qancha kg? **470 kg.**

6959. Kuyalar qaysi jonivorlar oilasi? **Kapalaklar oilasi.**

6960. Kuyalar turliqanotlilar kenja turkumining qancha oilasini o'z ichiga oladi? **70 dan ortiq oilasini o'z ichiga oladi.**

6961. Kuyalarning qanotlari qanday? Yozilganda necha sm? **Ensiz. 1 – 5 sm.**

6962. Kuyalarning oldingi qanotlarimi yoki orqa qanoti kattaroq? **Oldingi qanotlari.**

6963. Kuyalar ko'pincha boshida tikkayib turgan nimalarining borligi bilan ajralib turadi? **Tangachalarining borligi bilan ajralib turadi.**

6964. Kuyalarning qancha turi ma'lum? **2000 dan ortiq turi ma'lum.**

6965. Kuyalarning O'rta Osiyoda qancha turi uchraydi? **35 – 40 dan ortiq turi uchraydi.**

6966. Kuyalarning bir qancha turlari qayerlarda yashaydi? **Turar joylarda, omborlarda yashaydi.**

6967. Kuyalar orasida qaysilari ko'p? **Zararkunandalari ko'p.**

6968. Kuya kapalagi qo'ygan tuxumdan chiqqan nimalari zarar keltiradi? **Qurt (lichinka)lari zarar keltiradi.**

6969. Ko'zli kaltakesakcha qayerda yashaydi? **Tug'dagi sovuq sharoitda yashaydi.**

6970. Kuya (haqiqiy)lar oilasiga mansub zararkunandalardan poya kuyasining qurtlari qaysi o'simlik poyalarini zararlaydi? **Bug'doy va javdar o'simligining poyalarini zararlaydi.**

6971. Kuya (ombor)sining qurtlari nimalarni zararlaydi? **Don, meva qoqilarini zararlaydi.**

6972. Kuya (po'stin)si va kiyim kuyasi qurtlari nimalarni zararlaydi? **Jun, junli matolar, mo'yna va boshq. ni zararlaydi.**

6973. Kuya (to'rvali, girdak, mevajlari olma, nok, do'lana, o'rikning rivojlanayotgan qaysi a'zolari bilan oziqlanib katta ziyon keltiradi? **Kurtaklari, keyinchalik barglari bilan oziqlanib katta ziyon keltiradi.**

6974. Karam va butguldoshlarga mansub boshqa o'simliklarga qaysi kuya katta zarar keltiradi? **Karam kuyasi katta zarar keltiradi.**

6975. Karam kuyasini ba'zi olimlar qanday oila deb hisoblaydilar? **Mustaqil oila deb hisoblaydilar.**

6976. Ko'zoynakli ilonning tanasi uzunligi necha m? **1,6 – 2 m.**





6977. Ko'zoynakli ilon xavf tug'ilganda kengayadigan bo'ynining orqa tomonida nima shaklidagi oqish rasm bo'ladi? **Ko'zoynak (nomi shundan olingan).**

6978. Ko'zoynakli ilon qayerlarda tarqalgan? **Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyoda tarqalgan.**

6979. Ko'zoynakli ilon qayerlarda yashaydi? **Toshlar va butalar orasida, termitlar va kemiruvchilar inida, ba'zan xarobalarda yashaydi.**

6980. Ko'zoynakli ilon nechta tuxum qo'yadi? **8 – 45 ta tuxum qo'yadi.**

6981. Ko'zoynakli ilonning zahari qanday? **O'ta zaharli.**

6982. Ko'zoynakli ilon zaharidan qayerda, qanday maqsadlarda foydalaniladi? **Tibbiyotda kapcha ilonlar zahariga qarshi zardoblar olishda va boshqa maqsadlarda foydalaniladi.**

6983. Ko'zoynakli ilon daraxtlarga qanday chiqadi? **O'rmalab chiqadi.**

6984. Ko'zoynakli ilon suvda qanday suzadi? **Yaxshi suzadi.**

6985. Ko'zoynakli ilon qachon faol? **Kunning 2-yarmida va kechqurunlari faol.**

6986. Ko'zoynakli ilon qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Suvda va quruqlikda yashovchilar, kemiruvchilar, ba'zan qushlar va boshq. sut emizuvchilar bilan ovqatlanadi.**

6987. Ko'k baliq qaysi oilaga mansub baliq? **Karpsimonlar oilasiga baliq.**

6988. Ko'k baliqning qaysi suzgich qanoti uzun? **Anal suzgich qanoti uzun.**

6989. Ko'k baliq qaysi ko'l va daryolarda yashaydi? **Balxash ko'li, Dnepr, Don, Volga kabi daryolarda yashaydi.**

6990. Ko'k baliqning tanasi uzunligi necha sm? **30 – 45 sm.**

6991. Ko'k baliqning og'irligi qancha g cha? **600 g cha.**

6992. Ko'k baliqning rangi qanday? **Ko'kimtir (nomi shundan).**

6993. Ko'k baliqning qaysi a'zolari kumushsimon oq? **Qorni va biqini kumushsimon oq.**

6994. Ko'k baliq qaysi oy oxirlaridan qaysi oy o'rtasigacha o'simliklarga uvildiriq tashlaydi? **May oyining oxiridan iyun o'rtasigacha o'simliklarga uvildiriq tashlaydi.**

6995. Ko'k kapalaklarning qancha turi ma'lum? **2500 dan ortiq turi ma'lum.**

6996. Ko'k kapalaklar, havorang kapalaklar qaysi jonivorlarning bir oilasi? **Kunduzgi kapalaklarning bir oilasi.**

6997. Ko'k kapalaklarning qanotlari yoyilganda necha sm? **2 – 4 sm.**

6998. Ko'k kapalaklarning erkaklari qanoti rangi qanday? **Zangori, ko'k, yashil, qizil, ko'pchiligi yaltiroq.**

6999. Ko'k kapalaklarning urg'ochilari rangi qanday? **Qo'ng'ir.**

7000. Ko'k kapalaklarning qancha turi ma'lum? **2500 dan ortiq turi ma'lum.**

7001. Ko'k kapalaklarning Rossiya Yevropa qismida nechta turi uchraydi? **60 ta turi uchraydi.**

7002. Ko'k kaptar barcha qaysi kaptar zotlarining nasl boshi? **Xonaki kaptar zotlarining nasl boshi.**

7003. Ko'k kaptar, yovvoyi kaptar qanday jonivorlar turkumining bir turi? **Kaptarsimonlar turkumining bir turi.**

7004. Ko'k kaptar qaysi faslda, necha marta tuxum qo'yadi? **Yozda, 4 marta tuxum qo'yadi.**

7005. Ko'k kaptar qaysi a'zolarining borligi va bo'lmasligi bilan boshqa kaptarlardan ajralib turadi? **Tumshug'ining qoraligi, qanotida qora yo'llar ko'pligi, dumida oq yo'llar bo'lmasligi bilan boshqa kaptarlardan ajralib turadi.**

7006. Ko'k kaptar qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda cho'l va dashtlardan tortib baland qorli cho'qqilargacha, shuningdek, shaharlarda tarqalgan.**

7007. Ko'k kaptar qayerlarda ko'p? **Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika va Osiyoda ko'p.**

7008. Ko'k kaptarni qayerdan qayergacha bo'lgan hududda uchratish mumkin? **Kaspiy dengizi va Hindistondan to Shimoli-Sharqiy Xitoygacha bo'lgan hududda uchratish mumkin.**

7009. Ko'k kaptar O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonning qayerlarida yashaydi? **Cho'l va sahrolarida, qorli tog' cho'qqilarida yashaydi.**

7010. Ko'k kaptar qanday qush? **O'troq qush.**

7011. Ko'k kaptar qanday bo'lib yashaydi? **Gala bo'lib yashaydi.**

7012. Ko'k kaptar qanday qush? **Monogam qush.**

7013. Ko'k kaptarning alohida juftlari qanday uchraydi? **Kam uchraydi.**





7014. Ko'k kaptar qayerlarga uya quradi? **Daraxt shoxlari, jarliklar, tog' qoyalarining yoriqlari va binolarning bo'g'otlariga uya quradi.**

7015. Ko'k kaptar nechta qanday rangli tuxum qo'yadi? **Ikkita oq rangli tuxum qo'yadi.**

7016. Ko'k kaptar tuxumidan bolasi necha haftada chiqadi? **Uch haftada chiqadi.**

7017. Ko'k kaptar bolasini dastlab, keyinroq nimalar bilan ovqatlantiradi? **Dastlab jig'ildonidan ajratib chiqaradigan bo'tqa, keyinroq har xil donlar bilan ovqatlantiradi.**

7018. Ko'k kaptar bolasi nima bo'lgandan so'ng (1 oy), yana tuxum qo'ya boshlaydi? **Uchirma bo'lgandan so'ng, yana tuxum qo'ya boshlaydi.**

7019. Ko'k kaptar nimalarning urug'i bilan ovqatlanadi? **O'simliklarning urug'i bilan ovqatlanadi.**

7020. Ko'k kaptar nima qilinadi? **Ovlanadi.**

7021. Ko'k kit, blyuvol qaysi oilaga mansub sut emizuvchi hayvon? **Yo'l-yo'l kitlar oilasiga mansub sut emizuvchi hayvon.**

7022. Ko'k kitning tanasi uzunligi necha m gacha? **33 m gacha.**

7023. Ko'k kitning og'irligi qancha t gacha? **150 t gacha.**

7024. Ko'k kitning uzunligi necha m? **33 m.**

7025. Ko'k kitning usti rangi qanday? **Ko'kimtir.**

7026. Ko'k kitning qaysi a'zolari zangori? **Qorin va biqinlari zangori.**

7027. Ko'k kit necha yilda, nechta bola tug'adi? **2 – 3 yilda, bitta bola tug'adi.**

7028. Ko'k kit bolasini necha oy emizadi? **Bolasini 7 – 8 oy emizadi.**

7029. Ko'k kit qanday organizmlar bilan ovqatlanadi? **Plankton organizmlar bilan ovqatlanadi.**

7030. Ko'k kitsimonlar yiliga necha marta tug'adi? **Bir marta tug'adi.**

7031. Ko'k toshbaqa (Chelonia mudas)ning og'irligi qancha kg cha? **450 kg cha.**

7032. Ko'k toshbaqa (Chelonia mudas) kosasining uzunligi necha sm? **110 sm.**

7033. Ko'k chumchuq qayerlarda uchraydi? **Yevropa, Afrika, Kichik Osiyoda, Eronning shimoli va O'rta Osiyoda uchraydi.**

7034. Ko'k chumchuq qaysi oilaga mansub qush? **Chumchuqsimonlar turkumining vyuraksimonlar oilasiga mansub qush.**

7035. Ko'k chumchuq sayroqi qush sifatida qayerda boqiladi? **Qafasda boqiladi.**

7036. Ko'k chumchuqning og'irligi qancha g? **20 – 28 g.**

7037. Ko'k chumchuq nechta tuxum qo'yadi? **4 – 6 ta tuxum qo'yadi.**

7038. Ko'k chumchuq kattaligi qaysi parrandadek? **Chumchuqdek.**

7039. Ko'k chumchuqning rangi qanday? **Sarg'ish-yashil.**

7040. Ko'k chumchuq O'zbekistonning qaerlarida qanday yashaydi? **Tog' va tog' yon bag'irlaridagi o'rmonlarda o'troq yashaydi.**

7041. Ko'k chumchuq qaysi oylarda uya quradi? **Mart – aprel oylarida uya quradi.**

7042. Ko'k chumchuq qanday qush sifatida qayerda boqiladi? **Sayroqi qush sifatida qafasda boqiladi.**

7043. Ko'kcho'ldoq qaysi turkumga mansub qush? **Balchiqchilar turkumiga mansub qush.**

7044. Ko'kcho'ldoq qush qaysi tog'larning necha m balandliklarida uchraydi? **Tyanshan, Pomir-Olay, Himolay, Janubiy Tibet tog'larining 2000 – 4000 m balandliklarida uchraydi.**

7045. Ko'kcho'ldoq qush qachon, nechta tuxum qo'yadi? **Mayning boshlarida 3 – 4 ta tuxum qo'yadi.**

7046. Ko'kcho'ldoq qushning boshi old qismi rangi qanday? **Jigar rangsimon, kulrang.**

7047. Ko'kcho'ldoq qushning boshi orqasi rangi qanday? **Qo'ng'ir-kulrang.**

7048. Ko'kcho'ldoq qushning tumshug'i rangi qanday? **Qizil.**

7049. Ko'kcho'ldoq qushning tumshug'i qaerga qayrilgan? **Pastga qayrilgan.**

7050. Ko'kcho'ldoq qushning buqog'i rangi qanday? **Ko'kish-kulrang.**

7051. Ko'kcho'ldoq qushning qorni rangi qanday? **Oq.**

7052. Ko'kcho'ldoq qush uyasini qayerga quradi? **Toshlar orasiga quradi.**

7053. Ko'kcho'ldoq qush nimalar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar, mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**





7054. Ko'k, yashil go'sht pashshalari nimasidan ko'payadi? **Tuxumidan ko'payadi.**

7055. Ko'kqush modasining qanoti yozilganda kengligi necha sm gacha? **45 sm gacha.**

7056. Ko'kg'oz qaysi oilaga mansub g'oz turi? **G'ozsimonlar turkumining o'rdaksimonlar oilasiga mansub g'oz turi.**

7057. Ko'kg'oz qayerlarda yashaydi? **Yevropa va Osiyoda yashaydi.**

7058. Ko'kg'oz qayerlarda yashab, qaysi oylarda nechtagacha tuxum qo'yadi? **Daryo, ko'l qirg'oqlaridagi qamishzorlarda yashab, mart – may oylarida 4 – 12 tagacha tuxum qo'yadi.**

7059. Ko'kg'oz nimalari uchun ovlanadi? **Go'shti va pari uchun ovlanadi.**

7060. Ko'kg'oz qayerlarda qishlaydi? **O'rta dengiz atrofida, Eron, Afg'oniston, Hindistonda, Kaspiy, Qora dengizlarda va O'rta Osiyoda qishlaydi.**

7061. Ko'kg'oz qaysi g'ozlarga o'xshaydi? **Xonaki g'ozlarga o'xshaydi.**

7062. Ko'kbel, qizilbosh parranda qaysi qit'alarda yashaydi? **Yevropa, Osiyo, Amerikada yashaydi.**

7063. Ko'kbel, qizilbosh parranda qayerlarda yashaydi? **To'qaylar, katta ko'llarda yashaydi.**

7064. Ko'kbel, qizilbosh parranda qaysi uruqqa mansub parranda? **O'rdaklar kenja oilasining ko'pg'uvchilar urug'iga mansub parranda.**

7065. Ko'kbel, qizilbosh parranda O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda qaysi fasllarda uchib kelayotganida va ketayotganida ko'p uchraydi? **Bahor va kuz fasllarida uchib kelayotganida va ketayoganida ko'p uchraydi.**

7066. Ko'kbel, qizilbosh parranda qaerga uya quradi? **Qamishzorga uya quradi.**

7067. Ko'kbel, qizilbosh parranda nechtagacha tuxum qo'yadi? **6 – 15 tagacha tuxum qo'yadi.**

7068. Ko'kbel, qizilbosh parranda qaysi qit'alarning janubida, qisman yana qayerda qishlaydi? **Yevropa, Osiyo, Amerika va shu qit'alarning janubida, qisman Afrika (Nil daryosi havzasi)da qishlaydi.**

7069. Ko'kbel, qizilbosh parrandaning og'irligi qancha kg? **0,7 – 0,3 kg.**

7070. Ko'krak bo'shlig'i – sut emizuvchi hayvonlar gavda bo'shlig'ining qaysi (yuqorimi, pastkimi, oldingimi) qismi? **Oldingi qismi.**

7071. Ko'krak bo'shlig'i nima bilan qoplangan? **Seroz pardap – sevra bilan qoplangan.**

7072. Ko'krak bo'shlig'ida qaysi a'zolar joylashgan? **Nafas yo'llari: kekirdek (ko'krak qismi), bronxlar, o'pka, qizilo'ngach (ko'krak qismi), ko'ks oralig'i, yurak, ayrimsimon bez va boshq. joylashgan.**

7073. Ko'krak bo'shlig'idan qaysi a'zolar o'tgan? **Qon tomirlar, limfa yo'llari va asab (nerv)lar o'tgan.**

7074. Ko'krak bo'shlig'i qorin bo'shlig'idan nima bilan ajralgan? **Diafragma bilan ajralgan.**

7075. Ko'krak qafasining shakliga va diafragmaning holatiga qarab, ko'krak bo'shlig'ining nimasi har xil bo'ladi? **Shakli har xil bo'ladi.**

7076. Ko'krak tojlilar – qaysi parrandalarning bir guruhi? **Qushlarning bir guruhi.**

7077. Ko'krak tojlilar, tuyaqushlar va kivilardan tashqari barcha qushlar qancha turkumni va turni o'z ichiga oladi? **24 ga yaqin turkumni va 9 mingga yaqin turni o'z ichiga oladi.**

7078. Ko'krak tojlilarda to'sh suyagining pastki qismi kengayib, qaysi a'zoni hosil qiladi? **Toj suyagini (nomi shundan olingan), suyakning bu qismiga qanot muskullari birikadi.**

7079. Ko'krak tojlilarning ko'pchilik turlari yaxshi nima qiladi? **Uchadi.**

7080. Ko'krak tojlilar hozirgi qushlarning qaysilaridan tashqari, deyarli barcha turkumlarini o'z ichiga oladi? **Avstraliya tuyaqushlari, nandular, emular, kazuarlar, kivilardan tashqari, deyarli barcha turkumlarini o'z ichiga oladi.**

7081. Ko'krak tojlilar – qushlarning bir nimasi? **Guruhi.**

7082. Ko'krak tojlilar qushlarning qaysi turkumlarini o'z ichiga oladi? **Afrika tuyaqushlari, pandular, kazuarlar, kivilar turkumlarini o'z ichiga oladi.**

7083. Ko'ktarg'oqlar qaysi turkumga mansub qushlar oilasi? **Ko'kqarg'alar turkumiga mansub qushlar oilasi.**

7084. Ko'ktarg'oqlarning nechta urug'i bor? **14 ta urug'i bor.**

7085. Ko'ktarg'oqlarning nechta turi bor? **88 ta turi bor.**

7086. Ko'ktarg'oqlarning tanasi uzunligi necha sm? **10 – 45 sm.**





7087. Ko'ktarg'oqlarning qanotlari necha sm gacha? **20 sm gacha.**

7088. Ko'ktarg'oqlarning boshi qanday? **Katta.**

7089. Ko'ktarg'oqlarning bo'yni qanday? **Kalta.**

7090. Ko'ktarg'oqlarning tumshug'i qanday? **Uzun.**

7091. Ko'ktarg'oqlarning oyoqlari qanday? **Juda kalta.**

7092. Ko'ktarg'oqlar qayerlarda yashaydi? **Yevropa, Osiyo, Afrika va Avstraliyada yashaydi.**

7093. Ko'ktarg'oqlar yer yuzining qaysi hududlaridan tashqari hamma joylarda tarqalgan? **Qutbga yaqin hududlaridan tashqari hamma joylarda tarqalgan.**

7094. Ko'ktarg'oqlar Osiyo va Afrikaning qaysi qismida turlari xilma-xil? **Tropik qismida turlari xilma-xil.**

7095. Ko'ktarg'oqlar qanday suvlarda yashaydi? **Tiniq suvli, sokin oqar daryo, ko'l va buloq suvlarida yashaydi.**

7096. Ko'ktarg'oqlar qayerlarda o'troq yashaydi? **O'zbekiston, Turkmaniston va Zakavkazyeda o'troq yashaydi.**

7097. Ko'ktarg'oqlarning O'zbekistonda qaysi turi barcha daryo va ariqlar bo'yida uya quradi? **Moviy ko'targ'oq (Alcedo atthis) turi barcha daryo va ariqlar bo'yida uya quradi.**

7098. Ko'ktarg'oqlarning ko'pchilik turlari ovqatini qayerlardan tutadi? **Ayrim turlari quruqlikdan hasharotlar, kemiruvchilar va boshq. ayrim turlari suvdan baliqlar, hasharotlarni tutadi.**

7099. Ko'ktarg'oqlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Mayda baliqlar, hasharotlar, daraxt baqalari va mayda ilonlar bilan ovqatlanadi.**

7100. Ko'ktarg'oqlar suvga qayerdan sho'ng'iydi? **Daraxt shoxidan yoki qirg'oqdan sho'ng'iydi.**

7101. Ko'ktarg'oqlar qayerlarga uya quradi? **Daraxt kovagi, termitlar uyasi va hayvonlar ildiziga uya quradi.**

7102. Ko'ktarg'oqlar qaerdagi inlariga nechta tuxum qo'yadi? **Jarliklardagi inlariga 6 – 7 ta tuxum qo'yadi.**

7103. Ko'ktarg'oqlarning bir qismi qayerda qishlab qoladi? **O'z vatanida qishlab qoladi.**

7104. Ko'kqarg'alar qaysi qit'ada uchraydi? **Yevropa, Osiyo va qisman Afrikaning shimoli-g'arbida uchraydi.**

7105. Ko'kqarg'a qushning kattaligi qaysi parrandadek? **Zag'chadek.**

7106. Ko'kqarg'a qushning rangi qanday? **Havo rang.**

7107. Ko'kqarg'alar o'tkir yoki keng tumshug'ining uchki qismi nimaga o'xshab qayrilgan? **Ilmoqqa o'xshab qayrilgan.**

7108. Ko'kqarg'alar patining rangi qanday tusda? **Qo'ng'ir va qizg'ish aralash yashil-zangori tusda.**

7109. Ko'kqarg'alar qachon baland ovoz chiqaradi? **Uchganida baland ovoz chiqaradi.**

7110. Ko'kqarg'alarning nechta turi bor? **11 ta turi bor.**

7111. Ko'kqarg'alarning nechta urug'i bor? Ular qaysilar? **2 ta urug'i bor. Ular: ko'kqarg'alar, keng og'izlilar.**

7112. Ko'kqarg'a O'zbekistonning qayerida uchraydi? **Hamma joyida uchraydi.**

7113. Ko'kqarg'alarning tanasi uzunligi o'rtacha necha sm? **34 sm.**

7114. Ko'kqarg'alar qanday qush? **Uchib ketuvchi qush.**

7115. Ko'kqarg'alar qaysi qit'ada qishlaydi? **Afrika qit'asida qishlaydi.**

7116. Ko'kqarg'alar qayerlarga in quradi? **Daraxt kovaklariga, jarliklarga in quradi.**

7117. Ko'kqarg'alar qachon nechta tuxum qo'yadi? **May oyining oxirlarida 4 – 6 ta tuxum qo'yadi.**

7118. Ko'kqarg'alar, asosan nimalar bilan ovqatlanadi? **Asosan, hasharotlar, kuzda mevalar bilan ovqatlanadi.**

7119. Ko'kqarg'a qush qayerlarda yashaydi? **Bog' va to'qaylarda, daraxtsiz ochiq yerlarda, cho'l va jarlarda yashaydi.**

7120. Ko'kqarg'a qush O'zbekistonga qaysi faslda kelib, qaysi faslda Afrikaga ketadi? **Yozda kelib, kuzda Afrikaga ketadi.**

7121. Ko'kqarg'asimonlarning nechta uruqqa mansub nechta turi bor? **3 ta uruqqa mansub 16 ta turi bor.**

7122. Ko'kqarg'asimonlar qaysi turkumning bir oilasi? **Ko'kqarg'alar turkumining bir oilasi.**

7123. Ko'kqarg'asimonlarning erda yashovchi takshlar va chin ko'kqarg'alar qaysi oilaga bo'linadi? **Kenja oilasiga bo'linadi.**

7124. Ko'kqarg'asimonlar yerda yashovchi rakshlar kenja oilasining nechta uruqqa mansub nechta turi bo'lib, shulardan nechtasi Madagaskar o'rmonlarida, nechtasi cho'llarida yashaydi? **Bitta uruqqa mansub 5 ta turi bo'lib, shulardan 4 tasi Madagaskar o'rmonlarida, bittasi cho'llarida yashaydi.**

7125. Ko'kqarg'asimonlarning chin ko'kqarg'alar kenja oilasining nechta uruqqa birlashgan nechta turi ma'lum? **2 ta uruqqa birlashgan 11 ta turi ma'lum.**





7126. Ko'kqo'ton qush qayerlarda yashaydi? **Yevropa, Osiyo va Afrikada daryo, ko'l o'simliklari orasida yashaydi.**

7127. Ko'kqo'ton qaysi turkumning qarqarlar oilasiga mansub qush? **Uzun oyoqlilar turkumining qarqarlar oilasiga mansub qush.**

7128. Ko'kqo'ton qush narining qanoti yozilganda necha sm gacha? **47 sm gacha.**

7129. Ko'kqo'ton qush uyasini qaerlarga quradi? **Qamishzor va daraxtlarga quradi.**

7130. Ko'kqo'ton qush qaysi oyda tuxum qo'yadi? **Aprel oyida tuxum qo'yadi.**

7131. Ko'kqo'ton qush nechta tuxum qo'yadi? **4 – 6 ta tuxum qo'yadi.**

7132. Ko'kqo'ton qushning og'irligi qancha kg? **1,5 – 2 kg.**

7133. Ko'kqo'ton qushning qaysi biri tuxumini bosadi? **Nari va modasi galma-gal bosadi.**

7134. Ko'kqo'ton qushning tuxumini bosish inkubatsiya davri necha kun? **26 – 27 kun.**

7135. Ko'kqo'ton qush jo'jalarining bo'yi necha oyda voyaga yetgan qushlarga tenglashadi? **2 oyda voyaga yetgan qushlarga tenglashadi.**

7136. Ko'kqo'ton qush qayerlarda qishlaydi? **Hindiston va Afrikada, Kaspiy dengizning janubiy qirg'oqlarida, O'rta dengiz va Zakavkazyeda, ayrimlari Ohangaron va Chirchiq vodiylarida qishlaydi.**

7137. Ko'kqo'ton qush uyasini qanday bo'lib, qayerlarga quradi? **Gala yoki boshqa turlar bilan aralashib qamishzor va daraxtlarga quradi.**

7138. Ko'kqo'ton qush qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baliq, baqa, itbaliq, ilon, kaltakesak, kemiruvchilar bilan ovqatlanadi.**

7139. Ko'l balchiqchi qayerdan qayergacha bo'lgan joylarda yashaydi? **Islandiyadan Kamchatkagacha bo'lgan joylarda yashaydi.**

7140. Ko'l balchiqchi, oddiy baliqchi qaysi turkumning bir vakili? **Baliqchilar turkumining bir vakili.**

7141. Ko'l balchiqchining og'irligi qancha g? **250 – 400 g.**

7142. Ko'lbaqa qayerlarda yashovchilarning bir turi? **Suvda va quruqlikda yashovchilarning bir turi.**

7143. Ko'lbaqaning bo'yi necha sm cha? **17 sm cha.**

7144. Ko'lbaqa qayerlarda yashaydi? **Sholipoya va suv havzalarida yashaydi.**

7145. Ko'lbaqa dengiz sathidan necha m baland tog'da ham uchraydi? **2500 m baland tog'da ham uchraydi.**

7146. Ko'lbaqa qayerlarda ko'p? **Yevropaning o'rta va janubiy qismida, Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda ko'p.**

7147. Ko'lbaqaning bo'yi necha sm cha? **17 sm cha.**

7148. Ko'lbaqaning usti rangi qanday? **Yashil.**

7149. Ko'lbaqaning qorni rangi qanday? **Oqish.**

7150. Ko'lbaqa erkagining og'iz burchaklarida nimalari bor? **Tovush xaltalari – rezonatorlari bor.**

7151. Ko'lbaqa qayerda yashaydi? **Suv yaqinida yashaydi.**

7152. Ko'lbaqa nimalar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar, turli mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

7153. Ko'lbaqa kuzda bir kuchala bo'lib, suv ostidagi loyqalarga ko'milib, nimaga ketadi? **Uyquga ketadi.**

7154. Ko'lbaqa qaysi oylarda suvga uvildiriq tashlaydi? **Aprel – may oylarida uvildiriq tashlaydi.**

7155. Ko'lbaqa qaysi jonivorlarga yem? **Laylak, ko'kqarg'a kabi qushlar, chiyabo'ri, to'qay mushugi kabi sut emizuvchilarga yem.**

7156. Ko'lborilon, ko'lvorilon, gyurza qaysi oilaga mansub zaharli ilon? **Cho'l qora ilonlari oilasiga mansub zaharli ilon.**

7157. Ko'lborilonning bo'yi necha m gacha? **1,6 m gacha.**

7158. Ko'lborilonning zahar tishi necha sm cha? **1,6 sm cha.**

7159. Ko'lborilonning zahari qayerda ishlatiladi? **Tibbiyotda ishlatiladi.**

7160. Ko'lborilon qaysi oyda, nechta tuxum qo'yadi? **Iyulda 8 – 43 ta tuxum qo'yadi.**

7161. Ko'lborilon tuxumdan necha kunda bola ochadi? **48 kunda bola ochadi.**

7162. Ko'lborilonning bolasi necha yoshda voyaga yetadi? **3 yoshda voyaga etadi.**

7163. Ko'lborilon qayerlarda tarqalgan? **Afrikaning shimoli-g'arbida va O'rta dengizdagi ayrim orollardan to Pokiston va Shimoli-g'arbiy Hindistongacha bo'lgan hududlarda,**





**Kavkazning sharqiy qismida, Qozog'iston janubida va O'rta Osiyoda tarqalgan.**

7164. Ko'lborilon qayerlarda uchraydi? **Shimoliy Afrikada, Osiyoda, O'rta dengizdagi orollarda uchraydi.**

7165. Ko'lborilon O'zbekistonning qayerlarida uchraydi? **Xovos atrofida, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.**

7166. Ko'lborilon qayerlarda yashaydi? **Tog' va tog' etaklarida, bog', to'qay, cho'l va sahrolarda yashaydi.**

7167. Ko'lborilonning tanasi usti rangi qanday? **Jigarrang yoki to'q kulrang.**

7168. Ko'lborilonning qorni rangi qanday? **Oq.**

7169. Ko'lborilonning qornida mayda qanday xolchalari bor? **Qora xolchalari bor.**

7170. Ko'lborilonning boshi qanday tangachalar bilan qoplangan? **Mayda tangachalar bilan qoplangan.**

7171. Ko'lborilonning tanasi usti ko'pincha qanday rangli dog'lar bilan qoplangan? **Kulrang yoki qizg'ish ko'ndalang dog'lar bilan qoplangan.**

7172. Ko'lborilonning zahar tishi qayoqqa (oldingami yoki orqagami) qayrilgan? **Orqaga qayrilgan.**

7173. Ko'lborilon nimalar bilan ovqatlanadi? **Mayda qushlar, sut emizuvchilar, sudralib yuruvchilar bilan ovqatlanadi.**

7174. Ko'lborilon gavdasi qo'pol bo'lishiga qaramay, ko'pincha, ovqat axtarib nimalarga ham chiqadi? **Daraxtlarga ham chiqadi.**

7175. Ko'lborilonning nechtasi yig'ilib, qachon karaxt bo'ladi? **23 – 30 tasi yig'ilib, qishda karaxt bo'ladi.**

7176. Ko'lborilonning karaxtligi qaysi oylarda tarqaladi? **Fevral – mart oylariida tarqaladi.**

7177. Ko'lborilon qachon faol? **Tunda faol.**

7178. Ko'l baqasi turi qaysi mamlakatlarda ham uchraydi? **Kavkaz, Qozog'iston va Yevropa mamlakatlarida ham uchraydi.**

7179. Ko'lbuqa qaysi oilaga mansub qush? **Uzun oyoqli qushlar turkumining qarqarlar oilasiga mansub qush.**

7180. Ko'lbuqaning og'irligi qancha kg cha? **1 kg cha.**

7181. Ko'lbuqa qushning qanoti uzunligi necha sm? **31 – 34 sm.**

7182. Ko'lhuqaning tanasi ustida rangi qanday mayda dog'lari bor? **Sarg'ish-qo'ng'ir mayda dog'lari bor.**

7183. Ko'lbuqa qushning boshi usti rangi qanday? **Qora.**

7184. Ko'lbuqa qush qayerlarda ko'p? **Yevropa, Osiyo, Afrikada ko'p.**

7185. Ko'lbuqa qush qayerlarda o'troq yashaydi? **Zakavkazyeda va o'rta Osiyoning ba'zi Respublikalarida o'troq yashaydi.**

7186. Ko'lbuqa qush qayerlarda uchraydi? **Qalin va butalar o'sadigan suv havzalarida uchraydi.**

7187. Ko'lbuqa qush nechta tuxum qo'yadi? **3 – 7 ta tuxum qo'yadi.**

7188. Ko'lbuqa qush qachongi qush? **Tungi qush.**

7189. Ko'lbuqa qush nimalar bilan ovqatlanadi? **Baliqlar, baqalar, itbaliqlar, suv hasharotlari bilan ovqatlanadi.**

7190. Ko'l gulmoyisi qayerlardagi ko'llarda tarqalgan? **Rossiyaning shimoli-sharqida, Finlandiya, Shvetsiya, Norvegiya hamda Kaspiy va Qora dengiz havzalaridagi ko'llarda tarqalgan.**

7191. Ko'p bolalaydigan hayvonlar (to'ng'izlar)da sut bezlari qaysi a'zosidan qaysi a'zogacha necha qator bo'lib joylashgan? **Qornidan ko'krakkacha 2 qator bo'lib joylashgan.**

7192. Ko'p suzgich qanotlilar qaysi oilaga mansub baliqlarning bir urug'i? **Ko'p suzgich qanotlilar oilasiga mansub baliqlarning bir urug'i.**

7193. Ko'p suzgich qanotlilarning tanasi uzunligi necha sm cha? **120 sm cha.**

7194. Ko'p suzgich qanotlilarning nechta turi ma'lum? **10 ta turi ma'lum.**

7195. Ko'p suzgich qanotlilarning havo pufagi qaysi "a'zo" vazifasini bajaradi? **«O'pka» vazifasini bajaradi.**

7196. Ko'p suzgich qanotlilar qayerlardagi daryo va ko'llarda tarqalgan? **Afrikadagi daryo va ko'llarda tarqalgan.**

7197. Ko'p tukli chuvalchanglar, polixetalar qanday chuvalchanglar sinfiga kiradi? **Halqali chuvalchanglar sinfiga kiradi.**

7198. Ko'p tukli chuvalchanglarning qancha turi ma'lum? **7 mingdan ortiq turi ma'lum.**

7199. Ko'p tukli chuvalchanglarning uzunligi necha mm dan necha m gacha? **2 mm dan 3 m gacha.**





7200. Ko'p tukli chuvalchanglarning tanasi ko'p (bir nechta yuzta) nimalardan iborat? **Halqalardan iborat.**

7201. Ko'p tukli chuvalchanglarning tanasidagi har bir halqada necha juftdan ko'p tukli yassi kuraksimon o'simtasi – parapodiysi bo'ladi? **Bir juftdan (nomi shundan olingan).**

7202. Ko'p tukli chuvalchanglar tanasidagi parapodiylar nimalar vazifasini bajaradi? **Harakatlanish va ko'pincha, jabralar vazifasini bajaradi.**

7203. Ko'p tukli chuvalchanglarning ayrim o'troq yashovchi turlarida bu vazifani qaysi a'zo tomonidagi paypaslagichlar o'taydi? **Bosh tomonidagi paypaslagichlar o'taydi.**

7204. Ko'p tukli chuvalchanglarning ko'zlari, ko'pincha qanday? **Oddiy.**

7205. Ko'p tukli chuvalchanglarning qaysi a'zolari rivojlangan? **Muvozanat a'zolari rivojlangan.**

7206. Ko'p tukli chuvalchanglar nechtaga yaqin turkumga bo'linadi? **25 taga yaqin turkumga bo'linadi.**

7207. Ko'p tukli chuvalchanglarning ko'pchilik turlari qayerlarda yashaydi? **Dengizlarda, ayrim turlari chuchuk suvlarda va tropik o'rmonlardagi barg to'shamasida yashaydi.**

7208. Ko'p tukli chuvalchanglar qanday suzib yuradi? **Erkin suzib yuradi.**

7209. Ko'p tukli chuvalchanglar nimaga ko'milib oladi? **Balchiqqa ko'milib oladi.**

7210. Ko'p tukli chuvalchanglarning bir qancha turlari qanday inlarda hayot kechiradi? **Qum va balchiqdan qurgan nay-inlarida hayot kechiradi.**

7211. Ko'p tukli chuvalchanglarning ko'pchiligi qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

7212. Ko'p tukli chuvalchanglar qanday urug'lanadi? **Tashqi urug'lanadi.**

7213. Ko'p tukli chuvalchanglar nima orqali rivojlanadi? **Metamorfoz orqali rivojlanadi.**

7214. Ko'p tukli chuvalchanglarning tuxumdan chiqqan troxofora lichinkasi asta-sekin nima chiqarib, voyaga yetgan ko'p tukli chuvalchanglarga aylanadi? **Bo'g'im chiqarib, voyaga yetgan ko'p tukli chuvalchanglarga aylanadi.**

7215. Ko'p tukli chuvalchanglarning ayrim turlari ko'ndalangiga kurtaklanish orqali qanday ko'payadi? **Jinsiy ko'payadi.**

7216. Ko'p tukli chuvalchanglar nima bilan ovqatlanadi? **Detrit bilan ovqatlanadi.**

7217. Ko'p tukli chuvalchanglarning bir qancha turlari qanday? **Yirtqich.**

7218. Ko'p tukli chuvalchanglarning deyarli barcha turlari suv hayvonlari nimasi sifatida katta ahamiyatga ega? **Ovqati sifatida katta ahamiyatga ega.**

7219. Ko'p tukli chuvalchanglar ayrim turlarining nimasi yeyiladi? **Ikrasi yeyiladi.**

7220. Ko'p qilli chuvalchanglar, polixetlar qaysi sinf? **Halqali chuvalchanglar sinfi.**

7221. Ko'p qilli chuvalchanglarning tanasi uzunligi necha mm dan necha m gacha? **2 mm dan 3 m gacha.**

7222. Ko'p qilli chuvalchanglarning tanasi bir talay nimalardan iborat? **Segment (halqa)lardan iborat.**

7223. Ko'p qilli chuvalchanglarning tangasidagi har bir halqada qaysi a'zolar kompleksi takrorlanadi? **Ichki a'zolar kompleksi takrorlanadi.**

7224. Ko'p qilli chuvalchanglarning tana segmentlarida yon tomonidan chiqqan ko'p qilli o'simta – nimalari bor? **Parapodiyalari bor.**

7225. Ko'p qilli chuvalchanglarning ba'zilarida jabra vazifasini bosh qismidagi nimalar bajaradi? **Paypaslagichlar bajaradi.**

7226. Ko'p qilli chuvalchanglarda qanday a'zolar mavjud? **Ko'z va muvozanat a'zolari mavjud.**

7227. Ko'p qilli chuvalchanglar qaerlarda tarqalgan? **Dengizlarda, ayrim turlari chuchuk suvlarda tarqalgan.**

7228. Ko'p qilli chuvalchanglar suvda qanday suzadi va nimaga qo'milib yotadi? **Erkin suzadi va balchiqqa qo'milib yotadi.**

7229. Ko'p qilli chuvalchanglarning ko'pchiligi qayerlarda yashaydi? **Qum va boshqalardan qurgan naychalarida yashaydi.**

7230. Ko'p qilli chuvalchanglar nimalar bilan ovqatlanadi? **Detrit (suvo'tlari) va tirik organizmlar bilan ovqatlanadi.**

7231. Ko'p qilli chuvalchanglarning nechtacha turi ma'lum? **6000 tacha turi ma'lum.**

7232. Ko'p qilli chuvalchanglarning qancha turi MDH davlatlarida uchraydi? **700 ga yaqin turi MDH davlatlarida uchraydi.**





7233. Ko'p hujayrali hayvonlardan qaysilari o'troq yashaydiganlari? **G'ovaktanlilar, bo'shliqchilar, mshankalar, astsidiyalar, ko'p tukli chuvalchanglar o'troq yashaydiganlari.**

7234. Ko'p hujayrali hayvonlar – bo'shliqchilar, chuvalchanglar, tuban bo'g'imoyoqlilarning dastlabki qoldiqlari qaysi qatlamlardan boshlab uchraydi? **So'nggi kembriy qatlamidan boshlab uchraydi (mil. dan 690-570 mln yil avv.).**

7235. Ko'pgina baliqlarning qaysi a'zosida ovqat hazm qilishda ishtirok etadigan pilorik o'simtasi bo'ladi? **Ichagida ovqat hazm qilishda ishtirok etadigan pilorik o'simtasi bo'ladi.**

7236. Ko'pgina xameleonlar qanday ko'payadi? **35 ta turi tuxum qo'yib, ba'zi turlari tirik tug'ib (14 tagacha) ko'payadi.**

7237. Ko'poyoqlilarda zahar bezlari nimalar bilan bog'langan? **Xelitseralar bilan bog'langan.**

7238. Ko'pchilik baliqlarning alohida qanday teshiklari bo'ladi? **Anal va siydik-tanosil teshiklari bo'ladi.**

7239. Ko'pchilik baliqlarda qorin bo'shlig'i tashqi muhit bilan qanday teshiklar orqali aloqada bo'ladi? **Abdominal teshiklar orqali aloqada bo'ladi.**

7240. Ko'pchilik baqalar ko'payish davrida nima qiladi? **Har xil ovoz chiqarib sayraydi, baqalar ovozi har bir tur va jinsda o'ziga xos bo'ladi.**

7241. Ko'pchilik dengiz bo'shliqichlilarda urug'langan tuxum hujayradan erkin suzib yuradigan nima chiqadi? **Planula lichinkasi chiqadi.**

7242. Ko'pchilik zoologlar ma'qullagan va o'quv adabiyotlarida keltiriladigan sistematikaga, asosan, bir hujayralilar kenja dunyosi nechta tipga bo'linadi? Ular qaysilar? **5 ta tipga. Ular: sarkomastigoffalar, mikrosporidiyalar, miksosporidlar, sporalilar, infuzoriyalarga bo'linadi. Qolgan hayvonlar plastinkasimon, g'ovaktanlilar, bo'shliqichlilar, taroqlilar, yassi chuvalchanglar, to'garak chuvalchanglar, nemertinalar, tikanboshlilar, halqali chuvalchanglar, mollyuskalar, bo'g'imoyoqlilar, ignaterililar, chalaxordalilar, pogonoforalilar va xordalilar tiplariga bo'linadi.**

7243. Ko'pchilik ignaterililar (dengiz bodringlari, tipratikanlar va boshq.) uvildirig'i nima qilinadi? **Iste'mol qilinadi.**

7244. Ko'pchilik ikkijuft oyoqlilarning deyarli har bir tana bo'g'imida necha juftdan himoya bezlari bor? **Bir juftdan himoya bezlari bor.**

7245. Ko'pchilik yirtqichlar o'z o'ljasini nima orqali topadi? **Tovush orqali topadi.**

7246. Ko'pchilik krablar nima qilinadi? **Iste'mol qilinadi.**

7247. Ko'pchilik ko'rshapalaklar, odatda, qayerlarda qishlaydi? **Odatda, g'orlar, tashlandiq shaxtalar va chuqur yoriqlarda qishlaydi.**

7248. Ko'pchilik tuban umurtqasizlar, masalan, planariyalar, hasharotlar: pashshalar, qo'ng'izlar, termitlar, ehtimol qushlar va suvda yashovchi sut emizuvchilar nimaga qarab mo'ljal oladi? **Yer magnit maydoniga qarab mo'ljal oladi.**

7249. Ko'pchilik umurtqasiz hayvonlarda qon aylanish doirasi qanday (ochiqmi yoki yopiqmi) bo'ladi? **Ochiq bo'ladi.**

7250. Ko'pchilik xaltalilar urg'ochisida bolasi qaerda rivojlanadi? **Xalta ichida rivojlanadi.**

7251. Ko'pchilik shimol ko'rshapalaklari necha oylik qishki uyquga ketadi? **7 – 8 oylik qishki uyquga ketadi.**

7252. Ko'pchilik qushlar qizilo'ngachi kengayib, qaysi a'zo hosil qiladi? **Jig'ildon hosil qiladi.**

7253. Ko'pchilik hayvonlar ovqat qidirish, o'z juftini topish, migratsiya va tarqalishda nima yordamida mo'ljal oladi? **Hid yordamida mo'ljal oladi.**

7254. Ko'pchilik hasharotlar qanday yorug'lik qabul qiladi? **Qutblanadigan yorug'likni qabul qiladi.**

7255. Ko'rilonlar qaysi turkumning zaharsiz ilonlar oilasi? **Ilonlar turkumining zaharsiz ilonlar oilasi.**

7256. Ko'rilonlar qaerlarda tarqalgan? **Afrika, Avstraliya va Janubiy Osiyoda tarqalgan.**

7257. Ko'rilonlarning tanasi uzunligi necha sm? **10 – 80 sm.**

7258. Ko'rilonlar qayerda hayot kechirishga yaxshi moslashgan? **Yer tagida hayot kechirishga yaxshi moslashgan.**

7259. Ko'rilonlarning nechta uruqqa birlashgan qancha turi ma'lum? **5 ta uruqqa birlashgan 170 dan ortiq turi ma'lum.**

7260. Ko'rsichqonlar qaysi turkumga mansub sut emizuvchilarning bir urug'i? **Kemiruvchilar turkumiga mansub sut emizuvchilarning bir urug'i.**

7261. Ko'rsichqonlar yiliga necha marta nechtadan bolalaydi? **Ikki marta 3 – 5 tadan bolalaydi.**

7262. Ko'rsichqonlarning qanday turlari uchraydi? **Oddiy ko'rsichqon va Zakavkazye ko'rsichqoni degan turlari uchraydi.**





7263. Ko'rsichqonlarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **13 sm gacha.**

7264. Ko'rsichqonlar dumi necha sm? **0,5 – 2,2 sm.**

7265. Ko'rsichqonlarning boshi qanday? **Katta.**

7266. Ko'rsichqonlarning qaysi tishlari og'zidan chiqib turadi? **Kurak tishlari og'zidan chiqib turadi.**

7267. Ko'rsichqonlar qaysi yerlarda yashaydi? **Qumloq, toshloq, taqir va nam yerlarda yashaydi.**

7268. Ko'rsichqonlarning uyasi qanday qurilgan? **Uyasi uzun, murakkab va chuqur, asosiy yo'li 100 m cha, undan har tomonga uzunligi 20 – 50 m li qo'shimcha yo'llar ketadigan qilib qurilgan.**

7269. Ko'rsichqonlar qachon uyquga yotadi? **Ko'rsichqonlar qishki uyquga yotmaydi, lekin sahroda yashaydiganlari yozda (havo qattiq isiganda) faoliyati ancha pasayib, erni kovlashdan to'xtaydi.**

7270. Ko'rsichqonlar nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklarning yer osti qismi bilan ovqatlanadi. Qishki ovqat g'amlaydi.**

7271. Ko'rsichqonlarning bitta uyada nechtasi birga yashaydi? **10 – 15 tasi birga yashaydi.**

7272. Ko'rsichqonlar qayerlarda tarqalgan? **Yevropa va Osiyoning cho'l hamda sahrolarida tarqalgan.**

7273. Ko'rsichqonlarning tanasi qayerda yashashga moslashgan? **Yer ostida yashashga moslashgan.**

7274. Ko'rsichqonlarning qaysi eshitish a'zosi yo'q? **Quloq suprasi yo'q.**

7275. Ko'rsichqonlarning panjalari qanday? **Qisqa va baquvvat.**

7276. Ko'rshapalaklar qaysi sinfning kenja turkumi? **Sut emizuvchilar sinfining kenja turkumi.**

7277. Ko'rshapalaklar turkumining vampirlar urug'i vakili katta arvoh shapalak yoki vampir (Vampyrus Spectrum) qaysi havzada tarqalgan? **Amazonka havzasida tarqalgan.**

7278. Ko'rshapalaklar nimaga ko'proq moslashgan? **Uchishga moslashgan.**

7279. Ko'rshapalaklarning tanasi uzunligi necha sm cha? **14 sm cha.**

7280. Ko'rshapalaklar yilda nechta bola tug'adi? **1 – 2 tadan bola tug'adi.**

7281. Ko'rshapalaklar bolasi qanday tug'iladi? **Ko'zi yumuq, yungsiz tug'iladi.**

7282. Ko'rshapalaklarning ikkinchi nomi nima? **Qo'l qanotlilar.**

7283. Ko'rshapalaklarning qaysi a'zosi kengroq? **Quloq suprasi.**

7284. Ko'rshapalaklar keyingi oyoqlarining qaerida tog'ay pix bo'lib, unga uchish pardasining keyingi uchi tutashgan? **Tovanida.**

7285. Ko'rshapalaklarning qaysi a'zolari hasharotxo'rlarnikiga o'xshash tuzilgan? **Tishlari hasharotxo'rlarnikiga o'xshash tuzilgan.**

7286. Ko'rshapalaklarning qaysi tishlari qirralari o'tkir? **Oziq tishlari qirralari o'tkir.**

7287. Ko'rshapalaklarni ko'zlari qanday? **Yaxshi ko'rmaydi.**

7288. Ko'rshapalaklar mukammal qanday xususiyatga ega? **Exolokatsiya xususiyatiga ega.**

7289. Ko'rshapalaklar atrofidagi narsalarning holatini, jumladan, o'ljasini qaysi a'zolari orqali qabul qilinadigan ultratovush signallari yordamida aniqlaydi? **Eshitish a'zolari orqali qabul qilinadigan ultratovush signallari yordamida aniqlaydi.**

7290. Ko'rshapalaklarning eshitish a'zolari qancha ms dan qancha ms gacha davom etadigan qancha chastotali qisqa ultratovush impulslarini qabul qiladi? **0,2 ms dan 100 ms gacha davom etadigan 20 – 120 kGts chastotali qisqa ultratovush impulslarini qabul qiladi. Bunday signallar bo'g'izida hosil bo'lib, og'iz yoki burun orqali tarqaladi.**

7291. Ko'rshapalaklarning exolokatsiya orqali diametri necha mm gacha bo'lgan sim to'siqlarni sezishi aniqlangan? **0,1 – 0,08 mm gacha bo'lgan sim to'siqlarni sezishi aniqlangan.**

7292. Ko'rshapalaklarning nechta turi bor? **650 ta turi bor.**

7293. Ko'rshapalaklarning O'zbekistonda nechta turi ma'lum? **19 ta turi ma'lum.**

7294. Ko'rshapalaklar qachon faol uchib, ovqat qidiradi? **Tunda yoki shomda faol uchib, ovqat qidiradi.**

7295. Ko'rshapalaklarning ko'pchilik turi qaysi iqlimda tarqalgan? **Tropik va subtropik iqlimda tarqalgan.**

7296. Ko'rshapalaklarning ayrim tropik turlari nimalar bilan ovqatlanadi? **Mevalar, gul nektari va changi, issiqqonli hayvonlarning qoni, sut emizuvchilar, sudralib yuruvchilar va baliqlar bilan ovqatlanadi.**





7297. Ko'rshapalaklar o'zlariga qaysilarni makon qilib oladi? **Daraxtlar kovagi, toshlar yorig'i, g'orlar va *imoratlardagi* pana joylarni makon qilib oladi.**

7298. Ko'rshapalaklar minglab individlardan iborat nima hosil qiladi? **Koloniya hosil qiladi.**

7299. Ko'rshapalaklar geterotermbo'lib, ularning tana harorati tashqi muhit harorati ta'sirida nima qilib turadi? **O'zgarib turadi.**

7300. Ko'rshapalak qanday iqlimda tarqalgan? **Mo'tadil va sovuq iqlimda tarqalgan.**

7301. Ko'rshapalaklarning bir qancha turi qishlash uchun qayerga uchib ketadi? **Janubga uchib ketadi.**

7302. Ko'rshapalak necha yilgacha yashaydi? **20 yilgacha yashaydi.**

7303. Ko'rshapalak qishloq xo'jaligiga qanday foyda keltiradi? **Tungi hasharotlarni, jumladan, qishloq xo'jaligi zararkunandalari, qonxo'r ikki qanotlilarni qirib juda katta foyda keltiradi.**

7304. Ko'rshapalaklarning o'simlikxo'r turlari qanday foyda keltiradi? **Gullarni changlantiradi va urug'larni tarqatib foyda keltiradi.**

7305. Ko'rshapalaklarning Amerikadagi ayrim turlari odamlar orasida qanday kasalliklarni tarqatishi aniqlangan? **Qutirish kasalligi virusi va ayrim infektsiyasi kasalliklarni tarqatishi aniqlangan.**

7306. Ko'rshapalaklarning bir qancha turi nima qilinadi? **Muhofaza qilinadi.**

7307. Ko'sak qurti, g'o'za tunlami qaysi oilaga mansub zararkunanda? **Tunlamlar oilasiga mansub zararkunanda.**

7308. Ko'sak qurti kapalagining qanotlari yozilgandagi uzunligi necha mm? **30 – 40 mm.**

7309. Ko'sak qurti kapalagining oldingi qanotlari rangi qanday? **Sarg'ish-kul rang.**

7310. Ko'sak qurti kapalagining oldingi qanotlari o'rtasida qanday dog'lar bor? **Buyraksimon va dumaloq dog'lari bor.**

7311. Ko'sak qurti kapalagi keyingi qanotlarining rangi, nisbatan qanday? **Ochroq.**

7312. Ko'sak qurti kapalagining keyingi qanotlari o'rtasida qanday belgisi bor? **Yarim oysimon belgisi bor.**

7313. Ko'sak qurti kapalagining tuxumlari rangi qanday? **Och sarg'ish.**

7314. Ko'sak qurti kapalagining tuxumlari uzunligi necha mm? **0,4 – 0,5 mm.**

7315. Ko'sak qurti kapalagining lichinkalari rangi qanday? **Ko'kish-sariq.**

7316. Ko'sak qurti kapalagining oxirgi yoshidagi uzunligi necha sm cha? **4 sm cha.**

7317. Ko'sak qurti g'umbaklarining rangi qanday? **To'q qo'ng'ir.**

7318. Ko'sak qurti g'umbaklarining uzunligi necha mm? **15 – 20 mm.**

7319. Ko'sak qurti g'umbaklik davrida qayerda qishlab, qachon kapalaklari uchib chiqadi? **Tuproqda qishlab, aprel – may boshlarida kapalaklari uchib chiqadi.**

7320. Ko'sak qurti qayerlarda uchraydi? **O'rta Osiyo, Kavkaz, Yevropaning janubiy qismida, Xitoy, Yaqin Sharq mamlakatlari va boshq. joylarda uchraydi.**

7321. Ko'sak qurti qaysi ekinlarga tushadi? **Kanop, pomidor, tamaki, baqlajon, mosh, no'xat, makkajo'xori, g'o'za va boshq. ekinlarga ham tushadi.**

7322. Ko'chmanchi chigirtka, osiyo chigirtkasi, to'qay chigirtkasi, qamishzor chigirtkasi, botqoqlik chigirtkasi qanday bo'lib yashovchi chigirtka turi? **Gala bo'lib yashovchi chigirtka turi.**

7323. Ko'chmanchi chigirtka qayerlarda tarqalgan? **Yevropaning janubiy qismi, Zakavkazye, O'rta Osiyo, G'arbiy Sibir, janubiy va Uzoq Sharqda tarqalgan.**

7324. Ko'chmanchi chigirtkaning nechta kenja turi mavjud? Ular qaysilar? **Uchta. Ular: o'rta rus (L. m. rossica), afrika (L. m. migratorcovdes), sharq (L. m. manilensis) va asl ko'chmanchi chigirtka (L. m. migratoria) kenja turlari mavjud.**

7325. Labirintlilar nechta turni birlashtiruvchi nechta oilasi bor? **30 ta turni birlashtiruvchi 4 ta oilasi bor.**

7326. Labirintlilarning qaysi turi akvariumlarda boqiladi? **Gurami turi** akvariumlarda boqiladi.

7327. Labirintlilar baliqlarning qaysi turkumiga mansub kenja turkumi? **Ola bug'asiomnlar turkumiga mansub kenja turkumi.**





7328. Labirintlilarning eng yirigi qaysilari (nomlari)? **Anabas, gurami.**

7329. Labirintlilarning tanasi uzunligi necha sm gacha boradi? **20 sm dan, 60 sm gacha boradi.**

7330. Labirintlilar qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Osiyo, Hind-Malay arxipelagi, Tropik hamda Janubiy Afrikada tarqalgan.**

7331. Labirintlilar qayerlarda yashaydi? **Oqmaydigan yoki sokin oqadigan sero't suv havzalarida yashaydi.**

7332. Labirintlilar nima bilan ovqatlanadi? **Umurtqasiz hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

7333. Labirintlilarda atmosfera havosidan nafas oladigan jabra usti a'zosida qaysi apparat bor? **Labirint apparati bor.**

7334. Laboyoqlilar ko'poyoqlilar kenja sinfi, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, sinfining nomi bo'lib, tanasi qanday a'zolarga bo'lingan gavdadan iborat? **Yassi yoki silindrsimon uzun, bosh va bo'g'imlarga bo'lingan gavdadan iborat.**

7335. Laboyoqlilarning deyarli har bir bo'g'imida nechta juftdan yurish oyoqlari bo'ladi? **Bir juftdan yurish oyoqlari bo'ladi.**

7336. Laboyoqlilarning boshida qanday a'zolar bor? **Bir juftdan antenna va yuqori jag'lar, 2 juft pastki jag'lar bor.**

7337. Laboyoqlilarning antennalari asosida bir to'p oddiy qaysi a'zolari joylashgan? **Ko'zlari joylashgan.**

7338. Laboyoqlilarning ayrimida qaysi a'zolari bo'lmaydi? **Ko'zlari bo'lmaydi.**

7339. Laboyoqlarning 1-juft yurish oyoqlari qaysi a'zolarini hosil qiladi? **Oyoqjag'larini hosil qiladi.**

7340. Laboyoqlilarning 1-juft yurish oyoqlari oyoqjag'lari asosida joylashgan zahar bezlari yo'li qaysi a'zolarining uchki qismiga ochiladi? **Tirnoqlarining uchki qismiga ochiladi.**

7341. Laggar, Hindiston itolg'isi qaysi oilaga mansub qush? **Yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush.**

7342. Laggar qush qayerda o'troq yashaydi? **Hindistonda o'troq yashaydi.**

7343. Laggar qush nechta tuxum qo'yadi? **3 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

7344. Laggar qush qaysi qushdek? **Qarg'adek.**

7345. Laggar qushning qaysi a'zolari qo'ng'ir? **Oyoqlari qo'ng'ir.**

7346. Laggar qush nimalar bilan ovqatlanadi? **Mayda qushlar, kemiruvchilar va sudralib yuruvchilar bilan ovqatlanadi.**

7347. Laggar qush O'zbekistonning qayerlarida uchraydi? **O'zbekistonning Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyatining Chinoz va Ohangaron tumanlarida uchraydi.**

7348. Lazorevka – chumchuqsimonlar turkumining qaysi oilasiga mansub qush? **Chittaksimonlar oilasiga mansub qush.**

7349. Lazorevka qushining kattaligi qaysi parrandanikidek? **Chumchuqnikidek.**

7350. Lazorevka qush yiliga necha marta nechta tuxum qo'yib, bola ochadi? **Ikki marta 9 – 11 ta tuxum qo'yib, bola ochadi.**

7351. Lazorevka qush tuxumini necha kun bosadi? **12 – 14 kun bosadi.**

7352. Lazorevka qush uyasını qayerlarga yasaydi? **Daraxt kovaklariga yasaydi.**

7353. Lazorevka qush qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Shimoliy Afrika, Eron va boshq. yerlarda tarqalgan.**

7354. Lazorevka qush O'rta Osiyoning qaysi Respublikasida uchraydi? **Turkmanistonda uchraydi.**

7355. Lazorevka qush ko'proq qayerlarda yashaydi? **O'rmonlarda, butazorlarda yashaydi.**

7356. Lazorevka qush qishloq xo'jaligiga qanday foyda yetkazadi? **Har xil hasharotlar bilan ovqatlanib, qishloq xo'jaligiga foyda yetkazadi.**

7357. Laylaklar qaysi turkumning bir oilasi? **Uzun oyoqli qushlar turkumining bir oilasi.**

7358. Laylaklarning nechta turini birlashtirgan nechta urug'i bor? **17 ta turni birlashtirgan 11 ta urug'i bor.**

7359. Laylaklar, asosan, qaysi mintaqalarda tarqalgan? **Asosan, tropik, subtropik va mo'tadil mintaqalarda tarqalgan.**

7360. Laylaklarning qaysi turlari MDH davlatlarida uchraydi? **Oq laylak va qora laylak turlari uchraydi.**

7361. Laylaklarning qaysi turlari O'zbekistonda uchraydi? **Oq laylak va qora laylak turlari O'zbekistonda uchraydi.**

7362. Laylaklar qayerlarda yashaydi? **Yalangliklarda, tog'larda va aholi punktlariga yaqin erlarda yashaydi.**





7363. Laylaklar uyasini qayerlarga quradi? **Daraxtlarga, qoyalarga va minoralar tomiga, simyog'ochlarning tepasiga quradi.**

7364. Laylaklar nechta tuxum qo'yadi? **3 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

7365. Laylaklarning erkagimi yoki urg'ochisi tuxumini necha kuncha bosadi? **Ikkala jins ham tuxumini 30 kuncha galma-gal bosadi.**

7366. Laylaklar qanday qush? **Monogam qush.**

7367. Laylaklar nimalar bilan ovqatlanadi? **Baqa, kaltakesak, sichqon, hasharot va boshq. bilan ovqatlanadi.**

7368. Laylaklar qayerlarda qishlaydi? **Markaziy va Janubiy Afrikada, Janubi-g'arbiy Osiyo va G'arbiy Xitoyda qishlaydi.**

7369. Laylaksimonlar, uzun oyoqli qushlar turkumining nechta oilasi bor? **10 ta oilasi bor.**

7370. Laylaksimonlar – qushlar turkumi bo'lib, nechta oilaga **mansub turlari mavjud.**
mansub turlari mavjud? **13 ta oilaga** nomlari nima? **Chin qarqaralar,**

7371. Laylaksimonlarning **bolg'abosh qarqaralar yoki makatumshuq, kitboshlar, bolg'aboshlar, laylaklar va ibislar.**

7372. Laylaksimonlarning O'zbekistonda qarqaralar, laylaklar, ibislar oilasiga mansub nechta turi uchraydi? **13 ta turi.**

7373. Laylaksimonlarning og'irligi qancha g dan qancha kg gacha? **100 g dan 6 kg gacha.**

7374. Laylaksimonlar qayerlardan tashqari yer yuzining hamma qismida tarqalgan? **Arktika va Antarktikadan tashqari yer yuzining hamma qismida tarqalgan.**

7375. Laylaksimonlarning ko'pchiligi qanday iqlimda yashaydi? **Tropik va subtropik iqlimda yashaydi.**

7376. Laylaksimonlar nechta tuxum qo'yadi? **2 – 8 ta tuxum qo'yadi.**

7377. Laylaksimonlarning kichikroq turlari necha haftagacha, yirik turlari necha haftagacha tuxum bosadi? **2,5 hafta, 5 haftagacha tuxum bosadi.**

7378. Laylaksimonlarning nechta turi Xalqaro Qizil kitobga, qancha turi har xil davlatlar Qizil kitoblariga kiritilgan? **9 ta turi Xalqaro Qizil kitobga, bir necha turi har xil davlatlar Qizil kitoblariga kiritilgan.**

7379. Laylaksimonlarning nechta turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan? **To'rtta turi, jumladan, oq laylak, qora laylak kiritilgan.**

7380. Lamalarning qaysi turlari xonakilashtirilgan? **Lama va alpaka turlari xonakilashtirilgan.**

7381. Lamalar qaysi oilaga mansub o'rkachsiz hayvonlar urug'i? **Tuyasimonlar oilasiga mansub o'rkachsiz hayvonlar urug'i.**

7382. Lamalarning balandligi yag'rinidan necha sm? **90 – 100 sm.**

7383. Lamalarning og'irligi qancha kg? **48 – 110 kg.**

7384. Lamalarning qaysi turlari yovvoyi holda yashaydi? **Gunako va vikunya turlari yovvoyi holda yashaydi.**

7385. Lamalar necha yoshida jinsiy yetiladi? **2,5 – 3 yoshida jinsiy yetiladi.**

7386. Lamalarning homiladorlik davri necha oy bo'ladi? **11 oy bo'ladi.**

7387. Lamalar nechta bola tug'adi? **1 – 2 ta bola tug'adi.**

7388. Lamalarning oyoqlari qanday? **Ingichka.**

7389. Lamalarning bo'yni qanday? **Uzun.**

7390. Lamalarning ko'zlari qanday? **Katta.**

7391. Lamalar nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklar bilan ovqatlanadi.**

7392. Lamalar qayerlarda tarqalgan? **Peru, Boliviya, Chili, Argentina va And tog'larida tarqalgan.**

7393. Lamalar nima sifatida va nimalari uchun boqiladi? **Ulov sifatida va go'shti uchun boqiladi.**

7394. Lambliyalar, lyambiyalar – qaysi turkumga mansub xivchinlilar urug'i? **Ko'p xivchinlilar turkumiga mansub xivchinlilar urug'i.**

7395. Lambliyalar qaysi hayvonlar ichagida parazitlik qiladi? **Sut emizuvchilar, ayrim umurtqasiz hayvonlar ichagida parazitlik qiladi.**

7396. Lambliyalar tanasi shakli qanday? **Noksimon shaklda.**

7397. Lambliyalarning tanasi uzunligi necha mkm? **8 – 30 mkm.**

7398. Lambliyalarning qancha turi ma'lum? **100 ga yaqin turi ma'lum.**

7399. Lamantinlar, manatlar qaysi turkumga mansub suvda yashovchi emizuvchilarning bir oilasi? **Sirenalar turkumiga mansub suvda yashovchi emizuvchilarning bir oilasi.**





7400. Lamantinlarning tanasi uzunligi necha m gacha? **4 m (uzunligi ba'zan 5 m gacha).**

7401. Lamantinlarning og'irligi qancha kg? **360 kg, ba'zan 600 kg gacha.**

7402. Lamantinlarning tanasi qanday shaklda? **Urchuqsimon shaklda.**

7403. Lamantinlarning qanday turlari bor? **Amerika lamatinlari, afrika lamatinlari, amazonka lamatinlari bor.**

7404. Lamantinlarning homiladorlik davri necha oy? **5 – 6 oy.**

7405. Lamantinlar necha m keladigan nechta bola tug'adi? **1 m keladigan bitta bola tug'adi.**

7406. Lamantinlarning tuqqan bolasi og'irligi qancha kg? **16 – 27 kg.**

7407. Lamantinlarning dum suzgichi qanday? **Gorizontal, yumaloq.**

7408. Lamantinlarning qaysi a'zolari yo'q? **Quloq suprasi va orqa oyog'i yo'q.**

7409. Lamantinlar necha yoshda jinsiy yetiladi? **3 – 4 yoshda jinsiy yetiladi.**

7410. Lamantinlarning oldingi oyoqlari qaysi a'zolarga aylangan? **Ko'krak suzgichlariga aylangan.**

7411. Lamantinlarning terisida nimasi yo'q? **Juni yo'q.**

7412. Lamantinlarning tanasi rangi qaysi tusdan qaysi ranggacha? **Och tusdan kulranggacha.**

7413. Lamantinlar nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklar bilan.**

7414. Lamantinlar qayerlarda tarqalgan? **G'arbiy Afrikada, Markaziy va Janubiy Amerikada tarqalgan.**

7415. Langustlar qanday iqlimli dengizlarda uchraydi? **Issiq dengizlarda uchraydi.**

7416. Langustlar qaysi turkumning bir oilasi? **O'noyoqli qisqichbaqasimonlar turkumining bir oilasi.**

7417. Langustlarning tanasi uzunligi necha sm cha? **60 sm cha.**

7418. Langustlarning, yirik antenna (mo'ylov)larida nimalar bor? **Qisqichlar bor.**

7419. Langustlarning bosh-ko'krak qalqonida ko'p nimalari bor? **Tikanlari bor.**

7420. Langustlarning yurish oyoqlari, odatda, qanday? **Qisqichsiz.**

7421. Langustlarning tanasi va antennalari nimalar bilan qoplangan? **Tikanlar bilan qoplangan.**

7422. Langustlarning qorni kaltami yoki uzunmi? **Uzun.**

7423. Langustlarning qorinoyoqlari kaltami yoki uzunmi? **Kalta.**

7424. Langustlarning qancha turi qanday dengizlarda tarqalgan? **100 ga yaqin turi tropik va subtropik dengizlarda, faqat oddiy langust (Palinura clephas) Yevropa dengizlarida tarqalgan.**

7425. Langustlar antennasining 1-bo'g'imini ko'krak qalqoniga ishqab baland nima chiqaradi? **Tovush chiqaradi.**

7426. Langustlar tovushi baliqlarni cho'chitib, ularni nimani tashlab qochishiga majbur qiladi? **O'ljani tashlab qochishiga majbur qiladi. Natijada, bu o'lja langustlarga qoladi.**

7427. Langustlarning, asosan, nechta turi ovlanadi? **5 ta turi ovlanadi.**

7428. Langustlar nimaga ishlatiladi? **Ovqatga ishlatiladi.**

7429. Langustlar bilan qaysi jonivorlar ovqatlanadi? **Osminoglar ovqatlanadi.**

7430. Lanning vatani qayer? **O'rta dengiz bo'yi mamlakatlari va Kichik Osiyo.**

7431. Lan qaysi hayvonlar urug'iga mansub juft tuyoqli jonivor? **Bug'ular urug'iga mansub juft tuyoqli jonivor.**

7432. Lan erkagining bo'yi necha sm cha, balandligi yag'rinidan necha sm? **130 sm cha, 85 – 90 sm.**

7433. Lan erkagining og'irligi qancha kg gacha? **40 – 90 kg gacha.**

7434. Lan hayvonining eng katta shoxining og'irligi qancha kg keladi? **5 kg keladi.**

7435. Lan erkagi shoxining uchi qanday kengaygan? **Kurkasimon kengaygan.**

7436. Lanning erkagimi yoki urg'ochisi shoxsiz? **Urg'ochisi shoxsiz.**

7437. Lanning rangi yozda qanday? **Oq xollar aralash to'q sariq-chipor.**

7438. Lanning rangi qishda qanday? **To'q kulrang.**





7439. Lan shoxini qaysi oyda tashlaydi? **May oyida tashlaydi.**

7440. Lan hayvonining yangi shoxi qaysi oygacha o'sib chiqadi? **Sentabrgacha yangisi o'sib chiqadi.**

7441. Lan qaysi oylarda nechta qanday bola tug'adi? **Iyun – iyulda 1 – 2 ta xoldor bola tug'adi.**

7442. Lan hayvonining homiladorlik davri necha oy? **7,5 – 8 oy.**

7443. Lan qaysi MDH davlatlari qo'riqxona va parklarida ko'paytirildi? **Ukraina, Boltiqbo'yi Respublikalaridagi qo'riqxona va parklarda ko'paytiriladi.**

7444. Lan nimalar bilan ovqatlanadi? **O't va butalar bilan ovqatlanadi.**

7445. Lanning nimasi iste'mol qilinadi? **Go'shti iste'mol qilinadi.**

7446. Lansetniklar qaysi tipga mansub xordali hayvon? **Bosh suyaklar kenja tipiga mansub xordali hayvon.**

7447. Lansetniklar tanasining uzunligi necha sm cha? **8 sm cha.**

7448. Lansetniklar Qora dengizda necha m chuqurlikda qumga yarim ko'milib yashaydi? **10 – 30 m chuqurlikda qumga yarim ko'milib yashaydi.**

7449. Lansetniklar nima bilan ovqatlanadi? **Plankton bilan ovqatlanadi.**

7450. Lansetniklar tuxumidan qanday lichinkalar rivojlanadi? **Erkin suzuvchi lichinkalar rivojlanadi.**

7451. Lansetniklarning go'shtida necha foiz oqsil, necha foizcha moy bor? **70 foiz oqsil, 2 foizcha moy bor.**

7452. Lansetniklarning dum suzgich qanoti qanday? **Dum suzgich qanoti lanset-nashtarsimon (nomi ham shundan).**

7453. Lansetniklar xordali hayvonlar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

7454. Lansetniklar xordali hayvonlarni birinchi marta P. S. Pallas 1774-yilda nima deb ta'riflagan? **1774-yilda lansetnikni mollyuska deb ta'riflagan.**

7455. Lappak baliqlar, skatlar akulasimonlar turkumiga mansub baliqlarning qaysi turkumi? **Kenja turkumi.**

7456. Lappak baliqlarning nechta turi ma'lum? **230 ta turi ma'lum.**

7457. Lappak baliqlarning tanasi yalang'och yoki har xil kattalikdagi nimalar bilan qoplangan? **Tangachalar bilan qoplangan.**

7458. Lappak baliqlarning skeleti qanday? **Tog'ay.**

7459. Lappak baliqlarning tanasi shakli qanday? **Yapaloq.**

7460. Lappak baliqlarning uzunligi necha m gacha? **6 m gacha.**

7461. Lappak baliqlarning og'irligi qancha t gacha? **4 t gacha.**

7462. Lappak baliqlar qaysi dengiz va okeanlarda keng tarqalgan? **Hamma dengiz va okeanlarda keng tarqalgan.**

7463. Lappak baliqlar qayerlarda uchraydi? **Arktika va Antarktikaning sovuq suvlarida va tropik dengizlarning iliq sayoz yerlarida uchraydi.**

7464. Lappak baliqlarning ko'pchiligi qayerlarda, ayrimlari necha m chuqurlikda yashaydi? **Qirg'oqqa yaqin yerlarda, ayrimlari 2500 – 2700 m chuqurlikda yashaydi.**

7465. Lappak baliqlarning Amerikada qanday suvda yashaydigan turlari ham bor? **Chuchuk suvda yashaydigan turlari ham bor.**

7466. Lappak baliqlarning ko'pchiligi qanday yerlarda yashaydi? **Qirg'oqqa yaqin yerlarda yashaydi.**

7467. Lappak baliqlarning ba'zilarida qanday a'zolar bo'ladi? **Elektr a'zolari bo'ladi.**

7468. Lappak baliqlarning nechta turi MDH davlatlari hududlaridagi suvlarida uchraydi? **10 ta turi MDH davlatlari hududlaridagi suvlarida uchraydi.**

7469. Lappak baliqlarning ba'zilari qanday tug'adi? **Tuxumdan tirik tug'adi.**

7470. Lappak baliqlarning ayrimlari qanday ko'payadi? **Tuxum qo'yib ko'payadi.**

7471. Lappak baliqlar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Suv osti jonivorlari bilan ovqatlanadi.**

7472. Lappak baliqlarning ba'zi turlari nima qilinadi? **Ovlanadi.**

7473. Latviya qo'ng'ir qoramol zoti nimasi uchun boqiladigan qoramol? **Suti uchun boqiladigan qoramol.**

7474. Latviya jaydari mollarini qaysi mol zotlari bilan chatishtirib yetishtirilgan? **Angeip va Daniya qizil zotlari bilan chatishtirib yetishtirilgan.**





7475. Latviya qo'ng'ir qoramol zoti tuzilishi, oyoqlari qanday? **Pishiq, kalta.**

7476. Latviya qo'ng'ir qoramol zoti muskullari, kallasi qanday? **Rivojlangan, kichik.**

7477. Latviya qo'ng'ir qoramol zotining tumshuq qismi qanday? **Cho'ziqroq.**

7478. Latviya qo'ng'ir qoramol zotining yag'rinidan balandligi necha sm? **126 sm.**

7479. Latviya qo'ng'ir qoramol zoti gavdasining qiya uzunligi necha sm? **154 sm.**

7480. Latviya qo'ng'ir qoramol zotining ko'krak aylanasi necha sm? **183 sm.**

7481. Latviya qo'ng'ir qoramol zoti buqalarining o'rtacha og'irligi qancha kg? **750 – 800 kg.**

7482. Latviya qo'ng'ir qoramol zoti sigirlarining o'rtacha og'irligi qancha kg? **450 – 550 kg.**

7483. Latviya qo'ng'ir qoramol zoti yiliga o'rtacha qancha kg sut beradi? **3500 kg sut beradi.**

7484. Latviya qo'ng'ir qoramol zoti sigirlarining suti yog'liligi necha foiz? **4 foiz.**

7485. Latviya qo'ng'ir qoramol zoti Latviyadan O'zbekistonga nechanchi yillarda keltirilgan? **1956 – 1964-yillarda keltirilgan.**

7486. Latimeriya qaysi guruhga mansub baliq? **Cho'tka qanotlilar guruhiga mansub baliq.**

7487. Latimeriya balig'i qanday harakatlanadi va suzadi? **Suzgich qanotlari bilan suv tubiga tayanib harakatlanadi va suzadi.**

7488. Latimeriya balig'i qaysi orollarda uchraydi? **Anjuan va Katta Komar orollarida uchraydi..**

7489. Latimeriya balig'i birinchi marta nechanchi yilda, ikkinchi marta nechanchi yilda qaysi okeandan ushlangan? **1938-yilda, 1952-yilda Hind okeanidan ushlangan.**

7490. Latimeriya balig'ining hozirgacha nechtasi tutilgan? **20 tachasi tutilgan.**

7491. Latimeriya balig'ining bo'yi necha sm? **160 sm.**

7492. Latimeriya balig'ining og'irligi qancha kg? **80 kg dan ortiq.**

7493. Latimeriya balig'i qachon faol? **Tunda faol.**

7494. Latimeriya balig'i qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baliqlar bilan ovqatlanadi.**

7495. Latilatsiya hozir yashab turgan cho'tka qanotlilar qaysi vakili? **Yagona vakili.**

7496. Latilatsiya qaysi guruhga mansub baliq? **Cho'tka qanotlilar guruhiga mansub baliq.**

7497. Latilatsiya balig'ining boshi qanday? **To'mtoq.**

7498. Latilatsiya balig'i qaysi orollarda uchraydi? **Anjuan va Katta Komar orollarida uchraydi..**

7499. Latchalar, ariq sichqoni suvsarsimonlar oilasining qaysi jonivorlar urug'iga mansub hayvon? **Sassiqko'zanlar urug'iga mansub hayvon.**

7500. Latchalar qaysi oilaga mansub yirtqich sut emizuvchilar guruhi? **Suvsarsimonlar oilasiga mansub yirtqich sut emizuvchilar guruhi.**

7501. Latchalarning qaysi turlari O'rta Osiyoda tarqalgan? **Latcha va oq latcha turlari O'rta Osiyoda tarqalgan.**

7502. Latchalar (Mustela nivalis) – eng mayda yirtqich bo'lib, tanasining uzunligi necha sm? **13 – 28 sm.**

7503. Latchalar (Mustela nivalis) – eng mayda yirtqich bo'lib, og'irligi qancha g dan qancha g gacha? **40 g dan 100 g gacha.**

7504. Latchalar qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Shimoliy Afrika, Shimoliy Amerika va Osiyoda tarqalgan.**

7505. Latchalar juda serharakat bo'lib, qaysi kemiruvchilarni qirib eng katta foyda keltiradi? **Sichqonlarni qirib eng katta foyda keltiradi.**

7506. Latchalar nisbatan qaysi latcha (M. erminea) bir oz yirikroq? **Oq latcha.**

7507. Latchalar (M. erminea)ning tanasi uzunligi necha sm? **16 – 38 sm.**

7508. Latchalar, oq latchalarning og'irligi qancha g gacha? **260 g gacha.**

7509. Latchalarning oq latcha turi qayerlarda uchraydi? **Yevropaning deyarli hamma hududlarida, Shimoliy Amerika, Osiyoning shimoliy qismida uchraydi.**

7510. Latchalar O'rta Osiyoda qaysi dengizdan shimolroqda tarqalgan? **Orol dengizidan shimolroqda tarqalgan.**

7511. Latchalar yiliga necha marta nechtadan bolalaydi? **Bir marta 4 – 8 tadan bolalaydi.**





7512. Laboratoriya hayvonlari qayerlarda foydalaniladigan hayvonlar? **Biologiya, tibbiyot, veterinariya va qishloq xo'jaligida ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan hayvonlar.**

7513. Laboratoriya hayvonlari sifatida qaysi hayvonlardan foydalanish mumkin? **Sodda bir hujayralilardan tortib sut emizuvchilargacha bo'igan barcha hayvonlardan foydalanish mumkin.**

7514. Laboratoriya hayvonlari qaysi jonivorlar hisoblanadi? **Baqalar, sichqonlar (barcha laboratoriya hayvonlarining 70 foizi), kalamushlar, dengiz cho'chqalari, itlar, mushuklar, quyonlar, maymunlar; umurtqasizlardan – ko'pchilik hasharotlar (masalan, drozofilalar, chuvalchanglar, kanalar) an'anaviy laboratoriya hayvonlari hisoblanadi.**

7515. Laboratoriya hayvonlari qayerlarda boqiladi? **Vivariylarda boqiladi.**

7516. Latchalarning yozda yungi tanasining orqa tomonida qanday rang? **Ochiq kulrang.**

7517. Latchalarning yozda yungi qorin tomonida qanday rang? **Oqish yoki sarg'ish.**

7518. Latchalarning yungi arealining shimoliy qismida qishda qaysi rangga kiradi? **Oq rangga kiradi.**

7519. Latchalar juda qanday harakat? **Juda serharakat.**

7520. Latchalarning asosiy ovqati qaysi jonivorlar? **Mayda kemiruvchilar: sichqonlar, dala sichqonlari; kemiruvchilar kam bo'lganida esa baliqlar, baqalar, qushlar uyasidagi jo'jalari.**

7521. Latchalar och qolganida nimalar bilan ovqatlanadi? **Mevalar va har xil organic chiqindilar bilan ovqatlanadi.**

7522. Latchalarning ikkala turi insonga qaysi jonivorlarni qirib, qanday foyda keltiradi? **Zararkunandalarni qirib, insonga katta foyda keltiradi.**

7523. Laqqasimonlarning deyarli barchasi qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Baliqlar bilan ovqatlanadi.**

7524. Laqqalarning yirigi suvda suzuvchi qaysi jonivorlarga ham hujum qilishi mumkin? **Qushlarga ham hujum qilishi mumkin.**

7525. Laqqasimonlarning ayrim turlari qaerda boqiladi? **Akvariumda boqiladi.**

7526. Laqqachalar suvdagi qaysi jonivorlar va ularning nimasi bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar va ularning lichinkalari bilan ovqatlanadi.**

7527. Laqqa (oddiy) sanoat miqyosida nima qilinadi? **Ovlanadi.**

7528. Laqqalarning boshqasi nima ob'ekti sifatida mahalliy ahamiyatga ega? **Ov ob'ekti sifatida mahalliy ahamiyatga ega.**

7529. Laqay ot zotining tana uzunligi qanday? **Pishiq, ko'krakdor.**

7530. Laqay ot zotining sag'risi qanday? **Keng.**

7531. Laqay ot zotining oyoqlari qanday? **Qotma.**

7532. Laqay ot zotining tusi, asosan, qanday? **Asosan, to'riq, ko'k, samon, jiyron, kamdan-kam qora.**

7533. Levkopis qaysi metalldek oqish? **Kumushdek oqish.**

7534. Levkopisning har avlodi rivojlanishi ob-havo sharoitiga qarab necha kun davom etadi? **20-30 kun davom etadi.**

7535. Levkopis katta yoshdagi qurtlari past haroratga ancha chidamli bo'lsa-da, bahorda ko'pi nima bo'ladi? **O'lib ketadi.**

7536. Levkopisning katta yoshdagi qurtlari qaysi oy o'rtalarida g'umbakka aylanadi? **Mart o'rtalarida g'umbakka aylanadi.**

7537. Levkopisning qurtlari o'simlik bitlari va cherveslarning yirtqichi (qishlayotgan komstok qurti)ning necha foizini yo'q qiladi? **80-90 foizini yo'q qiladi.**

7538. Levkopis qurtlari bahorda nimalar bilan ovqatlanadi? **Unli cherves tuxumlari bilan ovqatlanadi.**

7539. Leggorn tovuq zotining boshi kattami yoki kichikmi? **Kichik.**

7540. Leggorn tovuq zotining quloq solinchog'i rangi qanday? **Oq yoki sarg'ish.**

7541. Leggorn tovuq zotining toji qanday (kattami yoki kichikmi)? **Katta.**

7542. Leggorn tovuq zotining pati, asosan, rangi qanday? **Oq, qo'ng'ir, sariq, qora, ko'k.**

7543. Leggorn tovuq zoti qanday (chidamlimi yoki chidamsizmi)? **Chidamli.**

7544. Leggorn tovuq zoti tez yetiladigan qaysinisi ko'proq tarqalgan? **Oq leggorn ko'proq tarqalgan.**





7545. Leggorn tovug'ining tuxumi og'irligi qancha g? **57-60 g.**

7546. Leggorn tovug'idan Rossiyada qaysi tovuq zotlarini yetishtirishda foydalaniladi? **Oq rus tovuq zotlarini yetishtirishda foydalaniladi.**

7547. Lemurlar (Madagaskar)ning kalla suyagi qanday? **Cho'ziq, boshqa turlari (lorilar)da qisqa.**

7548. Limuzin zoti mollari qanday yetiluvchan? **Tez yetiluvchan.**

7549. Limuzin zoti mollari muskullari qanday rivojlangan? **Kuchli rivojlangan.**

7550. Limuzin zoti mollari suyaklari qanday (ingichkami yoki yo'g'onmi)? **Ingichka.**

7551. Limuzin zoti mollari tusi (rangi) qanday? **Qizil.**

7552. Limuzin sigirlari serpusht bo'lib, yillik sog'im qancha kg? **1500-1800 kg.**

7553. Limuzin buzoqlari sut emish davrida jadal o'sadi va 8 oyligining tirik og'irligi qancha kg ga yetadi? **240-300 kg ga yetadi.**

7554. Limuzin buqachalari go'shtga jadal boqilganda 12 oyligida og'irligi qancha kg ga yetadi? **500 kg ga yetadi.**

7555. Latchalarning qaysi turi qimmatbaho mo'yna beradi? **Oq latcha turi qimmatbaho mo'yna beradi.**

7556. Laqqa baliqning mo'ylovi necha juft? **3 juft.**

7557. Laqqa baliqning og'irligi qancha kg cha? **300 kg cha.**

7558. Laqqa baliq qaysi oyda qancha uvildiriq tashlaydi? **Iyunda 480 mingtagacha uvildiriq tashlaydi.**

7559. Laqqa baliq necha yoshda jinsiy yetiladi? **4 – 5 yoshida jinsiy yetiladi.**

7560. Laqqa baliqning tanasi nimasiz? **Tangachasiz.**

7561. Laqqa baliqning orqa suzgich qanoti kattami yoki kichik? **Kichik.**

7562. Laqqa baliqning og'zi tormi yoki keng? **Keng.**

7563. Laqqa baliqning pastki jag'i uzunroqmi yoki yuqorigisi? **Pastki jag'i uzunroq.**

7564. Laqqa baliqning orqa tomoni qanday rangda? **Zaytun rangda.**

7565. Laqqa baliqning ost qismi (qorni) rangi qanday? **Oq.**

7566. Laqqa baliq qayerdagi ko'l va daryolarda yashaydi? **Yevropadagi ko'l va daryolarda yashaydi.**

7567. Laqqa baliq O'zbekiston daryolarida uchraydimi? **Ha, uchraydi.**

7568. Laqqa baliq qaysi faslda suv tubidagi uyasiga nechtagacha uvildiriq tashlaydi? **Bahorda yoki yoz boshida 480 mingtagacha uvildiriq tashlaydi.**

7569. Laqqa baliqning erkagimi yoki urg'ochisi tuxumlarini qo'riqlaydi? **Erkagi tuxumlarini qo'riqlaydi.**

7570. Laqqa baliq qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Umurtqasiz hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

7571. Laqqa baliq nima qilinadi? **Ovlanadi.**

7572. Laqqasimonlar qanday baliqlar turkumi? **Suyakli baliqlar turkumi.**

7573. Laqqasimonlar karpsimonlarga yaqin bo'lib, tanasi uzunligi necha sm dan necha m gacha? **Bir necha sm dan 5 m gacha.**

7574. Laqqasimonlarning qanday a'zosi bor? **Veberov a'zosi bor.**

7575. Laqqasimonlarning nechanchi umurtqalari qo'shilib o'sgan? **2-, 3-, 4 – umurtqalari qo'shilib o'sgan.**

7576. Laqqasimonlarning qaysi a'zolari jag'ida joylashgan? **Tishlari jag'ida joylashgan.**

7577. Laqqasimonlarning tanasi yalang'och yoki qanday plastinkalar bilan qoplangan? **Suyak plastinkalar bilan qoplangan.**

7578. Laqqasimonlarning qancha oilasi bor? **30 ga yaqin oilasi bor.**

7579. Laqqasimonlarning nechta turi bor? **1200 ta turi bor.**

7580. Laqqasimonlarning ko'pchiligi qayerlarda uchraydi? **Amerika, Osiyo, Afrika tropik va subtropik qismida tarqalgan, deyarli barcha turlari chuchuk suvlarda uchraydi.**

7581. Laqqasimonlarning oddiy laqqa (Silurus glanis) qayerlarda tarqalgan? **Yevropa (Shimoliy Muz okeani havzasida tashqari), Orol va Kaspiy dengizi havzalarida tarqalgan.**

7582. Laqqasimonlarning og'irligi qancha kg gacha? **300 kg gacha.**

7583. Laqqasimonlarning anal suzgichi uzunmi yoki kalta? **Uzun.**

7584. Laqqasimonlarning yuqori jag'ida nechta uzun mo'ylovlari bor? **Ikkita uzun mo'ylovlari bor.**

7585. Laqqasimonlarning pastki jag'ida nechta kaltaroq mo'ylovlari bor? **To'rtta kaltaroq mo'ylovlari bor.**





7586. Laqqasimonlar necha yoshda voyaga yetadi? **4 – 5 yoshida voyaga yetadi.**

7587. Laqqasimonlar qachon qancha uvildiriq tashlaydi? **Bahorda yoki yoz boshida 11 ming – 480 ming uvildiriq tashlaydi.**

7588. Laqqasimonlarning qaysi turi O'rta Osiyoning tez oqar daryolarida uchraydi? **Turkiston laqqachasi (Glyptosternum reticulatum) turi uchraydi.**

7589. Laqqasimonlarning deyarli barchasi qanday? **Yirtqich.**

7590. Laqay ot zoti qanday ot turiga kiradi? **Jaydari ot turiga kiradi.**

7591. Laqay ot zotining vatani qayer? **O'rta Osiyo.**

7592. Laqay ot zoti bundan necha yil muqaddam paydo bo'lgan? **300 – 400 yil muqaddam mahalliy jaydari mo'g'ul tipidagi ot zotini yovmut, axaltaka, qorabayir va arabi ot zotlari bilan chatishtirish va uzoq tanlash asosida paydo bo'lgan.**

7593. Laqay ot zoti qanday iqlimga moslashgan? **Quruq va issiq iqlimga moslashgan.**

7594. Laqay ot zotidan, asosan, nima maqsadlarda foydalanishgan? **Poyga va uloq musobaqalari uchun foydalanishgan.**

7595. Laqay ot zoti 1000 m masofani qancha vaqtda bosib o'tgan? **1 min 12.7 sek da bosib o'tgan.**

7596. Laqay ot zotining tirik og'irligi qancha kg? **400 – 450 kg.**

7597. Laqay ot zotining serpushtliligi necha foiz? **85 – 95 foiz.**

7598. Laqay ot zoti ayg'irlarining qarchig'ay balandligi necha sm? **145,7 sm.**

7599. Laqay ot zoti ayg'irlarining gavdasi uzunligi necha sm? **150 sm.**

7600. Laqay ot zotining ko'krak qafasi aylanasi necha sm? **161,8 sm.**

7601. Laqay ot zoti pochasining aylanasi uzunligi necha sm? **19 sm.**

7602. Laqay ot zotining necha yoshli toylari poygaga o'rgatiladi? **2 – 3 yoshli toylari poygaga o'rgatiladi.**

7603. Laqay zotli otlar, asosan, qayerlarda boqiladi? **Tojikistonning Hisor tog' yaylovlarida, Yovon dashtida va O'zbekistonning Surxondaryo viloyatidagi Denov tumanida boqiladi.**

7604. Laqay ot zoti qaysi maxsus yilqichilik xo'jaliklarda urchitiladi? **Dushanba yaqinidagi Sultonobod ot zavodi va respublikadagi maxsus yilqichilik xo'jaliklarida** urchitiladi.

7605. Leanardo da Vinchi nechanchi asrda odam va hayvon anatomiyasini o'rgangan? **XV asrda odam va hayvon anatomiyasini o'rgangan.**

7606. Levkopis qaysi oilaga mansub foydali pashsha – entomofag? **Chamaemyidae – Ochthipilidae oilasiga mansub foydali pashsha – entomofag.**

7607. Levkopisning tanasi uzunligi necha mm? **2 – 5 mm.**

7608. Levkopisning boshida qaysi a'zolarini ajratib turuvchi keng peshonasi bor? **Ko'zlarini ajratib turuvchi keng peshonasi bor.**

7609. Levkopis boshining tepa qismida nimalari yo'q? **Qilchalari yo'q.**

7610. Levkopis yilda nechta avlod beradi? **5 – 6 ta avlod beradi.**

7611. Levkopis qayerda keng tarqalgan? **O'rta Osiyoda keng tarqalgan.**

7612. Levkopis pashshalari qachon uchib chiqadi? **Mart oxiri – aprel boshlarida uchib chiqadi.**

7613. Leggorn tovug'i nima yo'nalishdagi serpusht tovuq zoti? **Go'sht-tuxum yo'nalishidagi serpusht tovuq zoti.**

7614. Leggorn tovug'i nechanchi asrda qayerda Italiya oq tovuqlarini minorka va ispan, urushqoq va boshq. zotlari bilan chatishtirib yaratilgan? **XIX asrda AQShda yaratilgan.**

7615. Leggorn tovuqlarining o'rtacha og'irligi qancha kg? **1,6 – 1,8 kg.**

7616. Leggorn xo'rozlarining o'rtacha og'irligi qancha kg? **2,3 – 2,5 kg.**

7617. Leggorn tovug'i yiliga o'rtacha qancha tuxum qiladi? **240 va undan ortiq tuxum qiladi.**

7618. Leggorn tovug'i Yaponiyadan nechanchi yilda sobiq Ittifoqqa keltirilgan? **1925-yilda sobiq Ittifoqqa keltirilgan.**

7619. Leggorn tovug'i O'zbekistonga nechanchi yilda keltirilgan? **1925-yilda keltirilgan.**

7620. Lemurlar, chala maymunlar, makilar qaysi turkumning kenja turkumi? **Primatlar turkumining kenja turkumi.**

7621. Lemurlarning tanasi uzunligi necha sm? **12 – 72 sm.**

7622. Lemurlarning juni qanday? **Qalin, yaltiroq.**





7623. Lemurlarning tumshug'i qanday? **Cho'ziq.**

7624. Lemurlarning ko'zi va quloqlari kichikmi yoki katta? **Katta.**

7625. Lemurlar ko'pchiligining dumi uzunmi yoki kalta? **Uzun.**

7626. Lemurlarning homiladorlik davri necha oy? **3 – 5 oy.**

7627. Lemurlar nechta bola tug'adi? **1 ta bola tug'adi.**

7628. Lemurlar, chala maymunlar, makilarning necha juft sut bezlari bor? **2 juft sut bezlari bor.**

7629. Lemurlar, chala maymunlar, makilarning nechtaga yaqin hid bilish mo'ylovi bor? **9 taga yaqin hid bilish mo'ylovi bor.**

7630. Lemurlarning oldingi oyoqlari uzunmi yoki orqa oyoqlari? **Orqa oyoqlari uzun, ayniqsa, sakrovchi turlarida.**

7631. Lemurlarning qaysi a'zolari daraxt shoxlariga osilib yurishga moslashgan? **Oyoq va qo'l barmoqlari daraxt shoxlariga osilib yurishga moslashgan.**

7632. Lemurlar qanday oilalarga bo'linadi? **Lemursimonlar va lorsimonlar oilasiga bo'linadi.**

7633. Lemurlar qachon faol? **Tunda faol.**

7634. Lemurlar kunduzi qayerlarda nima qiladi? **Kunduzi daraxt kovaklarida yoki uyasida uxlaydi.**

7635. Lemurlar qayerlarda keng tarqalgan? **Afrikaning tropik o'rmonlari, Madagaskar oroli, Janubi-g'arbiy Osiyo, Shri Lanka va Zond orollarida keng tarqalgan.**

7636. Lemurlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Har xil mevalar, barglar, hasharotlar, qushlarning tuxumi va jo'jasi bilan ovqatlanadi.**

7637. Lenivetslar qaysi turkumga mansub sut emizuvchi hayvonlar oilasi? **Chala tishlar turkumiga mansub sut emizuvchi hayvonlar oilasi.**

7638. Lenok baliq necha yoshida voyaga yetadi? **4 – 6 yoshida voyaga yetadi.**

7639. Lenok baliq qancha uvildiriq tashlaydi? **12 mingga yaqin uvildiriq tashlaydi.**

7640. Lenok qaysi oilaga mansub baliq? **Lolossimonlar oilasiga mansub baliq.**

7641. Lenok baliqning bo'yi necha sm cha? **70 sm cha.**

7642. Lenok baliqning og'irligi qancha kg gacha? **8 kg gacha.**

7643. Lenok baliqlar qayerlardagi daryo va tog' ko'llarida tarqalgan? **Sibir, Uzoq Sharq daryo va tog' ko'llarida tarqalgan.**

7644. Lenok baliqlar qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Umurtqasizo' hayvonlar va mayda baliqlar bilan ovqatlanadi.**

7645. Lenok baliq baliqchilikka qanday zarar keltiradi? **Keta va bukri baliqning uvildiriq hamda yosh baliqchalarini yeb zarar keltiradi.**

7646. Lentasimon (tasmasimon) chuvalchanglar, tasma chuvalchanglar qanday chuvalchanglar kenja tipining bir sinfi? **Yassi chuvalchanglar kenja tipining bir sinfi.**

7647. Lentasimon chuvalchanglarning voyaga etgani odam va umurtqali hayvonlarning qaysi a'zosida parazitlik qiladi? **Ichagida parazitlik qiladi.**

7648. Lentasimon chuvalchanglarning qancha turi ma'lum? **3000 dan ortiq turi ma'lum.**

7649. Lentasimon chuvalchanglarning uzunligi necha mm dan necha m gacha? **Bir necha mm dan 20 m gacha.**

7650. Lentasimon chuvalchanglarda nechta hartumcha bor? **1 ta yoki 4 ta xartumcha bor.**

7651. Lentasimon chuvalchanglarning tanasi nima bilan qoplangan? **Epiteliy bilan qoplangan.**

7652. Leshch baliq nechanchi yilda Zarafshon vodiysi suv havzalariga keltirilgan? **1956-yilda Zarafshon vodiysi suv havzalariga keltirilgan.**

7653. Leshch qayerlarda yashaydi? **Daryolarda, dengizlarning suvi chuchuk qismida yashaydi.**

7654. Leshch qaysi oilaga mansub baliq? **Karpsimonlar oilasiga mansub baliq.**

7655. Leshch balig'ining bo'yi necha sm? **35 – 50 sm.**

7656. Leshch balig'ining og'irligi qancha kg gacha? **5 kg gacha.**

7657. Leshch balig'i qaysi oy boshida suv harorati qancha ° C bo'lganda qancha uvildiriq tashlaydi? **15° C – 20° C bo'lganda bitta leshch 150-200 ming uvildiriq tashlaydi.**

7658. Leshch balig'i necha yoshda voyaga yetadi? **4 yoshida voyaga yetadi.**

7659. Leshch balig'i qanday (umurtqalimi yoki umurtqasizmi) hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Umurtqasiz hayvonlar bilan.**





7660. Leyshmaniyalar qaysi sinfga mansub bir hujayrali jonivorlar urug'i? **Xivchinlilar sinfiga mansub bir hujayrali jonivorlar urug'i**

7661. Leyshmaniyalarning kattaligi necha mkm? **2 – 4 mkm.**

7662. Leyshmaniyalar qaysi hasharotlarni tarqatadi? **Qon so'ruvchi hasharotlarni tarqatadi.**

7663. Leyshmaniyaning odam va sut emizuvchi hayvonlarda parazitlik qiladigan nechta turi bor? **3 ta turi bor.**

7664. Leshmaniyalarning O'rta Osiyoda kala-azar va yomon-jarohat kasalligini qo'zg'atuvchi qaysi turlari uchraydi? **L. donovani va L. tropica turlari uchraydi.**

7665. Ligozomalar qaysi oilaga mansub kaltakesaklar urug'i? **Stsinksimonlar oilasiga mansub kaltakesaklar urug'i.**

7666. Ligozomalarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **30 sm gacha.**

7667. Ligozomalarning nechtacha turi bor? **100 tacha turi bor.**

7668. Ligozomalar qayerlarda tarqalgan? **Avstraliya, Yangi Gvineya, Tinch va Hind okealari orollarida tarqalgan.**

7669. Ligozomalar qayerlarda uchraydi? **Xitoy, Shimoliy va Markaziy Amerikada uchraydi.**

7670. Ligozomalarning kaltakesakka o'xshash qanday turlari bor? **Kaltakesakka o'xshash uzun oyoqli va ilon kabi oyoqsiz turlari bor.**

7671. Ligozomalar qayerlarda yashaydi? **Ochiq yerda, dengiz sohilida, o'rmonlarda yashaydi.**

7672. Likopchalar, dengiz kosachalari qayerlarga yopishib yashaydi? **Dengizning qirg'oq toshlariga yopishib yashaydi.**

7673. Likopchalar, dengiz kosachalari qaysi sinfning bir urug'i? **Qorinoyoqli mollyuskalar sinfining bir urug'i.**

7674. Likopchalar, dengiz kosachalarining chig'anoqlari qanday shaklda? **Konus shaklda.**

7675. Likopchalar nimalar bilan ovqatlanadi? **Mikroorganizmlar bilan ovqatlanadi.**

7676. Likopchalarning qaysi dengiz qirg'oqlarida yashaydigan turining kattaligi necha sm? **Qora dengiz qirg'oqlarida yashaydigan turi – Patilla ponticaning kattaligi 3,5 – 4 sm.**

7677. Likopchalar yangiligida nimaga ishlatiladi? **Ovqatga ishlatiladi.**

7678. Likopchalarni nimalar yeydi? **Ba'zi tur baliqlar yeydi.**

7679. Limuzin nimasi uchun boqiladigan qoramol zoti? **Go'shti uchun boqiladigan qoramol zoti.**

7680. Limuzin qoramol zoti Fransiyaning qaysi viloyatlaridagi go'shtdor qoramollar zotlaridan nimalar asosida yaratilgan? **Markaziy va janubi-g'arbiy viloyatlaridagi go'shtdor qoramollar zotlaridan tanlash va saralash asosida yaratilgan.**

7681. Limuzin zot sifatida nechanchi asrdan ma'lum? **XIX asrdan ma'lum.**

7682. Limuzin buqalarining og'irligi qancha kg? **1000 – 1200 kg.**

7683. Limuzin sigirlarining og'irligi qancha kg? **600 – 650 kg.**

7684. Limuzin qoramol zoti qaysi davlatlarda ko'plab tarqalgan? **AQSh, Angliya, Vengriya, Germaniya, Rossiya va boshq. davlatlarda ko'plab tarqalgan.**

7685. Limuzin zotli mollar O'zbekistonga nechanchi yildan boshlab olib kelinmoqda? **2002-yildan boshlab olib kelinmoqda.**

7686. Lin qaysi oilaga mansub baliq? **Kapsimonlar oilasiga mansub baliq.**

7687. Lin balig'ining uzunligi necha sm? **50 – 63 sm.**

7688. Lin balig'ining og'irligi qancha kg? **0,5 – 7,5 kg.**

7689. Lin balig'ining tangachalari qanday? **Juda mayda, shilimshiqli.**

7690. Lin balig'ining rangi nima tusiga qarab tez o'zgaradi? **Suv tusiga qarab.**

7691. Lin balig'i qancha uvildiriq tashlaydi? **300 – 400 ming.**

7692. Lin balig'i necha yoshda jinsiy yetiladi? **3 – 4 yoshida.**

7693. Lin balig'i qayerlarda yashaydi? **Yevropa va Osiyoning chuchuk suv havzalarida yashaydi.**

7694. Lin balig'i nimalar bilan ovqatlanadi? **Mayda umurtqasizlar, ba'zan suv o'tlari bilan ovqatlanadi.**

7695. Linkoln qo'y zoti nechanchi asrlarda qayerda yetishtirilgan? **XVIII – XIX asrlarda Angliyada yetishtirilgan.**

7696. Linkoln qo'chqorlarining og'irligi qancha kg? **130 – 190 kg.**

7697. Linkoln sovliqlarining og'irligi qancha kg? **80 – 90 kg.**

7698. Linkoln qo'chqorlari yiliga qancha kg jun beradi? **9 – 10 kg** jun beradi.

7699. Linkoln sovliqlari qancha kg jun beradi? **6 – 6,5 kg.**

7700. Linkoln qo'y zoti junining uzunligi necha sm? **20 – 30 sm.**





7701. Linkoln qo'y zotidan necha foiz sof jun chiqadi? **55 – 65 foiz sof jun chiqadi.**

7702. Linkoln qo'y zoti juni tolasining ingichkalik sifati necha? **34 – 44.**

7703. Linkoln qo'y zotining 100 ta sovlig'idan o'rtacha nechta qo'zi olinadi? **120 ta qo'zi olinadi.**

7704. Liparislar qaysi turkumga mansub baliqlar oilasi? **Olabug'asimonlar turkumiga mansub baliqlar oilasi.**

7705. Liparislarning nechta turni birlashtiruvchi, nechta urug'i bor? **120 ta turni birlashtiruvchi, 16 ta urug'i bor.**

7706. Liparislar, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy yarim sharning sovuq va mo'tadil mintaqadagi dengiz hamda okeanlarida tarqalgan.**

7707. Liparislar sobiq Ittifoqning qaysi dengizlarida yashaydi? **Boltiq, Uzoq Sharqdagi va shimoliy dengizlarida yashaydi.**

7708. Liparislarning tanasi cho'ziq bo'lib, necha sm cha? **50 sm cha.**

7709. Liparislarning boshi kattami yoki kichik? **Katta.**

7710. Liparislarning tumshug'i qanday? **To'mtoq.**

7711. Liparislarning ko'pchiligida qorin suzgich qanoti qanday diskka aylangan? **So'ruvchi diskka aylangan.**

7712. Liparislarning qorin suzgich qanoti juda chuqurda yashovchilariniki qanday? **Rivojlanmagan yoki butunlay yo'q.**

7713. Liparislar uvildiriqlarini qachon qayerlarga, ba'zan qayerlarga qo'yadi? **Qishda marjon polipinlarga, ba'zan suv o'simliklariga qo'yadi.**

7714. Liparislar qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Mayda va umurtqasiz hayvonlar bilan ovqatlanadi.**

7715. Liradumlilar qaysi turkumga mansub qushlar oilasi? **Chumchuqsimonlar turkumiga mansub qushlar oilasi.**

7716. Liradumlilarning nechta urug'i bor? **Bitta urug'i bor.**

7717. Liradumlilarning nechta turi bor? **Ikkita turi bor.**

7718. Liradumlilar nechta tuxum qo'yadi? **Bitta tuxum qo'yadi.**

7719. Liradumlilar tuxumini necha kun bosadi? **Tuxumini 45 kun bosadi.**

7720. Liradumlilar bolasi necha oyda uchirma bo'ladi? **2 – 2,5 oyda uchirma bo'ladi.**

7721. Liradumlilarning jo'jasini faqat modasi boqadimi yoki nari? **Faqat modasi boqadi.**

7722. Liradumlilarning erkagi tanasi uzunligi (dumi bilan birga) necha sm? **75 – 130 sm.**

7723. Liradumlilar deyilishiga sabab nima? **Chunki dumi lira shaklida (nomi ham shundan).**

7724. Liradumlilarning pati rangi qanday? **Qo'ng'ir-kulrang.**

7725. Liradumlilarning qaysi biri (narimi yoki modasi) uyasini qayerga yasaydi? **Faqat modasi yerga (tosh va daraxtlar orasiga) yasaydi.**

7726. Liradumlilar qayerlarda yashaydi? **Avstraliyaning qalin o'rmonlarida yashaydi.**

7727. Liradumlilar qayerda hayot kechiradi? **Yerda hayot kechiradi.**

7728. Liradumlilar qayerda tunaydi? **Daraxtlarning shoxida tunaydi.**

7729. Liradumlilarning nari yaxshi sayraydimi yoki urg'ochisi? **Nari yaxshi sayraydi.**

7730. Liradumlilar har xil tovushlar, jumladan, nimalar ovoziga tahlid qila oladi? **Hayvonlar ovoziga taqlid qila oladi.**

7731. Liradumlilar nimalar bilan ovqatlanadi? **Mayda umurtqasizlar, chuvalchanglar, hasharotlar, ba'zan o'simlik urug'lari bilan ovqatlanadi.**

7732. Litorinxlar qaysi oilaga mansub ilonlar urug'i? **Suvilonlar oilasiga mansub ilonlar urug'i.**

7733. Loyxo'raklar qaysi turkumga mansub qushlar urug'i? **Baichiqsimonlar turkumiga mansub qushlar urug'i.**

7734. Loyxo'raklarning nechta turi bor? **13 ta turi bor.**

7735. Loyxo'raklarning O'zbekistonda nechta turi bor? **5 ta turi bor.**

7736. Loyxo'raklarning O'zbekistonda qaysi turlari bor? **Oddiy loyxo'rak, Osiyo loyxo'ragi, dupel, tog' va o'rmon dupellari** turlari bor.

7737. Loyxo'raklar qayerlarda tarqalgan? **Yer sharining hamma qismida tarqalgan.**

7738. Loyxo'rak qushlar faqat qayerda qishlaydi? **Avstraliyada qishlaydi.**

7739. Loyxo'raklar uyasini qanday joyga quradi? **Zax joyga quradi.**





7740. Loyxo'raklar nechta tuxum qo'yadi? **To'rtta tuxum qo'yadi.**

7741. Loyxo'raklarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **30 sm gacha.**

7742. Loyxo'raklarning soni nima uchun ancha kamaygan? **Chunki loyxo'raklarning asosiy yashaydigan joyi – botqoqliklar bo'lib, ular so'nggi yillarda quritilganligi sababli.**

7743. Loyxo'raklarning qaysi a'zosi juda uzun? **Tumshug'i juda uzun.**

7744. Loyxo'raklar ovqatini qaysi a'zosi yordamida topadi? **Uzun tumshug'i yordamida topadi.**

7745. Loyxo'raklarning orqasi rangi qanday? **Sariq-qo'ng'ir.**

7746. Loyxo'raklarning ko'kragi va qorni rangi qanday? **Oqish.**

7747. Loyxo'raklar nima uchun ovlanadi? **Chunki uning go'shti juda mazali bo'lgani uchun ovlanadi.**

7748. Lola, impala qaysi oilaga mansub juft tuyoqli sut emizuvchi hayvon? **Qovushshoxlilar oilasiga mansub juft tuyoqli sut emizuvchi hayvon.**

7749. Lola, impala hayvonining tanasi uzunligi necha m? **1,1 – 1,8 m.**

7750. Lola, impala hayvonining dumi uzunligi necha sm? **25 – 40 sm.**

7751. Lola, impala hayvonining og'irligi qancha kg? **40 – 90 kg.**

7752. Lola, impala hayvonining erkagi shoxlimi yoki urg'ochisi? **Erkagi shoxli.**

7753. Lola, impala hayvoni, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Asosan, Markaziy va Janubiy Afrikada tarqalgan.**

7754. Lorisimon to'tiqushlar qaerlarda tarqalgan? **Avstraliya, Polineziya, Yangi Gvineya, Molukka va Kichik Zond orollarida tarqalgan.**

7755. Lorisimon to'tiqushlarning nechta urug'i bor? **4 ta urug'i bor.**

7756. Lorisimon to'tiqushlarning nechta urug'i qayerda tarqalgan? **Ikkita urug'i Janubi-Sharqiy Osiyoda tarqalgan (Xipcha lori va yo'g'on lori).**

7757. Lorisimon to'tiqushlar, qiltilli to'tiqushlarning qancha turi ma'lum? **60 ga yaqin turi ma'lum.**

7758. Lorisimon to'tiqushlar, qiltilli to'tiqushlar qaysi parrandalar turkumining kenja oilasi sanaladi? **To'tilar turkumining kenja oilasi sanaladi.**

7759. Lorisimon to'tiqushlarning qayerida gul shirasini so'rishga moslashgan ingichka o'simtasi bor? **Tilining uchida gul shirasini so'rishga moslashgan ingichka o'simtasi bor.**

7760. Lorisimon to'tiqushlar qaysi hayvonlar oilasi? **Chala maymunlar oilasi.**

7761. Lorisimonlarning 4 ta urug'i qayerlarda tarqalgan? **Xipcha lori (1 - tur) va yo'g'on lori (2-tur) Janubi-sharqiy Osiyoda, boshqa 2 ta urug'i Afrikada tarqalgan.**

7762. Lorisimonlardan xipcha lorining gavdasi uzunligi necha sm? **20 – 25 sm.**

7763. Lorisimonlardan xipcha lorining dumi qanday? **Dumi bo'lmaydi.**

7764. Lorisimonlardan yo'g'on lorining tanasi uzunligi necha sm? **18 – 40 sm.**

7765. Lorisimonlardan yo'g'on lorining dumi qanday? **Juda kalta.**

7766. Lorisimonlar nechta bola tug'adi? **Bitta bola tug'adi.**

7767. Lorisimonlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Meva, qushlar tuxumi va hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

7768. Los qanday hayvonlar turkumining bug'ular oilasiga mansub hayvon? **Juft tuyoqlilar turkumining bug'ular oilasiga mansub hayvon.**

7769. Los hozir yashab turgan bug'ularning eng nimasi (kichigimi yoki yirigimi)? **Yirigi.**

7770. Los erkagining tanasi uzunligi necha m? **2,2 – 3 m.**

7771. Los erkagining og'irligi qancha kg gacha? **570 kg gacha.**

7772. Losning urg'ochisimi yoki erkagi biroz kichik? **Urg'ochisi biroz kichik.**

7773. Losning o'tkir tuyoqli oyoqlari kaltami yoki uzun? **Uzun.**

7774. Losning qaysi labi (ustkimi yoki pastkimi) sergo'sht? **Ustki labi sergo'sht.**

7775. Losning qaysi a'zosi uzun? **Quloqlari uzun.**

7776. Losning shoxi qanday uzunmi yoki kalta? **Kalta.**

7777. Losning shoxi qaysi oyda tushib, qaysi oyda yangisi chiqadi? **Dekabrda tushib, avgustda yangisi chiqadi.**





7778. Losning erkagi shoxsizmi yoki urg'ochisi? **Urg'ochisi shoxsiz.**

7779. Losning dumi uzunmi yoki kalta? **Kalta.**

7780. Losning juni dag'al bo'lib, qaysi faslda uzun, qaysi faslda qisqaroq? **Qishda uzun, yozda qisqaroq.**

7781. Losning qishda rangi qanday? **To'q qo'ng'ir.**

7782. Losning yozda rangi deyarli qanday? **Qora.**

7783. Losning oyoqlari rangi qanday? **Oq.**

7784. Los Yevropa va Osiyoning qanday zonalarida ko'p? **O'rmon zonalarida ko'p.**

7785. Los, asosan, qayerlarda yashaydi? **O'rmonda, daryo va ko'l sohillarida, butazorlarda, to'qayzorlarda yashaydi.**

7786. Los qanday bo'lib yuradi? **Yakka-yakka yoki poda bo'lib yuradi.**

7787. Los qaysi oylarda urchiydi? **Sentabr – oktabr oylarida urchiydi.**

7788. Losning homiladorlik davri necha kun? **225 – 240 kun.**

7789. Los nechta bola tug'adi? **1 – 2 ta bola tug'adi.**

7790. Los, asosan, nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simlik bargi, novdasi va lishayniklar bilan ovqatlanadi.**

7791. Los nimalari uchun ovlanadi? **Qimmatbaho terisi va mazali go'shti uchun ovlanadi.**

7792. Los qo'lga qanday o'rganadi? **Tez va yaxshi o'rganadi.**

7793. Losdan joylarda nima maqsadda foydalaniladi? **Yuk tashishda foydalaniladi.**

7794. Losossimonlar – seldsimonlar turkumiga mansub qaysi jonivorlarning bir oilasi? **Baliqlarning bir oilasi.**

7795. Lososimonlarning necha urug'i bor? **9 ta urug'i bor.**

7796. Lososimonlarning tanasi nimalar bilan qalin qoplangan? **Tangachalar bilan qoplangan.**

7797. Lososimonlar qaysi yarim sharning qanday suv havzalarida yashaydi? **Shimoliy yarim sharning chuchuk suv havzalarida yashaydi.**

7798. Lososimonlarning ba'zilari qanday? **O'tkinchi.**

7799. Lososimonlarning nechta uruqqa mansub turlari sobiq Ittifoqda uchragan? **7 ta uruqqa mansub turlari sobiq Ittifoqda uchragan.**

7800. Lososimonlarning O'rta Osiyoda qaysi kenja turlari tarqalgan? **Orol lososi yoki kumja va amudaryo gulmoyi degan kenja turlari tarqalgan.**

7801. Lolossimonlar muhim qanday ahamiyatga ega? **Xo'jalik ahamiyatga ega.**

7802. Lolossimonlarning qaysi okeandagi qizil ikrasi (uvildirig'i) yuqori baholanadi? **Tinch okeanidagi qizil ikrasi (uvildirig'i) yuqori baholanadi.**

7803. Loscha, ariq sichqoni qaysi oilaning sassiq ko'zanlar urug'iga mansub hayvon? **Suvsarsimonlar oilasining sassiqko'zanlar urug'iga mansub** hayvon.

7804. Lochin qanday qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qushlar turi? **Yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qushlar turi.**

7805. Lochin qushning qancha kenja turi ma'lum? **20 dan ortiq turi ma'lum.**

7806. Lochin qushning O'rta Osiyoda nechta kenja turi uchraydi? **Ikkita kenja turi uchraydi.**

7807. Lochin qushning O'rta Osiyoda uchraydigan qaysi turlari bor? **Sahro lochini va tundra lochini turlari bor.**

7808. Lochin qushning erkagi yirikmi yoki modasi? **Modasi yirik.**

7809. Lochin qushning uzunligi necha sm gacha? **49 sm gacha.**

7810. Lochin qushning qanotlari yoyilganda necha sm gacha? **115 sm gacha.**

7811. Lochin qushning og'irligi qancha kg cha? **1,2 kg cha.**

7812. Lochin qanday qush? **Monogam qush.**

7813. Lochin qush uyasini qayerlarga quradi? **Tog'liq va jarli yerlarga quradi.**

7814. Lochin qush qaysi oylarda nechta tuxum qo'yadi? **Aprel – may oylarida 2 – 3 ta tuxum qo'yadi.**

7815. Lochin qush bolalari mustaqil uchguncha nimalar bilan birga bo'ladi? **Ota-onasi bilan birga bo'ladi.**

7816. Lochin qush qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Qush va boshq. bilan ovqatlanadi.**

7817. Lochinsimonlarning nechta turi bor? **58 ta turi bor.**

7818. Lochinsimonlar qanday qushlar turkumining bir oilasi? **Yirtqich qushlar turkumining bir oilasi.**

7819. Lochinsimonlarning nechta turi sobiq Ittifoqda uchragan? **10 ta turi sobiq Ittifoqda uchragan.**

7820. Lochinsimonlarning qaysi a'zosi o'tkir? **Tumshug'i o'tkir.**





7821. Lochinsimonlarning qanoti qanday? **Uzun va kambar.**

7822. Lochinsimonlarning qaysi suyagi qisqa? **Ilik suyagi qisqa.**

7823. Lochinsimonlarning barmoqlari kaltami yoki uzun? **Uzun.**

7824. Lochinsimonlar nari va modasining rangi qanday? **O'xshash.**

7825. Lochinsimonlar nechta tuxum qo'yadi? **2 – 6 ta tuxum qo'yadi.**

7826. Lochinsimonlar qayerdan tashqari hamma yerda tarqalgan? **Antarktidadan tashqari hamma yerda tarqalgan.**

7827. Lochinsimonlar qanday hayvonlar, qayerda yashovchilar bilan ovqatlanadi? **Mayda sut emizuvchilar, qushlar, sudralib yuruvchilar, suvda va quruqlikda yashovchilar bilan ovqatlanadi.**

7828. Lotsman, darg'a baliq qaysi iqlimli dengizlarda ko'p tarqalgan? **Tropik va subtropik dengizlarda ko'p tarqalgan.**

7829. Lubxo'rlar, po'stloqxo'rlar oilasiga mansub qaysi jonivorlarning kenja oilasi? **Qo'ng'izlarning kenja oilasi.**

7830. Lubxo'rlarning qancha turi ma'lum? **500 tacha turi ma'lum.**

7831. Lyurik, kichik gagarka qaysi oilaga mansub dengiz qushi? **Gistiklar oilasiga mansub dengiz qushi.**

7832. Lyurik, kichik gagarka dengiz qushining tanasi uzunligi necha sm cha? **25 sm cha.**

7833. Lyurik, kichik gagarka dengiz qushining og'irligi qancha g cha? **150 g cha.**

7834. Lyurik, kichik gagarka dengiz qushi qayerlarda tarqalgan? **Atlantika okeanining shimoli, Shimoliy Muz okeanining g'arbiy qismida tarqalgan.**

7835. Lyurik, kichik gagarka dengiz qushi qayerlarda qanday bo'lib uya quradi? **Arktika sohillarida katta to'da bo'lib uya quradi.**

7836. Lyurik, kichik gagarka dengiz qushi nechta tuxum qo'yadi? **1 – 2 ta tuxum qo'yadi.**

7837. Lyurik quruqlikka faqat nima uchun chiqadi? **Tuxum qo'yish uchun chiqadi.**

7838. Lyurik, kichik gagarka dengiz qushi tuxumini qayerga qo'yadi? **Tuxumini to'shama solmasdan toshlar betiga qo'yadi.**

7839. Lyurik qushi suvda qanday suzadi va sho'ng'iydi? **Yaxshi suzadi va sho'ng'iydi.**
7840. Lyurik qushi qanday ucholmaydi? **Yaxshi ucholmaydi.**
7841. Lyurik qushi qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **May-da dengiz jonivorlari bilan ovqatlanadi.**
7842. Lyambliyani birinchi bo'lib, nechanchi yilda, kim ta'rif-lagan? **1859-yilda, D. F. Lyambl ta'riflagan.**
7843. Lyambliyaning boshida necha juft xivchini bor? **4 juft xivchini bor.**
7844. Lyambliya odam va umurtqali hayvonlarning qayer-larida (ko'pincha yosh bolalarda) yashab, lyamblioz kasalligini qo'zg'atadi? **Ingichka ichagi hamda o't pufagida yashab, ly-amblioz kasalligini qo'zg'atadi.**
7845. Lyambliya qanday hayvonlar tipining xivchinlilar sinfi-ga mansub bir hujayrali jonivor? **Sodda hayvon tipining.**
7846. Lyambliyaning kattaligi necha mkm? **10 – 20 mkm.**
7847. Lyambliya jonivorining tanasi qanday shaklda? **Nok-simon shaklda.**
7848. Lyambliyalar qaysi turkumga mansub xivchinlar urug'i sanaladi? **Ko'p xivchinlilar turkumiga mansub xivchinlar urug'i sanaladi.**
7849. Lyambliyalar qaysi hayvonlar ichagida parazitlik qila-di? **Sut emizuvchilar (odam, quyon, sichqonlar), suvda va quruqlikda yashovchilar, ayrim umurtqasiz hayvonlar icha-gida parazitlik qiladi.**
7850. Lyambliyalarning tanasi uzunligi necha mkm? **8 – 30 mkm.**
7851. Lyambliyalarning qancha turi ma'lum? **100 ga yaqin turi ma'lum.**
7852. Madagaskar lemurlarining kalla suyagi qanday? **Cho'ziq, boshqa turlari (lorilar)da qisqa.**
7853. Mabuyalarning qaysi turi O'zbekistonda uchraydi? **Til-la mabuya turi** O'zbekistonda uchraydi.
7854. Mabuyalar qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Osiyo, Afri-ka, Markaziy va Janubiy Amerikada tarqalgan.**
7855. Mabuyalar qaysi oilaga mansub kaltakesaklar urug'i? **Stsinusimonlar oilasiga mansub kaltakesaklar urug'i.**
7856. Mabuyalarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **22 sm gacha.**





7857. Mabuyalarning nechtagacha turi bor? **90 tagacha turi bor.**
7858. Mabuyalarning ko'p turi qanday tug'adi? **Tirik tug'adi.**
7859. Mabuyalarning ba'zilari qaysi oyda nechta tuxum qo'yadi? **Iyunda 4 – 8 ta tuxum qo'yadi.**
7860. Mabuyalarning qaysi a'zolari yaxshi rivojlangan? **Oyoqlari yaxshi rivojlangan.**
7861. Mabuyalarning qaysi a'zosi harakatchan? **Qovog'i harakatchan.**
7862. Mabuyalar qayerlarda uchraydi? **Armaniston, Janubiy Turkmaniston va O'zbekistonda uchraydi.**
7863. Mabuyalarning usti qanday tusda? **Qo'ng'ir, ola tusda.**
7864. Mabuyalarning qaysi a'zosi sarg'ish-kul rang? **Qorni sarg'ish-kul rang.**
7865. Mabuyalar qayerlarda yashaydi? **Tog' va tekisliklarda, toshlar orasida, soy va ariq bo'ylarida yashaydi.**
7866. Mabuyalar qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Ha-sharotlar, bo'g'imoyoqlilar va boshq. bilan ovqatlanadi.**
7867. Mazamalar qaysi oilaga mansub juft tuyoqli sut emizuv-chilarning bir urug'i? **Bug'ular oilasiga mansub juft tuyoqli sut emizuvchilarning bir urug'i.**
7868. Mazamalarning nechta turi ma'lum? **4 ta turi ma'lum.**
7869. Mazamalarning og'irligi qancha kg? **18 – 25 kg.**
7870. Mazamalar yilda nechta bola tug'adi? **Yilda 1 – 2 ta bola tug'adi.**
7871. May qo'ng'izlari qanday mo'ylovli qo'ng'izlar kenja oilasi? **Plastinka mo'ylovli qo'ng'izlar kenja oilasi.**
7872. May qo'ng'izlarining rangi qanday? **Och sariq yoki oqish.**
7873. May qo'ng'izlarining tanasi uzunligi necha mm? **15 – 35 mm.**
7874. May qo'ng'izlarining qurtlari tanasi uzunligi necha mm? **30 – 70 mm.**
7875. May qo'ng'izlari yumshoq tuproqda necha sm chuqur-likka nechtaga yaqin tuxum qo'yadi? **20 – 30 sm chuqurlikka 100 taga yaqin tuxum qo'yadi.**
7876. May qo'ng'izlari tuxumlaridan chiqqan qurtlari tuproq-da necha yil rivojlanadi? **3 yil, ba'zan 4 yil rivojlanadi.**
7877. May qo'ng'izlarining qurtlari nechanchi yili g'umbak-ka aylanib, undan necha oydan so'ng qo'ng'izlar chiqadi? **4-yili, 1-1,5 oydan so'ng qo'ng'izlar chiqadi.**

7878. May qo'ng'izlari qaysi oyda paydo bo'ladi? **May oyida paydo bo'ladi (nomi shundan olingan).**

7879. May qo'ng'izlarining voyaga yetganlari qaysi fasl oylarida tuproqdan uchib chiqib, necha kun yashaydi? **Bahor oylarida, 20 – 40 kun yashaydi.**

7880. May qo'ng'izlarining yoshlari qayerda qishlab qoladi? **Tuproqda qishlab qoladi.**

7881. May qo'ng'izlarining qaysi turlari Yevropa hududida tarqalgan? **G'arb may qo'ng'izlari va sharq may qo'ng'izlari Yevropa hududida tarqalgan.**

7882. May qo'ng'izlarining qaysi turlari O'rta Osiyoda tarqalgan? **Zararkunanda may qo'ng'izlari, uch tishli may qo'ng'izlari va mart qo'ng'izi tarqalgan.**

7883. Mayva qaysi oilaga mansub baliq? **Kuryushkanamolar oilasiga mansub baliq.**

7884. Mayva balig'ining tanasi uzunligi necha sm cha? **22 sm cha.**

7885. Mayva balig'ining og'irligi qancha g? **17 g.**

7886. Mayva balig'i necha yoshida jinsiy yetiladi? **2 – 3 yoshida jinsiy yetiladi.**

7887. Maymunlar qaysi turkumga mansub yuksak rivojlangan sut emizuvchilarning kenja turkumi? **Primatlar turkumiga mansub yuksak rivojlangan sut emizuvchilarning kenja turkumi.**

7888. Maymunlar nechta guruhga bo'linadi? Ular qaysi guruhlar? **2 ta guruhga bo'linadi. Ular: keng va tor burunli maymunlar.**

7889. Maymunlarning tana uzunligi necha sm dan necha m gacha? **16 sm dan (o'ynoqi maymunlar), 2 m gacha (gorilla).**

7890. Maymunlarning og'irligi qancha g dan qancha kg gacha? **400 g dan 200 kg gacha.**

7891. Maymunlarning ko'pchiligida qo'l va oyog'ining bosh barmog'i boshqa barmog'lariga nisbatan qanday joylashgan? Nima uchun? **Qarama-qarshi joylashgan. Buyumlarni (narsalarni) tutish uchun.**

7892. Maymunlarning qaysi a'zosi yomon rivojlangan? **Hid bilish a'zosi yomon rivojlangan.**





7893. Maymunlarning qaysi a'zolari yaxshi rivojlangan? **Sezish, ko'rish va eshitish a'zolari yaxshi rivojlangan.**

7894. Maymunlarning qaysi muskullari yaxshi taraqqiy etgan? **Mimika muskullari yaxshi taraqqiy etgan.**

7895. Maymunlarning homiladorlik davri necha oy? **3 – 9 oy.**

7896. Maymunlar nechta bola tug'ishadi? **1 – 2 ta bola tug'ishadi.**

7897. Maymunlarning ko'kragida necha juft sut bezlari bor? **Bir juft sut bezlari bor.**

7898. Maymunlarning tishi nechta? **32 ta.**

7899. Maymunlar qayerlarda hayot kechiradi? **Daraxtda va yerda hayot kechiradi.**

7900. Maymunxo'r garpiya birinchi marta nechanchi yilda qaysi orollarda topilgan? **1894-yilda Filippin orollarida topilgan.**

7901. Maymunxo'r garpiya qaysi oilaga mansub qush? **Yirtqich qushlar turkumining qarchig'oysimonlar oilasiga mansub qush.**

7902. Maymunxo'r garpiyaning tanasi uzunligi necha sm? **80 – 90 sm.**

7903. Maymunxo'r garpiyaning qanoti uzunligi necha sm gacha? **50 sm gacha.**

7904. Maymunxo'r garpiyaning oyog'i qanday rangli? **Sariq rangli.**

7905. Maymunxo'r garpiya, asosan, qaysi orollarning qayerlarida yashaydi? **Mindanao, Luson va Leyta orollarining qalin tropik o'rmonlarida yashaydi.**

7906. Maymunxo'r garpiya qanday hayot kechiradi? **Yashirin hayot kechiradi.**

7907. Maymunxo'r garpiya, asosan, nimalarni tutib yeydi? **Asosan, makaka (maymun)larni (nomi ham shundan), ba'zan hayvon va parrandalarni tutib yeydi.**

7908. Mayna qaysi turkumning shaqshaqlar oilasiga mansub qush? **Chumchuqsimonlar turkumining shaqshaqlar oilasiga mansub qush.**

7909. Mayna qushning qayerlari qo'ng'ir? **Orqasi, qorni qo'ng'ir.**

7910. Mayna qushning qaysi a'zolari atrofi sariq? **Ko'zi, tumshug'i atrofi sariq.**

7911. Mayna qushning qaysi a'zolari kalta? **Dumi, qanoti kalta.**

7912. Mayna qush uyasini qayerlarga yasaydi? **Kovaklarga, jarliklardagi yoriqlar va h.k. larga yasaydi.**

7913. Mayna qush bolalari necha kunda uchirma bo'ladi? **25 kunda uchirma bo'ladi.**

7914. Mayna qushning tanasi uzunligi necha sm gacha? **25 sm gacha.**

7915. Mayna qushning og'irligi qancha g? **40 – 60 g.**

7916. Mayna qush nechta tuxum qo'yadi? **4 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

7917. Mayna qush tuxumini necha kun bosadi? **14 kun bosadi.**

7918. Mayna qush bir yilda necha marta bola ochadi? **2 – 3 marta bola ochadi.**

7919. Mayna qanday qush? **O'troq qush.**

7920. Mayna qush qayerlarda tarqalgan? **Hindiston, Pokiston, Myanma, Afg'oniston, O'rta Osiyo mamlakatlari va boshq. da tarqalgan.**

7921. Mayna O'zbekistonda qachon tarqala boshlagan? **XX asrning 50-yillarida tarqala boshlagan.**

7922. Mayna qush qanday hayvonlar bilan ovqatlanib, qishloq xo'jaligiga foyda keltiradi? **Hasharotlar bilan ovqatlanib, qishloq xo'jaligiga foyda keltiradi.**

7923. Maysa pashshasi necha qanotlilarga mansub zararkunanda hashorat? **Ikki qanotlilarga mansub zararkunanda hashorat.**

7924. Maysa pashshasi qayerda uchraydi? **O'rta Osiyoda uchraydi.**

7925. Maysa pashshasining voyaga yetgani tanasi uzunligi necha mm? **5,5 mm.**

7926. Maysa pashshasining lichinkasi tanasi uzunligi necha mm? **7 mm.**

7927. Maysa pashshasining bitta urg'ochisi necha donagacha tuxum qo'yadi? **100 donagacha tuxum qo'yadi.**

7928. Maysa pashshasi yoz faslida necha kun, erta bahorda va kech kuzda necha kun o'tgach, tuxumlardan lichinkalar chiqadi va darhol tuproq orasiga kirib yashirinadi? **2 – 4 kun, 5 – 10 kun o'tgach, tuxumlardan lichinkalar chiqadi va darhol tuproq orasiga kirib yashirinadi.**

7929. Maysa pashshasining lichinkalari tuproqning necha sm chuqurligida yashaydi? **3 – 5 sm chuqurligida yashaydi.**





7930. Maysa chivini necha qanotlilar turkumi chin pashshalar oilasiga mansub hasharot? **Ikki qanotlilar turkumi chin pashshalar oilasiga mansub hasharot.**

7931. Maysa chivinining tanasi uzunligi necha mm? **3 – 5 mm.**

7932. Maysa chivini qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Shimoliy Amerika, Sibir, O'rta Osiyo, Qozog'iston va boshq. mamlakatlarda tarqalgan.**

7933. Maysa chivini o'rta mintaqalarda bir yilda necha marta janubda esa necha marta avlod beradi? **2 – 3, 3, 4 marta avlod beradi.**

7934. Maysa chivinining urg'ochisi tuxumini (1 – 4) qayerlarga qanday qo'yadi? **Tuproq yuzasi va yoriqlariga tarqoq qo'yadi.**

7935. Maysa chivini lichinkalari necha kunda chiqib, necha sm chuqurlikda yashaydi? **2 – 10 kunda lichinkalari chiqib, 3 – 5 sm chuqurlikda yashaydi.**

7936. Mayqutlar inini qayerga qo'yadi? **Butalarga qo'yadi.**

7937. Mayqutlar qayerda qishlaydi? **Afrikada qishlaydi.**

7938. Makakalar qayerlarda tarqalgan? **Afrikada, Janubiy-G'arbiy Yevropa, Janubiy Osiyoda tarqalgan.**

7939. Makakalar qaysi oilaga mansub tuban tor burunli maymunlar urug'i? **Martishkalar kenja oilasiga mansub tuban tor burunli maymunlar urug'i.**

7940. Makakalarning tanasi uzunligi necha sm? **34 – 65 sm.**

7941. Makakalarning dumi uzunligi necha sm? **5 – 70 sm.**

7942. Makakalarning og'irligi qancha kg? **3,5 – 18 kg.**

7943. Makakalarning nechta turi bor? **12 ta turi bor.**

7944. Makakalar necha yilda jinsiy yetiladi? **3,5 – 4,5 yilda jinsiy yetiladi.**

7945. Makakalar yiliga nechta bola tug'adi? **Bitta bola tug'adi.**

7946. Makakalarning homiladorlik davri necha oy? **5 – 6 oy.**

7947. Makakalarning nechta turi Afrika va Janubi-g'arbiy Yevropada tarqalgan? Nomi nima? **1 ta turi. Magot.**

7948. Makakalarning 12 ta turidan 11 ta turi qayerda tarqalgan? **Janubiy Osiyoda tarqalgan.**

7949. Makakalar nimalar bilan ovqatlanadi? **Meva, ildiz, barg, hasharot hamda uning lichinkalari, ba'zilari qisqichbaqasimonlar, krab va boshq. bilan ovqatlanadi.**

7950. Makakalarning bir nechtasi nima bo'lib yashaydi? **Poda bo'lib yashaydi.**

7951. Malich qo'y zoti nimalari uchun boqiladigan dag'al junli qo'y zoti sanaladi? **Terisi va suti uchun boqiladigan dag'al junli qo'y zoti sanaladi.**

7952. Malich qo'y zotining vatani qayer? **Osiyo.**

7953. Malich qo'y zoti qayerlarda keng tarqalgan? **Qrim va Kubanda keng tarqalgan (chorvadorlar dumli qo'ylarni "malish qo'ylar" deb ataydilar).**

7954. Malich qo'y zoti yiliga qancha kg jun beradi? **2 – 2,5 kg jun beradi.**

7955. Malich qo'y zoti dumining shakli, yog'liligi qaysi qo'ylarnikiga o'xshaydi? **Qorako'l qo'ylarinikiga o'xshaydi.**

7956. Malich qo'y zoti qaysi qo'ylar guruhiga kiradi? **Dumli qo'ylar guruhiga kiradi.**

7957. Malich qo'y zoti qo'chqorlarining o'rtacha tirik og'irligi qancha kg? **55 – 60 kg.**

7958. Malich qo'y zoti sovliqlarining o'rtacha tirik og'irligi qancha kg? **40 kg.**

7959. Malich qo'y zoti sovliqlari sog'im mavsumida qancha kg sut beradi? **35 – 40 kg sut beradi.**

7960. Malich qo'y zotining qo'zilari teri olish uchun necha kunligida so'yiladi? **2 – 3 kunligida so'yiladi.**

7961. Malich qo'y zoti qo'zilarining terilari qanday tusda? **Ko'proq oq, qora va kamroq kulrang tusda.**

7962. Malich qo'y zoti qanday sharoitga moslashgan? **Tog' va cho'l-dasht sharoitiga moslashgan.**

7963. Malich qo'y zoti qo'zilarining terisi qorako'l qo'zilari terisiga o'xshamasa ham lekin terisi qanday baholanadi? **Yuqori baholanadi.**

7964. Malpigi naychalari – ko'pchilik o'rgimchaksimonlar, ko'poyoqlilar va hasharotlarning chiqarish a'zolari bo'lib, o'rta va orqa ichak chegarasida joylashgan uchi berk o'simtalar o'rgimchaksimonlar va ko'poyoqlilarda necha juftgacha bo'ladi? **1 juftgacha bo'ladi.**

7965. Malpigi naychalari – ko'pchilik o'rgimchaksimonlar, ko'poyoqlilar va hasharotlarning chiqarish a'zolari bo'lib, o'rta va orqa ichak chegarasida joylashgan uchi berk o'simtalar to'g'ri





qanotli hasharotlarda necha juftgacha bo'ladi? **120 juftgacha bo'ladi**

7966. Malpigi naychalari – ko'pchilik o'rgimchaksimonlar, ko'poyoqlilar va hasharotlarning chiqarish a'zolari bo'lib, o'rta va orqa ichak chegarasida joylashgan uchi berk o'simtalar pardaqanotlilarda necha juftgacha bo'ladi? **150 juftgacha bo'ladi.**

7967. Malayya gaviali (Tomistoma schlegeli) degan turi qaysi orollarda yashaydi? **Sumatra, Kalimantan, Molukka orollarida yashaydi.**

7968. Malhamchilar qaysi turkumga mansub qo'ng'izlar oilasi? **Qattiq qanotli hasharotlar turkumiga mansub qo'ng'izlar oilasi.**

7969. Malhamchilarning O'rta Osiyoda qancha turi tarqalgan? **20 dan ortiq turi tarqalgan.**

7970. Malhamchilarning tanasi uzunligi necha mm? **8 – 30 mm.**

7971. Malhamchilar qonida hasharotxo'r hayvonlardan himoyalaydigan qanday modda bor? **Zaharli modda – kantaridin bor.**

7972. Malhamchilar qoni odamning badaniga tushsa nima qiladi? **Yara qiladi.**

7973. Malhamchilarning ba'zi turlaridan tibbiyotda nima tayyorlanadi? **Malham tayyorlanadi.**

7974. Malhamchilar qanday tusda? **Qizil, sariq, qora tusda.**

7975. Malhamchilar tuxumini qayerga qo'yadi? **Yerga qo'yadi.**

7976. Malhamchilarning lichinkalari qaysi jonivorlar inida yarim parazitlik bilan yashab, qanday yo'l bilan rivojlanadi? **Chigirtka yoki arilarning inida yarim parazitlik bilan yashab, gipermetamorfoz yo'li bilan rivojlanadi.**

7977. Malhamchilar, asosan, qayerlarda yashaydi? **Tropik va subtropik yerlarda yashaydi.**

7978. Malhamchilarning voyaga yetganlari nima bilan ovqatlanadi? **O'simlik bilan ovqatlanadi.**

7979. Malhamchilarning er yuzida qancha turi bor? **4000 ga yaqin turi bor.**

7980. Malhamchilarning sobiq Ittifoqda qancha turi bo'lgan? **300 dan ortiq turi bo'lgan.**

7981. Malhamchilar qishloq xo'jalik ekinlariga katta nima yetkazadi? **Zarar yetkazadi.**

7982. Mamba ilonlar qaysi oilaga mansub zaharli ilonlar urug'i? **Aspidlar oilasiga mansub** zaharli ilonlar urug'i.

7983. Mamba ilonlarining tanasi uzunligi necha m? **2 – 4 m.**

7984. Mamba ilonlarining nechta turi bor? **5 ta turi bor.**

7985. Mamba ilonlari qaysi o'rmonlarda keng tarqalgan? **Afrika o'rmonlarida keng tarqalgan.**

7986. Mamont qaysi oilaga mansub qirilib ketgan sut emizuvchi hayvon? **Fillar oilasiga mansub qirilib ketgan sut emizuvchi hayvon.**

7987. Mamont qachon qayerlarda yashagan? **Pleyston 2-yarmida Yevropa, Shimoliy Osiyo va Janubiy Amerikada yashagan.**

7988. Mamontning suyak qoldiqlari qaysi davrda odamlar yashagan joylardan, yaxshi saqlanganga jasadlari qayerlarda muz qatlamlaridan topilgan? **Tosh davrida, Sibir va Amerikada topilgan.**

7989. Mamontning bo'yi necha m? **2,5 – 3,5 m.**

7990. Mamontning og'irligi qancha t gacha? **7 t gacha.**

7991. Mamontning og'zidan chiqib turadigan tishlarining uzunligi necha m? **4 m.**

7992. Mamontning og'zidan chiqib turadigan tishlarining og'irligi qancha kg gacha kelgan? **100 kg gacha kelgan.**

7993. Mamont tishlari qachon qayerdan ovqat topish uchun xizmat qilgan? **Qishda qor ostidan ovqat topish uchun xizmat qilgan.**

7994. Mamontning qaysi tishlari dag'al o'simliklar chaynashga yaxshi moslashgan? **Jag' tishlari dag'al o'simliklar chaynashga yaxshi moslashgan.**

7995. Mamontning muz qatlamidan topilgan dandon tishlari nimalar tayyorlashda ishlatiladi? **Bezak buyumlari tayyorlashda ishlatiladi.**

7996. Mamontning topilgan qismlaridan tiklangan tuluml va skeleti qayerga qo'yilgan? **Russiya FAning Zoologiya instituti muzeyiga (Sankt-Peterburg sh.) qo'yilgan.**

7997. Mandarinka qaysi oilaga mansub qush? **O'rdaksimonlar oilasiga mansub qush.**





7998. Mandarinka qushning bo'yi necha sm cha? **40 sm cha.**

7999. Mandarinka qushning og'irligi qancha g cha? **500 g cha.**

8000. Mandarinka qush qayerda uchraydi? **Janubi-Sharqiy Osiyoda uchraydi.**

8001. Mandarinka qush O'zbekistonning qayerida uchraydi? **O'zbekistonda yo'q.**

8002. Mandarinka qush nechta tuxum qo'yadi? **9 – 12 ta tuxum qo'yadi.**

8003. Mandarinka qush narining patlari qaysi davrda rang-barang tusga kiradi? **Urchish davrida rang-barang tusga kiradi.**

8004. Mandarinka qushning nari va modasi qaysi fasllarda qo'ng'ir rangda bo'ladi? **Yoz va kuzda qo'ng'ir rangda bo'ladi.**

8005. Mandarinka qush uyasini qayerlarga quradi? **Kovaklarga quradi.**

8006. Mandarinka qush qanday suzadi? **Yaxshi suzadi.**

8007. Mandarinka qush qanday uchadi? **Tez uchadi.**

8008. Mandarinka qush qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Mollyuska, chuvalchang va boshq. bilan ovqatlanadi.**

8009. Mandarinka qushlarning xo'jalik ahamiyati qanday? **Kam.**

8010. Mandarinka qushlar qaysi davlatlarda xonakilashtirilgan? **Xitoy va Yaponiyada xonakilashtirilgan.**

8011. Mandrillar qaysi oilaga mansub tor burunli maymunlar urug'i? **Martishkalar kenja oilasiga mansub tor burunli maymunlar urug'i.**

8012. Mandrillarning tanasi uzunligi necha sm? **70 – 80 sm.**

8013. Mandrillarning dumi uzunligi necha sm? **7 – 12 sm.**

8014. Mandrillarning og'irligi qancha kg gacha? **20 kg gacha.**

8015. Mandrillarning qaysi oyoqlari uzun? **Oldingi oyoqlari uzun.**

8016. Mandrillarning nechta turi bor? **2 ta turi bor.**

8017. Mandrillar turlarining nomlari nima? **Asl mandrillar va drill.**

8018. Mandrillarning juni rangi qanday? **Qo'ng'ir yoki qora.**

8019. Mandrillarning qaysi a'zosi oq? **Qorni** oq.

8020. Mandrillar tumshug'ining ba'zi joylari qanday rangli? **Qizil rangli.**

8021. Mandrillar o'tirgich qadog'i qanday rangli tusda? **Qizil, ko'k yoki gunafsha tusda.**

8022. Mandrillar qayerlarda gala bo'lib yashaydi? **G'arbiy Afrikaning qalin o'rmonlarida yashaydi.**

8023. Mandrillar nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simlik mevalari va hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

8024. Manul, dala mushugi qaysi oilaga mansub yirtqich sut emizuvchi hayvon? **Mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich sut emizuvchi hayvon.**

8025. Manul kattaligi qaysi hayvonnikidek keladi? **Uy mushuginikidek keladi.**

8026. Manul qayerlarda tarqalgan? **Markaziy Osiyoda, Janubiy Zakavkazyeda, Qozog'iston, O'rta Osiyo, Oltoy o'lkasi va Zabaykalyeda tarqalgan.**

8027. Manul qayerlarda yashaydi? **Tog'liq va qirlik cho'llarda yashaydi.**

8028. Manul qachon faol? **Tunda faol.**

8029. Manul qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda yirtqichlar va qushlar bilan ovqatlanadi.**

8030. Manul nimasi uchun ovlanadi? **Mo'ynasi uchun ovlanadi.**

8031. Mangustlar qanday sut emizuvchi hayvonlar turi? **Yirtqich sut emizuvchi hayvonlar turi.**

8032. Mangustlar qaysi jonivorlar oilasiga kiradi? **Viverralar oilasiga kiradi.**

8033. Mangustlarning nechta turi Janubiy Osiyoda, nechta turi Afrikada tarqalgan? **10 ta turi Janubiy Osiyoda, 6 ta turi Afrikada tarqalgan.**

8034. Mangustlarning Yevropa (Ispaniya)da nechta turi uchraydi? **1 ta turi uchraydi.**

8035. Mangustlarning tanasi uzunligi necha sm? **23 – 64 sm.**

8036. Mangustlarning dumi necha sm gacha? **50 sm gacha.**

8037. Mangustlarning mo'ynasi qanday? **Dag'al.**

8038. Mangustlarning mo'ynasi rangi qanday? **Bir xilda sidirg'a yoki yo'l-yo'l.**

8039. Mangustlar qayerlarda yashaydi? **O'rmon va butazorlarda, ba'zan odamlarga yaqin joylarda yashaydi.**

8040. Mangustlar qachon faol? **Tunda faol.**

8041. Mangustlar qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda umurtqalilar, ba'zan umurtqasiz hayvonlar bilan ovqatlanadi.**





8042. Mangustlar qaysi jonivorlarni yeb, foyda keltiradi? **Zaharli ilonlarni yeb, foyda keltiradi.**

8043. Manorx qushi necha km masofaga ucha oladi? **4000 km masofaga ucha oladi.**

8044. Marvariddorlar qayerlarda yashovchi necha tavaqali mollyuskalarning umumiy nomi? **Chuchuk va dengiz suvlarida yashovchi ikki tavaqali mollyuskalarning umumiy nomi.**

8045. Marvariddorlar chig'anoqlarining ichki tomonida nima etishadi? **Marvarid donalari etishadi.**

8046. Marvariddorlarning Pinctada urug'iga mansub to'garak chig'anoqli turi qaysi dengizlarda ko'p uchraydi? **Tropik dengizlarda ko'p uchraydi.**

8047. Marvariddorlar qayerda yashaydi? **Suv tubidagi narsalarga yopishib yashaydi.**

8048. Marvariddorlar qaysi davlatda marvaridi uchun qayerda boqiladi? **Yaponiyada akvariumda boqiladi.**

8049. Marvariddorlarning chig'anog'i qanday shaklda? **Buyraksimon shaklda.**

8050. Marvariddorlarning Mergaritifera urug'iga mansubi qanday iqlimli zonadagi daryolarda qanday yashaydi? **Mo'tadil iqlimli zonadagi daryolarda erkin yashaydi.**

8051. Marvariddorlar qachon nima uchun ovlanadi? **Chig'anog'i (sadaf qavati) qalin bo'lganidan tugma va ziynat buyumlari tayyorlash uchun ovlanadi.**

8052. Mart qo'ng'izi, mart buzoqboshi qo'ng'izi qanday qo'ng'iz? **Zararkunanda qo'ng'iz.**

8053. Mart qo'ng'izining uzunligi necha sm? **2,5 sm.**

8054. Mart qo'ng'izining erkagi urg'ochisidan nimalari bilan ajralib turadi? **Mo'ylovlari bilan ajralib turadi.**

8055. Mart qo'ng'izining tuxumi kattaligi necha mm? **4 mm.**

8056. Mart qo'ng'izi qachon uchib chiqadi? **Mart oyidan boshlab, aprel oxirigacha uchib chiqadi.**

8057. Mart qo'ng'izi nechtagacha tuxum qo'yadi? **30 tagacha tuxum qo'yadi.**

8058. Mart qo'ng'izi necha yilda bir marta avlod qoldiradi? **4 yilda bir marta avlod qoldiradi.**

8059. Maral qaysi oilaga mansub asl bug'ularning kenja turi? **Bug'ular oilasiga mansub asl bug'ularning kenja turi.**

8060. Maral bug'usi erkagining tana uzunligi necha sm? **250 – 265 sm.**

8061. Maral bug'usi erkagining nechta butoqli katta shoxi bor? **6 – 7 ta butoqli katta shoxi bor.**

8062. Maral har yili qaysi faslda shox tashlaydi? **Qish faslida shox tashlaydi.**

8063. Maral bug'usi erkagining og'irligi qancha kg? **300 – 340 kg.**

8064. Maral bug'usi urg'ochisining homiladorlik davri necha oy? **8 – 8,5 oy.**

8065. Maral bug'usi nechta bola tug'adi? **1 – 2 ta bola tug'adi.**

8066. Maral bug'usining yag'rinidan balandligi necha sm? **125 – 155 sm.**

8067. Maral bug'usining erkagi shoxsizmi yoki urg'ochisi? **Urg'ochisi shoxsiz.**

8068. Maral bug'usi nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklar bargi va novdalari bilan ovqatlanadi.**

8069. Maral bug'usi nimada ham boqiladi? **Qo'lda ham boqiladi.**

8070. Maral bug'ulari qayerlarda yashaydi? **Tog'li Oltoy, Sayan tog'lari, Baykal bo'yi, Shimoliy-G'arbiy Mo'g'ulistonda yashaydi.**

8071. Maral bug'usining nimalaridan foydalaniladi? **Terisi, go'shti, qotmagan shoxi (paxtasi)dan foydalaniladi.**

8072. Maral bug'usining qotmagan shoxi (pagnasi)dan meditsinada nima tayyorlanadi? **Pantokrin tayyorlanadi.**

8073. Marjonlar qaysi sinfga mansub, kovakichli hayvonlar? **Marjonpolinlar va gidroidlar sinfiga mansub, kovakichli hayvonlar.**

8074. Marjonlar skeleti qaysi moddadan iborat? **Ohak yoki shox moddadan iborat.**

8075. Marjonpoliplar qaysi kenja sinflarga bo'linadi? **Sakkiznurlilar va oltinurlilar kenja sinflariga bo'linadi.**

8076. Marjonpoliplar qaysi tipga mansub umurtqasiz hayvonlar sinfi? **Kovakichlilar tipiga mansub umurtqasiz hayvonlar sinfi.**

8077. Marjonpoliplar sinfining qancha turi ma'lum? **6000 dan ortiq turi ma'lum.**

8078. Marjonpoliplarning kattaligi necha mm dan necha m gacha? **Bir necha mm dan 1 m gacha (aktiniya).**





8079. Marjonpoliplar nimalar hosil qiladi? **Ohaktoshlar hosil qiladi.**

8080. Marjonpoliplar nima sifatida ishlatiladi? **Qurilish materiali sifatida ishlatiladi.**

8081. Marjonpoliplarning ko'pchilik turlari qanday bo'lib yashaydigan dengiz organizmi? **Koloniya (to'da-to'da) bo'lib yashaydigan dengiz organizmi.**

8082. Marjonpoliplarning ayrim turlari qanday holda yashaydigan dengiz organizmi? **Yakka holda yashaydigan dengiz organizmi.**

8083. Marjonpoliplarning yakka yashovchi turlari qaysi a'zosi bilan suv tubiga yopishadi? **Tovoni bilan suv tubiga yopishadi.**

8084. Marjonpoliplar qanday yo'l bilan ko'payadi? **Jinsiy va jinssiz yo'l bilan ko'payadi.**

8085. Marjonpoliplarning Shimoliy va Uzoq Sharq dengizlarida qancha turi yashaydi? **150 dan ortiq turi yashaydi.**

8086. Marjonpoliplarning tana tuzilishi qanday shaklda? **Radial simmetriya, silindrsimon shaklda.**

8087. Markaziy Osiyo dasht va cho'llarida yirik bo'xcha yasar qo'ng'izlarning qaysi turlari tarqalgan? **S. transcavcasus, S. acuticollis turlari tarqalgan.**

8088. Marmar amblistoma tuxumini qayerga qo'yadi? **Quruqlikka qo'yadi.**

8089. Marmar ambistomasimonlar tuxumini qayerga qo'yadi? **Quruqlikka qo'yadi.**

8090. Marmar ambistomasimonlarning urg'ochisi tuxumini nima chiqquncha kulcha bo'lib o'rab yotadi? **Itbaliq chiqquncha kulcha bo'lib o'rab yotadi.**

8091. Marmar o'rdak qaysi oilasiga mansub parranda? **G'ozsimonlar turkumining o'rdaklar kenja oilasiga mansub parranda.**

8092. Marmar o'rdakning tanasi necha sm cha? **35 sm cha.**

8093. Marmar o'rdakning og'irligi qancha g? **400 – 600 g.**

8094. Marmar o'rdakning nari va makiyoni bir tusda bo'lib, qanday xolli kulrang? **Oq xolli kulrang.**

8095. Marmar o'rdak qaysi dengizlar qirg'oqlarida, qayerlarda tarqalgan? **O'rta va Kaspiy dengizlar qirg'oqlarida, Kavkaz, O'rta Osiyo, Qozog'iston, Eron, Iroq va Hindistonda tarqalgan.**

8096. Marmar o'rdak qaysi mamlakatda uya soladi? **O'zbekistonda uya soladi.**

8097. Marmar o'rdak qishlash uchun kuzda qaysi o'lkalarga uchib ketadi? **Janubiy o'lkalarga uchib ketadi.**

8098. Marmar o'rdak qayerlarda yashaydi? **Qamishlar o'sgan ko'llarda, dengizlarning sayoz yerlarida, sholipoyalarda yashaydi.**

8099. Marmar o'rdak uyasini qayerlarga yasaydi? **Uyasini yerga, qamish va butalar tagiga yasaydi.**

8100. Marmar o'rdak nechta tuxum qo'yadi? **7 – 12 ta tuxum qo'yadi.**

8101. Marmar o'rdak nimalar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar lichinkasi, mollyuska va o'simliklar bilan ovqatlanadi.**

8102. Marmar o'rdak O'rta Osiyoning qaysi qismida ovlanadi? **Janubi-g'arbiy qismida ovlanadi.**

8103. Marobu qushi qayerlarda yashaydi? **Savanna va siyrak o'rmonlarda yashaydi.**

8104. Marobular qaysi oilasiga mansub qushlarning bir urug'i? **Uzun oyoqli qushlar turkumi, laylaksimonlar oilasiga mansub qushlarning bir urug'i.**

8105. Marobularning bo'yi necha sm? **110 – 150 sm.**

8106. Marobularning qanotlari yoyilganda necha m cha? **Qanoti yoyilganda 3 m cha.**

8107. Marobularning nomlari nima? **Afrika marobu (tropik Afrikada tarqalgan), argal yoki hind marobu, yava marobu (Janubiy-sharqiy Osiyoda yashaydi).**

8108. Marobularning bo'ynida jig'ildon vazifasini bajaruvchi xaltasi borligi uchun ba'zan qanday laylak deb ham ataladi? **Buqoq laylak deb ataladi.**

8109. Marobular bo'ynida jig'ildon vazifasini bajaruvchi qaysi a'zosi bor (yava marobusidan boshqasida)? **Xaltasi bor.**

8110. Marobularning nechta turi bor? Ular qaysilar? **Uchta turi bor. Ular: argal yoki hind marobusi va yava marobusi.**

8111. Marobular qayerlarda yashaydi? **Janubi-Sharqiy Osiyoda yashaydi.**

8112. Marobular nechta tuxum qo'yadi? **2 – 4 ta tuxum qo'yadi.**





8113. Marokash chigirtkasi qaysi turkumga mansub hasharot? **To'g'riqanotlilar turkumiga mansub hasharot.**

8114. Marokash chigirtkasining tanasi uzunligi necha sm? **2,5 – 4,2 sm.**

8115. Marokash chigirtkasi ko'zachasida nechta tuxum bo'ladi? **18 – 42 ta tuxum bo'ladi.**

8116. Marokash chigirtkasi lichinkalari necha yosh davomida rivojlanadi? **5 yosh davomida rivojlanadi.**

8117. Martishkalar qaysi oilaga mansub tuban tor burunli maymunlarning bir urug'i? **Martishkasimonlarning kenja oilasiga mansub tuban tor burunli maymunlarning bir urug'i.**

8118. Martishkalarning tanasi uzunligi necha sm? **35 – 64 sm.**

8119. Martishkalarning og'irligi qancha kg? **1 – 9 kg.**

8120. Martishkalarning dumi uzunligi necha sm? **35 – 100 sm.**

8121. Martishkalarning nechta turi ma'lum? **25 ta turi ma'lum.**

8122. Martishkalar Afrikaning qaysi zonasida keng tarqalgan? **Tropik zonasida keng tarqalgan.**

8123. Mastodontlar qaysi guruhga mansub qirilib bitgan sut emizuvchi hayvonlar? **Xartumlilar guruhiga mansub qirilib bitgan sut emizuvchi hayvonlar.**

8124. Mastodontlarning bo'yi necha m? **1,5 – 3,2 m.**

8125. Mastodontlarning tuzilishi qaysi hayvonga o'xshaydi? **Filga o'xshaydi.**

8126. Mastodontlarning qaysi tishlari dandon tishga o'xshab ketgan? **Qoziq tishlari dandon tishga o'xshab ketgan.**

8127. Mastodontlar Yevropa va Osiyoda qaysi davrda qirilib ketgan? **Pliotsen davrida qirilib ketgan.**

8128. Mastodontlar qoldiqlari qayerlardan topilgan? **Sobiq Ittifoq Yevropa qismining janubidan, Qozog'iston va O'rta Osiyodan topilgan.**

8129. Masxar ildiz filchasi qaysi jonivorlar turkumining filchalari yoki uzun burunlilar oilasiga mansub hasharot? **Qattiqqanotlilar yoki qo'ng'izlar turkumining filchalari yoki uzun burunlilar oilasiga mansub hasharot.**

8130. Masxar ildiz filchasi qaerlarda uchraydi? **O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston va Janubiy Qozog'istonda uchraydi.**

8131. Masxar ildiz filchasi qo'ng'izining tanasi uzunligi necha mm? **4 – 4,5 mm.**

8132. Masxar ildiz filchasining boshi kalta nimadan iborat? **Xartumchadan iborat.**

8133. Masxar ildiz filchasi qaysi davrda qishlaydi? **Qo'ng'izlik davrida qishlaydi.**

8134. Masxar ildiz filchasi yiliga necha marta avlod beradi? **Bir marta avlod beradi.**

8135. Mata-mata toshbaqasi qaerda uchraydi? **Amazonkada uchraydi..**

8136. Maxsar kapalagi qaysi ekinning eng xavfli zararkunandasi? **Maxsar ekinining eng xavfli zararkunandasi.**

8137. Maxsar kapalagi qayerda tarqalgan? **O'rta Osiyoda tarqalgan.**

8138. Maxsar kapalagining qanoti ochilganda necha sm? **2,5 sm.**

8139. Maxsar kapalagining qanoti rangi qanday? **Oq.**

8140. Maxsar kapalagi oldingi qanotining oldi tomonida qanday dog'lari bor? **Qora dog'lari bor.**

8141. Maxsar kapalagining qurti uzunligi necha sm? **2 sm.**

8142. Maxsar kapalagining qurti rangi qanday? **Oqish.**

8143. Maxsar kapalagi tanasining birinchi bo'g'imida xitinli nimasi bor? **Bo'rtmasi bor.**

8144. Maxsar kapalagi maxsar poyasining pastki qismini teshib, mavsumda necha marta avlod qoldiradi? **Bir marta.**

8145. Mahalliy aholi pangolinlarning nimasini iste'mol qiladi? **Go'shtini.**

8146. MDH mamlakatlaridan qaysilarida past bo'yli eman o'sadigan tumanlarda pilla qurti boqiladi? **Ukraina va Belorussiya Respublikalarida pilla qurti boqiladi.**

8147. MDH mamlakatlarida qancha ot zotlari bor? **50 dan ortiqroq ot zotlari bor, shundan 8 tasi O'zbekiston hududida urchitiladi.**

8148. Mevaxo'r ko'rshapalaklar, katta ko'rshapalaklar qaysi turkumga mansub kenja turkum? **Qo'lqanotlilar turkumiga mansub kenja turkum.**

8149. Mevaxo'r ko'rshapalaklarning qancha turni birlashtiruvchi bir oilasi bor? **200 ga yaqin turni birlashtiruvchi bir oilasi bor.**

8150. Mevaxo'r ko'rshapalaklarning tanasi uzunligi necha sm cha? **42 sm cha.**





8151. Mevaxo'r ko'rshapalaklarning qanoti yoyilganda necha m cha? **1,5 m cha.**

8152. Mevaxo'r ko'rshapalaklarning ko'pchiligi qachon (kunduzimi yoki tundami) faol? **Tunda faol.**

8153. Mevaxo'r ko'rshapalaklar kunduzi qaerlarda bir nechtasi to'da bo'lib, yashirinib yotadi? **Daraxtlarda bir nechtasi to'da bo'lib, yashirinib yotadi.**

8154. Mevaxo'r ko'rshapalaklar nima bilan ovqatlanadi? **Gul-shira, meva bilan ovqatlanadi.**

8155. Mevaxo'r ko'rshapalaklarning go'shti nima qilinadi? **Eyiladi.**

8156. Mevaxo'r ko'rshapalaklar qayerlarda tarqalgan? **Osiyo, Afrikaning tropik va subtropik zonasida va Avstraliyada tarqalgan.**

8157. Mevaxo'r ko'rshapalaklar O'zbekistonda uchraydimi? **Yo'q, uchramaydi.**

8158. Megrel echkilari nimasi uchun boqiladigan echki zoti? **Suti uchun boqiladigan echki zoti.**

8159. Megrel echkilarining vatani qayer? **G'arbiy Gruziya (Megreshya).**

8160. Megrel echkilarining og'irligi qancha kg? **35 – 40 kg.**

8161. Megrel echkilari mavsumda (6 – 8 oy) qancha kg sut beradi? **350 – 400 kg (ba'zilari 800 – 1000 kg) sut beradi.**

8162. Megrel echkilarining suti yog'liligi necha foiz? **4 – 4,5 foiz.**

8163. Megrel echki (tog')larning og'irligi qancha kg? **40 – 45 kg.**

8164. Megrel takalarining o'rtacha og'irligi qancha kg? **55 – 65 kg.**

8165. Megrel echkilarining 100 ta ona echkidan nechta uloq olinadi? **130 – 140 ta uloq olinadi.**

8166. Meduza qaysi tomoni bilan qayoqqa (orqagami yoki oldingami) suzadi? **Qavariq tomoni bilan oldinga suzadi.**

8167. Mezogippus qanday hayvonlar urug'i? **Qirilib ketgan hayvonlar urug'i.**

8168. Mezogippus qaysi oilaga mansub? **Otsimonlar oilasiga mansub.**

8169. Mezogippusning kattaligi qaysi yitqich hayvonnikidek? **Bo'rinikidek.**

8170. Mezogippusning oyoqlari necha panjasimon bo'lgan? **Uch panjasimon bo'lgan.**

8171. Mezogippus qayerlarda yashagan? **O'rmonlarda yashagan.**

8172. Mezogippus nima bilan ovqatlangan? **O'simlik bilan ovqatlangan.**

8173. Mezogippusning qoldiqlari Shimoliy Amerikaning qaysi qatlamlaridan ma'lum? **Oligotsen qatlamlaridan ma'lum.**

8174. Mezozavrlar qaysi davrda yashab, qirilib bitgan sudralib yuruvchi hayvonlar? **Toshko'mir davrida yashab, qirilib bitgan sudralib yuruvchi hayvonlar.**

8175. Mezozavrlarning tanasi uzunligi necha m cha? **1 m cha.**

8176. Mezozavrlarning boshi qanday bo'lgan? **Cho'ziq bo'lgan.**

8177. Mezozavrlarning bo'yni uzun bo'lganmi yoki kalta? **Kalta bo'lgan.**

8178. Mezozavrlarning tishlari qanday shaklda bo'lgan? **Ninasimon shaklda bo'lgan.**

8179. Mezozavrlarning orqasingi oyoqlarimi yoki oldingisi uzun bo'lgan? **Orqa oyoqlari uzun bo'lgan.**

8180. Mezozavrlarning qoldig'i qayerlardan topilgan? **Janubiy Afrika va Janubiy Amerikadan topilgan.**

8181. Mezozavrlar qanday suv havzalarida yashab, asosan, qanday jonivorlar bilan ovqatlangan? **Chuchuk suv havzalarida yashab, asosan, baliqlar bilan ovqatlangan.**

8182. Mezozoyning qaysi davrlarida (mil. dan 230-66 mln yil avv.) sudralib yuruvchilar hukmronlik qilgan? **Trias, yura va bo'r davrlarida sudralib yuruvchilar hukmronlik qilgan.**

8183. Mezonefos baliqlarning qaeriga o'rnashgan? **Umurtqa pog'onasi yoniga o'rnashgan.**

8184. Meksika kushenili qayerda tarqalgan? **Meksikada tarqalgan.**

8185. Merinoslar qanday junli qo'y zoti? **Jun qoplami bir xil mayin junli qo'y zoti.**

8186. Merinoslarning vatani qayer? **G'arbiy Osiyo.**

8187. Merinoslar G'arbiy Osiyoda mil. avv. necha ming yilliklardan boqiladi? **2 – 3 ming yilliklardan boqiladi.**





8188. Merinoslar qachondan G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Avstraliyada tarqalgan? **XVIII asr o'rtalaridan G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Avstraliyada tarqalgan.**

8189. Merinoslar qachondan Rossiyada tarqalgan? **XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiyada tarqalgan.**

8190. Merinoslarning juni ingichka bo'lib, necha mkm? **15 – 25 mkm.**

8191. Merinoslarning juni mayin, tivit tolali bo'lib, uzunligi necha sm? **6 – 8 sm.**

8192. Merinoslarning qo'chqorlaridan qancha kg jun qirqib olinadi? **8 – 12 kg va undan ortiq jun qirqib olinadi.**

8193. Merinoslarning sovliqlaridan qancha kg jun qirqib olinadi? **4 – 6 kg jun qirqib olinadi.**

8194. Merinoslardan qirqib olingan jundan sof tola chiqimi necha foiz? **35 – 45 foiz.**

8195. Merinoslarning asosiy qismi qaysi davlatlarga to'g'ri keladi? **Avstraliya (Avstraliya merinosi) va Argentinaga to'g'ri keladi.**

8196. Merinoslar O'zbekiston hududiga qachon Rossiya orqali kirib kelgan? **XIX asrning 70 – 80-yillarida kirib kelgan.**

8197. Merostomalilar qayerda yashab o'tgan bo'g'imoyoqli hayvonlar sinfi? **Dengizda yashab o'tgan bo'g'imoyoqli hayvonlar sinfi.**

8198. Merostomalilar, asosan, qanday holda uchraydi? **Qazilma holda uchraydi.**.

8199. Merostomalilar qaysi a'zosi bilan nafas olgan? **Jabrasi bilan nafas olgan.**

8200. Merostomalilarning tanasi nima bilan qoplangan bo'lib, bosh-ko'krak va qoringa bo'lingan? **Xitinli qalqon bilan qoplangan bo'lib, bosh-ko'krak va qoringa bo'lingan.**

8201. Merostomalilarning necha juft oyoqlari bo'lgan? **6 juft oyoqlari bo'lgan.**

8202. Merostomalilarning nechta turkumi ma'lum? **3 ta yoki 4 ta turkumi ma'lum, shundan 2 ta yoki 3 tasi kembriy-devondan topilgan.**

8203. Merostomalilarning qaysi turi silurda paydo bo'lib, hozir ham mavjud? **Qilich dumlilar (nayzadumlilar) turi silurda paydo bo'lib, hozir ham mavjud.**

8204. Me'da bo'kasi tuxumini qaysi hayvonlar juniga yopishtirib qo'yadi? **Tuxumdan chiqqan lichinka terini qichitadi, hayvon tishi bilan qashlaganda yoki tili bilan yalanganda uning og'iz bo'shlig'iga kirib, me'daga o'tadi.**

8205. Me'da bo'kasi qanday qilib me'daga o'tadi? **Me'da devorlarida yara hosil qilib o'tadi.**

8206. Migratsiya hayvonlarni nimalar orqali o'rganiladi? **Tamg'alash va eksperiment orqali o'rganiladi.**

8207. Midiyalar – dengiz necha pallali mollyuskalari urug'i? **Ikki pallali mollyuskalari urug'i.**

8208. Midiyalar chig'anog'ining uzunligi necha sm gacha? **20 sm gacha.**

8209. Midiyalar chig'anog'ining ichki yuzasi qanday qavat bilan qoplangan? **Yaltiroq sadaf qavat bilan qoplangan.**

8210. Midiyalar qaysi davrda harakatlanmaydi? **Voyaga yetgan davrda harakatlanmaydi.**

8211. Midiyalar qaysi a'zosidagi maxsus bisus iplari yordamida suv tubidagi narsalarga yopishib yashaydi? **Oyog'idagi.**

8212. Midiyalarning nechta turi ma'lum? **3 ta turi.**

8213. Midiyalar nechtagacha tuxum qo'yadi? **Juda serpusht bo'lib, 5 – 12 mln (ba'zan 25 mln) tagacha tuxum qo'yadi.**

8214. Midiyalar nimalar bilan ovqatlanadi? **Mayda plankton va detrit bilan ovqatlanadi.**

8215. Midiyalar suvni filtrlab, qanday vazifani bajaradi? **Sanitarlik vazfasini bajaradi.**

8216. Midiyalar tanasida qanday metallar va yuksak hayvonlar uchun xavfli qanday nimalarni to'playdi? **Og'ir metallar va mikroorganizmlarni to'playdi.**

8217. Midiyalarning ayrim turlari nima hosil qilishi mumkin? **Marvarid hosil qilishi mumkin.**

8218. Midiyalar qaysi jonivorlar uchun oziq? **Dengiz hayvonlari, asosan, baliqlar uchun oziq.**

8219. Midiyalar yiliga qancha t ovlanadi? **0,6 mln t ovlanadi.**

8220. Midiyalar tabiiy boqiladimi yoki sun'iy? **Sun'iy boqiladi.**

8221. Midiyalar go'shti (yopuvchi muskullari) nima qilinadi? **Iste'mol qilinadi.**

8222. Mizidlar qaysi sinfga mansub umurtqasiz hayvonlar turkumi? **Yuksak qisqichbaqasimonlarning kenja sinfiga mansub umurtqasiz hayvonlar turkumi.**





8223. Mizidlarning voyaga etgan urg'ochilari oyoqlaridagi o'simta nima vazifasini bajaradi? **Nasl xaltachasi vazifasini bajaradi.**

8224. Mizidlarning qancha turi ma'lum? **500 ga yaqin turi ma'lum.**

8225. Mizidlarning bir necha turi O'zbekistonning qayerida-gi suv omborida iqlimlashtirilgan? **Farg'ona vodiysidagi Karkidon suv omborida iqlimlashtirilgan.**

8226. Mizidlar qayerda yashaydi? **Dengizlarda, chuchuk suvlarda va boshqa joylarda yashaydi.**

8227. Mizidlar yuksak qisqichbaqasimonlarning qaysi sinfiga mansub umurtqasiz hayvonlar turkumi? **Kenja sinfiga mansub umurtqasiz hayvonlar turkumi.**

8228. Mizidlarning tanasi uzunligi necha sm dan necha sm gacha? **0,5 sm dan 2,5 sm gacha.**

8229. Mizidlar yuksak qisqichbaqasimonlarning ko'krak oyoqlari necha juft? **8 juft.**

8230. Mizidlarning qorin oyoqlari necha juft? **6 juft.**

8231. Mizidlarning voyaga yetgan urg'ochilari oyoqlaridagi o'simta nima vazifasini bajaradi? **Nasl xaltachasi vazifasini bajaradi.**

8232. Mizidlarning tashqi ko'rinishi qaysi jonivorlarga o'xshaydi? **Krevetkalarga o'xshaydi.**

8233. Mizidlarning karapaksi nechanchi juft ko'krak oyoqlari bilan birga qo'shilib o'sgan? **3-juft ko'krak oyoqlari bilan birga qo'shilib o'sgan.**

8234. Mizidlarning oyoqjag'lari necha juft? **Bir juft.**

8235. Mizidlarning ko'krak oyoqlari necha shoxli? **Ikki shoxli.**

8236. Mizidlarning qaysi a'zolari yirik poyacha ustida joylashgan? **Ko'zlari yirik poyacha ustida joylashgan.**

8237. Mizidlarning qaysi a'zolari uropodlarning ichki shoxlarida o'rnashgan? **Muvozanat a'zolari uropodlarning ichki shoxlarida o'rnashgan.**

8238. Mizidlarning tuxumlari ko'krak ostidagi maxsus nimada turadi? **Xaltada turadi.**

8239. Mizidlar, asosan, qayerlarda yashaydi? **Asosan, dengizlarda, qisman chuchuk suvlarda, suv yuzasida va suv ostida, ayrim turlari g'orlarda yashaydi.**

8240. Mizidlar qaysi jonivorlarning asosiy ovqati? **Ko'pchilik baliqlar, jumladan, ovlanadigan va sun'iy ko'paytiriladigan baliqlarning asosiy ovqati.**

8241. Mikobakteriyalar – antinobitsetlar oilasi bo'lib, qaysi turkumni o'z ichiga oladi? **Mikobakterium turkumini o'z ichiga oladi.**

8242. Mikobakteriyalarning ko'ndalang kesimi necha mkm? **0,2 – 0,6 mkm.**

8243. Mikobakteriyalarning uzunligi necha mkm? **1 – 10 mkm.**

8244. Mikobakteriyalar qanday tayoqchalar? **Ko'pincha, bir oz egilgan yoki shoxlangan tayoqchalar.**

8245. Mikobakteriyalarning ayrim turlari nimalar hosil qiladi? **Giflar hosil qiladi, lekin ular tayoqcha va konkklarga ajralib ketadi.**

8246. Mikobakteriyalar nimaga chidamli? **Kislotaga chidamli.**

8247. Mikobakteriyalar nimaning bo'linishi orqali ko'payadi? **Hujayraning bo'linishi orqali ko'payadi.**

8248. Mikobakteriyalar nima hosil qilmaydi? **Spora hosil qilmaydi.**

8249. Mikobakteriyalar qayerda keng tarqalgan? **Tuproqda keng tarqalgan.**

8250. Mikobakteriyalar ayrim turlari qanday moddalarni oksidlashda qatnashadi? **Parafinlarni va boshq. uglevodlarni oksidlashda qatnashadi.**

8251. Mikobakteriyalar qanday moddalarni minerallashtirishda ishtirok etadi? **Organik moddalarni minerallashtirishda ishtirok etadi.**

8252. Mikobakteriyalardan biosferani nima qoldig'idan tozalashda foydalanish mumkin? **Neft qoldig'idan tozalashda foydalanish mumkin.**

8253. Mikobakteriyalarning qaysi turlari odam, hayvon va o'simliklarda kasallik paydo qiladi (o'pka sili, prokaza)? **Patogen turlari odam, hayvon va o'simliklarda kasallik paydo qiladi (o'pka sili, prokaza).**

8254. Mikrokokklar shakli qanday bakteriyalar turkumi (1 – 2 mm)? **Sharsimon bakteriyalar turkumi.**

8255. Mikrokokklar qanday ko'payadi? **Bo'linib ko'payadi.**





8256. Mikrosporidiyalar qaysi sinfga mansub eng sodda hayvonlar turkumi? **Knidosporidiyalar sinfiga mansub eng sodda hayvonlar turkumi.**

8257. Mikrosporidiyalar ipak qurti asalarilarda qaysi uruqqa mansub turlar katta ziyon keltiradi? **Nozemalar urug'iga mansub turlar katta ziyon keltiradi.**

8258. Mikrosporidiyalarning qancha turi ma'lum? **900 ga yaqin turi ma'lum.**

8259. Mikrosporidiyalarning qancha urug'i ma'lum? **70 dan ortiq urug'i ma'lum.**

8260. Mikrosporidiyalar qanday ko'payadi? **Jinssiz va jinsiy ko'payadi.**

8261. Miksinalar – umurtqali hayvonlar turkumi (boshqa sistemaga ko'ra sinfi) bo'lib, gavdasining uzunligi necha sm dan 1 m gacha? **45 – 70 sm dan 1 m gacha.**

8262. Miksinalarning burun teshigi bosh orqasida qaysi a'zo bilan tutashgan? **Halqum bilan tutashgan.**

8263. Miksinalarning og'zi va burun teshiklari nechta muskulli qaysi a'zolari bilan o'ralgan? **6 – 8 ta mo'ylovlari bilan o'ralgan.**

8264. Miksinalarning qaysi so'rgichlari bo'lmaydi? **Orqa so'rgichlari bo'lmaydi.**

8265. Miksinalarning jabra teshiklari nechta? **1 – 15 ta.**

8266. Miksinalarning qon aylanish sistemasi ochiqmi yoki yopiq? **Ochiq.**

8267. Miksinalarning nechta asosiy va nechta qo'shimcha yuragi bor? **Bitta asosiy va uchta qo'shimcha yuragi bor.**

8268. Miksinalarning qaysi a'zosi teri bilan to'silgan? **Ko'zi teri bilan to'silgan.**

8269. Miksinalar 20 – 30 ta yirik tuxumlarni qayerdagi narsalarga qo'yadi? **Suv ostidagi narsalarga qo'yadi.**

8270. Miksinalarning bir oilaga va to'rt uruqqa mansub nechta turi ma'lum? **20 ta turi ma'lum.**

8271. Miksinalar qanday suvli dengizlarda tarqalgan? **Subtropik va mo'tadil suvli dengizlarda tarqalgan.**

8272. Miksinalarning barcha turlari qanday? **Yirtqich.**

8273. Miksinalarning tili nimaga o'xshaydi? **Parmaga o'xshaydi.**

8274. Miksobakteriyalar qanday bakteriyalar tartibi? **Grammanfiy.**

8275. Miksobakteriyalar qanday harakatlanadi? **Sirpanib harakatlanadi.**

8276. Miksobakteriyalarning vegetativ hujayralari qanday-simon? **Tayoqchasimon (uzunligi 0,7–1–3–6 mkm).**

8277. Miksobakteriyalar qanday bo'linib ko'payadi? **Ko'ndalang bo'linib ko'payadi.**

8278. Miksobakteriyalarning ekologik ahamiyati qanday fermentlar hosil qilishi bilan belgilanadi? **Gidrolitik fermentlar hosil qilishi bilan belgilanadi.**

8279. Miksobakteriyalar, odatda, qanday o'simlik qoldiqlari va go'ngda ko'p uchraydi? **Chirayotgan o'simlik qoldiqlari va go'ngda ko'p uchraydi.**

8280. Miksobakteriyalar qayerda deyarli uchramaydi? **Suvda uchramaydi.**

8281. Miksobakteriyalar nimaga chidamli mikrosporalar hosil qiladi? **Suvsizlikka chidamli mikrosporalar hosil qiladi.**

8282. Miksomitsetlar, shilimshiqsimon zamburug'lar qanday organizmlar tipi? **Xlorofillsiz zamburug'simon organizmlar tipi.**

8283. Miksomitsetlar nimalar yordamida ko'payadi? **Sporalar yordamida ko'payadi.**

8284. Miksomitsetlarning qancha turi bor? **400 ga yaqin turi bor.**

8285. Miloddan bir necha ming yil ilgari qaysi qit'alarda tarqalgan yovvoyi buqadan xonaki qoramol kelib chiqqan? **Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alarida tarqalgan yovvoyi buqadan xonaki qoramol kelib chiqqan.**

8286. Minogalarning qancha turi ma'lum? **30 ga yaqin turi ma'lum.**

8287. Minogalar qaysi sinfga mansub umurtqasiz hayvonlarning kenja sinfi? **To'garak og'izlilar sinfiga mansub umurtqasiz hayvonlarning kenja sinfi.**

8288. Minogalarning qaysi a'zosi yopishuvchi disk tubida? **Og'zi yopishuvchi disk tubida.**

8289. Minogalar qaysi a'zosi orqali nafas oladi? **Jabrasi orqali nafas oladi.**

8290. Minogalarning yuragi necha kamerali? **Ikki kamerali.**

8291. Minogalar chuqurcha uyasiga qancha uvildiriq tashlaydi? **240 ming uvildiriq tashlaydi.**





8292. Minogalar chuqurcha uyasiga uvildiriq tashlab, keyin nima bo'lishadi? **O'ladi.**

8293. Minogalar nima bilan ovqatlanadi? **Baliq go'shti va qoni bilan ovqatlanadi.**

8294. Minogalarning hayoti qayerda o'tadi? **Daryoda o'tadi.**

8295. Minogalar burun teshigi boshining qaysi qismida joylashgan? **Yuqori qismida joylashgan.**

8296. Minogalarning burun teshigi qaysi a'zo bilan tutashmagan? **Halqumi bilan tutashmagan.**

8297. Minogalarning burun teshigi nechta? **Bitta.**

8298. Minogalarning tilida shoxsimon nimalari bor? **Tishlari bor.**

8299. Minogalarning qon aylanish sistemasi qanday? **Yopiq.**

8300. Mingoyoqlar, ko'poyoqlar, qirqoyoqlarning mo'ylovi necha juft? **Bir juft.**

8301. Mingoyoqlarning necha turi mavjud? **11 ming ta turi mavjud.**

8302. Mingoyoqlar nima qilishi mumkin? **Chaqishi mumkin.**

8303. Mintaylar qaysi oilaga mansub baliqlar urug'i? **Treskasimonlar oilasiga mansub baliqlar urug'i.**

8304. Mintaylarning uzunligi necha sm? **40 – 55 sm.**

8305. Mintaylarning og'irligi qancha kg gacha? **1,5 kg gacha.**

8306. Mintaylarning so'rg'ichlari nechta? **Uchta.**

8307. Mintaylarning anal suzgichlari nechta? **Ikkita.**

8308. Mintaylarning dum suzgichi qisman necha bo'lakka bo'lingan? **Ikki bo'lakka bo'lingan.**

8309. Mintaylarning Uzoq Sharq mintayi Tinch okeanning shimoliy qismidagi Bering bo'g'ozidan boshlab Koreyaga va Shimoliy Kaliforniyagacha bo'lgan dengizlarda necha m chuqurlikda yashaydi? **500 – 700 m chuqurlikda yashaydi.**

8310. Mintaylar necha yilda jinsiy voyaga yetadi? **3 – 4 yilda jinsiy voyaga yetadi.**

8311. Mintaylar qaysi faslda Koreya, Saxalin, Kamchatka sohillari yaqinida uvildiriq tashlaydi? **Bahorda uvildiriq tashlaydi.**

8312. Mirzaturna, oq turna qaysi uruqqa mansub qush? **Turnalar urug'iga mansub qush.**

8313. Mirzaturna nechta tuxum qo'yadi? **2 ta tuxum qo'yadi.**

8314. Mirzaturna, oq turnaning og'irligi qancha kg? **5 – 8 kg.**

8315. Mirzaturna turnalar ichida eng kichigimi yoki yirigi? **Yirigi.**

8316. Mirzaturnaning tanasi qanday rangdagi patlar bilan qoplangan? **Oppoq rangdagi patlar bilan qoplangan.**

8317. Mirzaturnaning qanoti uchi rangi qanday? **Qora.**

8318. Mirzaturna uyasini qayerga quradi? **Uyasini qamish va butalar orasiga yerga quradi.**

8319. Mirzaturna MDH mamlakatlarida, xususan, qachon uchraydi? **Sibirda, O'rta Osiyoda esa qishlash joylariga uchib o'tayotganida uchraydi.**

8320. Mirzaturna qayerlarda qishlaydi? **Eronda, Hindiston shimolida, Xitoy janubida qishlaydi.**

8321. Mirzaturna qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda baliq, kaltakesak va kemiruvchilar bilan ovqatlanadi.**

8322. Mirzaturna nima uchun muhofazaga olingan? **Soni kamayib qolganligidan muhofazaga olingan.**

8323. Mirzoqush qaysi turkumga mansub qush? **Yirtqich qushlar turkumiga mansub qush.**

8324. Mirzoqush qaerdagi cho'llarda ko'p uchraydi? **Afrikadagi cho'llarda ko'p uchraydi.**

8325. Mirzoqush tuzilishi qaysi qushga o'xshash? **Turna qushga o'xshash.**

8326. Mirzoqushning tanasi uzunligi necha sm cha? **125 sm cha.**

8327. Mirzoqush yiliga nechta tuxum qo'yib, necha hafta bosadi? **2 ta tuxum qo'yib, 6 hafta bosadi.**

8328. Missisipi alligatori yoki cho'rtan alligator (A. missisipiensis) qayerda tarqalgan? **Shimoliy Amerikaning janubi-sharqida tarqalgan.**

8329. Mitti ilonlar, kalamar ilonlar qaysi oilaning bir urug'i? **Suvilonsimonlar oilasining bir urug'i.**

8330. Mitti ilonlarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **10 – 50 sm gacha.**

8331. Mitti ilonlarning nechta turi bor? **70 ta turi bor.**

8332. Mitti ilonlar qayerlarda tarqalgan? **Birma, Hindixitoy, Janubiy Xitoy** va **boshqa yerlarda tarqalgan.**

8333. Mitti ilonning ko'z qorachig'i qanday shaklda? **Yumaloq shaklda.**

8334. Mitti ilonlar nimadan ko'payadi? **Tuxumdan ko'payadi.**

8335. Mitti baqalar qayerlarda yashaydi? **Afrika o'rmon va butazorlarida yashaydi.**





8336. Mitti baqalar kenja oilasi nechta urug'dan iborat? **Oltita urug'dan iborat.**

8337. Miqqiyning nechtacha kenja turi bor? **15 tacha turi bor.**

8338. Miqqiy qayerlarda keng tarqalgan? **Yevropa, Osiyo va Afrikada keng tarqalgan.**

8339. Miqqiy qaysi oilaga mansub yirtqich qush? **Yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush.**

8340. Miqqiy qushning tanasi uzunligi necha sm? **31 – 38 sm.**

8341. Miqqiy qushning og'irligi qancha g? **180 – 240 g.**

8342. Miqqiy qush qaysi hududlarda qishlaydi? **Osiyo va Afrikaning tropik hamda subtropik hududlarida qishlaydi.**

8343. Miqqiy qush qaerlarga uya quradi? **Jarlar va qoyalardagi kovaklarga hamda daraxtlarga uya quradi.**

8344. Miqqiy qush nechta tuxum qo'yadi? **4 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

8345. Miqqiy qush tuxumlarini necha kundan so'ng ochib chiqaradi? **25 kundan so'ng ochib chiqaradi.**

8346. Miqqiy qush qishloq xo'jaligiga qanday foyda keltiradi? **Zararkunanda va kasal tarqatuvchi kemiruvchilar hamda hasharotlarni qirib foyda keltiradi.**

8347. Moviy ko'ktarg'oqning tanasi uzunligi o'rtacha necha sm? **16,5 sm.**

8348. Moviy ko'ktarg'oqning orqa tomoni rangi qanday? **Ko'k-yashil, yaltiroq.**

8349. Moviy ko'ktarg'oqning oyoqlari rangi qanday? **Qizil.**

8350. Moybaliqlar qaysi oilaga mansub baliqlar turi? **Karpsimonlar oilasiga mansub baliqlar turi.**

8351. Moybaliqlarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **40 sm gacha.**

8352. Moybaliqlarning og'irligi qancha g gacha? **800 g gacha.**

8353. Moybaliqlarning tanasi qorin va anal suzgichlari orasidagi terisi nimalar bilan to'liq qoplangan? **Tangachalar bilan to'liq qoplangan.**

8354. Moybaliqlarning qaysi daryolar va daryolar havzalarida bir necha turi uchraydi? **O'rta Osiyo va Yevropa daryolari, Tigr va Efrat daryolari havzalarida bir necha turi uchraydi.**

8355. Moybaliqlarning qaysi kenja turi Orol dengizi, Sirdaryo va Amudaryoning quyi oqimi va Zarafshon daryosida tarqalgan? **Orol moybalig'i kenja turi tarqalgan.**

8356. Moybaliqlarning qaysi turi Kaspiy, Azov va Qora dengizlarda tarqalgan? **Oddiy moybaliq tarqalgan.**

8357. Moybaliqlarning qaysi biri o'troq, o'tkinchi hisoblanadi? **Orol moybalig'i o'troq, oddiy moybaliq o'tkinchi hisoblanadi.**

8358. Moybaliqlar necha yilda voyaga yetadi? **2 – 3 yilda voyaga yetadi.**

8359. Moybaliqlar qachon, qancha uvildiriq tashlaydi? **Yozda 2,6 – 23,5 mingtagacha uvildiriq tashlaydi.**

8360. Moyqutlar qaysi turkumning bir urug'i? **Chumchuqsimonlar turkumining bir urug'i.**

8361. Moyqutlar qayerlarda yashaydi? **Tog', sahro, daryo vodiylaridagi butazorlarda yashaydi.**

8362. Moyqutlar qaysi qit'ada tarqalgan? **Osiyo, Afrika va Yevropada tarqalgan.**

8363. Moyqutlarning uzunligi necha sm? **10 – 25 sm.**

8364. Moyqutlarning qancha uruqqa mansub nechta turi ma'lum? **40 tacha uruqqa mansub 240 ta turi ma'lum.**

8365. Moyqutlarning O'zbekistonda nechta urug'i uchraydi? Ular qaysilar? **9 ta urug'i uchraydi. Ular: penochkalar, kurgalaklar, asl moyqutlar, to'qay chumchuqlar, jiq-jiqlar va boshq.**

8366. Moyqutlardan qaysi turi yaxshi sayraydi? **Qorabosh moyqut turi yaxshi sayraydi.**

8367. Moyqutlardan nechta turi O'zbekistonda uchraydi? **28 ta turi uchraydi.**

8368. Moyva qaysi oilaga mansub baliq? **Koryushkanamolar oilasiga mansub baliq.**

8369. Moyva balig'ining tanasi uzunligi necha sm cha? **22 sm cha.**

8370. Moyva balig'ining og'irligi qancha g cha? **17 g cha.**

8371. Moyva balig'i necha yoshida jinsiy yetiladi? **2 – 3 yoshida jinsiy yetiladi.**

8372. Moyva balig'i qaysi fasllarda ko'payadi? **Bahor va yozda ko'payadi.**

8373. Mollyuskalarni o'rganadigan fanning nomi nima? **Malakologiya.**

8374. Mollyuskalar qanday hayvonlar tipi? **Umurtqasiz hayvonlar tipi.**

8375. Mollyuskalarning nechta sinfi bor? **7 ta sinfi bor.**

8376. Mollyuskalarning nomlari nima? **Qorinoyoqli mollyuskalar, monoplakkoforalar, sovutli mollyuskalar.**





8377. Mollyuskalarning gavdasi qaysi a'zolardan iborat? **Bosh, miya, chig'anoq, oyoqdan iborat.**

8378. Mollyuskalarning boshida qaysi a'zolar bor? **Boshida og'iz, ba'zilarida paypaslagich hamda bir juft ko'z bor.**

8379. Mollyuskalar tana va teri qoplamida jabra, sezgi a'zolari bo'lib, qanday bo'shliqni hosil qiladi? **Mantiya bo'shlig'ini hosil qiladi.**

8380. Mollyuskalar qaysi a'zolari orqali nafas oladi? **Jabra yoki o'pka orqali nafas oladi.**

8381. Mollyuskalarning ayrish a'zosi qaysi a'zo? **Buyrak.**

8382. Mollyuskalarning asab sistemasi, asosan, qanday shaklda? **Narvon yoki zanjir shaklda.**

8383. Mollyuskalarda ovqat hazm qilish sistemasi qayerdan boshlanadi? **Og'izdan boshlanadi.**

8384. Mollyuskalardan nimalar olinadi? **Sadaf, marvarid olinadi.**

8385. Momo qurbaqalarning eng mashhuri qaysi qurbaqa? **Oddiy momo qurbaqa.**

8386. Momo qurbaqalar qayerlarda yashaydi? **Tog'lik, tepaliklarda suvga yaqin soya, zah joylarda yashaydi.**

8387. Momo qurbaqalar qaysi oilaga mansub dumsiz amfibiyalarning bir urug'i? **To'garaktilli baqalar oilasiga mansub dumsiz amfibiyalarning bir urug'i.**

8388. Momo qurbaqalar boshining ichki tomonida qanday parda bor? **Nog'ora pardasi bor.**

8389. Momo qurbaqalarning nechta turi bor? **2 ta turi bor.**

8390. Momo qurbaqalarning tanasi uzunligi necha sm cha? **5 sm cha.**

8391. Momo qurbaqalarning ko'z qorachig'i qanday joylashgan? **Vertikal joylashgan.**

8392. Momo qurbaqalar qayerlarda tarqalgan? **G'arbiy va Markaziy Yevropada tarqalgan.**

8393. Monogenetik so'rg'ichlilar – yassi parazit chuvalchanglarning bir nimasi? **Sinfi.**

8394. Monogenetik so'rg'ichlilarning nechta turi ma'lum? **200 ta turi ma'lum.**

8395. Monogenetik so'rg'ichlilarning bo'yi necha mm? **0,2 – 50 mm.**

8396. Monogenetik so'rg'ichlilarning qaysi sistemasi yaxshi rivojlangan? **Ovqat hazm qilish sistemasi yaxshi rivojlangan.**

8397. Monogenetik so'rg'ichlilarning qaysi a'zolari yo'q? **Qon aylanish va nafas olish a'zolari yo'q.**

8398. Monogenetik so'rg'ichlilarning necha juft ko'zi bor? **1 – 2 juft ko'zi bor.**

8399. Monogenetik so'rg'ichlilar qanday ko'payadi? **Tuxum qo'yib, tuxumdan tirik tug'ib yoki tirik tug'ib ko'payadi.**

8400. Monogenetik so'rg'ichlilar qaysi jonivorlarda parazitlik qiladi? **Baliqlar, suvda va quruqlikda yashovchilar yoki sudralib yuruvchilarda parazitlik qiladi.**

8401. Monogenetik so'rg'ichlilarning og'zi tanasining qaysi (oldingimi yoki orqangimi) qismida? **Oldingi qismida.**

8402. Monogenetiklarning ichagi qanday shaklda? **Xaltasimon yoki shoxlangan shaklda.**

8403. Monogenetiklarning ayirish teshiklari tanasining qayerida? **Ikki yonida.**

8404. Monoplakoforalar qanday jonivorlarning eng tuban tuzilgan sinfi? **Chig'anoqli mollyuskalarning eng tuban tuzilgan sinfi.**

8405. Monoplakoforalar qayerdan qayergacha qazilma holda uchraydi? **Kembriydan devongacha qazilma holda uchraydi.**

8406. Monoplakoforalarning birinchi tirik vakili neopilina nechanchi yilda topilgan? **1952-yilda topilgan.**

8407. Monoplakoforalarning hozir nechta turi ma'lum? **8 ta turi ma'lum.**

8408. Monoplakoforalarning tanasi qalpoqchaga yoki yassi spiralga o'xshash nima bilan qoplangan? **Chig'anoq bilan qoplangan.**

8409. Monoplakoforalarning mantiya bo'shlig'ida necha juftdan necha juftgacha bo'lgan muskullar joylashgan? **1 juftdan 8 juftgacha bo'lgan muskullar joylashgan.**

8410. Monoplakoforalarning buyraklari necha juft? **6 juft.**

8411. Monoplakoforalarning yuragi nechtadan qorincha va bo'lmachadan iborat? **2 tadan qorincha va bo'lmachadan iborat.**

8412. Monoplakoforalarning qon aylanish sistemasi qanday (tutashganmi yoki tutashmaganmi)? **Tutashmagan.**

8413. Monoplakoforalar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

8414. Monoplakoforalarning jinsiy bezlari toqmi juftmi? **Juft.**

8415. Monoplakoforalar suv tubida necha m chuqurlikda uchraydi? **200 – 700 m chuqurlikda uchraydi.**





8416. Morj qaysi oilaga mansub hayvonlarning yagona turi? **Kurakoyoqlilar turkumining morjlar oilasiga mansub hayvonlarning yagona turi.**

8417. Morjning tanasi uzunligi necha m gacha? **4,1 m gacha.**

8418. Morjning og'irligi qancha t gacha? **2 t gacha.**

8419. Morjning boshi oldingi tomondan qanday? **To'mtoq.**

8420. Morjning qaysi a'zolari yo'q? **Quloq suprasi va dumi yo'q.**

8421. Morjning tishi nechtagacha? **18 – 26 tagacha.**

8422. Morjlar, asosan, nima bilan ovqatlanadi? **Mollyuskalar bilan ovqatlanadi.**

8423. Morj necha yoshida jinsiy yetiladi? **6 – 7 yoshida jinsiy yetiladi.**

8424. Morjlarning homiladorlik davri necha yil? **1 yilcha.**

8425. Morjlar necha yilda nechta bola tug'adi? **Ikki yilda bitta bola tug'adi.**

8426. Morj tumshug'ining 2 yonida nechtadan vibrissalar (tung'u qillari) bor? **300 – 350 tadan vibrissalar (tung'u qillari) bor.**

8427. Morjning yuqori jag'idan chiqib, pastga osilib turadigan yirtqich tishlarining uzunligi necha sm? **60 – 80 sm (urg'ochisida ingichka va kaltaroq).**

8428. Morjning terisi qanday, juda ko'p nimalardan iborat? **Qalin, burmalardan iborat.**

8429. Morj yaxshi nima qilmaydi, lekin nimani tez sezadi? **Ko'rmaydi, hidni tez sezadi.**

8430. Morj qayerda orqa oyoqlarini gavdasining ostiga bukib harakatlanadi? **Quruqlikda orqa oyoqlarini gavdasining ostiga bukib harakatlanadi.**

8431. Morjning yangi tug'ilgan bolalari juni qanday? **Qalin va uzun.**

8432. Morj qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy Muz okeani sohillari va qutb orollarida, jumladan, Bering, Chukot, Sharqiy Sibir, Laptev, qisman Barens dengizida tarqalgan.**

8433. Morj qayerga chiqib bolalaydi? **Muz ustiga chiqib bolalaydi.**

8434. Morj bolasini necha yilgacha emizadi? **2 yilgacha emizadi.**

8435. Morj soni kamayib ketganligi tufayli uni qisman ov qilish faqat kimlarga ruxsat etilgan? **Mahalliy aholiga ruxsat etilgan.**

8436. Morj qaysi kitoblarga kiritilgan? **Xalqaro va milliy Qizil kitobga kiritilgan.**

8437. Morxo'r, burma shoxli echki qaysi urugga mansub sut emizuvchilar turi? **Tog' echkilari urug'iga mansub sut emizuvchilar turi.**

8438. Morxo'rning tanasi uzunligi necha sm? **170 sm.**

8439. Morxo'rning bo'yi yag'rinidan necha sm cha? **90 sm cha.**

8440. Morxo'rning og'irligi qancha kg ga yaqin? **90 kg ga yaqin.**

8441. Morxo'rning shoxlari nimaga o'xshash buralgan? **Parmaga o'xshash buralgan.**

8442. Morxo'rning qaysi biri erkagimi yoki urg'ochisi)ning bo'yni va ko'kragida uzun junlari bor? **Erkagining bo'yni va ko'kragida uzun junlari bor.**

8443. Morxo'rlar qaerlarda tarqalgan? **Shimoliy va Shimoli-G'arbiy Hindiston, Janubi-Sharqiy Eron va Afg'onistonda tarqalgan.**

8444. Morxo'rlar O'zbekistondagi qaysi tog'larda uchraydi? **Ko'hitang va Bobotog'da uchraydi.**

8445. Morxo'r qayerlarda yashaydi? **Qoya toshli tik tog' yon-bag'irlarida yashaydi.**

8446. Morxo'r qaysi Qizil kitoblarga kiritilgan? **Xalqaro va O'zbekiston Respublikasi Qizil kitoblariga kiritilgan.**

8447. Moskva hayvonot bog'iga nechanchi yilda asos solingan? **1864-yilda asos solingan.**

8448. Moskva tovuqlari nima uchun boqiladigan tovuq zotlari? **Tuxum-go'sht uchun boqiladigan tovuq zotlari.**

8449. Moskva tovuqlarining o'rtacha og'irligi qancha kg? **2,7 – 3 kg.**

8450. Moskva tovuqlarining xo'rozi og'irligi qancha kg? **3,5 – 3,7 kg.**

8451. Moskva tovuqlari yiliga o'rtacha nechta tuxum qiladi? **170 – 180 ta tuxum qiladi.**

8452. Moskva tovuqlarining tuxumi og'irligi qancha g? **62 – 65 g.**

8453. Moshaklar qaysi turkumga mansub qushlarning bir urug'i? **Balchiqchilar turkumiga mansub qushlarning bir urug'i.**





8454. Moshaklar boshqa balchiqchilardan nimasi bilan farq qiladi? **Moshaklar barmoqlarining orasida suzgich parda bo'lmasligi bilan boshqa baliqchalardan farq qiladi.**

8455. Moshaklar qaysi yarim sharda keng tarqalgan? **Shimoliy yarim sharda keng tarqalgan.**

8456. Moshaklar qaysi jonivorlar tipiga mansub koloniya bo'lib yashaydigan umurtqasiz hayvonlar sinfi? **Paypaslagichlar tipiga mansub koloniya bo'lib yashaydigan umurtqasiz hayvonlar sinfi.**

8457. Moshaklarning ichagi qandaysimon? **Halqasimon.**

8458. Moshaklarda qaysi sistema bo'lmaydi? **Nafas olish va ayirish sistemasi bo'lmaydi.**

8459. Moshaklarning qaysi sistemasi yo'q bo'lib ketgan? **Qon aylanish sistemasi yo'q bo'lib ketgan.**

8460. Moshaklarning tuxumlari qayerlarda rivojlanadi? **Suvda, tana bo'shlig'ida yoki maxsus chiqarish kamerasida rivojlanadi.**

8461. Moshaklarning nechta turkumi bor? **4 ta turkumi bor.**

8462. Moshaklarning qancha turi ma'lum? **4000 ga yaqin turi ma'lum.**

8463. Moshaklarning ko'pchilik turlari qayerlarda yashaydi? **Dengizlarda yashaydi.**

8464. Moshaklarning ayrim turlari qanday suvlarda yashaydi? **Chuchuk suvlarda yashaydi.**

8465. Muntjaklar kenja oilasiga mansub bug'usimonlarning bo'yi necha sm cha? **60 sm cha.**

8466. Muntjaklar kenja oilasiga mansub bug'usimonlarning shoxi qanday (uzunmi yoki kaltami)? **Kalta.**

8467. Muntjaklar kenja oilasiga mansub bug'usi erkagining ustki jag'ida qanday uzun qoziq tishlari bor? **Xanjardek uzun qoziq tishlari bor.**

8468. Murakkab hayotiy sikl qaysi hayvonlar uchun xos? **Ko'pchilik hasharotlar, bo'shliqchilar, yassi chuvalchanglar, dengiz halqalilari va mollyuskalari uchun xos.**

8469. Murena, oddiy murena qaysi oilaga mansub baliq? **Murenalar oilasiga mansub baliq.**

8470. Murena balig'ining tanasi uzunligi necha m cha? **1,5 m cha.**

8471. Murena balig'ining og'irligi qancha kg gacha? **6 kg gacha.**

8472. Murena balig'ining qaysi qanoti rivojlanmagan? **Anal suzgich qanoti rivojlanmagan.**

8473. Murena balig'ining qaysi qanoti yo'q? **Ko'krak suzgich qanoti yo'q.**

8474. Murena baliqlari qaysi dengizda tarqalgan? **O'rta dengizda tarqalgan.**

8475. Musicha qaysi jonivorlar oilasi g'urraklar urug'iga mansub qush? **Kaptarsimonlar oilasi g'urraklar urug'iga mansub qush.**

8476. Musichaning dumi qanday? **Uzun.**

8477. Musichaningdumi boshqa kaptarsimonlarning dumiga nisbatan qanday? **Kichik.**

8478. Musichaning bo'yni orqasida qanday rangli yarim halqasi bor? **Qora rangli yarim halqasi bor.**

8479. Musicha nechta tuxum qo'yadi? **2 – 3 ta tuxum qo'yadi.**

8480. Musicha bir yilda necha marta bola ochadi? **Bir necha marta bola ochadi.**

8481. Musicha qanday yashaydi? **O'troq yashaydi.**

8482. Musicha qayerda tarqalgan? **O'rta Osiyoda tarqalgan.**

8483. Musicha nimalar bilan ovqatlanadi? **O'simliklar urug'i, jumladan, don va don uvoqlari bilan ovqatlanadi.**

8484. Mussurana qayerda tarqalgan? **Amerikada tarqalgan.**

8485. Mussurana qaysi oilaga mansub zaharsiz ilon? **Suvilonsimonlar oilasiga mansub zaharsiz ilon.**

8486. Mussurana ilonining tanasi uzunligi necha m? **1,5 – 2,3 m.**

8487. Mussurana iloni nechta tuxum qo'yadi? **8 – 18 ta tuxum qo'yadi.**

8488. Muflon nqaysi hayvonning kenja turi? **Arxarning kenja turi.**

8489. Muflon qaysi orollardagi tog'larda tarqalgan? **Korsika va Sardiniya orollaridagi tog'larda tarqalgan.**

8490. Muflonning og'irligi qancha kg? **45 – 50 kg.**

8491. Muflonning homiladorlik davri necha oy? **5 – 5,5 oy.**

8492. Muflon nechta bola tug'adi? **1 – 2 ta bola tug'adi.**

8493. Muflonning tanasi uzunligi necha m cha? **1,2 m cha.**

8494. Muflonning bo'yi yag'rinidan necha sm cha? **75 sm cha.**

8495. Muflonning orqasi qanday tusda? **To'q malla tusda.**

8496. Muflonning qorni qaysi rangli? **Oq rangli.**

8497. Muflonning erkagi shoxlimi yoki urg'ochisi? **Erkagi shoxli.**

8498. Muflon qanday bo'lib yuradi? **Poda bo'lib yuradi.**





8499. Muflon necha yoshida voyaga yetadi? **Bir yoshida voyaga yetadi.**

8500. Muflonlarni bundan necha yillar ilgari qayerda qo'lga o'rgatib, tanlash va saralash yo'li bilan xonaki har xil qo'y zotlari yaratilgan? **4000 yillar ilgari Yevropada qo'lga o'rgatib, tanlash va saralash yo'li bilan xonaki har xil qo'y zotlari yaratilgan.**

8501. Muflon nimalari uchun ovlanadi? **Terisi va go'shti uchun ovlanadi.**

8502. Mushk bezlari qaysi hayvonlar erkaklaridagi teri bezlari? **Sudralib yuruvchi va sut emizuvchi ba'zi hayvonlar erkaklaridagi teri bezlari o'tkir hidli modda – mushk chiqaradi. Bu hid, asosan, urg'ochilarini jalb qilish uchun xizmat qiladi.**

8503. Mushk bezlari qaysi hayvonlarda yaxshi rivojlangan? **Timsohlarda, gatteriyalarda va ba'zi ilonlarda yaxshi rivojlangan.**

8504. Mushk bezlari qaysi hayvonlarning taqimida joylashgan? **Kabarga, ondatra, mushkli ho'kiz (buqa)larning taqimida joylashgan.**

8505. Mushk bezlari qaysi hayvonlarning dumi ostida joylashgan? **Bobr hamda vixuxollarning dumi ostida joylashgan.**

8506. Mushk bezlari qaysi hayvonlarning ostki jag'ida yaxshi rivojlangan? **Timsohlar va gatteriyalarning ostki jag'ida yaxshi rivojlangan.**

8507. Mushk bezlari qaysi hayvonning yonida yaxshi rivojlangan? **Kloakaning yonida yaxshi rivojlangan.**

8508. Mushuklarning eng yirigi nima? **Simvosin.**

8509. Mushuklar qaysi oilaga mansub yirtqich sut emizuvchilarning bir urug'i? **Mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich sut emizuvchilarning bir urug'i.**

8510. Mushuklar nechta kenja uruqqa bo'linadi? **80 ta kenja uruqqa bo'linadi.**

8511. Mushuklarning nechta turi ma'lum? **30 ta turi ma'lum.**

8512. Mushuklarning O'zbekistonda nechta turi bor? **6 ta turi bor.**

8513. Mushuklarning O'zbekistonda qaysi turlari bor? **Silovsin, qoraquloq, to'qay mushugi, manul, qum mushugi, yovvoyi mushuk turlari bor.**

8514. Mushuklar erkaklari qaysi davrda baland ovoz bilan miyovlaydi va bir-biri bilan urishadi? **Kuyikish davrida baland ovoz bilan miyovlaydi va bir-biri bilan urishadi.**

8515. Mushukning homiladorlik davri o'rtacha necha sutka? **56 sutka.**

8516. Mushuklar yiliga necha marta nechtadan bolalaydi? **2 marta 1 – 7 tadan bolalaydi.**

8517. Mushukning yangi tug'ilgan bolasining ko'zi qanday bo'ladi? **Yumuq bo'ladi.**

8518. Mushuklarning ko'pchilik turlari qanday jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Mayda sut emizuvchilar (kemiruvchilar) va qushlar bilan ovqatlanadi.**

8519. Mushuklarning qaysi turi o'simliklar mevasi bilan ovqatlanadi? **Sumatra mushugi o'simliklar mevasi bilan ovqatlanadi.**

8520. Mushuklarning baliqchi mushugi, asosan, nima bilan ovqatlanadi? **Baliq bilan ovqatlanadi.**

8521. Mushuklardan qaysi turining mo'ynasi qimmatbaho? **Silovsinning mo'ynasi qimmatbaho.**

8522. Mushuklardan qaysi kenja turi barcha xonaki mushuklarning nasl boshi hisoblanadi? **Liviya mushugi barcha xonaki mushuklarning nasl boshi hisoblanadi.**

8523. Mushuklarning nechta turi va nechta kenja turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **7 ta turi va 4 ta kenja turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

8524. Mushuklarning nechta turi O'zbekistonda qizil kitobga kiritilgan? **O'zbekistonda uchraydigan barcha turlari O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.**

8525. Mushuk qaysi a'zosi sig'adigan joydan o'ta olishi mumkin? **Boshi sig'adigan joydan o'ta olishi mumkin.**

8526. Mushuklarning qaysi oyoqlari istagan tomonga qayrilishi mumkin? **Oldingi oyoqlari istagan tomonga qayrilishi mumkin.**

8527. Mushuksimon ilonlar qaysi oilaga mansub ilonlar urug'i? **Suvilonsimon oilasiga mansub ilonlar urug'i.**

8528. Mushuksimon ilonlarning nechta turi bor? **12 ta turi bor.**

8529. Mushuksimon ilonlarning uzunligi necha sm? **70 – 100 sm.**

8530. Mushuksimon ilonlarning qaysi a'zosi bo'ynidan aniq ajralib turadi? **Boshi bo'ynidan aniq ajralib turadi.**





8531. Mushuksimon ilonlarning ko'zlari qanday? **Kichkina.**

8532. Mushuksimon ilonlarning ko'zlari qorachig'i mushuklarnikiga o'xshash qanday (gorizontalmi yoki vertikal)? **Vertikal (nomi shundan).**

8533. Mushuksimon ilonlar qayerlarda tarqalgan? **Janubi-Sharqiy Yevropada, Osiyoning janubi-g'arbida va tropik hamda Shimoli-Sharqiy Afrikada tarqalgan.**

8534. Mushuksimon ilonlar qanday joylarda yashaydi? **Toshloq, quruq joylarda yashaydi.**

8535. Mushuksimon ilonlar kunduzi faolmi yoki tunda? **Tunda faol.**

8536. Mushuksimon ilonlarning ustkimi yoki pastki jag' suyagi oxirida nechta qanday zahar tishi bor? **Ustki jag' suyagi oxirida 2 ta katta zahar tishi bor.**

8537. Mushuksimon ilonlarning zahari faqat qanday hayvonlarga ta'sir etadi? **Mayda hayvonlarga ta'sir etadi.**

8538. Mushuksimon ilonlar qanday hayvonlar bilan ovqatlanadi? **Kaltakesaklar, mayda qush va boshq. bilan ovqatlanadi.**

8539. Mushuksimonlar qanday sut emizuvchilar turkumi oilasi? **Yirtqich sut emizuvchilar turkumi oilasi.**

8540. Mushuksimonlar qaysi a'zolarida yuradi? **Barmoqlarida yuradi.**

8541. Mushuksimonlarning oldingi oyoqlari necha barmoqli? **5 barmoqli.**

8542. Mushuksimonlarning oldingi oyoqlaridagi nechanchi barmog'i boshqalaridan balandroqda joylashgan? **1-barmog'i.**

8543. Mushuksimonlarning orqa oyoqlari necha barmoqli? **4 barmoqli.**

8544. Mushuksimonlarning tirnoqlari yurganida nima bo'ladi? **Oyog'i ichiga tortiladi.**

8545. Mushuksimonlarning qaysi tishlari yaxshi rivojlangan? **Yirtqich tishlari yaxshi rivojlangan.**

8546. Mushuksimonlarning qaysi tishlari o'tkir qirrali? **Oziq tishlari o'tkir qirrali.**

8547. Mushuksimonlarning juni qisqa bo'lib, qanday rangli? **Har xil rangli.**

8548. Mushuksimonlarning nechta urug'i, turi qaysi qit'alardan tashqari barcha qit'alarda tarqalgan? **4 ta urug'i, 36 ta turi Avstraliya va Antarktikadan tashqari barcha qit'alarda tarqalgan.**

8549. Mushuksimonlarning 4 ta urug'i qaysilar? **Yirik mushuklar, mushuklar, qor qoplonlari, gepardlar.**

8550. Mushuksimonlarning nechta turi O'zbekistonda yashaydi? **8 ta turi yashaydi.**

8551. Mushuksimonlarning O'zbekistonda yashaydigan 8 ta turi bo'lib, ular qaysilar? **Irbis, gepard, silovsin, qoraquloq, to'qay mushugi, manul, qum mushugi, yovvoyi mushuk.**

8552. Mushuksimonlarning ko'pchiligi yiliga necha marta nechtadan bola tug'adi? **Bir marta 1 – 7 tadan bola tug'adi.**

8553. Mushuksimonlar o'ljasiga qaerda poylab turib tashlanadi? **Pana joyda poylab turib tashlanadi.**

8554. Mushuksimonlarning ayrim turlari tutqunlikda ham nima qiladi? **Ko'payadi.**

8555. Mushuksimonlarning ayrim turlari nimasi uchun ovlanadi? **Mo'ynasi uchun ovlanadi.**

8556. Mushuksimonlarning nechta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **15 ta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

8557. Muqaddas skarabey turining tanasi uzunligi necha mm? **25 – 40 mm.**

8558. Mo'ylovli baliqlar qaysi oilaga mansub baliqlar urug'i? **Karpsimonlar oilasiga mansub baliqlar urug'i.**

8559. Mo'ylovli baliqlarning qaysi a'zosi yonida ikki juft mo'ylovi bor? **Og'zi yonida ikki juft mo'ylovi bor.**

8560. Mo'ylovli baliqlarning orqa suzgichida qaysi a'zolari, ba'zan silliq tikani bo'ladi? **Tishchalari.**

8561. Mo'ylovli baliqlarning ko'pchilik turlari qayerlarda qanday suvlarda yashaydi? **Afrika va Osiyoning tropik, Yevropaning iliq suvlarida yashaydi.**

8562. Mo'ylovli baliqlardan orol mo'ylovli baliq (B. brachy – cephalus)ning uzunligi necha m gacha? **1 m gacha.**

8563. Mo'ylovli baliqlardan orol mo'ylovli balig'i (B. brachy – cephalus)ning og'irligi qancha kg gacha? **20 kg gacha.**

8564. Mo'ylovli baliqlar necha yilda voyaga yetadi? **5 – 6 yilda voyaga yetadi.**

8565. Mo'ylovli baliqlar uvildiriq tashlash uchun qaysi oylarda qaysi daryolarga o'tadi? **May-iyul oylarida Amudaryo va Sirdaryoga o'tadi.**

8566. Mo'ylovli baliqlar nechtagacha tuxum qo'yadi? **540,7 mingtagacha tuxum qo'yadi.**





8567. Mo'ylovli hasharotlar, asosan, qaerlarda ko'proq uchraydi? **Iliq iqlimli rayonlarda ko'proq uchraydi.**

8568. Mo'ylovsiz hasharotlar birlamchi qanday hasharotlar turkumi? **Qanotsiz hasharotlar turkumi.**

8569. Mo'ylovsiz hasharotlarning qancha turi ma'lum? **200 dan ortiq turi ma'lum.**

8570. Mo'ylovsiz hasharotlarning tanasi uzunligi necha mm? **0,5 – 2 mm.**

8571. Mo'ylovsiz hasharotlarda qaysi a'zolar yo'q? **Mo'ylov, ko'z va qanot yo'q.**

8572. Mo'ylovsiz hasharotlarning qaysi oyoqlarida sezgi a'zolari bo'lib, paypaslagich vazifasini o'taydi? **Oldingi bir juft oyoqlarida sezgi a'zolari bo'lib, paypaslagich vazifasini o'taydi.**

8573. Mo'ylovsiz hasharotlarning qornida necha juftgacha rudiment qorinoyoqlari bor? **1 – 4 juftgacha rudiment qorinoyoqlari bor.**

8574. Mo'ylovsiz hasharotlar qayerlarda qanday hayot kechiradi? **Zax joylarda yashirnib hayot kechiradi.**

8575. Mo'ylovsiz hasharotlar nima yo'li bilan rivojlanadi? **Anamorfor yo'li bilan rivojlanadi.**

8576. Mo'ylovsiz hasharotlarning sobiq Ittifoqda qaerlarda nechta turi uchraydi? **Daraxt, to'nka va toshlar orasida 2 ta turi uchraydi.**

8577. Mo'ylovoyoqlilar qaysi sinfga mansub turkum (boshqa sistema bo'yicha kenja sinf)? **Qisqichbaqasimonlar sinfiga mansub turkum (boshqa sistema bo'yicha kenja sinf).**

8578. Mo'ylovoyoqlilarning yumshoq tanasi alohida yaproqlardan iborat nima bilan qoplangan? **Chig'anoq bilan qoplangan.**

8579. Mo'ylovoyoqlilarning mo'ylovga o'xshash ko'krak oyoqlari uychaning ochiladigan «tomcha»sidan chiqarilib, nima singari yoyiladi? **Elpig'ich singari yoyiladi.**

8580. Mo'ylovoyoqlilar qaysi a'zolari yordamida mayda filtratlarni tutib ovqatlanadi? **Mo'ylovoyoqlari yordamida mayda filtratlarni tutib ovqatlanadi.**

8581. Mo'ylovoyoqlilarning ayrim turlari, masalan, sakkulina tekinxo'r bo'lib, necha oyoqli qisqichbaqasimonlar tanasida parazitlik qiladi? **O'noyoqli qisqichbaqasimonlar tanasida parazitlik qiladi.**

8582. Mo'ylovoyoqlilarning qanday hayot kechirishi ta'sirida ko'p a'zolari (ko'zlari, antennalari, bosh va qorin bo'limlari) o'zgargan yoki reduksiyaga uchragan? **O'troq hayot kechirishi ta'sirida ko'p a'zolari (ko'zlari, antennalari, bosh va qorin bo'limlari) o'zgargan yoki reduksiyaga uchragan.**

8583. Mo'ylovoyoqlilarning qancha turi ma'lum? **1000 dan ortiq turi ma'lum.**

8584. Mo'ynali hayvonlar terisidan nima olinadigan yovvoyi va qo'lda boqiladigan sut emizuvchi hayvonlar? **Mo'yna olinadigan yovvoyi va qo'lda boqiladigan sut emizuvchi hayvonlar.**

8585. Mo'ynali hayvonlarning har xil turkumga mansub qancha turi bor? **100 dan ortiq turi bor.**

8586. Mo'ynali hayvonlardan sifatli mo'yna olish uchun qaysi fasllarda ovlanadi? **Kuz va qishda ovlanadi.**

8587. Mo'g'ul oti qayerda yetishtirilgan jaydari ot zoti? **Mo'g'ulistonda yetishtirilgan jaydari ot zoti.**

8588. Mo'g'ul oti qaerlar sharoitiga moslashgan, chidamli? **Cho'l va chala cho'l sharoitiga moslashgan, chidamli.**

8589. Mo'g'ul otining jussasi kattami yoki kichik? **Kichik.**

8590. Mo'g'ul otining tusi qanday? **Ko'k.**

8591. Mo'g'ul otining oyoqlari qanday? **Kalta va baquvvat.**

8592. Mo'g'ul otining qarchig'ayigacha balandligi necha sm? **127 – 130 sm.**

8593. Mo'g'ul otining tanasi qiya uzunligi necha sm? **134 – 135 sm.**

8594. Mo'g'ul otining ko'krak aylanasi necha sm? **154 – 160 sm.**

8595. Mo'g'ul otining pochasi aylanasi necha sm? **17 – 18 sm.**

8596. Mo'g'ul otidan qayerlarda, shuningdek, nimalar yetishtirishda foydalaniladi? **Salt minishda, yuk tashishda, mashq qildirishda, shuningdek, go'sht va sut yetishtirishda foydalaniladi.**

8597. Mo'g'ulistonda qancha qo'tos boqiladi? **500 ming bosh qo'tos boqiladi (2004).**

8598. Navaga qaysi oilaga mansub sovuqsevar dengiz balig'i? **Treskasimonlar oilasiga mansub sovuqsevar dengiz balig'i.**

8599. Navaga balig'ining tanasi uzunligi necha sm? **30 sm cha.**





8600. Navaga balig'ining og'irligi qancha g cha? **250 g cha.**

8601. Navaga balig'ining nechta yelka suzgich qanoti bor? **3 ta elka suzgich qanoti bor.**

8602. Navaga balig'ining nechta anal suzgich qanoti bor? **2 ta anal suzgich qanoti bor.**

8603. Navaga balig'i qaysi dengizlardan qaysi qo'ltiqchasigacha bo'lgan joylarda uchraydi? **Oq dengizdan Ob qo'ltiqchasigacha bo'lgan joylarda uchraydi.**

8604. Navaga balig'i necha yoshida jinsiy yetiladi? **2 – 4 yoshida jinsiy yetiladi.**

8605. Navaga balig'i qaysi oydan qaysi oygacha uvildiriq tashlaydi? **Dekabrdan fevralgacha uvildiriq tashlaydi.**

8606. Nayburun ko'rshapalak qaysi turkumning bir urug'i? **Ko'rshapalaklar turkumining bir urug'i.**

8607. Nayburun ko'rshapalakning nechta turi bor? **6 ta turi bor.**

8608. Nayburun ko'rshapalak qaysi arxipelaglarda ko'p? **Osiyo va Malayya arxipelaglarida ko'p.**

8609. Nayburun ko'rshapalakning burun teshigi qayerda joylashgan? **Teri o'simtaning uchida joylashgan.**

8610. Nayzabaliq, qilich baliq qaysi turkumga mansub baliq? **Olabug'asimonlar turkumiga mansub baliq.**

8611. Nayzabaliq nayzabaliqlar oilasining qanday vakili? **Yagona vakili.**

8612. Nayzabaliqning yuqori jag'i nimaga o'xshash? **Nayzaga yoki qilichga o'xshash (nomi shundan).**

8613. Nayzabaliqning tanasi qanday? **Tangachasiz**

8614. Nayzabaliqning uzunligi necha m cha? **4 m cha.**

8615. Nayzabaliqning og'irligi qancha kg cha? **500 kg cha.**

8616. Nayzabaliqning qanday qanoti yo'q? **Qorin suzgich qanoti yo'q.**

8617. Nayzabaliq soatiga necha km gacha suzadi? **130 km gacha. suzadi**

8618. Nayzabaliq yilning iliq davrlarida nechtagacha uvildiriq tashlaydi? **16 mln gacha uvildiriq tashlaydi.**

8619. Nayzabaliq necha yoshida jinsiy yetiladi? **5 – 7 yoshida jinsiy yetiladi.**

8620. Nayzabaliq qanday yashaydi? **Yakka-yakka yashaydi.**

8621. Nayzabaliq qaysi dengizlarda ko'p tarqalgan? **Tropik, subtropik va mo'tadil dengizlarda ko'p tarqalgan.**

8622. Nayzabaliq qaysi dengizlarda uchraydi? **Yapon, Qora, Azov, Boltiq, Barens dengizlarida uchraydi.**

8623. Nayzabaliq qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Boshoyoqli mollyuskalar, baliq va boshq. bilan ovqatlanadi.**

8624. Nayzadumlilar, qilichdumlilar qaysi sinfning kenja sinfi? **Bo'g'imoyoqlilar tipi merostomalilar sinfining kenja sinfi.**

8625. Nayzadumlilar, qilichdumlilar deyarli nima bo'lib ketgan dengiz hayvonlari? **Deyarli yo'q bo'lib ketgan dengiz hayvonlari.**

8626. Nayzadumlilarning tanasi uzunligi necha sm cha? **90 sm cha.**

8627. Nayzadumlilar, qilichdumlilar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

8628. Nayzadumlilarning bosh-ko'krakda necha juft oddiy, necha juft murakkab ko'zlari bor? **1 juft oddiy, 1 juft murakkab ko'zlari bor.**

8629. Nayzadumlilarning necha juft harakatlanuvchi, ovqat tutuvchi va maydalovchi hamda qornida necha juft oyoqlari bor? **6 juft harakatlantiruvchi, qornida 6 juft oyoqlari bor.**

8630. Naytishlilar qaysi hayvonlarning bir turkumi? **Sut emizuvchi hayvonlarning bir turkumi.**

8631. Naytishlilarning ko'pchiligi nima bo'lgan? **Qirilib ketgan.**

8632. Naytishlilarning hozirda yashayotgan bitta turining nomi nima? **Afrika naytishi.**

8633. Naytishlilarning nechta kenja turi bor? **3 ta kenja turi bor.**

8634. Naytishlilarning oziq tishi nechta? **4 – 5 ta.**

8635. Naytishlilarning tili ingichka va uzun bo'lib, tashqariga necha sm chiqadi? **30 sm chiqadi.**

8636. Naytishlilarning tanasi uzunligi necha m cha? **1,5 m cha.**

8637. Naytishlilarning dumi uzunligi necha sm cha? **50 sm cha.**

8638. Naytishlilarning og'irligi qancha kg cha? **82 kg cha.**

8639. Naytishlilarning oldingi oyog'ida nechta va orqa oyog'ida nechta barmog'i bor? **4 ta va 5 ta barmog'i bor.**

8640. Naytishlilarning qaysi a'zolari yaxshi rivojlangan? **Eshitish va hidlash a'zolari yaxshi rivojlangan.**





8641. Naytishlilar qayerlardan boshqa hamma joyda yashaydi? **Qalin o'rmonlardan boshqa hamma joyda yashaydi.**

8642. Naytishlilar qaysi oyoqlari bilan yerga uya qaziydi? **Oldingi oyoqlari bilan yerga uya qaziydi.**

8643. Naytishlilar qaysi oylarda nechta bola tug'adi? **Oktabr – noyabrda bir (kamdan-kam) bola tug'adi.**

8644. Nam ekvatorial o'rmonlarida yovvoyi cho'chqalar, to'ng'izlar nima deb ataladi? **Pekari deb ataladi.**

8645. Nalim qaysi oilaga mansub baliq? **Treskasimonlar oilasiga mansub baliq.**

8646. Nalim balig'ining tanasi uzunligi necha sm? **60 – 120 sm.**

8647. Nalim balig'ining og'irligi qancha kg? **4,5 – 32 kg.**

8648. Nalim balig'ining yelka suzgich qanoti nechta? **Ikkita.**

8649. Nalim balig'i qishda muz ostiga qancha uvildiriq tashlaydi? **33 mingdan 5 mln tagacha uvildiriq tashlaydi.**

8650. Nalim balig'i hayotining nechanchi yilida jinsiy yetiladi? **3 – 4-yilida jinsiy yetiladi.**

8651. Nalim balig'ining pastki jag'ida qaysi a'zosi bor? **Mo'ylovi bor.**

8652. Nandular, amerika tuyaqushlari qanday qushlar turkumi? **Ko'krak tojsuyaksiz qushlar turkumi.**

8653. Nandularning oyoqlari necha barmoqli? **Uch barmoqli.**

8654. Nandularning qanotlari rivojlangan, lekin nima qilolmaydi? **Ucholmaydi.**

8655. Nandularning nechta oilasi, necha turi bor? **1 ta oilasi, 2 ta turi bor.**

8656. Nandularning qaysinisi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **Darvin nandusi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

8657. Narval qaysi oilaga mansub dengiz sut emizuvchisi? **Delfinlar oilasiga mansub dengiz sut emizuvchisi.**

8658. Narvalning tanasi uzunligi necha m? **6,1 m.**

8659. Narvalning og'irligi qancha t gacha? **1 – 1,5 t gacha.**

8660. Narval erkaklari, ba'zan urg'ochilarining yuqori jag'i chap tomonda necha m gacha uzunlikda bitta tishi rivojlanadi (shuning uchun ba'zan, «bir shoxli» deb ataladi)? **3 m gacha.**

8661. Narvalning tishlari nechta? **Tishlari bo'lmaydi.**

8662. Narval qayerda yashaydi? **Arktikada yashaydi.**

8663. Narval ba'zan qayerlarda ham uchraydi? **Yangi Yer, Frans-Iosif yeri va Chukotka dengizida ham uchraydi.**

8664. Nasldor otlardan necha yil foydalaniladi? **18 – 20 yil va undan ortiq foydalaniladi.**

8665. Nasldor kurkalardan necha yoshgacha foydalaniladi? **3 yoshgacha foydalaniladi.**

8666. Nafas olish a'zolari suvda yashovchi qorinoyoqli mollyuskalarda bitta yoki necha juft patsimon jabra? **Bir juft patsimon jabra.**

8667. Nafas olish a'zosi quruqlik va ko'pchilik suv mollyuskalarida qaysi a'zo? **O'pka.**

8668. Nautiluslar qaysi sinfga kiruvchi umurtqasiz hayvonlarning urug'i? **Boshoyoqli mollyuskalar sinfiga kiruvchi umurtqasiz hayvonlarning urug'i.**

8669. Nautiluslar necha jabrali mollyuskalar kenja sinfining hozirgi vaqtda yashayotgan yagona guruhi? **To'rt jabrali mollyuskalar kenja sinfining hozirgi vaqtda yashayotgan yagona guruhi.**

8670. Nautiluslar qaysi okeanlarda tarqalgan? **Tinch va Hind okeanlarda tarqalgan.**

8671. Nautiluslar tanasi nimaga joylashgan? **Kameraga joylashgan.**

8672. Nektarxo'rlar, nektarkalar qaysi turkumning bir oilasi? **Sayroqi chumchuqsimonlar turkumining bir oilasi.**

8673. Nektarxo'rlar, nektarkalar nechta tuxum qo'yadi? **2 – 3 ta tuxum qo'yadi.**

8674. Nektarxo'rlar, nektarkalarning nechta turi ma'lum? **16 ta turi ma'lum.**

8675. Nektarxo'rlarning tanasi uzunligi necha sm? **9 – 25 sm.**

8676. Nektarxo'rlarning narimi yoki modasining patlari nisbatan chiroyli? **Narining patlari nisbatan chiroyli.**

8677. Nektarxo'rlarning nari qanday tovlanadi? **Olachipor, metalldek tovlanadi.**

8678. Nektarxo'rlarning modasi qanday rangli? **Yashil-kulrangli.**

8679. Nektarxo'rlarning ba'zi turlarida ikkala jins qanday tusda? **Bir xil tusda.**

8680. Nektarxo'rlarning nechta urug'i, nechta turi qayerlarda tarqalgan? **8 ta urug'i, 104 – 115 ta turi subtropik va tropik mintaqalar (Afrika, Janubiy Osiyo, Shimoli-sharqiy Avstraliya)da tarqalgan.**





8681. Nektarxo'rlar, asosan, nimalar bilan ovqatlanadi? **Gul nektari (nomi shundan), o'rgimchak va hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

8682. Nektarxo'rlar nimalar bilan ovqatlanadi? **Hasharotlar, nektar va mevalar bilan ovqatlanadi.**

8683. Nektarxo'rlar qaysi davrda ovqat qidirib ko'chib yuradi? **O'simlik gullagan davrda ovqat qidirib ko'chib yuradi.**

8684. Nektarxo'rlar qayerlarda yashaydi? **Buta va daraxtlarda yashaydi.**

8685. Nektarxo'rlar tog'larda necha m gacha balandlikda tarqalgan? **4000 m gacha balandlikda tarqalgan.**

8686. Nektarxo'rlarning ko'pchilik turlari chiroyli nima qiladi? **Sayraydi.**

8687. Nektarxo'rlar uyasini qayerga quradi? **Daraxtlar shoxining uchiga quradi.**

8688. Nektarxo'rlar nektarni qayerlarda so'radi? **Daraxt shoxiga va gulga qo'nib olib so'radi.**

8689. Nektarxo'rlarning qaysi turi qanot qoqib bir joyda ucha turib, nektar so'radi? **Kolibrlar.**

8690. Nektarxo'rlar o'simliklarni nima qilishda ishtirok etadi? **Changlatishda ishtirok etadi.**

8691. Nektarxo'rlarning nechta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan? **1 ta turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.**

8692. Nelma qaysi oilaga mansub baliq? **Lososlar oilasiga mansub baliq.**

8693. Nelma balig'i qaysi okean havzalarida tarqalgan? **Shimoliy Muz okeani havzalarida tarqalgan.**

8694. Nelma balig'ining tanasi uzunligi necha m gacha? **1,3 m gacha.**

8695. Nelma balig'ining og'irligi qancha kg cha? **50 kg cha.**

8696. Nelma balig'i necha yoshda jinsiy yetiladi? **8 – 10 yoshida jinsiy yetiladi.**

8697. Nelma balig'i qaysi oylarda qancha uvildiriq tashlaydi? **Sentabr – oktabrda 125 – 420 ming uvildiriq tashlaydi.**

8698. Nelma qaysi baliqlar bilan ovqatlanadi? **Koryushka, ryakushka kabi baliqlar bilan ovqatlanadi.**

8699. Nematodalar, yumaloq chuvalchanglar qaysi chuvalchanglar sinfi? **Tuban chuvalchanglar sinfi.**

8700. Nematodalarning gavdasi qanday shaklda? **Ipsimon, urchuqsimon yoki bochkasimon shaklda.**

8701. Nematodalarning uzunligi necha mkm dan necha m gacha? **80 mkm dan 8 m gacha.**

8702. Nematodalarning tanasi qanday yoki nima bilan qoplangan? **Yumshoq yoki haltasi kutikula bilan qoplangan.**

8703. Nematodalarning qaysi a'zolari yo'q? **Qon aylanish va nafas olish a'zosi yo'q.**

8704. Nematodalar qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

8705. Nematodalar qanday ko'payadi? **Tuxum qo'yib, kamdan-kam tirik tug'ib ko'payadi.**

8706. Nematodalarning nechtacha turi ma'lum? **500 mingtacha turi ma'lum.**

8707. Nematodalar chuchuk suv va dengizning 1 m² joyida qanchasi yashaydi? **1 mln dan ortig'i yashaydi.**

8708. Nematodalarning sezgi a'zolari nimalar? **Qil va suzgichlar.**

8709. Nemertinalar qanday hayvonlar tipi? **Umurtqasiz hayvonlar tipi.**

8710. Nemertinalarning tanasi uzunligi necha sm dan m gacha? **20 sm dan 30 m gacha.**

8711. Nemertinalar gavdasining oldingi uchida qaysi teshigi bor? **Og'iz teshigi bor.**

8712. Nemertinalar gavdasining keyingi uchida qaysi teshigi bor? **Chiqarish teshigi – anus bor.**

8713. Nemertinalar qon aylanish sistemasi qanday? **Yopiq.**

8714. Nemertinalarda qaysi a'zolar mavjud? **Sezish, ovqat hazm qilish a'zolari, qon aylanish va asab sistemasi, xemoretsentorlar, ko'z hamda muvozanat organistasotsistlar mavjud.**

8715. Nemertinlarda zaharli moddani qaysi a'zosining orqa qismidagi epiteley to'qima bezi ajratadi? **Xartumning orqa qismidagi epiteley to'qima bezi ajratadi.**

8716. Nemertinalarning Rossiyada qancha turi uchraydi? **100 dan ortiq turi uchraydi.**

8717. Nereidalar qaysi sinfga mansub jonivorlar oilasi? **Ko'p qilli chuvalchanglar sinfiga mansub jonivorlar oilasi.**

8718. Nereidalarning qancha turi ma'lum? **450 ga yaqin turi ma'lum.**





8719. Nereidalarning tanasi uzunligi necha sm gacha? **90 sm gacha.**

8720. Nereidalar qayerlarda keng tarqalgan? **Barcha dengizlarda, ayniqsa, tropik suvlarda keng tarqalgan.**

8721. Nereidalar qanday joylarda yashaydi? **Sohil yaqinidagi loyli joylarda yashaydi.**

8722. Nereidalar qayerda uchraydi? **Malayziya orollari tropik o'rmonlarining to'shalmasida uchraydi.**

8723. Nereidalar qachon suv yuzasiga qalqib chiqadi? **Ko'payish davrida ichi tuxumlarga to'lgan paytda suv yuzasiga qalqib chiqadi.**

8724. Nerpalar, halqali tyulenlar qaysi oilaga mansub kurakoyoqli sut emizuvchi? **Tyulenlar oilasiga mansub kurakoyoqli sut emizuvchi.**

8725. Nerpalar, halqali tyulenlarning tanasi uzunligi necha m cha? **1,5 m cha.**

8726. Nerpalar, halqali tyulenlarning og'irligi qancha kg cha? **70 kg cha.**

8727. Nerpalar, halqali tyulenlar necha yoshida voyaga yetadi? **5 – 6 yoshda voyaga yetadi.**

8728. Nerpalar, halqali tyulenlar qachon tug'adi? **Qish oxiri yoki bahorda tug'adi.**

8729. Necha bosh kichik guruh sovliqlar ichiga necha bosh qo'chqor qo'yiladi? **120 – 180 bosh kichik guruh sovliqlar ichiga 3 bosh qo'chqor (60 sovliqqa bir sinovchi qo'chqor hisobidan) qo'yiladi.**

8730. Necha haftalik o'rdak, g'oz va sesarka, kurka jo'jalarini go'shtga boqish ham broyler deyiladi? **O'rdak (8 haftalik), g'oz va sesarka (12 haftalik), kurka (19 haftalik) jo'jalarini go'shtga boqish ham broyler deyiladi.**

8731. Nechanchi yilda qaysi ingliz biologi sistematikaning asosiy birinchi – tur tushunchasini birinchi marta fanga kiritgan? **1693-yilda J. Rey kiritgan.**

8732. Nechanchi yilda qaysi shved naturalisti "Tabiat sistemasi" asarida qancha turdan ortiqroq hayvonlarga tavsif bergan? **1735-yilda K. Linney 4200 turdan ortiqroq hayvonlarga tavsif bergan.**

8733. Nechanchi yilda akad. Steller qaysi orollarda sirenlarning boshqa yirik turini topgan? **1741-yilda Komandor orollarida, bu hayvon uning nomi bilan steller sigiri deb atalgan.**

8734. Nechanchi yilda oxirgi steller sigiri, ya'ni uni Steller topganidan so'ng atigi necha yil o'tgach, otib o'ldirilgan? **1768-yilda ya'ni 27 yil o'tgach, otib o'ldirilgan.**

8735. Nechanchi yilda qaysi olim sporalilarni topgan? **1879-yilda P. Leykart topgan.**

8736. Nechanchi yilda qaysi fransuz olimi "hayvonot dunyosi va uning klassifikatsiyasi" asarida hayvonlarni nechta asosiy shoxga ajratgan? **1817-yilda J. Kyuve 4 ta shoxga ajratgan.**

8737. Nechanchi yilda qaysi fransuz zoologi 4 ta shoxga tip nomini bergan? Ular qaysi tiplar? **1825-yilda A. Blenvil. Ular quyidagilar: nurlilar, bo'g'imlilar, mollyuskalar, umurtqalilar.**

8738. Nechanchi yilda qaysi ingliz zoologi J. Lamark va J. Kyuve sistemasini yanada takomillashtirib, nurlar tipidan g'ovaktanlilar tipini ajratib chiqargan? **1826-yilda P. Grant nurlar tipidan g'ovaktanlilar tipini ajratib chiqargan.**

8739. Nechanchi yilda qaysi ingliz tabiatshunosi, Ch. Darvin safdoshi va ta'limotining davomchisi, London Qirollik jamiyati kotibi (1871 – 1880), prezidenti (1883 – 1885) meduzalar bilan poliplar o'rtasida bog'liqlik borligini isbotlab bergan? **1849-yilda Geksli, Xaksli Tomas Genri (1825.4.5 – 1895.29.6) isbotlab bergan.**

8740. Nechanchi yilda qayerda birinchi marta filloksera topilgan? **1854-yilda Shimoliy Amerikada birinchi marta filloksera topilgan.**

8741. Nechanchi yilda qaysi rus zoologi pedogenez (yunon paidos – bola va ... genez) – partenogenez shakllaridan biri, bir qancha umurtqasiz hayvonlar lichinkasida urug'lanmagan tuxum hujayradan yangi naslning rivojlanishini yong'oq yasarlar oilasiga mansub 2 qanotli hasharotlarda kashf etgan? **1862-yilda N. P. Vagner kashf etgan.**

8742. Nechanchi yillarda qaysi nemis olimlari renapitulyatsiya va asosiy biogenetik qonunni asoslab berishgan? **1864-yilda F. Myuller va 1866-yilda E. Gekkel asoslab berishgan.**

8743. Nechanchi yilda qaysi nemis zoologi hayvonlarni 9 tipga bo'lgan? **1874-yilda K. Klaus.**





8744. Nechanchi yilda qaysi nemis olimi ikkilamchi og'izlilar terminini hayvonlar tasnifi (klassifikatsiyasi)ni kiritgan? **1908-yilda G. Grobbend tasnifi (klassifikatsiyasi)ni kiritgan.**

8745. Nechanchi yilda qaysi rus olimi dizenteriya amyobasini kashf etgan? **1875-yilda F. A. Lesh kashf etgan.**

8746. Nechanchi yillarda qaysi olimlar stafilokokkni birinchi bo'lib aniqlashgan? **1878-yilda P. Kox va 1880-yilda L. Paspedlar aniqlashgan.**

8747. Nechanchi yillarda Bushuyev qoramol zotini yaratishni qaysi rus olimi jaydari (zebusimon) sigirlarni golland zotining buqasi bilan, so'ngra uni shvits zoti bilan murakkab chatishtirish orqali boshlab bergan? **1903–1918 -yillarda M. M. Bushuyev boshlab bergan.**

8748. Nechanchi yillarda Budyonniy ot zoti qaysi ot zoti bilan chatishtirib olingan? **1920 – 1948-yillarda "Don" ot zotini "Chistoqrov" ot zoti bilan chatishtirib olingan.**

8749. Nechanchi yilda qaerda birinchi marta gigantopiteklarning suyak qoldiqlari (pastki va yuqori katta oziq tishlari)ni erta pleyston qatlamlarida Gollandiya olimi Kengsvald topgan? **1935-yilda Janubiy Xitoyda.**

8750. Nechanchi yilda qayerlik olim odam gavdasida moddalar almashinuvining miqdoriy hajmini o'zi ustida tekshirib ko'rmoqchi bo'lgan? **1614 yilda italiyalik S. Santarno.**

8751. Nechanchi yildan noyob va yo'qolib borayotgan turlarning Xalqaro Qizil kitobi chiqarildi va yo'qolib ketgan, ketayotgan turlarning hisobi olib boriladi? **1943-yildan.**

8752. Nechanchi yilda qaysehi rus olimi pogonoforlar tipini kashf etgan? **1955-yilda A. V. Ivanov kashf etgan.**

8753. Nechanchi yildan Grenlandiya kiti, janub kiti va bo'z kitlar muhofazaga olingan? **1957-yildan Grenlandiya kiti, janub kiti va bo'z kitlar muhofazaga olingan.**

8754. Nechanchi yilda qaysi Xitoy olimlari Guansi viloyatidagi g'orlardan gigantopiteklarning uchta butun pastki jag'lari va juda ko'p tishlarini topishgan? **1959-yilda Pey Vek Chjun va Li topishgan.**

8755. Nechanchi yildan ko'k kit muhofazaga olingan? **1967-yildan ko'k kit muhofazaga olingan.**

8756. Nechanchi yildan O'zbekiston parrandachilik xo'jaliklarida lomann-braun krosel tovuqlarining tuxumlari keltirilib ko'paytirilmoqda? **2003-yildan ko'paytirilmoqda.**

8757. Nechanchi asrning oxirlarida kanareykani ispanlar qaysi orollardan F.Yevropaga olib kelishgan? **XV asrning oxirlarida Kanar orollaridan Yevropaga olib kelishgan. Kanareyka shu orol nomi bilan ataladi.**

8758. Nechanchi asr boshlarida qaysi zavodda Orlov yo'rtoqisi yetishtirilgan? **XIX asr boshlarida Voronej viloyatidagi Xrenovo ot zavodida Orlov yo'rtoqisi yetishtirilgan.**

8759. Nechanchi asrda ixtiologiya mustaqil fan sifatida zoologiyadan ajralib chiqqan? **XIX asrda ajralib chiqqan.**

8760. Nechanchi asr boshlarida filloksera qayerdagi tokzorlarda tarqalgan? **XX asr boshlarida Yevropadagi tokzorlarda tarqalgan.**

8761. Nechanchi asr boshlarida gagalar pari uchun ko'plab ovlash natijasida soni kamayib ketgan edi? **XX asr boshlarida, himoya choralari ko'rilishi munosabati bilan soni va areali tiklangan.**

8762. Nechta urug'dan iborat qurbaqasimon baqalar kenja sinfi qaerlarda tarqalgan? **Ikkita urug'dan iborat. Kamerun va Mozambikda** tarqalgan.

8763. Nechta tovuqqa 1 ta xo'roz to'g'ri keladi? **8 – 12 ta tovuqqa1 ta xo'roz to'g'ri keladi.**

8764. Nechta tur umurtqali va nechta tur umurtqasiz hayvonlarga kiradi? **1222 ta tur umurtqali va 1936 ta tur umurtqasiz hayvonlarga kiradi.**

8765. Nil timsohining uzunligi necha m gacha? **7 m gacha.**

8766. Nil timsohi qayerlarda tarqalgan? **Tropik Afrika daryo, ko'l va botqoqliklarida tarqalgan.**

8767. Nilgau qaysi oilaga mansub juft tuyoqli hayvon? **Quvushshoxlilar oilasiga mansub juft tuyoqli hayvon.**

8768. Nilgau hayvoni qaysi yarim orolda tarqalgan? **Hindiston yarim orolida tarqalgan.**

8769. Nilgau erkagining tanasi uzunligi necha m? **2 m.**

8770. Nilgau hayvonining og'irligi (erkagini) qancha kg? **200 kg.**

8771. Nilgauning homiladorlik davri necha oy? **7 – 8 oy.**

8772. Nilgau yiliga nechta bola tug'adi? **2 ta bola tug'adi.**

8773. Nima uchun odimchi deyiladi? **Qurtlari 2 juft qorin oyoqlari yordamida odimlab harakatlanadi (nomi shundan).**





8774. Nima uchun orangutanlar soni juda kamayib ketgan? **O'rmonlarning kesilib ketishi va brakonverlar ovi tufayli.**

8775. Nima uchun kurak burun – balchiqchi deyiladi? **Tumshug'i kurakka o'xshash bo'lganligi uchun.**

8776. Nima uchun karkidon qushlar deb ataladi? **Chunki tumshug'i keskin pastga egilganligi, uning ustida katta shoxsimon o'simta borligi uchun.**

8777. Nima uchun kapachi qushlar deyiladi? **Butalar va egilgan daraxt shoxchalari tagiga ikki tomoni ochiq kapa quradi. Kapa kapachi qushlarning qo'shilish yeridir. Kapaning atrofini toshchalar, chig'anoqlar, rangli qo'ng'izlar, mevalar, gullar bezaydi.**

8778. Nima uchun qarqurlar deyiladi? **Chunki urchishi davrida sayrayotgan narining qulog'i bir necha sekund bitib, tamoman eshitmasdan qoladi (nomi ham shundan).**

8779. Nima uchun burchaktishlar deb ataladi? **Tanglay tishlari burchak shaklda qayrilganligi uchun.**

8780. Nima uchun bo'ritish ilonlar deb ataladi? **Chunki tishlari bo'ritishnikiga o'xshaganligi sababli «bo'ritish» deb ataladi.**

8781. Nima uchun dengiz ilonlari sho'ng'iganda burniga suv kirmaydi? **Chunki burun teshiklari qopqoqli, shuning uchun sho'ng'iganda burniga suv kirmaydi.**

8782. Nima uchun qiljag'lilar deyiladi? **Chunki boshidagi o'roqsimon qili (nomi shundan) yordamida o'ljasini tutadi.**

8783. Nima uchun «burmabo'yin» qush deyilgan? **Burmabo'yin qush biror narsadan qo'rqsa, boshi bilan bo'ynini parmadek buraydi, shuning uchun u «burmabo'yin» deyilgan.**

8784. Nima uchun Mirzoqush deyiladi? **Boshida orqa tomonga qarab o'sgan bir necha uzun pati bor (mirzolarning g'oz patqalamini quloq orqasiga qo'yib yurishini eslatadi, nomi shundan).**

8785. Nima uchun bolg'abaliq deyiladi? **Chunki boshining ikki yonidagi o'simtasi bolg'aga o'xshaydi (nomi shundan olingan).**

8786. Nima uchun bolg'abaliq ancha uzoqni ko'radi? **Chunki yirik ko'zlari boshidagi o'simtalar ustida joylashganligidan.**

8787. Nima uchun vyunlar kislorod tanqisligini sezishmaydi? **Chunki ular havo yutib, uni ichagi orqali o'tkazishadi.**

8788. Nima uchun soyaqush deb ataladi? **Kunduzi oftobdan qochib, o'simliklar ostida yuradi, shuning uchun «soyaqush» deb ataladi.**

8789. Nima uchun jish bola ochuvchi qush bolalarini o'z tanasi bilan isitib, ovqatlantirib turadi? **Chunki bunday qush bolalarining oyoq muskullari, sezish organlari yaxshi rivojlanmagan, tana haroratining o'zgaruvchan bo'lganligidan.**

8790. Nima uchun igna junlilar deyiladi? **Chunki orqasidagi junlari orasida uzunligi 2,5–11 sm keladigan o'tkir ignasimon qillari borligi uchun junglilar deyiladi.**

8791. Nima uchun zaytunchiporilon degan nom berilgan? **Zaytun moyi rangiga o'xshaganligi uchun zaytunchiporilon deb nom berilgan.**

8792. Nima uchun ilonbosh deyiladi? **Ilon boshiga o'xshaganligi uchun ilonbosh deyiladi.**

8793. Nima uchun yo'lbars suvilon deyiladi? **Chunki terisining rang-barangligi yo'lbars terisiga o'xshashligi uchun unga yo'lbarssuvilon deyiladi.**

8794. Nima uchun zihrlilar deb nomlangan? **Zihrlilar bo'yi past, beo'xshov hayvon, gavdasining usti va biqini suyak plastinkalar va shox qasqon (zihr)lar deb ataluvchi kamar bilan qoplangan. Shuning uchun zihrlilar deb nomlangan.**

8795. Nima uchun chayon pashshalar deyiladi? **Qonining orqa uchi chayonnikiga o'xshash (nomi shundan).**

8796. Nima uchun ninaoyoq yapaloqqush deyiladi? **Chunki barmoqlari qattiq ninasimon qil bilan qoplangan (nomi shundan).**

8797. Nima uchun qayin sichqonlar deyiladi? **Chunki tashqi ko'rinishi sichqonlarga o'xshash.**

8798. Nima uchun oq kapalak? **Rangi, asosan, oq (nomi shundan).**

8799. Nimasiz yakkaxon qisqichbaqalar qorni bilan qorinoyoqli mollyuskalarning bo'sh chig'anoq yoki bombuk poyasi bo'lakchalari ichiga joylashadi? **Qattiq qoplagichsiz.**

8800. Nimfalidlar qachongi kapalaklar oilasi? **Kunduzgi kapalaklar oilasi.**

8801. Nimfalidlar qanotlari yoyilganda necha sm? **2,5 – 8 sm.**





8802. Nimfalidlar qanotlarining ustki tomoni qanday naqshindor? **Chiroyli naqshindor.**

8803. Nimfalidlar qurtlarining tanasida qanday o'simtalar bo'ladi? **Pixlari va kutikulyar o'simtalari bo'ladi.**

8804. Nimfalidlarning turlari qaysi mintaqalarda, ayniqsa, xilma-xil? **Tropik va subtropik mintaqalarda, ayniqsa, xilma-xil.**

8805. Nimfalidlarning qancha turi uchraydi? **2000 ga yaqin turi uchraydi.**

8806. Nimfalidlarning kapalaklari qanday uchadi? **Yaxshi uchadi.**

8807. Nimfalidlarning yosh qurtlari o'rgimchak to'riga o'xshash uchlarida qanday bo'lib yashaydi? **G'uj bo'lib yashaydi.**

8808. Nimfalidlar nimalar bilan ovqatlanadi? **O'tlar, ba'zan daraxtlar bargi bilan ovqatlanadi.**

8809. Nimfalidlar orasida qaysilari ko'pchilikka tanish? **Sadafdorlar, tasmalilar, shashkalilar, qichitqon o't kapalaklari, turli rangli kapalaklar, motamsaro kapalaklar, admiral, gelikonidlar va boshq.**

8810. Ninaoyoq yapaloqqush qayerlarda tarqalgan? **Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda tarqalgan.**

8811. Ninaoyoq yapaloqqush qayerlarda uchraydi? **Rossiya Federatsiyasining Primore va Xabarovsk o'lkalari janubida uchraydi.**

8812. Ninaoyoq yapaloqqush qayerlarda yashaydi? **Aralash o'rmonlarda yashaydi.**

8813. Ninaoyoq yapaloqqush qaysi turkumga mansub parranda? **Yapaloqqushlar turkumiga mansub parranda.**

8814. Ninaoyoq yapaloqqush tanasining uzunligi necha sm cha? **30 sm cha.**

8815. Ninaoyoq yapaloqqush qayerga nechta tuxum qo'yadi? **Yerga 3 – 5 ta tuxum qo'yadi.**

8816. Ninachilar qanday qanotli kenja turkumga bo'linadi? **Teng qanotli va tengsiz qanotli kenja turkumga bo'linadi.**

8817. Ninachilar hasharotlarning nimasi? **Turkumi.**

8818. Ninachilar nechta kenja turkumga bo'linadi? Ular qaysilar? **3 ta turkumga bo'linadi. Ular quyidagilar: teng qanotlilar, har xil qanotlilar, aralash qanotlilarga bo'linadi.**

8819. Ninachilarning qancha turi bor? **4500 ga yaqin (boshqa ma'lumotlarga ko'ra, 3000 dan ortiq) turi bor.**

8820. Ninachilarning qanday ko'zlari harakatchan? **Fasetkali ko'zlari, boshining katta qismini egallaydi.**

8821. Ninachilar, asosan, qayerlarda uchraydi? **Asosan, tropik hududlarda, suv havzalari yaqinida uchraydi.**

8822. Ninachilar qaysi hududlardan tashqari hamma joylarda tarqalgan? **Arktika va qurg'oqchilik hududlaridan tashqari.**

8823. Ninachilar o'ljasini qayerda tutadi? **Havoda tutadi.**

8824. Ninachilar qayerda urug'lanadi? **Havoda urug'lanadi.**

8825. Ninachilar tuxumlarini qaerlarga qo'yadi? **Suv tubiga yoki suvdagi o'simliklarga qo'yadi.**

8826. Ninachilarning lichinkasi qayerda yashaydi? **Suvda yashaydi.**

8827. Ninachilarning lichinkalari qanday? **Yirtqich.**

8828. Ninachilar lichinkalarining qaysi a'zolari o'ljasini tutuvchi a'zo – niqobga aylangan? **Og'iz a'zolari o'ljasini tutuvchi a'zo – niqobga aylangan.**

8829. Ninachilar qaysi a'zolari yordamida nafas oladi? **Maxsus tashqi jabralar (dum jabralari) yoki orqa ichak o'simtalari (rektal jabralar) yordamida nafas oladi.**

8830. Ninachilar o'ljasini qaysi a'zosi bilan ushlaydi? **Uzaygan ostki labi bilan ushlaydi.**

8831. Ninachilarning tanasi uzunligi necha sm? **0,14 – 12 sm**

8832. Ninachilarning ko'zi kattami yoki kichik? **Ko'zi katta.**

8833. Ninachilarning mo'ylovi qanday? **Mo'ylovi qisqa, ko'zga zo'rg'a ko'rinadi.**

8834. Ninachilarning qanoti nech juft? **2 juft.**

8835. Ninachilarning qanoti shakli qanday? **Pardasimon.**

8836. Ninachilarning qanoti necha sm gacha? **9 sm gacha.**

8837. Ninachilarning O'zbekiston hududida qancha turi tarqalgan? **O'nlab turi tarqalgan.**

8838. Ninachilarning tog'li hududlarda O'rta Osiyo uchun qaysilari ko'p uchraydi? **Epdemik, yirik ninachilar kordulegaster; vohalar va tog' oldi hududlarida shayinli ninachilar ko'p uchraydi.**





8839. Ninachilar qaysi jonivorlar bilan ovqatlanadi? **Pashsha, chivin, boshqa hasharotlar bilan ovqatlanadi.**

8840. Ninachilarning lichinkalari nimalar bilan ovqatlanadi? **Qon so'ruvchi hasharotlarning suvdagi lichinkalari bilan ovqatlanadi.**

8841. Ninachilarning lichinkalari qaysi jonivorlar uchun ovqat? **Baliqlar uchun ovqat.**

8842. Nozemalar qaysi tipga mansub bir hujayralilar urug'i? **Mikrosporidiyalar tipiga mansub bir hujayralilar urug'i.**

8843. Nozemalarning qancha turi bor? **120 ga yaqin turi bor.**

8844. Nozemalarning asalari nozemasi asalarida nima paydo qiladi? **Ichburug' paydo qiladi, arilar oilasining yoppasiga qirilib ketishiga sabab bo'ladi.**

8845. Nor nandu qushining bo'yi necha m ga yetadi? **1,5 m ga yetadi.**

8846. Nor nandu qushining qaysi a'zosida oqish dog'i bor? **Ko'kragida oqish dog'i bor.**

8847. Nor nandu qushining modasi nechtagacha tuxum qo'yadi? **20 dan 40 tagacha tuxum qo'yadi.**

8848. Norkalar qaysi oilaga mansub yirtqich sut emizuvchilar? **Suvsarsimonlar oilasiga mansub yirtqich sut emizuvchilar.**

8849. Norkalarning nechta turi bor? **Ikkita turi bor.**

8850. Norkalarning 2 ta turi bo'lib, ularning nomlari nima? Ular qayerlarda yashaydi? **Yevropa norkasi (Yevropa, sobiq Ittifoqning Yevropa qismida va Janubi-g'arbiy Sibirdagi tekisliklarda tarqalgan) va amerika norkasi Shimoliy Amerikada yashaydi.**

8851. Norkalar qayerlarda iqlimlashtirilgan? **Sobiq Ittifoqning Yevropa qismida, Sibir va Uzoq Sharqda iqlimlashtirilgan.**

8852. Norkalarning gavdasi qanday? **Cho'ziq, egiluvchan.**

8853. Norkalar (Yevropa norkalari)ning tanasi uzunligi necha sm? **45 sm cha.**

8854. Norkalar (Yevropa norkalari)ning dumi necha sm cha? **20 sm cha.**

8855. Norkalar (Amerika norkalari) biroz qanday (maydaroqmi yoki yirikroqmi)? **Yirikroq.**

8856. Norkalar (Amerika norkalari)ning oyoqlari qanday (uzunmi yoki kalta)? **Kalta.**

8857. Norkalar (Amerika norkalari)ning barmoqlari orasidagi suzgich parda yaxshi rivojlanganmi yoki yomon? **Yaxshi rivojlangan.**

8858. Norkalar (Amerika norkalari)ning mo'ylovlari qanday? **Qalin.**

8859. Norkalarning mo'ynasi qanday tusda tovlanadi? **Qo'ng'ir tusda tovlanadi.**

8860. Norkaning homiladorlik davri necha sutka? **36 – 80 sutka.**

8861. Norkalar qayerlarda yashaydi? **O'rmonga yaqin muzlamaydigan daryolarda, ko'l va botqoqliklarda yashaydi.**

8862. Norkalar uya nima qiladi yoki qanday uyadan foydalanadi? **Uya qaziydi yoki boshqa hayvonlar (ondatra, suv kalamushi) uyasidan foydalanadi.**

8863. Norkalarning qayerlarda qanday rangdagilari ko'paytirilmoqda? **Mo'ynachilik xo'jaliklarida turli rangdagilari ko'paytirilmoqda.**

8864. Norkalarning tanasi qanday? **Xipcha, cho'ziq.**

8865. Norkalarning barmoqlarida suzgich nimalari bor? **Pardalari bor.**

8866. Norkalarningning yungi qanday? **Ranggi qanday? Qalin, yaltiroq. Kulrang.**

8867. Norkalarning uzunligi, dumi necha sm gacha? **45 sm gacha, 20 sm gacha.**

8868. Noqulay sharoit vujudga kelganda siklop nimalarga o'ralib, sista hosil qiladi? **Qobiqqa o'ralib, sista hosil qiladi.**

8869. Nursimonlar, nurlilar qaysi sinfga mansub bir hujayrali hayvonlar kenja sinfi? **Soxta oyoqlilar sinfiga mansub bir hujayrali hayvonlar kenja sinfi.**

8870. Nutriya, suv buhri qaysi oilaga mansub hayvon? **Nutriyasimonlar oilasiga mansub hayvon.**

8871. Nutriyaning tanasi uzunligi necha sm gacha? **60 sm gacha.**





8872. Nutriyaning dumi necha sm gacha? **45 sm gacha.**

8873. Nutriyaning og'irligi qancha kg gacha? **8 kg gacha.**

8874. Nutriya qaysi mintaqalarida tarqalgan? **Janubiy Amerikaning tropik va subtropik mintaqalarida tarqalgan.**

8875. Nutriya qayerlarda akklimitizatsiya qilingan? **Janubi-G'arbiy Yevropa, Zakavkazye va O'rta Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston janubida akklimitizatsiya qilingan.**

8876. Nutriya bir yilda necha marta nechta qanday bola tug'adi? **Ikki marta 2–8 ta (odatda, 5 ta) ko'zi ochiq, junli bola tug'adi.**

8877. Nutriya nimalari uchun ovlanadi? **Mo'ynasi va go'shti uchun ovlanadi.**

8878. Nutriya qayerlarda yashaydi? **Suvda va suv bo'yida yashaydi.**

8879. Nutriya suvda yaxshi nima qiladi? **Suzadi va sho'ng'iydi.**

8880. Nutriya qaysi paytlari faol? **Kechasi va oqshomlari faol.**

8881. Nutriya nimadan in quradi? **Botqoq o'simliklari poyasidan in quradi.**

8882. Nutriya qanday bola tug'adi? **Junli bola tug'adi.**

8883. Nyu-Xempshir tovuq zoti nimalari uchun boqiladi? **Go'shti va tuxumi uchun boqiladi.**

8884. Nyu-Xempshir tovuq zoti qachon qayerda qanday yo'l bilan yaratilgan? **XX asr boshlarida AQSh (Nyu-Xempshir shtati)da Ped-ayland tovuq zotidan tanlash yo'li bilan yaratilgan.**

8885. Nyu-Xempshir tovuq zoti nechanchi yilda Amerika mukammallik standartiga kiritilgan? **1935-yilda kiritilgan.**

8886. Nyu-Xempshir tovuq zoti xo'rozlarining og'irligi qancha kg? **3,2 – 3,5 kg.**

8887. Nyu-Xempshir tovug'ining og'irligi qancha kg? **2,6 – 2,7 kg.**

8888. Nyu-Xempshir tovuq zoti yiliga o'rtacha nechta tuxum qiladi? **180 – 190 ta tuxum qiladi.**

8889. Nyu-Xempshir tovuq zoti tuxumining og'irligi qancha g? **60 – 62 g.**

8890. Nyu-Xempshir tovuq zoti qaysi mamlakatlarda qaysi zot bilan chatishtirib, yiliga necha dona tuxum qiladigan jigarrang patli krosslar yaratilgan (loman - braun, xay - layn va boshq.)? **Germaniya, Gollandiya, AQSh da Leggorn zoti bilan chatishtirib, yiliga 280 – 310 dona tuxum qiladigan jigarrang patli krosslar yaratilgan.**

8891. Nyu – Xempshir tovuq zoti O'zbekiston parrandachilik xo'jaliklarida qaysi tovuqlarning tuxumlari keltirilib ko'paytirilmoqda (2003)? **Lomann – braun krossi tovuqlarining tuxumlari keltirilib ko'paytirilmoqda.**





## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Abdurahmanov A., Pojdestvenskiy K. M. Ipak qurti naslchiligi va urug'chiligi. – T., 1991.
2. Аяла Ф., Кайгар Ж. Современная генетика, т. 1-2 – М., 1988.
3. Акапова И. Е. Важнейшие отечественный лекарственный растения и их применения. – Т.: Медицина, 1986.
4. Amirov A. Q. va boshq. Chorvachilik. – T., 1980.
5. Amfibiyalar va reptiliyalar. – T., 1969.
6. Asqarov I. P., To'xtaboev N. X., G'ofurov K. F. Kimyo. 8-sinf. – T.: Sharq, NMK, 2010.
7. Baliqlar va tuban xordalilar. – T., 1979.
8. Богданов О. П. Педкие животные Узбекистана. – Т., 1992.
9. Вирусы и микробы в жизни растений [сб. ст.]. – Кишинев, 1981.
10. Вирусные болезни. – М., 1967.
11. Вирусные болезни селекохозяйственных. – Л., 1974.
12. Генетика и наследственност. Сб. статей: Per. s frants. – M., 1987.
13. Догел В. Л. Зоология безпозвоночных. – М., 1981.
14. Ermoxin V. N., Karimov K. K. O'zbekiston qovunlari. – T., 1969.
15. Жизнь животных, в 6-ти томах, т.3. – М., 1974.
16. Захидов Т. З. Природа и животный мир Средней Азии, т. 1-2. – Т., 1969-1971.
17. Zikiryaev A., To'xtaev A., Azimov I., Sonin N. Biologiya. Sitologiya va genetika asoslari. 9-sinf. – T.: Yangiyo'l matbaa servisi, 2010.
18. Zoologiya entsiklopediyasi (Qushlar). – T., 1957.
19. Zokirov M. va boshq. Qorako'lchilik. – T., 1983.

20. Yilqichilik. – T., 1985.

21. Каракулова А. Б. Яководство Памира. – Душанбе, 1993.

22. Mavlonov O. Biologiya. – T., 2003.

23. Mavlonov O. Zoologiya. 7-sinf. – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2009.

24. Маманов С. Н., Покровский А. А. Прямоароматические растения. – М.: Агропромиздат, 1991.

25. Метюз П. Вирусы растения, пер. с англ. – М., 1973.

26. Mavlonov O., Xurramov Sh. Umurtqasizlar zoologiyasi. – T., 1998.

27. Nosirov U. N. Qoramolchilik. – T., 2001.

28. Parmonov M. va boshq. Epizootologiya. – T., 1996.

29. Помытко В. Н., Александров В. Н. Учебная книга кролиководства. 2 изд. –М., 1985.

30. Pojdestvenskiy K. M., Toirov Z. T. Tut ipak qurti biologiyasi. – T., 1965.

31. Sut emizuvchilar. – T., 1960.

32. Turaqulov E. H. Molekulyar biologiya. – T., 1994.

33. Форсыханов С. И. Гиссарская порода овец. – Душанбе, 1981.

34. Xoliqov P. Biologiya. – T., 1996.

35. Shopo'latov J. va boshq. Epizootologiya va mikrobiologiya asoslari. – T., 1991.

36. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. I – XII jildlar. – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000 – 2005.

37. G'anieva M. P. Tut ipak qurti kasalliklari va zararkunandalari. – T., 1963.

38. Иойриш Н. П. Пчелы – крылатые фармацевты. – Москва: Наука, 1986.

39. Бароян О. В. Закономерности и парадоксы. Раздумая об эпидемиях и иммунитете, о судьбах ученых и их труде. – Москва: Знание, 1996.



# M U N D A R I J A


| Savollar-javoblar | | Betlar |
|---|---|---|
| So'zboshi | | 3-6 |
| A | 1-1125 | 7-74 |
| B | 1126-2788 | 74-174 |
| D | 2789-3404 | 174-210 |
| E | 3405-3810 | 210-232 |
| F | 3811-3996 | 232-243 |
| G | 3997-4444 | 243-269 |
| H | 4445-4664 | 269-285 |
| I | 4665-5151 | 285-314 |
| J | 5152-5388 | 314-328 |
| K | 5389-7324 | 328-438 |
| L | 7325-7851 | 438-466 |
| M | 7852-8597 | 466-506 |
| N | 8598-8891 | 506-524 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati | | 525 |

YUSUF MAHMUDOV

# ZOOLOGIYADAN
# 8888
# SAVOLGA JAVOB

*Birinchi kitob*

Muharrir *A. Radjabov*
Badiiy muharrir *B. Muhammedov*
Texnik muharrir *B. Irisboyev*
Musahhih *D. Ismoilova*
Sahifalovchi *D. Akromov*

Lits. AI № 111. Bosishga 16.01. 2017 yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$. Hajmi 33,0 b. t. Adadi 2000 nusxa.
Shartnoma № 49. Buyurtma № 119/5.

«YANGI NASHR» nashriyoti.
100115, Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi, 1-uy

Original maket «Bilik-Print» MChJ matbaa korxonasi
100115, Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi, 1-uy

«ADAD PLYUS» MChJ matbaa bosmaxonasi
Toshkent sh., Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.



ISBN 978-9943-22-279-3